O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI
NAVOIY VILOYATI OILA VA XOTIN-QIZLAR BOSHQARMASI

2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot” **yili hamda** *“Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni”ga bag‘ishlab tashkil etilgan*

“GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT”

mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

T O‘P L A M I

NAVOIY-2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI
NAVOIY VILOYATI OILA VA XOTIN-QIZLAR BOSHQARMASI

2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot”* yili hamda *“Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni”ga bag‘ishlab tashkil etilgan

“GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT”

mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

T O‘P L A M I

NAVOIY-2025

“Gender tenglik va ijtimoiy taraqqiyot” *mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ham ayni dolzarb masalalarga hamda 11-fevral-“Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni”ga bag‘ishlab o‘tkazildi.*

Navoiy davlat universiteti
14-mart, 2025-yil

Tashkiliy qo‘mita raisi: *Navoiy davlat universiteti rektori, i.f.d., professor M.B.Kalonov*

Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari: *Navoiy viloyati hokimi o‘rinbosari M.T.Mamadiyorova*

Tashkiliy qo‘mita a’zolari: *Nav.DU birinchi prorektori: B.B.Bobonazarov*
Nav.DU prorektori b.f.n., dots. S.O.Xo‘jjiyev
Nav.DU prorektori p.f.d., prof. D.H.Narzikulova
Nav.DU Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, f.f.f.d (PhD), dots. N.X.Tursunova

Mas’ul muharrirlar: *f.f.f.d. (PhD), dots. N.X.Tursunova*
g.f.f.d. (PhD), dots. N.J.Muxammedova

Tahrir hay’ati: *t.f.d., prof. Sh.N. Nasirova*
f.f.n., dots. S.Jumayeva
g.f.f.d. (PhD), dots. N.J.Muxammedova

Texnik muharrir(lar): *g.f.f.d. (PhD), dots. N.J.Muxammedova*
NavDU magistranti G.Z.Aslonova

SO‘Z BOSHI

Ma’lumki, Respublikamizda oila masalasi davlat siyosati darajasida qaraladi, shunday ekan, bugungi kunda jamiyatimizda ayollarning o‘rni beqiyos. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash” deb belgilangan. Shuningdek, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-sonli qaroriga binoan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasida oila institutining mustahkamlash Konsepsiyasida “Oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an’anaviy oila qadriyatlarini saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash” uchun zarur bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. “Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma’naviy darajasini, avvalo shu yurt ayollarining ma’naviiy saviyasini belgilaydi”- deydi Muhtaram, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 yildagi PF-87-son Farmoni Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘rgatish va bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, Birlashgan millatlar tashkiloti global kun tartibining barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida ta’lim tizimida ham bir qator amaliy ishlar olib bormoqda.

Navoiy davlat universitetida bugungi kunda 18980 nafar talaba tahsil olmoqda shundan 77 foizi ya’ni 14482 nafari qizlardan iborat. Shuningdek, jamoada 650 nafar professor-o‘qituvchilar hamda ishchi xodimlar xotin-qizlarni tashkil etishi gender tenglikning namunasi desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

So‘ngi yillarda universitetimizning talaba-qizlari va professor-o‘qituvchilari tomonidan erishilayotgan yutuqlarni e’tirof etish joiz deb bilaman.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda o‘tkazilayotgan “Gender tenglik faoli” milliy tanlovining “Gender tenglikni ta’minlashda eng faol hududiy davlat organi (tashkiloti)” nominatsiyasi bo‘yicha universitet Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, dotsent Nasiba Tursunova ishtirok etib, viloyatda faxrli birinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, “Yil ayoli-2024” Respublika tanlovida universitetimiz faol xotin-qizlaridan, dotsent Nargiza Ibragimova “Yilning eng faol olima ayoli” nominatsiyasining viloyat bosqichi g‘olib bo‘ldi. “Universiada - 2024” sport musobaqalarida universitetning chaqqon talaba-qizlari

o‘rtasida sportning “Gandbol” turi bo‘yicha Respublikada faxrli II o‘rinni qo‘ga kiritigan bo‘lsa, shu musoboqaning “Shaxmat” turi bo‘yicha talaba-qizlardan Rabbimova Dilnura ham Respublika bosqichida II o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Islohatlar bilimdoni Respublika tanlovida universitetning II kurs magistranti Ravshanova Gulhayo faxrli I o‘rinni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, fakulteti Xotn-qizlar maslasi bo‘yicha dekan maslahatchisi, professor Dilnavoz Kamolova “Eng yaxshi xotin-qizlar maslahat Kengashi raisi” nominatsiyasi g‘olibiga aylandi. Shuningdek, so‘ngi besh yildirki, universitet talaba-qizlari “Zulfiya” nomidagi davlat mukofotini qo‘lga kiritmoqdalar.

Bugungi kunda universitetimizda professo-o‘qituvchilar orasida ilmiy salohiyat 42% tashkil etsa shundan 22% olima ayollarimizdan iborat. Universitetda faoliyat olib borayotgan 23 nafar fan doktorlar va professorlari 15 nafarini atollardan, 186 nafar fan nomzodlari va dotsentlarning 116 nafari xotin-qizlarni tashkil etadi. Bu kabi natijalarga erishish hamda ilmiy faoliyat olib borishlari uchun yetarli darajada sharoit yaratib berilganligidan dalolat bermoqda. Aynan, oliy ta’limda alqaro hamkorlik tizimli yo‘lga qo‘yilganligi va bunda bir qator olima, fidoyiy ayollarimiz mehnati borligidan faxrlansak arziydi.

Barchamizga ma’lumki 2024-yilning 27-oktabrida O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlis qonunchilik palatasi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashiga bo‘lib o‘tgan saylovlarda universitetning “Tarix” kafedrasi mudiri, professor Aminova Aziza Marksovna Oliy majlis qonunchilik palatasi deputatligiga saylanganligi ham jamiyatda siyosiy tafakkuri yuksak, faol xotin-qizlarimiz har birimizga faxr tuyg‘usini uyg‘otadi.

Xulosa o‘rniga shuni aytish mumkinki, “Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug‘ ne’mati, tengsiz mo‘jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi, – deydi davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev. Shunday dorilamon kunlarda latofatli, ilmli va zukko, tafakkuri keng xotin-qizlarimizga aslo koz‘ tegmasin. Ularning say-harakati bugungi globallashuv davrida olib borilayotgan pedagoglik faoliyatining amaliy ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida munosib yechimini topmoqda.

Navoiy davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor M.B.Kalonov

НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ, ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАР

Мамадиярова Малика Таджиевна
Вилоят ҳокими ўринбосари-оила ва хотин-қизлар бошқармаси бошлиғи

Мамлакатимизда хотин-қизларни илмий фаолиятга кенг жалб этиш, уларнинг дастурий ишланмалари, инновацион ғояларини қўллаб-қувватлаш масаласига давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилмоқда. Опа-сингилларимизнинг илм олиши, уларни касб-ҳунарга ўқитиш ҳамда бандлигини таъминлаш, тадбиркорликка кенг жалб этиш устувор йўналишлардан бирига айланди.

Биз янги Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс пойдеворини бунёд этиш сари дадил қадамлар қўйяпмиз. Янги Уйғониш даври, аввало, илм-фан тараққиётига, миллий маънавият мустаҳкамлигига боғлиқ. Бу ўткир ҳақиқатни чуқур ҳис қилган ҳолда хотин-қизларнинг таълими олиши ва илм-фан билан шуғулланиши учун давлатимиз томонидан кафолатлар ҳамда имтиёзлар пакети жорий этилгани, янги имкониятлар яратиб берилаётганига тўхталиш лозим бўлади.

Муҳтарам Президентимиз Ш.Мирзиёевнинг “Аёл бахтли бўлса, оила ва жамият ҳам албатта бахтли бўлади. Бир ҳақиқат аёнки, ҳар қандай халқнинг маънавий даражасини аввало, шу юрт аёлларининг маънавий савияси белгилайди” деган пурмаъно сўзлари билан бошламоқчиман. Дарҳақиқат, мамлакатимизда олиб борилаётган изчил ислоҳотларнинг туб замирида хотин-қизларнинг илм олиши уларнинг салоҳиятини янада оширишга қаратилган кенг кўламли ислоҳотлар олиб борилмоқда.

Юртимизда 11 февраль - “Илм-фан соҳасидаги аёллар ва қизлар халқаро куни” муносабати билан табриклайман. Давлатимиз илму фани ривожига қўшаётган улкан ҳиссангиз ҳамда ёшларни таълим тарбия олишлари йўлида олиб бораётган заҳматли меҳнатларингиз таҳсинга сазовордир.

Мамлакатимизда аёлга бўлган муносабат ўз тарихий илдизларига эга. Аждодларимиз доимо аёлларни қадрлашга, уларга нисбатан ҳурмат ва иззатда бўлишга ундашган. Абдулла Авлоний: “Қизлар билим олишга ҳаммадан кўпроқ интилишлари лозим, зеро, бу билимлар билан улар келажак авлодни тарбиялайдилар”, - деб ёзган эди.

Қизларнинг илмли бўлишини рағбатлантириш узоқни кўзлаб босилган муҳим қадамдир. Бугунги талаба қиз эртанги кунда ўз соҳасининг етук

мутахассиси бўлиши билан бирга, илмли, интеллектуал салоҳиятли, кенг дунёқарашга эга фарзандни тарбиялайдиган она ҳам бўлади. Маърифатли аёл ўз соҳасида ҳам, оилада ҳам келажакка дахлдор тўғри қарор қабул қилинишига муносиб ҳисса қўшади. Энг муҳими, олиб борилаётган ишлар нафақат бугун долзарб бўлиб турган масалаларни ҳал этишга, балки истиқболда бу борада юзага келиши мумкин бўлган муаммоларнинг олдини олишга қаратилганлиги билан ҳам аҳамиятлидир. Бунга бир мисол сифатида ҳозирда ҳаётимизга чуқур сингиб бораётган “Аёлларга илм бериш - жамиятни илмли, маърифатли ва салоҳиятли қилиш” деган мезон асосида амалга оширилаётган тизимли ишларнинг амалий натижасини келтириш мумкин.

Маълумот ўрнида шуни айтиш жоизки, бугун вилоятимизда 1 млн 94 минг 705 нафар аҳолининг 540 023 нафарини ёки умумий аҳолининг 49,3 фоизини хотин-қизлар ташкил этади.

Шу ўринда айтиш жоизки, бугун 92 нафар аёлларимиз халқ депутатларининг вилоят ва ҳудудий Кенгашларида ўзининг депутатлик фаолиятини олиб бормоқда, депутат аёлларимиз улуши жорий йилда 34,2 фоизни ташкил қилаётганлиги уларнинг сиёсий майдонда ўз ўринини мустаҳкамлаётганлигидан далолатдир.

Вилоятимизнинг 85 нафар аёли “Мўътабар аёл” кўкрак нишони, 35 нафар хотин-қизлар “Зулфия” номидаги Давлат мукофоти билан мукофотланган.

Хусусан, олий таълим муассасаларида 175 нафар олима аёлларимиз 12 нафар фан доктори, профессор, 163 нафари фан номзоди, доцент (PhD) бўлган хотин-қизлар ташкил этиши вилоятимизда таълим самарадорлигининг юқори даражада эканлигини кўрсатади.

Шунингдек, вилоятдаги фаол, ташаббускор, бошқарувчилик қобилиятига эга лидер хотин-қизларимизни келгусида давлат бошқарувининг турли соҳаларида раҳбарликка тайёрлаш борасида Давлат бошқаруви академиясида 8 нафар хотин-қизларимиз ўқитилди.

Вилоятимизда 2024 йилда 60 нафар хотин-қизлар алоҳида грант асосида олий ўқув юртларига қабул қилинди, ҳар йили 150 нафар эҳтиёжманд хотин-қизларнинг ўртача 1,0 млрд. сўм миқдоридаги контракт тўловлари давлат ҳисобидан тўлаб келинмоқда.

2024 йилда мактабларни битирган 6430 нафар қизларнинг 4321 нафари (67%) олий таълим муассасасига қамраб олинди.

Бугунни кунда олий таълимдаги қизлар улуши 58,6 фоизни ташкил қилиб, Навоий вилояти Республиканинг энг олди ўринларида саналади.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Олий мажлиси Сенати Кенгашининг 2022 йил 27 апрелдаги КҚ-340-IV-сонли қарори асосида ҳар йили “Йил аёли” миллий танлови ҳамда “Гендер тенглик фаоли” миллий танловлари ўтказилиб келинмоқда. Жамият ҳаётида фаол иштирок этаётган, ҳар жиҳатдан фаол хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, гендер тенгликни таъминлаш борасида олиб борилаётган ислоҳотларни кенг тарғиб этиш ва жамоатчиликка етказиш мақсадида ўтказилаётган танловларда Навоий вилоятидаги фаол хотин-қизлар ҳамда ташкилотлар фахрли ўринларни қўлга киритиб келишмоқда.

Жумладан, “Йил аёли” танловининг туман (шаҳар) босқичларида 54 нафар хотин-қизлар вилоят босқичида иштирок этишиб, 11 та номинация бўйича саралаб олиниб, республика комиссиясига тақдим этилган.

“Гендер тенглик фаоли” миллий танловида ҳам вилоят, туман (шаҳар) давлат ташкилотлари фаол иштирок этишиб, сараланган 7 та ташкилот ҳужжатлари республикага юборилди. Навоий иссиқлик электр станцияси АЖ ташкилоти ҳамда вилоят телерадиокомпанияси фахрли 3-ўринларни эгаллади.

Юқоридагиларданни инобатга олиб айтиш мумкинки, вилоятимизда гендер тенглик тамойили асосида ташкилот ва корхоналарда хотин-қизлар ва эркаклар билан тенг ҳуқуқ ва имкониятлари асосида олиб борилаётган самарали фаолият натижасидир.

Бу, албатта, бизнинг ортимиздан замонавий билим ва касбларни эгаллаган, янгича дунёқараш ва ўзининг мустаҳкам ҳаётий позициясига эга бўлган хотин-қизларнинг катта армияси келаётганидан дарак беради. Улар эртага жамиятимизга янги нафас, мамлакатимиз тараққиётига янги тўлқин бахш этади. Бизнинг вазифамиз уларни мана шундай улуғвор ишларга руҳлантириш, салоҳият ва имкониятларини тўлиқ ишга солишида яқиндан кўмак беришдан иборат.

Аёллар бош бўлган ишларда ҳамиша тартиб, интизом кучли бўлади. Аёллар бор жойда бағрикенглик ва адолат ҳукм суради. Айнан олималарнинг илм-фан соҳасида улуши кўп бўлиши инсон капиталининг ривожланишига, демакки, жамият тараққиётига хизмат қилади.





YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI ROLI

Tursunova Nasiba Xamroevna
Navoiy davlat universiteti
Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha
rektor maslahatchisi, f.f.f.d., dotsent

Yangi O‘zbekistonda globallashuvning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, urf-odatlarimiz, an’analarimizga, ayniqsa ular asosida xotin-qizlarimiz hayot tarziga ko‘rsatayotgan ta’siri masalasi juda muhim. Mazkur holatni informatsion, texnologik, huquqiy, axloqiy, diniy aspektlarini globallashuv asosida tahlil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugungi kunda global tarmoq birinchidan, undagi axborotlar tez yetib borishi va jamoatchilik fikrini to‘g‘ri shakllantirishga imkon bersa, ikkinchi tomondan ma’lumotlarni g‘arazli maqsadlarda foydalanish, nopok g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanish holatlari ham kuzatilmoqda. Bu esa ayollarmiz ma’naviy-axloqiy qiyofasiga yot bo‘lgan bexayo saytlar, turli reklamalar va o‘yinlar ko‘rinishida amalga oshirilmoqda, natijada xali hayotiy tajribasi kam ega bo‘lgan yosh xotin-qizlarimizni ular hayotidagi eng muhim vazifalardan chalg‘itish, kelajakka teran ko‘z bilan qaramaslik, balki ularni hayvoniy “lazzat”ga almashtirishga, yengil hayot tarzini tanlashga olib kelmayaptimi? Jan Jak Russo ayolga shunday ta’rif beradi: “Ayolning qudrati uning jozibasida. Ayol o‘zining latofati-yu tarovati bilan erkakni unga xos bo‘lgan kuchni his qilishga va uni ishga solishga majbur qiladi. Bu kuchni uyg‘otadigan eng sinalgan san’at shundaki, qarshilik ko‘rsatish yo‘li bilan bu kuch hayot baxsh etiladi”. Ayoldagi bu qudratli kuch uning sabr-bardoshi, qanoati, mo‘jizakorligini va betakrorligini ta’minlaydi. Globallashuv davomida ayol – oila qo‘rg‘oning jonkuyari, fidoiysi vazifasini bajarib kelgan bo‘lsa, globallashuv jarayonidagi integratsiya suratining yuqoriligi ayollarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini: davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish, ta’lim-tarbiya, jamiyatni sog‘lomlashtirish sohalarida jadallashtirmoqda.

Globallashuv sharoitida mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro ta’sirlar kuchayib borishi natijasida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib borishi, ulardagi erkin fikr, o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilash borasidagi

qat’iyyatlarini orttirmoqda. Bu esa turli xalqaro tashkilotlarda ayollar faoliyatining kuchayib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma’lumki, Respublikamizda oila masalasi davlat siyosati darajasida ko‘tarildi. Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq oilaga katta e’tibor qaratildi. 1998-yil mamlakatimizda “Oila yili” deb e’lon qilindi. Shu yili mamlakatimizda qurilayotgan insonparvar demokratik davlat vazifalarini bajarishga, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta’minlash tizimini barpo etishga qaratilgan normalarni o‘zida aks ettirgan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevralda qabul qilgan qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar ko‘mitasi huzurida Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi tashkil qilindi. Bundan asosiy maqsad jamiyat taraqqiyotida ma’naviy barkamol va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rni muhim ekanligini hisobga olib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab asrash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilalarning mustahkamligini ta’minlash, oila a’zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o‘rganishni va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishni muvofiqlashtirishdan iborat.

Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Lekin sizlarning barcha sohalardagi samarali mehnatingiz, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlaringizni hisobga olib aytadigan bo‘lsak, jamiyatdagi o‘rningiz, O‘zbekistonimiz erishayotgan yutuqlardagi beqiyos hissangizni hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi. Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi, - deydi Muhtaram, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Dono xalqimizda shunday ibora bor “Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi” deganlaridek bugungi kunda ba’zi xotin-qizlarning achinarli tomoni shundaki, sharq xalqlariga xos ayol bo‘lishiga qaramay oliy ta’lim tizimdagi talaba-qizlar tomonida tushunib-tushunmay behayolik yo‘lida adashib qolishlari yoki turli oqimlarga qo‘shilib qolishlari, hatto o‘z yurtidan chiqib ketish hollari uchrab turibdi.

Bu kabi holatlarni oldini olish maqsadida oliy ta’lim tizimida “Xotin-qizlar maslahat kengashi” tashkil etilgan. Tizimdagi ma’sullar xar bir qiz bola taqdiri va uning kelajagi uchun ota-onasi kabi qayg‘uradi. Qizlarni nojo‘ya hollardan ogoh bo‘lishga va bo‘sh vaqtlarini samarali ishlarga sarflash uchun turli to‘garaklarga tashkil etish hamda seminarlar, suhbatlar, tanlovlar, mahoratli dars mashg‘ulotlarga jalb etish lozimligi joizdir.

Shuningdek, xotin-qizlar ma’naviy-axloqiy jihatlarning shakllanishiga beparvolik bilan yondoshmaslik, ularda globallashuvning salbiy oqibatlari bo‘lgan egotsentrizm, millatchilik, terrorizm, diniy aqidaparaslik va ekstremizm,

giyohvandlik, odam savdosi kabi zararli oqimlar ta’siriga tushib qolmaslik choralarini ko‘rish kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yoshlarimiz turli xil axborot xurujlaridan ogoh bo‘lishi, xorijiy tillarini bilishi, har bir masalaga o‘z milliy manfaatlarimizdan kelib chiqib, yondasha olishi kerak. Nafaqat ta’lim muassasalari ma’naviy sohalarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar, balki har bir qiz farzand Yangi O‘zbekistonni barpo etilishiga o‘z hissalarini qo‘shishi fuqarolik burchi deb hisoblashi lozim.

КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ АСОСИДА ОИЛАДА ИЖТИМОИЙ МУНОСАБАТЛАР БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МОДИФИКАЦИОН МЕТОДИКАНИ ЎРНИ

Нарзикулова Дилноза Ҳошимжоновна
Навоий давлат университети профессори,
педагогика фанлари доктори (DSc)

Аннатация: Мазкур мақолада компетенциявий ёнд ашув асосида оилада ижтимоий муносабатлар барқарорлигини таъминлашда модификацион методикани ўрни Мазкур методика оила аъзоларнинг ўз –ўзини баҳолаш ва ўзини англашни ошириш, ўз-устидан назоратни кучайтириш, оилавий муносабатларни яхшилаш, оилавий ҳаётда ижтимоий мослашувни таъминлайди.

Калит сўзи: компетенция, модификация, ўз –ўзини баҳолаш ўзини англашни ошириш, муомилла маданиятнинг, маънавий-ахлоқий тарбия.

Аннотация: В статье рассматривается роль методики модификации в обеспечении стабильности социальных отношений в семье на основе компетентностного подхода. Данная методика повышает самооценку и самосознание членов семьи, усиливает самоконтроль, улучшает семейные отношения, обеспечивает социальную адаптацию в семейной жизни.

Ключевые слова: компетентность, модификация, самооценка, самосознание, культура общения, духовно-нравственное воспитание.

Abstract: The article examines the role of modification techniques in ensuring the stability of social relations in the family based on a competence-based approach. This technique increases self-esteem and self-awareness of family members, enhances self-control, improves family relations, and ensures social adaptation in family life

Key words: competence, modification, self-esteem, self-awareness, communication culture, spiritual and moral education.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш-давр талаби" мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқида таъкидлайдики: «… ўзини жамиятимиз, ёшларимиз маънавияти, ғоявий-мафкуравий тарбияси учун масъул деб билган инсонлар-бу маҳалла ёки диний ташкилотлар бўладими, ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари ёки катта таъсир кучига эга ижодкор зиёлилар бўладими - уларнинг барчаси айниқса фаол бўлишлари лозим»1.

Ҳозирги тезкор ахборот даврида касб-кори, ижтимоий мавқеидан қатъи назар ҳар ким интернетдан фойдаланиш имконига эга. Интернет кишилар

[1] ПФ-4947-сон 07.02.2017. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида

ҳаётининг ажралмас қисмига айланиб улгурди. Тўғри, сўнгги янгиликлар, турли мавзудаги маълумотларни зудлик билан топиш борасида интернет олдига тушадигани йўқ. Буни ҳеч ким инкор этолмайди. Аммо масаланинг бошқа жиҳатлари ҳам бор, бу борада эътиборсизлик қилиб бўлмайди.

Сўнгги йилларда замонавий технологиялардан фойдаланиш даражаси юқори кўрсаткичга етди. Аммо шу билан бирга бундай қулайликларни суиистеъмол қилиш, ундан ғаразли ниятларда фойдаланиш ҳолатлари ҳам кўп учрамоқда. Маълумки, ҳар бир давлатнинг ўз мақсади, манфаати бўлади. Ҳар тарафдан ривожланган, гегемон давлатлар бошқа миллатларни ўзига бўйсундиришга ҳаракат қилади. Аввалларибу мақсад очиқчасига қуролли уруш йўли билан амалга оширилган бўлса, ҳозирги кунда интернетда мафкуравий тарғиботлар орқали олиб борилмоқда. Хавфли томони шундаки, қурол кўтарган душманни юрт чегараларидан ўтказмай, уларга қарши мардонавор курашиш мумкин. Аммо ёт мафкуралар ингичка симлар орқали юртимиз сарҳадларидан ўтиб, инсонлар фикрини бузади, ёшлар тушунчасини саёзлаштиради, оилага ҳурмати пасайишига сабаб бўлади. Бунга қурол кўтариб қарши чиқиб бўлмайди. Шундай экан, биз бундай мафкуравий жангларда имон-эътиқод билан, кучли билим билан маърифат душманларига қарши курашишимиз талаб этилади.

Европа давлатларида кенг тарғиб этилаётган оммавий маданият асосан интернет тармоғи орқали юртимизга кириб, фуқаролар одоб-ахлоқига, дунёқарашига, миллий, диний қадриятларга ҳурмати пасайишига олиб келмоқда. Компетенцияли ёндашув. Инсон фаолиятида ҳар томонлама компетенлиликни шакллантириш ҳозирги замон жамияти ва таълим-тарбиянинг асосий шарти бўлиб ҳисобланади. Бу талаб оилада ота-оналар педагоглар фаолиятига ҳам бевосита дахлдордир. Бугунги кунда замонавий шароитда оилада ижтимоий муносабатларнинг барқарорлаштиришнинг асосий йўналиши оилада тарбия жараёнини самарали ташкил этиш.Оилада ҳаётни, муомилла маданиятнинг, маънавий-ахлоқий тарбияни, оилавий можароларни низоларсиз бартараф этиш, ёш оилаларнинг бўш вактларини фойдали ташкил этиш, касбий фаолиятни яхлит тизимли кўра олиш, оилавий муаммоларни ҳал эта олиш тажрибасини шакллантиришдан иборатдир. Оилада оила аъзоларида таянч маънавий компетенцияларни ривожлантириш хаётда низоларсиз яшаш, низоларга конструктив муносабатда бўлишни таъминлайди.

Интернет ҳозирда ёшларнинг ҳақиқий маънода эрмагига айланди, десак хато бўлмайди. Иш вақтида ҳам интернетда, бўш вақтида ҳам интернетда. Гўё дунёда интернетда ўтириб вақтичоғлик қилишдан бошқа иш йўқдек. Оила аъзолари даврасида ҳам интернетга ошно. Ҳатто кўчада кетаётгандаям телефондан бошини кўтармай, нималарнидир ўқиб ё кўриб кетади, хаёли жойида эмас.

Бундай ҳолатда ишда ҳам, ўқишда ҳам барака бўлмайди. Ёшлар интернет орқали билим, тажрибаларини ошириб боришлари яхши, албатта. Аммо технологиянинг бу ютуғини бефойда нарсаларга сарфлайдиганлар етарлича топилади. Масалан, «Фейсбук», «Инстаграмм», «Твиттер» каби

ижтимоий тармоқлар ҳозирги кунда èшларнинг пардасиз мулоқот воситасига айланган. Шу нарса сабаб бўлиб алдов, фирибгарлик, оилавий хиёнатлар, ёшлар ўртасидаги ноқонуний мулоқотлар кўпайиб бормоқда. Натижада оилалар хотиржамлиги йўқолиб, кишиларнинг бир-бирига ишончи камаймоқда. Интернетнинг энг салбий томони унда фаҳш тарғиботи кўплигида. Бундай сайтлар мўмай даромад топиш илинжида турли суратларни, видеоларни эълон қилади. Улар фақат чўнтакларини қаппайтириш пайидалар. Аммо унга кириб, сайтдан «фойдаланаётган» кишилар хулқи бузилаётгани, оилалар тинчлигига раҳна солинаётгани, эрнинг хотиндан, хотиннинг эрдан кўнгли қолаётгани инкор этиб бўлмас ҳақиқатдир. Ачинарли томони шундаки, илм-маърифат йўлида фойдаланилиши керак интернет тармоғи асосан кўнгилочар матоҳ, шаҳвоний ҳис-туйғуларни қондириш восита бўлиб қолмоқда. Маълумки, оила – жамият таянчи. Оилалар тинчлиги мамлакат тинчлиги ҳисобланади. Ёшлар, ўрта ёшлилар ўртасида интернет тармоғидан фойдаланишнинг суиистеъмол қилиниши оқибатидатурли кўнгилсизликлар, турмуш ўртоғига хиёнат, фаҳш суратлар, кинолар томоша қилиш, бегоналарбилан танишиш ҳолатлари кўп кузатилмоқда. Булар оилалар тинчлигига раҳна солмай қолмайди. Агар бу камчиликлар вақтида тузатилмаса, оилавий ажримлар сони бундан-да кўпайиб кетиши хавфи бор.

Телеграмм, СМС орқали хабарлашиш ривожланиши ёшларда нутқ маданияти пасайишига, ёзма нутқ, фикрлаш қобилияти ўтмаслашишига ҳам сабаб бўлмоқда. Чунки интернет орқали ёзишмалар амалга оширилганда хато-камчиликлар тузатилмайди, ҳар ким хоҳлаган услубида ёзади.

Қолаверса, шошилинч тарзда ёзилган жавобда на фикр, на мушоҳада бўлади. Одам бундай шароитда хаёлига нима келса, шуни ёзишга ўрганиб қолади. Бу нарса бориб-бориб тил қоидалари қўпол тарзда бузилишига, аҳоли ўртасида саводсизлик даражаси кескин ортиб кетишига сабаб бўлади. Одамларнинг тафаккури, онги, дунёкарашини эгаллашга уринишлар тобора кучаймокда. Бошқа худуд ва халкларни ўзига қарам қилиш учун маънавий бузгунчилик услублари кўлланилмокда.

Оилада ижтимоий низоларни психотерапияси ўз навбатда ҳам жуда самарали бўлиб, жуда кўп ҳолларда компьютер, уяли телефонга аддиктивликка оилавий носоғлом муҳитни, эр-хотин ўртасидаги, ота-онанинг болага бўлган салбий муносабатларига сабаб бўлмоқда. Олинган тадқиқотлар натижасида оилада ижтимоий низоларни коррекциясига доир қўйидаги модификация методикаларни ишлаб чиқдик.

Компетенциявий ёндашув асосида оилада ижтимоий муносабатлар барқарорлигини таъминлашда модификацион методикани ўрни муҳим аҳамиятга эга. Оилада ижтимоий муносабатларнинг модификацион методик босқичлари оилавий муносабларнинг барқарорлигига хизмат қилади. Мазкур методика оила аъзоларнинг ўз –ўзини баҳолаш ва ўзини англашни ошириш, ўз-устидан назоратни кучайтириш, оилавий муносабатларни яхшилаш, оилавий ҳаётда ижтимоий мослашувни таъминлайди.

Компетенциявий ёндашув асосида оилада ижтимоий муносабатлар барқарорлигини таъминлашда модификацион методик босқичлар

Дастлабки босқичлари	Мақсад ва вазифалари	Педагогик- методлар, стратегиялар
1-босқич: диагностик коррекцион ишларини таҳлил қилиш	соғлом муҳитни ташкил этиш, оилавий муносабатларни барқарорлигини таъминлаш	Индивидуал Кузатиш,суҳбат, анкета,интервью,статистик ва ҳок.
2-босқич: Оиладаги низоли вазиятнинг моҳиятини сабабини аниқлаш	Муаммони аниқлаш, муаммода фикрни жамлаш; шахсга эмас, муаммога хужум қилиш; фаол тинглаш малакаси, ўзгани тинглашга тайёрлик; бировнинг ҳис-туйғуларига эътиборли бўлиш	Индивидуал Низоли вазиятни инкор этиш, уни бартараф этиш стратегияси. низони ютиб чиқиш стратегияси. низода компромиссларга бориш маҳорати ва унинг стратегияси. Оилада низоларнинг ҳамкорлик муносабатлари стратегияси
3-босқич: хулқ-атвор стратегиясини модификациялаш	хулқ-атворни ўзгартиришга қаратилган хатти- ҳаракатларни модификациялаш яъни зарарли одатлардан воз кечиш (спиртли ичимлик, чекиш,наркотик мод), эркак ёки аёл оилада маъсулиятни сезиши, салбий ижтимоий муҳитдан воз кечиш,соғлом хаёт омилларига риоя қилиш,позитив харакатда хаёт кечириш.	Индивидуал, ижтимоий таълимий лифт, когнитив-бихевиорал, оилавий ижтимоий низоларни бартараф этишда жараён субъектларининг ҳуқуқий, психологик-педагогик саводхонлигини ривожлантириш моделини қўллаш.
4-босқич: оилавий ва ижтимоий муносабатларни коррекциялаш ақлий тараққиѐт коррекцияси; шахс тараққиѐти коррекцияси; салбий ҳолатларнинг олдини олиш коррекцияси	Низоли ҳолатни ижобий ўзгариши учун қилаётган хатти-ҳаракатларини қўллаб-қувватлаш, оилада эр-хотининг оилапарварликнинг ички англаниши (интериоризация)ни ташқи намоён бўлиш (экстериоризация) билан интеграциясини таъминланиши,	Шахсга йўналтирилган таълим технологиялар (витаген, рефлексив), акмеологик, аксиологик метод, медиаторлик метод
5-босқич: низоли ҳолат даражаларини енгиш	“Оилавий ижтимоий низолар:диагностикаси ва коррекцияси” мавзусида “Ижтимоий-педагогик иш” дастурини тузилганлиги,Узлуксиз маънавий тарбия Концепцияси асосида маҳаллабай тизимида оилада низоларни бартараф этиш режаси тузилди.	Гуруҳий ва индивидуал, симметрик ёки ассиметрик метод

Модификация – (от лат. modificatio сўзидан олинган бўлиб, ўзгариш, яшаш тарзини ўзгариши, характер ўзгариши, чеклаш, мос хаёт тарзига қайтиш. Оилада соғлом ижтимоий муҳитнинг ташкил этишда модификация методи барча салбий ҳолатларни конструктив ҳал этишда хизмат қилади.

Оилавий низолар, одатда, бир-бирини тингламаслик, яъни бир-бирларининг истакларини «эшитмаслик», ҳаётга бўлган қарашларнинг фарқланиши, ўта қаттиқ назорат, эътибор етишмаслиги, иш фаолиятидаги муаммолар туфайли юзага келади.Оила ўз ўрнига шахслараро муносабатларнинг мураккаб тизими сифатида нафакат эр-хотин, балки, уларнинг болалари, бошка қарандошлар ҳамда эр-хотин учун яқин ва қадрли бўлган инсонларни ҳам умумий равишда бирлаштиради.

Оилани мазмуни, мохиятини ижтимоий тузилма сифатида илмий ўрганишда социологик ва ижтимоий-психологик билимлар хусусиятлари борасидаги масалалар жиддий ахамият касб этади. Сабаби, оила-хам социал институт ҳам кичик гуруҳдир». Социологлар «оиланинг махсус социологик назария”сини илгари сурсалар, психологлар эса оиладаги ўзаро муносабатларга мурожаат этадилар».

ВОВЛЕЧЕНИЕ СЕМЬИ В ПРОФИЛАКТИКУ ЗАВИСИМОСТЕЙ

Гульшана Худоярова
к.п.н., депутат ЗПОМ

Вопросы воспитания детей и молодежи становятся всё более злободневными и требуют постоянного внимания. Уважительное отношение к ценностям, твердые взгляды на жизнь, способность противостоять вредным влияниям, в том числе различным вызовам и угрозам в информационном пространстве – вот неполный список качеств, которыми должен обладать подросток, чтобы не попасть в «трудную ситуацию или в зависимость». Вместе с тем, современная действительность бросает всё новые и новые вызовы, через которые должно проходить подрастающее поколение. И то, каким образом, они будут преодолевать искушения, во многом зависит от взрослых, в особенности от семьи. Всем известно, что все проблемы «родом из детства», соответственно и проблемы детей начинаются дома. Родители должны понимать, что на 90% от них зависит, какими вырастут их ребятишки. Однако, следует отметить, что не все родители догадываются о важности проблем, учитывая, что время проходит быстро, “очнувшись” они осознают, что их чадо уже выросло, и прививать какие либо качества, формирующие духовный(и нравственный) иммунитет ребёнка, уже поздно. К тому же, по мнению социологов, 32% родителей не имеют должных навыков и психологических знаний по воспитанию современных детей.

Согласно статье 77 Конституции Республики Узбекистан, родители и заменяющие их лица обязаны содержать своих детей до их совершеннолетия, заботиться об их воспитании, образовании, здоровом, полноценном и гармоничном развитии. Государство и общество обеспечивают содержание, воспитание, образование, здоровое, полноценное и гармоничное развитие

детей-сирот и детей, лишенных родительской опеки, поощряют в этих целях благотворительную деятельность.

Проведённый опрос среди подростков (март 2024 г) показывает, что они имеют в 15% случаях «отвлечённых родителей», 17% «балующих родителей, которые позволяют многое», у 19% подростков «ощущение, что им все должны», у 23% подростков «несбалансированное питание (фастфуды, газированные напитки…) и недостаточный сон», у 27% подростков «сидячий образ жизни, в основном за гаджетами». Вышеперечисленные ответы, в основном принадлежали одним и тем же подросткам. Однако, 37% подростков отметили, что родители уделяют им достаточно много времени, в среднем по 2 часа в день. Они же отметили, что родители интересуются всем, что происходит в их жизни: здоровьем, учёбой, кружками, друзьями, планами. Также они подчеркнули, что благодаря строгому отношению родителей они усидчивы, трудолюбивы, склонны к учебе, и не имеют зависимостей. Ещё 12% подростков отметили, что у них «лучшие родители в мире», при этом они воздержались указать, в чём это проявляется. На вопрос «читаете ли вы книги?», 57% подростков ответили «да, только в электронном виде, т.е. в телефоне», 15% ответили «нет», 22 % «да, только для выполнения домашнего задания», и 6% воздержались от ответа.

Создавая семью, молодые родители должны понимать всю ответственность, с которой они столкнуться при появлении детей. Родители, у которых есть подростки, в среднем находятся в 35-40 летнем возрасте, а это период жизни, когда многие делают карьеру и посвящают всё своё время и энергию зарабатыванию денег. Однако, не надо забывать, что время отведённое семье и традициям, не восполнить никакой карьерой, тем более деньгами. Психологи отмечают, что семейные связи дают человеку чувство безопасности и принадлежности, повышают самооценку. Проведение совместных мероприятий в кругу семьи помогает детям приобретать важные социальные навыки, которые так важны во взрослой жизни. При этом, совместные мероприятия должны включать интересы каждого члена семьи, в не зависимости от возраста.

Испокон веков женщина является хранительницей семейного очага. Одной из её главных обязанностей считается создание правильных взаимоотношений внутри семьи. Семейная жизнь - это прежде всего сотрудничество, и брак должен быть основан на любви и глубоком понимании и уважении целей совместной жизни, и планов каждого в отдельности. Одной из главных задач Национальной программы по повышению активности женщин во всех сферах экономической, политической и социальной жизни Узбекистана на 2022-2026 годы является - укрепление института семьи. В данном направлении совершенствуются правовые основы; проводятся фундаментальные, прикладные и инновационные исследования; повышается уровень благосостояния. Ключевым звеном данной программы является укрепление воспитательно - образовательного потенциала семьи, сохранение семейных ценностей в обществе, улучшение духовно-нравственной атмосферы.

Современные родители всё чаще понимают насколько важно быть здоровым, ведут активный образ жизни, следят за фигурой, рационально питаются и регулярно посещают врача. В таких семьях и дети вырастают с правильными установками и со стремлением к здоровому образу жизни. Огромную пользу приносит соблюдение строгого режима дня. В последние годы в стране осуществляется широкомасштабная работа по укреплению и восстановлению здоровья детей, развитию их творческого потенциала не только в процессе учебного года, но и в период школьных каникул. В частности, в летнем сезоне 2023 года была налажена деятельность 196 стационарных детских оздоровительных лагерей, оздоровлены 158 тысяч детей. В текущем году, по сравнению с предыдущим годом, количество детских оздоровительных лагерей выросло на 25%, оздоровлены 230 тысяч детей. Количество детей в стране увеличилось на 71 процент по сравнению с 1991 годом.

Насилие в семье – это доминирование одного члена семьи над другим или всеми. Агрессор всегда ищет причину, чтобы нанести физический или психологический удар жертве, т.е. более слабому члену семьи. По статистике, в мире женщины и дети подвергаются насилию примерно в 4 раза чаще, чем мужчины. Постановлением Президента Республики Узбекистан, от 10.05.2024 г. № ПП-175 одобрено предложение Национального агентства социальной защиты при Президенте Республики Узбекистан и Комитета семьи и женщин о внедрении системы оказания комплекса социальных услуг лицам, пострадавшим от притеснения и насилия, по принципу «семья — махалля — район и регион». Согласно которому, с 1 июня 2024 года - женщины, пострадавшие от притеснения и насилия, и их несовершеннолетние дети размещаются в экстренные приемные отделения центральных больниц районов (городов).

Вместе с тем, с любыми вопросами, касающимися отстаивания прав детей можно идти к детскому омбудсмену. Уполномоченный по правам ребёнка имеет возможность беспрепятственно помогать детям, беременным женщинам, несовершеннолетним, находящимся в домах ребёнка и исправительных учреждениях. Когда поступает обращение с жалобой, предложением или иной информацией, связанной с защитой детей, он либо разъясняет заявителю, какие средства могут помочь ему в конкретной ситуации, либо сам обращается в государственный орган, орган местного самоуправления, или к должностному лицу, к полномочиям которых относится рассмотрения обращения.

В статье 10, Закона «Об уполномоченном Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам ребенка (детском омбудсмане)» определены основные задачи, куда входит - обеспечение гарантий защиты прав, свобод и законных интересов ребенка путем рассмотрения обращений физических и юридических лиц, в том числе детей и их законных представителей, о нарушениях прав и законных интересов ребенка.

Кроме того, реформирована деятельность Республиканской межведомственной комиссии по делам несовершеннолетних, которая

преобразована в Национальную комиссию по вопросам детей, комиссии по вопросам детей Республики Каракалпакстан, областей, города Ташкента и районов (городов). Согласно Закону Республики Узбекистан № ЗРУ-829, от 11.04.2023 г. Законом предусматривается совершенствование законодательства, регулирующего вопросы поддержки женщин в реализации их прав и интересов в социально-экономической сфере, на основе международных стандартов, а также закрепляющие правовые основы деятельности комиссии по вопросам детей. Данный документ послужит предупреждению домогательств и насилия в отношении женщин и детей, улучшению морально-нравственной среды в семьях, улучшению позиции страны в международных индексах, связанных с правами детей и женщин, а также создает прочную правовую основу деятельности Национальной комиссии по вопросам детей.

Известный психолог Стивен Кови называет семейную миссию «ДНК семейной жизни». Он отмечает, что во всех семьях есть трудности, однако мечты сильнее проблем. Это означает, что если у вас есть чётко сформулированная цель, ясное представление о светлом будущем, то вы способны преодолеть все неприятности, которые накапливались в вашей семье в прошлом или терзают вас в настоящем. Нет ничего важнее семьи.

Согласно со статьёй 7 Закона Республики Узбекистан, от 29.09.2010 г. № ЗРУ-263 - родители или лица, заменяющие родителей, выполняя обязанности по содержанию, воспитанию и образованию детей, в целях обеспечения их безопасности, защиты жизни и здоровья, профилактики их безнадзорности и правонарушений принимают меры по недопущению:

нахождения несовершеннолетних, обучающихся в образовательных учреждениях, в учебное время в ресторанах, кафе, барах, клубах, дискотеках, кинотеатрах, компьютерных залах, помещениях, оборудованных для предоставления услуг доступа к сети Интернет, либо иных местах развлечений (досуга), за исключением посещения указанных заведений в рамках образовательной деятельности или проводимого образовательным учреждением мероприятия;

употребления несовершеннолетними спиртных напитков, наркотических средств, психотропных или других веществ, влияющих на интеллектуально-волевую деятельность, курения;

совершения несовершеннолетними правонарушений или иных антисоциальных действий.

Родители или лица, заменяющие родителей, принимают меры по недопущению нахождения несовершеннолетних в ресторанах, кафе, барах, клубах, дискотеках, кинотеатрах, компьютерных залах, помещениях, оборудованных для предоставления услуг доступа к сети Интернет, либо иных местах развлечений (досуга) в ночное время без сопровождения одного из них.

Сегодня СМИ выступают основным источником информации и средством коммуникации, формируют мировоззрение современных детей и

подростков, задают направление изменениям их представлений, духовно-нравственных ценностей и профессиональных ориентаций.

По другим исследованиям [10], на вопрос «Что влияет на духовно-нравственное воспитание вашего ребёнка?», 25% родителей ответили «СМИ и Интернет», 42% родителей ответили «семья», 22% родителей ответили «школа», 11% родителей ответили «друзья, окружение, улица». На вопрос «Какое влияние оказывает интернет на вашего ребёнка?», 53% ответили «негативное», хотя не понимали, как этому противостоять. 55% родителей считают, что интернет негативно влияет на здоровье ребёнка (зрение, осанку..), 35% респондентов считают, что дети, которые подолгу сидят в Интернете, постепенно становятся зомбированными, и зависимыми (к сожалению, зависимость вырабатывается не от образовательных сайтов), 37% родителей опасаются, что их чадо увидит в интернете негативный контент (порнография, сцены насилия и жестокости, оружие и др.), более 28% родителей боятся, что их дети общаются в сети с незнакомцами, и что данная связь может перейти в реальную жизнь. В то же время, более 35% детей сообщают, что они скрывают от родителей контент, на которых они проводят большую часть своего времени.

Социально-педагогические проблемы духовно-нравственного воспитания старших подростков во многом зависят от семьи. Учитывая, что современные дети, во многом, опередили своих родителей в использовании Интернета, смартфонов, и цифровых технологий, взрослым всё сложнее становится управлять и контролировать детей, а это в свою очередь, может привести неисправимым проблемам, таким как зависимое поведение, зомбирование, фанатизм, непослушание, отсутствие интереса к учёбе, агрессивность, инфантильность и др. Однако если идти правильным путём, родители могут добиться больших результатов. У всех детей разные способности, поэтому никогда не надо сравнивать своего ребёнка с соседским мальчиком(девочкой), это ещё больше усугубит ситуацию и ребёнок замкнётся, у него понизится самооценка, и лучшим способом “уйти” от этой проблемы будет телефон, где он будет искать того, кто б мог его развеселить или успокоить. Самое правильное что могут сделать родители для своих детей, это спокойно поговорить, дать возможность высказаться, так как активное слушание является одним из самых полезных занятий. Старайтесь никогда не ругать и не отчитывать, а попробовать вместе найти причину его неудач, если они имеются. Взрослым, надо научится поставить себя на место подростка и представить, что он может чувствовать. Например, если ваш подросток получил низкую оценку на экзамене, или поссорился с лучшим другом(подругой)постарайтесь понять насколько он встревожен этим. Чтобы ваш подросток научился делать ответственный выбор, уважать себя и других, надо вовремя научить его устанавливать границы. Это понимание поможет ему чувствовать себя менее ущемлённым, и желание “вставать на дыбы” постепенно пройдёт, и сам он будет уже готов сознательно принимать правила.

ГЕНДЕРНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ САМОРЕАЛИЗЦИИ ЖЕНЩИН

***А.С.Нурадинов*, кандидат психологических наук,**
доцент кафедры психологии ЕНУ им.Л.Н.Гумилева
***Б.С.Тусупбекова*, преподаватель кафедры**
психологии ЕНУ им.Л.Н.Гумилева

Гендерные представления отражают осознанные убеждения личности относительно миссии, самореализации мужчин и женщин в общественной и профессиональной сферах, включая образование. С этой точки зрения, они, будучи традиционными, патриархатными или эгалитарными, основанными на идее равенства, влияют на активность самой личности и отношение других к этой активности.

Последняя проявляется в степени включенности и участия личности в профессиональной деятельности, согласно собственным потребностям, убеждениям и целям [1, 2]. В данном дискурсе главное состоит в том, что гендерные представления, вытекающие из гендерных стереотипов, обуславливают отношение к возможностям, потенциалу самоактуализации женщин в профессиональной деятельности. Этот вид деятельности выступает формой активности [3]. Таким образом, гендерные представления в зависимости от того, являются они традиционными или эгалитарными, служат барьерами, «стеклянным потолком» или наоборот - условием профессиональной самореализации женщин, участия в управлении деятельностью вузов, продвижения по карьерной лестнице.

Каковы обсуждаемые гендерные представления у современной молодежи – стратегического ресурса страны, который завтра займет место во всех сферах? Авторы изучили соотношение традиционных и эгалитарных гендерных представлений у казахстанской студенческой молодежи (n=250). В исследовании использована «Методика изучения гендерных характеристик личности» [4].

Достоверность различий в эмпирических частотах предпочтения эгалитарных или традиционных представлений, приведенных в скобках, оценивалась по χ^2 - критерию Пирсона.

Установлено, что у 2/3 юношей доминируют патриархатные представления (59%) по сравнению с эгалитарными (41%). Различия достоверны на значимом уровне $\chi^2_{Эмп} = 98.395$; $p \leq 0.01$. традиционные, патриархатные убеждения этой доли юношей чаще распространяются на убеждения, касающиеся участия женщин в политическом управлении государством, руководстве и ее миссии (рисунок 1).



Рисунок 1 – Соотношение гендерных представлений о ролях в общественно-политической и профессиональной сфере (юноши)

1) они убеждены в том, что руководящие позиции должны занимать мужчины (85), мужчинам следует отдавать предпочтения во властных структурах (75). Эти представления связаны с убеждением в том, что миссия женщины, ее приоритетная гендерная роль заключается в деторождении и воспитании (75).

2) согласно их представлениям, мотивация к профессиональным достижениям не свойственна женщинам в столь высокой степени, как мужчинам (70). Однако, меньше выражено скептическое отношение к способности женщин к профессиональным достижениям. Тем самым, эти убеждения отражают так называемый доброжелательный сексизм, извиняющий женщинам низкий профессиональный уровень (55).

Меньшая доля юношей придерживается современных убеждений, считая архаичной, устаревшей фаворитизм мужчин на руководящих позициях в любых структурах (55). Они не разделяют убеждения о том, что биологические различия являются серьезным основанием для самореализации женщин во всех сферах жизнедеятельности (65). Закономерно, они поддерживают стремление женщин к карьерному росту, право женщины самой определять время, приоритеты между деторождением и профессиональным развитием, обретением финансовой самостоятельности (55).

В гендерном самосознании девушек традиционные, патриархатные представления (40%) уступают современным эгалитарным (60%). Различия в эмпирических частотах предпочтения по χ^2 - критерию Пирсона статистически достоверны на значимом уровне ($\chi^2_{Эмп} = 154.169$; $p \leq 0.01$).

Значительно преобладающей доле девушек присущи модернизированные представления о роли и самореализации в профессиональной, общественно-политической сферах (рисунок 2).



Рисунок 2 - Эмпирические частоты представлений о ролях в общественно-политической и профессиональной сфере (девушки)

Они не разделяют убеждений о тотальном влиянии биологических различий на уровень профессионального развития и достижений (90). Согласно их гендерным представлениям, мотивация к высокому профессионализму свойственна им в такой же мере, как и мужчинам (80). Эгалитарный характер их убеждений также распространяется и на равные способности женщин участвовать в политическом управлении страной (70) и умения, способности к успешному лидерству, руководству (65). Безусловно признавая значимость роли матери, тем не менее они убеждены в своем праве на выбор приоритетов в собственной жизни (65).

Значительно меньшая доля девушек разделяет с большинством юношей традиционные гендерные представления. Они, в частности, отражают убеждения этих девушек в том, что существуют такие сферы, в которых биологические особенности женщин должны учитываться и поэтому в охранительных целях следует ограничивать ее участие (75). Кроме того, согласно их взглядам, стремиться к карьерному росту должны больше мужчины, чем женщины (70).

Таким образом, эмпирические данные сравнительного анализа гендерного самосознания студенческой молодежи Казахстана указывает на противоречие, которое в будущей профессиональной деятельности может создавать барьеры на пути самоактуализации, активности женщин. На это противоречие следует обратить особенное внимание в гендерной идеологии и политике с точки зрения необходимости трансформации гендерного самосознания, прежде всего, юношей в сторону модернизации.

Список использованных источников

1. Петровский А.В. Человек над ситуацией. – М.: Смысл, 2010. – 559 с.
2. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. - М. : Мысль, 1991. - 302 с.
3. Гиппенрейтер Ю.Б. Введение в общую психологию: курс лекций. – М.: Изд. АСТ, 2017. - 352 с.

4. Гендерная психология/ Под ред. И. С. Клециной. - СПб.: Питер, 2009. – с.333 – 335.

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЖЕНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Раджапова Наталья Базаровна,
Термезский государственный университет, PhD

Аннотация. Гендерная проблематика является одной из наиболее актуальных и сложных проблем современного общества. Она затрагивает множество сфер жизни, включая политику, экономику, культуру и образование. Интеллектуальный потенциал женщин в современном мире представляет собой одну из важнейших тем для исследования, особенно в условиях глобализации, когда социальные, экономические и культурные изменения оказывают значительное влияние на роль женщин в обществе. В последние десятилетия наблюдается заметное повышение интереса к вопросам гендерного равенства и прав женщин, что, в свою очередь, способствует значительному развитию их интеллектуального потенциала. Важно отметить, что интеллектуальный потенциал женщин не ограничивается лишь образованием и профессиональной квалификацией, но включает в себя широкий спектр навыков, способностей и личностных качеств, которые могут быть использованы для достижения успеха в различных сферах жизни.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, стереотипы, язык, гендерная нейтральность, общество, коммуникация.

Современный мир переживает глубокие изменения, вызванные процессами глобализации, которые затрагивают все сферы жизни общества. Одним из наиболее значимых аспектов этих изменений является трансформация роли женщин в обществе, что в свою очередь связано с их интеллектуальным потенциалом. Интеллектуальный потенциал женщин, как важный фактор развития общества, становится предметом особого внимания в условиях глобальных вызовов и изменений. В последние десятилетия наблюдается рост интереса к вопросам равенства и гендерной справедливости, что открывает новые горизонты для женщин в области образования, науки и бизнеса. Однако, несмотря на достигнутые успехи, многие женщины по-прежнему сталкиваются с барьерами, которые мешают им реализовать свой полный потенциал.

Глобализация, как комплексный процесс, охватывающий экономические, политические, культурные и социальные аспекты, оказывает значительное влияние на женское образование и карьерные возможности. В условиях глобализированного мира женщины сталкиваются с новыми вызовами, но одновременно и с новыми возможностями. Образование становится ключевым инструментом для повышения их интеллектуального потенциала, однако доступ к качественному образованию остается неравномерным. В некоторых регионах мира женщины все еще испытывают трудности в получении образования, что ограничивает их возможности для саморазвития и участия в общественной жизни.

Инновационные подходы к повышению интеллектуального потенциала женщин становятся особенно актуальными в условиях стремительных изменений, вызванных технологическим прогрессом. Новые

образовательные технологии, программы, направленные на развитие лидерских качеств и предпринимательских навыков, а также менторство и поддержка со стороны успешных женщин играют важную роль в формировании нового поколения женщин, готовых к вызовам современности. Эти подходы не только способствуют развитию личных и профессиональных навыков, но и помогают женщинам формировать уверенность в своих силах, что в свою очередь способствует их активному участию в различных сферах жизни.

Политика и законодательство в области равенства прав женщин в образовании также играют ключевую роль в формировании условий для повышения их интеллектуального потенциала. Многие страны принимают законы и программы, направленные на устранение гендерного неравенства и создание равных возможностей для женщин и мужчин. Однако, несмотря на прогресс, в ряде стран существуют значительные пробелы в реализации этих инициатив, что требует дальнейших усилий со стороны государства и общества в целом.

Социокультурные аспекты также оказывают влияние на интеллектуальный потенциал женщин. Традиционные стереотипы, предвзятости и социальные нормы могут ограничивать возможности женщин для саморазвития и профессионального роста. Важно учитывать, что изменение общественного мнения и культурных установок является важной составляющей процесса повышения интеллектуального потенциала женщин. Образование, просвещение и активное вовлечение мужчин в обсуждение вопросов гендерного равенства могут способствовать созданию более благоприятной среды для женщин.

Перспективы развития женского интеллектуального потенциала в условиях глобализации зависят от множества факторов, включая экономические, социальные и культурные условия. Важно отметить, что успешное решение вопросов, связанных с повышением интеллектуального потенциала женщин, требует комплексного подхода, включающего взаимодействие различных секторов общества, таких как образование, бизнес и государственные структуры. Только совместными усилиями можно создать условия, способствующие развитию женщин и обеспечению их равных прав и возможностей.

Таким образом, тема повышения интеллектуального потенциала женщин в условиях глобализации является актуальной и многогранной. В данной работе мы рассмотрим различные аспекты этой проблемы, начиная с анализа текущего состояния интеллектуального потенциала женщин в современном мире и влияния глобализации на женское образование, и заканчивая инновационными подходами, политикой и социокультурными аспектами, которые способствуют или препятствуют этому процессу. Мы надеемся, что результаты нашего исследования помогут выявить ключевые направления для дальнейшей работы по повышению интеллектуального потенциала женщин и продвижению гендерного равенства в образовании и других сферах жизни.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бондаренко В. В., Танина М. А., Юдина В. А. Роль интеллектуального капитала в повышении эффективности корпоративной социальной ответственности // Материалы. – 2014. – С. 74-77.
2. Бутаева М. А. Инновационный потенциал женщины как фактор социально-политической трансформации // Москва: Изд-во РГСУ. – 2012. – Т. 250.
3. Голубева Л. Ф. Интеллектуализация женского труда как решающий фактор экономического и хозяйственного роста рыночной цивилизации // Социально-экономические явления и процессы. – 2012. – №. 10. – С. 52-58.
4. Иванова С. В., Иванов О. Б. Устойчивое развитие в неустойчивом мире: образовательный аспект // Ценности и смыслы. – 2021. – №. 3. – С. 6-26.
5. Лавров И. А., Крыштановская О. В., Самохина М. В. Государство в поисках интеллектуальных ресурсов: образ ученого в представлении россиян // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Социология. – 2024. – Т. 24. – №. 1. – С. 204-216.

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТЛАРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЕЧИМИ

Ибрагимова Мусаллам Адизовна
Вилоят тарихи ва маданияти давлат музейи
Илмий ишлар бўйича директор ўринбосари

Ер юзида яшаётган энг мукаммал мўжиза, мураккаб вужуд соҳиби табаррук инсон бўлса, аёл ана шу мужизанинг гўзал намунасидир. Шу билан бир қаторда аёл, бетакрор қалб соҳибаси, табаррук зот, меҳрибон она, ақлли бека ва ҳамма жабҳада ўрнак бўла оладиган, жамиятнинг ривожи учун ўзининг меҳнатини аямайдиган шахсдир.

Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “аёл сиймоси яратганнинг тенгсиз мўжизаси бўлиб келган ва ҳамиша шундай бўлиб қолади”.

Бугунги кунда замонамиз аёлларининг илмий, иқтисодий, маънавий-маданий соҳалардаги иштироки, фидокорона меҳнатлари Ватанимиз тараққиётига сезиларли даражада таъсир кўрсатмоқда.

Юртбошимизнинг яна бир сўзлари, яъни, “Инсон қадрини улуғлаш, аввало азизу мукаррама аёлларни улуғлашдн бошланади” деган сўзлари нафақат мамлакат хотин-қизларини маънавий жиҳатдан илҳомлантиради, балки уларни буюк ишларни амалга оширишига катта туртки бўлади.

Бугунги глобаллашув даврида хотин-қизларнинг интелектуал салоҳиятини ошириш энг муҳим вазифалардан биридир.

Ўзбекистон сиёсатида хотин-қизларни ҳақ-ҳуқуқларини таъминлаш, билим олишлари учун кенг имкониятлар яратиш, сиёсий майдонларда ўз ўрни ва овозига эга бўлиши, жамиятнинг барча жабҳаларида фаол иштирокчи бўлиши давлат сиёсати даражасида кўтарилиб улгурди.

Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистонда хотин-қизлар орасида (17 нафар хотин-қиз) Ўзбекистон Қаҳрамонлари, Халқ артистлари, Халқ шоиралари, Олимпиада ва жаҳон чемпионлари мавжуд бўлиб, турли соҳа вакиллари Давлат мукофотларига, еттита йўналиш бўйича Зулфия номидаги Давлат мукофотларига сазовор бўлишмоқда.

Ҳар йили юзлаб хотин-қизларимиз турли орден ва медаллар билан тақдирланиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони мамлакатимиз аёлларининг олий таълим даргоҳларида ўқиши, илмий салоҳиятини ошириш, саломатлигини тиклаш иш билан таъминлаш, уй-жойли қилиш, ўз-ўзини банд қилиш, субсидия ажратиш, касбга қайта тайёрлаш, ҳунарга йўналтириш, ҳаётнинг оғир синовларига учраган аёлларга ёрдам бериш ва моддий қўллаб-қувватлаши билан ўз вақтида чиққан фармон бўлди.

Ўзбекистон тарихида биринчи бор Аёл киши Олий Мажлис Сенати раислигига сайланиши, Олий Мажлис депутатларининг 64 нафари (42.7 фоизи) хотин-қизлар бўлиши қувонарли ҳолдир.

МСК маълумотига кўра, қўйи палата таркиби 60 фоизга янгиланган бўлиб, депутатларнинг 38 фоизини аёллар ташкил этади, бу Ўзбекистон тарихидаги энг юқори кўрсаткичдир.

Туман ва шаҳар ҳокимлари орасида аёл ҳокимларнинг борлиги, Ўзбекистонда аёллар қобилияти ва салоҳияти қадрланаётганидан далолатдир.

Айни вақтда Ўзбекистонда 170 нафар туман ва 25 нафар шаҳар ҳокими орасида 6 нафар аёл ҳоким бор. (Боёвут, Олот, Бўстон, Қарши, Каттақўрғон, Яккасарой).

Қайд этиш керакки, бугунги кунда жамиятда жами 32106 мингдан ортиқ рахбар ва малакали мутахассис фаолият юритаётган бўлса шундан 3809 масини хотин-қизлар ташкил этади.

Кейинги йилларда IT соҳасида, ҳуқуқ, тиббиёт, иқтисод ва спорт соҳаларида ҳам қизларимиз юқори натижаларга эришмоқда. IT-информацион технологилар соҳасини ўрганиш бугунги кун давр талаби бўлиб, жамиятдаги барча соҳаларда рақамлаштириш, электронлаштириш ва ахборот алмашинувини амалга оширишда муҳим рол ўйнайди.

Шунинг учун хотин-қизларнинг рақамли технологиялар билан боғлиқ билим ва кўникмаларини шакллантириш, хотин-қизларни масофадан туриб ўқиш ва ишлаш тизимини ривожлантириш, аёлларни инновацион касбий ўқитиш ҳамда қайта тайёрлаш тизимини такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Хотин-қизларни интеллектуал салоҳиятини ошириш йўналишлари юзасидан дастурлар ишлаб чиқилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28-январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60-сон фармонида хотин-қизларни ҳар томонлама салоҳиятини ошириш, соғломлаштириш, билим олиши учун қўшимча имтиёзлар бериш, улар ишсизлик даражасини икки баробарга камайтириш, “Аёллар дафтари” ташкил этиб, рўйхатга олинган ҳар бир аёл билан индивидуал равишда ишлаш, улар ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, улар иқтидорини рўёбга чиқариш бўйича жуда катта имтиёзлар жорий этилди. Кам таъминланган, ижтимоий ҳимояга муҳтож, ногирон ва боқувчисини йўқотган қизлар учун грант ўринлари оширилди, магистратурада ўқийдиган қизлар учун контракт тўловлари давлат томонидан тўлаб берилмоқда.

Зулфия номидаги Давлат мукофоти 7 йўналишда, ҳар бир ҳудуддан 2 тадан номзодга берила бошланди. Шу ўринда айтиш жоизки, Мир Алишер Навоий бобомизнинг “Жаннат боғидан баҳрамандлик истар экансан, аввало мунис онани рози айлагил”, деган сўзлари айни вақтда сиёсат билан ҳамоҳанг бўлди десак, айни ҳақиқатдир.

“Ўзбекистон-2030” стратегияси доирасида сайлов кодексида депутатликка номзодларнинг 40 фоизи ёки ҳар 5 нафаридан 2 нафари аёл киши бўлиши зарурлиги мустаҳкамлаб қўйилди.

Бугунги кунда хотин-қизларни давлат бошқарувидаги улуши 2017 йилдаги 27 фоиздан 35 фоизга кўтарилди.

Тадбиркор хотин-қизлар сони 205 мингдан ошди, 279 мингдан зиёд тадбиркорлик лойиҳасига 13 триллион сўмдан ортиқ кредит ажратилди, 200 минга яқин аёллар касб-ҳунар ва тадбиркорликка ўқитилди, 400 мингдан ортиқ хотин-қиз иш билан таъминланди.

“Аёллар дафтари” бўйича 1 триллион 234 миллиард сўм ҳисобидан, 994 минг хотин-қизнинг муаммоси ҳал бўлди. Ҳозирги кунда олийгоҳларда таълим олаётган 1 млн 300 нафардан ортиқ талабанинг 653 мингдан зиёдини яъни 50,2 фоизини қизлар ташкил этмоқда.

Эҳтиёжманд оилаларнинг 1914 нафар хотин-қизи олийгоҳларга қўшимча давлат гранти бўйича ўқишга қабул қилинди.

181 минг 500 нафаридан ортиғига таълим кредитлари ажратилди, 2 мингдан зиёд талаба учун 14 млрд 500 млн. сўм контракт пули маҳаллий бюджетидан қопланди. “Бир миллион дастурчи” лойиҳаси доирасида таълим олаётган ёшларнинг 47 фоизи, яъни қарийб ярмини қизлар ташкил этмоқда.

Кейинги пайтда юртимизда илм-фан ва таълим, хусусан олий таълим соҳаси ислоҳ этилиб, жаҳон стандартларига мослаштирилганлиги сабабли, хотин-қизларимиз бу йўналишда катта натижаларга эришмоқда.

Биргина 2023 йилнинг ўзида 147 нафар хотин-қиз фан доктори, 1 минг 238 нафари эса фалсафа доктори илмий даражасига эришди.

Ўзбекистон парламенти аёл депутатлар сони бўйича дунёдаги 190 та миллий парламент ўртасида 37-поғонага кўтарилди. Ҳолбуки, бундан 5 йил илгари 128-ўринда эдик.

Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги қонуни қабул қилиниб, гендер тенглигига катта аҳамият қаратилди. Бунда давлат органлари ва ташкилотлари томонидан ўз фаолиятларини, шу жумладан, кадрлар сиёсатини олиб боришни хотин қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари таъминланиб, қонунийлик, демократизм, хотин-қизлар ва эркакларнинг тенг ҳуқуқли, очиқлик ва шаффофлик принципларига амал қилинмоқда.

Бу ёндашув ўз навбатида хотин-қизларни жамиятда ўз салоҳияти, билими, иқтидори ва ташкилотчилик қобилиятларини кенг миқёсда намоён этиш имкониятини яратади.

Шу ўринда узоқ тарихда ўчмас из қолдирган Нодирабегим, Увайсий, Тўмарис, Барчинойларни тилга олмасликни иложи йўқ. Буюк саркарда, адолатли шоҳ Амир Темурни онаси Такина Моҳбегим, (Тегина хотун) ни, Олой Маликаси Қурбонжон додҳоҳни, Бобурийлар сулоласи вакили Зебуннисо бегимни ёд олишни ўзи, ўзбек миллатининг хотин-қизлари нечоғлик жасур, оқила, маънавиятли ва буюк ишларга қодир эканлигини кўрсатади.

Буюк соҳибқирон Амир Темурнинг бир неча аср олдин: ”Ўғилларим, набираларим ва яқинларимни уйлантирмоқ ташвишида келин изламоққа эътибор бердим. Бу ишни давлат юмушлари билан тенг кўрдим. Келин бўлмишнинг насл-насабини, етти пуштини суриштирдим. Хос одамлар орқали соғлиқ-саломатлигини, жисмоний камолотини аниқладим. Келин бўлмиш насл-насаби, одоби-ахлоқи, соғлом ва бақувватлиги билан барча қусурлардан холи бўлсагина, эл-юртга катта тўй-томоша бериб, келин туширдим” деган фикрлари, асрлар ошсада ўз қийматини йўқотгани йўқ. Чунки, фарзанд тарбиясида хотин-қизларимиз масъул экан, улар албатта маънавиятли, маърифатли ва тарбияли ва жисмонан соғлом бўлмоғи даркордир. Дарҳақиқат, “аёллари маърифатли ва зиёли юртнинг келажаги порлоқ бўлади” деган фикр бежиз айтилмаган.

Негаки, билимли ёш авлодни ўқимишли оналар тарбиялайди. Билимли ёшлар эса юрт келажагини яратади.

Бугунги глобаллашув даврида замон билан ҳамнафас фаолият юритаётган хотин-қизларимиз нафақат жамият фаоли, балки юрт ифтихоридир.

Шу боис уларни интеллектуал салоҳиятини янада ошириш муҳим аҳамият касб этиб, улар олдида турган тўсиқларни бартараф этиш, муаммолар ечимини топиш ҳамда юксак иқтидор эгаларини қўллаб қувватлаш жамиятнинг муҳим вазифаларидан биридир.

Глобаллашув жараёнида хотин-қизлар интеллектуал салоҳиятини оширишнинг замонавий ечими, бу уларга тил ўргатиш, ташкилотчи ва иқтидорли хотин-қизларга ишониб, маъсулиятли вазифаларни топшириш,

хориж давлатларида олий таълимни кейинги босқичларида ўқиши учун имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларни ҳаётий муаммоларида кўмаклашиш, айниқса, уларни эркаклар билан бир қаторда жамиятнинг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида кўриш ва уларга эҳтиром кўрсатиш, бу энг тўғри ва энг оқилона ечимдир.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ШАРҚОНА ҚАДРИЯТЛАР

М.Б.Юлдошева
Навоий вилояти “Устозлар” нодавлат нотижорат ташкилоти раҳбари, т.ф.н, доцент.

Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди. У халқларнинг қонида, тарихий хотирасида сақланади ва амалий ишларда намоён бўлади.
Ш.Мирзиёев

Янги Ўзбекистонда шарқона қадриятларни амалга ошириш янада муҳим аҳамият касб этиб бормоқда. Ўзбекистонда гендер тенглиги сиёсати бўйича олиб борилаётган ишларни кузатар эканмиз, бугунга қадар мазкур йўналишда 40 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжат, жумладан, 2 та қонун, Президент фармон ва қарорлари қабул қилинган.Гендер сиёсатини амалга оширишда оилаларни мустаҳкамлаш, муносабатларда барча оила аъзолари масъуллигини ошириш, эрта никоҳ, яқин қариндошлар ўртасидаги никоҳ, эрта туғруқ ҳамда оилавий ажралишларнинг олдини олиш, соғлом турмуш тарзини шакллантириш каби ижобий ишлар мақсад қилиб қўйилган. Бу борада устувор вазифа сифатида шарқона гендер сиёсатини амалга ошириш муҳим аҳамиятга эгадир. Шарқона гендер сиёсати эса оилалардаги ахлоқий-маънавий қадриятларимиз билан бевосита уйғунлаштирилган ҳолда шакллантирилиши лозим.

Давлатимиз томонидан берилаётган имконият ва имтиёзларни суиистеъмол қилмаган, Шарқ маърифати ва маънавиятининг асосларига суянган ҳолда ҳуқуқий маданиятимизни ошириб боришимиз ва унга амал қилишимиз зарур.

Бу борада Навоий вилояти “Устозлар” ННТда ҳам бир қанча ижобий ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ташкилот Халқ депутатлари Навоий вилояти Кенгаши ҳузуридаги Жамоат фондининг 2023 йил Давлат грантлари 3-танлови **“**Хотин-қизларни ҳар томонлама соғлом, юксак билимли ва маънавиятли оналар этиб тарбиялашда, уларни мустақил ҳаётга тайёрлашда оиланинг, кекса авлод вакилларининг, хотин-қизлар фаолларининг таъсирини ошириш” номинациясида иштирок этиб, “Қиз бола тарбияси – миллат келажаги” номли лойиҳаси ғолиб деб топилди.

Давлат грантининг мақсади - қизларнинг ҳар томонлама соғлом, юксак билимли ва маънавиятли оналар этиб тарбиялаш ва ҳаётда муносиб ўрин эгаллашида кекса авлод вакилларининг бой ҳаётий тажрибасидан кенг фойдаланишдан иборат бўлиб, белгиланган вазифаларни 2024йилда амалга ошириш учун малакали тренер, модераторлар билан бир қаторда Навоий шаҳрида истиқомат қилаётган илм-фан, таълим, соғликни сақлаш ва халқ хўжалигининг барча соҳаларида ўзларининг самарали меҳнати билан

муносиб ҳисса қўшган, эл-юрт ҳурматига сазовор бўлган фаол, серғайрат кекса авлод вакиллари – устозлар ҳам жалб қилинди.

Шу аснода, давлат ва нодавлат ташкилотлар билан Мемарандум, шартномалар тузилди, Навоий давлат университети, НДКТУ, Навоий инновациялар университети ҳамда “PROFI UNIVERSITY” НОТМ Навоий филиалларида талаба - қизлар учун 16та **“**Қиз бола – миллат келажаги**” номли** семинар-тренинглар ўтказилди. Талаба қизларни ҳар томонлама соғлом, юксак билимли ва маънавиятли инсон сифатида жамиятдаги ўрнини топиши мақсадида олий ўқув юртлари талабалар турар жойларида намунали аёллар билан 10та “Момалар ўгити” мавзусида учрашувлар, давра суҳбатлари ташкил қилинди. Ушбу амалга оширилган ишлар оммавий ахборот воситалари ва турли каналларда доимий равишда ёритиб борилди.

Грант доирасидаги “Қиз бола – миллат келажаги” танловида вилоятдаги барча олий ўқув юртлари талаба - қизлари иштирок этишди. Улар танлов Низомига асосан “Орзу ва ҳаёт”, “Оилада тенглик - бу...”, “Мен – “миллат келажаги”ни тарбиялайман”, “Менинг орзуларим” ва “Эркин мавзу”ларда иншо, эссе ёзишди. Навоий вилоят Болалар кутубхонаси директори, депутат Р.Ризаева, Ўз.ФА Навоий бўлими катта илмий ходимлари к/х.ф.ф.д. Ш.Қодирова, Ҳ.Суярова ва “Саодат сари” ижтимоий кўмак жамоат бирлашмаси раиси Ш.Шокировалардан иборат ҳайъат аъзолари томонидан ишлар текширилиб, муносиб баҳоланди.

2024 йилнинг 5-апрель куни танловнинг тақдирлаш маросими бўлиб ўтди. Тадбирда Халқ депутатлари Навоий вилояти Кенгаши ҳузуридаги Жамоат фонди раиси Ҳ.Ғ.Жумаев, Навоий вилояти Оила ва хотин-қизлар бошқармаси ва вилоятдаги барча олий ўқув юртлари масъул ходимлари, “Устозлар” нодавлат нотижорат ташкилоти аъзолари ҳамда талаба-қизлар иштирок этишди. Тадбирга Навоий давлат университети Хотин-қизлар масалалари бўйича ректор маслаҳатчиси, доцент Н. Ҳ.Турсунова модераторлик қилди.

“Қиз бола – миллат келажаги” танлови номинациялари ғолиблари: “Энг маърифатли қиз” - Навоий инновациялар институти “Филология ва тилларни ўқитиш” факультети талабаси Норқулова Гули, “Энг китобхон қиз” - НДКТУ “Химия металлургия” факультети талабаси Данақулова Райхона,“Энг зукко қиз”- “PROFI UNIVERSITY” НОТМ Навоий филиали “Педагогика ва психология” факультети талабаси Исмаилова Севинч, “Энг маънавиятли қиз” - НДПИ “Ўзбек тили ва адабиёти” факультети талабаси Шарипова Дурдона, “Энг билимдон қиз” - НДПИ “Физика-астраномия” факультети талабаси Саломова Матлубалар ва энг фаол тренинг иштирокчилари ҳамда ташкилот аъзолари ташаккурнома ва эсдалик совғалар, китоблар билан тақдирландилар. Тақдирлаш маросимида сўзга чиққан “PROFI UNIVERSITY” НОТМ Навоий филиали ўқув-тарбия ишлари бўйича проректори С.К.Ҳасанова, Навоий давлат университети Мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, доцент Г.Д.Шамсиддинова ва Навоий вилояти “Устозлар” нодавлат нотижорат ташкилоти фаоллари Г.И.Норқулова,

Г.Ҳ.Алиева, С.Б.Холдоровалар ушбу Давлат гранти қизлар тарбияси каби бугунги куннинг долзарб бўлган муаммосининг ечимига калит бўлишига хизмат қилиши, туркум тадбирлар миллат тарбиячилари - бўлажак келинларга, ёш оналарга берилган эътибор ва тавсиялар албатта мевасини бериб, Янги Ўзбекистоннинг тараққиётини белгилаб беришда асосий восита ва куч бўлиб хизмат қилишини эътироф этишди.

Ташкилот Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз уч йиллик байрамига бағишланган “Бир бўлсак-ягона халқмиз, бирлашсак - Ватанмиз!” деган бош ғоя остида Навоий шаҳар “Ватан” маҳалла фуқаролар йиғини билан ҳамкорликда маҳалла қизлари ўртасида “КИТОБХОН ҚИЗ” танлови ва 2024-йил 10-сентябрда Навоий давлат университетида "Юртим тарихи қадар қадим ХОНАТЛАС" фестивали ўтказди.

Навоий вилояти “Устозлар” нодавлат нотижорат ташкилоти 2024-йилда 18та ўқув-семинарлари, 10та давра суҳбати ва 6та маънавий-маърифий тадбирлар ўтказган. Тадбирларда оилавий-ахлоқий қадриятлар, хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни, шарқона гендер тенглигини таъминлаш каби тарғиботларга кенг ўрин берилмоқда.

Лойиҳаси доирасида гендер сиёсати, хотин-қизларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ҳақида гапирилганда талаба қизларнинг бир қанчасининг тазйиқ ва зўравонликка учрагани ҳам маълум бўлди. Тренерлар улар билан алоҳида суҳбат қилиб, тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилинишнинг ҳуқуқий асосларини тушунтириб беришди. Айниқса маҳаллаларда ўтказилган тадбирларда бу ҳолат янада кўп эканлиги ва хотин-қизларимизнинг бу ҳақда маълумотлари йўқлигини кўрсатди. Шу аснода, инсонларга тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олиш мақсадида маҳаллаларда нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари ҳамкорлиги йўлга қўйилса таъсирчан ва фойдали ишлар кўлами кенгайишига эришилади ва Янги Ўзбекистонда шарқона қадриятлар қарор топиб боради.

Шу сабабли:

-катта авлод вакиллари турмуш даражаси ҳамда сифатини ошириш мақсадида халқаро тажрибаларни чуқур ўрганиб амалдаги қонунчилик ва бугунги кунда уларда учраётган муаммоларни ечимига қаратилган норматив-ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш юзасидан таклифлар ишлаб чиқиш;

- Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларини пенсионерлар орасида тарғибот қилиш ҳамда Шарқ маърифати ва маънавиятининг асосларига суянган ҳолда аҳолининг ҳуқуқий маданиятини шакллантиришга кўмаклашиш;

-ташкилий-ҳуқуқий шаклидан қатъи назар ташкилотлар раҳбарлари пенсияга чиққан ходимларга ҳам ғамхўрлик ва эътибор кўрсатиши, меҳнат жамоасининг жамият ҳаётида фаол қатнашишини, айниқса, Шарқона гендер сиёсати эса оилалардаги ахлоқий-маънавий қадриятларимизни сақлашда шунингдек ҳуқуқлари бузилганда кўмаклашишни, санатория-курортда соғломлаштириш ва даволашни ташкил этишни, шунингдек муқаддас жойларга ва зиёратгоҳларга экскурсиялар ташкиллаштиришни таклиф этамиз.

AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNING SABABLARI VA OQIBATLARI

Kasimova Zumrad Rahmatovna
JDPU, Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanishining sabablari, oqibatlari va uning oldini olishga doir masalalar bayon etilgan. Shuningdek, zo‘ravonlikka duch kelgan ayollarning huquqlarini himoya qilishni tartibga soluvchi turli xil huquqiy normalar va bu boradagi qonunchiligini takomillashtirish oilada ayollar huquqlarini buzilishiga qarshi kurashish mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: xotin-qizlar, zo‘ravonlik, jabrlanish, sabablar, omillar, zo‘ravonlikning oldini olish, ayollar huquqlari, gender tengsizligi, oila, zo‘ravonlikning oldini olish, ayollarni himoya qilish, ijtimoiy va huquqiy asoslar, ayollar va erkaklar tengligi, ta’qib va zo‘ravonlikdan himoya qilish, gender kamsitish.

Аннотация. В данной статье описаны причины, по которым женщины страдают от насилия, и вопросы, связанные с его профилактикой. Также анализируются различные правовые нормы, регулирующие защиту прав женщин, подвергшихся насилию, и совершенствование законодательства в этой связи, а также механизмы борьбы с нарушением прав женщин в семье.

Ключевые слова: женщины, насилие, виктимизация, причины, факторы, предотвращение насилия, права женщин, гендерное неравенство, семья, предотвращение насилия, защита женщин, социальные и правовые рамки, равенство между женщинами и мужчинами, защита от притеснений и насилия, гендерная дискриминация.

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik millionlab insonlarning hayotiga ta’sir etuvchi va jamiyatga halokatli ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy global muammodir. Bu hodisa ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va madaniy jihatlarni o‘z ichiga olgan ko‘plab sabab va oqibatlarga ega.

Jamiyatdagi tengsizlikka asoslangan munosabatlarni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy normalar, urf-odatlar, oilaning ijtimoiy mavqeining pastligi, shuningdek bolalikdan zo‘ravonlik ta’sirida voyaga yetish oilaviy zo‘ravonlik kabi salbiy hodisalarning yuzaga kelish xavfini oshiradi.

Ayollarga nisbatan zo‘rlik ishlatish yo‘li bilan sodir etiladigan jinoyatlarning asosida turli sabablar yotadi. Ayollarning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va ularni tartibga soladigan normalar, gender notenglik xamda boshqa ijtimoiy, iqtisodiy va ruhiy omillar asosida shakllanadi. [1]

Ayollarga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonliklarni beshta asosiy sabablarini ko‘rsatishimiz mumkin:

Patriarxal asoslar va gender stereotiplari;

Qonunchilikni tartibga solish va ijro etishning yetarli darajada emasligi;

Ayollarning iqtisodiy qaramligi;

Spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar;

Jarohatli kechinmalar va irsiy xulq-atvor shakllari.

Uzoq vaqt davomida jamiyatda xotinlar erlariga bo‘ysunishi va juda cheklangan
huquqlarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblanar edi. O‘tgan asrlarda erlar o‘z xotinlarining xatti-harakatlarini deyarli cheksiz nazorat qilishlari mumkin edi. Ayollar va erkaklarning roli haqidagi an’anaviy g‘oyalar ustunlik qiladigan jamiyatda zo‘ravonlik ko‘pincha norma sifatida qabul qilinadi. Ayollar erkaklarga bo‘ysunadi, bu esa tajovuzni oqlashga yordam beradi.

Ko‘pgina mamlakatlarda ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qiluvchi kuchli qonunlar yo‘q, yoki ularning ijro etilmasligi ya’ni, zo‘ravonlarning jazolanmasligi shu kabi jinoyatlarning ko‘payishiga olib keladi.

Ayniqsa zo‘ravon shaxsga iqtisodiy qaramlik ayolning zo‘ravonlik munosabatlarining qurboniga aylantiradi hamda, o‘zini-o‘zi iqtisodiy ta’minlay olmasligidan qo‘rqish, tazyiq va zo‘ravonliklarga qarshi kurashishga nisbatan ishonchini yo‘qotishiga olib keladi. Zo‘ravonlikka uchragan ayollarning asosiy qismini o‘qimaydigan yoki ishlamaydigan va uyda o‘tiradigan ayollar tashkil qiladi. Ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan himoyaga ega bo‘lgan ayollar esa maishiy zo‘ravonlikka kamroq duchor bo‘ladilar.

Zo‘ravon tomonidan giyohvand moddalarni iste’mol qilish ham oilalarda va munosabatlarda zo‘ravonlik xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Ko‘p hollarda zo‘ravonlikka moyillik bolalikdan shakllanadi. Zo‘ravonlik muhitida o‘sgan bolalar balog‘at yoshida bu zo‘ravonlik xatti-harakatlarini takrorlaydi va jabrlanuvchidan tajovuzkorlarga aylanadi.

Rossiyalik olim O.K.Таусинова o‘z tadqiqotlarida zo‘ravonlikning uchta asosiy sababini ko‘rsatib o‘tadi. Muallifning ta’kidlashicha:

- Patriarxal munosabatlar - chuqur ildiz otgan an’anaviy gender stereotiplari erkaklar va ayollar o‘rtasidagi rollarni taqsimlashdagi tengsizlik oilaviy munosabatlardagi zo‘ravonlikni oqlashga yordam beradi.

- Ijtimoiy-iqtisodiy omillar - ta’lim darajasining pastligi, ayollarning iqtisodiy qaramligi va umumiy ijtimoiy beqarorlik salbiy ta’sir ko‘rsatib, zo‘ravonlikning paydo bo‘lishiga yordam beradi.

- Psixologik va ijtimoiy sabablar - stress, oilaviy muammolarni omma oldida muhokama qilishdan to‘sqinlik qiladigan ijtimoiy me’yorlar va an’analar zo‘ravonlik xavfini oshiradi. [2]

Yuqorida keltirib o‘tilgan tadqiqot tahlillaridan hamda, gender tengsizlik sohasida ayollardagi ma’lumot darajasining pastligi, daromad olish va oilada qarorlar qabul qilishdagi tengsizlik, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning quyidagi oqibatlarini keltirib chiqaradi:

1. Jismoniy va ruhiy jarohatlar - zo‘ravonlik qurbonlari ko‘pincha jiddiy sog‘liq muammolariga duch kelishadi, ular jarohat natijasida surunkali kasalliklarga, ruhiy tushkunlik va jarohatdan keyingi stressga duchor bo‘lishadi;

2. Iqtisodiy yo‘qotishlar- zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan ayollar ishini yo‘qotishi yoki psixologik yohud jismoniy muammolar tufayli ishlash imkoniyatlari cheklanishi;

3. Oilalar va ijtimoiy aloqalarning buzilishi - zo‘ravonlik oilaviy munosabatlarning buzilishiga, yaqinlar bilan aloqalarning uzilishiga va jabrlanganlarning izolyatsiyasiga;

4. Bolalarga salbiy ta’sir ko‘rsatish- zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan bolalar psixologik jarohat olish xavfi yuqori bo‘lib, bu ularning kelajakdagi xatti-harakati va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib kelishi mumkin.

Gender tenglilikni e’tirof etgan mamlakatlarda ayollarga nisbatan zo‘rlik ishlatib sodir etilayotgan jinoyatlar soni keskin kamayib bormoqda.

Bu borada, O‘zbekistonda ham xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash sohasida jadal islohotlar olib borilmoqda. Bu avvalo Respublikamiz Konstitutsiyasida barcha fuqarolarning tengligi belgilab qo‘yilganligini, shuningdek, 19, 58, 79, 80, 81, 82-moddalari bilan bevosita ayollar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati mustahkamlanganligini, xalqaro hujjatlarda bo‘lgani kabi, ichki qonunchilikda ham jins belgisi bo‘yicha kamsitishning ta’qiqlanishi to‘g‘risidagi qoida birinchi o‘ringa chiqarilganligini ta’kidlash o‘rinlidir [3].

Shuningdek, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi [4], “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi [5] Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi 3-son Qarorlari [6] ham shular jumlasidandir.

Shunga qaramay, ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, ayniqsa oiladagi zo‘ravonliklar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar doimiy ravishda keng jamoatchilikning ishtiroki va hamkorligiga muhtoj jarayon sifatida hali ham uchrab kelmoqda.

Shu bois, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

• qonunchilikni qat’iylashtirish va uni samarali amalga oshirish;

• jamiyatni huquqiy tarbiyalash va gender stereotiplarini yo‘q qilish.

• ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish;

• xotin-qizlarning ta’lim olishlari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish va ta’lim orqali ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish;

• gender rollari haqidagi jamoatchilik fikrini o‘zgartirish uchun ayollar va erkaklar o‘rtasida ta’lim darajasini oshirish va zo‘ravonlikka mutlaqo toqat qilmaslik.

Xulosa o‘rnida, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish jamiyat, davlat va xalqaro tashkilotlarning kompleks yondashuvini va ishtirokini talab qiladi. Faqat birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali biz bu hodisa ko‘lamini qisqartirish va hamma uchun adolatli jamiyat yaratishimiz mumkin.

Adabiyotlar.

1. A.G.Zakirova, Q.R.Abdurasulova. Xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanishning sabablari va uning oldini olish. “Mahalla va oila nashriyoti” Toshkent – 2022

2. Таусинова О. К. Причина и последствия насилия в отношении женщин. СЕТЕВОЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «ЛИЧНОСТЬ В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ: ЗДОРОВЬЕ, АДАПТАЦИЯ, РАЗВИТИЕ» www.humjournal.rzgmu.ru / E-mail: humjournal@rzgmu.ru

3. M.Seyitnazarov. O‘zbekiston respublikasining ayollarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslari-N.:2016 y

4. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun. https://lex.uz/docs/-4494849

5. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun https://lex.uz/docs/-4494709

6. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-sonli Qonun. https://lex.uz/docs/-6430272

7. Z.Kasimova Elimination of Discrimination Against Women in Labor Relations and Labor Rights Guarantees. Texas Journal of Multidisciplinary Studies https://zienjournals.com. 2023

GENDER TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA “OQILA AYOLLAR” HARAKATINING O‘RNI

Bobomurodova Anora Yavqochtiyevna
Navoiy viloyati “Oqila ayollar” harakati yetakchisi

Prezidentimiz 2022 yilning 1 mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Oqila ayollar” harakatini tashkil qilishni taklif etib, «Bu harakat tom ma’noda mahallaning vijdoniga aylanishi kerak. Chunki ma’rifatli jamiyatni ma’rifatli onalarsiz qurib bo‘lmaydi. Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma’naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni oila, onalar ma’naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur”ligi haqida gapirdilar.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oqila ayollar” harakati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 437-sonli qarori qabul qilinib, mazkur qarorning ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomga asosan viloyat Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda 11 ta tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limlarida jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi “Oqila ayollar” harakati jamoatchilik tuzilmasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Harakatning maqsadi - jamoatchilikka, eng avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata oladigan obro‘-e’tiborli va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, faol va tashabbuskor ayollarning sa’y-harakatlarini birlashtirish orqali jamiyatda yangi ma’naviy makon yaratishda xotin-qizlarning faolligini qo‘llab-quvvatlash, ezgu g‘oyalarni singdirish, farzand tarbiyasi, oila, xotin-qizlar ma’naviyatini yuksaltirish ishlarining samaradorligini oshirishdan iborat.

Ma’lumki, ushbu harakatning asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Jamiyatda yangi ma’naviy makon yaratish, ezgu g‘oyalar, milliy qadriyatlar va muqaddas an’analarni singdirishga qaratilgan tizimli targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

Mahallalarda oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-onaning mas’uliyati va ma’rifatli jamiyat qurishda ma’rifatli onalarning rolini keng targ‘ib qilish;

Ayollar, ayniqsa, yosh qizlarda oilaga va Vatanga sadoqat, fidoyilik va tashabbuskorlik tuyg‘ularini singdirish, “odobli qiz” va “ma’rifatli ona” qiyofasini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

“Oqila ayollar” harakat xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishda Gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekistonlik vatandosh xotin-qizlar kengashi, O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Shu vazifalaridan kelib chiqib, “Oqila ayolla” harakati gender tenglikni targ‘ib qilish va ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan ishlarni ham amalga oshiradi.

Harakat a’zolari tomonidan gender tenglikni shakllantirish va rivojlantirish uchun qanday ishlar olib borilishi kerak?

Ayollarning gender tushunchasini shakllantirish va rivojlantirish jamiyatda tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarning imkoniyatlarini oshirish uchun muhimdir. Bu jarayonda quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borilishi muhim deb o‘ylaymiz:

1. TA’LIM VA SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Maktab va oliy ta’limda gender masalalariga e’tibor berish – Darslik va o‘quv dasturlarida gender tengligi bo‘yicha ma’lumotlarni kengroq yoritish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar kiritish.

Ayollar uchun huquqiy savodxonlik, shaxsiy rivojlanish va iqtisodiy mustaqillik bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish.

Ayollar va qizlar uchun motivatsion seminarlar o‘tkazish, ya’ni O‘zbekiston va dunyoda muvaffaqiyatga erishgan ayollar hayoti va faoliyati misolida ularga ilhom berish.

2. HUQUQIY SAVODXONLIK VA QONUNLARNING IJROSI

Xotin-qizlarning huquqlari haqidagi ma’lumotlarni keng tarqatish – Gender tengligi va ayollar huquqlari bo‘yicha qonunlarni jamoatchilikka yetkazish. Ushbu qonunlarning ijrosini ta’minlashda ishtirok etishlari uchun ularning faolligini oshirishga yordam berish .

Ayollar uchun huquqiy maslahat xizmatlarini kengaytirish – Gender zo‘ravonligi, mehnat huquqlari va oilaviy munosabatlardagi tenglik bo‘yicha maslahat berish.

3. IQTISODIY MUSTAQILLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASh

Ayollar uchun biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari – ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish uchun imtiyozli kreditlar va grantlar ajratishni faol qo‘llab-quvvatlash.

Ayollarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirish – ayniqsa, rahbarlik va ilmiy sohalarda ayollarning ishtirokiga rag‘bat berish.

Onlayn ishlash va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini oshirish – ayollar uchun texnologik bilimlarni oshirish va masofaviy ishlash imkoniyatlarini yaratish.

4. JAMOATCHILIK ONGINI O‘ZGARTIRISH

Gender stereotiplariga qarshi targ‘ibot ishlarini olib borish – media va ijtimoiy tarmoqlar orqali ayollarning turli sohalarda muvaffaqiyatga erishganini ko‘rsatish.

Kuchli ayol qiyofasini shakllantirish – matbuot, kino va ijtimoiy tarmoqlarda ayollarning ijtimoiy faolligi haqida maqolalar va videolar tarqatish.

Jamiyatda ayollarga nisbatan munosabatni o‘zgartirish – erkaklar va ayollar o‘rtasida tenglikni qo‘llab-quvvatlash uchun ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish.

5. MAHALLIY VA XALQARO HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH

Gender tengligi bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish – BMT, YuNYeSKO, UN Women kabi tashkilotlar bilan birgalikda dasturlar ishlab chiqish.

Xotin-qizlar uyushmalari va harakatlarini qo‘llab-quvvatlash – “Oqila ayollar” harakati, shuningdek, oila va xotin-qizlar masalalari bilan shug‘ullanish maqsadida tashkil etilgan nodavlat tashkilotlar faoliyatini yaxshilashga ko‘maklashish, ularning davlat tashkilotlaridagi xotin-qizlar bilan ish olib borishlarida hamkorlikni kengaytirish.

Ayollar uchun jamoaviy tarmoqlar yaratish – ular o‘z muammolarini muhokama qilish va yechim topish uchun platforma yaratish.

Xulosa qilib aytganda, ayollarning gender tushunchasini shakllantirish va rivojlantirish uchun ta’lim, huquqiy savodxonlik, iqtisodiy mustaqillik, jamoatchilik ongini o‘zgartirish va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarida keng ko‘lamli ishlar olib borilishi zarur.

Bunday tizimli ishlar ayollar dunyoqarashining o‘zgarishi bilan butun jamiyatning rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

“Millatni onalar tarbiyalaydi” deydi buyuk mutafakkirlarimiz. “Oqila ayollar” imizning jamiyatda yangi ma’naviy makon yaratish, ezgu g‘oyalar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, muqaddas an’analarni singdirishda o‘z aql-zakovati, mehr-oqibati, azmu-shijoati bilan yurtimiz rivojiga, oilalarning mustahkam bo‘lishiga, tinchlik va hamjihatlikni saqlashga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini tizimli tashkil etishlariga ishonch bildiramiz.

JAMIYATDA OLIMA AYOLNING O‘RNI

Nasirova Shaira Narmuradovna
Navoiy davlat universiteti,
Informatika kafedrasi, professor

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo‘lishlari hamda sog‘lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog‘lom farzand tug‘ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog‘ligini muhofaza qilish davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e’tiboridagi eng

ustuvor vazifa ekanligiga alohida e’tibor qaratmoqda. Ma’lumki, millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Mamlakatimizda yurtimiz xotin- qizlarining jamiyatdagi o‘rni, ularning oilaga bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g‘oyatmuhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei har jihatdan yuqori baholanmoqda.

Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda, jumladan jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni yechishda oliy ta’lim tizimini mustahkamlash, innovatsion iqtisodiyot taraqqiyotiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri mazkur sohani va olimlarni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Bugungi kunda azizu mukarram ayollarimizning barcha soha va tarmoqlardagi o‘rni va ta’siri yanada ortib bormoqda. Ayollarimiz orasida taniqli davlat va jamoat arboblari, jumladan, o‘nlab senator va deputatlar, vazir va hokimlar, O‘zbekiston Qahramonlari, akademiklar, professorlar, O‘zbekiston xalq shoirlari, Xalq o‘qituvchilari, Xalq artistlari, nodavlat tashkilotlarning faol vakillari borligi barchamizni quvontiradi.

Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim soha bo‘lib, Yangi O‘zbekiston jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo‘nalishini ma’lum darajada belgilab bergan ulug‘ allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarining ustuvor vazifalardan biri sifatida jamiyatimizning turli sohalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari, innovatsion texnologiyalarga tayanish zarurligi alohida e’tirof etilmoqda. Bu yo‘lda salmoqli yutuqlarga ham erishildi. Oliy ta’lim muassasalari respublikamiz innovatsion salohiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab texnologiyalarni yoki strategiyalarni yaratish va joriy etishda yetakchilik qilishga intilmoqdalar.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalaridan samarali foydalanishga asoslangan ilg‘or interfaol ta’lim texnologiyalarini joriy etish professor-o‘qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati va mahorati doimiy oshib borishi bilan uyg‘unlikda barqaror rivojlanadigan iqtisodiyot uchun global fikrlovchi va kompetent kadrlarni tayyorlashga kafolat berishi mumkin. Ta’kidlash joizki, Yangi O‘zbekistonda bugungi kunda ta’lim tizimi muntazam va uzluksiz ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining shiddatli rivojlanishiga hamohang holda ta’lim muassasalarida o‘qitishning yangicha shakl va usullaridan foydalanish jarayoni kuzatilmoqda.

Olima ayollarning ilm fan rivojidagi o ‘rni muhim va ahamayatlidir. Tarixdagi bo‘lgan to‘siqlar va jamiyatdagi gender notengliklarga qaramasdan ko‘pgina ayollar bir necha sohalarada misli ko ‘rilmaga yutuqlarga erisha olganlar. Ularning ilmiy izlanishlari va innovatsion g‘oyalari ilm fan rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsata olgan.

Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos oliyjanob xususiyatlardan biridir. Shu ma’noda O‘zbekistonda xotin- qizlarningjamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy- ma’naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo‘lgan munosabat va e’tibor bilan bog‘liq.

Mamlakatimiz Prezidenti ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo‘lishlari hamda ilm-fanda o‘z hissalarini qo‘shishlari uchun yuzlab shart-sharoitlar yaratilgan.

Bugun jamiyatimizning ilmiy-texnikaviy faoliyatida xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda. Olima ayollar tomonidan ilm-fan sohasidagi izlanishlar ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy-siyosiy sohalarning rivojiga salmoqli hissa bo‘lmoqda. Zero, tarixga nazar solsak Ada Lavleys tarixdagi birinchi dasturchi ayol hisoblanadi. Dasturlashtirish olamidagi eng mashxur shaxslardan biri. O‘nlab dessertatsiya yozgan olimlar erisha olmagan natijaga Ada 50 betlik maqolasi bilan erishgan.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo‘lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo‘shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Bu, o‘z navbatida, hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismi bo‘lib kelayotganining yorqin dalolatidir. Jamiyatning demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan nechog‘lik ilgarilab ketgani – shu jamiyatning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma’naviy saviyasi bilan belgilanadi. Zero, oqila, go‘zal ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

AYOL VA FARZAND - QIZ BOLA TARBIYASI

Djabbarova M.M.
TDTU, katta o‘qituvchi

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda, bir so‘z bilan aytganda yoshlarning intnlektual salohiyatini yuksaltirish, ularga chuqur bilim berish va keng dunyoqarashga ega bo‘lgan, yetuk ma’naviyatli shaxs etib tarbiyalash bugungi kunning bosh talabiga aylandi. Chunki ma’rifatparvar Abdulla Avloniy aytganidek “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidur”.

Ta’lim tarbiya ong mahsuli bo‘lishi bilan birga ong darajasi va uning rivojini belgilab beruvchi omil hamdir. Zero ta’lim-tarbiya jarayonida tub islohotlarni o‘tkazmasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Yangicha tafakkur tarzini shakllantirmasdan esa ozod va obod jamiyat barpo etib bo‘lmaydi. Demokratik jamiyatning ustivorligiga mos keladigan yangicha ongni shakllantirish ikki asosiy

omil ta’sirida, ya’ni bevosita ijtimoiy amaliyotda hamda ta’lim-tarbiyaning maqsadli yo‘naltirganligida amalga oshiriladi.

Ayol-tabiatning betakror va fusunkor mo‘jizasi, insoniyatning davomiyligini ta’minlovchi buyuk malak bo‘lishi bilan birga ongu tafakkurini rivojlantiruvchi, ta’lim-tarbiya beruvchi hokisor murabbiy hamdir. Istiqlol sharofati tufayli xotin-qizlarning haq-huquqlari, jamiyatdagi o‘rni ijobiy tomonga tubdan o‘zgardi. Qachonlardir “ojiza” deb ta’riflangan bu ayol endi kelajak avlodni tarbiyalovchi qudratli kuch sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Abdulla Avloniy inson tarbiyasini bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uch yo‘nalishga bo‘ladi. Ular – badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasidir. Ayol zoti shu uch unsur asosida nafaqat o‘zini, balki yosh avlodni tarbiyalash ma’suliyatini ham zimmasiga olgan. Endigina tug‘ilgan go‘dakning badan va fikr tarbiyasiga, bolaning axloqi, odobiga kim ko‘proq e’tibor beradi, albatta ona. Shundan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalovchi shaxs sifatida, onani ko‘rsatish o‘rinlidir.

Farzand tarbiyalashda xotin-qizlar qanday omillarga jiddiy munosabatda bo‘lishi kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Ayol eng avvalo, bolaning sog‘ligiga e’tibor qaratmog‘i shart. “Sog‘lik – bu faqat to‘liq jismoniy, ruhiy hotirjamlik va ijtimoiy farovonlikni, kasallik holati yo‘qligini anglatibgina qolmaydi. Ayni tibbiy nuqtaiy nazardan sog‘liq – bu organizm ichki muhitining barqarorligi, ya’ni faoldiyati sharoitlari doim o‘zgarib turadigan va odamning o‘z organizmiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq holda, biologik faol moddalar muvozanatidir”

Ona o‘z farzandining sog‘lom turmush tarziga, ya’ni jismoniy, ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy sog‘ligiga jiddiy e’tibor bermog‘i kerak. Chunki inson umri uzoqligi “sifati”ning 40 foyizi aynan turmush tarziga bog‘liqdir.

– “O‘z haq-huquqini taniydigan, o‘z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda, shu bilan birga, o‘z shahsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish darkor”. Boshqacha aytganda, ma’naviyatli avlodning voyaga yetkazish onaning asosiy vazifalaridan biridir.

– O‘z farzandining begonalashuviga yo‘l qo‘ymasligi shart. “Xo‘sh begonalashuv nimalarda namoyon bo‘ladi? Birinchidan, u yoki bu shaxsda ijtimoiy faoliyatsizlikning yuzaga kelishi jamiyatga dahldorlik hissining yo‘qolib borishida ko‘rinadi. Bu o‘ta havfli illat hisoblanadi. Zero, boshqa odamlardan begonalashuv, pirovard natijada u yoki bu yigit-qizda o‘zgalarni o‘zining dushmani sifatida ko‘rish ruhiyatini tug‘diradi” Begonashuvga yo‘l qo‘ymaslik uchun onadan bolasini o‘zini anglashga, Vatanni, xalqni, urf-odatlarini, ma’naviyatini ulug‘lashga o‘rganish talab etiladi.

– Yoshlarni “ommaviy mdaniyat”ning har qanday ko‘rinishlaridan asrash, ularni milliy axloq va ma’naviyyat asosida tarbiyalash, har tomonlama yetuk etib voyaga yetkazish kerak.

– Eng avvalo, ona o‘zining huquqiy ekologik ongini, tafakkurini oshirib borib, ekologik madaniyati, bilimi bilan yoshlarga tevarak-atrof, muhit bilan qanday aloqa qilishni o‘rgatishi va o‘zi shaxsiy namuna ko‘rsatishi lozim. Ekologik-huquqiy tarbiyani ilk bolalik davridan: oddiydan (xonani toza tutish)

murakkablikka (tabiatning sofligini saqlash) tamoyili asosida, oila-bog‘cha-maktab-oliy ta’lim muassasasi tizimida izchil aniq maqsad sari rejali ish olib borish kerak.

– Fuqarolik ma’suliyatini oshirish ham yoshlar tarbiyasidning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, jamiyat fuqarolarning keng dunyoqarashi, kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo‘lishlari umummillat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan birlashtira olishlari ularning yagona ijtimoiy maqsad atrofida birlashishlarini ta’minlaydi.

– Ona bola muloqat san’atini belgilab beruvchi murabbiy hisoblanadi, chunki bola bilan eng ko‘p muloqotga kirishuvchi shaxs – bu onadir. Ona farzandining ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish qobiliyati uning kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligini unutishga haqqi yo‘q. Shu bois farzandning notiqlik san’atini shakllantirish va rivojlantirib borish juda muhim fazilat sanaladi.

– Hozirgi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy. Siyosiy sharoit shaxsning tolerant ong va dunyoqarashga ega bo‘lishini talab etmoqda. (Tolerant deganda ma’lum bir millat, dinga mansub bo‘lgan shaxsning o‘zi yashayotgan jamiyatdagi boshqa millat va dinga mansub bo‘lgan kishilar bilan o‘zaro hamjihatlikda yashashlari tushuniladi). Buning uchun bolaning doimo ahloqiy me’yorlarga rioya qilishi va ma’naviy-ahloqiy nuqtai nazarga ega bo‘lishini ta’minlash kerak. Shunda yosh avlod jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmaydi. Ular jinoyat va terrorchilikka nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘ladi. Chunki tolerantlik befarqlik emas, balki insoniy qalb amridir.

– Bolani bahs, munozaraga kirish, musiqa asarlaridan zavq va ilhom olishga o‘rgatish, badiiy-estetik idrok etish qobiliyatini shakllantirish, har tomonlama bilimli etib tarbiyalash biz, xotin-qizlarning muqaddas burchimizdir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ertangi kunimiz, ertangi taqdirimiz bo‘lib, ular bugun oddiy shaxslar emasa, balki jamiyat taraqqyotida faol ishtirok etuvchi ijtimoiy kuch hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafqolati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2019 yil 2-sentabr.
2. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi . – Toshkent O‘qituvchi, 1996 yil.

ТАЪЛИМДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК ВА АЁЛЛАРНИНГ ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ЎРНИ

Жумаева Феруза Рўзиевна
НавДУ Рус тили ва адабиёти кафедраси мудири, п.ф.н., доцент

Сўнгги йилларда республикамизда гендер тенгликни таъминлаш, аёлларнинг ижтимоий ва сиёсий ҳаётдаги ролини ошириш бўйича ҳамда болаларни ижтимоий, иқтисодий ва маънавий жиҳатдан ҳимоя қилиш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Хотин-қизларга нисбатан камситишларнинг ҳар қандай шаклига барҳам бериш, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳаётда қарорлар қабул

қилишнинг барча даражаларида аёлларнинг тўлиқ ва самарали иштирокини ва етакчилик қилиш учун тенг имкониятларни таъминлаш борасида ишлар олиб борилмоқда.

2021 йилнинг 28-май санасида “2030 йилга қадар Ўзбекистон Республикасида гендер тенгликка эришиш стратегиясини тасдиқлаш ҳақида тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг қарори қабул қилинган (СҚ-297-IV-сон). Ушбу қарорнинг 4-бобида Гендер стратегиясини амалга оширишнинг устувор йўналишлари белгилаб берилган, булар:

§ 1. Сайлов ҳуқуқларини амалга оширишда хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш.

§ 2. Давлат хизмати соҳасида хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш.

§ 3. Таълим, илм-фан, спорт ҳамда соғлиқни сақлаш соҳасида хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш.

§ 4. Ижтимоий-иқтисодий соҳаларда хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш.

§ 5. Тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олишда хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш.

§ 6. Оилавий муносабатлар ҳамда болалар тарбияси соҳасида хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш кўзда тутилган.

Хўш, таълим жараёнида гендер тенглик нимани англатади?

Таълим жараёнида тенглик – бу қизлар ва ўғил болаларга тенг муносабатда бўлиш, қизлар ва ўғил болаларга бир хил эътибор бериш ҳамда уларни ўқишларида тенг имкониятларга эга бўлишларини англатади.

Мен 2018 йилда ЮНЕСКО томонидан ташкил қилинган гендер масалаларига бағишланган семинар-тренингда иштирок этганман. Мутахассислар томонидан ўтказилган семинарда биз мактаб дарсликларини таҳлил қилдик.

- Турли касбга оид матнлар ва расмларда ўғил бола ва қиз болаларнинг неча марта ифода этилган, матнларда ўғил бола ва қизларнинг исмлари неча марта учрайди?

- Қайси аёл ва эркак олимларини расмлари ёки улар тўғрисида маълумотлар келтирилган ушбу дарсликларда, гендер тенглик принципига амал қилинганми дарслик муаллифлари томонидан, мана шуларни таҳлил қилдик.

- Биз дарс машғулотлари олиб борадиган гуруҳда неча нафар ўғил бола ва қанча қиз бола ўқийди?

- Дарс жараёнида ўғил болалар позицияси: улар аудиторияда олдинги қаторда ўтиришадими ёки орқа парталарда ўтиришадими? Дарсда фаол кўпроқ қатнашади ўғил болаларми ёки қизлар?

- Ўтирган синфимиз ёки аудиториядаги стендларда қайси олимларнинг расми кўпроқ: аёлларними ёки эркакларними?

Шу семинардан сўнг мен гендер масаласи моҳиятига, таълимда гендер масаласига чуқурроқ эътибор қаратадиган бўлдим. Мактабларимизда, афсуски, эркак ўқитувчилар камчиликни ташкил этади.

Таълимда гендер тенглигининг тўртта асосий жиҳати (аспекти) мавжуд. Булар қуйидагилар:

1. ТЕНГ ФОЙДАЛАНИШ

Тенг фойдаланиш - мактаблар ва бошқа таълим муассасаларидаги қизлар ва ўғил болалар асосий таълимнинг расмий, норасмий ва бошқа муқобил ёндашувларидан фойдаланишда тенг имкониятларга эга бўлишлари кераклигини англатади.

- Талабаларнинг давомати.
- Талабалар учун, айниқса кам таъминланган қатламлардан бўлган талабаларни стипендиялар билан таъминлаш жуда муҳимдир.
- Талабалар соғлиги масаласи ва ҳок.

2. ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА ТЕНГЛИК.

Таълимда тенглик -- қизлар ва ўғил болаларга тенг муносабатда бўлиш, уларга бир хил эътибор қаратиш ҳамда таълим олиш учун қизлар ва ўғил болалар тенг имкониятларга эга бўлишларини англатади.

Ўқув жараёнида тенглик яна шуни англатадики, қизлар ва ўғил болалар бир хил ўқув дастури асосида таълим олишади, бир хил ўқув қўлланмаларига эга бўлишади; қизлар ва ўғил болалар бир хил методлар ва ўқув материали асосида таълим олишади. Бундан ташқари, ўғил-қизларнинг мустақил билим олиши, ўқув фанлари ва синфдан ташқари ишлар бўйича кўникмаларини кашф этиши ва ривожлантириш имкониятига эга бўлиши зарурлигини ҳам англатади.

3. ТАЪЛИМ НАТИЖАЛАРИНИНГ ТЕНГЛИГИ.

Таълим натижаларининг тенглиги қизлар ва ўғил болаларнинг индивидуал қобилиятлари ва қатъиятига боғлиқ бўлган натижаларга эришиш учун тенг имкониятларга эга эканлигини англатади.

4. ТАШҚИ НАТИЖАЛАРНИНГ ТЕНГЛИГИ.

Ташқи натижаларнинг тенглиги эркаклар ва аёлларнинг мақоми, маҳсулот, хизматлар ва ресурслардан фойдаланиш имконияти, иқтисодий, ижтимоий, маданий ва сиёсий фаолиятда ҳисса қўшиш, иштирок этиш ва улардан фойда олиш қобилияти тенг бўлганда юзага келади.

Бу шуни англатадики, бир хил малака ва тажрибага эга бўлган эркаклар ва аёллар учун (мартаба) турли лавозимларда ишлаш имкониятлари (карьера қилиш), даромадлари тенглиги, ўқишни тугатгандан сўнг ишга жойлашишда тенглик.

Гендер тенгликнинг тўртта аспекти (яъни жиҳати) ўзаро боғлиқ, албатта.

Хулоса ўрнида шуни айтмоқчиманки,

1) жамиятда гендер тенглиги маданиятини шакллантириш,

2) гендер тенглигига оид меъёрлар ва қадриятларни етказиш жараёнини таъминлайдиган ўқув дастурларини яратиш,

3) барча турдаги таълим дастурларига гендер тенглиги масаласига оид мавзулар ва асосий тушунчаларни киритиш,

4) гендер соҳасида илмий изланишлар, тадқиқотларни рағбатлантириш кабилар муҳим вазифалардир.

Қолаверса, умумий ўрта таълим дастурларига гендер тенглигига оид бир қатор мавзуларни қўшиш ҳам зарар қилмайди. Боиси, бу борадаги тушунчаларни болаликдан тушунтириб бориш лозим. Унинг таълим билан боғлиқ ҳолда ўргатилиши эса жамиятда гендер тенгликка оид стереотипларнинг пайдо бўлишига йўл бермайди. Зеро, билимга асосланган ҳар қандай фикр ва тафаккур шахсий хулосаларнинг омманикидан фарқ қилиши, янгича ёндашувларга хизмат қилади.

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIK MASALALARI

Malikova Ayzada Raxmatovna
Navoiy davlat universiteti,
Biologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Shu vazifalarning beshinchi maqsadiga (Gender tenglik) muvofiq, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

1. Ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish.
2. Ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish.
3. Aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish.
4. Huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o‘qitish.

O‘zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Gender tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan ta’limdagi ijobiy siljishlarni alohida ta’kidlash kerak. Ya’ni, 2017-yildan boshlab aksariyat oliy o‘quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo‘yicha sirtqi bo‘limlar faoliyati tiklandi. Ta’limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy ma’lumot olish imkoniyatini beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi taklifiga binoan, mamlakat tarixida ilk bor Senat raisligiga ayol kishi – Tanzila Norboyeva saylandi. Tanzila Norboyeva hozirgi kungacha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimida ishlab kelmoqda.

O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-yil sentyabr oyida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilindi. BMTning deyarli barcha agentliklari, jumladan BMT Taraqqiyot Dasturi, BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (YUNFPA), BMT Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF), BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi, BMTning Narkotik moddalar va jinoyat boshqarmasi, Xalqaro migratsiya tashkiloti ushbu ikki qonun bo‘yicha o‘z izoh va takliflarini berishdi.

Gender tenglik bo‘yicha institutsional choralarga kelsak, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta’minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo‘yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg‘unlashtirish bilan shug‘ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi, Hukumat huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi.

Qabul qilinayotgan chora-tadbirlar mamlakatning barcha hududlari va xotin-qizlarning barcha toifalarini qamrab olishi kerak. Xususan, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish kun tartibidagi tamoyillarni, ayniqsa, “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyilini hisobga olgan holda, har xil kamsitish shakllariga moyil bo‘lgan xotin-qizlarning holatiga alohida e’tibor qaratish dolzarb masaladir. Bu yerda mamlakatning chekka hududlaridagi qishloqlardagi xotin-qizlarga, etnik ozchilik guruhlari, nogironlar, inson huquqlari himoyachilari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va qochqinlarga asosiy e’tibor qaratiladi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma’rifiy jihatdan jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olishida o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Mana shunday o‘zgarishlar barcha jabhalarda bo‘lgani singari ta’lim-tarbiya tizimida ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach,

qadriyatlarimizni tiklash, o‘zligimizni anglash, o‘quvchilar dunyoqarashida milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, ta’lim tizimini qayta qurish, har tomonlama yetuk, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash bosh vazifa qilib qo‘yildi.

Gender bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatga oid ko‘rsatmalar, mehnatning erkaklar va xotin-qizlar mehnatiga bo‘linishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu asoslar yordamida oliy ta’lim tizimida talaba-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning ilmiy asoslari va texnologiyasini ishlab chiqish davr talabidir.

Ta’lim tizimi jamiyatda nafaqat texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili, balki ma’naviy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mustaqil mamlakatimizda ta’lim sohasiga yil



sayin katta e’tibor qaratilmoqda. Respublikamiz oliy ta’lim tizimida gender yondashuv asosida talaba-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha tadqiqotlarning olib borilishi bo‘lg‘usi mutaxassislar ijtimoiy faolligining dunyodagi eng yangi tahliliy yutuqlar asosida shakllanishiga yordam beradi.

Shu jumladan, bizning Navoiy davlat universitetida ham bo‘lg‘usi mutaxassislar bilan bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Universitetimiz xotin-qizlar bilan ishlash qo‘mitasi raisi Nasiba Tursunova Xamroyevna boshchiligida o‘quv yili davomida “Gender tenglik” mavzusi yuzasidan talaba yoshlar bilan birgalikda uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazib kelinmoqda. Xotin qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni, ularning o‘z huquqlarini anglashi va Vatanimiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shish burchlarini anglashlari o‘tkaziladigan suhbatlar va uchrashuvlarning asosiy mazmuniga aylangan.

Aytishimiz mumkinki, ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish-bu tizimli va doimiy jarayon bo‘lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari, jumladan, ta’lim tizimlari, davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, va keng aholi qatlamlarining hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Osiyo taraqqiyot banki. 2018. O‘zbekiston Gender Baholash Yangilanishi. Mandaluyong, Filippin: OTB.

2.Alesina, Alberto, Paola Giuliano va Natan Nann. “Gender rollarining kelib chiqishi haqida: Ayollar va shudgor.” Iqtisodiyotning choraklik jurnali 128.2 (2013): 469-530.

3.Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo‘yicha qo‘mita (CEDAW) taqdimoti - 79-sessiya, 2020 yil

4.UNICEF O‘zbekiston. 2020 c. O‘zbekiston bolalari va yoshlari uchun mos milliy ijtimoiy himoya tizimini yaratish. https://www.unicef.org/uzbekistan /en/reports/building-national-social-protection-system-fituzbekistans-children-and-youth

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MULOQOT MADANIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR: MASAD VA VAZIFALAR

Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna
NavDPI, Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi dotsent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlari ijtimoiy faolligi muloqat madaniyatidagi o‘zgarishlar bayon etilgan va muloqotning shaxs hayotidagi roli, vazifasi, oilada farzand tarbiyasi, oilaviy muhitda shaxsning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji kabi masalalar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Muloqat madaniyati, milliy g‘oya, muloqat, oila, millatlararo munosabatlar, tarbiyaviy muhit, umuminsoniy qadriyatlar, Oilaviy munosabatlar.

Аннотация: В данной статье описаны изменения в культуре общения молодежи Нового Узбекистана, роль и функция общения в жизни человека, воспитании детей в семье, а также необходимость общения в семейной среде.

Ключевые слова: Культура общения, национальная идея, общение, семья, межнациональные отношения, образовательная среда, общечеловеческие ценности, Семейные отношения.

Annotation: This article describes the changes in the communication culture of young people in New Uzbekistan, the role and function of communication in a person’s life, raising children in the family, and the need for communication in the family environment.

Key words: Communication culture, national idea, communication, family, inter-ethnic relations, educational environment, universal values, Family relations.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarni milliy g‘oya ruhida aniq maqsadlar asosida kelajakka yo‘naltirish bizning bosh maqsadimizdir. Bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqishda xalq bilan davlatning hamkorligida muammolarga ychim topish, xalqning hukumatga nisbatan o‘z fikrini bildirishi fuqarolik talabiga aylandi. Yangi O‘zbekistonda milliy g‘oya yoshlarni birlashtiruvchi yuksak ma’naviy kuch va adolat ravnaqiga xizmat qiladigan yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Agar shunday g‘oya mavjud bo‘lsa, jamiyat o‘z taqdirining egasi bo‘lishi mumkin, bu esa uni ataylab yaratadi. Ushbu qurilishning bir qismi sifatida, shaxs ongli taqdirga ega bo‘ladi. Har bir dalvat o‘zining g‘oyasiga monand tarzda yosh avlodning

mafkuraviy immunitetini shaklantiradi. Bunday g‘oya bo‘lmasa, jamiyat tuzilmaydi, u amorf atomlarga bo‘linadi, keyin har bir atom o‘z ifodasini topadi va ishtirok etadi, mamlakat va butun millat o‘z ongli tartiblarini yo‘qotadi, O‘z kelajagi uchun rejalashtirish va intilishdan to‘xtaydi. ayni shu ma’noda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning quyidagi fikrlari e’tiborga molikdir: “Bugungi kunda yon-atrofimizdagi xavf tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu so‘zlarning chuqur ma’nosi va ahamiyati yanada ayon bo‘ladi. haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar taribyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda”[1].

Har bir insonning maqsadi, qiziqishi, orzusi bor, unga erishishni, yaxshi yashashni, rivojlanishni xohlaydi. SHu yo‘lda butun umrini sarflashga harakat qiladi. Jamiyat a’zolari bilan birgalikda borliqni o‘zlashtirib, uning ikkilamchi tabiatini yaratishda bevosita ishtirok etadi. SHu jarayonda uning manfaatlarini fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan himoyalanishi ko‘proq rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlarda namoyon bo‘ladi. “O‘zbekiston yoshlarida ham fuqarolik mas’uliyatining shakllanishi va uning takomillashishi jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarning davomi va uzviy qismi. CHunki u fuqarolarga tenglik, ozodlik, birodarlikni hayotiy voqelikka aylantiruvchi turli huquqlarni berish bilan cheklanmaydi, balki o‘z huquqlaridan ijobiy, jamiyat manfaatlarini ko‘zlab foydalanishni talab qiladi”[2]. Bundan ko‘zlangan maqsad yoshlarni Vatan taraqqiyoti yo‘lida hamnafas va birdamligini ta’minlashdir. Bizning asosiy maqsadimiz ham yoshlarimizning komil inson bo‘lib yetishishlarida jahon arinalarida yurtimiz nomiga ulug‘lashiga xizmat qilishidir.

Inson jamiyatda ongli ravishda faoliyat yuritar ekan, uning farovonlikka yo‘nalgan dunyoqarashi doimo yangilanib boradi. Buning natijasida orzu-istak va maqsad-muddaolari ham o‘zining xilma-xil qirralarini namoyon eta boshlaydi. Har bir inson tushunishi kerakki, shu tizim orqali davlatga yordam berish, jamiyatga yordam berishdir. Yoshlarning yordamini fuqarolik burchi deb tushunib, bunday ishlarda faol bo‘lishi kerak. Har bir fuqaro yoshi, millati, jinsdan qat’i nazar, davlatni birlashtiruvchi yagona maqsadga yo‘naltirilgan kuch deb bilishi kerak. Bu esa hamjihatlik, birodarlik, ahillik sari chorlaydi. Bunda haqiqiy ish bo‘lishi kerak, chunki bekorchilik va janjal hech qachon taraqqiyotga olib kelmagan. Fuqarolik jamiyati - bu fuqarolarning birligi. Bunday muhitning yana bir sababi tashqi omillardir. Bu omillardan ham samarali foydalanish o‘zining keng ko‘lamdagi shart-shariotlarini ochib beradi. Bugun barchamizga ma’lumki, dunyo davlatlari raqobat sharoitida yashamoqda. Bu ham zamonaviy talab. Bunday raqobatdan hamqadam bo‘lish uchun, eng avvalo, fuqarolarning faolligi va hamjihatligi, umumiy manfaatlar yo‘lida hamjihatlikda mehnat qila olishi zarur. YUrtimizda barcha muammaolarning yechimi bamaslahat, oqsaqollarning o‘git va nasihatlariga tayanilishi yaxshi samara beradi. Bunday yakdillik xalqning barcha sohalardagi muammolarga birdek mas’uliyat bilan yondashuvini, ichki va tashqi siyosatdagi faoliyatda inson qadrining ulug‘lanishini, yoshlarga ham alohida munosabat mavjuligini ko‘rsatib beradi. Bugun biz yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarimiz va targ‘ibotlarimizda muloqotning roliga e’tibor berishimiz kerak.

Yoshlar o‘rtasida muloqot madaniyati uchun zarur shart-sharoitlar axborot almashish va shartnomalarga erishishda kommunikativ faoliyat barcha tomonlarning manfaatlarini aks ettirishi lozim. “Ma’lumki, muloqot sub’ektlarini tirik mavjudotlar, odamlar tashkil etadi. Muloqot barcha tiirk mavjudotlar o‘rtasida yuz berishi mumkin, biroq, odamlar o‘rtasidagi muloqot til va tafakkurga bog‘liq ekanligi bilan ajralib turadi”[3].

Fuqarolarning jamiyat hayotidagi faol ishtirokining bir qancha belgilari mavjud. Har bir fuqaroning ijtimoiy hayotda ishtirok etishi, qanchalik tez-tez ko‘ngilli sifatida xizmat qilishi muhim. E-Gov portalida ham ochiq me’yoriy hujjatlar, ochiq byudjet, ochiq muloqot bo‘limlari mavjud. U yerda fuqarolar o‘z taklif va mulohazalarini bildirishlari mumkin. Bu ham fuqarolik jamiyatining belgisidir. Shuning uchun ham odamlarning dardi bilan yashash, ularning muammolariga yechim topishda hamkorlik muhim sanaladi. Jamoatchilik fikrini to‘plash va siyosiy qarorlar qabul qilishning bunday usuli kraudsorsing deb ataladi. Tadqiqotchi Sh.T.Mamatqulov shunday yozadi: “O‘zbekistonda yoshlar faolligini yuksaltirish maqsadida ta’lim tizimiga fuqarolik pozitsiyasi va fuqarolik ta’limi tamoyillarini samarali joriy etish dolzarblik kasb etadi. Uning tarkibida “O‘zbekiston yoshlarining fuqarolik pozitsiyasi”, “YOshlarning jamoatchilik faoliyati va nazorati” kabi zamonaviy yo‘nalishlarning ilmiy- metodik ishlanishini yo‘lga qo‘yish davr talabidir”[4].

Aslida insoniyatning hayvonot olamidan ajralib, ijtimoiylik xarakterini shakllantirishida muloqot asosiy omil sanalgan. SHuning uchun ham muloqot – bu ijtimoiy munosabatlar tizimida vujudga kelgan insonlarning bir-birini tushunish jarayonidir. Muloqot qilishning bir necha usullari mavjud. Ayniqsa, til muloqotining o‘rni alohida. Insoniy munosabatlarda alohida o‘rin tutgan salomlashishning o‘ziga xos odob-axloq qoidalari bor. Uning normalariga amal qilishda yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash, ularning madaniyatidagi komillikni shakllantirish lozim. Masalan, Ayn aholisi (Xokaydo aholisi) bir-birining quloqlarini ushlab salomlashsa, samoaliklar bir-birining yuzini hidlab salomlashadi. Laonga jamoati ham olqishlaydi, hindular bir-birlarini qarsak chalib, ta’zim qilib salomlashadilar. Bularning barchasi har bir xalq madaniyatining o‘ziga xosligini aks ettiradi. O‘zbek xalqi urf-odatlarida salomlashishning bir necha turlari mavjud. Masalan, yoshlar kattalar bilan, odatda keksalar bilan uchrashganda qo‘l berib ko‘rishib “Assalomu alaykum” deyishadi. Unga javob sifatida “Vaalaykum assalom” so‘zi ishlatiladi. “Salim” so‘zi arabchada tinchlik va ishonch degan ma’noni anglatadi. “Salom” - odamlar o‘rtasidagi muloqot, yoshlik va sadoqatni oshirish vositalaridan biri. Qarindoshlar, do‘stlar bir-birlarini quchoqlab salomlashadilar. Bu azaliy qadriyatni e’zozlash, yoshlar qalbida kuchaytirish lozim.

Fuqarolik jamiyati ko‘plab muqobil yondashuvlarni taklif qiladi, ayniqsa qaror qabul qilishda. Hamkor sifatida esa qarorni yanada amalga oshirishga yordam beradi. Barcha davlat idoralari muayyan masalaga birdek qarashi mumkin, fuqarolik jamiyati institutlari esa ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya kabi turli sohalardagi guruhlar bo‘lgani uchun ko‘p qirrali. Mahalliy masalalarni ham yaxshi bilishadi. Shunday qilib, u muloqot kanali sifatida hukumatga, davlatga tezkorlik

bilan ma’lumot yetkaza oladi. Ijro etuvchi organ bunday guruhlardan muqobil axborot olish va birgalikda muammolar yechimini hal etishga yordam beradi. Bugun “fuqarolarning mamlakatni modernizatsiyalash borasidagi islohotlarda faolligi va maqsadli vazifalarni amalga oshirishdagi tashabbusi, roli, o‘zaro harakati va masu’liyatidan kelib chiqadigan ma’naviy qadriyatlar katta ahamiyatga ega”[5].

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirmasdan turib O‘zbekistonni gullab-yashnatishning boshqa yo‘li yo‘q. Fuqarolik jamiyati rivojlanmagan davlatlar bor. Bu mamlakatlarda aholining iqtisodiy ahvoli juda yomon. Osiyo va Afrikada bunday davlatlar ko‘p, yevropada esa kam. Janubiy Amerikada ko‘proq, SHimoliy Amerikada kamroq. Fuqarolik jamiyatining afzalliklarini ham ko‘rish mumkin. “Xalq bilan muloqot” konsepsiyasi hamda hukumat va jamiyat o‘rtasida doimiy muloqotni yo‘lga qo‘yish orqali fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. “Kasalligini yashirgan o‘ladi” degan naql bor. Biz uni “kasalligini yashirgan davlat rivojlanmaydi” deb tarjima qilgan bo‘lardik. Umuman olganda, hukumat va jamiyat o‘rtasida muloqot madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. “O‘zbekistonda demokratik kishilar ongida ijtimoiy o‘zgarishlarning ob’ektiv in’ikosi tarzida vujudga kelishi, aholining mutlaq ko‘pchiligi uchun zaruriy iqtisodiy ma’naviy ehtiyojga aylanishi, ijtimoiy ong, ya’ni psixologik va mafkuraviy tuyg‘ularning uyg‘unligi sifatida namoyon bo‘ladi”[6].

Muloqot madaniyati millat istiqbolini belgilab beradi. Axloqiy, iqtisodiy va boshqa omillar yoshlarning mavqeiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunda yoshlarning o‘z fikri, jamiyatdagi so‘z erkinligiga amal qilishi ham nazarda tutilishi kerak. Ko‘rib turganimizdek, bu madaniyatning shakllanishi yoshlardan boshlangani ma’qul. Ularning qalbida yurtga muhabbat, ona zaminning tuprog‘iga hurmatni yuksaltirishmiz lozim. CHunki yoshlarimizning ongiga “ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligidadir”[7].

Hozir ko‘plab yoshlarimiz xorijda tahsil olishi kengayib ketdi. YOshlar hamma narsani tushunadi, faqat ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq berish kerak. Ularda demokratiya madaniyatini rivojlantirish va uning qonunlari asosida yashashga e’tibor qaratish lozim. Bugun biz yoshlarning demokratik tamoyillar asosida erkin, milliy g‘oya ruhida yashashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilayotganligi, o‘z erkinligi yo‘lida xalqning jipsligi namoyon bo‘layotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Demokratiya - o‘z va boshqalarning farovonligi yo‘lida o‘z mamlakating taraqqiyotiga hissa qo‘shish, unga munosib jamiyat yaratishdir. Davlat nodavlat tashkilotlarga grantlar va katta miqdorda mablag‘ ajratadi. Bu tashabbuslar fuqarolar faolligini oshiradi. Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlarining muayyan sohadagi faoliyati eng muhim masala. SHuningdek, forumlar va muhokamalar mavjud bo‘lib, ularda yoshlarning ko‘proq ishtirok etishi yangiliklar sari qiziqishlarni kuchaytiradi. YOshlarning qalbida nodavlat tashklotlariga nisbatan ijobiy tushunchalar paydo bo‘lib, ularning keng ko‘lamli imkoniyatlaridan samarali foydalanish istak va xohishlari kengayib boradi. Mazkur faoliyatda yoshlar qatorida fuqarolarning ham ishtirokini oshirish, xalqning

muammolarini birgalikda hal etish maqsadga muvofiqdir. Biz fuqarolik jamiyati orqali barcha aholining jamoatchilik nazorati, xalqning manfaati yo‘lidagi qarorlarni to‘liq ishga solishimiz zamon talabidir. Demak, yoshlar ham faol fuqarolik pozitsiyasi asosida xalqning ichiga chuqurroq kirib borishi, odamlarni ruhlantirishi lozim. Buning uchun hukumatimiz yaratib berayotgan imkoniyat va shart-sharoitlarning qadriga yetish, odamlarda xohish- istaklarning mohiyati farovonlikka qaratilganligini kuchaytirishdir.

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan yoshlarning muloqot madaniyatini yuksaltirish zamon talabidir. Millatlararo munosabatlar tizimida qat’iyatli va mard, olijanob, bir so‘zli va tashabbuskor fidoyi avlodni tarbiyalash zarur. O‘zbekiston o‘zi boshqa qo‘shni mamlakatlarda shakllangan turli xalqlar va millatlarning muloqot madaniyatini o‘z o‘rniga qo‘ygan holda milliy g‘oyaga hamjihat bo‘lgan fuqarolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi. Bu jarayonga ko‘proq yoshlarni jalb etish, qo‘shni xalqlarning yoshlari bilan ularni yaqinlashtirish zamonning talabiga aylandi. Chunki yoshlar o‘rtasida muloqot madaniyati qanchalik keng rivojlansa, ularning islohotlardagi ishtiroki ham kengayadi. Yoshlar o‘rtasida muloqot madaniyati qanchalik kengayib borsa, milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ajdodlarning merosiga ixlosmandlik shuncha oshib boradi.

Yoshlar tomonidan taklif etiladigan zamonaviy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, milliy qonunchilik doirasidagi faoliyatda ularning imkoniyatlarini kengaytirish muhim jarayon sanaladi. Har birimiz davlatimizning qabul qilinayotgan qarorlari, farmon va huquqiy me’yorlaridagi haqiqiy tenglikni, o‘zaro do‘stona yordamni, bir-birining milliy manfaatlarini va milliy farqlarini hisobga olishni, bir-birini hurmat qilishni e’zozlashimiz kerak. CHunki yoshlar hamisha tez izlanuvchan, kirishimlilik bilan beg‘ubor sof tuyg‘ular sohibi sifatida jamiyatni harakatlantiruvchi boy energiyaga kuch hisoblanadi. Bunday olijanob xususiyatlar xalqimizning farovon taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Biz yoshlarni tarbiyalashda muloqot madaniyatining elementlariga e’tibor qaratishimiz, sodda, ravon, aniq, xalqchil tarzda fikrlash va suhbatlashish xuususiyatlarini rivojlantirishimiz, milliylik ruhidagi an’analarimizga, madaniyatimizga tayanishimiz darkor.

Mazkur tizimda turli millatga mansub xalq vakillarining bir dinga e’tiqodi yoki bir necha dinga e’tiqod qiluvchilarning muayyan bir g‘oyaga amal qilishini namoyon bo‘ladi. Har bir yosh yigit-qiz yashayotgan jamiyatining istiqboli yo‘lida birlashishi bugungi kun talabiga aylandi. Ularning maqsad va manfaatlari milliylik va dunyoviylikda uyg‘unlashadi. YAngi O‘zbekiston ham shunda bir falsafiy dunyoqarash va millatlarning uyg‘unligini o‘zida jamlagan tarixiy makon sifatida o‘zining jahonda alohida tarixiga ega davlatdir. Bularning barchasi, o‘z navbatida, milliy munosabatlarning nisbiy mustaqilligini va ularning o‘ziga xos qonuniyatlarini belgilaydi. “Milliy munosabatlar” tushunchasi milliy birlashmalarning mavjudligiga bog‘liq. Demak, millatlararo munosabatlar ham milliy, ham umumiy munosabatlarning zaruriy jihati hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar o‘zlarining milliy qadriyatlariga monand holda millatlararo munosabatlar tizimini kengaytirishi uchun huqumatimizning qator qaror va farmonlari chiqarilmoqda. Bunday keng imkoniyatlardan samarali

foydalanish esa ularning bilim va mahoratiga, insonlar bilan muloqot madaniyatiga ko‘proq bog‘liqdir. Biz bugun jamiyatda yoshlarning ilm-fan yutuqlarini qo‘lga kiritish borasidagi faoliyatida millatlararo muloqot madaniyatiga e’tibor qaratishini nazorat qilishimiz kerak. Jahonning turli tillarida so‘zlashadigan farzandlarimiz ongida milliy ma’naviyatimizni shakllantirib, xorijiy grant va hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish borasidagi ishlarini faollashtirishimiz kerak. Jamiyatda yoshlar mayllari bilan parallel holda odamlarni ruhlantirish kayfiyati, xalqning manfaatlari mujassam bo‘lishi lozim. SHu nuqtai nazardan R.Xudayberganov ta’kidlaganidek, “Kommunikativ aloqa tildan oqilona foydalanish qoidalariga buysunadi, bu orqali bahslashish jarayonida o‘zaro talablar bo‘yicha kelishuvga erishiladi”[8]. SHuning uchun yoshlarimiz qalbida tilning kommunikativligini kuchaytirish, axborotlarga jiddiy yondashuvni potensialini oshirish dolzarbdir.

Millatlararo munosabatlarning yoshlarga ta’siri integratsiya jarayonlarining turli shakllarida vujudga keladi. Millatlararo munosabatlar kichik mintaqada, ko‘p millatli mamlakat doirasida, shuningdek, xalqaro munosabatlar sohasida amalga oshiriladi. SHuning uchun ular geografik joylashuvi va aloqada ishtirok etadigan odamlarning tarkibiga qarab juda xilma-xildir. Demak, millatlararo munosabatlar tabiiy, ob’ektiv dialektik jarayon bo‘lib, barcha xalqlar uchun foydali, shuning uchun ixtiyoriylik va o‘zaro tushunish asosida amalga oshiriladi. Millatlararo munosabatlar milliy jarayonlarning shakli bo‘lib, xalqlar hayotining barcha sohalariga - iqtisodiyot, siyosat, fan, madaniyat va boshqalarga ta’sir qiladi. Millatlarning xavfsizligini ta’minlash, har bir o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida fuqarolik pozitsiyasiga doir ichki va tashqi omillar borasida millatlararo munosabatlarni qaror toptirish lozim. Milliy mentalitetdagi hamjihatlik va insonparvarlikni zamonaviy yo‘nalishlarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu borada har bir yosh o‘zining faol fuqaroik pozitsiyasini namoyon etish qobiliyati, salohiyati bilan jamiyatning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi kerak. Bu esa odamlarda ham yuksak marralar sari tuyg‘ularini shakllantiradi.

Bunda insonning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shadigan hissasi, xalqning teng huquqli sub’ekti sifatida turli millat vakillarini birlashtirgan kuch sifatidagi maydonda o‘zligini namoyish qilishi, yoshlar timsolida kelajakni ko‘rishi muhim omil hisblanadi. Biz yoshlarimizining kuchi keng ko‘lamdagi ijobiy yutuqlarni qo‘lga kiritishida mvjudligini, buning zamini borligini yaxshi tushunamiz.

Umuman olganda, yoshlarda faol fuqaralik pozitsiyasining kuchayishi jamiyat boshqaruvida ishtirok etish uchun yangi bosqichga olib boradigan o‘ziga xos zamonaviy yo‘l boshqaruvchilik vazifasini bajaradi. Buning uchun esa har bir yigit-qiz o‘zining milliy g‘oyaga ishonchini mustahkam e’tiqodga aylantirishi, jamiyatning porloq kelajagi yo‘lida hamisha tashabbuskorligi bilan yurtning koriga xizmat qiladigan inson sifatida maydonda turmog‘i lozim.

Birinchidan, yoshlarda millatlararo muloqot madaniyatini kuchaytirishda asrlar davomida rivojlangan milliy madaniyatimiz yutuqlari, qadimiy so‘zlashuv odobini chuqur anglab yetish lozim. Bunda ta’lim bilan birgalikda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi, yoshlardan esa fuqarolik pozitsiyasi talab etiladi.

Har qanday jamiyat o‘z xalqining istiqboli uchun yoshlarga barcha imkoniyatlarni yaratish choralarini ko‘rib, o‘zining taraqqiyot dasturini yaratadi.

Ikkinchidan, yangi O‘zbekistonda millatlarning tili, dini, e’tiqodi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. “Demak, din nafaqat tasavvurlar, g‘oya, e’tiqod, ya’ni ongga tegishli (ijtimoiy va individual) fenomenlarni, balki odamlarning o‘zaro yoki bir-birlari bilan munosabatda sodir bo‘luvchi ibodat turlarini hamda ularni boshqaruvchi diniy tashkilotlar tizimidan iboratdir”[9]. Jamiyatda millatlararo madaniyat uyg‘unligini o‘zida jamlagan tarixiy makondagi rolini jahonda oshirish assiy maqsadimiz sanaladi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, milliy munosabatlarning nisbiy mustaqilligini va ularning o‘ziga xos qonuniyatlarini belgilaydi. “Milliy munosabatlar” tushunchasi milliy birlashmalarning mavjudligiga bog‘liq. Bu esa, yoshlarda xalqning yaratgan madaniyatidan xalqaro miqyosda keng foydalanish imkoniyatini beribgina qolmasdan, boshqa xalqlarning muloqot madaniyatiga bo‘lgan qizishiqishlarini oshiradi.

Uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan yoshlarning muloqot madaniyatini yuksaltirish, millatlararo munosabatlar tizimida qat’iyatli va mard, olijanob, bir so‘zli va tashabbuskor fidoyi avlodni tarbiyalash dolzarbdir. O‘zbekiston o‘zi boshqa qo‘shni mamlakatlarda shakllangan turli xalqlar va millatlarning muloqot madaniyatini o‘z o‘rniga qo‘ygan holda milliy g‘oyaga hamjihat bo‘lgan fuqarolarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi. Bu jarayonga ko‘proq yoshlarni jalb etish, qo‘shni xalqlarning yoshlari bilan ularni yaqinlashtirish zamonning talabiga aylandi. Biz xalqimiz orasidan yetishib chiqayotgan farzandlarimizda butun dunyo haqidagi tasavvur va muloqot madaniyatini shakllantirishimiz lozim. Bu yo‘lda barcha yoshlarni bir maqsad yo‘lida jipslashtirish, odamlarning kayfiyatida yuksak ishonch va iymonni qaror toptirish maqsadga muvofiqdir. Xalqning ishonchi eng oliy baho sifatida qadrlanishi, ularning ehtiyojlari yoshlar bilan uyg‘unlashishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 44-bet.

2. Xo‘janova T.J. Mafkuraviy profilaktika-yosh avlodni g‘oyaviy himoyalash omili (ijtimoiy-falsaiy tahlil).-Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2019. 46-bet.

3. Yaxshilikov J, Muxammadiyev N. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi.-Toshkent. Cho‘lpon, 2018. 630-bet.

4. Mamatqulov Sh.T. O‘zbekistonda yoshlar faolligini yuksaltirishning ijtimoiy-siyosiy tahlili. Fals.fan.bo‘yicha fals.dok (PhD) diss. Avtoreferati-Samarqand, 2021. 20-bet.

5. Mavlonov J.Fuqarolik jamiyatiga oid zamonaviy konseptual diskursning asosiy yo‘nalishlari (ijtimoiy - falsafiy tahlil). Fals. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent: 2017. 14-bet.

6. Turayev Sh.N. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish tamoyillari ma’naviy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi//“Milliy g‘oya va mafkuraning falsafiy-huquqiy fanlar rivojidagi ahamiyati”. Res. konf. – Toshkent: 2008. 197-bet.

7. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 299-bet.

8. Xudayberganov R. Til va kommunikatsiya.-Toshkent: ILM-ZIYO-ZAKOVAT, 2021. 78-bet.

9. Tashanov A., Sultonov A. Din falsafasi. –Toshkent, 2020. 73-bet.

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING OILADA VA ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’naviyati yuksak, ma’rifatli ayol haqiqiy boy ayol ekanligi hamda mustaqil yurtimiz yuksalishida o‘zlarining ilmu-ma’rifatlari, ilmiy yangiliklar, innovatsion g‘oyalarini yaratib, jamiyat taraqqiyotida o‘z hissalarini qo‘shib kelayotgan xotin-qizlar xususida bayon etilgan.

Kalit sozlar. Ilmli, ma’naviyatli, ma’rifatli, madaniyatli, mehr-oqibat, sabr-qanoat, matonat, shukronalik, oilaga sadoqat, milliy qadriyatlar, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy faol.

Аннотация. В этой статье рассказывается о женщинах, обладающих высокой духовностью, просвещенных женщинах, которые являются настоящими богатыми женщинами и вносят свой вклад в развитие общества, создавая научные новшества, инновационные идеи и способствуя росту нашей независимой страны.

Ключевые слова. Образованный, духовный, просвещенный, культурный, добрый, терпеливый, настойчивый, благодарный, верный семье, национальным ценностям, защите прав и интересов женщин, общественно-политический деятель.

Annotation. This article covers the fact that a woman with a high spirituality, an enlightened woman is a real rich woman, as well as women who contribute to the development of society by creating their own science and education, scientific news, innovative ideas in the rise of our independent country.

Key words. Scientific, spiritual, enlightened, civilized, loving, patient, perseverance, gratitude, loyalty to the Family, national values, protection of women’s rights and interests, socio-political activist.

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e’zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Sh.M.Mirziyoyev

Dunyoning hech bir mamlakatida ayollarga bo‘lgan e’tibor bizning yurtimizdagi kabi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmagan. Buning natijasi o‘laroq, jamiyatimizda ayollar katta ijtimoiy kuchga aylangan.

Ayollarning erishgan yutuqlarini Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev e’tirof etib: - “Bunday marralarga erishishda oilada, mehnat jamoalarida, umuman, jamiyatimizda eng katta boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini saqlash va mustahkamlashda yurtimiz xotin-qizlarining donoligi, sabr-qanoat va matonati, shukronalik, oilaga sadoqat kabi ibratli xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi” - deb ta’kidlaganlar.

Darhaqiqat, biz bugun o‘zbek ayoli haqida gapirganda, albatta, buyuk bobomiz, she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy kuylagan betakror fazilatlar sohibasini o‘zimizga tasavvur qilamiz. Shu bilan birga, bugungi kunda o‘z aqli, bilimi va iste’dodi, mehnatsevarligi va shijoati bilan hayotning hal qiluvchi sohalarini tebratib, davlat va jamiyat boshqaruvi, ta’lim-tarbiya, madaniyat va ilm-fan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan va o‘z taqdirini jamiyat taqdiri bilan bog‘lab yashayotgan fidoyi ayollarimiz haqida qancha gapirsak ham oz. Ular jamiyatda, oilada va jamoa orasida hamisha tashabbuskorligi, sharafli mehnati va fidoyiligi bilan tezda nazarga tushadilar, ezgu ishlari bilan esa hurmat-izzatga sazovor bo‘ladilar.

Ayol millat tarbiyachisi, oila tayanchi, jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir. Xalqimiz azal-azaldan ayollarni or-nomus darajasida hisoblab, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatadi. Milliy va diniy qadriyatlarimiz asosiga qurilgan bu go‘zal munosabat asrlar osha davom etmoqda.

Jamiyatimizda ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifalarimizdan bo‘lib, ayniqsa ijtimoiy himoya jihatidan alohida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish zarur hisoblanadi. Bu borada yurtimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir jamiyatda o‘z davri talablariga xos va mos bo‘lgan komil insonni tarbiyalash eng dolzarb vazifa bo‘lgan. Bunday shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishda ayollarimiz, onalarimizning o‘rni beqiyosdir. Ayollar haqida gap ketganda ko‘z oldimizga munis, ojiza bir xilqat keladi. Lekin hayot sinovlaridan bardosh bilan o‘tishda ulardagi ma’naviy kuch – quvvatiga kuchli jins vakillari ham tan berishadi.

Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va ta’minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi mamlakatda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Barcha davrlarda jamiyat taraqqiyoti ravnaqi, uning daxlsizligida, ma’naviyat va ma’rifat rivojida, sharqona oila muqaddasligini tarannum etishda ayollar yetakchi mavqega ega bo‘lib, o‘zlarining olamshumul ishlari, mislsiz qahramonliklari bilan tarix sahifalarida yorqin iz qoldirganlar.

Bugungi hayotimizda ham jasoratli To‘maris, oqila va tadbirkor Bibixonim, she’riyatimiz malikasi Zulfiyaxonim izdoshlari bo‘lgan ayollarimiz O‘zbekiston ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Jamiyatda ayollar nafaqat oila, uy – ro‘zg‘or ishlari bilan bandlar, balki, jamiyat hayotining muayyan barcha sohalarida, jumladan oliy o‘quv yurtlarida ham o‘z faoliyatlarini olib borayotgan olima ayollarimizning mustaqil yurtimiz yuksalishida o‘zlarining ilmlari, mehnatlari, ilmiy yangiliklar, innovatsion g‘oyalar yaratib, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shib kelayotganliklarini alohida ta’kidlash lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev;-“Ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minlash, opa – singillarimizning og‘irini yengil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin – qizlarning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat

siyosatini faol davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz”, deb ta’kidlaganlar.

Darhaqiqat, hayotimizning yanada gullab-yashnashida, jamiyatimizni har tomonlama taraqqiy ettirishda xotin - qizlarning o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qolaversa, ayol ma’naviyati, axloqi – bizning hayotimiz, turmush tarzimizni ko‘rsatib turuvchi oynadir. U uyida tejamkor, sarishtali, ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lsa, farzandining o‘qishi, yurish-turishini kuzatsa, o‘zi kitob o‘qisa, gazeta varaqlasa, sport bilan shug‘ullansa, bularning barini ko‘rib voyaga yetayotgan bolalari ham oiladagi tartib-intizom, munosabatdan ibrat oladi.

Xotin-qizlarimizning nufuzi beqiyos darajada ortishi bilan birga ularning manfaatini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Respublikamiz ta’lim muassasalarining xotin-qizlar qo‘mitalari tomonidan o‘tkazilayotgan har bir anjuman va tadbirlarning zamirida ham, asosan, inson qadri va manfaati, yurt farovonligi, tinchligi masalasi asosiy o‘rin olgan. Ma’naviyati yuksak, ma’rifatli ayol haqiqiy boy ayoldir. U har qanday og‘ir vaziyatda ham imkon topa oladi. Ishning ko‘zini biladi, oiladagilar ko‘nglini kichik bir imo - ishoradan, ko‘z qarashidan anglay oladi. Ilmli, sabr-qanoatli, ma’naviyatdan xabardor ayol va onalar har qanday sharoitda ham turmush tashvishlari, kamchiliklarini bartaraf qilish yo‘llarini izlab topa oladilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, ilmu-ma’rifatli ayol - jamiyatning taraqqiyot yo‘lidir, chunki aynan u, bolalarni tarbiyalaydi va ularning ongi, dunyoqarashi, bilim darajasini shakllantiradi. Bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak. Zotan, ayoli e’zozlangan yurtda yashashning o‘zi saodat. Ayollarimizning baxti esa xalqimiz, jamiyatimizning baxtidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325-sonli Farmoni.

Ayol iqlimi. R. Shomansurova. –Toshkent: 2010

O‘zbekistonning fidoyi ayollari. M.Karimova.- Toshkent: “Sharq”. 2012.-784b.

4. Hikmatlar shodasi. A.Raimov, N. Raimova, A. Ziyadov.- Toshkent: “O‘zbekiston”. 2016.-744 b.

ГЕНДЕР СТЕРЕОТИПЛАР РУҲИЙ ЗЎРАВОНЛИККА АЙЛАНМАСИН

Аслонова Гулноз Замоновна
НДУ магистранти,
Вилоят “Оқила аёллар” ҳаракати аъзоси

Сўнгги йилларда мамлакатимизда гендер тенглигига эътибор кучайиб, давлат ва жамият томонидан аёллар фаоллигини оширишга қаратилган қонунлар ва дастурлар жорий қилинмоқда. Масалан:

Аёлларнинг меҳнат бозоридаги иштироки ортиб, улар орасида тадбиркорлик, таълим ва фан соҳаларида фаолият юритаётганлар сони кўпаймоқда.

Олий таълим муассасаларида аёллар улуши анча юқори бўлиб, улар турли соҳаларда мутахассисликка эга бўлишмоқда.

Оилавий муносабатларда тенг ҳуқуқлилик тамойиллари кенг тарқалмоқда, яъни эркак ва аёл қарор қабул қилиш жараёнида бир хил даражада иштирок этмоқда.

Бундан ташқари, хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш учун турли давлат дастурлари ишлаб чиқилмоқда, грандлар эълон қилинмоқда.

Ўзбекистонда гендер стереотиплар анъанавий ва замонавий қадриятлар ўртасида шаклланиб, кўпинча миллий урф-одатлар ва диний қарашлар асосида белгилаб келинган.

Ўзбек оилаларида гендер стереотипларга кўра, одатда эркак ва аёл роллари аниқ белгиланган, яъни, эркак – оиланинг бошлиғи, боқувчиси, қарор қабул қилувчи ва ҳимоячи сифатида кўрилса, аёл – уй ишлари, бола тарбияси ва оилавий муҳитни таъминлаш учун масъул ҳисобланади.

Бу анъанавий тизимда эркакнинг асосий вазифаси оила учун молиявий барқарорликни таъминлаш ва ижтимоий ҳаётда фаол бўлиш бўлса, аёллар кўпинча уйда бола тарбияси ва хўжалик ишлари билан банд бўлган.

Гендер стереотиплар – жамиятда аёл ва эркакларнинг роллари ҳақидаги анъанавий қарашлар бўлиб, улар баъзан шахсга нисбатан босим ўтказиши ва руҳий зўравонликка сабаб бўлиши мумкин. Руҳий зўравонлик инсоннинг ҳис-туйғуларини, ўзини тутишини ва шахсий ривожланишини чекловчи ҳар қандай босим ёки назорат шакли ҳисобланади. Агар гендер стереотиплар инсонни ўз истакларига зид равишда ҳаракат қилишга мажбур қилса ёки унинг шахсий эркинлигини чекласа, бу руҳий зўравонликка олиб келиши мумкин.

Замонавий ўзгаришлар кузатилаётган ҳаётимизда гендер стереотипларнинг ижобий тарафлари билан бир қаторда салбий тарафлари мавжудлигига гувоҳ бўламиз.

Ижобий тарафлари:

1. Оилани мустаҳкамлаш ва аёлга ҳурмат.

– Ўзбек маданиятида оналар, бувилар ва хотин-қизларга ҳурмат кучли бўлиб, улар оилада муҳим ўрин тутади, бола тарбияси ва оиланинг аҳиллигини таъминлашда асосий шахс сифатида кўрилади.

– Ота-онага ҳурмат ва аёлларнинг оиладаги роли кучли бўлгани учун, улар оилада ҳал қилувчи қарорлар қабул қилишда иштирок этади.

2. Ҳунармандчилик ва тадбиркорликка йўналтириш.

– Кўплаб ўзбек оилаларида қизларни анъанавий касбларга (тикувчилик, ҳунармандчилик, ошпазлик, педагогика ва тиббиёт) ўргатишади. Бу уларнинг иқтисодий мустақил бўлишига ёрдам беради.

– Ҳозирги кунда аёл тадбиркорлар сони ошиб, улар ўз ҳунарларини бизнесга айлантирмоқда.

3. Тарбия ва маънавий қадриятларни сақлаш.

– Аёллар кўпинча оилада маънавият посбони сифатида кўрилади ва болаларни миллий анъаналар асосида тарбиялашда муҳим роль ўйнайди.

– Бу уларнинг жамиятда ҳурматга сазовор бўлишига ва келажак авлоднинг маънавий жиҳатдан етук бўлишига хизмат қилади.

Салбий тарафлари: гендер стереотиплар руҳий зўравонликнинг шакли бўлиши мумкин бўлган ҳолатлар кузатилади:

1. Аёлларнинг имкониятларини чеклаш.

– Қизларни “аёл киши ўқимайди”, “кўчага чиқиб ишлаш унинг вазифаси эмас” деган қарашлар билан камситиш.

– Қизларга “сен аёлсан, шунга муносиброқ касб танла” деб, уларни ўз истаган йўналиши бўйича ўқиш ёки ишлашдан тўсиш.

– Аёллардан доимо итоаткор бўлишни талаб қилиш, уларнинг шахсий фикр билдиришига тўсқинлик қилиш.

2. Оилавий босим ва руҳий тазйиқ.

– “Сенинг вазифанг фақат оилага хизмат қилиш” деб, аёлнинг шахсий ҳаёти, хоббилари ёки касбий ривожланишига йўл қўймаслик.

– Турмушга чиқмаган қизларга босим ўтказиш: “Қиз бола бўлиб ёши ўтиб кетди”, “Турмушга чиқ, бўлмаса ҳаёт қийин бўлади” каби гаплар билан унинг шахсий танловларига аралашиш.

– йигитларни ҳам “эркак киши йиғламайди”, "ҳис-туйғуларини билдирмаслиги керак" деган қарашлар билан уларни ҳиссий чекловга олиш.

3. Ҳиссий ва психологик босим.

– Аёл киши муваффақиятли бўлса, уни “оилага эътибор қаратмаяпти” деб айблаш.

– “Аёл киши раҳбар бўлмаслиги керак”, "Аёл жамоат ишларига аралашмаслиги керак" каби фикрлар орқали унинг жамиятдаги фаолиятини чеклаш.

– Аёлнинг ҳаракатларини доимий равишда танқид қилиш: “Нимага бундай кийинасан?”, “Қиз бола бундай гапирмайди” каби қарашлар билан унинг ўзини намоён қилиш эркинлигини чеклаш.

4. Қиз ва ўғил болаларга турлича муносабатда бўлиш.

– Қиз болани эркаклардек фаол бўлмасликка ўргатиш: “Қиз бола бўлиб овозингни кўтарма”, “Қизлар маслаҳатга аралашмайди” каби тарбиявий ёндашувлар.

– Ўғил болани руҳий босим остида катта қилиш: “Эркак киши ҳамма нарсага дош бериши керак”, “Сен эркаксан, заиф бўлма” деган гаплар билан уни ўз ҳис-туйғуларини билдиришдан тийилишга мажбур қилиш.

Гендер стереотипларни тартибга солиш муҳим ва бунинг учун таълим, ҳуқуқий чоралар, оилавий тарбия ва жамоатчилик онгини ўзгартириш каби йўллар муҳим аҳамият касб этади.

***Таълим орқали онгни ўзгартириш: бунда мактабгача ёшдан бошлаб гендер тенглигини ўргатиш, дастурларига гендер тенглиги мавзуларини киритиш, ўқитувчи ва тарбиячиларнинг гендер масалалари бўйича хабардорлигини ошириш;

***Қизларни ва ўғил болаларни тенг имкониятларга эга эканлигига ишонтириш, уларга касб танлашда эркинлик бериш, қизларни нафақат анъанавий “аёллар касблари” (ўқитувчи, шифокор, тикувчи)га, балки муҳандислик, ҳуқуқшунослик, IT, тадбиркорлик, иқтисодиёт ва бизнес каби соҳаларга ҳам йўналтириш билан бир қаторда ўғил болаларни ҳам тарбиячи, ошпаз, дизайнер каби касблардан тиймаслик.

***Ҳуқуқий чоралар ва давлат сиёсатини такомиллаштириш, гендер тенглиги бўйича қонунчиликни кучайтириш, хотин-қизларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи қонунларни ишлаб чиқиш ва уларни жорий этиш.

***Гендер зўравонлигига қарши ҳуқуқий чораларни кучайтириш, аёлларнинг меҳнат бозоридаги ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, аёллар ва эркаклар учун тенг маош ва тенг меҳнат шароитларини таъминлаш, декрет таътили ва бола парвариши бўйича мажбуриятларни аёлларгина эмас, балки эркаклар ҳам ўз зиммасига олиши учун ҳуқуқий база яратиш.

***Оилавий тарбияни такомиллаштириш орқали ота-оналар онгини ўзгартириш чораларини кўриш, ота-оналарга қиз ва ўғил болаларни тенг ҳуқуқли шахслар сифатида тарбиялаш кераклигини тушунтириш, қиз болаларни фақатгина "уй хўжалиги" билан чегаралашдан кўра, уларга мустақил шахс сифатида ривожланиш имкониятини бериш, оилаларда уй ишлари фақат аёл зиммасига тушмаслиги, эркаклар ҳам уй ишларига, бола тарбиясига тенг ҳисса қўшиши, “Аёл киши ишламаслиги керак" деган фикрни ўзгартириш.

***Жамоатчилик онгини ўзгартириш ва ОАВда тенгликни тарғиб қилиш, телевизион кўрсатувлар ва фильмларда аёлларни фақат "уй бекаси" сифатида эмас, балки раҳбар, олим, тадбиркор ва ижтимоий фаол шахс сифатида кўрсатиш, кўпчилик кўрадиган реклама ва контентларда гендер тенглигига риоя қилиш, жамоат орасида гендер тенглиги мавзусида мунозаралар ва форумлар ўтказиш, гендер масалалари бўйича маърифий тадбирлар ташкил қилиш.

Хулоса қилиб айтганда, гендер стереотипларни тартибга солиш, уни руҳий зўравонликнинг бир кўринишига айланишини олдини олиш учун жамиятнинг барча қатламлари – таълим муассасалари, давлат идоралари, оилалар ва оммавий ахборот воситалари – биргаликда иш олиб бориши лозим. Бунда асосий эътибор аёл ва эркакларнинг тенг ҳуқуқлилигини тушунтиришга, таълим имкониятларини тенглаштиришга ва ҳуқуқий ҳимояни кучайтиришга қаратилган бўлиши мақсадга мувофиқ.

ЁШЛАРИМИЗНИНГ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИ ТАХДИДЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ - ОБОД ТУРМУШ ТАМОЙИЛИ

Истамова Нигора Азимжоновна
Рус тили ва адабиёти кафедраси катта ўқитувчиси

Ўзбекистонда мустакиллик йилларида барча сохаларда кўплаб ютуқлари кўлга киригилди. Бу ўз-ўзидан бўлаётгани йўк. Юртимизда ижтимоийиктисодий, сиёсий, хукукий ва маънавий сохаларда амалга

оширилаётган ислоҳотлар ёшларимизнинг таълим-тарбия сохаларини юкори даражагакўтарилишига, уларнинг хукук ва эркинликларини кафолатлашга хизмат килмокда. Бундай тарихий ўзгаришлар ёшларимиз онгида катга ўзгаришлар ясади, яратувчанлик кайфиятини ўйғотди, энг мухими, мустакиллик нима эканлигини англатди. Ўзбекистон мустакил давлат сифатида буй курсатиб, дунёдаги барча мамлакатлар ўртасида ўзининг мустахкам мавкеини эгаллади.

Буларнинг замирида Президентимиз томонидан ёшларимизга берилаётган ижтимоий, иктисодий, сиёсий, хукукий ва маънавий юксалишга энг катта глобал масала сифатида эътибор қаратилганлигидир.

Маънавий юксалишга оид буюк мутаффакирларнинг қарашлари ўтган аср бошида миллатимиз учун қанчалик муҳим ва долзарб бўлган бўлса, орадан 100 йил ўтиб, ҳозирги глобаллашув, молиявий-иктисодий инқироз шароити билан хамда маънавий тахдидлар ва “маданият экспорти” кучайган даврда маънавият масаласи биз учун қанчалик муҳим ва долзарблигини тушуниб етишни вакт тақазо этмокда. Чунки илм-фан, техника тараккиёти, замонавий кашфиётлар иисоииятнинг қудратини оширади, унинг янги имкониятларини вужудга келтиради. Бундай ҳолат инсондан янада юксак маънавият даражасига кўтарилишни талаб этади. Ўз навбатида шахснинг маънавий юксалиши унинг ижтимоий фаоллигини оширади ва жамияг тараккиётини тезлаштиради.

Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев тараккиётнинг ривожланиш конуниятларини чукур тахлил этган холда “бирон-бир жамият маънавий имкониятларини одамлар онгида маънавий ва ахлокий кадриятларни ривожлантирмай хамда мустахкамламай туриб ўз истикболини тасаввур эта олмайди, деб таъкидлаши бежиз эмас.

Чунки, маънавиятни юксалтириш хозирги кунимизнинг долзарб вазифаларидан бири бўлса, келажагимиз пойдевори бўлмиш ёшлар калби ва онгига бой маънавий меъросни сингдириш асосида баркамол авлодни шакллантириш ва обод турмуш пойдеворини яратиш эса, ундан хам долзарб вазифадир.

Ёшларимизнинг мустакиллик йилларида маънавий юксалишимизга карши тахдидлар, уларни бартараф этиш йуллари ва келажакда обод турмуш пойдеворини қуришда хорижий тилларни ўрганиш мухим ахамиятга эга. Шунинг учун Президентимиз Шавкат Мирзиёев мустақиллигимизнинг дастлабки йилларидаёк замонавий фан тараккиётининг асосий йўналиши, жахон микёсига чиккан тилларни, айникса, илғор техникавий тафаккурни ифодалайдиган тилларни билишни такозо этади.

Биз инглиз, француз, немис, испан тилларини ва бошка тилларни ўрганишнинг бутун чоралар билан рагбатлантириш кераклигини кўрсатиши ўйлаймизки, ёшларимизнинг келажакда мамлакатимизда жахон хамжамияти ўртасида маънавий юксалишини таъминлашдаги узокни кўра билган маънавий жасоратли инсон эканлигини тасдикламокда.

Бундай давлатларда ахолининг қашшоқлашуви окибатида этник ва миллатлараро зиддиятлар вужудга келаяпти, сиёсий ва диний

экстремизмнинг турли шакллари кучайиб бораяпти. Бу ўз-ўзидан кўшни давлатлар учун хам янгидан-янги муаммоларни пайдо килаяпти.

Шу маънода Ўзбекистоннинг дунёдаги етакчи кучларнинг манфаатлари кесишган стратегик минтакада жойлашган давлат. Шунинг ўзиёк хавфсизлик ва баркарорликни таъминлаш нечоғлик муракккаб эканлигини курсатиб турибди. Теварагимизда содир бўлаётган фожеалар она заминимизга кучиб ўтмаслиги учун давлатимизнинг миллий манфаатларига мувофик уз мустакиллиги, баркарорлиги ва мамлакатимиз келажаги булмиш, ёшларимизнинг маънавий юксалишига карши тахдидлар ва уларни бартараф этишни таъминлаш асосий максади эканлигини тушуниб етиши лозим.

Ёшларимизнинг маънавий юксалишига карши тахдидлар: айрим сиёсий кучлар, ахборот ва мафкура марказларининг онгли равишда муайян гуруҳ давлат ва халкка нисбатан ОАВ ғоявий таъсир қуроллари оркали амалга ошириладиган ошкора ёки пинхона тажовузни тушуниш мумкин. Бунда куйидаги усулларга асосланади: биринчидан танлаб олинган гурух, давлат ва халкнинг турмуш тарзи; иккинчидан, максад-муддаолари, иқтисодий ва ижтимоий фаолияти, сиёсати хакида асосий фикрларни изчил ва мудом таркатиб бориш; учинчидан, улар хакида сохта маълумотларни эълон килши; туртинчидан, шулар оркали узининг ғаразли максадларига хизмат киладиган жихатларни алохида бурттириб курсатиш; бешинчидан, одамларда уз халқи, Ватани ва давлатига, миллий кадриятларига, турмуш тарзига нисбатан ишончсизлик, тандидий муносабат уйготиш, фукаролар, айн икса, ёшларни чалғитиш, йулдан оздиришга урунишлар – максад ўз ахборотини “едириш” ҳисобланади. Бундай ҳуружларга қарши бизлар нимани қарши куямиз? Албатта, миллий маънавиятимизни, миллий ғоямиз, тарихий хотира ва инсон омили, эзгу- кадриятларимизнинг асосий мазмун-мохияти ташкил этади. Демак, маънавий бойлик шундай пайтда одамларга катта куч ва мадад беради. Ёшларимизнинг ўз фикрига зга, турли маънавий хуружларга карши собит тура олишга қодирлиги, иродали, фидойи ва ватанпарвар етук кадрлар булишига харакат килишимизни такозо этмокда.

Хулоса килиб, бугунги кунда ёшларимиз турли хил ахборот хуружларидан огох бўлиши, хорижий тилларини билиши, хар бир масалага ўз миллий манфаатларимиздан келиб чикиб, ёндаша олиши керак. Шундагина улар ахборот хуружи қурбони бўлиб колмайди, буюк келажагимизнинг хакикий бунёдкорига айланади. Бу ишга нафакат таълим муассасалари маънавий сохаларида фаолият юритаётган ходимлар, ўзини Ўзбекистонликман деган хар бир фукаро масъулдир.

Адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йид 20 майдаги “Олий таълим муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори. //Халқ сўзи. Тошкент. 2011. №100 (5267). 20 май.

2.Халқ сўзи. Тошкент, 2012. 8 декабрь.

3.Умаров Н. Олий таълимдаги муҳим янгилик (Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги илмий педагогик кадрлар билан ишлаш бўлими бошлиғи Б.Ражабовнинг шарҳидан фойдаланилади). //Туркистон. 2011. 8 июнь.

GENDER TENGLIKNING JAMIYATGA TA’SIRI

Karimova Mavluda Baxriddinovna
Navoiy viloyati Nurota tumani 6-maktab psixologi

Annotatsiya. Mazkur tezis gender tenglikning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini batafsil yoritadi. Gender tenglik inson huquqlari va adolat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka xizmat qiladi. Gender tenglikni ta’minlash nafaqat jamiyatning huquqiy va axloqiy tamoyillarini mustahkamlashga, balki iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashga ham yordam beradi. Ushbu maqolada gender tenglikning ta’lim, iqtisodiyot, oilaviy munosabatlar va mehnat bozoriga ta’siri muhokama qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda gender tenglikka oid amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning jamiyatdagi ijobiy natijalari tahlil qilinadi.

Jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishida gender tenglik muhim omillardan biridir. Gender tenglik faqatgina erkaklar va ayollarning teng huquqlarga ega bo‘lishi emas, balki ularning jamiyatda o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olishlari uchun qulay muhit yaratish demakdir. Gender tenglik nafaqat inson huquqlari bilan bog‘liq masala, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ham bevosita ta’sir qiluvchi muhim omildir.

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston ham gender tenglikni ta’minlash yo‘lida muhim qadamlar qo‘ymoqda. Ushbu maqolada gender tenglikning jamiyatga ta’siri turli jihatlar bo‘yicha tahlil qilinadi. Gender tenglikni amalga oshirish natijasida erishilayotgan yutuqlar hamda muammolar atroflicha o‘rganiladi.

1. Gender tenglik va ta’lim

Jamiyatda barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun ta’lim tizimida gender tenglik muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ayollar va erkaklar teng sharoitda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lsalar, ularning ijtimoiy faolligi ortadi va jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishiga zamin yaratiladi. Shu sababli, gender tenglikning ilm-fan va innovatsiyalarga ta’siri beqiyos bo‘lib, ayniqsa, ayollarning ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etishi yangi g‘oya va kashfiyotlarga yo‘l ochadi. O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qizlarning oliy ta’limga jalb qilinishi sezilarli darajada oshgan.

2. Gender tenglik va iqtisodiy rivojlanish

Gender tenglik mehnat bozorida adolatli imkoniyatlar yaratish orqali iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ayollarning mehnat faoliyatida ishtirok etishi nafaqat ularning oilaviy farovonligini oshiradi, balki jamiyatning umumiy iqtisodiy holatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorlik sohasiga faol jalb etilsa, ularning o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yishi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi va mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlanadi. O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash maqsadida davlat tomonidan ayol

tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu esa ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qilmoqda.

3. Gender tenglik va oilaviy munosabatlar

Oilada gender tenglik tamoyillarining shakllanishi nafaqat oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamjihatlikni kuchaytiradi, balki kelajak avlodning gender tenglik ruhida tarbiyalanishiga ham bevosita ta’sir qiladi. Jamiyatda barqaror oilaviy hayot shakllanishi uchun erkak va ayolning teng huquqlarga ega bo‘lishi, ular o‘rtasidagi majburiyatlarning adolatli taqsimlanishi muhim sanaladi. Gender tenglik oilaviy barqarorlik va farovonlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki unda har ikki tomonning manfaatlari va huquqlari himoyalanadi. O‘zbekistonda gender tenglikni mustahkamlash bo‘yicha qonunlar qabul qilingan bo‘lib, ushbu huquqiy hujjatlar oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va oilaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

4. Gender tenglik va siyosiy ishtirok

Demokratik jamiyatda gender tenglikning ta’minlanishi siyosiy jarayonlarda ayollarning faol ishtirok etishini talab qiladi, chunki ayollar siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonida qatnashganlarida, ularning ehtiyoj va manfaatlari ham e’tiborga olinadi.

Shu bilan birga, ayollarning rahbarlik lavozimlarida ishlashi jamiyatdagi ijtimoiy adolat va gender muvozanatini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda gender tenglik siyosatida erishilgan natijalar ijobiy bo‘lib, parlament va hukumat tarkibida ayollar ulushi oshib bormoqda, bu esa gender muvozanati demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

Gender tenglik nafaqat ijtimoiy adolat va inson huquqlari tamoyillarining ifodasi, balki jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shartdir. Gender tenglik ta’lim, iqtisodiyot, oilaviy hayot va siyosiy jarayonlarda ta’minlanishi jamiyatning barqaror taraqqiyotiga olib keladi. O‘zbekistonda gender tenglik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natija berayotganini kuzatish mumkin. Biroq, gender tenglikka to‘siq bo‘luvchi ba’zi muammolar ham mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlar yanada takomillashtirilishi lozim.

Kelajakda gender tenglikni yanada rivojlantirish, xususan, ayollarning huquqlarini yanada mustahkamlash va gender balansni saqlash uchun davlat va jamiyatning uzviy hamkorligi talab etiladi. Bu esa ijtimoiy adolat va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent, 2023.
2. O‘zbekston Respublikasi Oila kodeksi, Toshkent, 2022.
3. BMT, “Gender tenglik va ayollar huquqlari bo‘yicha hisobot”, Nyu-York, 2021.
4. Jahon banki, “Gender tenglik va iqtisodiyot tahlillari”, Vashington, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining gender tenglik bo‘yicha farmonlari va qarorlari, Toshkent, 2023.
6. “Zamonaviy gender tadqiqotlari”, Ilmiy jurnal, Toshkent, 2022.
7. “Gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar”, London, 2021.

ISLOMDA AYOL HUQUQLARI: TALQIN VA TAVSIR

Musaev Islomxon Xodi o‘g‘li
Alfraganus universiteti arab tili o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dinining ayollarga bergan huquqlari atroflicha yoritiladi. Islom kelgach, ayollarga johiliyat davrida mavjud bo‘lmagan asosiy insoniy huquqlar-hayot huquqi, ta’lim olish, mehnat qilish, meros olish, er tanlash, siyosiy huquqlarga ega bo‘lish kabi huquqlar berildi. Qur’on oyatlari va hadislar asosida ayol va erkakning diniy, ijtimoiy hamda iqtisodiy huquqlari bir-biriga mos ravishda belgilangan. Maqolada ayollarning Islom tarixidagi o‘rni, ularning siyosiy va ilmiy faoliyatda ishtiroki misollar bilan tasdiqlanadi. G‘arb dunyosida islom ayollarga nisbatan adolatsizlik qiladi degan noto‘g‘ri qarashlarga Qur’on oyatlari va tarixiy dalillar orqali javob beriladi. Islom ayollar va erkaklarni bir-birini to‘ldiruvchi shaxs sifatida belgilab, ularning huquqlari va mas’uliyatlarini jamiyat rivojiga muvofiq tarzda belgilaydi.

Kalit so‘zlar: islomda ayol huquqlari, diniy tenglik, ta’lim huquqi, meros huquqi, siyosiy huquqlar, er tanlash, ayollar va mehnat, Islomda gender tengligi, G‘arbiy noto‘g‘ri tushunchalar, ayollarning tarixiy o‘rni.

Annotation: This article thoroughly explores the rights granted to women by Islam. With the advent of Islam, women were given fundamental human rights that were absent in the pre-Islamic era, including the right to life, education, employment, inheritance, marriage choice, and political participation. Based on Quranic verses and Hadiths, the religious, social, and economic rights of men and women are defined in a complementary manner. The article highlights the historical role of women in Islam and their participation in political and scholarly activities through concrete examples. Misconceptions in the Western world claiming that Islam is unjust to women are refuted using Quranic verses and historical evidence. Islam defines men and women as complementary individuals, establishing their rights and responsibilities in alignment with societal development.

Keywords: women's rights in Islam, religious equality, right to education, inheritance rights, political rights, marriage choice, women and labor, gender equality in Islam, Western misconceptions, historical role of women.

Islom dini ayollarga dunyoning hech bir joyida bo‘lmagan huquqlarni berdi. Bu, ayollarning johiliyat davridagi achinarli ahvolidan so‘ng yuz berdi. Ammo musulmonlar islom ayollarga barcha huquqlarni bergan va ular bundan ortig‘ini talab qila olmaydi deb o‘ylamasliklari kerak. Shu sababli, bu huquqlar jamiyat va hayotning tabiiy rivojlanishi bilan birga o‘zgarib borishi lozim, albatta, islom e’tiqodining asosiy tamoyillariga zarar yetkazmagan holda. Islom dinida ayollarning hayot huquqi: shubhasiz, islom ayollarni ulug‘lab, ularga hayot huquqini kafolatlagan. Johiliyat davrida keng tarqalgan vahshiylik – qizlarni tiriklay ko‘mish odatini taqiqlagan. Islom ayollarga shunday huquqlarni berganki, bu ularning maqomini yuksaltirib, sha’nini oshirdi. Islom ayolni erkak bilan teng deb bilib, unga ham erkakka yuklatilgan vazifalarni yukladi va amaliga ko‘ra mukofotni ham bir xil belgiladi.

Diniy ibodatlarda erkak bilan tenglik. Qur’oni karim va payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam)ning hadislari ayol va erkak o‘rtasida diniy ibodatlarda to‘liq tenglik mavjudligini aniq ko‘rsatadi. Ayol ham erkak kabi namoz o‘qishga, o‘z molidan zakot berishga, umrida bir marta haj qilishga va Ramazon oyida ro‘za

tutishga majburdir (faqat hayz va nifos davridan tashqari). Ayol ham erkak kabi savob va ajr oladi. Alloh taolo bunday marhamatini quyidagi oyat bilan bildirgan:

"Kim mo‘min bo‘lib, ezgu ishlarni qilsa, u erkak bo‘ladimi yoki ayol, u Jannatga kiradi va hech kimga zarracha zulm qilinmaydi." [1:124]

Islom onalarga hurmatni otalarga nisbatan uch karra ko‘proq qilishni buyurgan. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) bunday deganlar: *"Jannat onalarning oyoqlari ostidadir."* G‘arbning noto‘g‘ri da’volari haqida: g`arbda islom erkaklarga jannatda hur qizlarni va’da qilgan, ammo ayollar bundan bebahra qolgan degan noto‘g‘ri tushuncha tarqalgan [5:232].Bu fikr noto‘g‘riligini Qur’oni karimning ko‘plab oyatlari isbotlaydi. Masalan, Alloh taolo shunday deydi:

"Alloh mo‘min erkaklar va mo‘min ayollarga ostidan daryolar oqib turuvchi jannatlarni va’da qildi. Ular u joyda abadiy qolurlar. Yaxshi maskanlar va Allohning roziligi esa eng ulug‘ mukofotdir." [1:72]

Shuningdek, yana bir oyatda shunday deyiladi: *“O‘z iffatini saqlagan erkaklar va o‘z iffatini saqlagan ayollar, Allohni ko‘p zikr qilgan erkaklar va ayollar – Alloh ular uchun mag‘firat va buyuk mukofot tayyorlagan”*[1:35]. Bu oyatlar islom erkak va ayolni teng deb bilishini, ularga bir xil jazo va mukofot berilishini ko‘rsatadi. Islomning bu qoidalari G‘arb tomonidan ilgari surilayotgan noto‘g‘ri qarashlarga aniq javob beradi.

Ta’lim huquqi: Payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) musulmonlarni ilm talab qilishga targ‘ib qilib shunday deganlar: “Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va musulmon ayol uchun farzdir.”[2:23]

Islom tarixida ko‘plab ulug‘ olimlar va faqihlar ilmni ayollardan olganligi ma’lum. Siyrat kitoblari Oisha onamiz (roziyallohu anho) Payg‘ambarimizning hayotlari va sunnatlari bo‘yicha eng muhim manbalardan biri bo‘lganligini ta’kidlaydi. U fiqhda chuqur bilimga ega bo‘lib, hadis roviylarini, qori va faqihlarni tuzatgan. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) uni sharaflab: "Dinning yarmisini mana shu Humayro‘dan oling”, – deb aytganlar.

Shuningdek, Hafsa binti Umar ibn Xattob (roziyallohu anho) ham o‘tkir nutqi va hadis rivoyatlari bilan mashhur bo‘lgan. Bunday bilimdon ayollar islom tarixida juda ko‘p bo‘lgan.

Islomdagi birinchi vazira (ayol vazir): Islom ayol kishining uydan tashqarida ishlashiga to‘sqinlik qilmagan. Masalan, Asmo binti Abu Bakr (roziyallohu anho) eri Zubayr ibn Avvomning yerlarida ishlagan. U shunday degan: “Men erimning otini boqardim, suv tashirdim, xurmo danagini olib yurardim…” Bundan tashqari, Shifo binti Abdulloh ibn Abdulshams ham o‘qish va yozish o‘rgatish bilan shug‘ullangan. U Hafsa binti Umar ibn Xattobning (roziyallohu anho) o‘qituvchisi bo‘lgan va donoligi hamda aql-zakovati bilan ajralib turgan. Hatto xalifa Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu) uni savdo va bozor ishlari bilan shug‘ullanishga, ya’ni iqtisod va tijorat vazirligiga tayinlagan. U bozorlarda tartibni saqlagan, savdogarlar orasidagi nizolarni hal qilgan. Shu sababli, Shifo binti Abdulloh islom tarixidagi birinchi ayol vazir hisoblanadi.

Er tanlash huquqi: Islom ayollarga o‘zlariga er tanlash huquqini bergan. Ayolning roziligisiz tuzilgan nikoh shariat bo‘yicha haqiqiy hisoblanmaydi. Oisha

onamiz (roziyallohu anho) rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) shunday deganlar:

“Beva ayol nikohga kirishi uchun undan ruxsat olinishi lozim, qiz esa o‘z roziligini bildirishi kerak.” Oisha onamiz: “Ey Allohning Rasuli! Qiz hayo qilib jim turadi-ku?” – deb so‘raganlarida, Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam): “Uning sukuti – roziligining belgisi”, – deb javob berganlar.

Meros huquqi: Islom shariatiga ko‘ra, ayol ham erkak kabi meros olish huquqiga ega. Alloh taolo Qur’onda shunday marhamat qiladi: “Ota-onalar va qarindoshlar qoldirgan merosdan erkaklarga nasiba bor, ota-onalar va qarindoshlar qoldirgan merosdan ayollarga ham nasiba bor.” *(Niso, 7)*

Merosdagi ayol ulushi shariat tomonidan belgilangan bo‘lib, ba’zi hollarda u erkakning ulushiga teng yoki undan ham ko‘proq bo‘lishi mumkin. Masalan, Qur’onda aytilgan: “Agar marhumning farzandlari bo‘lsa, ota-onaning har biriga oltidan bir ulush beriladi.”[1:434]

Bundan tashqari, ba’zi holatlarda ayolning meros ulushi erkaknikidan ortiq bo‘lishi ham mumkin. Masalan, agar bir kishi vafot etsa va undan bitta qiz hamda ikki aka-uka qolsa, qiz merosning yarmiga [3:433] ega bo‘ladi, aka-ukalar esa qolgan yarmi bilan bo‘lishishadi. Bu haqiqat G‘arbda keng tarqalgan noto‘g‘ri tushunchaga javobdir. Ular "Islomda har doim ayolning merosi erkaknikidan kam" deb da’vo qilishadi. Aslida esa, bu qoida har doim ham amal qilmaydi va meros taqsimoti turli holatlarga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, islom ayollarga teng huquqlarni bergan, ularga ta’lim olish, ishlash, er tanlash va meros olish kabi asosiy huquqlarni kafolatlagan.

Siyosiy huquqlar:Islom ayollarga hozirgi zamonaviy tushunchada "siyosiy huquqlar" deb ataladigan huquqlarni, ya’ni hukmdorni tanlash va ovoz berish huquqini bergan. Bunga misol sifatida musulmon ayollarning erkaklar bilan birga Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam) bilan Bay’atul-Rizvon (Shajarah ostida qilingan bay’at) paytida ahd qilganlarini keltirish mumkin.Islom tarixi shuni ko‘rsatadiki, ayollar Ikkinchi Aqaba bay’atida ham qatnashganlar. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) ularga shunday deganlar: "Qodir bo‘lganinglaricha va imkoninglar boricha (bay’atga) sodiq qolinglar." Bu bay’at ayollarning siyosiy huquqlari tan olinganini ochiq-oydin isbotlaydi [3:223].

G‘arbning noto‘g‘ri iddaolar: g`‘arbiy tadqiqotchilar va sharqshunoslar ko‘pincha islomdagi ayollarning o‘rnini faqat G‘arbiy nuqtai nazardan baholashga harakat qilib, "Islom erkakni ayoldan ustun qo‘yadi" degan da’volarni ilgari surishadi. Ular "Erkaklar ayollar ustidan qo‘rg‘onlik qiladi" degan oyatga ishora qilib, islomda gender tengligi yo‘qligini ta’kidlaydilar: “Erkaklar ayollar ustidan himoyachidirlar, chunki Alloh ba’zilarini ba’zilaridan afzal qilgan va ular o‘z mol-mulklaridan sarf qiladilar.” [1:343] Lekin bu oyat erkak va ayol o‘rtasida tengsizlikni emas, balki mas’uliyat taqsimotini bildiradi. Erkak oilaning ta’minotchisi va mas’ul shaxs sifatida belgilangan bo‘lsa-da, bu ayolning qadr-qimmatini kamaytirish degani emas. Aksincha, islomda erkak va ayol hayotning barcha jabhalarida bir-birini to‘ldiradi.

Xulosa qilib aytganda, islom ayollarga ko‘plab huquq va imtiyozlarni bergan. Qur’oni Karim erkak va ayolni insoniyatning eng muhim mas’uliyatlarini teng

taqsim etishda sherik qilib qo‘ygan. Shuningdek, islom ayollarga meros olish, er tanlash, o‘z hayoti va qadr-qimmatini himoya qilish kabi ko‘plab huquqlarni ham bergan. Ayolni hech kim majburlab nikoh qila olmaydi va uni hukmdor ham o‘z xohishiga qarshi biror ish qilishga majbur eta olmaydi. Bularning barchasi islom ayolni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida tan olganining va unga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni buyurganining dalilidir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. Tahrir hay’ati: Abdurashid qori Bahromov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq. Mas’ul muharrir: Z.Husniddinov. – T.:Toshkent islom universiteti, 2004.
2.Imom al-Buxoriy. *Al-Jome’ as-Sahih* (Buxoriy hadislar to‘plami). – T.:Toshkent islom universiteti, 2014.
3.Imom Muslim. *Sahih Muslim* (Muslim hadislar to‘plami). – T.:Toshkent islom universiteti, 2005.
4.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Tafsiri Hilol* – Toshkent: Hilol Nashr, 2017.
5.Fatima Mernissi. *Women and Islam: An Historical and Theological Enquiry* – Blackwell Publishers, 1991.

KOMIL INSON TARBIYASIDA ILMU-MA’RIFAT, ODOB-AXLOQ VA TA’LIM-TARBIYANING O‘RNI

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD
Azimova Gulmira Xayrullayevna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Мазкур maqolada komil inson tarbiyasida ilmu-ma’rifat, odob-axloq va ta’lim-tarbiya vazifalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. ilm-ma’rifat, insonparvar, ma’rifatparvar, sabr-qanoat, fidoiylik, ma’naviy yuksalish, namunali axloq, ijtimoiy adolat.

Аннотация. В данной статье освещаются задачи просвещения, нравственности и воспитания в воспитании совершенного человека.

Ключевые слова. наука - просвещение, гуманизм, просвещение, терпение, самоотверженность, духовный подъем, образцовая мораль, социальная справедливость.

Annotation. This article covers the tasks of Science and education, etiquette and education in the education of a perfect person.

Keywords. science-enlightenment, humane, enlightened, patient, self - sacrifice, spiritual uplift, exemplary morality, social justice.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish - ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun - qoidalarini muttasil izlaganlar.

Tabobat ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino merosida ilm-ma’rifat va axloq uyg‘unligi masalasi alohida muhim o‘rin egallaydi. Allomaning ta’lim berishicha, ilm-ma’rifat va axloqiy fazilatlar insonlarda o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi.

Inson aql - zakovat sohibi ekan, tabiatda o‘ziga xos o‘rin egallashi tufayli tirik mavjudot saltanatiga hukmronlik qila oladi. Ilmu-ma’rifatga cheksiz sabr-qanoat, fidoiylik, hayot qiyinchiliklarini mardonavor yengish salohiyati, maqsad sari doimiy intilish, milliy axloqiy qadriyatlarni ulug‘lash faqat insongagina xos oliy fazilatdir. Shuning uchun ham biz insonlar rostni yolg‘ondan, do‘stni dushmandan, ma’rifatni jaholatdan ajrata olamiz. Borliqning o‘zgarishlari, narsa va xodisalarni ichki mohiyatini anglash, kashf etish uchun aqliy taffakur yetukligi zarur ahamiyatga egadir.

Ilm bilan pok hulq - atvor, intilish, saiy- harakatlarning o‘zaro birligi insonni donishmandlik, komillik darajasiga ko‘taradi. Abu Ali ibn Sino asarlarida, masalan “Tadbiri manzil” asarida insonning ijtimoiy mohiyati, fazilatlar, ma’naviy yuksalish, namunali axloq, odoblarni shakllanishi qanchalik qiyin va mushkul bo‘lmasa, insonning ma’naviy qiyofasiga ta’sir etadigan salbiy jihatlardan xalos bo‘lish ham shunchalik murakkabdir. Allomani nazarida, bolalar tarbiyasi, ularning jismoniy salomatligiga, ruhiy osoyishtaligiga bog‘liq. Shuning uchun farzandlar tarbiyasi bolalikdan boshlanadi, bu yo‘lda oila muhim o‘rin egallaydi. Ibn Sino azaliy an’analarga tayangan holda farzandlar yoshlikdan o‘z ona tilini, xorijiy tillarning qonun -qoidalari va grammatik asoslarini chuqur egallab, tibbiyot, kimyo kabi ilm sohalarining o‘ta muhim sirlarini anglab olishlari zarur deb ta’kidlaydi.

O‘rganayotgan fanlarni tahlil etish, xotirada saqlash, takrorlab turish - bilish va tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu jarayon bolalar xotirasini mustahkamlaydi, ularni ilm-fan, ma’rifat chashmalariga intilishlarini ta’minlaydi, bahs - munozara yuritish madaniyatini yuksaltiradi. Tarbiyaning zavoli, uning muhim xosilasi - insonnig oilasi, ota- onalar ug‘itlari, pand - nasihatlari, milliy qadriyatlar mushtarakligidir. Inson va jamiyat, shaxs va oilaning munosabatlari, ularning muqaddasligi doimo hayotdir.

Oila- jamiyatning asosiy tarbiya o‘chog‘i. O‘zligimizni anglash, milliy urf-odatlarimizni e’zozlash, odamiylik, halollik, olijanoblik, mehr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi. Hayot inson oldiga ko‘p muammolarini qo‘yadi, ularning yechimi faqat insongagina bog‘liq. Dono do‘stlar insonni boshiga tashvish tushsa beg‘araz ko‘maklashadi, chunki haqiqiy do‘st o‘rinsiz maqtanmaydi, kamchiliklarni yashirmaydi. Shu bilan birga, inson ko‘p hollarda ta’magir, biror bir narsadan manfaatdor kimsalarni ham uchratadi, bu g‘arazgo‘y odamlar yaxshi odamlar to‘g‘risida tuxmat va bo‘xtonlarni tarqatadi, ularning nafsoniyatiga tegadilar. Ibn Sino insonparvar, ma’rifatparvar olim sifatida inson axloqiy ravnaqining imkoniyatlari cheksiz ekanini ta’kidlaydi.

Inson - muayyan jamiyat mahsuli. Shuni ta’kidlash joizki, inson uni qurshab olgan kishilarning bevosita yoki bilvosita ta’sirida ta’lim - tarbiya oladi, voyaga yetadi, barkamol shaxs bo‘lib shakllanadi. Bu jarayon ilm - ma’rifat, axloq uyg‘unligini taminlab ta’lim - tarbiya mezoni bo‘lib qoladi. Ibn Sino ilmiy, falsafiy merosida ta’lim- tarbiyada oilani, ayniqsa, ayollarni o‘rni va ahamiyati alohida

tahlil etilgan. Oiladagi samimiy munosabat, o‘zaro izzat - hurmat, er - xotin o‘rtasidagi poklik, mehr - muhabbat, or - nomus, xaqgo‘ylik kabi qator fazilatlar farzandlar komilligini taminlaydi. Oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga oid qator ishlar barobarida bo‘lajak ota-onalarga, yosh oilalarga farzand kamol topayotgan muhitga ma’naviy kamolot va barkamollik saboqlarini singdirib borish - bosh masala bo‘lmog‘i lozim. Yurtboshimiz –“Oila - kichik Vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa Vatan tinch bo‘ladi”, degan fikrlarida katta falsafa bor. Inson, oila, ayol tushunchalari mushtarakdir. Ayollarning jamiyatimizdagi o‘rni beqiyos. Oilani ham, jamiyatimizni ham birlashtirib, unga fayzu - barakot kiritadigan, xonadonlarni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan aynan, ayoldir.

Jamiyatda ayollarning erishgan yutuqlarini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham e’tirof etib, “Bunday marralarga erishishda oilada, mehnat jamoalarida, umuman jamiyatimizda eng katta boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat muhitini saqlash va mustahkamlash, yurtimiz xotin-qizlarining donoligi, sabr-qanoat va matonati, shukronalik, oilaga sadoqat kabi ibratli xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi” - deb ta’kidlaganlar.

Oqila, dono, zukko ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, jamiyatdagi, qolaversa, butun dunyodagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

Har bir jamiyatning madaniy darajasi, ma’naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ayollarni har qancha ulug‘lasak, hayotimizni chirog‘i, umrimizning guli deb e’zozlasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni e’zozlagan bo‘lamiz.”

Ayol- bu ona, ayolning oqilaligi, iymon- e’tiqodli bo‘lishi, ibo va hayosi, farosati, ko‘ngil tozaligi, o‘z oilasiga vafodorligi, mehribonligi, ilm - ma’rifatliligi ta’lim- tarbiyani asosiy mezonidir. To‘g‘ri tarbiya olgan kishilar o‘z bilimlari va fikr - mulohazalari bilan boy-nodonlardan yuqori turadi. Ibn Sino fikriga ko‘ra, hamma uchun umumiy hisoblangan qonun saltanatining tantanasi adolatsizlikga chek qo‘yadi. Ijtimoiy adolat hamisha taraqqiyotning asosiy o‘lchovi, qashshoqlikka qarshi kurashning asosiy quroli bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda yoshlarni kamol toptirish, ularning qalbida Vatanimizga mehrli qilib, sadoqat tuyg‘usini uyg‘otish, o‘zligini anglash, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalariga katta e’tibor berilib, davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayni vaqtda, yoshlarning g‘ayrati, shijoati, izchilligi va buyuk maqsadlarga intilishi ularning ilmga, ma’rifatga, ma’naviy dunyoning boyligini egallash darajalariga bog‘liqdir.

Mustaqil O‘zbekistonning porloq kelajagini ta’minlash uchun teran fikrli, ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, bugungi davrning dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir.” 2-jild, Toshkent, O‘zbekiston, 2018 yil.

2. Abu Ali ibn Sino. “Tadbiri manzil” asari.

3. O‘zbekistonning fidoyi ayollari. M.Karimova.- Toshkent: “Sharq”. 2012.-784b.
4. Hikmatlar shodasi. A.Raimov, N. Raimova, A. Ziyadov. Toshkent: “O‘zbekiston”. 2016, 744b.

FANTASTIK ASARLARDA AYOLLAR INTELLEKTINI YUKSALTIRISHNING QIYOSIY-BADIIY TALQINI

Ulug‘bek Ko‘chimov
Alfraganus University “Sharq filologiyasi” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Badiiy adabiyotda ayol obrazi talqini ko‘p asrlik tarixga ega. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yaratilgan rivoyatlarning ayol qahramonlari Anaxita, To‘maris, Zarina, qadimgi yunon va rim yozma adabiyotida Gomer, Esxil, Sofokl, Evriped va Ovidiy asarlarida mifologik va realistik, Sharq adabiyotida ham afsona, asotir, ertak va dostonlarda ayol obrazi turli rakurslarda talqin etilgan. Ayollar haqida muqaddas kitoblar “Avesto”, “Injil”, “Qur’on” da ham muhim fikrlar aytilgani hech kimga sir emas. Badiiy ijodning turli janrlarida bo‘lgani kabi fantastik asarlarda ham ayol obraziga keng o‘rin berilgan. Dastavval, hatto jahon fantastikasida ham ayol obrazi uchramas edi. A.Tolstoy “Aelita” fantastik asarida ayol obrazini birinchi bo‘lib gavdalantirdi. Keyinchalik bu an’anani boshqa fantast yozuvchilar davom ettirishdi. O‘zbek adabiyotida buni quyidagi yozuvchilar ijodida ko‘rish mumkin. XX asr o‘zbek adabiyoti nasrning turli janrlarida bo‘lgani kabi fantastika janrida ham H.Shayxov, T.Malik, M.Mahmudov kabi ijodkorlar qalamiga mansub fantastik asarlarda ayollar obrazi gallereyasi yaratildi. T.Malikning “Falak” qissasida Mahfuza, M.Mahmudovning “Men – men emasman” hikoyasida Durdona, H.Shayxovning “Olis sayyorada” qissasida Zuhra, “Tutash olamlar” va “Ikki jahon ovorasi” romanlarida Nazira, Nargiza, Nafisa va Gulshodabonu kabi obrazlar.

Jahon adabiyotshunosligida esa XX asrning 90-yillarida fantastik asarlarning yigirma yetti xil ko‘rinishi aniqlandi, shu mezonga oid asarlar ro‘yxati tuzib chiqildi. “Chiklit” – inglizcha (chick lit) “Ayollar adabiyoti”2 fantastik adabiyotda yangi bir yo‘nalish sifatida yuzaga keldi.

Chiklit – ayollar adabiyoti, ya’ni turli tillarda ayollarga bag‘ishlab yozilgan badiiy asarlar. Chiklit adabiyoti asosida yetti yuzdan ortiq turli janrlarga mansub asarlar yaratildi. Mualliflarning aksariyati ayollar bo‘lib, ayollar haqida yozuvchi erkaklar ham qisman mavjud.Chiklit adabiyoti – janr strukturasi jihatdan: ayollar detektivi, bolali ayollar tarixi, sayyohat ishqibozlari, pul va qimmatbaho narsalarga o‘ch bo‘lganlar, aerobika, yoga, fitnes ishqibozlari, dabdabali hayot kechiruvchilar, uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanuvchi ayollar haqidagi adabiyotdir. G‘arbda mazkur janrda tanilgan yozuvchilar – Kendees Bushnell va Xelen Fildinglarni ta’kidlash kerak. Ta’kidlash lozimki, “Bridjet Jons kundaligi” nomli ayollarga bag‘ishlangan asarlari bilan mashhur.

[2] Chick lit – ingliz tilidan Chick tom ma’noda “juja”, majoziy ma’noda “yosh ayol, qiz” va lit (literature) adabiyot. Bu zamonaviy adabiy janr bo‘lib, romantik syujetga asoslangan va oson va hazil bilan yozilgan ayol prozasi yoki ayol adabiyotining bir turi. https://ru.wikipedia.org/wiki/.

O‘zbek fantastik asarlarda birinchi planda tasvirlangan ayollar obrazi va fantastik mavzularda ham qalam tebratayotgan ayol yozuvchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Sohiba Abdullaeva, Fazilat Hojiqulova, Mavluda Ibroximova singari ayol fantast adibalar asarlarida badiiy konsepsiyalaridan kelib chiqqan holda ayol obraziga o‘ziga xos tarzda yondashadi. Fantastik asarlarga ayol obrazini olib kirganlar sirasini Amerika yozuvchisi Rey Bredberi ham to‘ldiradi, garchand uning fantastik asarlarida ayollar H.Shayxovnikidan farqli o‘laroq ayollar yordamchi obraz sifatida tasvirlanadi. Shunga ko‘ra, Rey Bredberining fantastik asarlaridagi ayollar obrazi bilan H.Shayxovning fantastik asarlaridagi yetakchi planda ishtirok etgan ayollar obrazida mushtarak o‘rinlar ko‘p. Rey Bredberida ham, H.Shayxovda ham inson psixologiyasi, inson tabiatiga xos chizgilarning rivojlanish, shakllanish jarayonida uning botiniy olamini ochishga bo‘lgan moyillikning kuchliligi asarning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Ayol psixologiyasini berishda, ehtimol, natija bir bo‘lmasa-da, fantastik asarlarda erishilishi qiyin bu masalaning uddasidan ikki zamondosh fantast yozuvchi muvaffaqiyatli chiqqan.

Mazkur mushtaraklikning asosini R.Bredberi va H.Shayxovning fantastik asarlaridagi g‘oya tashkil ətadi. Shu ma’noda, fan va texnika yaxshilikka xizmat qilishi kerak, aks holda yovuzlar qo‘lida ilm qurolga aylanadi; baxt g‘oyibdan paydo bo‘lmaydi, hamma narsaga mehnat bilan ərishiladi, fan va texnika rivoji tufayli, albatta, bir kunmas bir kun insonlarning umri kutilgandan ham ko‘pga uzayishiga olib keladi, dunyoni halokatdan, insonlarni yo‘qotishlardan ayol, muhabbat saqlaydi, inson takomillikka intilishi kerak kabi g‘oyalar talqinida ikki adibning ijodiy niyati birlashadi. Ammo R.Bredberining H.Shayxov qarashlari bilan farqli tomonlari ham ko‘p. Masalaning bu tomoni milliy mentalitet bilan bog‘liq. Bundan yarim asr avval ëzilgan asarlardagi yoshlar hayoti bilan bog‘liq voqea-hodisalar bugun bashorat yanglig‘ yangraydi. Uning asarlaridagi ëshlar o‘zlarining qahri qattiqligi bilan ajralib turadi. “Velde” asari qahramonlari – bolalar “televizion she’r”lardan o‘z ota-onalarining adabini berish uchun foydalanishadi. Bu mazmundagi voqealar, ya’ni ëshlarning qahri qattiqligi, bag‘ritoshligi, shafqatsizligi Brədberining aksariyat asarlarining mundarijasini tashkil etgan. “Bolalar maydonchasi”, “Butun yoz bir kunda” asarlari shular sirasini tashkil ətadi. Adib Amerika yoshlarining bugungi qiyofasini chorak asr avval bashorat qilganiga guvoh bo‘lish mumkin.

“Farengeyt bo‘yicha 451 daraja» romani qahramoni, sakkizinchi sinf o‘quvchisi Klarissaning: “…tengdoshlarimning hammasi jinnilarga o‘xshab baqirib-chaqirishadi, bir-birlarini do‘pposlashadi. Odamlar hozir bir-birlariga qanchalik beshafqat ekanliklarini sezganmisiz?”[1:177]. Yoki: “Ba’zan o‘zimni qarib-churigan kampir xotindek his qilaman. Tengdoshlarimdan qo‘rqaman. Ular bir-birlarini o‘ldirishadi. Shu yilning o‘zida tengqurlarimizdan olti kishi otib o‘ldirildi. O‘ntasi avtomobil halokatida nobud bo‘lishdi”,[1:178]. – degan so‘zlari bugungi kun Amerika yoshlari hayotining manzarasini ma’lum ma’noda beradi. Biroq Klarissa obrazida faqat amerika yoshlariga xos chizgilar əmas, balki jahondagi ko‘pchilik ayol-qizlarga xos nuqtalar ham uchraydi.

Ma’lumki, fantastik janrga yozuvchilar turli sabablar munosabati bilan murojaat etadilar. Bunda g‘oyani xayolot pardasiga o‘rab yoki amalga oshishi

qiyin bo‘lgan biron orzuni, kashfiётni gipoteza shaklida, yoki aytolmagan fikrni fantastika qobig‘iga o‘rab berish kuzatiladi. Shu ma’noda H.Shayxov ham “Tutash olamlar” asarida fantastika janridan foydalanib, real haётdagi muammolarning echimini topmoqchi bo‘ladi. H.Shayxovning “Tutash olamlar” fantastik romanining bosh qahramonlari opa-singillar: Nazira, Nargiza, Nafisalardir. Yozuvchi ularni goh og‘ir sinovlarga soladi, goh zulmat va nur, goh haёt va o‘lim girdobida tasvirlaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan fantastik asarlardagi aёllar obrazi fantastik ё real bo‘lishidan qat’i nazar, ular asardan kuzatilgan maqsadni ochishga xizmat qiladi. Asardagi real obrazlarning aksariyatiga fantastik nisbat berilgan bo‘lib, fantastika bilan real obrazlarning kesishuv nuqtasida sinkretik obraz yuzaga kelgan. H.Shayxovning “Tutash olamlar” fantastik asaridagi Nazira obrazi ham shular sirasini tashkil etadi. U koinotning maxsus ruhiy aloqa tarmog‘iga ulangan. Nazira va uning singillari taqdirlangan fantastik nisbatga ko‘ra koinot, dunё ilmlari va din, turli karomatlardan xabar topib turishadi. Ular balog‘at ёshiga etganlarida, tanalariga ruhlar kirib-chiqib turishidan xabar topishadi. Yozuvchi Nazirani “bashoratchilik va karomatgo‘ylik” [2:18]xislati bilan taqdirlar эkan, Nazira voqealar rivoji mobaynida ‘Biz juda ahil opa-singil bo‘lamiz”, deb singillariga bashorat qiladi. Nahot, bu fikrga kelish uchun bashorat qilish xislatiga эga bo‘lish kerak bo‘lsa, nahot fantastik asardagi real qahramonlar aynan shu fikrni aytishlari mumkin bo‘lmasa, degan savol yuzaga keladi. Bu savolning javobini yozuvchining insonni asrash va komillikka etaklash konsepsiyasiga ko‘ra izohlash joiz.

“Tutash olamlar” romanidagi “Sargardon ruhlar” bo‘limida farzandlari erda to‘xtovsiz jinoyat qilayotgan keksa ona obrazi tasvirlangan. Ona: “Bolalarim! Nima qilyapsizlar, axir?! Qaytinglar bu yo‘ldan!.. Onagizning ruhi tinchisin desanglar, keyin menga o‘xshab, bu boqiy dunёda xoru zor bo‘lmayin desanglar, yomonlikni qo‘yinglar!”, [2:15] – deb o‘g‘illarini qotillik qilmaslikka chaqiradi. Onaizorning o‘g‘illariga qilgan nolasidan foniy va boqiy dunyo larzaga keladi. Hatto sayyoralar ham o‘z mehvarlarini tark etishadi. Ona “bag‘rida” yaxshi “tarbiya” ko‘rmagan farzandlar odam o‘ldirib, ustiga moy quyib, jasadni yoqib yuborishadi. Ona olovni o‘chirishga tashlanadi, ammo u o‘tni ham o‘chirolmaydi, o‘zi ham o‘tda ёnmaydi. Bu o‘rinda ёzuvchi aёl obrazlarini navbatdagi fantastik xislatlar bilan taqdirlash bilan bir sirada ramzlardan ham keng foydalanadi. Butun borliqni o‘t olib, kuydirib, yo‘q qilishga qodir, olov farzandiga tarbiya berolmagan onani ёqib kulga aylantirmaydi. Uni qalb azobidan ozod эtmaydi, u vafotidan so‘ng ham ruhi chirqirab, boqiy dunyoda ham yonib, farzandlari qilmishidan kuyib, kul bo‘lib yashaydi. Shu o‘rinda O.Yoqubovni Chingiz Aytmatovning “falsafiy bashoratlari” munosabati bilan “Yozuvchi kitobxonga badiiy tafakkurning yana bir qirralarini ochadi, uni o‘yga toldiradi va hatto idrok etish qiyin bo‘lgan hodisalar girdobiga tashlaydi. Yozuvchi fantastik usuldan foydalangan bo‘lsa-da, roman teran realistik asar sifatida qabul qilinadi. Asarning badiiy tuzilishi, hayotni tasvirlash prinsipi, yozuvchining boshqa asarlaridan tubdan farq qiladi. Kitobxon romanni varaqlar ekan, qahramonlarning inson sha’niga nomunosib xatti-harakatlaridan nafratlanadi, - deb yozgan edi. [3:3] Odil Yoqubovning ayni xulosasi Chingiz Aytmatovning “Oxirzamon nishonalari” asari munosabati bilan

aytilgan bo‘lsa ham, Rey Bredberining “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” va H. Shayxovning “Tutash olamlar” asarlariga nisbatan berilishi mumkin bo‘lgan baho bilan mushtarakdir. Dunyoning turli burchaklarida ijod etuvchi turli millatga mansub R. Bredberi va H.Shayxov insonni asrash, uni komillik sari yo‘llash haqidagi fikrlarini va asar g‘oyasini kitobxonga yetkazish yuklangan ayol qahramonlarning ichki ruhiyati, tabiati, holatini berishda fantastik muhit, fantastik mavzu, fantastik unsurlardan foydalangan holda yetkazishni ma’qul topdilar. Tadqiq janrayonida R.Bredberi ijodiga xos bir jihatni kuzatdik, unda ko‘proq ishyoqmas, faqat o‘z halovatini o‘ylaydigan, farzand ko‘rishni xohlamaydigan, o‘yin-kulgini xush ko‘radigan, yengil hayot kechirishni xohlaydigan ayollar obrazini yaratishga bo‘lgan moyillikni. Bu kabi moyillik H.Shayxov ijodiga ham begona emas. Biroq H.Shayxov yaratgan ayol obrazlari ichida mehribon ona, buvi, opa-singil obrazlari ham borki, Bredberi ayol obrazlaridan Sharqqa xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ma’lumki, fantastik asarlarda texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq fantastik gipotezalar insonni shoshirib qo‘yadi. Ammo ularga bir yoqlamalik xos, ya’ni kashf etilgan texnika insonga bo‘ysunmaydi. R. Bredberining H.Shayxov bilan qarashlaridagi turfalik aynan shu jihat bilan farqlanadi. H.Shayxovning fantastik asarlarida gipoteza sifatida keltirilgan barcha ilmiy fantastik yangiliklar bilan bog‘liq kashfiyotlar insonga xizmat qilishga qaratilgan. R.Bredberi asarlaridagi barcha fantastik kashfiyotlar texnikani takomillashtirishga qaratilgan. Ular insonga bo‘ysunmaydi. Adib yaratilgan texnika insonni yanchishi, majruh qilishi mumkinligini bashorat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, fantastikaning vazifasi faqat bashorat qilish, inson aqli bovar qilmaydigan ilmiy fantastik mo‘jizalarni yaratish barobarida ularni boshqarishni, o‘ziga bo‘ysundirishni ustuvor masala sifatida e’tirof ətilishi va amalga oshirilishi masalasi bugungi kunning etakchi muammolaridan biri sifatida baholanmog‘i lozim. Fantastik asar mavzusi fantastik bo‘lish bilan bir sirada u badiiy adabiët hamdir. Badiiy adabiyotning vazifasi esa komil insonni tarbiyalash, fantastik asardagi gipoteza shaklidagi texnik mo‘jizalar, kashfiyotlar əsa insonga xizmat qilishga qaratilgan muhit vazifasini bajarishi lozim. R.Bredberida ham, H.Shayxovda ham shaxsning, xususan, ayollar botiniy olamini, ruhiyatini ochishga bo‘lgan intilish kuchli. Ular “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja”, “Tutash olamlar”, “Ikki jahon ovorasi”, asarlarida bu borada yuqori natijalarga ərishdi. Dunyoning ikki qutbida yashovchi adiblar asarlarida ayollarni loqayd bo‘lmaslikka, har qanday notinchlikning oldini olishlari, hayotni behuda o‘tkazmasdan, farzand ko‘rib, ularni tarbiyalab, dunyoda tinchlik o‘rnatishga o‘z hissalarini qo‘shishga da’vat etishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/
2. Bredberi R. “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja”. Jahon adabiyoti. 2007. №7.
3. Shayxov H. Tutash olamlar, Ikki jahon ovorasi. – T.: Sharq , 2001.
4. Yoqubov Yo. Chingiz Aytmatovning falsafiy bashoratlari.// Aytmatov Ch.“Oxir zamon nishonalari”. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.

GENDER TENGLIKNING JAMIYATDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Shukurova Sevinch Istam qizi
Navoiy davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Shodiyeva Gulhayo Xudoynazarovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tengligi, ya’ni erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik, jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Gender tenglikning ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va madaniy yuksalishga qay darajada ta’sir etishi yoritiladi. Maqola gender tenglikning huquqiy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganib, uning nafaqat davlat, balki jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlari, demokratiya, siyosiy ishtirok, komissiya, qonunchilik normalari

Tarix davomida insoniyat jamiyati turli bosqichlarni bosib o‘tgan, har bir bosqich esa o‘ziga xos ijtimoiy va madaniy qadriyartlar bilan ajralib turgan. Dastlabki davrlarda jamiyatning tuzilishi asosan jismoniy kuch va biologik imkoniyatlarga bog‘liq bo‘lib, erkaklar ko‘proq tashqi muhit bilan bog‘liq faoliyatlar, jumladan ovchilik, dehqonchilik, chorvachalik bilan shug‘ullangan. Ayollar esa asosan uy ishlari, bolalar tarbiyasi va oila boshqaruvi bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Vaqt o‘tishi bilan jamiyat rivojlandi, texnologiyalar takomillashdi, iqtisodiy tuzilmalar o‘zgardi va buning natijasida endi jismoniy kuch emas, balki bilim, malaka va intellekt asosiy o‘ringa chiqdi. Shunga qaramay, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlik hanuzgacha muammo bo‘lib qolmoqda. Biroq hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda “Gender tenglik” tushunchasi ma’lum va mashhurdir. Xo‘sh, ushbu tushuncha qanday ma’noni bildiradi?

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog‘I erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik-bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gender tengligi- bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘sqinlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat hisoblanadi.[7]

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdirish blan bog‘liq amalga oshirilayotgan islohotlar diqqatga sazovordir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida o‘zbek tilida so‘zlangan nutqida O‘zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib, gender masalasiga alohida to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga

ko‘paydi”,- deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ta’kidlab o‘tdi.[6]

Gender tenglikni rag‘batlantirish va unga erishish uchun ommaviy axborot vositalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy, ijtimoiy va siyosiy xotin-qizlar imidjini aks ettiruvchi, xotin-qizlar va erkaklar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yorituvchi radioeshittirishlar va teleko‘rsatuvlar soni ko‘paydi.[4]

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1.Qonuniylik;

2.Demokratizm;

3.Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi;

4.Jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi;

5.Ochiqlik va shaffoflik.[3]

Davlat xizmatidagi rahbarlik lavozimlarini egallash uchun tanlovda xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok etishi O‘zbekiston qonunchiligi bilan kafolatlangan.

Davlat organlarining kadrlar xizmatining tegishli lavozimlarida ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham taqdim etish majburiyati yuklatildi.

Bola tug‘ilishi munosabati bilan ona ham, ota ham haq to‘lanadigan ta’til olish huquqiga ega. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta’tilning davomiyligi ota-onaning ixtiyoriga ko‘ra ular o‘rtasida bo‘linishi mumkin, bunda ota-ona ta’tildan uni qismlarga bo‘lgan holda foydalanishi mumkin.

Agar shaxs o‘zini jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan deb hisoblasa, vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bunda jins bo‘yicha bevosita yoki bilvosita kamsitishga duchor etilgan shaxsdan davlat boji undirilmaydi.[5]

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rssatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakt ichida 62-o‘rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistonning har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi ko‘rsatilgan [1]. Shu sababdan ham gender tenglikning jamiyatdagi o‘rni katta desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish hamda madaniy taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunga bir nechta omillar sabab bo‘la oladi.

Birinchidan, gender tenglik mehnat bozorida adolatni ta’minlaydi. Ayollarning bilim olish va yuqori lavozimlarga erishish imkoniyatlari kengayganda, jamiyatning umumiy bilim darajasi oshadi. Ikkinchidan, bu ijtimoiy adolatni mustahkamlab, oilalar va bolalarning farovon hayot kechirishiga yordam beradi.

Shuningdek, gender tenglik siyosiy ishtirokni kuchaytiradi. Ayollar va erkaklarning teng huquqli bo‘lishi demokratiya rivojiga xizmat qiladi. Bundan

tashqari, bunday jamiyatlarda zo‘ravonlik darajasi pasayadi, chunki gender stereotiplari kamayadi.

Shuning uchun ham 2019-yil 30-iyul kuni O‘zbekiston Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalri qo‘mitasi tuzildi. Komissiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 7-martdagi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Komissiya tashkil topgan vaqtdan boshlab hamkor tuzilmalar bilan birgalikda mamlakatda gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy hayot sharoitlarini yaxshilash, oila institutini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, shuningdek, ayollaring mehnat huquqlari kafolatlarini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlar olib borildi. Xususan, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qariyb 20 ta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan 2 ta qonun, Prezidentning 1 ta qarori va 4 ta farmoni, Vazirlar Mahkamasining 13 ta qarori qabul qilindi.[2]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, gender tenglik nafaqat huquqiy masala, balki jamiyat rivojining asosiy tamoyillaridan biridir. Bu tamoyil hayotning barcha jabhalarida qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Gender tenglik ta’minlangan jamiyatlarda iqtisodiy taraqqiyot jadallashadi, ta’lim sifati yaxshilanadi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Shuningdek, bunday jamiyatlar innovatsion rivojlanishga moyil bo‘ladi, chunki har bir insonning salohiyatidan to‘laqonli foydalanish imkoni yaratiladi. Shu sabali, gender tenglikni targ‘ib qilish va amaliyotga joriy etish har bir jamiyat uchun ustuvor maqsad bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxati
2. Gender tenglik komissiyasi haqidagi rasmiy saytining “Komissiya haqida” sahifasi, 2021-04-14 da asl nusxadan arxivlandi
3. https://lex.uz/docs/-4494849 Xotin-qizlarning huquq kafolatlari to‘g‘risidagi O‘RQ-562 02.09.2019
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori,28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son
5. https://mintrans.uz/gender-tenglik-asosiy-inson-huquqlaridan-biri
6. “O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlashning dolzarb masalalari:joriy holat, vazifalari va istiqbol”, 15.09.2022, 4-bet
7. https://uz.wikipedia.org

THE JOURNEY TOWARD GENDER EQUALITY IN ENGLISH-SPEAKING COUNTRIES AND CENTRAL ASIA

Xodjayeva Dildora Yusupovna
Navoiy davlat universiteti
Ingliz tili amaliy kurs kafedrasi o‘qituvchisi

Annotation. This article examines historical figures such as Queen Tomyris and activists like Emmeline Pankhurst as symbols of female courage. It explores how women have historically contributed to various fields and promoted leadership, despite obstacles and prevalent stereotypes. Examples from English-speaking countries and Central Asia highlight the importance of gender equality, alongside recognizing the historical contributions of women, while also emphasizing the significance of activism and historical reviews.

Key words: Gender roles, equality, Tomyris, Emmeline Pankhurst, historical overview, women's contributions, Central Asia, English-speaking countries, stereotypes, leadership, activism.

Annotatsiya. Ushbu maqola malika To‘maris va Emelin Pankxerst kabi faollarni, tarixiy shaxslarni ayollar jasorati timsoli sifatida o‘rganadi. Unda to‘siqlar va keng tarqalgan stereotiplarga qaramay, ayollar tarixan turli sohalarda qanday hissa qo‘shgan va yetakchilikni olg‘a surganligini ko‘rib chiqadi. Ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlar va Markaziy Osiyodan olingan misollar ayollarning tarixiy hissasini e'tirof etish bilan birga, shuningdek, gender tengligi axamiyatini ko‘rsatib, faollik va tarixiy sharhlarni ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Tenglik, To‘maris, Emelin Pankxerst, tarixiy sharh, ayollarning hissasi, Markaziy Osiyo, ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlar, stereotiplar, yetakchilik, faollik.

Аннотация: Это статья рассматривает исторических личностей, таких как царица Томирис, и активисток, таких как Эммелин Панхерст, как символы женской отваги. В ней исследуется, как женщины исторически внесли вклад в различные области и продвигали лидерство, несмотря на препятствия и распространенные стереотипы. Примеры из англоязычных стран и Центральной Азии подчеркивают важность гендерного равенства, наряду с признанием исторического вклада женщин, а также подчеркивают значимость активизма и исторических обзоров.

Ключевые слова: Равенство, Томирис, Эммелин Панкхерст, исторический обзор, вклад женщин, Центральная Азия, англоязычные страны, предрассудки, лидерство, активизм.

The family consists of man and woman, which is the nuclear part of society. Each society has its own tradition, culture, and stereotypes that contribute to the overall understanding of the nation. The word order, which always comes together "woman and man" or "man and woman," can lead to arguments in different countries. Nations often have arguments when it comes to gender equality in comparison male and female; in fact, the above-given words do not demonstrate any level of them; however, societies 'consideration reflects the insight of this given lexical chain as if it expresses more power or leadership. This situation highlights how language can show cultural beliefs about gender and the roles of men and women in society. Throughout history, both men and women have played different roles. Many stories show how these roles have changed over time. In the past, women often cared for children and homes. Men often protected their

families from danger. However, this does not mean that women were weaker or less important than men. To understand this better, we can look at examples from different cultures. Tomyris, the queen of the Massagetae, is a famous figure in Uzbekistan's history. She is a symbol of female power and leadership in Central Asia. In the 6th century BCE, Tomyris led her army and defeated Cyrus the Great, the king of Persia. Her strong determination and skill in battle show how women have been leaders in both military and cultural areas.

When we consider the era in which Tomyris lived, her narrative becomes even more fascinating. Bravery and strength were highly regarded by the Massagetae tribe. According to the historian Herodotus, Tomyris was a smart leader who was well-liked by her people in addition to being a skilled fighter. She vowed to get revenge after Cyrus killed her son. According to her, "I will give you blood to drink." Her warriors were inspired by this stirring message. It also demonstrates how she demonstrated strength and leadership by juggling her obligations as a mother and a warrior.

Adventour.com notes that Tomyris's victory over Cyrus became a famous story. It represents the strength and independence of the Saka and Massagetae armies. Her victory made her a strong ruler. It also challenged the usual ideas about women's roles in war and leadership, especially since men usually held these positions at that time. Tomyris's story continues to inspire conversations about gender roles and women's ability to lead.

There are other powerful ladies in Central Asia besides Tomyris. Women in this area have played significant leadership roles throughout history, particularly in trying times. For instance, women contributed to trade and cross-cultural interactions throughout the Silk Road era. They oversaw companies and had an impact on the economy. This demonstrates that, despite the fact that these roles are frequently less well-known than those of men, women have played a wide variety of roles throughout history.

The responsibilities that women perform in Uzbekistan are constantly evolving today. Women have had greater access to education since the end of the previous era. As a result, more women are employed in a variety of occupations. However, women's full participation in society is still restricted by certain traditional ideas. We are reminded of women's leadership potential and the ongoing struggle for gender equality by the tales of historical heroines such as Tomyris. Most women now are inspired by Tomyris's boldness, yet certain Uzbek prejudices prevent men and women from sharing responsibility.

In English-speaking nations, the path to gender equality has also been significant. Women like Emmeline Pankhurst and her daughters, for instance, battled for the right to vote in the UK at the beginning of the 20th century. They staged hunger strikes and protests. People's perspectives on women's rights and roles were altered by this movement. Emmeline Pankhurst was a strong supporter of women's suffrage, or the right to vote, according to the Britannica website. She fought for this right for forty years. The year she died, her efforts paid off. In that year, British women were given full voting rights. Her daughter, Christabel Harriette Pankhurst, was a prominent leader in the struggle for women's suffrage.

Similar to this, Ada Lovelace, who is frequently referred to as the first computer programmer, demonstrates how women have made contributions to traditionally male-dominated professions. Lovelace contributed to Charles Babbage's early computer in the 19th century. Despite the fact that their contributions have frequently been overlooked, her work demonstrates how women have advanced technology. According to the biography website, Ada Lovelace's important contributions to computer technology were not widely recognized until the 1950s. Her notes were brought back into the public eye in 1953 when B.V. Bowden republished them in a book called "Faster Than Thought." Ada has received several accolades and recognitions since her death.

In her honor, the U.S. Department of Defense, for instance, called a new computer language "Ada" in 1980.

The historical stories of gender equality from both Uzbekistan and English-speaking countries show the many struggles and achievements of women. From warrior queens like Tomyris to scientists and activists, these stories show the ongoing journey toward gender equality. They also show the different situations and challenges that women have faced throughout history. It is important to recognize and celebrate these contributions.

Used literature:

1. The Legend of Tomyris, Uzbekistan https://www.advantour.com/uzbekistan/legends/tomyris.htm
2. "Women in Uzbekistan: Opportunities and Barriers" by Christine E. Tamer
3. "Women and Gender in Central Asia: From the Soviet Era to the Present" by J. David Arnold– This book provides an insightful overview of the historical context of gender issues in Central Asia, including Uzbekistan.
4. "The History of the Persian Wars" by Herodotus – A primary source that discusses Tomyris and her confrontation with Cyrus the Great, offering insights into ancient perceptions of gender roles.
5. "Ada's Algorithm: How Lord Byron's Daughter Addicted Her Life to the Creative Computing Revolution" by James Essinger – A biographical account of Ada Lovelace that explores her contributions to computing and her place in the history of women in science.
6. "The Combahee River Collective Statement" – A foundational text in Black feminist thought discussing the significance of intersectionality in feminist discourse.
7. "Women in Uzbekistan: Opportunities and Barriers" by Christine E. Tamer– Provides a contemporary analysis of women's roles and rights within Uzbekistan.
8. Biography, Ada Lovelace, https://www.biography.com/scholars-educators/ada-lovelace
9. Britannica, Emmeline Pankhurst, https://www.britannica.com/biography/Emmeline-Pankhurst

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILANING O'RNI VA MILLIY QADRIYATLARIMIZ AHAMIYATI

Xamidova Gulmira Xamidovna
Navoiy davlat universiteti Tasviriy sanat va muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Go‘zallikni his etish ko‘nikmasi shakllantirish, avvalo, oilaviy qadriyatlardan boshlanadi. Xonadonimizni jihozlashimiz, milliy kashtalarimizning joy usti yopinchiqlarida aks etishi, ko‘rpa-to‘shaklarimiz va uy ro‘zg‘or buyumlarimiz ham bizni milliy qadriyatlarimiz bordavomligini eslatadi. Bular esa farzand tarbiyasida o‘z ta`sirini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: estetik qarashlar, qadriyat, oila, tarbiya, milliy qadriyat, go‘zallik, hunarmandchilik.

Abstract: The formation of the ability to feel beauty begins first of all with family values. Our home furnishing, our national embroideries reflected in the bedspreads, our bedding and household items also remind us of the continuity of our national values. And these reflect their influence in the upbringing of children.

Key words: aesthetic views, value, family, upbringing, national value, beauty, craftsmanship.

Oila insonning ilk o‘quvchiligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog‘lom e’tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargohdir. Shu muqaddas dargohda ma’naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog‘lom e’tiqodli, yangicha fikrlaydigan, komil inson qilib tarbiyalash bugungi islohotlar davrida O‘zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir.

Zero, yoshlarda milliy qadriyatlarimizga, jumladan, oilaviy an’analar, noyob rasm-rusmlarga oid e’tiqodni shakllantirish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta’sirchan vositalardandir. Shuni aloxida ta’kidlash lozimki, oilada o‘rganilgan hunar bolada estetik qadriyatlarni bardavomligi, sir-asrorlarini avloddan avlodga o‘tishini ta`minlaydi. Masalan, hududlar kesimida oladigan bo‘lsak Buxoro zardo‘zligi, Navoiy viloyati Nurota tumani kashtachiligi, Farg‘ona do‘ppilari, Chust pichoqlari kabi o‘zining davom etib kelayotgan qadriyatlari bilan mashxur. Farzand qaysi kasb egasi bo‘lmasin bu qadriyatlar uni hayoti davomida as qotadigan hunar bo‘lib qoladi. Ayniqsa, xotin-qizlarimiz oilasida, farzand tarbiyasida bu qadriyatlar zarurdir. Zeroki, hunarli kishi xor bo‘lmas, Epli kelin, sepli kelin kabi xalq maqollarimiz bejizga aytilmagan.

Agar bu masala oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, uni ilk ta’lim muassasalaridan to keyingi ta’lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo‘ladi. Chunki, har qanday jamiyatda bo‘lgani kabi bizning jamiyatimizda ham har bir alohida shaxs va yaxlit xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni birlashtiruvchi, yurt tinchligi va turmush farovonligini ta’minlovchi ilg‘or g‘oyalar borki, ularning har bir fuqaro tomonidan anglanganlik darajasi ana shu jamiyatning rivojlanishi tamoyillarini belgilaydi.

Chunki oila - asrlar mobaynida xalq an’analari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Umuman tarbiya jarayonining psixologik mohiyati to‘g‘risida professor V. Karimova

shunday yozadi: «Tarbiya» tushunchasining tub ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu - insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri, xolis va ob'ektiv bo'lishiga olib keluvchi murakkab jarayondir».[3]

Qadimdan hunar o'rganish muqaddas vazifa sanaladi. Har bir xalq kelajak avlodlariga o'zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. O'zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo'lgan desak xato qilmagan bo'lamiz. Masalan, Andijon viloyatida, Shaxrixon, Samarqand viloyatida Urgut, Farg'ona viloyatida Qo'qon, Marg'ilon, Namangan viloyati Chust tumanida xalq hunarmandchiligi gullab yashnagan. Hunarmandlar o'sha davrda mahallalarga bo'linib yashaganlar, chunonchi zargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi, deb yuritilgan. O'sha davrlarda yana misgarlik, bo'yrachilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravasozlik va kulolchilik mahallalari mavjud bo'lgan. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda bo'yrachi mahallasi bo'lib u yerda Buxorodagi bo'yra to'qiydigan ustalar yashagan. Bo'yrachi mahallasida 120 ta oila yashagan.

Har bir hunar, odatda, avloddan-avlodga o'tgan, begona bolalardan esa o'ta iste'dodli, shu hunarga mehr qo'yganlarigina tanlab olingan. Chinakkam o'ymakor usta bo'lishni orzu qilgan kishilar madrasada tahsil ko'rgan bo'lishi, she'riyat va musiqa sirlarini bilishi, hatto musiqa asboblarini biroz bo'lsada bilishi shart bo'lgan. Ayrim ustalar shogirdlari uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirddan pokizalikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, egri va noma'qul ishlarga yaqin yo'lamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy turib talab qilganlar.[4]

Farzandingiz estitek tarbiya olishini istasangiz uyingizga asl rassomlar asarlari harid qiling. Bu asarning mazmunini farzandlarizga tahlil qilib bering. Rassomlar ko'rgazmalariga olib boring, asarlar haqida o'z fikringizni bayon eting va farzandingiz fikri bilan qiziqing. Farzandingiz bu bilan rassom bo'lib qolmas, lekin, estetik tarbiya oladi, chinakam zamon bilan hamnafas fikrlaydigan inson bo'lib yetishadi.

Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq sohta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yoridan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go'zallikning timsoli emasligini anglab etishlari lozim. Ota-onalarimiz maktabdagi tasviriy san'at, texnologiya darslarini eng oxirgi o'ringa qo'yishadi. Go'yoki farzandlari rasm chizish, kashta tikish, naqqoshlik, o'ymakorlik kabilar bilan hayotta hech narsaga erishmaydi degan fikr yuritishadi. Bu bilan farzandining estetik qarashlarini milliy qadriyatlarimizga bo'lgan hurmatsizlikni shakllantirib qo'yishganini o'zlari bilmay qolishadi. Soxta narsalarga yo'naltirib qo'yishadi.

Biz bilamizki chet davlatlarning eng boy insonlar uylarini bezash uchun juda katta pul sarflab mashxur rassomlar asarlarini sotib olishadi. Ularni farzandlariga

[3] Matriqzamin. Hikmat bo`stoni (to`plam). Toshkent: "Sharq" 1997.- 242 b.

[4] Bulatov.S.S Naqqoshlik. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010, 65-bet

meros qoldirishadi. Rassomlar ijodiga qiziqishadi. Chunki bu insonlar ma`naviy boylik qadriga yetishadi. Biz ham oilada farzandlarimizni ana shunday ma`naviy jihatdan boy va milliy qadriyatlarimizni hurmat qiladigan ularni qadrlaydigan farzandlarni tarbiyalashga harakat qilishimiz kerak.

Sababi farzand voyaga yetib ijtimoiy jarayonlar bilan bo‘ladigan munosabatlarida go‘zallik nisbiylik xususiyatiga ega bo‘lishini tushunishi zarur. Bu holat ayniqsa, go‘zallikning moddiy va ma’naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rnida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki, go‘zallikning har qanday tahlili shaxs va jamiyat munosabatlari bilan mushohada qilingandagina uning ijtimoiy-ma’naviy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Shu bois go‘zallikning ma’naviy va moddiy qadriyatlar tizimidagi o‘rniga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Vatanimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng milliy-ma’naviy qadriyatlarga yangicha munosabat bildirildi, xalqona, ilg‘or an’analar shakllanadi, milliy iftixorni yuksaltirishga keng jamoatchilik fikri jalb qilindi.[5]

Ana shularning natijasi o‘laroq, mamlakatimizda amalga oshirilgan ezgu ishlarning ko‘lami kengaydi. Endilikda bunyodkorlik g‘oyasi go‘zallik tushunchasi bilan hamohang olib borilganligini, bilish, anglash va tasavvur qilish qiyin emas. Buni o‘zbek san’atida amalga oshirilgan ishlar orqali yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, san’at ta’sir doirasi juda keng bo‘lgan ijtimoiy ong shakllaridan bo‘lib, san’at asari insonni faqat voqelikdagi go‘zalliklar bilan cheklanmaslikka, ayni paytda mavjud go‘zalliklarni ongli tarzda mushohada qilishga, baholashga undaydi.

Masalan rassomlik san’ati go‘zallikni bizga shu tariqa namoyon etadi. Chunki, go‘zallik o‘zini harakatsiz ham namoyon etishini aynan tasviriy san’at namunalarida ko‘ramiz. Go‘zallikni, san’atasarini yaratish va idrok etish ham, ma`lum ma`noda hissiyotlar bilan bog‘liq. Masalan, oddiy harsang tosh kishida alohida bir shissiy taassurot uyg‘otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo‘l urganidan so‘ng, undan hayot nafasi, insoniy hissiyotlar ufurib turadi. Go‘zallikni barpo qilish ham huddi oilada farzandga huddi shunday tarbiya berish jarayoniga o‘hshaydi. Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lahzalik insoniy tuyg‘ularning jamlanganidadir; boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o‘zi tomoshabinga o‘tkazishni maqsad qilib qo‘ygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san’atasariga aylantiradi.

Go‘zallik yaratuvchi ijodkorlardan biri aytaganidek, ijodkorning boshqa odamlardan farqi shundaki, u boshqalar fahmlay olmagan go‘zallikni hamma yerda ko‘ra bilish qobiliyatiga egadir.Zero bolaning estetik tarbiyasi jarayonida asosan uning tasavvurida haqiqiy, tabiiy go‘zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg‘ubor osmon, viqorli tog‘lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, «chuchvara»lar hosil qilayotgan yomg‘ir tomchilari, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, hushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta’sirchan badiiy va san’at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o‘yinchoqlar (bolaning asabini junbo‘shga keltiradigan elektron

[5] Xasanboyeva O. “Oila pedogogikasi”. Toshkent: “Aloqachi” 2007.- 312 b.

o‘yinchoqlar emas), yarashiqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda haqiqiy go‘zallikni his etish tuyg‘usi tabiat bag‘rida, muzey, ko‘rgazma, kino va teatrlarda bo‘lish tufayli shakllanadi. Tarbiya jarayoniga mas’ul insonlar ya’ni farzandning ota-onasi uning qanday musiqa tinglashi, qanday film yoki multfilmlarni tomosha qilishi, qanday o‘yinchoq o‘ynashlarida befarq, loqayd bo‘lmasliklari lozim va bu borada asosiy tavsiyachi vazifasiga fidoiylik bilan yondashuvi davr talabi sanaladi.[6]

Rivojlangan fan – texnika taraqqiyoti davrida jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda inson va go‘zallikka intilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolish dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu dolzarb masala mustaqil davlatimiz siyosatida ham o‘z ifodasini topib, uni har jabhada yani insonni o‘rab turgan atrof muhit, san’at, sport sohasida jamiyat bilan uyg‘unligini ta’minlashni ham nazarda tutilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan estetik ta’lim tizimi o‘quv fanlari doirasiga kiritiladi va har jabhada u sport sohasimi yoki sa`nat shuningdek tabiat go‘zalligini ko‘ra bilishga doir bilimlar hajmini belgilash va uni o‘qitishning samarali shakl va metodlarini qo‘llashni taqoza etdi.

Zero, har bir bolani tarbiyasiga estetik qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan muhitni yaratib bera olsak estetik madaniyat va estetik tasavvur shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchida qadriyatlarimizga hurmatning oshishiga, o‘quvchilarning tabiat go‘zalliklaridan baxra olishiga, har bir go‘zallikni sevishida, avaylashida katta xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev Xalqaro hunarmandchilikfestivalini o‘tkazib borishga oid chora-tadbirlarto‘g‘risida. T. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. //Toshkent shahri, 2019 y, 3-oktabr O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.: Sharq, 1997.
2. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.” Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. — Toshkent: «Uzbekiston», 2017. - 104 6.
3. Shodiev N. Sh. «Yangi pedagogik texnologiyalar» Samarqand -2005. 67 bet.
4. H.Egamov Buyoqlar bilan ishlash. –T.: O‘qituvchi, 1981. 116 bet.
5. Xasanboyeva O. “Oila pedogogikasi”. Toshkent: “Aloqachi” 2007.- 312 b.
6. Matriqzamin. Hikmat bo`stoni (to`plam). Toshkent: “Sharq” 1997.- 242 b.
7. Bulatov.S.S Naqqoshlik. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. — T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010, 65-bet

MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA KASHTACHILK SAN`ATINING.O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muzropova Guljamol Mardonovna
NavDU Tasviriy san’at va muhandislik

[6] Xasanboyeva O. “Oila pedogogikasi”. Toshkent: “Aloqachi” 2007.- 312 b.

grafikasi kafedrasi o`qituvchisi

Anotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada o`zbek xalq an`anaviy amaliy san`atini o`rganish, milliy qadriyatlarni shakllantirishda kashtachilk san`atining.o`ziga xos xususiyatlari, zamonaviy xalq amaliy san`atini yanada rivojlantirishga yordam beradigan ma`lumotlar ko`rsatilgan.Shu bilan birga kashtachilik maktablari faoliyati an`analarini saqlab qolishga turtki bo‘ladi. Tarixga nazar solar ekanmiz, naqadar an`anaviy amaliy san`atning tan olingan namunalari mavjudligini ko`ramiz. Kashtachilik san`atining yo`qori darajada rivojlanganligi, hunarmand ustalarning bir biridan andoza olgan holda, xalq amaliy san`atiga yanada yangi izlanishlar olib borishganligi va amaliy san`atning har tomonlama ravnaq topishiga hissalarini qo‘shishganligiga guvoh bo`lamiz.

Kalit so`zlar: kashtachilk tarixi, amaliy san`at, qadriyatlar, ustoz-shogird an`analari, naqsh, etnomadaniyati, semantikasi, hunarmandchilik maktablari, an`analar, ustalar, qadrlash, asbob-uskunalar, hunarmandchilk, ramzlar, naqqoshlik, gullar tasvirlari, geometrik shakllar.

Kashtachilk tikish kasbi, amaliy san’atning qadimiy. sohalaridan biridir. Arxeologik topilmalar kashtachilkning deyarli barcha xalqlarida qadiymiligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq holda har bir xalqning madaniyati, san’ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta’sirida rivoj topganini ko‘rsatadi. Kashtachilkning paydo bo‘lishi teridan qilingan kiyimlarda bog‘lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir. Davrlar davomida toshdan suyak bigizlarga, undan metall bigizlarga o‘tish bilan, shuningdek, to‘qish, mato to‘qish, bo‘yash va boshqa ishlar bilan bog‘liqdir. Kashtachilik taraqqiyotini Qadimiy Osiyo, Yevropa, Amerika madaniy yodgorliklari, adabiy manbalardagi kashtalar tasvirlarida saqlanib qolgan. Kashtachilk mahsulotlarining eng qadimiy nusxalari saqlanmagan. Kashtachilkk rivojlangan xalqlarda unga tasviriy san’atning ta’siri katta bo‘lgan. XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalari aks ettirilgan. XII asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona san’atining ta’siri ko‘zga tashlanadi. Xitoyda XIV asrdan „syuxua“ (ignali tasvir) nomi bilan mashhur bo‘lgan kashtali namoyonlar uslub jihatdan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqin.

Yevropada kashtachilk Uyg‘onish davrida yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Davrning buyuk rassomlari kashtachilar uchun andazalar tayyorlab berishgan, bu esa kashtalarning badiiyligini oshirgan. Kashtachilikda qimmatbaho toshlardan ham foydalanilgan, ip, jun, ipak, zar va kumush suvi berilgan iplar ishlatilgan. XVIII asrda Yevropada aslzodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayyorlangan kashtachilk buyumlari keng tarqalgan.

XIX asrning 2-yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro etilgach, sanoati rivoj topgan mamlakatlarda kashtachilk korxonalari vujudga kela boshladi, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilishi an’anaviy kashtachilkni inqirozga uchratdi. Kashtachilkdagi mavjud an’analar susayib ketdi, arzon baho mashina kashtalari katta mahorat va ko‘p mehnat talab qiladigan qo‘l kashtalarini siqib chiqardi. Lekin bir qancha mamlakatlarda mashina kashtasi bilan bir qatorda qo‘lda kashta

tikishga alohida e'tibor berilmoqda, kashtado'zlarning ishlari muzeylarni, jamoat binolarini bezab kelmoqda.

O'rta Osiyoda kashtachilk mahsulotlarining qadimiy xillari ayrimlari bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Muzeylardagi palak, so'zana, choyshab, kirpech, zardevor singari badiiy buyumlar va kashtali kiyimlar faqat XIX asrga mansub. XIV-XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar kashtachilkning bu yerda qadimdan keng rivojlanganini ko'rsatadi. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Behzod "Zafarnoma" qo'lyozmasiga ishlagan „Temur taxtda" miniatyurasida (1467) kashtali chodirni ham aks ettirgan.[7]

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbek, turkman, tojik ayollari orasida Kashtado'zlik keng tarqalgan. Kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlar (so'zana, kirpech, dorpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta va b.)ning asosiy qismlari har bir xonadonning o'zida tayyorlangan.

Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi kashtado'zlarining katta san'atidan dalolat beradi. Shu jumladan oz yurtimizda ham kashta anjayin tarzda rivojlangan bo`lib, buni bugungi kunda viloyat muzeylarida saqlanib kelayotgan ekponantlardan bilishimiz mumkin. Masalan, Nurota, Buxoro, Samarqand kashtachilk mahsulotlari ko'proq yo'rma chok b-n, Shahrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar kashtachilk an'analariga, mahsulotning turlariga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, hozir bo'g'joma, dorpech, oynaxalta kabi ashyolar o'z ahamiyatini yo'qotdi, paranji, kaltacha kabi kiyimlarni faqat muzeylardagina uchratish mumkin. Do'ppi, sumka, nimcha, kavush, kirpech, so'zana kabi badiiy buyum va ashyolar zamonaviy did bilan bezatilmokda, shakl va badiiy bezaklarida katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek kashtado'zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olganlar, kashtalarda o'simliksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi. Naqsh mujassamotida asosiy bezak matoning o'rtasida bo'lib, hoshiyalar qo'shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko'p. Ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islimiy gul (naqsh) lar kashtachilkda ham ko'p uchrashi chizmakash (naqqosh)lar amaliy bezak san'atining turli sohalariga chizma (naqsh)lar tayyorlaganini ko'rsatadi. Kashtachilkda chizmakashlar yaratgan naqsh(gul)lar asosida kashtado'zlar badiiy buyum yaratadilar. Kashtachilikda ishlatiladigan asosiy ish qurollari: igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz, angishvona, chambarak, do`koncha (kashtani matoga tortib tikish asbobi) va b.; keng tarqalgan chok turlari: bosma, kandaxayol, chindaxayol, xomdo'zi, yurma, iroqi popur, ilmoq, baxya va b.

O'zbekiston hududidagi asosiy badiiy kashtachilik maktablari XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Nurota, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona va Buxoroda shakllangan.Shu kunga kelib ham ushbu kashtachilk maktablari o`z

[7] Pugachenkova.G.A. Rempel.L.I. ocherki iskusstvo Sredniy Aziye. ---M.: "Iskusstvo" 1982

an`ananalarini davom ettirib kelmoqdalar. Kashtachilik ancha xilma-xildir. “Duppi” yoki “qalpoq” do‘ppilari nafis naqshlar bilan qoplangan, ayollar ko‘ylagi “ko‘ylak” va erkaklar “chapan”lari bezatilgan, o‘zbek xonadoni kashta so‘zani, “palak” (katta panno) yoki “parda” (parda) bilan bezatilgan. , kurpachi ko‘rpa-to‘shaklari bezatilgan, o‘yilgan "xon-taxta" stol va sandiqlar, shuningdek, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar uchun "gavor" beshiklari estetik jihatdan bezatilgan.

Kashta tikish jarayoniga tayyorgarlik alohida e'tiborga loyiqdir. Ehtimol, bu barcha turdagi tikuv va texnikani o‘rganishni talab qiladigan butun san'at, murakkab. Kashtado‘zlikni qo‘llashdan oldin rassomlar naqsh tushunchasi haqida o‘ylashadi.

Ma'lumki, har bir chizma va tanlangan rang o‘zining muqaddas ma'nosiga ega. Masalan, bodom uzoq umr va mangulik timsoli, anor farovonlik va boylik ramzidir. Va o‘zlarini hasad va yomon ko‘zdan himoya qilish uchun ular stilizatsiya qilingan issiq qalampirni qo‘llashadi.

Har bir figuraning bezaklari ipak iplar bilan yaratilgan, u takrorlanmaydi va qo‘shni naqshlar bilan birlashtirilmaydi - tasavvur qilib bo‘lmaydigan go‘zallik namunasi shunday shakllanadi. Naqshlar boy tasavvurni, hayolning ijodiy parvozini, kashtachining mahorati va iste'dodini namoyish etadi.

Har bir amaliy san’at buyumlarining asosini naqsh tashkil etadi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo‘lib, o‘sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan yaratilishiga butunlay bog‘liq bo‘ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. O‘simlik, qush motivlarini aniq ko‘rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarigina bo‘rttirib kontur qilib chiziladi.

Xalq orasida hunarlarning mingdan ortiq turi bo‘lib, har biri alohida bir mavzu bo‘lishi va talablari ham ish uslubiga mos holda qo‘yiladi. Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy echimini o‘ylab ko‘rish, bezakning undagi ayrim bo‘laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya’ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko‘proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog‘liq bo‘lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo‘lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.

Kompozitsiya (mujassamot) - lotincha "Kompositio" so‘zidan olingan bo‘lib, *to‘qish, to‘zish, bir-biriga solishtirish, naqshni g‘oyasi, xarakteri va vazifasiga, muvofiq uyg‘un hamda mutanosib joylashtirish* degan ma’noni anglatadi.[8]

Ritm - naqsh kompozitsiyasining ma’lum bir qismi, ma’lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo‘lib, naqshdagi harakatning o‘zluksiz va go‘zal ko‘rinishini ta’minlaydi**.**

Simmetriya - grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, ulchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

[8] S.S.Bulatov, M.O.Ashurova Amaliy san’at qisqacha lug‘ati. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.

Assimetriya - kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir.

Stilizastiya — tabiatdagi o‘simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

Bizgacha etib kelgan kashtachilik namunalarini sinchiklab o‘rganib chiqilsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, kashta naqshlari qadim – qadim zamonlardan, eramizdan oldingi davrlardan shakllanib, uyg‘unlashib boyitib kelingan va shu bilan birga asosiy yo‘nalish va naqshning turli xillari saqlanadi.

Shu qatori kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar ham o‘ziga xos xarakterga egadir. Kashtachilikni o‘rganishga kirishayotgan har bir kishi naqsh elementlarini bilishi lozim. Bu elementlar naqsh ishlarining alifbosi hisoblanadi.

Kashtado‘z ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g‘uncha, qush va boshqalarning tuzilishini, o‘sish qonun-qoidalarini, ko‘rinishini sinchiklab o‘rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Masalan gulni stillashtirib olar ekan, uning go‘zalligini qaysi holatdagi ko‘rinishini tasvirlashni izlab topadi. O‘simliksimon naqshlar "Islimi gullar" deb ataladi. Islimi gullar o‘z navbatida, ikki tomonga ulanadigan ko‘rinishda bo‘ladi.

Band (novda) — naqshlardagi o‘simlik va shoxlari bir-biriga mustahkamlanadi.

Tanob — arabcha chilvir-arqon degan ma’noni bildiradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi, naqsh shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi.

Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi tanob tortib keyin novdalarni chizadi, so‘ngra novdalarni yo‘nalishiga moslab gullarni joylashtirib chiqadi. Naqsh kompozitsiyasini chizishda tanob birinchi darajali chiziq bo‘lib, uning ustidan hech qachon gul, novda yoki barg bosib utmaydi. Tanoblar xilma-xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Barg-o‘simliksimon naqsh elementi bo‘lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o‘simlik bargining stillashtirib olingan tasviri. Barg naqsh kompozitsiyasida to‘ldiruvchi va hush beruvchi elementdir. U tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkab turlarga bo‘linadi. Oddiy barglarga uch barg; bodom barg, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko‘p barg, shobarg va boshqalar kiradi. Barglarning quyidagi turlari bor; shobarg eng katta barg, qush barg, ko‘p barg, chor barg (turtta barg), xurmo bargi, tol, anor, qashqarcha, madohil, qo‘shbodom, qalampir, nok, sambit, butoq barg va boshqa 50 dan ortiq turlari mavjud.

Gul — tabiatdagi gullarning stillashtirib olingan tasviri bo‘lib, naqsh kompozitsiyasida to‘ldiruvchi va hush beruvchi element hisoblanadi. Gullarning har xil turlari bo‘lib, ular o‘ziga xos nomlanadi. Masalan; lola gul, chinni gul, savsar, atir, gultojixo‘roz va boshqalar.

Tuzilishiga ko‘ra gullar oddiy va murakkab gullarga bo‘linadi: murakkab gullarga pista gul, ko‘pbargli gul va oddiy gullarga lola, oygul, nuxat gul va boshqalar kiradi. Gullar har xil tuzilishiga ega bo‘lganligi uchun ularning o‘ziga xos ismlari bor.

Shukufta-o‘simliksimon naqsh elementi bo‘lib, novdalarni bir-biri bilan bog‘lash va yuzalarni to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

Marg‘ula-qo‘sh chiziqli gajak, o‘simliksimon naqsh elementi. Agar bir novdaning ichida ikki marg‘ula hosil bo‘lgan bo‘lsa, u qo‘sh marg‘ula deb yuritiladi. Agar novda bilan marg‘ula tasvirlangan bo‘lsa, marg‘ulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida marg‘ula to‘ldiruvchi element hisoblanadi.

Bofta-tanob aylanib o‘tib hosil qilgan shakl. Islimiy naqsh elementi. Boftalar to‘g‘ri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo‘ladi. G‘uncha-tabiatdagi g‘unchalarning usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

Kashta naqshlarida kishilarning tabiat hodisalari aks ettirilgan. O‘zbek kashtasining naqshlari obrazida bu yashnab, gullab turgan bog‘ timsollarini ko‘p ko‘ramiz. Ayrim nusxalarida hayvonotlar shakli va buyumlar (oftoba, choynak, ko‘za) shunday tasvirlanadiki, ularni moviy ko‘rinishlaridan, asli shaklini ajratib bo‘lmaydi, balki ular o‘simliksimon qiyofaga kirib kashtaning umumiy uslubi bilan bog‘lanib uzviylashib ketadi.

Har bir so‘zana alohida san’at asaridir. Albatta bunga kashtado‘zning o‘z oldiga qo‘ygan yagona maqsadidir: san’ati va mahorati fantaziyasining ko‘p qirraliligi bilan odamlar qalbiga quvonch, shodlik baxsh etishdadir. Kashtachi o‘z ijodiy fantaziyasini har bir so‘zana detallarida namoyish qilishga harakat qiladi. U gullardan – yulduzlar, guldastalar, oy, quyoshni tasvirlaydi.

Kashtado`z tabiat manzarasini tasvirlar ekan u borliqdagi bor o‘simliklarni, hayvonot olamini uy – ro‘zg‘or buyumlarini tikishga, tasvirlashgan – bu baxt saodatli, quvonch va shodliklarga to‘la hayot orzusi, quyosh – yorug‘lik issiqlik mo‘l hosil, bu baxt va visol osoyishta baxtli hayot, oila, yulduzlar, moviy va musaffo osmon, orzu, umid, baxt- iqbol tunning mayin shabadasi, ertaning baxtli kun orzusi; oftoba – mo‘l – ko‘lchilik, ro‘za – suv, dehqonchilik umidi, hosilning mo‘l bo‘lishi, oilada fayz – baraka va seroblik, serfarzandlik .

Katta dekorativ san’at asarlarini kishi tomosha qilar ekan uning ko‘z oldida milliy arxitektura manzaralari gavdalanadi. Yaqinroqdan esa yirik – yirik shoxlar va gullar, juda yaqindan qaralganda esa naqshning nafisligi bilinadi. Sharqning ko‘p xalqlari singari o‘zbek xalqlarida ham anor hosildorlikning ramzi bo‘lib kelgan. Anor juda sodda shaklda beriladi: dumaloq ko‘rinishi va ichidagi gul kosachasigina tasvirlanadi. Kashtalarda tasvirlangan anor ham shunga juda o‘xshaydi. Mevaning mohiyatini aks ettiruvchi donachalari, po‘stidan nur sochilayotganday, tovlanib turganday tasvirlanadi. O‘simliksimon bezaklarning ichida keng tarqalganlaridan yana biri lola, bodom yoki qalampir tasvirlari bo‘lib, ular juda ko‘p shakllarga ega.

XIX asr oxirida o‘zbek kashtachiligida qushlarga juda kam e’tibor berilgan va ular so‘zananing bir chetiga kichik hajmda tasvirlangan. Hozirgi kunda ham kashtachilikda qushlar juda kam uchraydi. Shunisi diqqatga sazovorki, kashtachilikda hayvonlar, qushlar tasviri bezak sifatida berilsada, kashtado‘z boqiylikni obrazlar orqali berishga, atrof – muhitni to‘g‘ri, real tushunishga harakat qilgan.

Kashta naqshlarini badiiy vositalar, uning dekorativ talqini, ranglari, buyumlarning tanlanishi va tikish texnikasi bir – biriga uzviy bog‘liqdir. Chunki

kashtachilikda yuqorida ko‘rsatilgan har bir talqin bir – birini to‘ldiradi, boyitadi va natijada qismlari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan dekorativ badiiy asr yaratilishiga olib keladi.

Kashtachi bezaklarini matoga joylashtirar ekan, gazlamani haddan ziyod bezab ham tashlamaydi, bekorchi, bo‘sh o‘rinni ham qoldirmaydi. Fon albatta, naqsh va bezakka kashta ta’sir qiladi. Shu sababli kashta fonining oq malla va boshqa rangda bo‘lishiga e’tibor bermog‘i, fonining o‘zi ham qo‘shimcha bezak ekanligini diqqat markazida bo‘lishini talab qiladi. So‘zanada gullar qat’iy o‘lchamli, geometrik simmetrik emas, ular erkin o‘lchamsiz, taxminiy ochiladi. Shu sababli bunday dekorativ kashtalar uyg‘unlashib, butun bir yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bunda har bir gul, o‘simliksimon chiziqlarning erkin bir – biriga bog‘lanishi umumiylikni hosil qiladi.

Bugungi kun O`zbekiston amaliy bezak san`ati qadimiy an`analarga asoslangan holda, yangi zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirilib borilmoqda. Aksariyat badiiy hunarmandlar sohalari tiklandi. Kashtachilik buyumlariga turli xil tasviriy bezaklar berish rasm bo`ldi. Amaliy san`atning so`nggi yillari ichida qo`yidagi asosiy yo`nalishlari rivojlandi: 20 dan ortiq xalq hunarmandchiligini o`z ichiga olgan xalq amaliy san`ati yengil va mahalliy sanoatni o`z ichiga olgan badiiy sanoat, ko`rgazma, inter`er va manzarali kulollik, kandakorlik buyumlari san`atida an`anaviy bo`lmagan buyumlar yaratuvchi rassomlik ijodi bilan bog`liq malakali yakka tartibdagi mualliflik bezak san`ati. Xalq amaliy san`atini rivojlantirish, uning unutilgan turlarini qayta tiklash va taraqqiy ettirishda ’’Usto‘’birlashmasi muhim rol o`ynaydi. Amaliy san`atning barcha turlari rivojlantirilmoqda. Ustalar turli maktab an`analarini uyg`unlashtirib, o`ta ehtiyotkorlik bilan bezaklarni ishlatishmoqdalar. Badiiy hayotda ro`y berayotgan jarayonning ta`siri hamda mahalliy badiiy an`analarning boyligi badiiy tajribada an`anaviy bo`lmagan yakka tartibdagi mualliflik bezak san`atini rivojlantirmoqda.

O`zbek xalqi o`zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Buxoro viloyatidagi nodir qo`lyozmalar, xalq amaliy san`ati namunalari bir vaqtlar o`zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo`lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me`morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o`simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o`z orzu umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar mobaynida ortirilgan madaniy merosimiz, xalq amaliy san`atining ayrim turlari, ularning o`ziga xos tomonlari, haqiqiy o`zbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo`yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san`atini ko`z qorachig`idek asrash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an`anaviy rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qatt`iyat, xalq amaliy san`atining qiziqrli o`ziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan o`zbek xalq amaliy bezak san`ati va uning turlari bo`lmish ganchkorlik, kulolchilik, misgarlik san`ati bilan o`quvchilarda bilim va ko`nikmalarni tashkil etish joizdir. O`zbek xalq amaliy bezak san`ati ham san`at, ham hunar. U asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan ko`z qorachig`idek asrash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirish, undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda, ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga daxldor etish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim tizimida ya'ni maktab, oliy o'quv yurtlarida o'quvchi yoshlarni siyosiy-g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan baxra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, ko'nikma va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Pugachenkova.G.A. Rempel.L.I. ocherki iskusstvo Sredniy Aziye. -M.: "Iskusstvo" 1982
2. Qosimov Q. Naqqoshlik. — Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1982.
3. A. Hakimov '' O`zbekiston amaliy san`ati haqida'' Ilmiy maqola.
4.S.S.Bulatov, M.O.Ashurova Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
5. Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И. Очерки искусства Средней Азии, древность и средневоковье.– М., изд-ва Искусство. 1982. – С. 16.

6. Muzropova G.M. ''Amaliy san`atda naqshlar semantikasi''.Zamonaviy san`at. Hunardan falsafagacha. Ego IV. Ilmiy konfrensiya.
7. Muzropova G. M. ''Buxoro amaliy san`atining pedogogik ahamiyati''.O`zbekistonning umidli yoshlari. Konfrensiyasi. 2021. 31b.
8. Muzropova G.M. ''Amaliy san`atning pedagogik ahamiyati''. Dopolnitel`noe professional`noe obrazovanie. Jurnal. 2021.19 b.
9. Muzropova G.M "Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century 'On the of Bukhara art ceramics''. Central Asian Studies. 2021. 62.example.
10. Muzropova G.M. "Expression of reality in modern uzbek fine art" . Sceience and innovation. 15.02.2023.
11. Muzropova G.M. "An`anaviy amaliy san`atda kandakorlik buyumlaridaginaqshlar semantikasi va ularning ramziy-ifodaviy xususiyatlari". Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 191-197.2023
12. Muzropova G.M. "The importance of the traditions of the teacher and disciple in the study of the traditional applied art of Bukhara".
Intent Research Scientific Journal, I February-2023.
13.https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=uMNNKdIAAAAJ&view_op=list_works&sortby=title
14.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uMNNKdIAAAAJ&citation_for_view=uMNNKdIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C

15.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uMNNKdIAAAAJ&citation_for_view=uMNNKdIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C

DEMOKRATIK DAVLATDA GENDER TENGLIKNING O‘RNI

Niyozova Shoira Toirovna
NavDU Ingliz tili amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Sultanov Farrux Fanisovich
Ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola demokratik davlatda gender tenglikning o‘rni, jamiyatning taraqqiyotiga va barqarorligiga katta ta’sir ko‘rsatishi atroflicha yoritiladi. Gender tenglik, faqat ayollar va erkaklar o‘rtasidagi teng huquqlarni ta’minlash bilan cheklanmay, barcha genderlar va identifikatsiya shakllarini birdek hurmat qilishni o‘z ichiga oladi. Demokratik jamiyatda gender tenglikning o‘rni, inson huquqlari, teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat kabi prinsiplar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu prinsiplar, hukumatning siyosatlari va qonunlari orqali amalga oshiriladi, ayni paytda jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatlarida o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Gender tenglikni ta’minlash, faqat adolatli muhitni yaratish bilan birga, barcha fuqarolarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlaydi. Ushbu ilmiy ish, demokratik davlatlarda gender tenglikni rivojlantirish va amalga oshirish uchun mavjud strategiyalarni, muammolarni va ularni hal qilish uchun zarur bo‘lgan choralarni tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, jamiyat, oila, ijtimoiy tenglik, turmush tarzi, tarixiy-madaniy shart-sharoitlar, hayotiy ehtiyoj.

Annotation: This article explores the role of gender equality in democratic states and its significant impact on the development and stability of society. Gender equality goes beyond ensuring equal rights between women and men, encompassing the respect for all genders and forms of identification. In democratic societies, the role of gender equality is closely linked to principles such as human rights, equal opportunities, and social justice. These principles are implemented through government policies and laws, simultaneously bringing about changes in the social, cultural, and economic aspects of society. Ensuring gender equality not only creates a fair environment but also guarantees the active participation of all citizens in society. This study analyzes the strategies, challenges, and necessary measures for the development and implementation of gender equality in democratic states.

Keywords: gender equality, society, family, social equality, lifestyle, historical-cultural conditions, basic needs.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgach amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish masalalari bo‘yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament Yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashlari, voyaga yetmagan qizlar uchun qizlar “Qizlarjon” klublari, Respublika xotin qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Bugungi kunda islohotlar samarasi sifatida jamiyatimiz hayotida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilganligi, jamiyat va davlat ishlarini

boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlanayotganligi, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularni har xil tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi quvonarli holdir. Bu jarayonlarning barchasi demokratik davlat qurishda muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, “gender” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi lotincha “genus”, ya’ni “jins” ma’nosini anglatib, jamiyatda har ikki jins vakillari o‘zlarining shaxsiy fazilatlarini namoyon qilish uchun teng, bir xil sharoit va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratsa, gender esa – ayol va erkaklarning jamiyatdagi statusini ajratishga qaratilgan. Gender tenglik (erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik) — bu oilada erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan arkoni ijtimoiy munosabatlarning arkoni bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Hozirgi vaqtda siyosiy va iqtisodiy institutlarning tenglik darajasi mamlakatlar demokratiyasining ko‘rsatkichi hisoblanadi va bu ma’lumotlar ko‘plab xalqaro indekslarga kiritilgan. Global miqyosda erkaklar siyosatda ayollarga qaraganda ko‘proq qatnashadi va lavozimlarni egallaydi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, boshqa barcha kasblar orasida ayniqsa siyosat sohasida gender tengligiga erishish juda mushkul. Shunday qilib, jinsiy tafovut bo‘yicha Global hisobotga ko‘ra, agar siyosiy vakillikdagi gender tengligining o‘zgarish darajasi hozirgi darajada saqlanib qolsa, dunyoda gender tengligiga erishish uchun o‘rtacha 95 yil, ta’lim sohasida gender tenglikka erishish uchun esa 12 yil kerak bo‘ladi. Jamiyatda ayol va erkaklarning o‘z o‘rnini topishi va belgilashi uchun davlatning ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham o‘tgan davr mobaynida O‘zbekistonda erkaklar va ayollar o‘rtasida to‘liq tenglikka erishishga, ayniqsa, xotin-qizlarning huquqiy va iqtisodiy ahvolini, ularning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilashga, reproduktiv salomatligini saqlashga, shuningdek ayollarning ham, erkaklarning ham jamiyat va oiladagi an’anaviy rolini o‘zgartirishga qaratilgan siyosat qonun chiqaruvchilik va ijro etuvchilik darajalarida olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab uning inson huquqlariga oid asosiy g‘oya va qoidalarini o‘ziga singdirgan xalqaro huquqiy hujjatlar – Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hamda “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi qoidalariga mos ravishda oilani mustahkamlash, uning har bir a’zosi haq-huquqlarini himoya qilish, oilaviy munosabatlarda o‘z huquq va erkinliklaridan to‘laqonli foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan milliy qonunchilik bazasi yaratildi va yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang tarzda doimiy ravishda takomillashib bormoqda.

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori qabul qilinib, 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlandi. Unga ko‘ra so‘nggi to‘rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishi belgilandi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta’limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida “Ayollar daftari” tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so‘m mablag‘ ajratib borish yo‘lga qo‘yildi. Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollarning o‘qish to‘lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O‘zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi. O‘zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume’tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko‘rsatib kelgan. BMT Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida 70-son rezolyutsiyasi qabul qilinib, mamlakatimiz uchun dolzarb hisoblangan 16 ta milliy maqsadga erishish bo‘yicha 125 ta maqsadli vazifa hamda 206 ta indikator ishlab chiqilgan.

Xususan, barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad - Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 9-moddasi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qaror qiladi.

Xalqimizning milliy o‘ziga xosligi, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan urf-odat va an’analarimiz, qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmat va ishonch ramzi sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga “Oila” deb nomlangan alohida bob kiritilib, uning 63-moddasida oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi qat’iy kafolatlab qo‘yildi.

XX asr oxiridagi falsafiy va sotsiologik tahlillar jinsiy lik tabiati, jinslararo munosabatlar hamda xotin qizlar masalasiga yangicha qarashni ifodaladi. Jamoaning eng dolzarb muammolari – hokimiyat, zo‘ravonlik, shaxsning o‘zini anglashi va ozodligi sanoatlashuvdan makoni davrda individning jinsiy mos kelishi va tegishli ijtimoiy makoni muammolari sifatida oydinlashtirildi. Falsafaning asosiy masalalari: inson mohiyati muammosi, ma’nosi, maqsadi, inson mavjudligining makoni va vaqti gender nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi. Genderning yangi konseptsiyasi “xotin qizlar masalasi”ga kengroq yondashib, uni jinsiy tafovutga oid muammoni maydonga ko‘chirdi. Ayrim tadqi qotchilarning fikricha, ushbu siljish “ijtimoiy tarixdan” “madaniy tarixga” o‘tishga mos keladi. Nemis olimi R.Xof faqatgina xotin-qizlar masalasining tahlili bilan chegaralanib, erkaklarning muammolaridan ajralib qoldi.

Uning nazarida, genderni asosiy ilmiy kategoriya sifatida tahlil qilishga 4 ta sabab bor:

1. Ayol va erkak o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish hamda odatdagi deb hisoblanadigan muayan ijtimoiy rollardan voz kechish.

2. Jinslararo munosabatlar tizimi va boshqa ichki madaniy nuqtai nazarlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilash.

3. Erkaklar va ayollar muayan rollarni bajaradigan ijtimoiy tashkilotni tegishli hokimiyat tuzilmalari tahlilisiz anglab bo‘lmasligini tan olish.

4. Turli rollarga olib keladigan farqlash jarayoni ham tahlil qilinishi lozimligiga iqror bo‘lish.

Odamlarni rollarga ajratish an’anaviy tus olganligini isbotlash uchun Vanda Lyutsiya Zemyuner Italiya va Gollandiyada, ya’ni bir-biridan milliy mentaliteti bilan ajralib tu radigan mamlakatlardan ikki guruh bolalar orasida sotsiologik tadqiqot olib bordi. Bu tadqiqotda italiyalik bolalar gollandiyaliklarga qaraganda biror jinsga mansub o‘yinchoqlarni ko‘proq tanlashgan. Chunki italiyaliklar madaniyati nisbatan an’anaviylikka moyil edi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishini kafolatlaydi. Xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘riladi. Shaxslar ijtimoiy mavqeyi, jinsi va boshqa ijtimoiy ko‘rsatkichlaridan qat’I nazar inson huquqlaridan bir xilda foydalana olishsa, demokratik davlatda gender tengligi yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-son
2. Amirxo‘jayev, Sh, & G‘ulomjonov, O.R.O‘ (2021). Bola huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Scientific progress, 1(6), 204-208.
3. Botirovich, I. B. (2023). About the location of the tajik population in the Kokand khanate.
4. © 2024 Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki / Jahon Banki 1818 H Street NW Vashington, 20433 Internet: www.worldbank.org
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ–297-IV-sonli qarori. Lex.uz 2. Yoziyev E. Ta’lim muassasalarida gender-menejmentning zamonaviy psixologik masalalari: muammo, yechim va takliflar. “Zamonaviy ta’lim/ Современное образование” jurnali. 2017, 3-son.

O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK SIYOSATI: XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Meyliyeva Nafosat Gulomovna
NavDU Maktabgacha ta’lim kafedra o‘qituvchisi
Rabbimova Habiba
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligini tavsiflaydigan ayollarga bo‘lgan e’tibor va munosabat ifodalangan. Jamiyatimizda ayollarning ijtimoiy va siyosiy jabhalarda yetakchi o‘rinlarni egallashiga qaratilgan tizimli islohotlar yoritilgan. Shuningdek, Gender tenglik masalasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati tog‘risida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, gender tenglik, xotin-qizlar, ayollarga e’tibor, ta’lim, bandlik, kasb-hunar.

Abstract: This article expresses attention and attitude towards women, which characterizes society’s cultural level and spiritual perfection. In our society, systemic reforms aimed at the leading positions of women on the social and political fronts are highlighted. We will also have a background in the public policy framework, which is being implemented on the issue of Gender equality.

Keywords: Society, gender equality, women, attention to women, education, employment, profession.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”, deb alohida ta’kidlagan. Buyuk ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat: “Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim”, deb yozgan edi. Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma’naviy makon yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni otalar, onalar, ustozlar ma’naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur. Bugun biz ochiq jamiyatda

yashayapmiz. Bu imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanib, ilg‘or g‘oyalarni o‘zlashtirishimiz kerak. Lekin, milliy qiyofamizga putur yetkazadigan illatlardan ehtiyot bo‘lishimiz, o‘zligimizni yo‘qotmasligimiz shart” [1].

Asosiy qism: Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan. Vatanimizning bugungi taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o‘rin va mavqeni egallashmoqda. Xususan, “Ayollga e’tibor-kelajakka e’tibor” naqillarimiz bejiz emas. Hozirda aksariyat xotin-qizlar yuqori intellekt, nufuzli dunyoviy bilim va malakaga ega ijtimoiy faol qatlam sifatida jamiyat farovonligi yo‘lida xizmat qilishmoqda. Mustaqillik yillariga nazar tashlasak, datstlab xotin-qizlarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e’tibor berilgan.

Hozirgi davrda ayollarga munosabat masalasida talab qilinayotgan qoidalar islom dinining ezgu g‘oyalari bilan sug‘orilgan, xalqimizda azaldan mavjuddir. Darhaqiqat, diniy tomonlama e’tibor bersak, Islom qonunchiligida ham ayollarning huquqlari himoya qilingan. Islom dini ayolga mehnatni man etmadi, balki ayolni o‘z tabiatiga munosib, shaxsiyatiga to‘g‘ri keladigan mehnat bilan shug‘ullanishini targ‘ib qilgan.

Ayni vaqtda jamiyatimizda ayollar katta ijtimoiy kuchga aylanmoqda Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan barcha tadbirlar bugun ayollarimizning ishtirokisuz o‘tmaydi. Ayniqsa, fan, ta’lim, madaniyat sohasida minglab olima-yu, fozila ayollar mehnat qilmoqdaki, ular jamiyat taraqqiyotida o‘z mavqeyi va munosib ish o‘rinlariga egadirlar. Shu jihatdan olganda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz I. A Karimov xotin-qizlar masalasiga alohida to‘xtalib “Bugun ma’rifiy dunyoda xotin-qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o‘rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e’tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo‘lmaydi” deb ta’kidlagan [2]. Ushbu jumlalarning izohi sifatida xotin-qizlarimizni ta’limga jalb qilishimiz, oliy ma’lumotga ega bo‘lishiga imkoniyatlar bugun yetarlicha. Oliy ma’lumotga ega qilishimizdan asosiy maqsad barkamol yosh avlodni har tomonlama salohiyatli, keng dunyoqarash, intelektual qobiliyatlarini shakllantirishda onalarimizda yetarli bilim va salohiyat bo‘lsagina farzandiga tarbiya va ta’limni uyg‘un tarzda olib borishi mumkin. Farzandga ta’lim va tarbiya berishda ayollarimizning roli erkaklarga nisbatan ustunroqdir. Boisi shundaki, farzand dunyoga kelibon to voyaga yetgunga qadar ilk ijtimoiy munosabat va jamiyatdagi mavjud me’yorlarni onasi orqali anglaydi.

Zamonaviy ayolga shunchaki o‘qish, yozish, hisobni bilish yeatrali emas, uning oldida ta’lim sifati muammosi paydo bo‘lib, doimo mustaqil tarzda o‘z ustida tinimsiz ishlab, o‘z bilimini orttirib chuqurlashtirib borishni talab etadi. Shu sababli ham ayni paytda nafaqat qizlarimizni ta’limga jalb qilish, balkida oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan xotin – qizlarimizni davlat budjetidan imtiyozlar ko‘rinishida ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, yokida maxsus “Monomarkaz” larda kasb – hunarning barcha turlariga o‘qitishni ko‘zda tutadi. Ayollarimiz oilada bugun oilaviy budjetga ham o‘z hissalarini qo‘shmoqda. Bu

albatta yaxshi holat. Ammo biz ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, ba’zi hollarda ayollar o‘z oilasining asosiy boquvchisiga aylanib qolayotganligi sir emas.

Oilada ayolning regulyatorlik funksiyasini oshishini kuzatishimiz mumkin. Bu ham oilada bir qancha sotsial muammolarni yuzga kelishida omil bo‘la oladi. Jamiyatimizda ayollarning ham turli ijtimoiy ehtiyojmand toifalari mavjud. Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj xotin – qizlarimizni bugun faol qilib, qiyin vaziyatida ularni o‘qitib, kasb – hunarli qilib, muammolarini o‘zlari yengishga asosiy e’tibor qaratilmoqda, va ijtimoiy xodim sifatida bu bizning ustuvor maqsadimiz. Zamonamizni o‘tmish tarix bilan taqqoslasak, xotin – qizlarimizning bugungidek erkinligi, huquq va imkoniyat jihatidan tengligi taqsinga sazovordir. Bugun xotin – qizlarimiz uchun mavjud imtiyozlarni ko‘rib chiqamiz.

Xotin- qizlar o‘qishga kirishida qo‘shimcha davlat granti va imtiyozli kreditlar.

- Kam ta’minlangan oilalardagi xotin qizlar;
- To‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan yoxud ota – onasining ikkisi ham vafot etgan ijtimoiy himoya muhtoj qizlar;
- Turmush o‘rtog‘i vafot etgan. Voyaga yetmagan farzandini yolg‘iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;
- Nogironligi bo‘lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin – qizlar.

Yuqoridagi ehtiyojmand toifalarga tavsiyanoma Mahalla va Nuroniylarni qo‘llab – quvvatlash vazirligi tomonidan beriladi hamda bu toifalar “Ayollar daftari” ga ham tegishlidir. “Ayollar dafari” ga 30 yoshdan oshgan xotin va qizlarimizni qamrab oladi. Qo‘llab – quvvatlash asosan (moddiy tomonlama, natura shaklida, dori- darmon bilan ta’minlsh, jarroxlik amaliyoti uchun mablag‘lar bilan qo‘llab – quvvatlash) ni o‘z ichiga oladi. OTM uchun 4 % kvotani olishi mumkin. Bundan tashqari 2020 – yil 18- fevraldagi PF–5938 “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish mahalla institutini yanada qo‘llab – quvvatlash hamda oil ava xotin – qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni qabul qilindi[3]. Bunda yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin – qizlar, nogironligi bo‘lgan ayollarga ijtimoiy –huquqiy, xotin – qizlarning bandligi, mehnat sharoitlarini yaxshilash, qishloq joylarda xotin – qizlarning oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilikka jalb qilishga ham atroflicha to‘xtab o‘tilgan.

Aytishimiz joizki, 2019–yil 2- sentabrda “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq va hamda imkoniyatlar kafolatlari” to‘g‘risidagi qonun mavjud bo‘lib, 5-moddasida jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, ya’ni har bir faoliyat turida ayollarimiz erkaklar kabi istgan kasbida ishlashi va o‘z karyerasini tashkil qilishi mumkin. Hozirda yangilanayotgan bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning yangi tahririning 58- moddasida – xotin –qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin – qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi [4].

Xo‘sh, aslida erkak va ayol rahbarlar muvaffaqiyatga erishishlarida ma’lum darajada tafovut mavjud .Taniqli daniyalik olima F. Denmark katta hajmdagi

tatqiqotlar natijasida shunday xulosaga keldiki, hususan insoniy munosabatlar, kongilchanlik, boshqaruvda demokratik tamoyillarga suyanish ayollarda ko‘proq uchraydi. Va bu ko‘rsatkichlar ma’lum ma’noda ijobiy omilni ifodalaydi. Mamlakatimizda 7 mln dan ortiq ishchi, xizmatchi, talabalarni o‘zida mujassamlashtirgan 14 ta yirik kasaba uyushmalari a’zolarining yarmidan ko‘pini ayollar tashkil etadi. Ko‘rishimiz mumkunki, davlat boshqaruvi faoliyatida xotin – qizlarimizdan “Deputat”, “Vazir”, “Senator”, “Vazir o‘rinbosari”, “Akademik”, “Tadbirkor”, “Direktor”, lavozimlarda faoliyat olib borayotganlari gender tengligining yaqqol misolidir . 2030 – yilga qadar tenglik strategiyasi orqali barcha uchun teng huquq va sifatli ta’limni ta’minlash, qizlarning oliy ma’lumotga ega bo‘lishi, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik kabi masalalarni qamrab olgan. 2023 – o‘quv yilidan boshlab, magistraturada o‘qiyotgan barcha xotin- qizlarning kontrakt pullarini to‘liq budjetdan qoplab berish uchun har yili 200 mlrd so‘m mablag‘ va doktaranturada ilmiy tadqiqotlar olib borishlari uchun xotin – qizlarga har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilyapti. 2022 – 2026 –yillarga xotin –qizlar ta’limini qo‘llab –quvvatlash dasturi qabul qilinishi ko‘zda tutilmoqda. 2021 –yilda ayollar tadbirkorligi dasturi doirasida mingdan ziyod xotin –qizlarga oilalar tadbirkorligi doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion kredit va subsidiya ajratilib, 320 ming xotin – qizlar doimiy ish o‘rinlariga ega bo‘ldi. 2021 –yilda 190 ming nafar ayollar kasb – hunarga o‘qitildi. Bundan tashqari, 4 mingdan ziyod xotin –qizlarga uy –joy to‘lovining boshlang‘ich badaliga mablag‘ ajratilmoqda. Yildan yilga inson qadri yuksak darajalarga ko‘tarilmoqda.

2020- yil 1 – iyuldan o‘zini – o‘zi band qilgan shaxslar ro‘yxati shakllantirildi. Bunda xotin – qizlarimizni hamshiralik ishi o‘zini o‘zi band qilish faoliyati turi hisoblanadi [5]. Mazkur faoliyatni o‘rta tibbiy yoki oliy hamshiralik ishi yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega tegishli axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tgan shaxslar amalga oshiradi. Har bir hududda o‘z – o‘zini boshqarish orgonlarida “Ijtimoiy himoya yagona reeystr” elektron tizimi tashkil etilgan. Mazkur tizimda har bir tumandagi MFY da istiqomat qiluvchi kam ta’minlangan oilalar, ishsiz xotin – qizlar, ijtimoiy yordamga muhtoj yolg‘iz ayollar ro‘yxati shakllantirilgan bo‘ladi. Bu jarayon bilan mahallada xotin qizlar faoli ehtiyojmand ayol qizlarimizni har tomonlama qo‘lab – quvvatlaydi. Ushbu yordam ijtimoiy psixologik, huquqiy, sog‘lom turmush tarzini ta’minlash, tibbiy – ijtimoiy xizmatlar sifati shu kabi yoki yanada jiddiy muammolarini aniqlash va manzilli ko‘mak berishni o‘z vakolatiga oladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ta’lim olayotgan, mehnatda band bo‘lgan xotin – qizlarimizning intilishlari va qobiliyatlarini inobatga olishimiz, ularni jamiyatda erkaklar bilan faoliyatini uzviy va uyg‘un tarzda davom ettirish, imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Ayollarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishimiz va jamiyatimizda ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish maqsadga muvofiq strategiyadir. Zero, unutmaylik, “Kelajak tarbiyasi olima ayollarimiz qo‘lidadir” !!!

REFERENCES:

1. Sh.M.Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy ma’lumotlar. 2022yil 2 mart. Elektron resurs

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 18- fevraldagi PF-5938-son Farmoni

3. https://daryo.uz/2019/03/07/shavkat-mirziyoyev-ayollarning-jamiyatdagi-o‘rnini-O‘zbekiston-erishayotgan-yutuqlardagi-beqiyos-hissasini-hech-narsa-bilan-olchab-bolmaydi/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qaror

YANGI O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA AYOLLARNING ROLI: TARIXIY MEROS, ZAMONAVIY TENDENTSIYALAR VA KELAJAK STRATEGIYALARI

Meyliyeva Nafosat Gulomovna
NavDU Maktabgacha ta’lim kafedra o‘qituvchisi
Ilhomova Shahnoza
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ayollarning o‘rni va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar, ayollarni sifatli ta’lim olishlari uchun qaratilgan choratadbirlar hamda ularning haq-huquqlari, gender tengligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ayol, gender tengligi, ta’lim, jamiyat, turmush, statistika, Yangi O‘zbekiston

Abstract: This article talks about the role of women in society and the opportunities created for them, measures aimed at providing women with quality education, their rights, and gender equality.

Keywords: Woman, gender equality, education, society, life, statistics, New Uzbekistan

Agar Alloh taolo ayolni erkakning bekasi qilib qo‘yganida, uni boshidan, agar qul bo‘lganida, oyog‘idan yaratgan bo‘lar edi. Biroq, uni do‘st qilib erkakka teng qilib qo‘ygani uchun uni qovurg‘adan yaratdi**. Avreli Avgustin**

Tobora rivojlanib borayotgan bugungi jamiyatimizda xotin-qizlarning o‘rni, ularning haq-huquq hamda fikrlari qanchalik muhim. Nima deb o‘ylaysiz? Ayol ojiza, u uyda o‘tirishi kerak, bola tarbiya qilishi, turmush o‘rtog‘i, qaynona-qaynotasini ko‘nglini olishi, tinimsiz uy ishlari bilan band bo‘lishi kerak degan turli qarashlar bugungi hayotimizni qamrab olgani barchaga ma’lum. Xo‘sh chindan ayol faqat shu ishlar bilan mashg‘ul bo‘lishi kerakmi? Agar javobingiz ha bo‘lsa, nima uchun unda biz bu xilqatni, “mo‘jiza” deb ataymiz. Nahot mo‘jizaga nisbatan bunchalik mas’uliyatli vazifalari ojiz yelkasiga yuklab qo‘yishga uyalmasak. Fikrimizcha yo‘q. Ayol ham o‘qishi, zamonaviy bilimlarni egallashi, jamiyatda o‘zining mustaqil fikrini qo‘rqmasdan ayta olishi lozim. Islomda ayollarning ilm olishiga hech qanday ta’qiq qo‘yilmagan. U o‘qishi, diniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashi kerak. Sababi, u kelajak avlodni dunyoga keltiradi, tarbiyalab voyaga yetkazadi. Ko‘pgina tor fikrli kimsalar borki, ayol yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, uyda o‘tirishga mahkum degan notog‘ri aqidaga tayanib qolgan. To‘g‘i ayol uchun eng oliy o‘rinda oila turishi zarur. Chunki oila muqaddas. Biroq faqat uyda o‘tirsa, uy yumushlari bilan band bo‘lsa, u keyin dunyoga keltirajak farzandiga qanday tarbiya beradi? O‘zida hech qanday ilm yo‘q bo‘lsa. Keyin bizning qo‘shtirnoq ichidagi aqlli erkaklarimiz nolishni boshlashadi.

Hech narsani bilmaydi, aqli yetmaydi, tushunchasi yoq va hokazolar. Mana nima uchun u o‘qishi, ilm olishi kerak.

Kelajak avlodni munosib tarbiyalash uchun, o‘z fikriga ega bo‘lishi uchun. Aqlli ayol oilani ham, ilm olishni ham, ishlashni ham to‘g‘ri tartiblay hamda eplay oladi, agar turmush o‘rtog‘i ham aqlli bo‘lsa. Statistika ma’lumotlariga qaraganda, ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq ishlashar ekan, xolbuki, biror tashkilotda ishlashmasalar ham. Bir kunda ayollar o‘rtacha 12 ming qadam bosishsa, erkaklar 9 ming qadam bosishar ekan. Bundan ko‘rinadiki, ayollar ko‘proq energiya sarflashadi. “Barcha so‘zlar, bilimlar, hunarlar va san’atlar bu so‘zdan lazzat oladilar. Usiz na ishda va na san’atda mazza bor. Ammo bundan g‘oya ne? Bilmaydilar va bilish ham shart ham emas. Masalan, biror odam boy-badavlat, suruv-suruv ot-qo‘ylarga, yer-suvlarga ega ayolga uylanmoq niyatida uning podasini boqib, yerini parvarish qilsa-da, zavqni ayolning borligidan oladi. Chunki ayolsiz u bularning barchasidan soviydi. Xuddi shunday, dunyoning butun hunarlari, ilmlari va hokazo hamma narsalari hayotni, zavqni hamda haroratni orifning nuridan oladilar. Zavqsiz ular uchun hamma yoq o‘likka aylanadi”, - deydi Jaloliddin Rumiy [2:116].

Barchaga ma’lum, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida davlat boshqaruvida ayollarning o‘rni va roli beqiyos. Xususan, Britaniya qirolligida, davlat rahbari necha yillarki qirolicha tomonidan boshqarib kelindi yoki Singapur davlatini olaylik. Singapur bugungi kunda sifatli ta’lim olib borish bo‘yicha oliy o‘rinlarda turibdi. Buni qarangki, davlat rahbari Halima Yoqub 2017-yildan beri Singapur prezidenti lavozimida ishlamoqda. Prezidentlikdan oldin 2013-2017-yillarda parlament spikeri lavozimida faoliyat yuritgan. Demak, Halima Yoqubning davlat rahbarligi lavozimiga kelishidan avval ham jamiyatda o‘z o‘rni bo‘lgan. Bu kabi misollarni juda ko‘p keltirib o‘tishimiz mumkin. Biroq, yana ko‘plab mamlakatlar borki, ayollarning jamiyatdagi o‘rinlari adolatsizlik bilan toptalmoqda. Hindistonda ayollarning ta’lim olishi, davlat tashkilotlarida ishlashi uchun davlat tomonidan hech qanday e’tiroz mavjud emas, hattoki, o‘qishni istagan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashadi. Ammo jamiyatda ayolning mavqeyi pastligicha qolmoqda. Buni hind ijodkorlarining ko‘plab ijtimoiy film hamda kitoblaridan ham bilishi mumkin. Yaqin tarixga biroz nazar tashlaydigan bo‘lsak, Hindistonda ayollarga qarshi 330998 jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ulardan 38947 tasini jinsiy zo‘ravonlik tashkil etadi. Bundan tashqari, Hindiston dunyoda sog‘lom ayollar yashovchi 152 mamlakat orasida 132 o‘rinni egallaydi. Ushbu davlat aholining 48 foizini ayollar tashkil etadi. Ulardan atigi 12 foizi milliy qonun chiqaruvchi organlarda faoliyat olib boradilar. Ushbu ma’lumotlar orqali hind jamiyatidagi ayollarni o‘rnini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. [1:476]. Shunga o‘xshash vaziyatlardan yana biri Eron davlatida ham kuzatish mumkin.

Shukrki, bizning mamlakatimizda xotin-qizlarning ta’lim olishi, davlat hamda xususiy tashkilotlarda ishlashlariga davlatimiz tomonidan hech qanday ta’qiq yoq. Ayollarning sifatli ta’lim olishi har tomonlama qo‘llab quvvatlanadi. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin: 2021-yilda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tavsiyanomasi asosida 2 ming nafar ehtiyojmand

oilalar qizlari qo‘shimcha grant asosida talabalikka qabul qilindi. 2026-yilda xotin-qizlarga ajratiladigan grantlar 6mingtaga yetkazilishi reja qilingan.

Tavsiyanoma quyidagi toifadagi xotin-qizlarga beriladi:

- kam ta’minlangan oilalardagi xotin-qizlar;
- to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya’ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar;
- turmush o‘rtog‘i vafot etgan, voyaga yetmagan farzandini yolg‘iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;
- nogironligi bo‘lgan farzandi bor ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar;
- ikki va undan ortiq farzandlarini tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlaridan alohida (ijarada) yashayotgan ijtimoiy ayollar qiz farzandlari;
- ota-onalaridan biri yoki har ikkisi ham birinchi yoki ikkinchi guruh nogironi bo‘lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar. Bundan tashqari, “Zulfiyaxonim”, “Hamshira” ko‘rik tanlovi g‘oliblari davlat komissiyasi qarori bilan tegishli OTMlar mos yo‘nalishiga tanlovdan tashqari kirish imtihonlarisiz qo‘shimcha grant aosida qabul qilishadi. Shuningdek, xotin-qizlar ta’limiga oid eng oxirgi yangiliklardan ko‘pchilikni suyuntirgani, shubhasiz, magistraturada o‘qiydigan qizlar kontrakt pullari to‘liq budjetdan qoplab berilishi bo‘ldi.

Endilikda xotin-qizlarimiz bemalol, magistratura bosqichida bepul ta’lim olishlari mumkin. Bu ham davlatimiz tomonidan xotinqizlarga qaratilayotgan yuksak e’tibor namunalaridan biridir. Biroq guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlaridek, bizning ham, jamiyatimizda ba’zi “ilmli kishilar” borki, ayollarga past nazar bilan qarashadi. Ayniqsa, bu holat olis va chekka hududlarda ko‘proq kuzatiladi. Nima ham deymiz ularga insof bersin. Dinimizda ayol yuksak qadrlanadi, e’zozlanadi. Sababi ayollarimiz, 72 suyak sinishi og‘rig‘iga keng azob bilan, qiynalib, farzand dunyoga keltiradi. Uni tarbiyalab, voyaga yetkazadi. Bejiz 3 marotaba ham onaga, so‘ng otaga yaxshilik qilish ta’kidlanmagan. Ko‘pgina G‘arb kishilari, Islom ayollariga erkinlik bermaydi, ularni jamiyatda o‘rni past deya fikr yuritishar ekan. Fikrimizcha bu kabi noo‘rin fikrlar yuritilishiga o‘zimiz aybdormiz. Sababini esa, yuqoridagi tor doirali kishilar misolida keltirib o‘tdik. Aslida unday emas, dinimiz ayollarning ilm olishlariga ta’qiq qo‘ymagan. Hatto “Jannat onalar oyog‘i ostidadir” iborasi ham mavjud. Demak ayollarni qadrlashimiz, ilm olishlariga to‘sqinlik qilmasligimiz darkor.

Gender tengligi iborasi mavjud bo‘lib, bugungi kunda juda ko‘plab bahsmunozaalarga sabab bo‘lmoqda ushbu termin. Gender tengligi o‘zi nima?

Gender tengligi, aniqrog‘i, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik - bu oilada erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, gender tengligi - bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keying bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakat

ichida 62-o‘rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o‘spirin qiz uchun tug‘ish ko‘rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi. Gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxati bo‘yicha 62-o‘rinda O‘zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko‘rsatkichi bilan qayd etilgan. O‘rta Osiyo davlatlari o‘rtasida Qozog‘iston 44-chi, Qirg‘iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o‘rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro‘yxatda hech qanday ma’lumot ko‘rsatilmagan. O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“gi 562-sonli Qonuni qabul qilingan. O‘zbekistonda Gender tenglik bo‘yicha Komissiya 2019- yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining raisi hisoblanadi. Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o‘rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog‘lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. To‘g‘ri, hozir biz yashayotgan davr Yangi O‘zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga etarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir. Biroq, xoh erkak kishi bo‘lsin xoh ayol o‘z o‘rni hamda vazifalarini bilsa, jamiyatdagi haq-huquqlaridan munosib ravishda foydalana olsa, o‘ylaymizki, jamiyatimizda faqatgina barqarorlik hukm suradi. Bizning xalqmizda, ayolni xo‘rlash, unga past nazar biran qarash, ayolning esa erkak kishi yuziga sapchishi, axloqiy hatti-harakatlarini nazorat qilmay, o‘z bilganicha ish tutishi kerak degan tushuncha mavjud emas.

Azaldan xotin-qizlarimiz otasi, tutmush o‘rtog‘i yuziga hatto tik boqishmagan. Erkaklarimiz esa ayollarimizga hurmat bilan boqishgan, e’zozlashgan va hattoki, ularga sen deya murojaat etishmagan. Qanday go‘zal, shunday emasmi?! Xalqimizning bu kabi go‘zal qadriyatlari juda ham ko‘p, sanagan sari tugatolmaydi kishi. “Bir narsani tan olishimiz kerak: ayollar xalqning dardini boshqalardan ko‘ra chuqur his qiladi. Bu yil dekabr oyida Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tadigan saylovlarda mehnatkash va oqila ayollarimiz qanchalik ko‘p saylansa, bundan davlatimiz ham, jamiyatimiz ham faqat naf ko‘radi”, - dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Senatning yalpi majlisida [3:315,316].

Nazarimda, bugungi kun kishilari yuragi biroz toshqotgandek go‘yo. Har kim o‘z burch va vazifasini anglagan holda ish yuritsa, oilasi va jamiyat hayotiga zarar yetkazuvchi turli illatlardan yiroq bo‘lsa, nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.scientificprogess.uz

2. Xolmo‘minov Zokir o‘g‘li Mo‘minmirzo, Malikaxon Qaxramon qizi Ashiraliyeva. Ayol rahbarlarning jamiyatda tutgan o‘rni. Oriental Art and Culture jurnali. Qo‘qon 2022. https://scholar.google.com

3. Xolmo‘minov Zokir o‘g‘li Mo‘minmirzo, Mardona Hamidjon Qizi Olimjonova. Jamiyat taraqqiyotida ayol rahbarlarning o‘rni. Oriental Art and Culture jurnali. Qo‘qon 2022. https://scholar.google.com

GENDER TENGLIK: XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONI

Yarova Gulhayo Fazliddin qizi
NavDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Qodirova E’zoza Bahodir qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Ruanda poytaxti Kigali shahrida Parlamentlararo ittifoqning 145-assambleyasida global miqyosda va davlatlarda gender tenglik siyosati rivoji, parlamentlarning gender masalalar bo‘yicha faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, xususan, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xalqaro migratsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar mahalliy va mintaqaviy rivojlanishiga hamda odam savdosi va inson huquqlari buzilishining barcha shakllariga chek qo‘yishda parlamentlar roli va ahamiyatini oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston delegatsiyasi tomonidan mamlakatimizning gender siyosati, genderga nisbatan sezgir parlamentni shakllantirish, konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida gender tenglikni amalga oshirish borasidagi tajribasi hamda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Jahon parlamentlari ayol spikerlari sammiti, unda qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasi haqida atroflicha ma’lumot berildi. Dunyo parlamentlari delegatsiyalari O‘zbekiston tajribasini e’tirof etib, uni keng targ‘ib qilish lozimligini ta’kidladi.9

O‘zbekistonda davlatning ham ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-intellektual hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir vaqtda gender tenglik ya’ni ayollar va erkaklarning teng huquqliligini tashkil etish ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, “gender” atamasining ma’nosi nima?

“Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan bo‘lib, “jins” ma’nosini bildiradi. Gender tenglikni ta’minlash maqsadida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019- yil 17-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 29-avgustda ma’qullangan hamda 2019-yil 2-sentabrda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinishi ham bejizga emas.

BMTga a’zo davlatlar uchun ayollar va erkaklar tengligini ta’minlashga doir milliy majburiyatlarni to‘liq bajarish ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish va BMT tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashga munosib hissa qo‘shish

[9] A.Saidov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari ma’ruzasi

demakdir.BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish assambleyaning “parlamentda ayollar ko‘pchilikni tashkil etgan dunyodagi ilk davlat – Ruandada” o‘tkazilgani, “Parlamentlararo ittifoqning gender tenglik va genderga nisbatan sezgir parlamentlarni yaratishdagi ahamiyati”ni yuqori baholaganini ta’kidlash joiz. Uning so‘zlariga ko‘ra, “ayollar jamiyat hayotida yetakchi rollarni egallasa, ijroiya va qonun chiqaruvchi organlar ham ko‘proq mas’uliyatli bo‘ladi”. Bugungi kunda gender tenglikni ta’minlashda tegishli masalalarning dunyo konstitutsiyalarida aks ettirilishi, “gender masalalarga sezgir konstitutsiyalar” qabul qilinishi tendensiyalari namoyon bo‘lmoqda. Albatta, O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishdan jahon hamjamiyati bilan birga qadam tashlamoqda. Bu borada Parlamentlararo ittifoq Bosh kotibi M.Chungong O‘zbekistondagi gender siyosat va konstitutsiyaviy islohotlar xususida gapirib, “Gender sezgir Konstitutsiya” qabul qilinishi mamlakatda xotin-qizlarning erkinliklari, huquqlari va manfaatlarini samarali himoya qilish, ular kamsitilishi va ularga nisbatan har qanday zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilmasligiga xizmat qilishi”ni ta’kidladi.

Ta’limdagi Gender tengligi bir xil akademik ko‘rsatkichlar va yutuqlar natijalarini kafolatlamaydi deyilsada aslida shundaymi? Teng imkoniyatlarni yaratish zarur bo‘lsa-da, har ikki jins vakillari oilada va jamiyatda o‘ziga xos vazifalarga ega bu stereotip kabi ko‘rinsada aslida insonyat davomiyligi, oila barqarorligi va ko‘plab shu kabi jamiyat yaratishning eng muhim bo‘g‘inidir. Albatta qobiliyatlar, qiziqishlar va o‘rganish uslublaridagi individual farqlarni tan olish kerak. Ushbu o‘zgarishlarni hisobga olmagan holda faqat gender tengligiga e’tibor qaratish, individual talabalarning noyob ehtiyojlari va kuchli tomonlarini e’tiborsiz qoldirishi, ularning akademik ko‘rsatkichlari va yutuqlariga ta’sir qilishi mumkin.

Shunday qilib, bugungi kunda gender tengligini ta’minlash, xotin qizlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish, erkaklar bilan bir qatorda ular uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, xotin-qizlarga eskicha an’anaviy munosabat hamda shakllangan stereotiplarni yo‘qotish, tazyiq, zo‘ravonliklarning oldini olish, shuningdek, uni vujudga keltiruvchi sabablarni kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan uzviy ishlarning bir qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Saidov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari ma’ruzasi

2. I.Sh.Fayziyev “Gender tengligi: ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” Academic research in educational sciences volume 2 539-543

3. Xaydarova Sayyora Chinnaliyevna “Talaba yoshlar o‘rtasida gender tenglikning o‘ziga xos xususiyatlari” Eurasian journal of academic research 147-150

GENDER TENGLIK: JAHONDA VA O‘ZBEKISTONDA

Bomirzayeva Dilnavoz Ikromovna
Navoiy viloyati, Nurota tuman
52-umumta’lim maktabi psixologi

Gender tenglik – inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatning har bir a’zosi, jinsidan qat’i nazar, teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishini anglatadi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida gender tenglik masalasi yillar davomida bosqichma-bosqich hal qilinib kelmoqda. O‘zbekiston ham bu borada muhim qadamlar qo‘ymoqda. Ushbu maqolada gender tenglikning jahon va O‘zbekiston misolida qanday rivojlanayotgani, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar haqida fikr yuritiladi.

1. Gender tenglikning jahon tajribasi Jahonda gender tenglik bo‘yicha turli siyosatlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Yevropa Ittifoqi va Jahon banki gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqmoqda. Skandinaviya davlatlari bu borada yetakchi o‘rinlarni egallab, gender tenglik bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan. Skandinaviya davlatlarida ayollar va erkaklar teng huquqlarga ega bo‘lishi ta’minlangan bo‘lib, ish haqi tafovutlari deyarli yo‘q.

AQSh va Yevropa mamlakatlarida gender siyosati mehnat bozori, ta’lim, sog‘liqni saqlash va siyosatda teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Masalan, Shvetsiya va Norvegiyada ayollarning parlamentdagi ulushi 40-50 foizni tashkil qiladi. Ushbu davlatlarda gender tenglikka doir maxsus qonunlar va dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning amalga oshirilishi qat’iy nazorat qilinadi.

2. O‘zbekistonning gender siyosati va natijalari O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash borasida so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishildi. 2019-yilda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Oliy Majlisda ayollarning ulushi ortib bormoqda, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, gender zo‘ravonlikka qarshi kurashish borasida ham qator qonunlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Biroq, hali ham ayollar mehnat bozorida, rahbarlik lavozimlarida erkaklarga nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, an’anaviy qarashlar gender tenglikka to‘sqinlik qilayotgan muhim omillardan biridir. Ish beruvchilar orasida ayollarni ishga qabul qilishga nisbatan ayrim qarashlar mavjud bo‘lib, bu gender tafovutining saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan gender siyosatini rivojlantirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan, 2030-yilgacha gender tenglikni ta’minlash strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Bu strategiya doirasida ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim va ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

3. Gender tenglikni ta’minlash yo‘lida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar O‘zbekistonda gender tenglikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Ayollarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish;

Gender stereotiplarni kamaytirish bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borish

Mehnat bozorida erkaklar va ayollar uchun teng sharoit yaratish;

Ayollarning siyosiy faolligini oshirish va ularni rahbarlik lavozimlariga tayinlashni rag‘batlantirish;

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar ajratish va maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Xulosa. Gender tenglik nafaqat inson huquqlari masalasi, balki jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Jahonda bu borada katta o‘zgarishlar yuz bermoqda va O‘zbekistonda ham bu sohada sezilarli natijalarga erishilmoqda. Biroq, hali oldinda qilinadigan ishlar ko‘p. Gender tenglikning to‘liq ta’minlanishi mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakda gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorlikda ishlashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations. (2020). Gender Equality and Sustainable Development. New York: UN Publications.

2. World Economic Forum. (2021). Global Gender Gap Report. Geneva: WEF.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2021). Toshkent: Adolat nashriyoti.

4. O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglik bo‘yicha qonuni. (2019). Toshkent: Oliy Majlis matbaa nashriyoti.

5. Yusupova, N. (2022). Gender tenglik va ijtimoiy taraqqiyot. Toshkent: Fan va texnologiya.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nutqlari va qarorlari (2019-2024). Toshkent: Prezident matbuot xizmati.

GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT

Vosiyeva Aziza To‘xtaqulovna
NavDU Tasviriy san’atva muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Sulaymonova Nodirabegim Sulton qizi
San’atshunoslik ta’lim yo‘nalishi talabasi

Zamonaviy jamiyatda gender tenglik masalasi nafaqat ijtimoiy adolatni ta’minlash, balki ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ham qaraladi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi teng imkoniyatlarning yaratilishi jamiyatning barcha sohalarida barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Gender tenglik – ijtimoiy adolat asosi. Gender tenglik inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatdagi barcha shaxslar jinsidan qat’i nazar teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Biroq, ko‘plab mamlakatlarda gender diskriminatsiya hali ham saqlanib qolmoqda. Bu ta’lim, ish bilan ta’minlash va siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarida ayollarning ishtirokiga to‘sqinlik qiladi.

Gender tenglik tushunchasi qadimgi davrlardan boshlab mavjud bo‘lsa-da, uning huquqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi 19-20-asrlarga to‘g‘ri keladi.

Qadimgi davrlar: Ayrim jamiyatlarda ayollar nisbatan erkin yashagan (masalan, qadimgi Misrda ayollar meros olishi va biznes yuritishi mumkin edi), lekin ko‘pgina qadimgi madaniyatlarda ayollar huquqlari cheklangan edi.

19-asrdan ayollar o‘z huquqlari uchun kurashishni boshladilar, ayniqsa Yevropa va AQShda ayollar saylov huquqini talab qila boshladilar.

20-asrning 20-yillarida ko‘plab davlatlarda ayollarga saylov huquqi berildi.

1948-yilda BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi gender tenglikni tasdiqladi. 1979-yilda BMT CEDAW konvensiyasini qabul qildi, bu ayollarga nisbatan barcha kamsitishlarni yo‘q qilishga qaratilgan.

21-asrda gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha global dasturlar kuchaydi.

1. Adolatli jamiyat qurish – Barcha insonlar o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishlari uchun.

2. Iqtisodiy taraqqiyot – Ayollarning iqtisodiy faol bo‘lishi davlatning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ish joylarida teng imkoniyatlar, ko‘plab jamiyatlarda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ish haqi tafovuti saqlanib qolmoqda. Xuddi shunday ish bajarayotgan erkak va ayollarga bir xil maosh to‘lanishi kerak. Shuningdek, ayollarning rahbarlik lavozimlariga ko‘proq tayinlanishi gender tenglikni mustahkamlashga yordam beradi.

Siyosat va qaror qabul qilish jarayonlarida demokratik jamiyatda ayollarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi muhim sanaladi. Ayollarning davlat boshqaruvida ishtiroki nafaqat gender tengligini ta’minlaydi, balki jamiyat ehtiyojlariga ko‘proq mos keladigan qarorlarning qabul qilinishiga ham xizmat qiladi.

3. Ta’lim va innovatsiya – Ayollar ta’lim olish orqali jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadilar.

4. Zo‘ravonlikni kamaytirish – Gender tenglik zo‘ravonlik va kamsitishlarga qarshi samarali choradir.

5. Sog‘lom oilalar – Erkak va ayollar teng huquqqa ega bo‘lganda oilalar mustahkamroq bo‘ladi.

Ayollar hozirgi kunda qonunchilikda himoya qilinmoqda va keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

1. Qonunchilik himoyasi – Ko‘pgina davlatlarda ayollarni kamsitish va zo‘ravonlikdan himoya qiluvchi qonunlar mavjud.

2. Ta’lim va huquqiy bilim olishlari uchun ayollar o‘z huquqlarini bilishlari va ulardan foydalanishlari muhim.

3. Xalqaro tashkilotlar – BMT, UNESCO, UN Women kabi tashkilotlar ayollar huquqlarini himoya qilish uchun ishlaydi.

4. Huquqiy yordam va boshpana markazlari mavjud bo‘lib davlatlarda ayollarga zo‘ravonlikka qarshi markazlar ayollarni himoya qilishda xizmat qilib kelmoqda.

Ayollarning siyosat va ishdagi o‘rnini quyida keltirilgan misollar orqali ham bilishimiz mumkin. Siyosatda ayollar yetakchi lavozimlarda bo‘lishi jamiyatning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Masalan, Angela Merkel (Germaniya kansleri), Jacinda Ardern (Yangi Zelandiya bosh vaziri)

Ish faoliyatida hozirgi kunda ayollar siyosat, ilm-fan, IT soxalari, tadbirkorlik, texnologiya va san’at sohalarida yetakchi bo‘lib kelmoqda.

Prezidentlar ayollar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratishyapti. Masalan, qizlarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar berish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, siyosatda ularga ko‘proq o‘rin berish kabi dasturlar mavjud. Ish joylarida gender tengligini ta’minlash va huquqiy himoyani kuchaytirish ham muhim yo‘nalishlardan biri. Bundan tashqari, ayollar sog‘lig‘i va farovonligi uchun maxsus dasturlar ham ishlab chiqilmoqda. Umuman olganda, ko‘plab mamlakatlarda ayollar jamiyatda yanada faol bo‘lishi uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ayollarning jamiyatdagi kabi oiladagi o‘rni ham beqiyosdir. Oila ichida gender tenglik bo‘lsa, bolalar ham adolatli va hurmatli muhitda tarbiyalanadi. Erkak va ayol birgalikda farzand tarbiyasi, uy ishlarini taqsimlash va o‘z kasbiy faoliyatlarini davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Gender tenglik faqat ayollar uchun emas, balki butun jamiyat uchun muhim. Erkak va ayol huquqlari teng bo‘lsa, jamiyat barqaror va adolatli bo‘ladi.

Ayollar jamiyatning tayanchi bo‘lib, ularning huquqlari ta’minlanishi butun millatning rivojlanishiga xizmat qiladi. Agar ayol o‘z huquqlarini bilsa va ularga rioya qilsa, u nafaqat o‘z hayotini, balki kelajak avlodning ham taqdirini yaxshilashga hissa qo‘shadi.

Jamiyat taraqqiyotining asosi – bilimli va o‘ziga ishongan ayollardir. Ular zulmga qarshi kurashib, adolat uchun ovoz chiqarganlarida, kelajak avlodga kuch va ilhom baxsh etadilar. Ayol o‘z huquqlarini bilishi va ularni himoya qilishi bu faqat o‘z hayoti uchun emas, balki qiz farzandlarining kelajagi uchun ham muhimdir. Chunki bugungi kuchli va mustaqil ayollar ertangi jamiyatning yo‘lchi yulduzidir.

Islom dini ayollarga katta hurmat bilan qaraydi. Qur’onda ayollarning ilm olishi haqida ham aytib o‘tilgan. “Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir.” (Ibn Moja, Sunan 224)

Agar bir ayol ilm olsa, u bir oilani o‘qitadi, bir oilani o‘qitgan ayol esa butun jamiyatning kelajagini porloq qiladi. Shu sababli, har bir ayol o‘z qadrini bilib, o‘z huquqlari uchun kurashishi lozim.

Haqqini bilgan ayol – o‘z orzulariga erishadi, zulmga qarshi kurashgan ayol – jamiyatni uyg‘otadi, ta’lim olgan ayol esa – kelajakni nurafshon qiladi.

Avvalo, ayollar huquqlari, eng avvalo, davlat tomonidan himoya qilinishi, so‘ng esa ayollarning o‘zlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Ular jamiyatdagi adolatsizlik va zulmlarga ko‘z yummasligi, balki unga qarshi dadil kurashishi kerak. Chunki bu nafaqat ularning shaxsiy erkinligi, balki kelajak avloddagi qizlar uchun ham o‘rnak bo‘lish imkoniyatidir. Agar bugungi ayollar o‘z haq-huquqlarini bilib, o‘zlarini himoya qilishni o‘rgansalar, kelajak avlod ham o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirib, o‘z huquqlarini e’zozlashni o‘rganadi. Axir, ayol ta’lim olganida, u nafaqat o‘zini, balki butun bir avlodni tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948)
2. CEDAW – Ayollarga nisbatan barcha kamsitishlarni yo‘q qilish to‘g‘risidagi Konvensiya (1979)
3. Jahon banki va BMTning gender tenglik bo‘yicha hisobotlari
4. ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) ning ish haqi tafovuti bo‘yicha statistik ma’lumotlari

5. UNESCO va UN Women tomonidan chop etilgan ta’lim va ayollar huquqlari bo‘yicha hisobotlar

YOSHLARNI MILLIYLIGIMIZNI QADRLAY OLADIGAN QILIB TARBIYALASHDA TA’LIM MUASSASALARI, OILA VA MAHALLANING O‘RNI

Raxmonova Diyora O‘tkir qizi
NavDU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish, ma’naviy shakllantirish, milliyligimizni qadrlay oladigan qilib tarbiyalashda ta’lim muassasalari, oila va mahallaning o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. ma’naviyat, kommunikatsiya vositalari, immunitet, ommaviy madaniyat, zamonaviy kommunikatsiya, uyali telefon, ijtimoiy tarmoqlar, o‘gitlari, pandu-nasihatlari.

Аннотация. В данной статье рассмотрена роль образовательных учреждений, семьи и махалли в воспитании молодежи как гармоничной личности, духовном становлении, воспитании ценностей нашей национальности.

Ключевые слова. духовность, средства коммуникации, иммунитет, массовая культура, современная коммуникация, мобильный телефон, социальные сети, учения, панду-увещевания.

Annotation. This article reflects on the role of educational institutions, family and neighborhood in raising young people as a competent person, spiritual formation, able to appreciate our nationality.

Keywords. spirituality, communication tools, immunity, mass culture, modern communication, cell phone, social networks, AIDS, pandu-admonitions.

Hayotning umumiy falsafasi – turmush muammolariga qarshi kurasha olish, milliy istiqlol g‘oyasi va mafkura tamoyillariga zid bo‘lgan aqidalarga qarshi immunitet hosil qilish yo‘lida nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish. Yoshlarda ma’naviyatni shakllantirish esa eng muhim va murakkab vazifalardan biridir.

Oilada ota-ona o‘z farzandlariga o‘zlarining kasb-koriga sadoqat, yashab turgan zaminiga mehr-muhabat, xulq-atvori, bir-biriga bo‘lgan o‘zaro hurmati, jamiyat va davlat oldidagi burchlarini qanchalik ado etishlari bilan farzandlariga ibrat maktabi bo‘lishlarini unutmasliklari lozim. Shuningdek, oilada yoshlarni ma’naviy shakllantirishda, barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ota-ona har tomonlama bilimdon, ma’naviy, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega ustoz bo‘lishi lozim. Chunki, oilada bola o‘z ma’naviy olamini yaratadi, yaxshilik va yomonlik haqidagi eng sodda tushunchalarni shakllantiradi, atrofida sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarga ijobiy yoki salbiy fikrlarini bildira boshlaydi. Ayni paytda ota-ona o‘zining bilimdonligi bilan to‘g‘ri va aniq yo‘l ko‘rsatishi, ijobiy fikrlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi, yaxshi yomonga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishlarini faqat va faqat tarbiya orqali amalga oshiradilar.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o‘ziga o‘rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho‘qqilarga chiqishni maqsad qilib qo‘yadi. Bugun jamiyatning yosh

a’zolari o‘z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o‘rnak qilib olishlari ko‘p muammolarni keltirib chiqarishi mumkin ekanligi hech kimga sir emas. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, oilada ota-onalar, ommaviy madaniyat ta’siriga berilib ketishi oqibati farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba’zi millatlarning o‘zligini yo‘qotishiga qaratilganini sezish qiyin emas. Bunda e’tibor hududlarni egallash emas, balki inson ongini egallashga yo‘naltirilgandir. Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik g‘oyalarini tarqatish bilan birga boshqa xalqlarning bir necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisand qarash, ularni qo‘porishga qaratilgan kabi tahdidlar barchani tashvishga solmay qo‘ymaydi. Bu borada har bir ota-ona farzandlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishi va kuchaytirishi lozim. Aks holda, o‘zlikni yo‘qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo‘q manqurtga aylantirib qo‘yadi.

Bola tarbiyasi o‘ta murakkab va ma’suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan boxabar bo‘lib borishni talab etadi. Shu bilan birga yoshlar tarbiyasida mahalla va ta’lim muassasalarining ham o‘rni beqiyosdir. Mahallada uyushmagan yoshlarni, ayniqsa qizlarni ish bilan bandligiga katta ahamiyat qaratmoq zarurdir, chunki har qanday salbiy holatlar bekorchilikdan kelib chiqishi hech kimga sir emas. Ta’lim muassasalarida ham talaba yoshlarni har xil to‘garaklarga jalb qilish muhimdir. Ular bilan turli tadbirlar o‘tkazish, ularni ilmiy faoliyat olib borishlariga sharoit yaratish ham ijobiy natija beradi. Bugungi kunda farzand tarbiyasida ijtimoiy muammolardan uyali telefonlardagi tajovuzliklar hamda ijtimoiy tarmoqlar to‘ri tabora avj olmoqda. Ushbu zamonaviy kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo‘lishi bilan birga ba’zi ma’naviyati to‘liq shakllanmagan sust yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoq ta’siriga tushib qolgan yoshlarga ota-onalar, o‘quv muassasalari bilan birgalikda yondoshib aloqa vositalarining asl mohiyatini tushuntirib berishlari lozim. Tarbiyadan tashqarida bo‘ladigan har qanday salbiy ta’sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo‘l qo‘yilmagach, u o‘z qiziqish va rag‘batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Shuning uchun ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e’tibor qaratishi talab etiladi. Ya’ni, ular farzandi maktab yoki boshqa faoliyatdan keyin qayerga borishi, nima bilan shug‘ullanishini nazorat qilishi lozim. Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.): - Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir, deb marhamat qilganlarida, o‘g‘il va qiz farzandlarimizga ilm olish uchun barobar sharoitni ta’minlash kerakligini nazarda tutganlar. Demak, yosh avlod yetuk va komil shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil ularning hayot tarziga aylanishi zarur bo‘lib, u ham bo‘lsa - Kitobxonlikdir. Buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Ommaviy, ilmiy kutubxonalar so‘zimizning yaqqol dalilidir.

Tarixdan bizga ma’lumki, Sharqda bir necha asrlar oldin ham oila va uni tashkil etish, oilaviy munosabatlar, uning shaxs kamolotidagi o‘rni va roli xususidagi fikrlar bayon etib kelingan. Chunonchi, Jaloliddin Davoniy esa onaning farzand tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rsatib o‘tar ekan, mazkur jarayonda asosiy qiyinchiliklarni boshdan kechiruvchi shaxs deya ta’riflaydi, shuningdek, bolaga oddiy axloqiy qoidalar mazmunini tushuntirish, yurish-turish, ovqatlanish tartibi va qoidasiga rioya etishni o‘rgatish lozimligini ta’kidlaydi, qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar va ularda ilgari surilgan g‘oyalardan foydalanish, qizlarda oilaviy hayotni tashkil etish, oila a’zolari o‘rtasida muloqot munosabatlarni olib borish chog‘ida o‘zbekona urf odatlar (kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘lish, tashrif buyurgan mehmonlarga hurmat ko‘rsatish, hovli, uy joylarni ozoda tutish, oila sirlarini oshkor etmaslik, oilaviy masala yoki muammolarni qarindosh urug‘lar bilan maslahatlashib hal etish), hayoli, iboli, samimiy, kamtarin va mehnatsevar bo‘lish, farzandlar tarbiyasini olib borishda milliylikka e’tibor berish, milliyligimizga xos kiyinish borasida ma’lum bilim hamda ko‘nikmalarning shakllanishiga zamin hozirlaydi. Oila bo‘lmish muqaddas qo‘rg‘onda farzandlar tarbiyasida bobojon va buvijonlarning katta maktabga asoslangan bilimlari, tajribalari bilan boyitilgan ulkan xazinasi oiladagi nabiralarni tarbiyalashda ko‘mak beradi. O‘zbek oilalarida qizlarni tarbiyalashda buvilarning o‘gitlari-yu, pandu-nasihatlari tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Bu masalalarda ta’lim muassasasining ham o‘rni beqiyosdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bizning asl maqsadimiz, yosh avlodni ma’naviyatli, o‘zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘. Asqarova. “Milliy g‘urur tarbiyasi” T:-O‘qituvchi-2003
2. A. Abdiyev. “Hayot o‘zi murakkab” T:-Yangi asr avlodi-2013
3.U.Maxkamov. “Axloq-odob saboqlari”. Toshkent, 1994 y.
4.M.Fayzullaeva, Z.Raximova “Yaxshi odatlar gulshani” Toshkent-2011y.

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK

Shakarova Aziza Anvarovna
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Navoiy akademik litseyi “Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrasi huquqshunoslik fani yetakchi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xotin-qizlarning mahalliy davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi o‘rni, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy manfaatlarini hamda bandligini ta’minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qonun, davlat, gender tenglik, islohot, jamiyat, ijtimoiy faollik, mahalla va oila instituti, mahalliy davlat va jamiyat boshqaruvi, ayollar huquq va manfaatlari.

Yangi O‘zbekiston demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda jahon

hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanayotgan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir.

Jamiyatda xotin-qizlarning roli qanday, degan savolga turli davrlarda turlicha javob berilgan. Hozir ham masala har bir davlatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, huquqiy prinsiplari asosida ko‘riladi.

Gender tenglik haqida so‘z borganda, avvalo, uning mazmun-mohiyatini tushunib olish to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan, biologik jins inson tabiatining tub jihati sifatida erkak va ayolni ajratib turadigan genetik, somatik, biofiziologik xususiyatlarni anglatsa, gender biologik jins tushunchasidan farqli ravishda, jinsga oid ijtimoiy xususiyatlarni ko‘zda tutadi. Ya’ni, gender ijtimoiy-madaniy konstrukt, erkaklar va ayollarning ijtimoiylashuv jarayonida orttirilgan, jamiyat tomonidan modellashtirilgan va ijtimoiy institutlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan xulq-atvor xususiyatlari, turmush tarzi me’yorlari tizimidir. U madaniyatlar bo‘yicha farq qiladi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin.

Gender –xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi.

Har bir davrning o‘z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy tamoyillari mavjud. Tabiiyki, ularni shakllantirish va rivojlantirish, ularga alohida ma’no-mazmun bag‘ishlash, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo‘nalishlarini belgilab beruvchi ulkan tarixiy voqealar bo‘ladi.

Jamiyatda ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohada tengligi demokratiyaning ikki asosidan biri bo‘lib qoladi. Hech bir demokratik jamiyatda ayollar va bolalar xo‘rlanishiga qonun yo‘l qo‘ymaydi. Demak, ayollar teng huquqli jamiyatda qonunlar ishlaydi, siyosiy sohada tenglik O‘zbekiston ayollari orasidan haqiqiy liderlar otilib chiqishiga yo‘l ochadi. Ya’ni, oramizdan Anxela Merkel, Tereza Mey kabi siyosatchilar yetishib chiqishi mumkin. Hech bir ayol farzandlari iqtisodiy qashshoq mamlakatda o‘sishini istamaydi, demak, yetuk iqtisodchi ayollar mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarish, qashshoqlikni kamaytirish borasida o‘z dasturlarini taklif qila oladilar.

Dunyoda hayot sur’atlari jadallashib borayotgan bir davrda ayollar masalasi global muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ko‘p davlatlarda bozor iqtisodiyotiga o‘tish fuqarolarning turmushini qiyinlashtirib, ayollar ahvoliga salbiy ta’sir etmoqda. Keyingi yillarda haq to‘lanmaydigan ish ayollarning erkaklarga qaraganda taxminan ikki barobar ko‘p vaqtini olmoqda. Jahonning taraqqiy etgan davlatlarda ham xotin-qizlar rasmiy ishchi kuchini uchdan birini tashkil etishiga qaramay, ayollarni siyosiy, iqtisodiy huquqlarini, gender tengligini ta’minlash muammo bo‘lib qolmoqda. Shu bois ayollar masalasini har bir ijtimoiy-siyosiy davrda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan asosiy masalalardan biri bo‘lib qolishi lozimligini tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;

ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;

aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;

huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o‘qitish.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

demokratizm;

xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi;

jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi ochiqlik va shaffoflik.

Yurtimizda yil sayin yuqori lavozimlarda ishlovchi ayollar soni ortib bormoqda, bu borada 2019 yilning 2 sentyabr kuni Davlatimiz rahbari tomonidan Harakatlar strategiyasi doirasida bu borada muhim qadam bo‘ldi. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunni imzolanib, gender tenglikni ta’minlash masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Mazkur qonuniga asosan ushbu sohadagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, shuningdek davlat organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshirilishi belgilandi. Shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishni bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta’minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘rilishi nazarda tutildi.

Inson huquqlarining poymol etilishiga qarshi yana bir muhim qadam sifatida Davlat rahbarining 2019 yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjat bilan jamiyatda ayollarni xo‘rlash va qadrsizlanishlariga qarshi murosasizlik muhitini yaratish vazifasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 28 maydagi SQ-297-IV-sonli Qarori bilan 2030 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi (Gender strategiyasi);

Gender strategiyasini 2021-2022 yillarda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi;

Gender strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan.

Gender strategiyasini 2023-2030 yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun har yilda alohida-alohida kompleks chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlanishi nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda 2024 yil 27 oktyabr kuni bo‘lib o‘tgan saylovlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning 38 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Bu O‘zbekiston tarixida eng yuqori ko‘rsatkich bo‘ldi.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar Kengashlariga saylov natijalariga ko‘ra mahalliy Kengashlar tarkibiga yangi saylangan deputatlarning 32,6 foizi xotin-qizlarni tashkil qildi.

Ushbu samaralarga, hech shubhasiz, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining sharofati bilan erishildi. Chunki Asosiy Qonunimizning 58-moddasida: “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”, deb belgilangan.

Mazkur konstitutsiyaviy kafolatlar bugungi kunda hayotimizning barcha sohasida o‘z ijobatini topmoqda. Xususan, shu asosda Saylov kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra endilikda xotin-qizlar siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida 40 foizini tashkil qilishi shart. Avval bu talab bo‘yicha ko‘rsatkich 30 foiz edi.

Bunday muhim talab yaqinda bo‘lib o‘tgan saylovlarda ishtirok etgan ayol nomzodlar soni izchil ko‘payishiga turtki berdi. Shunga yarasha natija ham, ta’bir joiz bo‘lsa, yurtimizda gender siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan jadal islohotlar mohiyatiga mos darajada bo‘ldi.

Bularning barchasi bejiz emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-yubiley sessiyasida qayd etganidek, biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda.

Bu haqda fikr yuritganda, 2023 yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan qonunchilik asoslarini takomillashtirish yo‘nalishida 13 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganini ta’kidlash lozim. Jumladan, 3 ta qonun, Prezidentning 2 ta Farmoni va 2 ta qarori hamda hukumatning 6 ta qarori tasdiqlandi.

Yanada aniq aytganda, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” hamda “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi yangi qonunlar qabul qilindi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning hukumat va jamiyatdagi rolini oshirishga, bandligini ta’minlashga, ayollar tadbirkorligini hamda ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi ishtirokini rivojlantirishga, muhtoj ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘nlab normativ-huquqiy hujjatlar amal qilmoqda.

Shuningdek, Prezidentimizning 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhasida faolligini oshirish

bo‘yicha milliy dastur tasdiqlandi. Mazkur hujjat bilan xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy huquqlarini ta’minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar belgilab olindi va amaliy ijrosi ta’minlanyapti.

Jamiyatda gender tenglikni ta’minlash esa avvalo ayoldagi yaratuvchanlik, tinchlikka intilish, himoya qilish, asrash kabi hissiy fazilatlarning namoyon bo‘lishi, mamlakatning turli sohalarida rivojlanishning ta’minlanishi, aholi farovonligining o‘sishi, sohalardagi mavjud kamchilik va muammolarning bartaraf etilishiga olib kelishi shubhasiz.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rni hamda nufuzini yanada oshirish, ularning o‘z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarilib bormoqda.

Inson huquq va manfaatlarining ustunligi, xususan, erkak va ayol huquqlarining himoyasi, jamiyatda xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga ahamiyat masalalari keng o‘rin olgan yangilanayotgan O‘zbekistonning islohotlarida ijtimoiy hayot ravnaqiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan bo‘lgan erkaklar va xotin-qizlarning teng huquq va imkoniyatlari muammolarini o‘z vaqtida bartaraf etish, rahbar va xodimlarning gender senzitivlik bo‘yicha bilim, tushuncha va kompetensiyalarni rivojlantirish sohaga oid muammolarning qisman yechimiga xizmat qilishi, shubhasizdir.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyatimizda xotin-qizlar manfaatlarini himoya etishning huquqiy asoslari yaratilgan va tobora takomillashib bormoqda. Shunday ekan, gender tengligini ta’minlash bobida olib borilayotgan islohotlar, yaratilayotgan sharoitlar xotin-qizlardan jamiyatdagi o‘z o‘rniga yanada mas’uliyat bilan qarash, o‘z ustida ishlash, o‘z iste’dodini, qobiliyatini, intellektual salohiyatini yanada oshirish uchun faollashishga chorlaydi. Bu jarayonlar esa, o‘z o‘rnida haqli ravishda Uchinchi Renessans uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, har doimgidek “muhtarama ayollarimizga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi”. Yangilanayotgan O‘zbekiston davlati o‘z strategiyasida ayol shaxsiga o‘zini qurshab olgan ijtimoiy muhitning ta’sirini sustlik bilan emas, balki faollik bilan qabul qilishga, davlatda o‘z o‘rnini jamiyatning tarkibiy qismi sifatida his etishiga, yangi kelajakni yaratuvchi haqiqiy siyosat sub’ekti bo‘lishiga yordam beradi.

Shunday ekan “jamiyatimizda tinchlik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib voyaga yetkazishda o‘rni beqiyos bo‘lgan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi nufuzini yanada oshirishimiz zarur. Ular uchun munosib shart-sharoitlar, yangi ish o‘rinlari yaratish, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish, ularning salomatligini mustahkamlash, iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish bizning doimiy va muhim vazifamiz bo‘lib qoladi”.

Mamlakatda ayollarning izchil islohotlar jarayonidagi, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki kuchayib borayotgani ularga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor hamda g‘amxo‘rlikdan, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash

maqsadida yaratilgan qonunchilik bazasining ijro mexanizmiga egaligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 2019 yil 2 sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va o‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni. 2019 yil 2 sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020 yil 29 dekabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017.

5. Jamalova G.G. Siyosiy va huquqiy madaniyatni yuksaltirish - jamiyat taraqqiyotining asosi. ―Yangi O‘zbekiston:barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari‖. Volume 2 | Special ISSUE 23. 2022. –B. 976-984.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―2022—2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida‖ gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. https://lex.uz/uz/docs/5841063

7. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Siyosiy risola. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017;

8. Ahmedshina F. Mustaqillik sharoitida O‘zbekistonning gender muammolari // Gender munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga kirish ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2007. – B. 414.

9. Jo‘raev N.Q. O‘zbekistonda yangilanishlar konsepsiyasining yaratilishi va amaliyotga qo‘llanilishi. Siès.fan. dok. ... diss. – T., 2001;

10. Jamalova G.G‘. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurilishining siyosiy masalalari. siès.fan.nom. ... diss. –T., 2006.;

11. Jo‘raqulov F.N. Fuqarolik jamiyatini qurish sharoitida davlat ijroiya hokimiyati tizimini modernizatsiyalash. siyos.fan.dok. ... diss. –T., 2018;

12. Shotursunova N. O‘zbekistonda gender siyosati samaradorligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining tendensiyalari. // Oilaviy-huquqiy munosabatlarda gender tengligi: konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “Mahalla va Oila nashriyoti”, 2021. – B. 17-20.

СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ ПО ПОВЫШЕНИЮ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Бахромова Камола Киёмовна
Магистрант 1 курса НавГУ понаправлению “Педагогика”

Глобализация оказывает глубокое воздействие на социальные и экономические процессы в различных странах, включая Узбекистан. Она требует не только адаптации к изменениям в мировой экономике, но и поиска

новых подходов к развитию человеческого капитала. Важным аспектом этого процесса является роль женщин в экономике и обществе. Интеллектуальный потенциал женщин является важнейшим ресурсом для устойчивого развития страны. В статье рассматриваются современные решения по повышению интеллектуального потенциала женщин Узбекистана в условиях глобализации, с учетом историко-культурных особенностей и глобальных тенденций.

1. Актуальность проблемы

С момента обретения независимости Узбекистаном государственная политика в области гендерного равенства претерпела значительные изменения. В последние десятилетия государство сосредоточилось на поддержке женщин, стимулируя их активное участие в экономике, науке, бизнесе и политике. В условиях глобализации и технологических изменений роль женщин в интеллектуальном и инновационном развитии страны возрастает, что требует создания специальных условий для раскрытия их потенциала.

Важнейшими направлениями являются образование, доступ к информации, социальная поддержка и создание равных условий для профессионального роста. Однако несмотря на достижения в этой области, существует ряд проблем, таких как ограниченный доступ женщин к высоким технологиям и управленческим позициям, что требует разработки новых, более эффективных решений.

2. Современные подходы к развитию интеллектуального потенциала женщин в Узбекистане

2.1. Образовательная политика и доступ к знаниям

Одним из важнейших шагов для повышения интеллектуального потенциала женщин является улучшение системы образования. В последние годы в Узбекистане значительно улучшилась доступность образования для женщин, что подтверждается ростом числа женщин, поступающих в вузы. Тем не менее, необходима дальнейшая специализация образовательных программ с акцентом на современные технологии, инновационные области и бизнес-образование. Программы по обучению STEM-дисциплинам (наука, технологии, инженерия и математика) становятся критически важными для женщин, если они хотят быть конкурентоспособными на глобальном рынке труда.

Одним из эффективных шагов в этой области является создание женских технопарков и инновационных центров, направленных на обучение женщин современным профессиям в области информационных технологий и инженерии. Развитие подобных инициатив стимулирует рост интереса к науке и технологиям среди женщин и способствует улучшению их конкурентоспособности в высокотехнологичных секторах.

2.2. Социальная поддержка и преодоление гендерных стереотипов

Еще одной важной частью повышения интеллектуального потенциала женщин является социальная поддержка и преодоление гендерных стереотипов, существующих в обществе. Несмотря на улучшение

социального положения женщин, в ряде областей остаются традиционные стереотипы о «женских» и «мужских» профессиях. Для решения этой проблемы необходима интеграция гендерного равенства в образовательные и профессиональные программы, что создаст благоприятные условия для профессионального и интеллектуального роста женщин.

Важными аспектами в этой области являются не только образовательные инициативы, но и развитие массовых коммуникаций, направленных на изменение общественного восприятия женщин в различных профессиональных сферах. Это также включает продвижение успешных женских ролей в бизнесе, науке и политике.

2.3. Развитие предпринимательской активности женщин

Предпринимательская деятельность женщин в Узбекистане в последние годы приобретает всё большую значимость. Развитие стартапов и малого бизнеса среди женщин становится важным индикатором повышения их интеллектуального потенциала. Существуют многочисленные инициативы по поддержке женщин-предпринимателей, такие как субсидирование образовательных курсов по предпринимательству, доступ к кредитам и бизнес-акселераторам, где женщины могут развивать свои навыки и знания в области бизнеса и инноваций.

Глобализация создает новые возможности для женщин-предпринимателей, но также и новые вызовы, такие как необходимость освоения международных стандартов, маркетинга и работы на международных рынках. Для того чтобы женщины могли использовать эти возможности, необходима система поддержки, включающая в себя менторские программы, специализированные тренинги и доступ к международным платформам для стартапов.

2.4. Информационные технологии и цифровизация

Важным аспектом глобализации является развитие информационных технологий. В Узбекистане наблюдается рост интереса к IT-сфере, что является одной из перспективных областей для женщин, желающих повысить свой интеллектуальный потенциал. Глобализация требует от женщин освоения новых технологий, таких как искусственный интеллект, большие данные, кибербезопасность и цифровые финансовые технологии. Государственная поддержка и частные инициативы в этой области помогают женщинам получать доступ к образованию и карьерным возможностям в IT.

Программы по обучению женщин цифровым навыкам становятся необходимостью для интеграции Узбекистана в глобальную экономику. Создание технопарков, цифровых хабов и онлайн-платформ для обучения женщин позволяет значительно ускорить этот процесс. Также важно привлекать женщин к научно-исследовательским работам, связанным с разработкой новых технологий и их применением в различных секторах экономики.

2.5. Роль международных организаций

Международные организации, такие как ООН, Всемирный банк и другие, играют ключевую роль в повышении интеллектуального потенциала

женщин в Узбекистане. Эти организации реализуют программы, направленные на расширение образовательных и карьерных возможностей для женщин, повышение их вовлеченности в принятие экономических и политических решений, а также на поддержку женского предпринимательства и лидерства.

Программы обмена и стажировок для женщин, а также поддержка через международные гранты и финансирование становятся важными механизмами, способствующими интеграции женщин Узбекистана в международную систему и продвижению их на мировые рынки.

3. Заключение

Повышение интеллектуального потенциала женщин Узбекистана в условиях глобализации требует комплексного подхода, который включает в себя развитие образовательных программ, поддержку женского предпринимательства, преодоление гендерных стереотипов и активное вовлечение женщин в высокотехнологичные и инновационные сферы. Для этого необходимо создать эффективные государственные и частные инициативы, направленные на раскрытие потенциала женщин, а также использовать возможности, которые предоставляет глобализация и технологическая революция.

Важнейшими аспектами в реализации этих решений являются государственная поддержка, улучшение образовательной инфраструктуры, создание условий для карьерного роста и предпринимательской активности женщин, а также внедрение международных практик, которые помогут интегрировать женщин Узбекистана в глобальные процессы.

Список литературы

Антонов, А. В. (2019). Гендерное равенство в Узбекистане: проблемы и перспективы. Ташкент: Узбекистанский университет мировой экономики и дипломатии.

Калмакова, С. В. (2021). Женщины и инновации: Современные тенденции в развитии интеллектуального потенциала женщин. Ташкент: Институт социальных исследований.

Петрова, Н. А. (2020). Социальные и экономические условия развития женщин в постсоветских странах: опыт Узбекистана. Москва: Научный мир.

Юсупова, Л. (2022). Цифровизация и ее влияние на гендерные роли: опыт женщин в Узбекистане. В сборнике: Глобализация и цифровые технологии: вызовы и возможности для женщин (с. 45–60). Ташкент: Восточное издание.

Global Gender Gap Report 2023. (2023). World Economic Forum. Retrieved from: https://www.weforum.org/reports/global-gender-gap-report-2023

United Nations Development Programme (UNDP). (2021). Gender equality in the digital age. New York: UNDP.

World Bank Group. (2020). Women, Business and the Law 2020. Washington, D.C.: World Bank.

Shirinova, D. B. (2021). Роль женщин в инновационных процессах Узбекистана: современный взгляд. Ташкент: Центр стратегических исследований.

Eurasian Women's Forum. (2021). Women and Innovation in Central Asia: Challenges and Opportunities. Moscow: Eurasian Women's Forum Press.

Государственная программа «Кадровая политика и гендерное равенство в Узбекистане» (2020). Министерство по делам женщин Республики Узбекистан. Ташкент.

ILO Report on Women in Entrepreneurship. (2022). International Labour Organization. Geneva: ILO.

Бендер, А. Г. (2023). Женщины и глобализация: влияние технологических изменений на роль женщин в обществе. Санкт-Петербург: Наука и технологии.

ЎЗБЕК ХАЛҚ ОЛҚИШЛАРИ АСРИЙ ҚАДРИЯТ

Севара Тиркашева **НавДУ Ўзбек тили ва адабиёти таълим йўналиши талабаси**
Илмий раҳбар: доцент Н.Х.Турсунова

Ўзбек фольклор санъатининг юзага келиши, тарихий тараққиёти, мустақиллик давридаги фольклор санъатининг ўзига хослиги борасидаги тушунчалар, фольклор санъати миллий маънавиятимизнинг асосларидан бири эканлигини тақозо этади. Ўзбек драматургияси шаклланиши ва тараққиётидаги ўрни ҳамда муҳим бадиий манба сифатидаги аҳамиятининг кўрсатилиши, бадиий идрок этилган воқеликни саҳнавий талқин қилиш анъанасининг халқ оғзаки бадиий ижодидаги илдизларининг аниқланиши бугунги фольклоршунослик фанининг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади.

Халқ оғзаки ижоди маҳсули сифатида юзага келган, халқнинг эзгу сўзи – дуо-олқишлар инсон ҳаётида муҳим ўрин тутган асрий қадриятлардан бири ҳисобланади. Фолклоршунос Зиёда Машарипованинг таъкидлашича "Қадим замонлардан бошлаб аждодларимиз сўзнинг киши руҳиятига кўрсатадиган сеҳрли таъсирини чуқур ҳис қилганлар. Яхши сўз инсонга бахт-саодат ва шодлик бахш этса, ёмон сўз кайфиятнинг бузилишига, бахтсизликка сабаб бўлиши исбот талаб қилмайдиган ҳақиқатдир"[10].

Халқимиз орасида кишиларнинг бир-бирини алқаб, эзгу ниятлар билдириб айтадиган ана шундай яхши сўзлари олқиш, ёмон сўзлари эса қарғиш номи билан юритилади. Олқиш туркий тилларда "мақташ, шарафлаш, яхши истаклар тилаш" каби маъноларини англатади. Ўзбек халқ олқишлари ижро ўрни, вазифаси ва поэтик табиатига кўра икки катта гуруҳга бўлинади:

1. Анъанавий маросимлар таркибида ижро этилувчи олқишлар;
2. Кундалик маиший олқишлар.

[10] Машарипова Ўзбек халқ оғзаки ижоди (ўқув қўлланма) Тошкент-2007.71-бет

Анъанавий маросимлар таркибида ижро этилувчи олқишлар муайян бир маросим билан боғлиқ бўлиб, ҳозирга қадар ўша маросимнинг таркибий қисми сифатида яшаб келади. Тўй, мотам ва рамазон маросимларида ижро этиладиган олқишлар шулар жумласига киради. **Кундалик маиший** олқишлар эса инсон фаолиятининг турли соҳаларини ўз ичига қамраб олади. Шу сабабли бундай олқишлар ижро ўрнига қараб қуйидаги турларга бўлинади: а)учрашув олқишлари; б) дастурхон олқишлари; в) бирор иш бошлашида айтиладиган олқишлар.

Санъатшунос М.Қодировнинг оғзаки драматургия намуналари асосида яратган “Анъанавиий театр драматургияси” номли тўпламидан ўрин олган бир неча драмаларида фольклор жанрининг ўзига хос намуналари яққол тасвирланган. Айнан, М.Қодировнинг ҳаётий воқеаларни танқидий фактлар асосида яратган олти кўринишли “Хирмон кўтариш” номли оғзаки драмасида миллий минталетимизга хос бўлган фолклоризмлардан унумли фойдаланилганлиги гувоҳи бўламиз. Асар сюжетида шундай воқеа юз беради:

***Биринчи деҳқон**: «Ассалому алайкум». Хуш келибсизлар – деб хирмон ёнида келган уламоларни кутиб олади. Домла эшон:(қўлини фотиҳага очиб) Бисмиллоҳу ар-раҳмону араҳим…(пичирлаб сура ўқийди) Омин! (ҳамма фотиҳага қўл кўтаради) Ҳазрати Ҳизр алайҳиссалом қўлласинлар, пири Бобо Деҳқон баракасини берсин, аллоҳу акбар!) Амлакдор: Қани ҳорма! **Иккинчи деҳқон:** Бор бўлсинлар. Домла эшон: (қўлини фотиҳага очиб) Омин Ҳизр бовом барака ато қилсинлар, облоҳу акбар! (қўллар юзга сурилади). Доруға: Чошга барака. **Биринчи деҳқон:** (эгилиб қарши олади). Умрингизга Барака, тақсир. Икки қоп буғдойни олган. **Доруға:**Энди ишинг бўлмасин, ҳа ўзим қўллаб юбораман**. Деҳқон:** Шундай қилинг, илойим умрингиз узоқ бўлсин, бола-чақангизни роҳатини кўринг. – деб дуо қилади*[11].

Асарда қўлланилган учрашув олқишлар образлар нутқини тўлақонли таъминлашга ҳамда сюжетдаги воқеалар ривожини атрофлича ёритиб беришга қаратилган. Фолклор ва драматик асарда сюжет қурилишини таъминлашга, жанр стилизацияси, образ стилизацияси, ҳамда ҳозирги ўзбек драматургиясида фолклоризмларнинг бадиий вазифалари ва фолклоризм ҳодисасининг бадиий–эстетик моҳиятини тўлақонли очиб беришга қаратилган. Шунингдек, драмада келтирилган образлар нутқи орқали бирор иш бошланишида айтиладиган олқишлардан унумли фойдаланилиб, бошланган ишнинг бароридан келиши, хайрли ишга барака тилаш мақсадида, қаҳрамонлар нутқини таъсирли кўрсатиш ва воқеа ривожини ёркинроқ очиб бериш қайд этилган.

Хуллас, олқишлар қадимий фольклор жанри бўлиб, ҳар бир халқнинг миллий турмуш тарзи, урф-одати, маданий даражаси, этник босқичларини аниқлаб, белгилаб берганлиги билан аҳамиятлидир. Халқимизда “Олқиш олган омондир, деган нақл бор” - бу ҳаётий тажриба маҳсули бўлган

[11]Муҳсин Қодиров. Анъанавий театр драматургияси. “Хирмон кўтариш”.Т.”Янги аср авлоди”. 2006. 43-48-бетлар.

мақолларда теран маъно ва мазмун умумлашган-ки, бугунги кун ёшларини тарбиясига муҳим аҳамият касб этади.

TO‘LIQSIZ OILA MUHITIDA TARBIYALANAYOTGAN BOLALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Aliqulova Dilfuza Otabek qizi
NavDU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Oila bolalar uchun eng muhim ijtimoiy institut bo‘lib, undagi ijtimoiy-psixologik holatlar bola rivojlanishiga, hissiy va intelektual o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada to‘liqsiz oiladagi bola psixologiyasi, bolaning ijtimoiyashuv jarayonida tashqi muhitning bolaga ta’siri va buning oqibatida kelib chiqadigan kechinmalar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, to‘liqsiz oila, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, jamiyat, ijtimoiy omillar, demografiya, nuklear oila, intellektual o‘sish.

Аннотация. Семья-важнейший социальный институт для детей, социально-психологические состояния в ней оказывают большое влияние на развитие ребенка, его эмоциональный и интеллектуальный рост. В данной статье рассматривается психология ребенка в неполной семье, влияние внешней среды на ребенка в процессе социализации ребенка и вызванные этим переживания.

Ключевые слова: семья, неполная семья, социально-психологические особенности, общество, социальные факторы, демография, ядерная семья, интеллектуальный рост.

Abstract. The family is the most important social institution for children, and its socio-psychological conditions have a great impact on the child’s development, emotional and intellectual growth. This article talks about the psychology of a child in a single-parent family, the impact of the external environment on the child in the process of socialization, and the experiences that arise as a result.

Key words: family, incomplete family, socio-psychological characteristics, society, social factors, demography, nuclear family, intellectual growth.

Oila — bu bir-biriga qonuniy yoki ijtimoiy tarzda bog‘langan odamlar guruhi hisoblanadi. Odatda oila ota-ona va bolalardan iborat bo‘lib, birgalikda yashash va bir-biriga yordam berish, mehr-muruvvat ko‘rsatish maqsadida tashkil topadi. Oila insonning ijtimoiy va ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi.

Oila shakllari har xil bo‘lishi mumkin: nuklear oila (ota, ona va bolalar), kengaytirilgan oila (ota-onalar, bolalar, buva-buvilar va boshqa qarindoshlar), yakkalik oila (faqat bitta ota yoki ona va bolalari) va boshqalar. Oila jamiyatning asosiy yadro birligi hisoblanadi va insonlarning shaxsiy rivojlanishi, qadriyatlar va an’analarini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Oila bolalar uchun eng muhim ijtimoiy institut bo‘lib, undagi ijtimoiy-psixologik holatlar ularning rivojlanishiga, hissiy va intelektual o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Biroq oila odatda to‘liq va to‘liqsiz

shaklda bo‘ladi. Shu jumladan, G.Yunusova12ning fikricha oila normal, anormal, ideal va real oila turlariga bo‘linar ekan. Hayotda oila doim ham to‘liq shaklda bo‘lavermaydi. To‘liqsiz oilada bolalar ota yoki ona, boshqa qarindoshlar tomonidan tarbiyalangan bo‘lishi mumkin. Ota-onaning ajralishi, ota-ona o‘limi, yolg‘iz ona yoki ota tarbiyasi va boshqa omillar bolaning to‘liqsiz oilada tarbiya topishiga sabab bo‘ladi. Bunday bolalar ko‘pincha o‘zini yolg‘iz va tashlandiq his qilishlari mumkin, bu esa ularning stressga, tashvish va depressiyaga moyilligini oshiradi. To‘liqsiz oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar o‘z tengdoshlari bilan munosabatlar qurishganda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Oila a’zolaridan birining yo‘qligi o‘rta va uzoq muddatli ijtimoiy aloqalarni shakllantirishda to‘siqlar yaratadi. Ular jamiyatda o‘z o‘rinlarini topish va ijtimoiy rolni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. To‘liqsiz oila bolalarida o‘zlikni qadrlash va o‘ziga bo‘lgan ishonch past bo‘lishi mumkin, chunki ular oilaviy o‘zgarishlar va beqarorlikni ko‘rishadi. Ayrim hollarda, ular o‘z oilaviy holatlarini boshqalardan yashirishga intilishadi. To‘liqsiz oila bolalari uchun ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘zaro hurmat va munosabatlarni boshqarish bo‘yicha maxsus yondashuvlar kerak bo‘ladi. Psixologik qo‘llab-quvvatlash bolalarga o‘z hissiyotlarini yaxshiroq tushunishga va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Jamiyatda to‘liqsiz oilalar uchun maxsus dasturlar, bolalarni qo‘llab-quvvatlash markazlari va ma’naviy-ta’limiy faoliyatlar mavjud. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar va tarbiyachilar to‘liqsiz oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar bilan ishlashda alohida e’tiborli bo‘lishi kerak.

Oila haqida dunyo olimlari va tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlanmalari va izlanishlari orqali katta hissalar qo‘shgan. Ular oilaning ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatlarini o‘rganib, oila tuzilishi, roli va jamiyatdagi o‘rni haqida ko‘plab nazariyalar yaratganlar. Quyidagi olimlar oila haqida muhim tadqiqotlar olib borgan:

Emile Durkheimning13(1858-1917) –“De la division du travail social” asarida oila va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi aloqalar tahlil qilinadi. Uning nazariyalariga ko‘ra, oila – jamiyatni tashkil etuvchi muhim ijtimoiy institutdir va u jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Talcott Parsons 14(1902-1979) – “Family, Socialization and Interaction Process” (1955, Robert F. Bales bilan hamkorlikda) – Bu asarda oila ichidagi rollar, vazifalar va ijtimoiylashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Parsons oila tizimining ichki dinamikasi va uning jamiyat bilan o‘zaro aloqalariga e’tibor qaratadi. U “funksionalizm” nuqtai nazaridan oilani jamiyatning barqarorligini ta’minlovchi asosiy institut sifatida ko‘rgan. Parsonsning fikriga ko‘ra, oila a’zolari o‘zaro o‘zgaruvchan rollarni bajarishadi: ota-bola, ona-bola, er-xotin.

George Peter Murdock 15(1897-1985) – Murdockning fikricha oilaning tuzilmasi va vazifalari madaniy o‘zgarishlarga qaramay, barqarordir. Murdock

[12]Yunusova Go‘zal Sultonovna “To‘liq va noto‘liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta’siri” 2018 27-bet

[13]Emile Durkheim “De la division du travail social”1893

[14] Talcott Parsons "Family, Socialization and Interaction Process"1955

[15]George Peter Murdock "Social Structure" 1949

oila va uning turlari haqida global miqyosda tadqiqotlar olib borgan. U oila institutining universalligi haqida nazariya ishlab chiqqan. Murdock oila jamiyatning barcha madaniyatlarida mavjud ekanligini, lekin uning tuzilishi va roli madaniyatga qarab farq qilishi haqida aytadi.

To‘liqsiz oila haqida o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ko‘plab ijtimoiy va psixologik jihatlarni o‘rganishga qaratilgan. O‘zbekistonda to‘liqsiz oila va uning ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy jihatlari haqida turli olimlar tomonidan tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu tadqiqotlar ko‘proq oilaviy munosabatlar, ota-ona va bola o‘rtasidagi aloqalar, hamda jamiyatdagi o‘zgarishlar ta’sirida yuzaga keladigan to‘liqsiz oila tuzilmalari haqida bo‘lgan.

Sh.Qahramonovning tadqiqotlari oilaning ijtimoiy funksiyalarini, uning oilaviy tizim sifatidagi ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. U oiladagi to‘liqsizlik va uning jamiyatga ta’sirini ko‘rib chiqadi. Tadqiqotlarda oilaviy bo‘linish, ajralish yoki ota-ona orasidagi munosabatlar orqali oila tizimining o‘zgarishlari va uning bola rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan.

T.Shamsiyevning ishlarida oiladagi to‘liqsizlikning psixologik va ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinadi. Olim oilada bo‘linish yoki ota-ona mavjud bo‘lmagan holatlarning bolaning psixologik holatiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Bu tadqiqotlar bolalarning rivojlanishiga, ta’limda muvaffaqiyatga erishishiga va jamiyatga qo‘shilishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarga urg‘u beradi.

F. Abdullaeva to‘liqsiz oilaning demografik va iqtisodiy jihatlarini o‘rganib, oiladagi ajralishlar yoki ota-ona yo‘qligi kabi holatlarning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari haqida ilmiy ishlar olib borgan. U oiladagi ijtimoiy tashvishlar, ayrilish va bo‘shanuvning jamiyatdagi ta’siri haqidagi tadqiqotlarni olib borgan.



To‘liqsiz oila muhitidagi bolalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar.

Ijtimoiy izolyatsiya: To‘liqsiz oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar ko‘pincha jamiyatdan ajralgan, ijtimoiy muhitda kamroq faol bo‘lishlari mumkin. Ular ko‘pincha o‘zlarini boshqalar bilan teng tutishga qiyinlashadi. Ijtimoiy adaptatsiya: To‘liqsiz oila sharoitida tarbiyalanayotgan bolalar o‘zlarining psixologik rivojlanishining ayrim bosqichlarida o‘zini ijtimoiy muhitda qiyin

tutishlari mumkin. Ota yoki ona bo‘lmasligi ularning ijtimoiy ko‘nikmalarining yomon rivojlanishiga olib keladi.

Muloqotdagi qiyinchiliklar: Bunday bolalar ko‘pincha boshqa bolalar bilan muloqot qilishda muammolarga duch keladilar. Ular o‘zlarini kamroq ishonchli his qilishlari, boshqa bolalar bilan ijtimoiy aloqalar o‘rnatishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Stress va xavotir: To‘liqsiz oila muhitida bolalar ko‘pincha yuqori darajadagi stress va xavotir bilan yuzlashadilar. Ular o‘z hayotlari va kelajaklariga doir aniq istiqbolga ega bo‘lmasliklari mumkin, bu esa ularning psixologik holatiga salbiy ta’sir qiladi.

Muammolarni hal qilishdagi qiyinchiliklar: Bunday bolalar ba’zida muammolarni hal qilishda qiynalishadi. Ota yoki ona bo‘lmasligi bolalar uchun strategik fikrlash va ijtimoiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin.

Oila roli va shaxsiy o‘rin: To‘liqsiz oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar o‘zlarini jamiyatda va oilada kemtik his qilishadi. Bu bolalar o‘zaro munosabatlarda doimo tazyiqqa duch kelishi mumkin, bu esa ularning o‘zaro munosabatlaridagi noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Yo‘qotish va qayg‘u hissi: To‘liqsiz oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar ijtimoiy va psixologik yordamga muhtoj. Chunki ular o‘zlarida katta bo‘shliqni his qilishadi. Yo‘qotilganlar ortidan yuzaga kelgan qayg‘u tengdoshlaridan ortda qolishiga yana bir sabab bo‘ladi. Ular uchun oila a’zolari o‘rtasidagi aloqalar, do‘stlar, o‘qituvchilar va psixologlar tomonidan ko‘rsatilgan yordam va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy va psixologik, yo‘qotish va qayg‘u hissi kabi o‘zgarishlarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

To‘liqsiz oila muhitida tarbiyalanayotgan bolalar uchun ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ko‘plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, lekin ular o‘zlariga qarshi kurashishga va ijtimoiy resurslardan foydalangan holda o‘z rivojlanishlarini davom ettirishga qodir. Ota-onaning yoki oilaning yetishmasligi, psixologik va ijtimoiy yordamning ahamiyatini yanada oshiradi, chunki bolalar uchun ijtimoiy adaptatsiya va psixologik muammolarni hal qilishda qo‘llab-quvvatlash juda muhimdir.

Xulosa qilishimiz mumkinki, bola kelajakda yetuk, barkamol, komil inson bo‘lib ulg‘ayishi uchun oilaning o‘rni juda katta. Bolaning ulg‘ayishidagi uch faktor ya’ni oila faktori, atrof-muhit faktori va ta’lim dargohi faktori hamkorlikda ish olib borsa bola rivojlanishi yanada samarali tus oladi. Maqola to‘liqsiz oilaning turli ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy jihatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Olimlar asarlarini o‘rganish to‘liqsiz oilaning bola rivojlanishiga, jamiyatdagi roliga va ijtimoiy holatiga ta’sirini anglashga, aniqlashga, oilaviy munosabatlar va jamiyatdagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yunusova Go‘zal Sultonovna “To‘liq va noto‘liq oilalardagi ona shaxsining farzand ijtimoiy tasavvurlariga ta’siri“ 2018 27-bet
2. Emile Durkheim “De la division du travail social”1893

3. Talcott Parsons “Family, Socialization and Interaction Process”1955
4. George Peter Murdock "Social Structure" 1949

THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENHANCING THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF WOMEN IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Doniyorova Go‘zal
Navoiy davlat universiteti
1-kurs magistranti

Abstract. In the era of globalization, the empowerment of women through education and intellectual development has become a crucial factor for sustainable progress. Innovative technologies play a vital role in this transformation by providing new learning opportunities, fostering creativity, and facilitating access to knowledge. This article explores the impact of digital tools, artificial intelligence (AI), online education, and STEM initiatives in enhancing the intellectual potential of women. Additionally, it discusses the challenges and solutions in implementing these technologies effectively in different socio-economic contexts.

The 21st century is marked by rapid technological advancements that significantly influence all aspects of life, including education and professional development. Women, who have historically faced barriers in accessing quality education and career opportunities, can now benefit from innovative technologies that bridge the gender gap in intellectual advancement. The integration of digital tools into educational systems and professional training enables women to enhance their skills, engage in lifelong learning, and contribute to economic growth.

This paper examines how innovative technologies contribute to the intellectual development of women in various fields. It also highlights the importance of government policies, private sector involvement, and social initiatives in ensuring equal access to these technologies.

The Role of Innovative Technologies in Women’s Intellectual Development

1. Online Education and E-Learning Platforms

One of the most significant technological advancements benefiting women is the rise of online education. Platforms such as Coursera, Udemy, edX, and Khan Academy provide access to a vast range of courses in different disciplines. These platforms allow women, especially those in remote or conservative societies, to pursue education without traditional barriers such as mobility restrictions, financial limitations, or cultural norms.

Moreover, Massive Open Online Courses (MOOCs) offer flexible learning schedules, making it easier for women to balance education with family responsibilities. Virtual classrooms, webinars, and digital libraries have revolutionized the learning process, enabling women to acquire knowledge and improve their intellectual capabilities from anywhere in the world.

2. Artificial Intelligence and Personalized Learning

Artificial Intelligence (AI) has transformed education by enabling personalized learning experiences. AI-powered applications analyze learners’ progress and adapt educational content to their individual needs. For women who may have different learning paces due to personal or professional commitments,

AI-driven tools provide customized learning plans that enhance their intellectual growth.

Additionally, AI-powered language translation tools help women access educational materials in multiple languages, breaking linguistic barriers that have historically hindered their academic progress. Chatbots and virtual tutors offer real-time assistance, allowing women to seek guidance and clarification on complex topics.

3. STEM Education and Innovation Hubs

Science, Technology, Engineering, and Mathematics (STEM) fields have been traditionally male-dominated. However, innovative technologies have opened new doors for women in STEM education. Governments and organizations worldwide are investing in programs that encourage young girls to pursue careers in these fields.

Innovation hubs, coding boot camps, and digital laboratories provide hands-on experience for women interested in technology and engineering. Programs like “Girls Who Code” and “Women in Tech” aim to break gender stereotypes and promote female participation in technological advancements. Robotics, data science, and cybersecurity training programs empower women to become leaders in the digital economy.

4. Digital Entrepreneurship and Financial Independence

Innovative technologies also play a crucial role in promoting women’s entrepreneurship. Digital platforms enable women to start and manage businesses online, reducing the need for physical infrastructure and overcoming traditional financial barriers.

E-commerce platforms like Shopify, Amazon, and Etsy provide women with opportunities to market their products globally. Digital payment systems, such as PayPal and mobile banking apps, ensure financial independence by allowing secure transactions. Online marketing tools, social media, and data analytics help women entrepreneurs scale their businesses and compete in the global marketplace.

5. Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) in Training and Skill Development

Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) technologies are increasingly being used to enhance learning experiences in various sectors. Women in healthcare, engineering, and creative industries benefit from VR-based training simulations that provide hands-on experience without the need for physical presence.

For instance, VR technology is used in medical training to simulate surgeries, enabling female doctors and nurses to refine their skills. Similarly, AR applications in architecture and design provide interactive learning experiences, fostering creativity and innovation among women professionals.

Challenges and Solutions in Implementing Innovative Technologies

While technological advancements have significantly contributed to women’s intellectual growth, several challenges still exist:

Digital Divide and Access to Technology – Many women, particularly in developing countries, lack access to digital devices and reliable internet

connections. Solution: Governments and organizations should invest in affordable internet access and distribute digital devices to underprivileged communities.

Gender Bias in Technology and Education – Societal norms and cultural stereotypes often discourage women from pursuing careers in technology. Solution: Educational institutions and corporations should implement gender-inclusive policies and mentorship programs to encourage female participation.

Cybersecurity and Online Safety – Women face higher risks of cyber harassment and data privacy breaches. Solution: Strengthening digital literacy programs and implementing strict online security measures can create a safer online environment for women.

Lack of Female Role Models in STEM – The underrepresentation of women in technological fields discourages younger generations from pursuing similar careers. Solution: Promoting successful women leaders in STEM through media campaigns and mentorship programs can inspire young girls to enter these fields.

Conclusion

Innovative technologies have revolutionized the way women access education, develop intellectual skills, and contribute to economic and social progress. Online learning platforms, AI-driven personalized education, STEM initiatives, digital entrepreneurship, and VR-based training have significantly enhanced the intellectual potential of women worldwide.

However, to fully harness the benefits of these technologies, governments, private institutions, and society must work together to eliminate barriers and ensure equal access for women. By investing in digital literacy, gender-inclusive policies, and supportive infrastructure, the global community can empower women to thrive in the era of technological advancements and globalization.

References

1.UNESCO. (2023). The Role of Digital Technologies in Women's Education.

2.World Economic Forum. (2024). Closing the Gender Gap in STEM Fields.

3.United Nations. (2023). Digital Transformation and Women's Empowerment.

4.Harvard Business Review. (2024). The Future of Women in Technology and Innovation.

GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT

Ismatova Sevinch Rustam qizi
Navoiy Davlat Universiteti talabasi
Shodiyeva Gulhayo Xudoynazarovna
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tenglikning davlatlar taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatganligi, uning rivojlanish va boshqa barcha ijtimoiy-siyosiy sohalarda qanchalik muhim rol o'ynashi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, Qonunlar, ayollar, barqarorlik, teng imkoniyatlar, jamiyat, Gender tenglik bo'yicha Komissiya, BMT, O'zbekiston Respublikasi.

Gender tenglik- bu erkaklar hamda ayollarning jamiyatning barcha sohalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi, ijtimoiy sohalarda ikki tomonning ham adolatli ish olib borishini anglatuvchi tushunchadir. Ushbu tenglik nafaqat inson huquqlarini kengaytirishga yordam beradi, balki davlatda har tomonlama mustahkam bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot poydevorini yaratishga sabab hamdir. Gender tenglik har bir jamiyat uchun, uning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi hisoblanadi. O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshlaydi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egallagan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi ko'rsatilgan. Shu sababdan ham O'zbekistonda gender tenglikni rivojlantirish maqsadida ham bir qator qonun va hujjatlar qabul qilindi. Ulardan biri 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunidir. Va aynan shu yildan boshlab O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya ish yuritib kelmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi. Bular misolida davlatimiz uchun gender tenglik mjnosabatlari qanchalik muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsak bo'ladi.

Gender tenglikning ahamiyatini quyidagi turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilsak bo'ladi. Misol uchun, iqtisodiy rivojlanish tomonini olib qaraydigan bo'lsak, ushbu tenglik yuqori bo'lgan davlatlarda ayollar asosiy ishchi kuchi bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning iqtisodiy jarayonlarga qo'shilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan. Buni yaqqol faktlar orqali ham isbotlashimiz mumkin. Masalan, Jahon bankining hisobotiga ko'ra, ayollar va erkaklar teng ish imkoniyatlari va huquqlariga ega bo'lgan davlatlarning Yalpi Ichki Mahsuloti (YaIM) o'sish sur'ati yuqori bo'ladi. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida ayollarning ham teng huquqda ish olib borishlari ta'lim samaradorligini oshiradi va kelajak avlodni sog'lom va hurfikr qilib tarbiyalash imkonini beradi. BMT ning ma'lumotlariga ko'ra, ayollar ishtirok etgan ko'pgina siyosiy jarayonlar muvaffaqiyatli yakun topadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, O'zbekiston ham o'zining siyosiy jarayonlarida ayollar faol ishtirokini ta'minlash maqsadida ular uchun ko'pgina ish o'rinlari yaratib kelmoqda. Bunga misol, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi. Bu tushunchaning barqaror rivojlanishdagi hissasiga keladigan bo'lsak, ayollarni iqtisodiy va ijtimoiy hayotga

jalb etish orqali qashshoqlikni kamaytirish, ta’lim va sog’liqni saqlash tizimida bir nechta yaxshi natijalarga erishildi. Masalan, Skandinaviya davlatlarida gender tenglik strategiyasi joriy etilganidan so’ng, iqtisodiyotida katta o’sish kuzatilgan va mahalliy aholining hayot tarzi yaxshilangan. Gender tenglik faqat davlatlarning ijtimoiy yoki iqtisodiy sohasinigina rivojlantirib qo’ymaydi, balki jamiyatda ikki xil jins vakillarining ishlashi ularning bir biriga bo’lgan hurmatini yaxshilaydi, va shu bilan birgalikda axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga va jamiyatda tinchlikni qaror toptirishga yordam beradi. Rivojlangan davlatlarni oladigan tajribasidan kelib chiqsak, Norvegiya, Shvetsiya va Islandiya kabi davlatlar gender tenglikni qo’llab quvvatlash orqali nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlangan, balki davlatda barqarorlik va adolatni qaror toptirishga xizmat qilgan.

To’g’ri, har bir narsani qaror toptirishda va uni rivojlantirishda muammolar va to’siqlar bo’ladi. Buni ko’pgina davlatlarda ham ko’rishimiz mumkin. Hatto ba’zi bir davlat vakillari ayollarni odam o’rnida qabul qilmaydi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar samarali bo’ladi deb o’ylayman:

- Gender stereotiplarni yengish uchun ta’lim va ommaviy axborot vositalaridan (OAV) foydalanish;
- Qonun ijrosini kuchaytirish orqali ayollarning huquqlarini himoya qilish;
- Ayollar uchun ish o‘rinlarini ko‘paytirish va ularning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.

O’zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida" Qonunining 1-bob 5-moddasida ham jins bo’yicha kamsitilishga yo’l qo’ymaslik haqida gap boradi. Bu ham gender tenglikni xalq orasida to’g’ri qabul qilinishini ta’minlashning bir omili bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish joizki, gender tenglikni ta’minlash jamiyat taraqqiyoti uchun muhim shartlardan biridir. Bu nafaqat inson huquqlarini hurmat qilish, balki barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlashning eng muhim yo‘li hisoblanadi. Har bir fuqaro teng imkoniyat va huquqlarga ega bo‘lgan jamiyatda faqat taraqqiyotga erishish mumkin. Shu sababli, gender tenglikni rivojlantirishga qaratilgan siyosat va tadbirlar global va milliy darajada davom ettirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Xotin- qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g‘risida"gi qonuni (2019-yil 2-sentabr):https://lex.uz/docs/-4494849

2.BMT Taraqqiyot Dasturining O zbekistonda gender tenglikni targ’ib qilish bo’yicha hisobotlari:https://www.undp.org/uz/uzbekistan/ press-releases/bmt-taraqqiyot-dasturi-gender-tenglikni-targib-qilish-uchun- bixevioral-tahlil-boyicha-tajriba-hisobotini-chiqardi

3.O‘zbekiston Respublikasining 2030- yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi:https://lex.uz/docs/-5466673

4.BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) doirasida gender tenglik:https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0015/3.16.pdf

5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46 moddasi: https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligini_ta%E2%80%99minlashning_tashkiliy-huquqiy_asoslari
6. Gender tengligining jamiyatdagi ahamiyati. https://uzmarkaz.uz/news/gender-tengligining-jamiyatdagi-ahamiyati

GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT MAVZUSIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Iydiboyeva Guljahon Nasrullayevna
Navoiy viloyati Nurota tumanidagi
33-umumta’lim maktab, psixolog

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender tenglik va ijtimoiy taraqqiyotning psixologik jihatlari o‘rganiladi. O‘zbek jamiyatida gender masalalariga an’anaviy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada ayol va erkak o‘rtasidagi psixologik farqlar, gender stereotiplari va ularning inson ruhiyatiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, gender tenglikning ta’lim, iqtisodiyot va siyosatga ta’siri hamda O‘zbekistonning gender siyosati tahlil qilinadi. Gender muammolarining o‘zbek mentalitetidagi aks etishi va ularni hal etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Gender tenglik bugungi dunyoda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Gender tenglik deganda, erkak va ayolning jamiyatda teng huquqlarga egaligi, ularning imkoniyatlaridan erkin foydalanish huquqi tushuniladi. Ammo turli jamiyatlarda gender tenglikka bo‘lgan yondashuvlar farq qiladi. O‘zbekistonda qadimdan oilaviy qadriyatlarga asoslangan jamiyat shakllangan bo‘lib, bu yerda gender rollari aniq taqsimlangan. An’anaviy qarashlar erkakni oilaning boquvchisi, ayolni esa asosan oila ichida tarbiya beruvchi sifatida ko‘radi.

Zamonaviy dunyoda gender tenglik nafaqat inson huquqlari masalasi, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ham baholanmoqda. Ayollar va erkaklarning teng huquqlari ta’minlangan jamiyatda iqtisodiy rivojlanish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimining yaxshilanishi, siyosiy barqarorlik ortadi. Ushbu maqolada gender tenglik masalalariga psixologik yondashuv asosida baho berilib, ularning inson ruhiyatiga va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilinadi.

Gender tenglik va psixologik farqlar

Erkak va ayol organizmi biologik jihatdan farqlanganidek, ularning psixologiyasi ham o‘ziga xosdir. Tadqiqotlarga ko‘ra, erkaklar mantiqiy fikrlash, maqsadga yo‘naltirilgan harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘lsa, ayollar intuitiv, hissiyotga asoslangan qarorlar qabul qilishga moyildirlar. Biroq bu farqlar jamiyatdagi gender stereotiplarini oqlash uchun ishlatilmasligi lozim. Har ikki jins vakillarining imkoniyatlari teng bo‘lishi kerak.

O‘zbek jamiyatida ayollar va erkaklar haqida turli ijtimoiy tasavvurlar mavjud. Masalan, “erkak oilani boqishi kerak”, “ayolning joyi uyda” kabi stereotiplar kishilarning ruhiyatiga ta’sir qilib, ularning jamiyatdagi rolini cheklaydi. Bunday stereotiplar inson o‘zligini anglashiga to‘sqinlik qilishi, uning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon qilishiga halal berishi mumkin.

Gender tenglik ijtimoiy taraqqiyotning muhim mezonlaridan biridir. Gender tenglik bo‘lmagan jamiyatlarda iqtisodiy va ijtimoiy muammolar chuqurlashib boradi. Masalan:

Ta’lim: Ayollar va qizlarning ta’lim olish huquqi ta’minlanmagan jamiyatlarda savodsizlik va qashshoqlik darajasi yuqori bo‘ladi.

Iqtisodiyot: Gender tenglik jamiyatda mehnat unumdorligini oshirib, iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir qiladi.

Siyosat: Ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishi jamiyat barqarorligini oshiradi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda gender tenglik borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayollarning siyosatdagi o‘rni mustahkamlanmoqda, ularning tadbirkorlik sohasidagi faoliyati qo‘llab-quvvatlanmoqda.

O‘zbek mentaliteti va gender muammolari

O‘zbek jamiyatida oilaviy qadriyatlar ustuvor hisoblanadi. Shuning uchun gender tenglikni rivojlantirishda milliy qadriyatlarni inobatga olish muhimdir. Quyidagi masalalarga e’tibor qaratish lozim:

Gender tenglik nafaqat ayollar huquqlari, balki erkaklarning ham oilaviy hayotda faol ishtirok etishini anglatadi.

Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikni ta’minlash uchun ta’lim tizimida gender stereotiplarini kamaytirish zarur.

Ommaviy axborot vositalari gender tenglikni targ‘ib qilishi lozim.

O‘zbek an’analariga ko‘ra, ayol va erkak oilada bir-birini to‘ldiruvchi shaxs sifatida ko‘riladi. Demak, gender tenglik oilaviy qadriyatlarni zaiflashtirish emas, aksincha, mustahkamlash uchun xizmat qilishi kerak.

Gender tenglik inson huquqlari, ijtimoiy adolat va taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Psixologik nuqtayi nazardan, ayol va erkaklar o‘rtasidagi tabiiy farqlarni inkor etmasdan, ularning jamiyatdagi imkoniyatlari teng bo‘lishini ta’minlash lozim. Gender tenglikni ta’minlash uchun quyidagilar muhim:

Ta’lim tizimida gender masalalariga oid maxsus dasturlar ishlab chiqish.

Ommaviy axborot vositalari orqali gender tenglik haqida ko‘proq targ‘ibot olib borish.

Ish joylarida gender kamsitishlariga yo‘l qo‘ymaslik.

Oilada gender tenglikni ta’minlash orqali bolalarga to‘g‘ri tarbiya berish.

Gender tenglikni o‘zbek mentalitetiga mos tarzda shakllantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishankulova G.B. – O‘zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar ta’siridagi gender tenglikning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlari, 2020, Toshkent.

2. Jamoldinova O.R. – Gender: Gender tengligi tushunchasi va siyosiy-ijtimoiy munosabatlar, 2021, Toshkent.

3. Saribayeva U.S. – Zamonaviy oila va gender tenglik muammolari, 2022, Toshkent.

4. Tursunova N.A. – Jamiyatda gender tenglik muammolari va psixologik yondashuvlar, 2019, Samarqand.

5. Karimova M.X. – Gender tengligi va kompetentlikning ijtimoiy-psixologik mazmuni, 2023, Buxoro.

GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY MUNOSABAT

Shukurullayeva Laylo
NavDU Xorijiy til va adabiyoti fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar:D.Y. Xodjayeva

Annotasiya: Har davrda erkaklar ayollardan mas'uliyati, irodasi, kuchligi, sabrliligi jihatlaridan ustun bo‘lib kelgan. Gender tenglik ayol kishi oilada ustun bo‘lishi kerak degan fikrni emas, erkak va ayollarning jamiyatdagi va oildagi o‘rnini teng qabul qilib, ularga bir-birini to‘ldiruvchi kuch sifatida qarashni targ‘ib qiladi. Gender tenglik nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilish, balki erkaklar va ayollarning imkoniyatlarini tenglashtirish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishni ham anglatadi. Gender tenglik masalasi jamiyat rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ayollarning jamiyatdagi o‘rni hamda shaxsiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: patriarxal, gender asimmetriyasi, diskriminatsiya, madaniy streotiplar, XX asr, Markaziy Osiyo

Annotation: Each time, men have been seen as superior in terms of responsibility, will, energy, and patience. Gender equality does not mean that women should be superior in the family or that they should occupy the same roles as men in society. Instead, it promotes the idea that men and women are complementary forces. Gender equality involves not only protecting women's rights but also recognizing and equating the capabilities of both men and women. The issue of gender equality is crucial for the development of society. This article analyzes women's roles in society and their place in private life.

Keywords: patriarchal, gender asymmetry, discrimination, cultural leads, 20th century, Central Asia

Аннотация: Каждый раз мужчины превосходят в ответственности, воле, энергии и терпении. Гендерное равенство-это не идея о том, что женщина должна быть превосходящей в семье, а не идея о равноценных местах мужчин и женщин в обществе. Оно способствует тому, чтобы рассматривать мужчин и женщин как взаимодополняющие силы. Гендерное равенство также означает не только защиту прав женщин, но и уравнивание возможностей мужчин и женщин. Вопрос гендерного равенства имеет решающее значение для развития общества. В этой статье анализируются роль женщин в обществе и их место в личной жизни.

Ключевые слова: патриархальная, гендерная асимметрия, дискриминация, культурные лидеры, XX век, Центральная Азия.

Markaziy Osiyo xalqlar tarixiga nazar tashlasak ayollar, asosan, uy yumushlari farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishgan va shu barobarida jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea hodisalarga nasbatan to‘laqonli tushunchaga ega bo‘lishmagan. Ayollarning ta'lim olishi va iqtisodiy hayotda qatnashishi cheklangan yoki ta'qiq etilgan. Bu kabi jarayon yillar o‘tib ayollarni nafaqat jamiyatdagi o‘rnini, balki oiladagi o‘rnini yo‘qotishiga ham sabab bo‘lgan. Patriarxal jamiyat bora bora Markaziy Osiyoda chuqur ildizlarini mustahkamlab bordi va buning natijasida ayollar to‘liq bo‘ysunuvchi shaxsga aylanishdi, fikr almashish, tanlash huquqi degan tushunchalar butunlay ularda yot bo‘lganligini Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” asaridagi Ra'no obrazidan yoki “O‘tgan kunlar”dagi Kumush va Zaynab obrazida ko‘rishimiz mumkin. XX asrga

kelib gender tenglik masalalariga dolzarb mavzu sifatida e’tibor qaratildi. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi saytida keltirilishicha 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da ayollar va erkaklarning tengligi alohida e’tirof etilgan. Deklaratsiyaning 1-moddasida belgilanganidek, “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishlari kerak”. Xalqaro miqyosda ayollar va qizlar huquqlarini himoya qilish, ta’lim olish va kasb tanlash huquqlari berila boshlandi va bu borada O‘zbekistonda ham qator islohotlar amalga oshirishga kirishildi. Bugungi kunda ayollar nafaqat oila doirasida, balki siyosat, ilm-fan, madaniyat, sport sohalarida faol ishtirok etib kelmoqda. Ba’zi davlatlarda ayollar prezident, bosh vazir, kompaniya rahbari kabi yuqori lavozimda faoliyat olib bormoqda, ammo gender tenglik hali hamon to‘liq ta’minlanmagani bois ba’zi hududlarda ayollarni kamsitish ularga past nazar bilan qarash, ma’lum kasblarda erkaklarga nisbatan ayollarning cheklanishi ko‘pligi, majburiy nikohlar kabi muammolar saqlanib qolgan. “Ayollar uchun eng katta to‘siq ularning iste’dodi emas, balki ularga qo‘yilgan cheklovlar va jamiyatning noto‘g‘ri qarashlaridir.” – deydi Michelle Obama o‘z nutqida.

Gender tenglik deganda ko‘pgina insonlar fikrida noto‘g‘ri tushuncha paydo bo‘ladi. Insoniyat yaralibdi-ki, patriarxal jamiyat rivojlanib kelmoqda, oxirgi bir asr davomida ayollar va erkaklar tengligiga erishish uchun olib borilayotgan masalalar turli muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi jamiyat a’zolari buni oilada ayol ustun bo‘lishini targ‘ib qilish deb tushunmoqda. Ammo bu noto‘g‘ri tushuncha. Jamiyat yuz foiz matriarxal yoki patriarxal bo‘lishi kerak degani emas. Gender tenglik bu qaysidir taraf ustun bo‘lishini emas, ikkala taraf ham teng huquqli bo‘lishini ta’minlaydi. Emma Watson o‘z nutqida so‘zlaganidek, “Ayollar va erkaklar bir-biriga raqib emas, balki hamkor bo‘lishi kerak”.

Ayollarning ishlashini, jamiyatga aralashishini istamaydigan erkaklar oilada o‘zining yakka hukmron ekanligini isbotlash, har bir mavzuda faqat ularning fikri inobatga olinishi va ayol kishi bilan moliyaviy jihatdan teng bo‘lib qolmaslikni xohlaydi. Xalq orasida “Erkak kishi ayol kishidan bir pog‘ona ustun” degan gap bor. Buni turlicha talqin qilish mumkin. Hozirgi kunda aynan mana shu jumlaning noto‘g‘ri talqini bois jamiyatda ayollarni kamsitish, imkoniyatlar cheklanishi kabi muammolar vujudga kelmoqda.

Yana bir holatni muhokama qiladigan bo‘lsak, jamiyatimizda “ayollarga mos emas” degan fikr bu ochiq-oydin gender asimmetriyasi ya’ni jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquq va imkoniyatlarning yo‘qligiga olib keladi. Ba’zi bir sohalarda, masalan, temiryo‘l, xavfsizlik xizmati, sudya, advokat kabi kasblarda ayollarga xos emas degan tushuncha mavjud. Shu kabi sohalari erkaklar kasbi boshqalar esa ayollar kasbi deb yozilmagan qonun sifatida xalq orasida belgilab qo‘yilgan.

“Biz ayollarga kamtar bo‘lishni o‘rgatamiz, lekin o‘g‘il bolalarni jasoratli bo‘lishga undaymiz. Natijada, ayollar kamroq orzu qiladi kamroq intiladi”,- deydi Chimamanda Ngozi. Ayni davrda, yuqorida ta’kidlanganidek, farzand tarbiyasida ham gender tafovutni ko‘rish mumkin. Misol uchun, oilada qiz bolaga itoatkorlik,

kamtarinlik, uy ishlari, o‘g‘il bolalarga esa mustaqillik, yetakchilik va tashabbuskorlik sifatlari singdiriladi. Bu esa qiz va ayollarning jamiyatda ko‘p narsalardan cheklanib qolishiga olib keladi. Amartya Sen “Development as freedom” kitobida “Ayollarni ta’lim va iqtisodiy imkoniyatlar bilan ta’minlash ijtimoiy taraqqiyotning kalitidir”,- deydi. Hozirgi globallashuv sharoitida ayol va qizlarni har qanday sohada yuksaltirish muhim masalalardan biridir. Bunga bir nechta zamonaviy yechimlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, jamiyatda ya’ni ta’lim, siyosat, mehnat, tadbirkorlikda bir xil sharoit yaratish va gender tenglik yaratish bo‘yicha ishlab chiqilgan qonunlarni amalda haqqoniy tatbiq qilish kabi yechimlar mavjud.

Yana bir masalaga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to‘g‘risidagi” qonunda aytilganidek: davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog‘ida ularning huquqlarini kafolatlaydi. Xo‘sh, bu fikrlar amalda yetarlicha qo‘llanmoqdami? O‘zbekistonda tenglik bo‘yicha muayyan qonunlar va dasturlar mavjud bo‘lsa-da, ular real hayotda o‘z aksini topishi sust kechmoqda. Ayollar ko‘pincha rahbar lavozimlariga chiqishda qiyinchilikka duch keladi, ish bozorida diskriminatsiya mavjud. Qisqacha aytganda, gender tenglikni, huquqiy jihatdan ta’minlash va uni amalda ro‘yobga chiqarish o‘rtasida tafovut bor. Judith Butler “Gender trouble” kitobida aytilgandek “Gender bu mavjudlik emas, balki amal, harakat… ya’ni “bo‘lish” emas, balki “bajarish”.”

“Agar ayollar erkin bo‘lmasa, hech bir jamiyat to‘liq erkin bo‘la olmaydi.”,- deydi Hillary Clinton “Ayollar huquqlari bo‘yicha Pekin konferensiyasi”da so‘zlagan nutqida.Teng huquqlar va imkoniyatni real hayotda tatbiq qilish uchun nafaqat qonunlar, balki jamiyatning ongini o‘zgartirish, madaniy streotiplarni yengish va barcha sohalarda ayollar ishtirokini oshirish zarur. Faqat shu yo‘l bilangina haqiqatan gender teng jamiyat barpo etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan Chayon”, “O‘tgan kunlar”asari.
2. Inson huquqlari boyicha Ozbekiston Respublikasi Milliy Markazi http://nhrc.uz/oz/news/ozbekistonda-gender-siyosatiga-etibor-yanadakuchaymoqda
3. Michelle obama (2016). Remarks by the First Lady at a Campaign Event in Manchester, New Hampshire. Sayt: https://obamawhitehouse.archives.gov/the-press-office/2016/10/13/remarks-first-lady-campaign-event-manchester-new-hampshire
4. Emma Watson (2014). "Gender equality is your issue too." https://www.unwomen.org/en/news/stories/2014/9/emma-watson-gender-equalityis-your-issue-too
5. Chimamanda Ngozi “We should all be feminists TED Talk 2012” nutqi https://youtu.be/hg3umXU_qWc?si=i5BexZ4KRdXJmogI
6. Amartya Sen “Development as freedom” “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to‘g‘risidagi” qonun https://www.lex.uz/
7. Judith Butler “Gender trouble” You Tube sayti http://www.youtube.com/@clintonlibrary42

IJTIMOIY HAYOT TARAQQIYOTIDA GENDER TENGLIGINING AHAMIYATI

Mamadaliyeva Shoxsanam Olimjon qizi
Navoiy davlat universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi 2-kurs magistranti

Annatasiya: Ushbu maqolada ijtimoiy hayotda olib borilayotgan gender tengligi ya'ni erkaklar va ayollarning teng huquqliligini tasdiqlaydigan tushunchalar, hotin-qizlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, ta'lim, tadbirkorlik, boshqaruv sohalarida ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan bir qancha islohotlar, genderga oid audit haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, ijtimoiy hayot, inson huquqlari, gender strategiyasi, genderga oid audit, genderga doir kompleks yondashuv.

"Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak"

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

So'ngi yillarda yurtimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ravishda ishtirok etishini ta'minlash , hotin-qizlarni har tomonlama ijtimoiy-siyosiy, huquqiy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir nechta qonun qoidalar yaratildi. Gender tenglik -bu erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlarga erishishni ya'ni har sohada kelib chiqishi va jinsidan qat'iy nazar o'z bilimi va saviyasiga tayangan holda ish olib bora olishini nazarda tutadigan tushuncha. Gender tengligi insonning shaxs sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganib, ularni yo'q qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 15.12.2022-yildagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqidagi qonunlarda xotin-qizlarning jamiyatdagi roli, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tenglikka erishish, oilani mustahkamlash, onalik, otalik hamda bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish, jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishish, davlat xizmatining rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog'ida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipini ta'minlash haqida fikr yuritiladi. 28.05.2021-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" ni tasdiqlash to'g'risidagi qarori O'zbekistonda ayollar statistikasi, xotin-qizlar bandligi, ta'lim sohasida, tadbirkorlik, media axborot, qishloq xo'jaligi, boshqaruv sohalarida olib borilayotgan va olib borilishi kerak bo'lgan yutuq va muammolar yechimlari aks etadi. O'zbekiston Jahon Bankining "Ayollar, biznes va qonun indeksi"da 190 ta

mamlakat orasida 139-o‘rinni, AQShning Djordjtaun instituti tomonidan yuritiladigan “Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi”da 167 ta mamlakat ichida 89-o‘rinni egallamoqda. Indeks beruvchi xalqaro tashkilotlarning statistik ma’lumotlariga asosan bir nuammo Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tayyorlanadigan “Global gender tafovuti” global hisobotida O‘zbekistonning o‘rni aks etmagan.[16]

Gender strategiya - irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta’minlashdir.

Gender strategiyasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish;

jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo‘llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish;

xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq salbiy qarashlarni o‘zgartirish;

aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o‘rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytirish;

xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida o‘qishga bo‘lgan imkoniyatlarini rag‘batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini yuksaltirish;

odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo‘yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;

oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a’zolarining mas’ulligini oshirish, erta nikoh, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh, erta tug‘ruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish;

gender tenglik tamoyillarini ilgari surishda, xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarini teng amalga oshirishda budjetni rejalashtirish, gender masalalarini budjet jarayonlariga integratsiyalash, gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish;

gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini

[16] 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi

kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish;

gender tenglik sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga mos bo‘lgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.[17]

Gender tenglik strategiyasi oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar hozirgi kunga kelib o‘zining natijaviylik ko‘rsatkichlarini yuksaltirdi. Hotin-qizlar ko‘p sohalarda boshqaruv faoliyatida yuksak cho‘qqilarni zabd etmoqdalar. Yaratilayotgan imkoniyatlar, qaratilayotgan e’tibor o‘z samarasini bermoqda. Nafaqat faoliyatda balki oilada ham hotin-qizlarning qo‘llab-quvvatlanishi, turli zo‘ravonlik, kamsitilishlar kabi yomon illatlar qurshovida qolmasliklari kerak. Prezident Administratsiyasi sho‘ba mudiri Saida Mirziyoyeva ko‘p bora hotin qizlarning tabiiy ravishda jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi. “Ular tabiiy ravishda jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lsin deyman. Men ayollar o‘zini erkin, kuchli his qiladigan, o‘ziga ishonchli bo‘lgan, maqsadlariga erisha oladigan va orzu qilishdan cho‘chimaydigan jamiyatda yashashini istayman.” U oiladagi zo‘ravonlik faqatgina oilaning muammosi bo‘lmasligi kerakligini va ayol o‘z dardi bilan yolg‘iz qolib ketmasligi kerakligini ta’kidlaydi. Ayol bor ekan go‘zallik, nafosat, baxt , tartib doimo hamroh bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli qarori
2. 28.05.2021-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlis senatining “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” ni tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori
3. Prezident Administratsiyasi sho‘ba mudiri Saida Mirziyoyeva nutqi.

BO‘LAJAK ALLOMALAR TARBIYASI JARAYONIDA XARXASHANING O‘RNI, UNING IJOBIY VA SALBIY TOMONI HAMDA DAVOSI

Sidikova Dilrabo Aslamovna
Navoiy viloyati Nurota tumani
19- umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Bizning kelajagimiz bulgan yosh avlod tarbiyasi bugungi kunda nihoyatda dolzarb masaladir.Chunki bugungi globallashuv jarayonida biz qanday tarbiya berayapmiz? Injiq bolani qanday normal holatga o‘tkazish mumkin. Maqola bugungi oilalardagi farzandlar xarakteridagi xarxashalar ularning sabablari va davosi yuzasidan qarashlarni kengaytiradi va boyitadi.

Kalit so‘zlar: o‘ng miya, chap miya hissiy namuna zo‘riqish tajovuskorlik

Bolalar ko‘zlarimizga qaraganlarida o‘z akslarini ko‘radilar.Demak, biz ko‘z nurimizni asray olsak, kelajak avlod unda o‘zini “aniq ravshan” ko‘ra oladi. Butun millat kelajagining yuksalishi shaksiz yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga bog‘liqligi

[17] 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi

hech kimga sir emas. Xo‘sh biz bugungi rivojlangan davrda farzandlarimizga qay darajada e’tiborlimiz? Ba’zan o‘ylab qolaman bugun biz bor diqqat va kuchimizni farzandlarimizni qornini to‘ydirish va ustini bud qilishga qaqratib quymadikmikan? Chunki bolalarni qornini to‘ydirish qanchalik hayotiy zarurat bo‘lsa, ularni qalbini to‘ydirish ham shunchalaik hayotiy zaruriyatdir. Zero qorni to‘ymagan bola och qolsa qalbi to‘ymagan farzand baxtsiz bo‘ladi. Bugungi kunda yosh bolalarni asabiyligi asab tizimi bilan bog‘lik ko‘plab kasalliklarning yosharib biorayotganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan har bir ona o‘ziga farzandimni xarxashalarida yig‘loqiligida o‘zim sababchi emasmanmi? Degan savollarni o‘z oldiga qo‘ysa foydadan holi bo‘lmasdi.

Keling hozir xarxashalar va ularning sabab va oqibatlarini ayrimlari bilan tanisjhib chiqsak.

Har safar yig‘layotgan bolamizga “Yig‘lahsni bas qilsang, men senga shokolad beraman” deb aytganimizda . O‘zingni yomon his qilsang ovqatlan degan xabar qoldiramiz. Bundan ko‘rinib turibdiki kayfiyatim buzilganda muzlatgich oldidan ketolmayman yoki shkalad yesam kayfiyatim yaxshjilanadi deydigan kattalar bolaligida shunday xabar bilan kodlanganlar. Tabiiyki asabiy holatda yeyilgan ovqatni inson organizmiga foydasidan ko‘ra zarari ko‘proq tegadi. Shunday ekan bolani yoshligidagi xarxashali onlarini uning girdobiga tushmasdan imkoniyat onlariga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Ziddiyatlarni hissiy namuna orqali hal qilish: O‘ng miya bilan tanishamiz. Farzandimiz uyda muqobil qismlari bor o‘yinchoq mashina (10 ta ekvivelenti bo‘lgan o‘yinchoq mashina) dunyoni ostin-ustin qilib , bu mashina men uchun hamma narsadan ustun deganida katta farzandimiz hasad qilib, bu tuyg‘usini shundog‘am meni yaxshi ko‘rmaysiz, meni aytganimni qilmaysiz deb ifoda etganida qorni ochgan bolamiz uch kundan buyon hech narsa yemaganidek yig‘laganida bolalar bog‘chasiga endigina qatnay boshlagan bolamiz meni bog‘chaga yuborsangiz sizsiz o‘lib qolaman deb etagimizga yopishganida, xullas bolalar kundalik noxush voqealarni iloji boricha fojialai tarzda bo‘rtirib ko‘rsatganida, bilishimiz kerakki bolamizning o‘ng miyasi bizga “Men hozir shu yerfsdaman” dayotgan bo‘ladi. Tuyg‘ular bu o‘ng miyaning faoliyat maydoni Ong miyamizning vazifasi ichdan kelgan hissiyotlarni iloji boricha boshdan kechirishdir. O‘ng miya so‘zlarni maslahatlarni tushuntirishlarni anglamaydi. Imo-ishoralardan yuz ifodalardan qo‘l harakatlaridan tafsilotlardan tashqaridagi rasmdan anglaydi va shu tilda gaplashadi.Kichik bir bolakay do‘sti o‘yinchog‘ini olgani uchun yer tepkilab yig‘layotyganida o‘ng miyasi unga “Sen shu onda juda yomon tushkunlik vaziyatidasan dunyoning oxiri bu! Seni o‘yinchog‘ingni olishga qanday haddi sig‘di?!” kabi takliflar bilan keladi va bu vaziyatda farzandingizga nega yig‘layapsan? Sen boshqa o‘yinchoqni o‘yna deyishingiz mutloqo befoyda. Mantiqni boshqaradigan chap miya xrezantemasi bola hayotining dastlabki uch yilida qattiq uyquda bo‘ladi.Bu davrda o‘ng miya ustunlik qilayotgan bo‘ladi.Bola uch yosh bo‘lganidan boshlab chap miya asta-sekin harakat qila boshlaydi. Lekin bola yeti yoshga to‘lgunicha asosan o‘ng miya nazoratida bo‘ladi. Bola yeti yoshdan so‘ng chap miyaning mantiq orqali ishontirish xususiyatini his qila boshlaydi Bu rivojlanish jarayoni o‘smirlik davrining oxiri 21 yoshgacha qadam-baqadam davom etadi. O‘ng miya nazorati

ostida bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolamizga aytayotgan so‘zlarimiz maslahatlarimiz ko‘rsatmamiz amalda ko‘rinmayotgani bajarilmayotganga o‘xshaydi. Chunki bu tushunchalar o‘ng miya tushunadigan til emas. Biz o‘zimiz bolamizni boshqaradigan miya bo‘lagi bo‘lgan o‘ng miyaning tilini o‘rganishimiz va inqirozli vaziyatlarni hal qil;ishda shu tildan foydalanishimiz kerak. Bu qanday til? Bu tasalli tushunish va his –tuyg‘ular tili Bu xarxasha qilayotgan bolaga mantiqiy javob berish notug‘ri degani. Avval uni tinchlantirib keyin gaplashish kerak. Farzandlarimizning iltimoslariga doimo “Yo‘q” deyish qanchalik notug‘ri bo‘lsa har doim “Ha” deyish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki bolalar sog‘lom rivojlanishi uchun ularni tarbiyalashda ma’lum “Chegaralar” bo‘lishi shart. Xarxashalarni intizom bilan hal qilish: Chap miya bilan tanishamiz Chap miya mantiq qoidalar tartib-intizom va chegaralarni muvofiqlashtirish markazidir. Bu markaz mantiqiy fikrlashni his-tuyg‘ulardan holi bo‘lishni yaxshi ko‘radi Ishonch hosil qilishni va tushunishni xohlaydi. Bu esa oz-o‘zidan qat’iy tartib intizomni talab qiladi.Intizom oiladagi xulq-atvori turlicha bo‘lgan farzandlarimizning hissiy dunyolarini ifopdalashga doir muhim rejalarni o‘z ichiga olgan qoidalar to‘plamidir.Intizomsiz muhitda inqirozlar ustunlik qilishi muqarrar Darhaqiqat , farzandlarimiz barkamol xulq-atvor egasi bo‘lishi uchun o‘z oilasining asosiy qoidalarini bilishi kerak.Farzandimizda intizomni ta’minlash uchun ikkita muhim nuqta bor:

1. Intizom inqiroz davrida emas, balki inqirozdan keying xotirjamlikka erishilganda o‘rnatilishi lozim.
2. Intizom izchil va uzluksiz bo‘lgandagina manfaatli bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek biz ko‘pchiligimiz bolamizning jahli chiqib turgan vaqt tushuntirishga yoki maslahat berishga ya’ni tartib intizomni ta’minlashga harakat qilamiz.Lekin bu ish bermaydi Masalan: Ona bolaga xonangni yig‘ishtir deydi.Oradan bir soat vaqt o‘tsada bola yig‘ishtirmaydi Sizningcha bu ona qanday yo‘l tutishi lozim? Albatta xonadonimiz toza- ozoda bo‘lishini yaxshi ko‘ramiz Shuning uchun bir soat ichida yig‘ishtirilmagan xonani o‘zimiz tartibga keltiramiz. Bir tomondan esa “Qanday bolas an? Senga xonani tartibga keltir demadimmi”? deb aytib boshqa tomondan o‘zimiz yig‘ishtiramiz bola bu vaqtda quyidagicha o‘ylaydi Bu ayol nimadur deb ming‘irlayapti, lekin u yaxshi ish qilayapti Men xonamni yig‘ishim shart emas ozgina gap eshitaman bo‘ldi. Demak bolamiz qilishi kerak bo‘lganm ishni uni o‘rniga qilmaslikni o‘rganishimiz kerak. Amalimiz rejamizga muvofiq bo‘lishi shart. Och yoki uyqusiz bola naqadar notinch yig‘loqi bo‘lsa, hissiy ehtiyojlari qondirilmagan va uni eshitayotganlarini his qila olmagan bola ham bezovtalanib yig‘laydi.Inson bu ijtimoiy mavjudot. U o‘zini namoyon qilish va tug‘ilgan ijtimoiy muhitida boshidan kechadigan sinovlarga dosh berish uchun ulkan ko‘nikmalarga ega bo‘lib tug‘iladi. Bu ko‘nikmalar ichida eng asosiysi bu yig‘lashdir. Ha-yig‘lash bu mahorat. Bu odamning “Menga nimadur bo‘layapti, hozir ichimda meni qiynayotgan tuyg‘ular fikrlar bor” deyishning eng qisqa yo‘li. Yig‘lash bola uchun tabiiy hol. Ammo buni qarangki, ijtimoiy voqelik yig‘lash bu salbiy harakat deb shivirlaydi. Ko‘p ota-onalar bolalarini yig‘loqi ekanligidan shikoyat qilishadi . Aslida bu bolaning ona bir ehtiyojim bor menga yordam bering degan

signali.Biroq chaqaloqlar fiziologik ehtiyojlari bo‘lmaganda ham yig‘lash xoxishini qondirish uchun ham yig‘laydilar. Qaysarlik uchun har doim ikki kishi bo‘lishi kerak.Agar biz qaysarlikdan to‘xtasak , bolamiz ham xotirjam va kelishuvchan bo‘ladi.Demak qaysar farzandimizga qanday yordam berishimiz mumkin.Avvalo bolani qaysarlikdan qaytaradigan mo‘jizavioy formula yo‘qligini biliosh kerak. Homiladorlik yoki tug‘ruqdan keying davrda biz onalar beixtiyor arazchi, sezgir va hissiyotli bo‘lganimizdek, bolalar ham 18-36 oyligida qaysar bo‘ladilar. Biz bu qaysarlikni butunlay yo‘q qila olmasak ham buni zararli oqibatlarga olib kelmasligi uchun muhim qadamlarni qo‘yishimiz kerak.

Biz bu qadamlarni “QAYSARLIK” formulasi yordamida ko‘rib chiqishimiz mumkin:

Qaysarlik oldini olishni birinchi qadami bolaga qaysarlik qilmaslik, chunki qaysarlik qaysarlikni olovlantiradi va ildizi chuqurlashishiga sabab bo‘ladiAgar siz biror masalada qaysar bo‘lsangiz ongsiz ravishda suhbatdoshingizga o‘z qarorini qat’iyroq ushlab turishga imkon berasiz. Biro z vaqt o‘tgach siz bu masala oddiy tanlov emas hokimiyat uchun kurashga aylanganini ko‘rasiz.Shuni unutmaslik kerakki on ava bola o‘rtasidagi urushlarda g‘olib bo‘lmaydiikkalasi ham mag‘lub hisoblanadi. Shu sababli bolalarimizni qaysarligini sabr toqat bilan yengishimizga to‘g‘ri keladi .Unga tabassum bilan qarashga harakat qilishimiz va bu jarayon vaqtincha ekanligini tushunib, pilla ichidan chiqmoqchi bo‘lgan kapalakka qaragan ko‘zlar bilan qarashimiz kerak.Keyinchalik esa, ma’lum qadamlar asosida uning qaysarligini boshqarish va u orqali farzandlarimizni xar xashalariga barham berishimiz mumkin.

Keling , baxtli ona bo‘laylik tabassum shifodir u jilmaygan insonning o‘ziga ham tabassum qilgan insonni yuziga qaragan insonga ham ijobiy ta’sir qiladi Farzandni dunyoga keltirish u bizni sevishi uchun yetarli emas. To‘g‘ri bolalar ota-onalarni yaxshi ko‘rish instinkti bilan tug‘iladilar. Biroq kuchli mushaklar bilan tug‘ilish sportchi bo‘lishimizga yetarli sabab bo‘lolmagani kabi instinct harakatda bo‘lish uchun ham undan foydalanib turilishi shart! Mushaklarni mashq qildirib turmasak bolamiz o‘rnak oladigan ona bo‘la olmaymiz. Shunday ekan ular bilan nafaqat aqliy balki hissiy munosabatlarni ham tug‘ri yo‘lga qo‘yishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldosheva Oydinniso Hademay ona bo‘lasiz Maktabgacha yoshdagi bolalarning onalari uchun qo‘llanma “Yangi asr avlodi” 2014-yil.
2. Xadicha Kubro Tongar Baqirmaydigan bolalar “Iqro nashr” Toshkent 2022-yil.

DIFFERENCES AND SIMILARITIES OF CASE IN UZBEK AND ENGLISH

Dehqonova Hamrogul
NavSU The Faculty of Englis Language and Literature, 4th Year Student

Abstract. This article shows the grammatical concept of case in Uzbek and English, focusing on their structural and functional similarities and differences, and their implications for communication. By analyzing the case systems of both languages, the research reveals that while both utilize case to denote grammatical roles, Uzbek has a more complex system with more

cases compared to the simpler English case system. These differences reflect broader linguistic and cognitive dimensions in how speakers of each language construct meaning.

Keywords: Nominative Case, Possessive/Genitive Case, Dative Case, Accusative Case, Locative Case, Ablative Case.

Language is a fundamental human tool for communication, and its grammatical structures significantly shape meaning. "Case" marks the grammatical relationship between nouns and other sentence elements, making it essential for understanding how different languages organize information. This article aims to:

- Identify and compare the cases in Uzbek and English.
- Analyze the grammatical functions and applications of these cases.
- Discuss the implications of similarities and differences for language learning and linguistic theory.

Understanding case enhances our grasp of the mechanisms underlying communication in both languages, contributing to broader discussions on language structure and cognitive processes.

English Case System

English employs a relatively simple case system characterized by three primary cases:

- Nominative Case: Marks the subject of a sentence (e.g., “The cat sleeps”).
- Accusative Case: Indicates the direct object (e.g., “I see the dog”).
- Possessive Case: Shows ownership (e.g., “The dog‘s tail”).

In English, syntactic structure is vital for meaning. The subject-verb-object (SVO) order predominates, with case distinctions often relying on word order rather than morphological changes.

Uzbek Case System

In contrast, Uzbek features a more complex case system, with nouns and pronouns inflecting for several distinct cases:

Nominative Case: The basic form for subjects (e.g., “Bola kitob o‘qiydi” - The child reads a book).

Accusative Case: Used for direct objects, marked by the suffix ‘-ni’ (e.g., “Bola kitob-ni o‘qiydi” - The child reads the book).

Dative Case: Indicates indirect objects marked by ‘-ga’ (e.g., “Men ukam-ga kitob berdim” - I gave a book to my brother).

Genitive Case: Expresses possession with ‘-ning‘ (e.g., “Ukamning kitob-I” - My brother’s book).

Locative Case: Denotes location marked by ‘-da’ or ‘-ga’ (e.g., “Bola maktab-da o‘qiydi” - The child studies at school).

Ablative Case: Indicates origin marked by ‘-dan’ (e.g., “Bola maktab-dan keldi” - The child came from school).

Uzbek’s morphological richness allows for flexible word order, enabling clear communication even with rearranged sentences due to case markers.

Similarities and Differences

Despite significant differences in complexity, both languages share fundamental similarities in the concept of grammatical case. Both utilize case to convey syntactic roles within a sentence, such as subject, object, and possessor.

-Complexity: Uzbek has a more elaborate case system with more distinct cases, while English relies on a simpler system with limited case distinctions.

- Expression of Relationships: English primarily uses word order and prepositions to indicate grammatical roles, whereas Uzbek employs a robust system of case-marking suffixes.

This typological distinction reflects broader structural differences between the Indo-European and Turkic language families, illustrating diverse ways languages organize and express relationships within sentences.

Nominative Case

Both languages have a nominative case marking the subject. In English, it is the unmarked form (e.g., “She went to the store”), and in Uzbek, it is similarly the basic case (e.g., “Bola kitob o‘qiydi”).

Accusative Case

English relies on word order for direct objects (e.g., “I see the cat”), while Uzbek uses a distinct accusative case marked by “-ni” (e.g., “Men mushuk-ni ko‘rdim”).

Dative Case

Uzbek has a marked dative case for indirect objects (e.g., “Men ukam-ga kitob berdim”). English typically uses prepositions like “to”.

Genitive Case

Both languages express possession, with English using the possessive ‘s (e.g., “Mary’s book”) and Uzbek employing “-ning” (e.g., “Ukam-ning kitob-I”).

Locative and Ablative Cases

Uzbek includes additional cases like locative (e.g., “Bola maktab-da o‘qiydi”) and ablative (e.g., “Bola maktab-dan keldi”), while English uses prepositions to convey similar meanings.

Complexity and Productivity

Uzbek’s case system allows for nuanced expression of semantic and grammatical relationships, highlighting the broader typological differences between Turkic and Indo-European languages.

Implications for Language Learning

Understanding these differences is crucial for learners. English speakers must master Uzbek’s case endings for grammatical accuracy, while Uzbek speakers learning English must adapt to its reliance on word order.

This article underscores the similarities and differences in the case systems of Uzbek and English, emphasizing their influence on communication and meaning-making. The complexity of Uzbek’s system offers a richer morphological landscape compared to English’s simpler framework. Future research could delve into the cognitive impacts of linguistic case and explore comparative studies of other grammatical categories across languages. Understanding these differences fosters effective cross-cultural communication and highlights the diversity of human language.

References:
1. Tadjibaev, A. Comparative Analysis of Case in English and Uzbek, 3-6.
2. Yusupova, S. (2020). Differences and Similarities of Forms of Speech in English and Uzbek, 1-4.
3. Fennell, B. A. (2001). A History of English, 45-50.

MODERN SOLUTIONS FOR ENHANCING THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF WOMEN IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Student: ***Nazarboyeva Niginabonu***
NavSU The faculty of English language and literature

Annotation With the development of generation, nowadays not only young boys, but also girls who have enough potential and equality of opportunities, are trying to gain more knowledge in lucrative professions. Furthermore, for women in developing countries, globalization means more opportunities to increase their own skills and wages, participate in the labor force, and provide for themselves and the well-being of their families. Hence, many countries, especially developing ones like our country Uzbekistan are putting far more efforts on stimulating every girl, young and old woman to build their own academic life along with their family and social life.

Key words: women, education, work, development, globalization, solutions.

Annotatsiya Davr rivojlanishi bilan hozirgi kunda nafaqat o‘g‘il bolalar, balki yetarli salohiyat va imkoniyatlar tengligiga ega bo‘lgan qiz bolalar ham havas qilsa arziydigan zamonaviy sohalarda ko‘proq bilimga ega bo‘lishga harakat qilishmoqda. Bundan tashqari, rivojlanayotgan davlatlarda globallashuv davri ayollar uchun o‘zlarining qobiliyatlarini va maoshlarini oshirishga, ish kuchida qatnashishiga, o‘zlarini o‘zlari ta’minlashga va oilalarining sog‘lom bo‘lishiga imkoniyat beradi. Shuning uchun ham, ko‘p mamlakatlar ayniqsa, bizning yurt O‘zbekiston kabi rivojlanayotganlari har bir qizni, yosh-u qari ayollarni oilaviy va ijtimoiy hayotlari bilan birgalikda o‘zlarining akademik hayotini qurishi uchun ruhlantirishga, qiziqtirishga harakat qilishmoqda.

Аннотация С развитием поколения в наши дни не только юноши, но и девушки, обладающие достаточным потенциалом и равными возможностями, стараются получить больше знаний по прибыльным профессиям. Кроме того, для женщин в развивающихся странах глобализация означает больше возможностей повысить свою квалификацию и заработную плату, участвовать в рабочей силе и обеспечивать себя и благополучие своих семей. Поэтому многие страны, особенно развивающиеся, такие как наша страна Узбекистан, прилагают гораздо больше усилий для того, чтобы стимулировать каждую девушку, молодую у и пожилую женщину строить свою собственную академическую жизнь наряду со своей семейной и общественной жизнью.

In the public’s mind, increasing global economic integration and moving production to developing countries have been associated with low wages, long hours, and poor working conditions. Public opinion in developed countries generally connects globalization with sweatshops where child labor is common and workers are denied the most basic rights. Frequently, it is argued that women are especially hurt by this process. The fact that workers willingly take this type of job is usually explained by the lack of better options and the destruction of their traditional ways of life caused by globalization. Globalization and working condition-Some progress, but more needs to be done.

The ability to move goods, services, capital, people, and, maybe most importantly, technology across borders has improved the lives of people worldwide. Evidence reveals how much globalization has benefited women in their different roles in society-as workers, business owners, consumers, and in the household. International trade and investment have led to higher wages for women and lower living costs for their households. Globalization has drawn women out of the informal economy and into the formal economy, giving them access to better working conditions, societal benefits, and pensions for old age. Cross-border data flows and technological developments have helped women start and grow their businesses. Globalization is not a panacea, however. There is an outsized role for better domestic policies that let women take advantage of the opportunities that come with globalization instead of getting in the way. Even so, further improving women's lives means more globalization, not less.

"We can do it"- This iconic phrase was first introduced during World War Two; next to the infamous image of a woman in overalls ready to work. Until this day this image has symbolized solidarity and empowerment for women.18

Although many may argue that women have come a long way in becoming empowered, there is still progress to be made. Here I highlight 5 ways in which we can continue to break down barriers and empower women across the world to achieve the opportunities they are entitled to:

Get more women in global leadership goals

Research suggests that the most powerful and attractive symbolism of women leaders is the hope that they will bring significant change. When a woman is chosen as the first woman to become the most senior leader – the president, prime minister, or CEO, people begin to believe that other more substantive and less symbolic changes are also possible.

Teach business skills to women

Research undertaken by the cooperation Vietnam Women's Union and Peace Trees found that business training can increase performance in microenterprises and improve motivation, success, trust, and perceptions of women entrepreneurs.

Encourage more women to take apprentice roles

To support women taking on apprenticeships and to achieve such changes support structures for women and girls should include mentors, networks and female-friendly workplaces.

Empower entrepreneurs in developing countries

Create a better environment for career development

There is a need for better career development guidance and support for women. Getting women managers to senior executive and board level can partly be achieved by women taking more responsibility or ownership for their own career development.

"When women are empowered and can claim their rights and access to land, leadership, opportunities and choices, economies grow, food security is enhanced

[18] J. Howard Miller "We can do it". - American World War Two wartime poster, 1943.

and prospects are improved for current and future generations.”– Michelle Bachelet, Under-Secretary-General and Executive Director of UN Women

As far as books written about women and their position in society, are concerned, it is highly likely to be much better to compare two works by uzbek and English writers with the aim to get to know how different nations treat women in every aspect of life.

In book “Kecha va Kunduz” by Abdulhamid Chulpon there is one sentence said by Razzoq sufi to admonish his young daughter Zebi and her friend : “Bu nima qiyomat?”19 when young girls are doing chores , having a fun with laugh and enjoyment. In contrast, “ “What an excellent father you have, girls,” said she, when the door was shut. “I do not know how you will ever make him amends for his kindness; or me either, for that matter.”20 Mrs Bennet said these words to her daughters to remind them that they have really affectionate wise father behaving well towards them. That is to say, in the past uzbek men , even now find girls weak and silly slaves who don’t have any right to come out of controlling zone, while other nation’s males do their best to keep gender equality along with other opportunities for females.

Similarly, “Qafasning darichasi ochildi…-Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman.”21 (“ the door of cage was opened…-I don’t forgive her if strange people listen to her voice”) said father not to let her little daughter sing song even though she is born talented having passion for practicing in front of others. But it can be undoubtedly seen that English fathers appreciate their daughters’ ability and potential and give permission for such leisure based activities. –“Mary, whose excessive attention to books and piano playing marks an untoward self-absorption.

In fact, the sorts of leisure activities characters engage in—card playing, dancing, singing, piano playing, walking, conversation, letter writing, reading—may be taken in particular instances to indicate their moral fiber and social inclinations.”22

“Fitna, qiz o‘lguring qani? Fitna, puldan uzat!”23 (“Hey, Intrigue, where is your dead girl? Give me money, Intrigue!”). Finally, these sentences show that men clearly and unfairly disrespect and discriminate women not caring about their broken heart or devastated mood. However, in book “Pride and Prejudice” every man address , call women with their own name without any mocking name: “oh, my dear,…, my lady…, Miss…, Mrs…”

Admittedly, it seems to be time to change our attitude and give up all stereotypes about women and girls. In addition, the more we open the window of prospect chances, the more intellectual generation we have.

CONCLUSION

In conclusion, women are the primary caregivers of children and elders in every country of the world. International studies demonstrate that when the

[19] Abdulhamid Chulpon Kecha va Kunduz.- Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. –p. 11
[20] Jane Austen Pride and prejudice.-UK.:T.Egerton, Whitehall, 1813. –p. 45
[21] Abdulhamid Chulpon Kecha va Kunduz.- Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. –p. 23
[22] Jane Austen Pride and prejudice.-UK.:T.Egerton, Whitehall, 1813. –p. 31
[23] Abdulhamid Chulpon Kecha va Kunduz.- Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. –p. 13

economy and political organization of a society change, women take the lead in helping the family adjust to new realities and challenges.

In addition, Women are essential contributors to the economy. They play a significant role in the labor force and contribute to the growth and development of businesses. Women have also been proven to be successful entrepreneurs and are starting their own businesses at a higher rate than men.

REFERENCES

1. Jane Austen "Pride and prejudice" Author: Year: 1932 , -423 p.
2. Title: "Globalization helps women thrive" Author: By Christine McDaniel , https://www.cato.org/publications/globalization-women
3. Title: " 6 ways to empower women across the world" Author: By emerald publishing, Link: https://www.emeraldgrouppublishing.com/opinion-and-blog/6-ways-empower-women-across-world
4. Title: "Globalization's impact on gender equality: What's happened and what's needed" Link: https://openknowledge.worldbank.org
5. https://www.abc.net.au/education/top-10-reasons-why-all-girls-need-an-education/13785466
6. Title: "Kecha va Kunduz" Author: Abdulhamid Chulpon Year: 2019, - 290 p.

GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT

Farmonova Umida
Navoiy davlat universitituti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti talabasi

Hozirgi kunda har bir xotin – qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart.

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Gender tenglik ijtimoiy adolatni ta'minlash va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim rol o'ynaydi. Bu mavzu erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, ta'lim, mehnat, qaror qabul qilish hamda ijtimoiy hayotda teng ishtirokni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Shu sababli, bu masala xalqaro va milliy darajada ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, ayollar huquqlari, erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik, ta'lim va imkoniyatlar tengligi, ijtimoiy adolat, ayollar iqtisodiy mustaqilligi, ayollarning siyosiy ishtiroki, zo'ravonlikka qarshi kurash, teng imkoniyatlar, inson huquqlari, ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, gender bilimdonlik, ijtimoiy barqarorlik, oilaviy mas'uliyatlarni bo'lishish, ayollar salomatligi va farovonligi, iqtisodiy tenglik.

Аннотация: Гендерное равенство играет важную роль в обеспечении социальной справедливости и достижении устойчивого развития. Эта тема включает в себя обеспечение равных прав и возможностей для мужчин и женщин, поощрение равного участия в образовании, труде, принятии решений и социальной жизни. Именно поэтому данный вопрос признан приоритетным как на международном, так и на национальном уровне.

Ключевые слова: гендерное равенство, права женщин, равенство между мужчинами и женщинами, равенство в образовании и возможностях, социальная справедливость, экономическая независимость женщин, политическое участие женщин, борьба с насилием, равные возможности, права человека, программы поддержки женщин,

гендерная осведомленность, социальная стабильность, разделение семейных обязанностей, здоровье и благополучие женщин, экономическое равенство.

Annotation: Gender equality plays an important role in ensuring social justice and achieving sustainable development. This topic includes ensuring equal rights and opportunities for men and women, promoting equal participation in education, labor, decision-making, and social life. Therefore, this issue is recognized as a priority both at the international and national levels.

Keywords: Gender equality, women's rights, equality between men and women, equality in education and opportunities, social justice, women's economic independence, women's political participation, combating violence, equal opportunities, human rights, women's support programs, gender awareness, social stability, sharing family responsibilities, women's health and well-being, economic equality.

Insoniyat yaralibdiki, erkak va ayollar o‘rtasidagi munosabat, jamiyatda, oilada ularning roli, gender tenglik va gender adolat muammolariga e’tibor qaratilib kelinadi. Bugungi kunga kelib ijtimoiy hayotning asosiy jabhalarida gender tenglikni ta’minlash butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilishi o‘z isbotini topgan. Yangi O‘zbekistonda, ya’ni inson huquqlari kaflatlari ta’minlangan demokratik va fuqarolik jamiyatida ijtimoiy – siyosiy faol ayollarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki talab etiladi. Mazkur ishtirokni ko‘pchilik bo‘lib ta’minlash esa hammamizning zimmamizdagi vazifadir . Shu bois, jamiyatda xotin – qiz va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratishda ilmiy asoslangan g‘oyalar, takomillashgan qonunlar hamda samarali amaliy chora – tadbirlar bilan ishlarni davom ettirish muhim bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi besh yil davomida gender tenglik masalasiga ulkan ahamiyat beilmoqda. Gender tenglik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan alohida e’tibor qaratilayotgan va qo‘llab – quvvatlash zarurligi e’tirof etilayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi . Gender tenglik va ijtimoiy tenglik masalasi bugungi kunda global muammolardan biri bo‘lib, inson huquqlarining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning har bir a’zosi o‘z imkoniyatlariga qarab teng huquqlarga ega bo‘lishi, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda birdek qatnashishi zarur. Gender tenglik — erkaklar va ayollarning barcha sohalarda, jumladan ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va siyosatda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini anglatadi. Bu nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilishni, balki jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu tenglik faqat huquqiy hujjatlarda emas, balki kundalik hayotda ham aks etishi kerak. Gender tushunchasi xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihatini ifodalaydi.

“Keyingi yillarda mamlakatimzda xotin – qizlarning huquq – manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holati xotin – qizlarni har tomonlama qo‘llab – quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish jaraynlari islohotlar shiddatidan ortda qolayotgani ham sezilmoqda”.

O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta’minlash maqsadida bir qator qonunlar qabul qilingan. Jumladan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun gender tenglikni ta’minlashning huquqiy asoslarini belgilaydi. Gender tenglikni ta’minlash nafaqat inson huquqlarini hurmat qilish, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham muhimdir. Bu borada davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorlikda ishlashi zarur. Ijtimoiy tenglik — jamiyatdagi barcha shaxslarning millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki iqtisodiy ahvolidan qat’i nazar, teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi tushuniladi. Ushbu tenglik jamiyatning demokratik rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy tenglik jamiyatning barqarorligi va farovonligi uchun muhim tamoyildir. Adolatli taqsimot, huquqiy tenglik, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarining teng ta’minlanishi orqali ijtimoiy tenglikka erishish mumkin. Bu esa jamiyatning demokratik rivojlanishi va har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Gender tenglik va ijtimoiy tenglik bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Gender tenglik ta’minlanmagan jamiyatda ijtimoiy tenglikka erishish qiyin. Masalan, ayollarning iqtisodiy faoliyatda to‘liq qatnasha olmasligi nafaqat ularning imkoniyatlarini cheklaydi, balki jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ham to‘sqinlik qiladi.

Gender tenglik va ijtimoiy tenglik masalasi nafaqat ayollar yoki erkaklar uchun, balki jamiyatning har bir a’zosi uchun muhimdir. Tenglik tamoyillarini amalga oshirish inson huquqlarini hurmat qilish, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikka erishish uchun zarurdir. Har birimiz ushbu maqsadga hissa qo‘shishimiz lozim. Faol va adolatli jamiyatni qurish uchun tenglikka erishish — bu birgalikdagi mas’uliyatdir.

O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o‘rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o‘spirin qiz uchun tug‘ish ko‘rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxati bo‘yicha oltmish ikkinchi o‘rinda O‘zbekiston bilan bir qatorda Kosta-rika va Urugvay ham 0,288 ko‘rsatkichi bilan qayd etilgan. O‘rta Osiyo davlatlari o‘rtasida Qozog‘iston qirq to‘rtinchi, Qirg‘iziston sakson ikkinchi, Tojikiston yetmishinchi o‘rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro‘yxatda hech qanday ma’lumot ko‘rsatilmagan.

O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“gi Qonuni qabul qilingan. O‘zbekistonda Gender tenglik bo‘yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

2015 – yilda Pokiston Birlashgan Millatlar Tashkilotning Gender tengligi va ayollarning huquqlarini kengaytirish bo‘yicha bo‘limi tomonidan hisobot

tayyorlandi. Bu hisobot “BMT – ayollar” deb topilgan. Hisobotning markaziy masalalaridan biri ayollarni ish bilan ta’minlash masalasi edi. Hisobot mualliflarining fikriga ko‘ra, oliy ma’lumotli ayollar soni tarixiy maksimal darajaga yetganiga qaramay, ularning ish bilan ta’minlanish holati achinarli ko‘rinishga ega. Imtiyozli diplom bilan tugatgan yosh qizlar, ayniqsa, kabi fanlardan yosh yigitlarni tobora ortda qoldirishlariga qaramay, ish topa olmaydilar. Hatto ish topishga muvaffaq bo‘lganlar ham har doim ham ijtimoiy ishonchsizlik tufayli o‘zlarini ishonchli his qila olmaydilar. Ushbu masala rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa dolzarb bo‘lib, ularda ayollarning 75 foiz ish o‘rinlari, ish beruvchi tomonidan qonuniy majburiyatlari himoyalanmaganini tashkil etadi.

Hisobotda ta’kidlanganidek, rivojlangan mamlakatlarda gender tengligi holati ham ideal darajadan uzoq emas. Masalan, Shvetsiya va Fransiyada ayollar erkaklarnikiga nisbatan maoshlaridagi farq 31 foizga kam, Germaniyada 49 foizga kamroq, Turkiyada esa 75 foizga teng. Hisobot mualliflarining fikriga ko‘ra, gender tengsizligiga qarshi kurashning asosiy choralari butun dunyo bo‘ylab ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta’minlash huquqi kerak.

Yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, tubdan kuchaytirish, har tomonlama qo‘llab – quvvatlashga doir 30 dan ortiq me’yoriy – huquqiy hujjat qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi. “ Bu o‘z navbatida, “Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmli, ma’rifatli va salhiyatli qilish “ , - degan qoidani hayotga izchil tatbiq etishni taqazo etadi ”

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak , mamlakatimizda gender tenglikka erishishda xotin - qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada kuchaytirish masalasi davlat va jamiyatning doimiy diqqat markazida turibdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan : “ Xotin – qizlarning mehnat huqulari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab – quvvatlashga oid chora – tadbirlar to‘g‘risida” gi qaror imzlanildi va bu kabi imkoniyatlar biz kabi yoshlarga ulkan marralarni zabt etish uchun eng zo‘r imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Zero, bu muhim omil oilani mustahkamlash, yuqori intellektual darajadagi yosh avlodni voyaga yetkazish, jamiyat barqarorligini ta’minlashning asosiy poydevori hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi bu yo‘nalishda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. Gender tenglikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy bazaning yaratilishi, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularning siyosiy qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etishiga sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiradi. Shavkat Mirziyoyevning rahbarligi ostida gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan siyosat jamiyatda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning yetakchilik salohiyatini ro‘yobga chiqarish va gender kamsitishlarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va milliy taraqqiyot maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shunday ekan, gender tenglikni ta’minlash nafaqat adolatli jamiyatni barpo etadi, balki kelajak avlodlar uchun barqaror taraqqiyotning poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uzmarkaz.uz/uzc/news/xotin-qizlar-huquqlari-va-gender-tenglik-islohotlar-zamirida
2. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi 3 “Shavkat Mirziyoyev Toshkent – “O‘zbekiston “ – 2019
3. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz 1 “ – Shavkat Mirziyoyev Toshkent – “O‘zbekiston “ – 2017
4. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” – Shavkat Mirziyoyev. Toshkent – “O‘zbekiston” – 2022.

GENDER TENGLIK ASOSIDA AYOLLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Fayziyeva Rushana Fazliddin qizi
NDU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining bugungi kundagi eng dolzarb mavzusi bo‘lgan gender tenglik masalasi haqida keltirib o‘tilgan.Ushbu tamoyil, erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib,mamlakatimizning konstitutsiyasi, qonunlari va strategik hujjatlarida o‘z aksini topib kelmoqda.Gender tenglik O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga zamin yaratib, ijtimoiy adolatni ta’minlashga va barcha fuqarolarning huquqlarini kafolatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, gender tenglik, xotin-qizlar, to‘rtta asosiy jarayon, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan xalos qilish

Ayollar uchun gender tenglik bugungi Yangi O‘zbekistonning, zamonaviy jamiyatning muhim maqsadlaridan biridir. Gender tenglik nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilishni, balki ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashni ham nazarda tutadi. Ayollarning ta’lim mehnat va siyosatdagi ishtiroki jamiyatimizning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayollar jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ular oila, ish, o‘qish, tadbirkorlik, huquqiy sohalarda muhim rol o‘ynaydi. Ammo ko‘lab davlatlarda ayollar kamsitilishlarga duch kelmoqda. Bu kamsitilishlar ayollarning i’tisodiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyatida to‘laqonli ishtirokini cheklaydi. Bunday tazyiq, zo‘ravonlik va kamsitilishlarni oldini olish maqsadida Yangi O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi “ Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonuni qabul qilindi. O‘zbekistonda Gender tenglik bo‘yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib kelmoqda. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o‘rinni, 2022-yilning global gender taraqqiyot indeksida O‘zbekiston 189 ta davlat orasida 106-o‘rinni, 2024-yilgi hisobotiga ko‘ra O‘zbekiston 146 ta mamlakat orasida 0.681 ball bilan 108- o‘rinni egallab kelmoqda. Gender tafovut indeksi mamalakatlarni to‘rtta asosiy jarayon – sog‘liqni saqlash, ta’lim, iqtisod va siyosat bo‘yicha erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tafovutlarni o‘rganib,

mamlakatdagi gender tenglik holatini baholaydi. Sog‘liqni saqlash bo‘yicha O‘zbekistonda ishlayotgan ayol shifokorlar soni:

2019 yil – 44,3 ming kishi;
2020 yil – 44,4 ming kishi
2021 yil – 44,3 ming kishi
2022 yil – 47,9 ming kishi
2023 yil – 49.6 ming kishini tashkil etib kelmoqda.

So‘nggi o‘n yil ichida gender tenglik masalasi rivojlanib bormoqda. Barcha xotin-qizlar ish bilan ta’minlanmoqda, ko‘plab qizlar maktabga boriyapti, erta turmushga majbur qilinmayapti, parlament va rahbarlik lavozimlarida o‘z ish faoliyatlarini olib bormoqda va gender tengligini isloh qilish uchun qonunlar isloh qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ayollarimizni erkaklar bilan teng huquqliligi ta’kidlab o‘tilgan. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi.

2019-yil opa-singillarimiz hayotida katta ahamiyatga ega muhim hujjat qabul qilingan. Bular – “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlardir. Bu ikkala qonun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidendining 2019-yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori ijrosi doirasida ishlab chiqilgan. Shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va ularni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish maqsadida davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Gender tenglik masalalariga oid mas’uliyatli organ sifatida “Xotin-qizlar qo‘mitasi” faoliyat yuritmoda. Ushbu qo‘mita ayollarning huquqlari buzilishining oldini olish, gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish, zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarga yordam ko‘rsatish,ayollarga psixologik,huquqiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish,ayollar uchun kasbiy ta’lim va qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilish, qizlarning ta’lim olishi uchun sharoit yaratish, ayniqsa qishloq joylarida, gender tenglik bo‘yicha millay dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish va hokazo ishlar bilan shug‘ullanadi. Xotin-qizlar qo‘mitasi mahalliy darajada ham faoliyat yuritadi, masalan, mahallalarda xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlarini tashkil qiladi. Shu bilan birga qo‘mita tomonidan gender tenglikni takomillashtirish bo‘yicha “Gender tenglik faoli” milliy tanlovi tashkil etilib, unda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tanlov tashkilotchilari hisoblanadi. Tanlov har bir tashkilotlarda gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan siyosatni shakllantirish, tashkilotlar faoliyatiga gender yondashuvlarni joriy qilish, gender tenglikka erishish masalalariga jamoatchilik e’tiborini keng jalb etish, turli tuzilmalar faoliyatiga gender tenglikni singdirish, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq va qonuniy manfaatlari

ta’minlash kabi masalalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Tanlov har yili 1-iyundan 30-dekabrga qadar, uch boshqich bo‘yicha amalga oshirib kelinmoqda Tanlovning har bir bosqichda g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarga har bir nominatsiya bo‘yicha unvon, faxriy diplom, estalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

2.“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonun

3.Lex.ux “Gender tenglik faoli” milliy tanlovi Qonuni

4.“Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonun

5.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori, 27.04.2022 yildagi KQ-340-IV-son

OILA MUHITIDA QIZLAR TARBIYASI.GENDER YONDASHUVLAR

Odinayeva Hulkar Jamshidovna

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning vodiy va voha hududlarida hamda AQSH , Germaniya, Xitoy kabi davlatlardagi oilalarda qizlarga beriladigan tarbiyaning alohida jihatlari va ushbu tarbiyada nima asos qilib olinishi haqida bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье описываются особенности воспитания девочек в равнинных и оазисных регионах Узбекистана и в семьях таких стран, как США, Германия, Китай, и что является основой этого воспитания.

Annotation: This article describes the specific aspects of the upbringing of girls in the valley and oasis regions of Uzbekistan and in families in countries such as the USA, Germany, and China, and what is the basis for this upbringing.

Kalit so‘zlar: oila, muhit,tarbiya, ota, ona, qiz ma’naviyat.

Ключевые слова: семья, окружающая среда, отец, мать, дочь, духовность.

Key words: family, environment, upbringing, father, mother, daughter, spirituality.

Ma’lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag‘rida oladi. Shu narsa muqarrarki, birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta’siri odam tabiatiga mustahkam o‘rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhalari va odatlari bolaligidanoq shakllanadi. Oiladagi eng og‘ir vazifa bola tug‘ilganidan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko‘rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, bani odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so‘z - ,,bola tarbiyasi’’ dan iborat birikmaga bog‘liq [1]. Shuningdek, ayniqsa qizlarning tarbiyasiga e’tiborli bo‘lish lozim.

Qizlar tarbiyasi — bu faqat oila ichidagi oddiy jarayon emas, balki butun jamiyatning kelajagini quvvatlab, aynan jamiyatning ma’naviy va axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi.

Har bir davlatda qizlar tarbiyasi, o‘zining milliy qadriyatlari, madaniyati, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlariga asoslanadi. AQSH, Germaniya va Xitoy kabi butun jahonga taniqli davlatlarda oilalardagi qizlar tarbiyasi bir-biridan farq qiladi, lekin ularning hammasida o‘z farzandlariga mustaqillik, tenglik va shaxsiy o‘sish

imkoniyatlari yaratish muhim ahamiyatga ega. AQSHda qizlar tarbiyasi asosida tenglik va erkinlikka katta e’tibor qaratiladi. Qo‘shma Shtatlarda oilalar, qizlarini erkaklar bilan teng huquqli, mustaqil va o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatadilar. Germaniyada oiladagi qizlar tarbiyasi, ilm-fan, tenglik va mehnat qilish prinsiplariga asoslanadi. Germaniyada qizlarga kuchli ta’lim berish va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish muhim sanaladi. Xitoyda qizlar tarbiyasi an’anaviy qadriyatlar va jamiyatning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Xitoyda oilada qizlarning roliga ko‘proq ma’naviy tarbiya, hurmat va oilaga bo‘lgan mas’uliyat yo‘naltiriladi.

O‘zbek oilasida farzand tarbiyasi o‘ta muhim e’tibor talab qiladigan masalalardan biri sanalib, bola tug‘ilishi va tarbiyasi bilan bog‘liq xalqona islomiy an’analar, urf-odatlarning g‘oyaviy asosi sog‘lom va komil farzandni voyaga yetkazishga qaratilgan etnografik materiallar asosida tasdiqlandi. Qolaversa, o‘zbek xalqi motam marosimlari oilaviy marosimlar (farzand tug‘ilishi va nikoh) ga nisbatan konservativ bo‘lganligi bois ularda islomiy qarashlar bilan birga totemizm, animizm, ajdodlar e’tiqodi kabi qadimiy e’tiaodlar qorishgan holda uchrashini ko‘rish mumkin.[2]

Qiz bolalar tarbiyasi nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning kelajagini belgilaydi, chunki ular kelajakda ona, tarbiyachi va jamiyatning faol a’zosi bo‘lib yetishadilar.Qiz bolani tarbiyalashda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihatlar:

Ta’lim va intellektual rivojlanish: Qiz bola nafaqat uy ishlariga, balki ilm-fan, san’at va sportga ham qiziqishi uchun imkoniyat yaratish lozim.

Axborot tarbiyasi: Zamonaviy texnologiyalar davrida qiz bola foydalanayotgan axborot vositalari ustidan nazorat o‘rnatish, ularga to‘g‘ri axloqiy qadriyatlarni singdirish muhim.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash: Qiz bola o‘zini erkin his qilishi uchun unga ishonchli muhit yaratish kerak. U ota-onasiga o‘z muammolari haqida ochiq gapira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Onaning qiz farzand tarbiyasidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, u qizning har bir bosqichdagi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Onaning ta’lim-tarbiyadagi roli yoshga qarab quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Yosh qizlar (bolalik davri):

Mehr va xavfsizlik muhitini yaratish – Ona qiziga mehribonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, uning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi.

Xulq-atvor va odob o‘rgatish – Qizchalar onasini kuzatib ulg‘ayadi, shuning uchun ona odobi, so‘zlari va harakatlari bevosita qiz farzandga ta’sir qiladi.

Tozalik va gigiyenani o‘rgatish – Shaxsiy gigiyena, kiyim-kechak va atrof-muhitga toza bo‘lish odatlarining shakllanishi aynan onaning qo‘llab-quvvatlashi bilan bog‘liq.

2. O‘quvchi qizlar (o‘smirlik davri)

Shaxsiyati shakllanishida yo‘l-yo‘riq berish – O‘smirlik davrida qizlar mustaqil fikrlay boshlaydi, shuning uchun ona unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi, noto‘g‘ri qarorlardan himoya qilishi lozim.

Qadriyatlarni singdirish – Oilaviy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va axloqiy tamoyillar aynan onadan o‘tadi.

Do‘stdek bo‘lish – O‘smirlik yoshidagi qizlar ko‘pincha onadan uzoqlashishga harakat qilishadi, shuning uchun ona do‘stona munosabat o‘rnatib, unga ishonch bilan gaplashishga imkon yaratishi kerak.

3. Voyaga yetgan qizlar (katta yoshdagi qizlar)

Hayotga tayyorlash – Qiz voyaga yetganda, mustaqil hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan tajriba va ko‘nikmalarni onadan oladi. Masalan, oilaviy munosabatlar, kasbiy rivojlanish, hayotiy sinovlarga chidamlilik kabi masalalar bo‘yicha maslahatlar olish muhim.

Ayollik san’atini o‘rgatish – Ona qiziga ayollik go‘zalligi, sabr-toqat, dono qaror qabul qilish va hayotda o‘z o‘rnini topish sirlarini o‘rgatishi kerak.

Hayotiy tajriba bilan bo‘lishish – Turmush, kasb-hunar, insonlar bilan muomala kabi muhim jihatlarda ona o‘z tajribasidan kelib chiqib qiziga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Ona qizining hayotdagi eng yaqin insoni bo‘lishi va har bir bosqichda unga kerakli yo‘l-yo‘riqni berishi bilan qiz farzand tarbiyasida eng asosiy rolni o‘ynaydi.

Otalar ham qiz farzand tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Agar ona mehr, tarbiya va hayotiy tajribalar bilan qizning ruhiy va axloqiy rivojlanishiga ta’sir etsa, ota unga ishonch, himoya, mardlik va hayotiy tamoyillarni singdiradi. Quyida qiz tarbiyasida otaning o‘rni yosh bosqichlari bo‘yicha bayon etiladi.

Oila muhitida qizlar tarbiyasida gender yondashuvining asosiy maqsadi — qizlarni o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishga undash va ularga har tomonlama erkinlik berishdir. Ota-onalar va jamiyatning mas’uliyatida ular uchun teng imkoniyatlar yaratish, stereotiplarni yengish va shaxsiy erkinlikni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Gender tengligi faqat o‘g‘il va qizlarning teng huquqlarini ta’minlash emas, balki bu holat jamiyatni rivojlantirish, barqaror va adolatli bo‘lishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 . Abdurauf Fitrat/ Tanlangan asarlar - Toshkent „Ma’naviyat” - 2006.
2 . Karimova Madina Botirjonovna / O‘zbek ayollari turmush tarzida islom dini (Farg‘ona vodiysi misolida) - Toshkent- „Nurafshon business” / 2022.
3 . A.Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud ahlok”, Toshkent – 1992
4. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T:1996.
5. K.Hoshimov, S.Nishonova “Pedagogika tarixi”, T:1996,
6. A.Avloniy, tanlangan asarlar, 2-jild, T:1998,
7. N.Mustafoeva. “Ayol yuksaltirur basharni”. “Tafakkur” jurnali, 1999,.
8. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi 2019 yil 3 maydagi PK-4307-son karori ijrosini ta’minlash maqsadida 2019 yil 31 dekabr.
9.Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue
10. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
11. Sulaymonov, J.Karimov N.Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring
Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019.
12. Sulaymonov J.B. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar//Falsafa va huquq jurnali. 2019 yil 1-soni.

O‘ZBEK MUMTOZ SHOIRALARINING ILMIY MEROSI ASOSIDA XOTIN-QIZLARNI E’TIROF ETILISHI

Usmonova Shaxlo Anvar qizi
Navoiy davlat universiteti,
O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mumtoz shoiralarimizning ilmiy asarlarida ayolni e’zozlash, ayolga ehtirom ko‘rsatish olijanob qadriyat ekanligi e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar. Temuriylar sulolasi, To‘maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodirabegim, Uvaysiy, ayol nafosati va nazokati, vafo va sadoqati, aql-zakovati, fahm-farosati, nafosat va nazokati, avlodlar zanjiri.

Аннотация. В этой статье признается, что уважение к женщине, уважение к женщине-благородная ценность в научных трудах наших поэтов-классиков.

Ключевые слова. Династия тимуридов, Томарис, Бибиханым, Гульбаданбегим, Зебунисо, Надирабегим, Увайсий, женская элегантность и женственность, верность и верность, интеллект, проницательность, изысканность и женственность, цепь поколений.

Annotation. In this article, in the scientific works of our classical poets, it is recognized that the veneration of a woman and the veneration of a woman is a noble value.

Keywords. Timurid dynasty, Toomaris, Bibikhonim, Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodirabegim, Uvaysi, female elegance and femininity, fidelity and loyalty, intelligence, insight, elegance and femininity, chain of generations.

Ayolning jamiyatdagi mavqei haqida so‘z ketganda, xalqimizning buyuk tarixida o‘zining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan o‘chmas nom qoldirgan To‘maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebuniso, Nodirabegim, Uvaysiy kabi buyuk siymolar hamisha ehtirom bilan tilga olinadi.

Ularning hayot yo‘li, dunyoqarashi, mavqei asrlar davomida yurtimiz ayollarining chinakam timsoli bo‘lib kelyapti. Ayol zotiga ta’rifu tavsif keltirilganida, eng avvalo hayolimizga Temuriylar sulolasining muhim malikalaridan sanalgan aql zakovat va fikrlash doirasi kengligi bilan tarixda nom qoldirgan malikai oliya Saroymulkxonim (Bibixonim) keladi, albatta.

Bibixonim Sharq ayolining buyuk timsoli, mohir jamoat arbobi sifatida, ham ma’naviy hayotimizda chuqur iz qoldirgan.

Hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, ayolning nafosati va nazokati, vafo va sadoqati, aql-zakovati va fidoyiligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot abadiyligiga asos bo‘lib keladi. Shu bois, ayolni e’zozlash, ayolga ehtirom ko‘rsatish xalqimizga xos bo‘lgan olijanob qadriyat hisoblanadi. Ayniqsa, yurtimizda aziz ayollarning sog‘lom zurriyod, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi o‘rni va xizmatini munosib qadrlash, ularga eng yaxshi sharoitlarni yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ayol olam bezagi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi ham. Bu an’ana ayollarning jamiyatdagi salohiyati yuksalishiga, iste’dodi va insoniy fazilatlarining namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Ayol ma’naviyati – bu hayot ziynatidir. Shunday ekan, zamonaviy ayollar faqat buguni bilan emas, balki o‘tmishda o‘tgan ayollarning ma’naviy qiyofasini o‘rganib, kelajak ayollarga o‘rnak bo‘la oladigan ayol bo‘lishi kerak. Bugungi kunimizda Bibixonimdek aql-zakovati, fahm-farosati bilan kelajak poydevorini qurishga hissa qo‘shayotgan, o‘zining samarali mehnati

bilan kasbidan baraka va kamol topib, ayni paytda o‘zbek ayoliga xos iffat, or-nomusini saqlab, mehr-oqibatga rioya qilayotgan ayollarimiz jamiyat sarchashmasiga aylanishi bejiz emas.

Xalqning baxtli taqdiri uchun kurash mavzusi xususan, o‘rta asrlar adabiyotida ham chuqur ma’no kasb etdi. O‘zbek shoiralari ijodini o‘rganish, ular qoldirgan merosning to‘la nashrlarini tayyorlash keying 15-20 yil ichida muhim qadamlar qo‘yilganligi diqqatga sazovordir.

Insoniyat badiiy tafakkurining ibtidosi inson va uning insoniylik huquqi haqida so‘z boshlaydigan bo‘lsak, haqiqiy insonparvarlik, ozod mehnat, chinakam demokratiya, haqiqiy shaxs ozodligi, eng ilg‘or fan va madaniyat adolatli jamiyatdagina qaror topadi. O‘zbek shoiralari adabiyotda uzoq asrlar davomida kuylanib kelingan ushbu mavzuni rivojlantiribgina qolmasdan, uning ayollar dunyosiga xos yangi aspektlarini kashf etdilar. Bu hol ular ayolning samimiy muhabbatini kuylashda, ayol qalbining eng nozik xis-tuyg‘ularini ayol tili bilan ifodalashda, uning qadr-qimmatini yerga urib kelgan kuchlar: shayx, zohid, muttasiblarga va shariatning nihoyatda mahdud qoidalariga qarshi norozilik bilan chiqishlarida o‘z ifodasini topgan. Ayollarning ilm ahlidan bo‘lishiga bo‘lgan intilishlari mumtoz shoiralar tashkil etgan maktablar misolida ko‘rish mumkin. Uvaysiy, Nodira, Dilshod otinlar ilmga chanqoq ayollarga ta’lim berish bilan birga, ularni birdamlikka, tenglikka chorlagan.

Mamlakatimizda ayolga bo‘lgan munosabat o‘z tarixiy ildizlariga ega. Bu bejiz emas. Sababi ayol — oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki. Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq.

Ayol bor jamiyatda, oilada, ijtimoiy muhitda tinchlik-totuvlik, osoyishtalik, ezgulik, tadbirkorlik, saranjom-sarishtalik, sabr-qanoat, mehr-oqibat, insonga xos moddiy va ma’naviy saxovat bo‘ladi.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishi lozim. Zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, deb bejiz aytmagan.

Uchinchi Renessansga erishish yo‘lida xotin-qizlarni yanada bilimli, ma’rifatli qilish eng asosiy vazifalardan biridir. Ma’rifatli ayol jamiyatning taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi. Chunki aynan u bolalarni tarbiyalaydi va ongi, dunyoqarashi, bilim darajasini shakllantiradi. Qiz bola oliy ma’lumotli bo‘lsa, yuksak bilim va salohiyat egasiga aylansa, buni kelgusida farzandlariga ham singdiradi. Har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas’uliyat bilan yondashadi. Chunki ayolga tabiatan avlodlar zanjirini davom ettirish va millatning qadrini ko‘taradigan farzandlarni tarbiyalashdek ulug‘ vazifa yuklangan.

Xulosa qilganda ayol kishining ilm bilan shug‘ullanishi, ziyoli bo‘lishi uning oilasi, farzandlari madaniyatli bo‘lishiga zamin yaratadi. Shu bois, davlatimiz aynan xotin-qizlarning ilmli, ma’rifatli, madaniyatli bo‘lishiga katta e’tibor qaratmoqa.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Fayziyev T. Temuriy malikalar. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
2. Uvaysiy, Maxzuna va Nodira sherlar. T UzSSR davlat badiiy adabiyot nashri 1958.

3. Jalolov T. O‘zbek shoirlari. 1- kitob (XVII asrdan oktabr inqilobigacha). II nashr. T., badiiy adabiyot nashriyoti 1970.
4. Jalolov T. O‘zbek shoirlari. 1- kitob . T., Badiiy adabiyot nashriyoti 1980.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA XOTIN-QIZLARNING INTELEKTUAL SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

Sharopova Diyora
NavDU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va Huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonining xotin-qizlar intelektual rivojlanishiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilib berilgan. Zamonaviy ta’lim tizimi, raqamli texnalogiyalar, startap ekotizimi yetakchilik dastirlarining xotin-qizlar uchun yaratayotgan imkoniyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, feminizm, gender, tenglik, zamonaviy ta’lim metodlari, ayollarning ilm-fan va tadbirkorlik sohasidagi faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ilmiy aks ettirilgan.

Аннотация: В данной статье научно анализируется влияние процесса глобализации на интеллектуальное развитие женщин. Современная система образования, цифровые технологии, экосистема стартапов и программы лидерства открывают возможности для женщин. Научно отражены также феминизм, гендер, равенство, современные методы образования, меры, направленные на повышение активности женщин в сфере науки и предпринимательства.

Annotation. This article scientifically analyzes the impact of globalization on the intellectual development of women. The opportunities created for women by the modern education system, digital technologies, and the startup ecosystem for leadership are widely covered. Feminism, gender, equality, modern educational methods, and measures aimed at increasing the activity of women in the field of science and entrepreneurship are also scientifically reflected.

Globallashuv jarayaoni bugungi dunyoning barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiy, ilmiy va texnologik jadal rivojlanish olib kelmoqda. Bu jarayonda xotin-qizlarning intellektual salohiyatini oshirish nafaqat gender tenglikni ta’minlash, balki jamiyatning barqaror taraqqiyotiga erishish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix tajribasi bizga ma’lumki feminizm tushunchasida ayollarga nisbatan kamsitilishlarni bartaraf etish, jamiyatning barcha sohalarida ayollar huquqlari harakatini tushuntiruvchi atama bo‘lib, uning maqsadi ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy atama sifatida izohlanadi. Jamiyatning barcha sohalarida ayollar huquqlari XVIII asrdan Yevropa, Amerika qitalarida birmuncha shakllana boshladi. Jumladan, dastlabki feministik qarashlarni tadqiq etgan Meri Uollstounkraftning 1792-yilda chop etilgan “Ayollar huquqini himoya qilish” asari alohida ilmiy ijtimoiy tadqiqotning dastlabki ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Jumladan, “ayollar-sivilizatsiyaning barcha kamchiliklarini o‘z zimmasiga olib, foydali ne’matlarni boshqalarga berishdi”24. Natijada, Amerika xalqlarida ham xotin-qizlarning feministik huquqlari uchun kurash birmuncha kengayib bordi. Albatta bunday demokratik tenglik uchun kurash keyinchalik qonuniy kafolatlanib bordi. Faqatgina XX asr boshlaridan

[24] Woollsionecroft M.A. Vindication of the Reghts of Women. Harmondsworth, 1985, P.67.

kapitalistik taraqqiyotning kengayib borishi davlatchilik boshqaruv sohasidagi o‘zgarishlar natijasida ijtimoiy tenghuquqlilikning taraqqiyot modeli liberal-feminizmning ta’sir doirasini kengaytirib yubordi.

O‘zbekiston mustaqilikka erishgach, davlat tomonidan mehnat bozoridagi vaziyat barqarorligi va aholi bandligini ta’minlash uchun ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida respublikada ish o‘rinlari yaratishga harakat qilingani bilan mustaqillikning dastlabki yillaridan iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va boshqa omillar mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi unga talabdan yuqori bo‘lishiga olib keldi. Belgilangan vazifalar qatorida mahalliy xomashyodan har tomonlama foydalanish va aholining ish bilan band bo‘lmagan qismini ishlab chiqarishga jalb etish barobarida xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ayollar tadbirkorligiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish jarayonlariga alohida e’tibor qaratildi.

Yurtimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, ularning sog‘lig‘ini mustahkamlash hamda munosib mehnat va turmush sharoitini yaratish, onalik va bolalikni himoyalash, oila institutini mustahkamlash va boshqa bir qator masalalarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-may PQ-2996-son “Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 28-noyabr PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 30-dekabr PQ-77-son “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2020-yil 26-mart PF-5975-son “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘jallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda qabul qilingan Farmon va qarorlarga muvofiq keng ko‘lamda ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning qobiliyatini, iste’dodini ro‘yobga chiqarish orqali oila hamda jamiyatdagi mavqeini yuksaltirishga katta e’tibor qaratilib kelinayotgani bois bugungi kunda barcha sohalarda faol ayollar o‘z o‘rnini topib bormoqda. Darhaqiqat, ayolni ulug‘lash, xotin-qizlarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, ularning davlat qurilishidagi ishtirokini ta’minlash siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish, nihoyatda muhim tamoyildir. Xotin-qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo‘q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi kuchli omillardan biridir. Ayollar va erkaklar huquqlari tengligi mamlakatimizning asosiy qonuni–O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida mustahkamlangan. Bosh Qomusimizning 19-moddasida

ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdirlar25. 58-moddada aytilganidek, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuninigdek jamiyat va davlat hayotining boshqa masalalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi26.

Xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yurtimizda xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o‘rni va ta’sirini oshirish, ularning hayotiy manfaatlarini yanada keng ta’minlash kabi ezgu maqsadlarga xizmat qiladi27. O‘zbekistonda davlatning ham ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-intelektual hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir vaqtda gender tenglik ya’ni ayollar va erkaklarning teng huquqliligini tashkil etish ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, “gender” atamasining ma’nosi nima?

Gender atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan bo‘lib, “jins” ma’nosini bildiradi. Gender tenglikni ta’minlash maqsadida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 29-avgustda ma’qullangan hamda 2019-yil 2-sentabrda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida’gi qonuni qabul qilinishi ham bejizga emas. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohalarida ayollarning faolligi ortgan davlatlarda iqtisodiy rivojlanish sur’atlari yuqori bo‘ladi. Xotin-qizlarning ta’lim olish va kasbiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish global darajada muhim masala hisoblanadi. Jahon banki va BMT ma’lumotlariga ko‘ra, ta’lim olgan ayollar jamiyatning har xil sohalarida katta yutuqlarga erishib, iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda ham xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirmoqda. Yurtboshimiz qarorlari asosida ayollar, xotin-qizlar uchun maxsus grantlar, stipendiyalar va yetakchilik dasturlari yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda jamiyatimizda xotin-qizlarning intelektual salohiyatini oshirish bo‘yicha bir qator yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ulardan biri raqamli ta’lim va onlayn ta’lim imkoniyatlaridir. Zamonaviy texnologiyalar xotin-qizlarning bilim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Jumladan; Coursera, Udemy, Edx, Khan Academy kabi platformalar orqali ayolar dunyoning istalgan nuqtasidan turib ta’lim olish imkoniyatiga ega. O‘zbekistonda ham ayollarimiz, xotin-qizlarimiz uchun “Ayollar akademiyasi”, “Qizlar akademiyasi” singari onlayn ta’lim platformalari rivojlanmoqda. Bundan tashqari, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligimi oshirishda turli xil tanlovlar, nominatsiyalar va tashkil etilayotgan loyihalarning roli beqiyosdir. Misol uchun

[25] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston. 2023. – B.13.
[26] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston. 2023. – B.36.
[27] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichlarga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017. –B. 351.

O‘zbekistonda o‘zbek xotin-qizlari uchun “Hunarmand” uyushmasi tashkil etilib, barcha viloyat va tumanlarda uyushmaning boshqarma va bo‘limlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ayollarimiz o‘rtasida turli xil ko‘rik tanlovlar o‘tkazilib kelinmoqda natijada, jamiyatda ularning faolligini ortib borishi, o‘zlarining yanayam ko‘proq iqtidorlarini namoyon eta boshladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda gender tenglikka erishishda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini yanada kuchaytirish, shu orqali oilani mustahkamlash, yuqori intelektual darajadagi yosh avlodni voyaga yetkazish, jamiyat barqarorligini ta’minlashning garovidir.

OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABA-QIZLARINI IJTIMOIY HIMOYALASHNING ZARURATI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna
NDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD
Eshmirzayeva Mohichehra Ikrom qizi
NDU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Respublikamiz taraqqiyoti yangi bosqichida erishilgan natijalarning asosiy omili inson va uning manfaatlari bilan bevosita bog‘liq. Shu bois inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoiti yaratish, adolatli huquqiy davlat barpo etish demokratik islohotlarning bosh maqsadiga aylangan.

So‘nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo‘nalishlari sifatida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish; ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta’minlash; ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og‘ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish; aholining ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish; xavf guruhlariga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish orqali ularning og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish belgilangan28.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-sonli Farmonida ayollarni zo‘ravonlik va jinsiy zo‘ravonlik ta’qibidan himoya qilishda professional yordam ko‘rsatishni tashkil etish hamda zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollarni qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan boshpana (shelter) va reabilitatsiya markazlari ishini tashkil qilish kabi vazifalar belgilangan.

So‘nggi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilayotir - deydi Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik

[28] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-sonli Farmoni

masalalari qo‘mitasi raisi Malika Qodirxonova. Zero, biz uzoq vaqt ayollar masalasi haqida ko‘p gapirsak-da, amaliy ishlar deyarli sezilmasdi. Opa-singillarimizning dardu tashvishiga beparvo qarab kelganimiz tufayli yillar davomida ko‘plab ijtimoiy muammolar to‘planib qolgan edi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha so‘nggi yillarda tizimli ishlar qilindi. 2020-yildan ijtimoiy himoyaga muhtoj oila qizlariga oliy ta’limga o‘qishga kirish uchun 4 foiz kvota joriy etildi. 2022/2023-o‘quv yilidan oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda o‘qiyotgan xotin-qizlarning ta’lim kontraktini to‘lash uchun foizsiz ta’lim kreditlari berish boshlandi. Magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlar shartnoma to‘lovlarini davlat tomonidan qoplash tartibi belgilandi. Ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba qizlarning ta’lim shartnomalarini mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplash tartibi joriy qilindi. Aliment jamg‘armasi tashkil etilib, jamg‘armadan aliment to‘lovlari qoplab berilayotgani ham diqqatga sazovor.

Ma’lumki, pedagogika oliy o‘quv yurtlarining aksariyat talabalari xotin-qizlarni tashkil etadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda (2024 yil mart oyi holatiga asosan) 213 ta oliygohda 1 million 300 mingdan oshiq talabalar tahsil oladi. Ularning 48% ni qizlar tashkil etadi. Bular orasida kam ta’minlangan oila farzandi, uy bekasi, xomilador ayol, ona, kelin kabi maqomlarga ega bo‘lgan talaba-qizlar mavjud.

Oilaviy hayot tashvishlari bilan ta’limni parallel olib borishda bu toifadagi talabalar turli stressli holatlarga hamda ziddiyatli vaziyatlarga duch keladi. Bu holat va vaziyatlarni oson yengib o‘tishiga oliy ta’lim muassasasining qaysidir ma’noda ko‘magi talaba-qizlar uchun muhimdir. Shularni inobatga olib, talaba-qizlar uchun “Talaba-qizlarni ijtimoiy himoyalash” loyihasi doirasida amaliy faoliyatni yo‘lga qo‘yish yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda oz bo‘lsada o‘z ahamiyatini ko‘rsatadi.

“Talaba-qizlarni ijtimoiy himoyalash” loyihasining maqsadi-ijtimoiy muammolarga duch kelgan talaba-qizlar uchun samarali ijtimoiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishdir.

Loyiha ishtirokchilari:

OTM talaba-qizlari va professor o‘qituvchilar;

Ijtimoiy himoya organlari va mahalliy hokimiyat;

Homiylar va xayriya tashkilotlari;

Psixologlar va ijtimoiy pedagoglar;

Yoshlar ittifoqi.

“Talaba-qizlarni ijtimoiy himoyalash” loyihasining vazifalari:

Talabalarning asosiy ijtimoiy muammolarini aniqlash;

Pedagogik va psixologik yordamning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

Talaba-qizlar o‘rtasida mentorlik va psixologik yordam tizimini joriy etish;

Pedagoglar, psixologlar va jamiyat vakillarining hamkorligini mustahkamlash.

“Talaba-qizlarni ijtimoiy himoyalash” loyihasining tadqiqot usullari:

Anketa va anonim so‘rovnomalar (talaba-qizlar orasida muammolarni aniqlash maqsadida);

Intervyu (pedagog va psixologlarning fikrlarini o‘rganish maqsadida);

Eksperimental (talaba-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash modelini sinovdan o‘tkazish uchun);

Statistik tahlil – natijalarini baholash va xulosa chiqarish uchun.

Ushbu loyihani amalga oshirishda ijtimoiy himoyaga muhtoj talaba-qizlarga ham pedagogik, ham psixologik yordam berish tizimi olib boriladi.

Psixologik yordam tizimiga:

Psixologik maslahat markazlari (OTMda bepul maslahat markazlarini tashkil etish);

Stressni yengish va emotsional muvozanatni saqlashga doir kouch-treninglar (qizlarga o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish;

Motivatsion dasturlar (uchrashuvlar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali qizlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish).

Pedagogik yordam tizimiga:

Innovatsion ta’lim metodlari;

Mentorlik;

Suhbatlar olib borish kabilardan iborat.

Shuningdek, ushbu loyihani amalga oshrishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

“Talaba mentor” tizimi tashkil etilib, tajribali talabalar yangi kelgan yoki qiyinchiliklarga duch kelgan talabalarni qo‘llab-quvvatlaydi;

Hayotga moslashuv treninglari o‘tkaziladi, ya’ni stressni kamaytirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar olib boriladi;

Psixologik maslahat xonalari tashkil etilib, maxsus mutaxassislar talabalar bilan individual ishlaydi;

Ijtimoiy stependiyalar joriy etilib, muhtoj talaba-qizlar uchun moliyaviy yordam mexanizmi kuchaytiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, ushbu loyiha orqali talaba-qizlarga pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bir qancha yechimlarni yechish mumkindir.

TA’LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING INNOVATSION LOYIHALARDA ISHTIROKINI OSHIRISH

Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Ta’lim tizimida xotin-qizlarning innovatsion loyihalarda ishtirokini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Innovatsion faoliyat jamiyat rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, unda barcha ijtimoiy qatlamlarning faol ishtiroki zarurdir. Xotin-qizlarning innovatsion jarayonlarda to‘laqonli ishtirokini ta’minlash orqali ta’lim tizimi yanada samarali va teng imkoniyatli bo‘lishi mumkin.

Innovatsion loyihalarda xotin-qizlarning ishtirokini oshirishda gender tenglikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimi gender sezgirlikka ega bo‘lishi lozim, chunki bu nafaqat xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, balki ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlarning STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo‘nalishlariga jalb qilinishi ularga iqtisodiyotning yuqori texnologiyali sohalarida o‘z o‘rnini topishga yordam beradi.

Biroq, innovatsion loyihalarda xotin-qizlarning ishtirokiga to‘siq bo‘layotgan bir qancha omillar mavjud.

Jumladan, ijtimoiy stereotiplar va gender kamsitish, ta’lim tizimida yetarli rag‘batlarning yo‘qligi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi xotin-qizlarning faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim dasturlarini takomillashtirish, xotin-qizlar uchun maxsus grantlar va stipendiyalar ajratish, shuningdek, mentorlik tizimini joriy etish zarur.

Jahonda barcha darajadagi boshqaruv tizimida xotin-qizlar faolligini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari masalalari hozirgi innovatsion, raqamli texnologiyalar davrida eng muhim dolzarb muammolardan biriga aylandi. Xotin-qizlarning ish bilan bandligi darajasi global miqyosda kamayish tendensiyasiga ega. Jahon miqyosida ayollarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari erkaklarnikidan 27 foizga past. Ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq ishsiz bo‘lib, global ishsizlik erkaklar uchun 5,5 foizga, ayollar uchun 6,2 foizga teng [1].

Ta’lim tizimida xotin-qizlarning innovatsion loyihalarda ishtirokini oshirish uchun ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus kurslar va laboratoriyalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, masofaviy ta’lim va raqamli texnologiyalar orqali ayollar uchun qulay o‘quv muhitini yaratish ham muhimdir. Bu nafaqat ayollarning innovatsion jarayonlarga jalb qilinishini rag‘batlantiradi, balki ularga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarning innovatsion loyihalardagi ishtirokini oshirish bo‘yicha qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezident farmonlari va qarorlari asosida gender tengligini ta’minlash va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir dasturlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim muassasalarida innovatsion markazlar va laboratoriyalar tashkil etilmoqda. Shuningdek, hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan ayollarni innovatsion faoliyatga jalb qilishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Korxonalarda innovatsion ishlanmalarni joriy etilishi uchun ilmiy tashkilotlar, universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilib ularning faoliyatini rag‘batlantirilishi va yaratilgan innovatsiyalar uchun mablag‘lar ajratilishi lozim, bu esa ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim sifati va mutaxassislarning malakasini oshirishga turtki bo‘ladi.[2]

Ta’lim vazirligi tomonidan xotin-qizlar uchun maxsus grant dasturlari joriy etilib, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlar va xotin-qizlar uchun IT yo‘nalishidagi maxsus o‘quv markazlari ochilishi

ham ushbu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Masalan, "One Million Uzbek Coders" dasturi doirasida ayollarning texnologiyalar sohasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan treninglar tashkil qilinmoqda. Bundan tashqari, qishloq joylarda yashovchi xotin-qizlarni innovatsion loyihalarga jalb qilish uchun masofaviy ta’lim platformalari va resurslari yaratilmoqda.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasida ham gender tengligi samarali iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Shu maqsadda mamlakatimizda xotin-qizlarning o‘z intilishi va qobiliyatlarini to‘laqonli ruyobga chiqarish uchun yanada qulay shart-sharoitlar ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Ayollarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning ish bilan bandligini ta’minlashda gender munosabatlari bo‘yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, bandlik dasturlarini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlarni kengaytirish kabi masalalarga alohida e’tibor berilmoqda.

Lekin mehnat munosabatlarida gender stereotiplarining markaziy o‘ringa chiqayotganligi iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarda sezilarli muammolar kuzatilayotgani hech kimga sir emas. Ayollarning ish bilan bandligi darajasi global miqyosda kamayish tendensiyasiga ega. Jahon miqyosida ayollarning mehnat bozoriga kirish imkoniyatlari erkaklarnikidan 27 foizga past. Ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq ishsiz bo‘lib, global ishsizlik erkaklar uchun 5,5 foizga, ayollar uchun 6,2 foizga teng [3].

Bu esa xotin-qizlarning bandlik darajasini tarmoqlar bo‘yicha kengaytirish, mehnat munosabatlarida gender tengligi darajasiga erishish bo‘yicha alohida yondashuv talab qiladi. Mazkur muammoni ijrosi esa bevosita bir qator iqtisodiy, tashkiliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga asos bo‘lmoqda. Xalqaro Iqtisodiy forum Global Gender Gap Index reytingini e’lon qildi. “Umumiy hisobda olganda butun dunyoda parlamentning to‘rtdan bir qismini ayollar egallamoqda (25,2 foiz) va vazirliklardagi lavozimlarning beshdan biri (21,2 foiz) ayollar qo‘lida. Gender tengligi masalalarida eng tolerant davlatlar bu - Shimoliy Yevropa mamlakatlari Islandiya (87,7 foiz), Norvegiya (84,2 foiz), Finlandiya (83,2 foiz) va Shvesiya (82,0 foiz). Top-10 ro‘yxatdan Nikaragua (80,4 foiz), Yangi Zelandiya (79,9 foiz), Irlandiya (79,8 foiz), Ispaniya (79,5 foiz), Ruanda (79,1 foiz) va Germaniya (78,7 foiz) o‘rin olgan” [4].

Shuningdek, "Ayollar daftari" loyihasi doirasida qishloq joylarda yashovchi xotin-qizlarning ta’lim va texnologiyalar sohasida rivojlanishiga yordam berish choralari ko‘rilmoqda. Innovatsion faoliyatga ayollarni kengroq jalb etish uchun davlat tomonidan turli grantlar, kreditlar va subsidiyalar ajratilmoqda. Gender tengligini ta’minlash bo‘yicha milliy strategiya qabul qilingan bo‘lib, unda xotin-qizlarning ta’lim va ilmiy faoliyatda ishtirokini kengaytirish maqsadlari belgilangan.

Navoiy viloyatida ta’lim tizimida xotin-qizlarning innovatsion loyihalardagi ishtirokini oshirish bo‘yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyatdagi kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy laboratoriyalar va innovatsion markazlar tashkil etilib, ularda ayollarning faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, viloyatda IT yo‘nalishida maxsus o‘quv dasturlari va treninglar o‘tkazilmoqda, bu esa xotin-qizlarning texnologiyalar

sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, qishloq joylarda yashovchi ayollarni innovatsion faoliyatga jalb etish maqsadida masofaviy ta’lim tizimlari joriy etilgan.

Navoiy viloyati hokimligi va ta’lim boshqarmasi tomonidan "Ayollar daftari" loyihasi doirasida yosh qizlarni ilm-fan va texnologiyalar sohasida qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus grant va stipendiyalar taqdim etilmoqda. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda viloyatda ayollarning innovatsion loyihalarda ishtirokini oshirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda o‘tkazilayotgan trening va seminarlarda qishloq joylardan kelgan xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy viloyatida xotin-qizlarning innovatsion loyihalardagi ishtirokini oshirish uchun ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va xalqaro hamkorlar birgalikda harakat qilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar xotin-qizlarning ta’lim va texnologiyalar sohasidagi faolligini oshirishga xizmat qilib, jamiyat rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

TAKLIF VA XULOSALAR

Innovatsion loyihalar uchun davlat va xususiy sektor tomonidan maxsus grant va stipendiyalar ajratilib, xotin-qizlarning ilmiy va texnologik sohalarga jalb qilinishini rag‘batlantirish.

Ta’lim muassasalarida xotin-qizlar uchun tadbirkorlik va innovatsion loyiha boshqaruvi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilish.

Tajribali olimlar, tadbirkorlar va innovatsion loyiha rahbarlari orasidan xotin-qizlar uchun mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish.

Universitet va o‘quv markazlarida xotin-qizlar uchun maxsus innovatsion markaz va laboratoriyalar tashkil qilish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash.

Innovatsion sohada yutuqlarga erishgan xotin-qizlarning muvaffaqiyat hikoyalarini keng yoritish, ularning tajribasini yosh avlodga yetkazish.

Xotin-qizlar uchun moslashuvchan ish va o‘qish grafiklarini ta’minlash, ularni oilaviy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini yaratish.

Xotin-qizlarning innovatsion loyihalarda ishtirokini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va grantlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Xotin-qizlar uchun axborot texnologiyalari va dasturlash bo‘yicha bepul treninglar tashkil qilish.

Xotin-qizlar innovatsion loyihalarda ishtirok etganda, loyiha jamoalarida xilma-xillik oshadi, bu esa ko‘pincha innovatsiyalar sifati va samaradorligini kuchaytiradi.

Innovatsion sohada faol bo‘lgan xotin-qizlar jamiyatning qaror qabul qilish jarayonlarida faolroq ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ayollarning innovatsion loyihalardagi ishtiroki ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi o‘rnini mustahkamlab, barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Innovatsion sohada muvaffaqiyatga erishgan xotin-qizlar yosh avlod uchun namunali rol model bo‘lib, ularni yangi yutuqlarga ilhomlantiradi.

Ushbu taklif va xulosalarni amalga oshirish ta’lim tizimida xotin-qizlarning ishtirokini oshirish bilan birga, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma’lumotlari. http://www.oecd.org.; http://www.intracen.org.
2. “RAQAMLI IQTISODIYOT” ILMIY-ELEKTRON JURNALI 9-SON WWW.INFOCOM.UZ
3. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma’lumotlari. http://www.oecd.org.; http://www.intracen.org.
4. Maxmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Yunaks-print”. 2005 y. B. 17.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIK ASOSIDA SPORTCHI TALABA QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI

Rahmatova Zuhra Aminjon qizi
Navoiy davlat universiteti
“San’at va sport” fakulteti 2 kurs rus guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: p.f.b.f.d.(PhD), v.b. professor S.A.Axmedova

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash orqali sportchi talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi yoritiladi. Gender tenglik tamoyillari asosida qizlarni sportga jalb qilish, ularga mos sharoit yaratish va rag‘batlantirishning usullari muhokama qilinadi. Shuningdek, sportchi qizlarning duch keladigan muammolari va ularni hal qilish yo‘llari haqida tavsiyalar berilgan. Maqola sportchi talaba qizlarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, sportchi talaba qizlar, oliy ta'lim tizimi, ijtimoiy faollik, rag‘batlantirish, sport infratuzilmasi, ayol sportchilar.

Аннотация: В данной статье освещается вопрос повышения социальной активности студентов-спортсменов путем обеспечения гендерного равенства в системе высшего образования. На основе принципов гендерного равенства обсуждаются методы привлечения девушек к занятиям спортом, создания подходящих условий и поощрения их. Также даются рекомендации о проблемах, с которыми сталкиваются спортсменки, и путях их решения. Статья служит укреплению не только физического развития студентов-спортсменов, но и их положения в обществе.

Ключевые слова: гендерное равенство, студенты-спортсмены, система высшего образования, социальная активность, мотивация, спортивная инфраструктура, спортсменки.

Annotation: This article discusses the issue of increasing the social activity of female student athletes by ensuring gender equality in the higher education system. Methods of attracting girls to sports, creating suitable conditions for them and encouraging them are discussed based on the principles of gender equality. Recommendations are also given about the problems faced by female athletes and ways to solve them. The article serves to strengthen not only the physical development of female student athletes, but also their position in society.

Key words: Gender equality, female student athletes, higher education system, social activity, encouragement, sports infrastructure, female athletes.

Gender tenglik bugungi kunda jamiyatning barcha jabhalarida muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Xususan, oliy ta'lim tizimida talaba qizlarning sport sohasidagi faolligini oshirish gender tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada sportchi talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishning usullari, muammo va yechimlari haqida so‘z yuritiladi.

Gender tenglik - bu erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan tamoyil bo‘lib, oliy ta'lim muassasalarida ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratilmoqda. Sport sohasida qizlarning faolligini oshirish nafaqat ularning jismoniy salomatligini yaxshilaydi, balki ijtimoiy faolligini ham kuchaytiradi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlansa, Olimpiya o‘yinlari va boshqa xalqaro musobaqalarda ayol sportchilarning ishtiroki ortib bormoqda. Masalan, so‘nggi Yozgi Olimpiya o‘yinlarida ayol sportchilarning ulushi 49%ni tashkil etdi. Bu gender tenglik tamoyillarining sportda ijobiy natijalar berayotganini ko‘rsatadi.

Oliy ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash uchun quyidagi qadamlar muhim hisoblanadi:

- Sport sohasida qizlarning ishtirokini rag‘batlantirish dasturlarini ishlab chiqish.
- Talaba qizlar uchun jismoniy mashg‘ulotlarga qo‘shimcha vaqt va joy ajratish.
- Sport musobaqalarida gender tenglikni ta'minlash bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalar joriy etish.

Sport bilan shug‘ullanayotgan talaba qizlar quyidagi muammolarga duch kelishadi:

- Gender stereotiplari va ijtimoiy bosim.
- Sport uchun yetarli sharoit va infratuzilmaning yetishmasligi.
- Sport sohasida ayollarga nisbatan noto‘g‘ri qarash va kamsitish holatlari.
- Talaba qizlarning o‘ziga ishonchsizlik hissi va ijtimoiy cheklovlar.

Bu muammolarni hal qilish uchun oliy ta'lim muassasalari quyidagi choralarni amalga oshirishi lozim:

- Gender tenglik bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.
- Talaba qizlarning sportga jalb qilinishini rag‘batlantirish.
- Sport inshootlarini zamonaviy talablar asosida jihozlash va ayollarga mos sharoit yaratish.
- Talaba qizlar uchun murabbiy va sport rahbarlari orasida ayollar sonini oshirish.

Sportchi talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun quyidagi usullar muhim rol o‘ynaydi:

- Sport to‘garaklari va klublarni rivojlantirish: Talaba qizlar uchun maxsus sport to‘garaklari tashkil etish va bu orqali ularning jamoat ishlariga jalb etish mumkin.
- Munosib rag‘bat tizimini yaratish: Faol sportchi qizlarga stipendiyalar, mukofotlar va boshqa moddiy rag‘batlantirish tizimlarini joriy etish.
- Yetakchi sportchi qizlar uchun seminar va treninglar: Talaba qizlarning nafaqat sportda, balki liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan trening va seminarlar o‘tkazish.
- Motivatsion uchrashuvlar tashkil qilish: Oliy ta'lim muassasalarida mashhur ayol sportchilar bilan uchrashuvlar tashkil qilib, talaba qizlarga ilhom berish.

Oliy ta'lim muassasalarida gender tenglikni ta'minlash va talaba qizlarning sportdagi ishtirokini oshirish uchun quyidagi tajribalar amalga oshirilishi mumkin:

- Qizlar uchun maxsus sport festival va musobaqalar tashkil qilish.
- Talaba qizlarning sport sohasida muvaffaqiyatga erishgan ayol sportchilar bilan uchrashuvlarini uyushtirish.
- Oliy ta'lim muassasalari sport infratuzilmasida qizlarga mos qulayliklar yaratish.
- Sportchi qizlar uchun sog‘liqni saqlash va psixologik ko‘mak dasturlarini tashkil qilish.

Sport sohasida gender tenglikni ta'minlash uchun quyidagi xalqaro va mahalliy huquqiy me'yorlarga tayanish muhimdir:

- BMT tomonidan qabul qilingan "Gender tenglik va ayollar huquqlari" rezolyutsiyasi.
- O‘zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi qonuni.
- Ta’lim muassasalarida gender tenglikni ta'minlash bo‘yicha ichki nizom va qoidalar.

Psixologik va motivatsion omillar.

Sportchi talaba qizlarning faolligini oshirishda psixologik va motivatsion omillar muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi jihatlar bunga misol bo‘la oladi:

Ichki motivatsiya: Sportga qiziqish, sog‘lom turmush tarzini olib borish va shaxsiy yutuqlar ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Bu borada talaba qizlarga ruhiy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash: Oila, do‘stlar va murabbiylarning ijobiy munosabati qizlarning sportga jalb qilinishiga turtki bo‘ladi.

Rag‘batlantirish va mukofot tizimi: Sportdagi yutuqlari uchun qizlarni moddiy va ma'naviy rag‘batlantirish ularning motivatsiyasini oshiradi.

Yetakchi rol modellar: Muvaffaqiyatli ayol sportchilarni namuna qilib ko‘rsatish qizlarning sportda faol bo‘lishiga ilhom bag‘ishlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta'lim tizimida gender tenglik asosida sportchi talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun ko‘plab tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu nafaqat qizlarning jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularning jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida sportchi qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga munosib sharoit yaratish orqali gender tenglik tamoyillariga mos rivojlanish yo‘lida muhim qadam qo‘yiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. BMT "Gender tenglik va ayollar huquqlari" rezolyutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida"gi qonuni.
3. Qodirova G. "Oliy ta'lim tizimida gender tenglik va sport". Toshkent, 2022.
4. Karimov A. "Talaba qizlarning sportdagi faolligi va muammo tahlili". Samarqand, 2021.
5. Johnson S. "Women in Sports and Social Engagement". New York, 2019.

OLIY TA’LIM MUASSALARIDA TEATR PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TALABALAR KASPIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Nurova Rohila Ismoil qizi
Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida teatr pedagogikasi vositasida talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi tahlil etilgan. Teatr pedagogikasi interfaol ta’lim metodlaridan biri sifatida kasbiy bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiya tayyorlov, interfaol teatr mashg‘ulotlari va refleksiya bosqichlaridan iborat bo‘lib, rolli o‘yinlar, imitatsion mashg‘ulotlar va jamoaviy ijodiy faoliyat orqali talabalar kasbiy mahoratini oshirishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot natijalari teatr pedagogikasining ta’lim jarayonida samaradorligini oshirish va zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: teatr pedagogikasi, kasbiy kompetensiya, interfaol ta’lim, rolli o‘yinlar, imitatsion mashg‘ulotlar, kommunikativ qobiliyat, ijodiy tafakkur, refleksiya, pedagogik texnologiya.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – mehnat bozorida raqobatbardosh, ijodiy fikrlovchi va yuqori kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislar tayyorlashdir. An’anaviy ta’lim metodlari ko‘pincha talabalar nazariy bilimlarni o‘zlashtirishiga qaratilgan bo‘lsa, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda interfaol yondashuvlar, jumladan, teatr pedagogikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Teatr pedagogikasi – bu san’at va ta’limni uyg‘unlashtirgan holda, talabalar kasbiy malakasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayoniga rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan vaziyatlar va ijodiy mashg‘ulotlarni joriy qilish orqali talabalar o‘z kasbiy faoliyatiga yaqin muhitda o‘qish va tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Teatr pedagogikasi – bu ta’lim jarayonida teatr san’ati elementlaridan foydalanish orqali talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu metod nafaqat san’at sohasi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga, balki pedagogika, psixologiya, iqtisod, huquq, menejment kabi turli yo‘nalishlarda ta’lim olayotgan yosh mutaxassislarga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi. Oliy ta’lim muassasalarida teatr pedagogikasi metodlaridan foydalanish talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u interfaol ta’lim jarayonini shakllantirishga xizmat qiladi29. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida teatr pedagogikasi vositasida talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu metodikaning ta’lim jarayonidagi o‘rni, afzalliklari va samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Teatr pedagogikasi asosida ta’lim olish quyidagi afzalliklarga ega:

Nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish – talaba o‘rganayotgan bilimlarini real kasbiy vaziyatlar orqali mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi.

[29] Абдуллаева, Г. Педагогик инновациялар ва интерфаол методлар. Тошкент: Фан ва технология. 2020

Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – sahnalashtirilgan vaziyatlar orqali talabalar muammolarni innovatsion tarzda hal qilishga o‘rganadilar.

Muloqot va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish – teatr o‘yinlari va rolli mashg‘ulotlar talabalar o‘rtasida kommunikatsiya qobiliyatlarini oshiradi.

Emotsional intellektni rivojlantirish – talabalar o‘z hissiyotlarini ifodalash va boshqalar bilan empatiya qilish qobiliyatini shakllantiradilar.

Talabalar kasbiy kompetensiyasini teatr pedagogikasi orqali rivojlantirish texnologiyasi uch bosqichdan iborat:

1-bosqich: Tayyorlov bosqichi

-Talabalarga teatr pedagogikasi metodikasi haqida tushuncha berish.

-Mashg‘ulotlarga ruhiy va psixologik tayyorgarlik ko‘rish.

-Guruhlarga bo‘lish va rollar taqsimoti.

2-bosqich: Interfaol teatr mashg‘ulotlari

Bu bosqichda turli teatr usullaridan foydalanish mumkin:

-Rolli o‘yinlar – talabalarga kasbiy faoliyatga oid rollar berilib, ular ushbu rollarni sahnalashtirilgan vaziyatda bajaradi. Masalan, pedagogika yo‘nalishidagi talabalar dars o‘tish jarayonini jonlantiradi.

-Imitatsion mashg‘ulotlar – talabalar real hayotdagi muammolarni sahnalashtirib, ularni hal qilish yo‘llarini topishga harakat qiladi. Masalan, iqtisod yo‘nalishidagi talabalar ishbilarmonlik uchrashuvini o‘tkazishi mumkin.

-Forum-teatr texnologiyasi – talabalar tomonidan muayyan vaziyat namoyish etiladi va auditoriya bu vaziyat bo‘yicha muhokama olib boradi.

3-bosqich: Refleksiya va tahlil

-O‘yin natijalarini muhokama qilish, xatolar va yutuqlarni tahlil qilish.

-Talabalar o‘zlari ishtirok etgan jarayon bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirishi.

-Kelajakdagi kasbiy rivojlanish uchun shaxsiy reja ishlab chiqish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “teatr pedagogikasi orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradi, balki amaliy tajriba orttirish, muloqot va ijodiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar”30. Teatr pedagogikasi vositasida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish o‘qitish jarayonini yanada jonli, samarali va interfaol qilishga yordam beradi. Bu texnologiya talabalarni nafaqat bilimli, balki zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева, Г. Педагогик инновациялар ва интерфаол методлар. Тошкент: Фан ва технология. 2020

2. Виготский, Л. С. Мышление и речь. Москва: Педагогика. 1982

3. Жонсимбаева, Д. "Театр педагогикаси методлари ва унинг таълим жараёнидаги аҳамияти." Ўзбекистон педагогика журнали, №2, 45-50-бетлар. 2019

4. Шарипов, У. "Олий таълимда ролли ўйинлар орқали касбий малакани ривожлантириш." Илм ва жамият, №3, 67-72-бетлар. 2021

5. Савченко, А. И. Развитие профессиональной компетентности студентов через театральную педагогику. Санкт-Петербург: Наука. 2015

[30] Савченко, А. И. Развитие профессиональной компетентности студентов через театральную педагогику. Санкт-Петербург: Наука. 2015

TALABA YIGIT-QIZLARDA REFLEKSIVLIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Eshpulatova Aziza Alisherovna
Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi doktoranti

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarida zamonaviy ta’limni amalga oshirish maqsadida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligi tarkibini motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlar asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida urg‘u berilmoqda.

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-moddasida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ustuvor vazifalardan etib belgilangan.

Zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan.

Mazkur konsepsiyada xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish hamda oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Sharqining atoqli qomuschi olim va faylasuflari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Burhoniddin Zarnujiy, Abul-Qosim Mahmud az-Zamaxshariyning yoshlarni axloqiy, kasbiy va mehnat tarbiyasini turli jabhalariga bag‘ishlangan vaqt sinovidan o‘tgan qimmatli ma’naviy merosi xozirgi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

O‘zbekistonda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ilmiy dunyoqarashlari, pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish shakllari va usullari, shuningdek, o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyalash, tayyorlash va kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari N.Azizxo‘jayeva, R.Gaynutdinov, R.H.Jo‘rayev, X.I.Ibragimov, J.G‘.Yo‘ldoshev, U.N.Nishonaliyev, M.Ochilov, P.T.Magzumov,

M.G.Davletshin, F.R.Yuzlikayev, N.Muslimov, Sh.Sharipov kabi qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida umumnazariy jihatdan o‘qituvchilar tayyorlash, kasbiy pedagogik faoliyatning mohiyati va mazmuni, shuningdek, o‘qituvchilarini tayyorlash muammolari Yu.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, A.A.Derkach, N.V.Kuzmina, G.V.Muxametzyanova, V.A.Slastenin, N.M.Talanchuk, S.Ya.Batishev, E.F.Zeyer, I.P.Kuzmina va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy davlatlarda OTMlarda ta’lim jarayonini tashkil etish, professor-o‘qituvchilarni oliy ta’limda dars berishga tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini va ta’lim sifatini oshirish masalalari K.Askerc, G.Gibbs, F.Henard, S.Lindblom-Ylänne, J.Odalen kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Har qanday shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi refleksiv jarayon bilan chambarchas bog‘liqdir. Bundan tashqari, rivojlanish nafaqat kasbiy nuqtai-nazardan, balki jismoniy va intellektual jihatdan ham ta’minlanadi. Shuningdek, refleksiv ko‘nikmalarning yuqori darajada o‘zlashtirilishi shaxs nima haqida fikr yuritishi, faoliyatini qanday amalga oshirayotgani va rivojlanish uchun qaysi yo‘nalishda harakat qilishi kerakligini tushunishiga sharoit yarailtadi.

Bugungi kunda talaba-yoshlarda refleksivlikni rivojlantirish masalalari respublikamiz (Ismailov M.K., Usmonova E.Z., Qo‘chqarova F.M.), MDX davlatlari (Aliyeva T.M., Arshava I.F., Rєpina O.G., Bizyayeva A.A., Grebenyuk, O. S., Kananchuk L.A., Kashlev S.S., Kojevnikova M.N., Kraynova Yu.N., Maksimchenko N.P., Morozyuk S.N., Oparina V.N. va boshq.) hamda xorijiy davlatlar (Brandenburg R., Garbett D., Ovens A.P., Thomas L., Clarà M., Mauri T., Colomina R., Onrubia J., Cutrer-Parraga E.A., Miller E.E., Hilman A. Yu.) olimlarining ilmiy va ilmiy-uslubiy tadqiqot ishlari bag‘ishlangan.

Respublikamiz va MDX olimmlarining ilmiy tadqiqot ishlari – bo‘lajak o‘qituvchilarda sanogen refleksivlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, tizimli yondashuv asosida komponentlari aniqlangan, turli nazariy yondashuvlar asosida uni rivojlantirish modellari ishlab chiqilgan.

Xorijiy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra refleksiya – bu fikrlash va xulq-atvor strategiyasini o‘zgartirishning universal mexanizmi bo‘lsa-da u – neytral bo‘lib ijobiy yoki salbiy mohiyatga ega emas. O‘zgarishlarni pozitiv yoki negativ ekanligini insonning o‘zi – o‘z faoliyati natijalari, ehtiyojlari, munosabatlari, qadriyatlari, maqsadlari, shuningdek, muvaffaqiyat yoki mvaffaqiyatsizlik darajalaridan kelib chiqib belgilaydi. Ijobiy natija refleksiv faoliyatning aqliy avtomatizmlariga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Shu sababli xorijiy tadqiqotchilar bo‘lajak o‘qituvchilarda va yosh pedagoglarda refleksivlik ko‘nikmasini shakllantirish masalasiga alohida urg‘u berganlar.

Aksariyati adabiyotlarda asosiy e’tibor individual refleksiyaga qaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotchilar hamkorlikdagi refleksiyani targ‘ib qilganlar. Buning sababi – o‘qituvchilarning o‘rganish salohiyati refleksiv hamkorlik orqali faollashayotganligida, deb hisoblaydi M.Clarà [3].

Y.Jiang va C.Zheng hamkorlikdagi refleksiyani jamoa a'zolari tomonidan ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va ushbu jarayon natijalari orqali birgalikda refleksiya jarayonini amalga oshirish, deb izohlaydilar [4: p. 248].

O'z navbatida, hamkorlikdagi refleksiya muvaffaqiyatli bo'lish uchun individual refleksiyaga qaraganda ko'proq mahorat talab qilishini M.Prilla alohida ta'kidlagan [6].

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrini ma'qullab, S.Katz shunday degan: individual refleksiyani alohida faoliyat bo'lib, uni amalga oshiradigan kishi (hatto tanqidiy pozitsiyani egallagan bo'lsa ham) o'zi kuzatgan harakatlarni tekshirish uchun faqat o'z tafakkuri va tushunchasidan foydalanishi mumkin. Aksincha, hamkorlikdagi refleksiya ma'lumot almashishni, qarshilik va nizolarni yengib o'tishni, individual farqlarni hurmat qilishni, boshqalarning ehtiyojlarini qondirish uchun ta'lim jarayonini rejalashtirishni, ishonch uyg'otishni talab qiladi" [5].

Shunday qilib, talabalarda refleksivlik ko'nikmasini rivojlantirish uchun ushbu fenomenning mexanizmlarini aniqlash, mavjud ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, ta'lim jarayonida talabalarda refleksiyalash ko'nikmasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish hamda ta'lim va malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash kerak bo'ladi.

Talaba yigit-qizlarda refleksivlik ko'nikmasini rivojlanishi ularning ijtimoiy-psixologik va kasbiy adaptatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yengishlarida hamda o'z xulq-atvorlari va o'quv faoliyatlarini tanqidiy baholashlarida yordam beradi.

Ushbu fenomenning rivojlanganlik darajasiga shaxsning jinsi yoki yoshi ta'sir ko'rsatmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // https://lex.uz/docs/3107036

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni /Clarà, M., Mauri, T., Colomina, R., and Onrubia, J. (2019). Supporting collaborative reflection in teacher education: A case study. Eur. J. Teach. Educ. 42, 175–191. doi: 10.1080/02619768.2019.1576626

3. Jiang, Y., and Zheng, C. (2021). New methods to support effective collaborative reflection among kindergarten teachers: An action research approach. Early Child. Educ. J. 49, 247–258. doi: 10.1007/s10643-020-01064-2. 248-б.

4. Katz, S., and Earl, L. (2010). Learning about networked learning communities. Sch. Eff. Sch. Improv. 21, 27–51. doi: 10.1080/09243450903569718

5. Prilla, M., and Renner, B. (2014). "Supporting collaborative reflection at work: A comparative case analysis," in Proceedings of the 18th international conference on supporting group work, (New York, NY: ACM), 182–193.

OLIY TA’LIMDA O‘QIYOTGAN XOTIN-QIZLARNING NUTQIY ETIKETI VA UNING JAMIYATGA TA’SIRI

Abdurahmonova Kamola Erkin qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kakedrasi o‘qituvchisi

Nutqiy etiket – bu shaxsning muloqot jarayonida odob, madaniyat, va til qoidalariga rioya qilib, o‘z fikrini aniq, tushunarli va hurmat doirasida ifoda etishi. Oliy ta’limda o‘qiyotgan xotin-qizlar bu borada jamiyatning ilg‘or qatlamini tashkil etadi, chunki ular nafaqat ilm-fan bilan shug‘ullanadi, balki jamiyatda namuna bo‘luvchi muloqot madaniyatini shakllantiradilar.

Oliy ta’limda o‘qiyotgan xotin-qizlarning nutqiy etiketi – bu ularning turli ijtimoiy va akademik muhitlarda odobli, madaniyatli, va samarali muloqot qilish qobiliyatini ifodalaydi. Nutqiy etiket faqatgina so‘zlash madaniyati emas, balki insonning shaxsiy fazilatlari, axloqiy qadriyatlari va intellektual salohiyatini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. Oliy ta’lim olgan xotin-qizlarning muloqot uslubi nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyatiga, balki kengroq ijtimoiy jarayonlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Muloqot jarayonida hurmat, odob, aniq fikr bildirish va emotsional boshqaruv asosiy rol o‘ynaydi. Bu holat bir necha asosiy jihatlar orqali ko‘rinadi. Rasmiy muloqotda dars jarayonlari, ilmiy anjumanlar, prezentatsiyalar va o‘qituvchilar bilan suhbatda rasmiy, aniq va tushunarli so‘zlardan foydalanish muhim. Odatda “Hurmatli ustoz”, “Sizning fikringizcha…”, “Iloji bo‘lsa, tushuntirib bera olasizmi?” kabi iboralar ishlatiladi. Norasmiy muloqotda do‘stlar, kursdoshlar yoki tanishlar bilan suhbatda erkin, soddaroq tilda muloqot qilinadi. Biroq bunda ham odob doirasidan chiqmaslik kerak. Nutq madaniyati va adabiy til qoidalariga rioya qilishham muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar, ayniqsa, oliy ta’limda o‘qiyotganlar, o‘z nutqlarida grammatik xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka, to‘g‘ri talaffuzga, o‘z fikrini aniq va lo‘nda ifodalashga harakat qilishlari ham nuqtiy etiketning yaqqol namunasidir. Bu nafaqat ilmiy savodxonlikni, balki shaxsiy madaniyatni ham aks ettiradi.

Nutqiy etikening shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar ham mavjud bo‘lib ular quyidalardir.

Oila va tarbiya: Oila madaniyati va tarbiya uslubi nutqiy odobning asosiy manbai hisoblanadi. Ota-onaning so‘zlash uslubi va til boyligi bolaga bevosita ta’sir qiladi. Tilni boy va ravon ishlatadigan oilalarda farzandlarning ham nutqiy qobiliyati yuqori bo‘ladi.

Ta’lim muassasasi: Ta’lim tizimi insonning nutqiy etiketi shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’limdan boshlab, oliy ta’lim darajasigacha bo‘lgan jarayonlar shaxsning muloqot madaniyatini rivojlantirish, fikrini ravon va aniq ifodalash, turli vaziyatlarda odobli muloqot yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muassasalari orqali talabalar ilmiy nutq, rasmiy uslub va jamoat oldida so‘zlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Jamiyat va muhit: Jamiyatdagi qadriyatlar, madaniyat va axloqiy me’yorlar ham muloqot uslubiga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir jamiyatda o‘ziga xos madaniy, axloqiy va an’anaviy qadriyatlar mavjud. Masalan, o‘zbek jamiyatida kattalarga

hurmat, salomlashish madaniyati va muloyim gapirish yuqori qadrlanadi. Bu qadriyatlar nutqiy etiketti shakllanishiga asosiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muloqot etiketi va madaniy qadriyatlar: oliy ta’limda tahsil olayotgan xotin-qizlarning muloqoti ko‘pincha milliy qadriyatlar, odob-axloq me’yorlari bilan uyg‘unlashgan bo‘ladi. Masalan, yoshi kattalarga hurmat, samimiylik, muloyimlik kabi qadriyatlar muloqot madaniyatida aks etadi.

Emotsional intellekt va nutqiy boshqaruv: Oliy ta’lim muhitida o‘qiyotgan xotin-qizlar odatda hissiy holatlarini boshqarishni, vaziyatga mos ravishda muloqot qilishni yaxshi biladilar. Bu ularga: mojaroli vaziyatlarda o‘zini tutish, stressli holatlarda ham odob saqlash, muloqotni ijobiy va konstruktiv tarzda olib borishga yordam beradi.

Ilmiy va kasbiy nutq: oliy ta’lim jarayonida talabalar ko‘pincha ilmiy chiqishlar, ma’ruzalar tayyorlaydi. Bu jarayonda xotin-qizlar: ilmiy atamalardan to‘g‘ri foydalanish, fikrlarni dalillar bilan asoslash, tinglovchiga tushunarli va lo‘nda yetkazish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Xotin-qizlarning nutqiy etiketi va uning jamiyatga ta’sirini ko‘rib chiqsak!

Ijtimoiy madaniyatning rivojlanishi: xotin-qizlar jamiyatda madaniyatli muloqot namunasini ko‘rsatib, odob va axloqiy me’yorlarni saqlashga hissa qo‘shadi. Jamiyatdagi umumiy madaniyat, axloqiy qadriyatlar va kommunikatsion normalar ham xotin-qizlarning nutqiy etiketi shakllanishiga ta’sir qiladi.

Ilmiy va kasbiy rivojlanish: Oliy ta’lim olgan xotin-qizlar o‘z kasbiy faoliyatida samarali muloqot yuritib, liderlik va boshqaruv sohalarida muvaffaqiyatga erishadi. Nutqiy etiketi rivojlangan xotin-qizlar o‘z kasbiy faoliyatida samarali rahbarlik, boshqaruv va jamoaviy ishlarda muvaffaqiyatga erishadi. Ilmiy sohada esa o‘z fikrini asosli va ravon ifoda eta olishi ularning nufuzini oshiradi.

Oila va tarbiya jarayonida: Kelajakda onalar sifatida o‘z farzandlariga nutq madaniyati va odob-axloq qoidalarini singdiradilar. Oila madaniyati va tarbiya jarayoni nutqiy etiketti shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ota-onaning muloqot uslubi, farzandga berilayotgan axloqiy tarbiya uning til madaniyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Gender tengligi va ijtimoiy faollik: Nutqiy etiketi rivojlangan xotin-qizlar jamiyatda faol bo‘lib, turli ijtimoiy masalalarda o‘z fikrini aniq va erkin ifodalay oladilar. Oliy ta’lim olgan va rivojlangan nutq madaniyatiga ega bo‘lgan xotin-qizlar gender tengligi masalalarida faol ishtirok etadilar.

Oliy ta’limda o‘qiyotgan xotin-qizlarning nutqiy etiketi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat va rivojlanish, balki jamiyat madaniyati, ijtimoiy taraqqiyot va barqarorlik uchun muhim omil hisoblanadi. Ular o‘z nutqiy madaniyati orqali jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlashga, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga va madaniyatli muloqot muhitini yaratishga katta hissa qo‘shadilar.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov, I.A. "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch." — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Jo‘rayev, N. "Til madaniyati va nutq etiketi." — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.

3. Quronov, D. "O‘zbek tili va nutq madaniyati." — Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
4. To‘xtayev, A. "Odob-axloq asoslari va nutq madaniyati." — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Rahmatullayev, Sh. "O‘zbek tili stilistikasi." — Toshkent: Fan, 2006.
6. www.lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va me’yoriy hujjatlari portali.
7. www.sciencedirect.com - Ilmiy maqolalar va tadqiqotlar manbasi.
8. www.researchgate.net - Ijtimoiy fanlar va nutq madaniyati bo‘yicha xalqaro ilmiy ishlar.

TALABALARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Farmonova Malika
Navoiy davlat universiteti
Ta`limda axborot texnologiyalar magistranti

Annotasiya. Ushbu maqolada talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik konseptual asoslari tahlil qilindi. Axborot jamiyatida talabalarning axborot oqimlari bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish, ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan va raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida talabalar axborot kompetentligini rivojlantirishning asosiy mexanizmlari, ularning samaradorligi va tadbiq etish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: axborot, kompetent, ta’lim, jarayon, texnologiya, yetakchilik, motivatsiya, jamiyat.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etib, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda global axborot makonida talabalarning axborot olish, tahlil qilish va undan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalari, ya'ni axborot kompetentligini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish nafaqat bilim olish jarayonini soddalashtiradi, balki talabalarni zamonaviy axborot texnologiyalariga moslashishga, ulardan unumli foydalanishga o‘rgatadi.

Axborot kompetentligining rivojlanishi ta'limning barcha bosqichlarida, ayniqsa, oliy ta'limda o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayonda raqamli ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari, elektron kutubxonalar va boshqa raqamli vositalarning roli juda katta.

Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida talabalarning axborot oqimlarini samarali boshqarish, ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish va ulardan foydalana olish ko‘nikmalari asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Axborot kompetentligini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri bo‘lib, bu jarayon ta’limning metodik tamoyillari, konseptual yondashuvlari va raqamli texnologiyalarga asoslanadi.

Bugungi kunda, raqamli transformatsiya sharoitida talabalarda axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda [1]. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, axborot resurslaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va axborot kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni ishlab chiqish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolada talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik konseptual asoslari, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash yo‘llari va zamonaviy pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalarning roli tahlil qilinadi. Axborot kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha mavjud ilmiy-adabiyotlar, pedagogik va psixologik yondashuvlar, xalqaro tajribalar o‘rganildi va ularning umumiy tamoyillari tahlil qilindi.

Talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy ishlar axborot kompetentligining mohiyati, uni shakllantirish usullari va ta’lim jarayonida ahamiyatini ochib beradi.

Xorijiy tadqiqotlarda, xususan, J.P. Gee va S. Kuhlthau [2,3] tomonidan axborot oqimlarini boshqarish, ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalana olish ko‘nikmalari ta’limning asosiy omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Ularning ishlarida talabalar axborot resurslarini mantiqiy va innovatsion tarzda qo‘llash orqali bilimlarni kengaytirish jarayonlari yoritilgan.

Milliy adabiyotlarda, masalan, S.Q. Rahimov va O.V. Toirovning [4] tadqiqotlarida, axborot kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodlarining ahamiyati ta’kidlanadi. Ularning tadqiqotlari talabalar o‘rtasida axborot savodxonligini oshirish va bu boradagi innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy qilishning pedagogik jihatlariga bag‘ishlangan.

Shuningdek, M.A. Polat va D.D. Axmedov [5] ishlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali axborot resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha tajribalar o‘tkazilgan. Ularning tadqiqotlari axborot madaniyatini shakllantirish va talabalarning axborot kompetentligi darajasini oshirish mexanizmlariga bag‘ishlangan.

Zamonaviy ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni kiritish talabalarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini oshiradi, onlayn ma’lumotlar bazalari va virtual o‘quv muhitlaridan foydalanish axborot kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchilarning yetakchilik va motivatsiya beruvchi rolini ta’minlash talabalar bilim darajasini oshirish uchun samarali ekanligi kuzatildi.

Axborot kompetentligini rivojlantirish uchun o‘quv dasturlariga aniq maqsadli topshiriqlar va resurslardan foydalanish yondashuvlari kiritilishi zarur, bu orqali talabalar o‘z bilimlarini amaliyotga samarali tadbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Zamonaviy axborot jamiyati talablariga mos holda talabalarning axborot oqimlarini boshqarish, tahlil qilish va samarali foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchilarning rolini kuchaytirish, moslashuvchan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlash talabalarning o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida ta’lim jarayonida axborot kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan model ishlab chiqildi va bu yondashuvning samaradorligi amalda tasdiqlandi. Xulosa qilib aytganda, talabalarda axborot

kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning strategik maqsadlaridan biri bo‘lib, bu jarayon nazariy va amaliy jihatdan kompleks yondashuvni talab etadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quv dasturlarni boyitish va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur. Bu esa axborot kompetentligini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework. Paris: OECD Publishing.
2. Gee, J. P. (2018). The role of digital literacy in the modern education system. New York: Routledge.
3. Kuhlthau, C. C. (2010). Guided Inquiry: Learning in the 21st Century. Libraries Unlimited.
4. Rahimov, S.Q., Toirov, O.V. (2020). Zamonaviy ta’limda axborot texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar. O‘zbekiston pedagogik tadqiqotlari jurnali, 3(5), 45-56.
5. Polat, M.A., Axmedov, D.D. (2022). Raqamli texnologiyalar orqali talabalarning axborot savodxonligini rivojlantirish. Axborot jamiyatida ta’lim muammolari, 1(2), 67-75.

ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ УВЕЛИЧЕНИЯ УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И НАУЧНЫХ ИНИЦИАТИВАХ

***Алимова Шахноза Шукуровна*,**
доцент Навоийского
государственного университета

Аннотация. Статья посвящена факторам и механизмам, способствующим увеличению участия женщин в образовательных и научных инициативах. Особое внимание уделяется преодолению дискриминatsii и гендерных стереотипов, а также поддержке женщин через гранты и стипендии.

Ключевые понятия. Образование, наука, гендерное равенство, дискриминatsiя, стереотипы, поддержка женщин, научные инициативы, образовательные программы.

В условиях глобализatsii и модернизatsii системы высшего образования вопросы гендерного равенства приобретают всё большее значение. Активное участие женщин в образовательной и научной деятельности становится неотъемлемой частью устойчивого социального развития. Однако на пути к достижению гендерного равенства по-прежнему сохраняются определённые барьеры, связанные с социальными, экономическими и культурными факторами. Целью данной статьи является анализ факторов, влияющих на социальную активность женщин в высшем образовании, а также рассмотрение механизмов, способствующих увеличению их участия в образовательных и научных инициативах.

Одним из ключевых факторов, влияющих на участие женщин в образовательных инициативах, является социальное восприятие ролей и гендерных стереотипов. Во многих странах сохраняются устоявшиеся представления о женских и мужских профессиях, что ограничивает возможности женщин развивать карьеру в науке и образовании. Важным аспектом является также экономическое положение женщин: в ряде случаев недостаток финансовой поддержки и ресурсов становится препятствием для получения качественного образования и участия в научной деятельности.

К числу других факторов можно отнести:

Доступ к образованию и профессиональному развитию: женщины, проживающие в удалённых и сельских районах, сталкиваются с ограниченным доступом к образовательным учреждениям.

Наличие программ поддержки и менторства: отсутствие наставников и профессиональной поддержки может снижать мотиватsiю к участию в образовательных инициативах.

Социальные обязательства и семейные обязанности: женщины часто сталкиваются с необходимостью совмещать учёбу или работу с обязанностями по уходу за семьёй, что также может ограничивать их активность.

Для преодоления указанных барьеров необходима realizatsia ряда целевых механизмов поддержки, направленных на создание равных возможностей для женщин. К таким механизмам можно отнести:

Гендерные программы и инициативы: Создание программ гендерного равенства, направленных на расширение участия женщин в образовательных и научных проектах. Примером таких программ могут служить грантовые инициативы, предоставляющие финансирование для исследовательских проектов, возглавляемых женщинами. В Узбекистане, например, реализуются программы образовательных кредитов для оплаты контрактов в высших учебных заведениях, нацеленные на поддержку женщин. Однако доступ к таким кредитам остаётся ограниченным и не все женщины могут воспользоваться этой возможностью, что требует дальнейшего совершенствования механизмов поддержки.

Менторство и наставничество: Важную роль в развитии женщин в образовании играют программы менторства, которые позволяют обмениваться опытом и знаниями. Наставники помогают молодым учёным-женщинам ориентироваться в профессиональной среде и строить карьеру.

Создание комфортной образовательной среды: Университеты могут внедрять гибкие формы обучения и работы, включая дистанционные образовательные программы, что позволит женщинам более эффективно совмещать учёбу и семейные обязанности.

Популяризatsia научной карьеры среди женщин: Проведение мероприятий, направленных на привлечение женщин в науку и образование, таких как конференции, круглые столы и научные семинары, способствует формированию позитивного имиджа научной деятельности.

Примеры успешных кейсов.

Одним из примеров успешной realizatsii гендерных инициатив в образовании можно считать программу поддержки женщин-исследователей в странах Европы, где специальные гранты и конкурсы для женщин позволили увеличить их долю в научных проектах на 20% за последние пять лет. Подобные меры показывают, что целенаправленная поддержка способна значительно повысить социальную активность женщин в образовательной сфере.

Для повышения социальной активности женщин в системе высшего образования необходимо внедрение комплексного подхода, включающего realizatsiю гендерных программ, развитие менторства и создание комфортных условий для совмещения профессиональной и семейной жизни. Университетам и государственным органам рекомендуется активнее взаимодействовать в рамках программ поддержки женщин в науке и образовании. Realizatsia этих мер позволит укрепить позиции женщин в

образовательной и научной среде и будет способствовать достижению гендерного равенства.

Рост участия женщин в образовательных и научных инициативах стал возможен благодаря целому ряду факторов: изменению общественного восприятия, поддержке со стороны государства, образовательных и научных organizatsiй, а также созданию благоприятных условий для женщин в этих сферах. Тем не менее, важно понимать, что процесс обеспечения равенства в науке и образовании требует дальнейших усилий на всех уровнях — от государственного до индивидуального. Только через совместные усилия можно создать более инклюзивное и справедливое общество, где каждый человек, независимо от пола, имеет равные возможности для реализatsii своего потенциала.

Список источников

1. Официальные отчёты ООН по гендерному равенству и развитию образования. Доступно на: https://www.un.org/gender-equality
2. Национальные программы поддержки женщин-учёных в странах Центральной Азии. Доступно на: https://centralasiawomen.org
3. Аналитические материалы международных конференций по проблемам гендерного равенства. Доступно на: https://gender-conference.org
4. Европейская комиссия по вопросам гендерного равенства в образовании. Доступно на: https://ec.europa.eu/gender-equality

TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING JISMONIY MADANIYAT VA SPORT SOHASIDAGI QOBILIYATLARINI RO‘YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI

Axmedova Sarvinoz Azatovna
NavDU Jismoniy madaniyat fakulteti
PhD, v.b.professor

Annotatsiya: Mazkur maqola xotin-qizlarning jismoniy madaniyat va sport sohasidagi faoliyatini rivojlantirish orqali ularning ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyatlarini oshirishga xizmat qilishni maqsad qilgan. Bu boradagi harakatlar sog‘lom va faol avlodni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: ta'lim tizimi, modernizatsiya**,** xotin-qizlar, jismoniy madaniyat, sport, sport infratuzilmasi, motivatsiya, trenerlar tayyorlash, innovatsion texnologiyalar, jamiyatda sport madaniyati, inkluziv ta'lim, sog‘lom turmush tarzi, ayol sportchilar, sport dasturlari.

Jamiyat rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu ta’lim tizimining zamonaviy talablarga mos ravishda shakllanishidir. Ta’lim tizimining modernizatsiyasi jarayonida xotin-qizlarning har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashish, jumladan, ularning jismoniy madaniyat va sport sohasidagi qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish dolzarb vazifalardan biridir. Zero, xotin-qizlarning sog‘lom va faol bo‘lishi ularning shaxsiy va kasbiy hayotdagi muvaffaqiyatlariga asos yaratadi.

Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish orqali qizlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va ularning intellektual imkoniyatlarini oshirish mumkin. Jismoniy madaniyat fanlari orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilimlar berish, shuningdek, qizlarni faol sport hayotiga jalb etish muhimdir. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida qizlar uchun maxsus sport dasturlarini tashkil qilish, ularga zamonaviy sport texnologiyalarini o‘rgatish imkoniyatlari kengaymoqda.

Ta’lim tizimida sport dasturlarining keng joriy etilishi xotin-qizlarning jismoniy tarbiyasi va sport sohasidagi qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida sport to‘garaklari va musobaqalar tashkil etilishi orqali yosh qizlarning sportga qiziqishini oshirish mumkin. Shu bilan birga, sog‘lom raqobat muhitini yaratish, ularni ko‘proq faoliyatga jalb etishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning sport sohasidagi qobiliyatlarini rivojlantirish uchun davlat siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda qator Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qaror va farmonlari qabul qilingan bo‘lib, ularning mazmun-mohiyati quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PF-5953-sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirish va ommaviy sportni keng targ‘ib qilish to‘g‘risida”. Ushbu farmon sport sohasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga, yoshlar va xotin-qizlarni jismoniy madaniyat va sportga jalb qilish uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan. 2021-yil 24-noyabrdagi PF-21-sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini modernizatsiyalash va yoshlar jismoniy tarbiyasi bo‘yicha davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”. Farmonda ta’lim tizimida sport dasturlarini keng joriy etish, xotin-qizlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish va ularni qo‘llab-quvvatlash masalalari belgilangan. 2020-yil 30-oktabrdagi PQ-4856-sonli Qarori “Sportchi ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularga qulay sharoit yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. Qarorda ayollar sportini rivojlantirish, ular uchun zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish va sport mashg‘ulotlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilgan. 2018-yil 14-iyundagi PQ-3775-sonli Qarori “Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiyaga keng jalb qilish to‘g‘risida”. Ushbu qarorda sportning ommaviyligini oshirish va qizlar uchun sport tadbirlarini ko‘paytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. 2022-yil 3-iyundagi PF-141-sonli Farmoni “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirish”. Farmonda raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali xotin-qizlarning sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari qamrab olingan.

Ushbu hujjatlar ta’lim tizimida xotin-qizlarning sport sohasidagi qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun huquqiy asos yaratadi. Shu bilan birga, davlat siyosatining bu yo‘nalishdagi tashabbuslari sog‘lom va faol jamiyatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xotin-qizlarning sportga qiziqishini oshirish uchun qulay sharoit yaratish lozim. Zamonaviy sport infratuzilmasining rivojlanishi, jumladan, qizlar uchun moslashtirilgan sport zallari, stadionlar va ochiq havodagi maydonlarning tashkil

etilishi ularga katta imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga, sport jihozlari va texnologiyalarning yangilanishi orqali qizlarning sport bilan shug‘ullanishida samaradorlik oshadi. Masalan, gimnastika, suzish, badminton kabi sport turlari uchun maxsus jihozlangan sport markazlarini barpo etish qizlarning sportdagi yutuqlariga zamin yaratadi.

Xotin-qizlarning jismoniy madaniyat va sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun motivatsiya tizimini kuchaytirish zarur. Bu borada muvaffaqiyatli sportchi ayollar hayoti va yutuqlarini targ‘ib qilish orqali yosh avlodga ilhom berish samarali natijalar beradi. Sport sohasida faoliyat olib borayotgan qizlarga stipendiyalar, grantlar va mukofotlar taqdim etish ham muhim. Bundan tashqari, akademik rag‘batlantirish tizimini sport yutuqlari bilan bog‘lash orqali qizlarning bu sohaga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Sport sohasida xotin-qizlar bilan ishlaydigan malakali murabbiy va trenerlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Xotin-qizlar uchun moslashtirilgan sport dasturlarini ishlab chiqish va ularni joriy etishda ayol murabbiylarning roli katta. Shuning uchun murabbiy va trenerlarning malakasini oshirish, ular uchun maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish zarur.

Shuningdek, qizlarning sportdagi imkoniyatlarini oshirishda ular bilan psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida ishlash muhim. Bu jarayonda murabbiylarning o‘rni nafaqat jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish, balki ularda sportga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirishda ham ko‘rinadi.

Xotin-qizlarning sport bilan shug‘ullanishiga jamiyatdagi munosabat ham muhim ahamiyatga ega. Oila va jamiyatda sportning ahamiyatini tushuntirish, sportga nisbatan ijobiy qarashlarni shakllantirish orqali qizlarni bu sohaga jalb qilish mumkin. Ommaviy sport tadbirlari va festivallarning tashkil etilishi xotin-qizlarning jismoniy faollikni oshirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, sportning sog‘liq va hayot sifati uchun foydasi haqida ma’lumotlarni keng targ‘ib qilish lozim.

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish jismoniy madaniyat va sport sohasida ham o‘z ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Masalan, sport mashg‘ulotlarini onlayn tashkil qilish, mobil ilovalar orqali individual dasturlar ishlab chiqish, virtual sport simulyatorlaridan foydalanish qizlarning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarning sport bilan shug‘ullanishi uchun ham qulay sharoit yaratish zarur. Ular uchun maxsus moslashtirilgan sport dasturlari va turlarini ishlab chiqish orqali inklyuziv ta’limni rivojlantirish mumkin. Bu nafaqat ularning jismoniy rivojlanishiga, balki ijtimoiy faolligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida xotin-qizlarning jismoniy madaniyat va sport sohasidagi qobiliyatlarini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyatlari uchun, balki jamiyatning umumiy rivoji uchun ham muhimdir. Qulay infratuzilma, malakali murabbiylar, motivatsiya tizimi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi orqali xotin-qizlarning sportdagi qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin. Bu esa sog‘lom va faol avlodni shakllantirish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Xotin-qizlarning sportda faol ishtiroki nafaqat ularning jismoniy salomatligi, balki ularning jamiyatdagi o‘rni,

ijtimoiy faolligi va iqtisodiy holati uchun ham muhimdir. Ta'lim tizimida sport sohasini rivojlantirish xotin-qizlarning hayot sifatini yaxshilashda, ular uchun yangi imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, xotin-qizlarning sportga keng jalb qilinishi jamiyatdagi gender tengligi va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xotin-qizlarning sportga jalb etilishi ijtimoiy integratsiya jarayonini jadallashtiradi. Sportdagi muvaffaqiyatlar ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, jamiyatda erkin va mustaqil shaxs sifatida ko‘rilishini ta'minlaydi. Ayniqsa, sportda yuksak natijalarga erishgan ayollar boshqalar uchun ilhom manbai bo‘lishi mumkin. Bu esa, yosh qizlar orasida sportga qiziqishni oshiradi va ularning jamiyatdagi faol o‘rinlarini shakllantiradi.

Sport sohasida ayollarni qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy qadriyatlar va stereotiplarga qarshi kurashishda muhim omil bo‘lishi mumkin. Xotin-qizlarning jismoniy faolligi ularni jamiyatda teng huquqli va ijtimoiy adolatli pozitsiyalarni egallashga yordam beradi. Sport orqali ayollarning o‘zaro hamkorlik va jamiyatga foydali bo‘lish uchun zarur bo‘lgan etakchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Xotin-qizlarning sportga jalb etilishi, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga ham hissa qo‘shadi. Ayollar sportida muvaffaqiyatlar faqat individual darajada erishilmaydi, balki sport sanoatining kengayishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratishiga, va sport sohasida ayollar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Masalan, ayollar sporti bo‘yicha o‘yinlar, musobaqalar va tadbirlar tashkil qilish, sport kiyim-kechak va jihozlar ishlab chiqarish kabi yangi sohalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, ayollar sportchilarining sponsorlari va brendlar bilan hamkorlikda ishlashi, sportning biznes jihatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Bu esa, sport iqtisodiyoti va jismoniy madaniyat sohasida ayollarning mustahkam mavqeini yaratadi.

Bugungi kunda jismoniy madaniyat va sport sohasida gender tengligini ta'minlash uchun ko‘plab yangi tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu tashabbuslar xotin-qizlar uchun yangi sport turlarini, musobaqalarni va o‘quv dasturlarini taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Bunda maxsus sport to‘garaklari, ayollar sporti bo‘yicha treninglar, psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va hatto virtual sport tadbirlari tashkil etilmoqda.

Shuningdek, xotin-qizlar sportiga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun o‘qituvchilar va murabbiylar o‘rtasida yangi metodologiyalarni yaratish, sport dasturlarini genderga moslashtirish, va qizlarning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish zarur. Bunday yondashuvlar yosh qizlarni sportga jalb qilishni osonlashtiradi va ularning bu sohada muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Xotin-qizlarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy hayotga kengroq jalb qilish uchun ta'lim tizimida zamonaviy sport dasturlarini yaratish, sport infratuzilmasini rivojlantirish va motivatsiya tizimini mustahkamlash zarur. Xotin-qizlar sporti, nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi uchun, balki jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlashda muhim

rol o‘ynaydi. Shu tarzda, ta'lim tizimida gender tengligi va sportning o‘rni kengaytirilsa, bu jamiyatda ilgari surilayotgan ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillariga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Aliyev, T. (2020). Jismoniy madaniyat va sport ta'limida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.

2.Hamidov, F. (2019). Xotin-qizlar sportining rivojlanish istiqbollari. Tashkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

3.Yusufov, B. (2021). Ta'lim tizimida sport faoliyatining roli: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston ta'lim va fan nashriyoti.

4.Siddiqov, S. (2018). Sport pedagogikasi va jismoniy tarbiya. Toshkent: O‘zbekiston ta'limi va sport nashriyoti.

5.Ergashev, A. (2017). Inkluziv ta'lim va nogironlar uchun sport dasturlari. Toshkent: Zamonaviy ta'lim nashriyoti.

6.Shodiev, R. (2022). Xotin-qizlar sportining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy integratsiyasi. Tashkent: O‘zbekiston ijtimoiy fanlar nashriyoti.

7.Turan, Z. (2021). Jismoniy madaniyat va sportda gender tengligi: ilmiy tahlil. Istanbul: Gender va jamiyat nashriyoti.

8.UNESCO (2020). Gender tengligi va sport: global yondashuvlar va amaliyotlar. Paris: UNESCO.

9.Sport and Physical Education in Education Systems (2019). International Journal of Physical Education, Sports and Health.

10.World Health Organization (WHO) (2018). Physical Activity and Health: A Report of the WHO Global Strategy on Physical Activity. Geneva: WHO.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING INDIVIDUALLIGIГA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMHИ TASHKIL ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Eshova Gulrux Tuymurotovna,
Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi, mustaqil tadqiqotchi

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar жадал суръатлар билан amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlash orqali bolalarni maktabgacha ta’lim bilan keng qamrab olinishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 316-sonli Qarori imzolangan. Mazkur qarorga ko‘ra, respublika bo‘ylab davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish rag‘batlantirilib, tijorat banklari va xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlarini jalb qilish orqali tadbirkorlarga uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ajratish belgilangan [1]. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish uchun 2019/2020-o‘quv yilidan boshlab, “Aqlvoy” maktabgacha ta’lim mobil guruhlari tajriba tariqasida qayta jihozlangan ISUZU HC 40 avtobuslari negizida tashkil etildi. Mobil ta’lim guruhlariga 1920 nafar maktabgacha yoshdagi bola qamrab olingan edi.

Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish ko‘zda tutilgan. Xususan, “Ilk qadam” davlat ta’lim dasturi asosida 6 yoshli bolalarda yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ish daftarlar maketlarini yaratish hamda rivojlantirish markazlarida 3-7 yoshdagi bolalar uchun ishlatiladigan ko‘rgazmali didaktik plakatlar to‘plamini yaratish borasida respublikamizning katta amaliy va ilmiy tajribaga ega bo‘lgan tarbiyachi va pedagog-olimlari tomonidan ish olib borilmoqda.

Shu bilan birga, respublikamiz pedagog-olimlari xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda maktabga majburiy bepul tayyorlov guruhlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan “Ilm yo‘li” rivojlantirish, tarbiyalash va ta’lim berish variativ dasturini ishlab chiqdilar. Tayyorlov guruhlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarga metodik ko‘mak berish maqsadida “Pedagoglar va trenerlar uchun “Ilm yuli” variativ dasturini joriy etish qo‘llanmasi” tayyorlandi [2].

Ushbu masalada O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday deganlar: “...butun ta'lim tizimining ... eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir” [3]. Bu vazifalarni samarali amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachi, uslubchi va psixologlar mazkur jarayonga bo‘lgan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqishlari kerak bo‘ladi.

O‘zbekistonlik bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berish muammoldariga bag‘ishlangan. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Qayumova, M.N.A’zamova [7] va Sh.A.Sodiqova [10] va boshqa bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari maktabgacha pedagogikaning ilmiy-metodologik asoslari, bolalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar hamda ularni psixik taraqqiyotining asosiy bosqichlari, maktabgacha ta’lim tizimida ta’limning didaktik tamoyillari hamda tashkil etishning shakl va metodlari, ta’lim va tarbiyaning pedagogik texnologiyalari hamda ularni amaliyotda qo‘llashning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

MDH olimlaridan A.N.Belkova, Yu.Yu.Berezina, E.X.Giniyatullina, A.O.Glebova V.V.Kojevnikova, L.P.Kurnikova, Ye.N.Borodina va L.V.Skitskayalarning ilmiy izlanishlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirishga, ushbu yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkur va bilish faolligini shakllantirish, ularni rivojlanish amplifikatsiyasi vektori yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim muhitini modellashtirish, ma’naviy-vatanparvarlik tarbiyasi va muloqot jarayonlarini optimallashtirish masalalari da o‘z aksini topgan. Bolalarning individual xususiyatlari ularning bosh miya yarimsharlari faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqligini N.N.Nikolayenko, V.D.Yeremeyeva, T.P.Xrizman, V.P.Bianki, Ye.B.Filippov, A.L.Sirotyuk kabi olimlar e’tirof etganlar.

O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarning neyropedagogik xususiyatlarini innovatsion ta’lim muhiti sharoitida rivojlantirish, bilish faolligini hamda bolalarni gender farqlarini bosh miya yarimsharlari asimmetriyasi bilan

bog‘liqligining ayrim jihatlari N.Yunusova, D.R.Gulyamov, V.J.Anvarova [11] va S.R.Mansurova [8] tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda ta’lim jarayonida bolalar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga bosh miya asimmetriyasining turlicha ta’sir etish masalasi hamda inson miyasining kognitiv jihatlariga oid bilimlarni ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llash imkoniyatlari L.S.Basser, J.E.Bogen, B.T. Woods, E. Lenneberg, A. Smith, P. Wolf, E. Jensen, B. Given kabi olimlarningn ilmiy ishlari doirasida tadqiq etilgan. Bolalarga ta’lim berish jarayonida bosh miya faoliyati tashkil etilishining o‘ziga hosliklarini xisobga olishning nazariy-metodologik va amaliy asoslari M.Gazzaniga, E.Kendel, R.O.Reili, Yuko Munakata, Steven M.Platek, Julian Paul Keenan, Todd K. Shackelford tomonidan amalga oshirilgan [12].

Neyropsixologiya sohasidagi olimlarning fikriga ko‘ra, bolalar 4,5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bosqich o‘ta murakkab psixikaga ega bo‘lgan insonga aylanayotgan davr hisoblanadi. Chunki bu davrda bolaning o‘ng yarimshari faol rivojlanib bosh miyasi o‘rab turgan muhitdan qabul qilayotgan ma’lumotlarga obrazlar, harakatlar, ritmlar, emotsiyalar, intuitsiya va tashqi nutqga integratsiyalashgan tafakkur asosida yaxlit ishlov beradi.

Ta’lim berish – o‘qitish muhitining ta’lim oluvchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra, ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga yo‘naltiradi. Bu turdagi ta’lim tarbiyalanuvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yuqorida nomi keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini individuallashtirish uchun tarbiyalanuvchilarning ma’lumotlarni qabul qilish, qiyoslash, o‘zlashtirish va aks aloqa mexanizmlaridagi o‘ziga hosliklarini xisobga olish kerakligi ta’kidlangan. Ta’lim jarayonini tashkil etishga bunday yondashuv tarbiyalanuvchilarning yangi bilimlarni chuqur o‘zlashtirishlarini, ulardagi mavjud iste’dod va qobiliyatlarni erta aniqlash va jadal rivojlantirishga imkon yaratadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning individual farqlarini hisobga olib shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etilishi, ularni yoshiga mos ravishda qiyin bo‘lmagan birlamchi bilim, ko‘nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallashlari bilan birga nutq, tafakkur va ahloqiy sifatlari o‘zaro uyg‘unlikda shakllanishiga hamda ulardagi iqtidor va qobiliyatni erta aniqlab maqsadli rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-sentyabrdagi PQ-316-son qarori. https://lex.uz/docs/6619781

2. O‘zbekiston – 2030 “Taraqqiyot strategiyasi” Markazi / https://strategy.uz/index.php?news=1062

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga

bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – B.
4. Giniyatullina E.X. Formirovanie polikulturnыx umeniy detey starshego doshkolnogo vozrasta sredstvami inostrannogo yazыka: Avtoref ... kand.ped. nauk. Chelyabinsk, 2017. – 22 s.;
5. Glebova A.O. Formirovanie graficheskix umeniy u detey doshkolnogo vozrasta: Avtoref kand.ped. nauk. –Moskva, 2009. 28 s.;
6. Yeremeyeva V. D., Xrizman T. P. Malchiki i devochkidva raznыx mira. Neyropsixologii - uchitelyam, vospitatelyam, roditelyam, shkolnыm psixologam. -M.: LINKA-PRESS, 1998. — 184 s.;
7. Qodirova F.R.,Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. T.: “Tafakkur” nashriyoti. 2019. – 685 b.;
8. Mansurova S.R. Ta'lim jarayonini individuallashtirida neyropedagogik diagnostikaning tutgan o‘rni. Journal of new century innovations. Jurnal. Vol-17_ ISSUE-1_November 2022. P.96-100. http://www.newjournal.org.
9. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2018.
10. Yunusova N., Gulyamov D., Anvarova V. Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining ularni gender farqlari bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga doir / “Pedagogika” J., №2, 2016. – B.37-42.
11. Evolutionary Cognitive Neuroscience / Edited by Steven M.Platek, Julian Paul Keenan, and Todd K. Shackelford./ The MIT Press. Cambridge, Massachusetts. London, England. 2007 Massachusetts Institute of Technology. – 637 p.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА МЕҲНАТСЕВАРЛИКНИ ТАРБИЯЛАШДА АМИР ТЕМУР ЎГИТЛАРИНИНГ ЎРНИ

Эрматова Гулноз Пиримовна
НДУ, Мактабгача таълим кафедраси в.б.доцент, PhD.

Аннотация: Мазкур маколада мактабгача ёшдаги болаларда меҳнатсеварликни тарбиялашда Амур Темурнинг ўгитларидан фойдаланиш ҳақидаги фикрлари ёритилган.

Калит сўзлар: меҳнатсеварлик, баркамол авлод, комил инсон, меморий обидалар, намуна, меҳнат килиш, фахр туйғуси, азму-жазм, ободонлаштириш.

Аннотация: В данной статье освещены мысли Амура об использовании удобрений Темура в воспитании трудолюбия у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: трудолюбие, гармоничное поколение, совершенный человек, мемориальные памятники, образец, труд, чувство гордости, упорство, благоустройство.

Annotation: This article covers the views of Amur Temur's sons on the use of labor in the upbringing of preschool children.

Keywords: labor, harmonious generation, perfect person, monuments of memory, pattern, work, sense of pride, perseverance, accomplishment.

Халқимизда азал-азалдан ёш авлодни меҳнатсеварлик руҳида тарбиялаш асосий ўринни эгаллаб келган. Оилада ота-оналар болаларида тарбиянинг барча турларини мужассам этиб тарбиялашни асосий максад қилиб қуйишган. Ана шулардан энг асосийси меҳнат тарбияси ҳисобланган. Бугунги кунда нафакат оилаларда балки барча таълим масканларида ҳам ёш авлодни меҳнатга ижобий муносабатини шакллантириш асосий ўринни эгаллайди.

Тарих зарварақларига назар ташлайдиган бўлсак бизнинг заминимиздан жуда кўп алломалар ўтганлигига гувох бўламиз. Улар томонидан яратилган

ва бизгача етиб келган меморий обидаларимиз ва ўлмас асарлар бунга ёрқин мисол бўла олади. Улар ўз асарларда баркамол авлод тарбияси, комил инсонни шакллантириш масаласига жуда катта эътибор қаратганлар. Бу жараёнда комилликнинг асосий категорияларидан бири меҳнатсеварлик эканлигини таъкидлаганлар.

Биз ҳам бугунги кунда баркамол авлодда ана шу сифатни тарбиялашда бобокалонларимиз асарларидан фойдаланиб амалга оширсак мақсадга мувофиқ бўлади.

Чунки бу ўзининг икки томонлама самарасини беради:

-биринчидан, бобокалонларимиз ҳаёти ва ижоди билан таништиш жараёнида уларда фахр туйғусини шакллантирсак;

-иккинчидан, уларни қилган ишларини, айтган фикрларини намуна қилиб кўрсатсак яхширок самара беради.

Мактабгача ёшдаги болаларда меҳнатсеварликни тарбиялаш, катталар меҳнатига ҳурмат, уларда меҳнатнинг моҳиятини чуқур англатиш, онгли муносабат шакллантириш, келажакдаги меҳнат фаолиятига рухий жиҳатдан тайёрлаш, уларга меҳнат қилиш хохиш - истагини уйғотиш, уларни ҳар томонлама ривожлантиришда алоҳида аҳамиятга эга.[1. 136-137-б.].

Бу жараёнда биз бола шахсида (мактабгача ёшдаги болаларда) мустакил меҳнат қилиш кўникмасини, катталар меҳнатига ижобий муносабатни шакллантиришимиз мумкин. Меҳнатга оид кўникмаларни шакллантириш ва катталар меҳнати билан таништириш “Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қуйиладиган Давлат талаблари” асосида ишлаб чиқилган “Илк қадам” Давлат ўқув дастурида ҳам кўрсатиб ўтилган [2.4-б.].

“Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига куйиладиган Давлат талаблари” асосида ишлаб чиқилган такомиллаштирилган Давлат ўқув дастур асосида ёш авлодда меҳнатсеварликни тарбиялашда биз Сохибкирон ўгитларидан фойдаланишимиз мумкин. Масалан: “Ишбилармон, мард ва шижоат соҳиби, азми қаътий, тадбиркор ва ҳушёр бир киши, минг-минглаб тадбирсиз, лоқайд кишилардан яхшироқ”, - деган ўгитларида мард, меҳнат қилишдан чучимайдиган, зерғайрат, тажрибали, ишни кўзини биладиган, ҳушёр, мард, шижоатли киши, ишёқмас минглаб дангасалардан яхширок, дейди. Ўзи ҳам бу борада ўрнак бўлган. Ҳар бир ишга маъсулият ва виждон билан ёндошган ва бошка инсонлардан ҳам шуни талаб этган [3. 11-б.].

Яна бир ўгитида “Қилмокчи бўлган ишларини қилмасдан колдирмасинлар. Агар бирор ишни қилмасликка сўз берар эканлар, яқинига ҳам йуламасинлар. Хотирдан чиқмасинким, тангри талло ҳам жасур кишиларни ардоқлайди”, дея хитоб қилади. Қилмоқчи бўлган ишимизни қилиб ниҳоясига етказиш лозимлиги, агар у ишни қилмасаликка сўз берган бўлсак умуман қилмаслигимиз ва сўзимизда туриб, сўз ва амалимиз бир бўлиши кераклигини уқтиради.

Бошқа бир ўгитларида ҳам “Азму жазм билан иш тутдим. Бирон ишни қилишга қасд қилган бўлсам, бутун зеҳним, вужудим билан боғланиб,

битирмагунимча ундан қўлимни тортмадим”, деган фикрларини баён етиб, бутун вужудимиз билан қатиий қарор билан, бошлаган ишимизни охирига етказишимизга ундаган [3.12-15-б.].

Соҳибкирон мамлакатда тартиб билан бирга ободонлаштириш, тозалик, озодалик ишларига ҳам катта эътибор қаратган. Саҳрони обод қилган ёки боғ кўкартирган, хароба ерлани обод килган. Меҳнатсевар кишиларни меҳнатларига яраша қадрлаб улардан биринчи йили солиқ олмаган, иккинчи йили ўз розилиги билан берса, учичи йили қонунга биноан солиқ олинган. Меҳнат қилишни севган кишиларга ерлари бўлиб, иш қуроллари олишга маблағ бўлмаса керакли асбоб ва ускуналар берган, уларга меҳнат қилишлари учун имконият яратиб берган. Меҳнаткаш инсонларни жуда қадрлаган.

Соҳибкирон фарзандларини ва набираларини ҳам шижоатли, меҳнатсевар бўлишларини истаган. Ўзи бу ҳақида, “Менинг фарзандларим тантик булмасликлари керак! Тантиклик иродасизликни пайдо қилгай. Фарзандларимни эркалайдиган жой кураш майдони бўлсин”, дея уларни иродали жасур ва тинимсиз меҳнат, машқ қилишларини истаган [4.16-б.].

Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, мактабгача ёшдаги болаларда нафакат меҳнатсеварликни, балки комил инсонга хос ижобий сифатларни тарбиялашда Темур бобомиз ўгитлари, панд-насиҳатлари, доно фикрлари ва бажарган амалларидан фойдаланишимиз таълим- тарбия жараёнида ижобий самара беради.

Адабиётлар

1. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika T.:2013 y.
2. “Илк кадам” Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури, Т.: 2022 й.
3. Tuzuvchilar Axmedov B., Aminov Amir Temur o‘gitlari.-T.: - 1992 y.
4. Oila pedagogikasi darsligi prof. O.U.Xasanboyeva rahbarligi ostida tayyorlangan.T.:- 2007й.
5. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti.T.: 2020 y.

O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH: ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi, tayanch doktaranti

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida intellektual salohiyatni samarali oshirishning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bu bilish faolligini oshirish mexanizmlarini ta’lim jarayoniga tatbiq qilish. Umumta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi ijodiy muloqotining ta’sirini oshirish, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi hamda o‘quv-biluv faoliyatining sifat va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar

strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida ta’lim muassasalari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish vazifalari belgilangan [1].

Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vazifalaridan biri – o‘qituvchining intellektual aqliy qobiliyatlarini hisobga olgan holda didaktik vositalar va usullarni bilish faolligini e’tiborga olgan holda qo‘llash muammosidir. Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan innovatsion ilmiy-tadqiqot natijalari va ilg‘or pedagogik tajribani amaliyotga keng joriy etish, ta’lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlashning me’yoriy asoslari yaratilmoqda.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirish tushunchasi ko‘p qirrali didaktik hodisadir. O‘quvchi bilish faoliyatining alohida qirralarini Respublikamizda R.Safarova, B.Adizov, R.Ibragimov, G.Najmiddnova, N.Toshova, A.Nishonboyev kabi olimlar ilmiy tadqiq etgan.

Ushbu muammo MDH davlatlarida Ye.D.Trofimova, V.A.Averin, V.V.Davыdov, D.B.Elkonin, Ye.V.Korotaeva, P.S.Lerner, V.V.Afanasev, va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy davlatlarda David Jaques, John D.Bransford, Robert B.Bar, Steve Ketteridge tadqiqotlarida ta’lim tizimida o‘qitish va o‘qishga doir tajribani oshirish, o‘quv-biluv faoliyatiga yangicha yondashuvlar, ularning afzalliklari va mohiyati ilmiy asoslangan.

Tadqiqotchilar o‘quvchilarning bilish faolligi ularda o‘rganish mayllari shakllanishini yuzaga keltirishini, u esa, o‘z navbatida, o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishni ta’minlashini ilmiy asoslaganlar. Shu bilan birga, bilish faoliyatining natijadorligi o‘quvchilarda ijobiy va ijodiy hissiyotlarni uyg‘otib, bilim olishga qiziqishlarini shakllantirishi va mustahkamlashini aniqlaganlar.

Bilish faolligi o‘quvchining o‘zi-o‘zini boshqarish xususiyati va faoliyat sharoitlari bilan bog‘liq tarzda o‘z xulq-atvori yo‘nalishini ifodalab, qo‘yilgan maqsadga o‘z ixtiyori bilan erishishini ta’minlaydi. O‘quv faoliyatining shakllanganligi esa o‘quvchilarda o‘quv materiallarini tahlil qilish va bilim olishga nisbatan qat’iy mayllarning hosil bo‘lishiga yordam berib, bilish faolliklarini mos usullar yordamida namoyon qilishlariga imkon beradi [2].

O‘quv-biluv faoliyati o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan o‘quv vazifalarini hal qilish jarayonida bilim va harakat usullarini egallash bilan bir qatorda, o‘zi-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

O‘quvchi faoliyatining bir holatdan ikkinchisiga o‘tishi turli usullar yordamida amalga oshirilishi uchun pedagogik va funksional vazifalarni o‘zaro farqlash talab etiladi. Funksional vazifalar o‘qituvchining o‘z kasbiy vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lsa, pedagogik vazifalar ta’lim jarayonida o‘quvchilarda yuzaga keladigan muammoli savollarga yechim topishga yo‘naltirilgan bo‘ladi [5].

O‘quv faoliyatining maqsadi bilimlarni o‘zlashtirish va umumlashtirilgan harakat usullarini egallash bo‘lib, ta’lim maqsadi bilan bog‘liqdir. Chunki ta’limning maqsadli komponenti o‘quv faoliyatining maqsadidan kelib chiqib belgilanadi [3].

Ye.D.Trofimova “Talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirish” (“Aktivizatsiya uchebno-poznavatelnoy deyatelnosti studentov”) nomli ilmiy

asarida o‘quv-biluv faoliyati murakkab hodisa sifatida qaralgan bo‘lib, ushbu fenomen-ta’lim jarayonida o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan predmetga alohida kategoriya sifatida qaralishi kerakligini ta’kidlagan [4].

V.V.Davidov va D.B.Elkonin fikriga ko‘ra, o‘quvchilarda o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish, rejalashtirish va refleksiyalash orqali rivojlantiruvchi ta’lim jarayonida o‘quv faoliyati va uning subyektini shakllantirish nazariyasi yotadi. Bu nazariya bilim va ko‘nikmalarni o‘quvchi tomonidan maxsus o‘quv-biluv faoliyati shaklida o‘zlashtirish jarayoni hisoblanib, ushbu jarayonda o‘quvchi nazariy bilimlarni egallaydi, ularning mazmuni esa biror predmetni mavjud bo‘lishi va rivojlanishida aks etadi. Nazariy bilimlarning rivojlanishi va amaliy ko‘nikmalarni asta-sekin shakllanishi tafakkurning abstraktdan konkret tomon harakati orqali amalga oshiriladi [6; 7].

Ta’lim jarayonida o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan o‘quv materialining mazmuni tahlil qilinib, unda boshlang‘ich umumiy munosabatlar ajratilishi bilan birga, ko‘plab boshqa xususiy holatlar ham sodir bo‘ladi. Ajratilgan boshlang‘ich umumiy munosabat belgili ko‘rinishda olinib, o‘zlashtirilayotgan materialning mazmunli abstraksiyasi yaratiladi. O‘quvchilar o‘qituvchining yordamida tahlil qilib o‘quv materialining turli xildagi ko‘rinishlari orasidan boshlang‘ich munosabatning qonuniy aloqasini aniqlab, o‘zlashtirilayotgan ma’lumotning umumlashgan mazmunli natijasini oladilar. Bunda mazmunli abstraksiya va umumlashtirilgan natija tobora xususiylashgan abstraksiyalarning ketma-ketligi bilan ifodalanib, butun o‘quv predmeti orqali birlashtiriladi [8].

Bilimlarni o‘zlashtirishning bunday yo‘li: birinchidan, o‘quvchilarning fikri umumiydan xususiyga qarab maqsadli harakatlanishini va, ikkinchidan – o‘quvchilarni o‘zlashtirilayotgan tushunchalar mazmunining yuzaga kelish shartini aniqlashlariga qaratilgan bo‘ladi.

Faollashtirish – o‘quvchilarni maqsadli o‘rganishga undash orqali sust holatdan faol holatga o‘tishlarida aqliy mehnat turg‘unligini yengib o‘tishning doimiy davom etadigan jarayoni hisoblanadi. Bunda faollashtirishning asosiy maqsadi – o‘quvchilar faolligini shakllantirish orqali o‘quv jarayoni sifatini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/

2. Safarova R., Yusupova F., O‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini fanlar kesimida loyihalash. -Toshkent.: “Fan va texnologiya”, 2013, 148 b.

3. Botirova N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish. Pedagogika bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. UDK: 372.22:371.126. –Toshkent, 2022, 51b.

4. Trofimova Ye.D. Aktivizatsiya uchebno-poznavatelnoy deyatelnosti studentov [Tekst] / Ye. D. Trofimova // Innovatsii v professionalnom i professionalno-pedagogicheskom obrazovanii. - 2017. - № 6. - S. 435- 440.

5. Melsitova N.A. Analiz lichnostno-orientirovannыx texnologiy aktivizatsii uchebno-poznavatelnoy deyatelnosti studentov kolledja [Tekst] / N. A. Melsitova // Molodoy issledovatel: ot idei k proektu. - 2019. - № 5. - S. 223-224.

6. Davыdov V.V. Periodizatsiya psixicheskogo razvitiya / V.V.Davыdov // Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya. -M., 1975. -98 s.
7. Elkonin D.P. Psixologiya obucheniya mladshix shkolnikov / D:P. Elkonin. -M.: Znanie, 1974. -64 s.
8. Nishonboev A. Rivojlantiruvchi ta'lim - o'quvchilarida o'quv - biluv faoliyat usullarini shakllantirishning pedagogik asosi. Journal of innovations in social sciences. www.sciencebox.uzVolume: 02 Issue: 12| Dec-2022ISSN: 2181-2594

JADIDLARNING GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BORASIDAGI FAOLIYATLARI

Axatova Durdona Aktamovna
NavDU, p.f.n. dotsent
Axatova Xilola Aktamovna
NavDU, katta o`qituvchi

Ayollarimiz buyuk onalik mehr-muhabbati, noyob iste'dodlari bilan komil inson tarbiyasiga, mamlakatning ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy yuksalishiga katta hissa qo'shib kelmodalar. Xotin-qizlarimizning jamiyat hayotining barcha jabhalarida ishtiroki yildan-yilga ortib bormoqda. Ular uchun faoliyatning biror bir turi taqiqlanmagan bo`lib, shaxsiy va ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teppa-teng ishtirok etmoqdalar. Ularning aksariyati erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmasdan, balki yanada ko'proq yutuqlarga erishishga harakat qilmoqdalar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rligi bilan belgilanadi"[1].

"O'zbekiston-2030" strategiyasining 25-maqsadi **"**Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash"[2] masalasiga bag`ishlandi va unda Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini **30 foizga** oshirish, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash belgilab qo`yildi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatimizdagi xotin–qizlarning jamoat ishlaridagi faolligi, deyarli hayotning barcha jabhalarida o'z mavqeyiga ega bo'lishlari o'z–o'zidan bo'lib qolgani yo'q. Bu masalada jadid ma'rifatparvarlari ham katta ishlar olib bordilar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ahvol ayanchli holga kelib, Turkistonni mustamlaka zulmidan qutqarish, mustaqillikga erishish, aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun konseptual tarzda g'oyalar ishlab chiqildi. Jadid ziyolilari milliy mustaqillikka erishishning bosh yo'li sifatida eng avvalo, aholining ma'naviy dunyoqarashini ko'tarish, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama etuk, ma'naviyatli hamda ijtimoiy va siyosiy hayotda o'z o'rniga ega shaxs sifatida tarbiyalashni pirovard maqsadlari deb bildilar. Yosh – avlod tarbiyasi birinchi galda ayollar qo'lida edi, biroq bu davrda Turkistonda xotin–qizlarning o'rni juda past, bo'lib, bironta siyosiy huquqqa ega emasdi, hattoki sud jarayonida ham ayollarning guvohligi aksariyat holatlarda inobatga

olinmasdi, kundalik hayotda ham ayollarga bir buyum sifatida qaralar edi. Shuning uchun jadidlar o‘z g‘oyalarida xotin –qizlar ijtimoiy hayotida keskin o‘zgarishlarni amalga oshirish masalasiga jiddiy tarzda ahamiyat berganlar. Ular xotin –qizlar huquqini poymol qilishga barham berishni, oilaning huquqiy asoslarini yangilashni, ularni ta’lim va ma’rifat jarayonlarida faol qatnashishga jalb qilishni yoqlab chiqdilar, chunki pirovardida millat, jamiyat va davlat taqdiri ma’lum darajada xotin-qizlarga bog‘liq edi. Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan xotin –qizlar masalasi bo‘yicha ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidlar oilaning asosi bo‘lgan ayollarning huquqini erkaklar bilan tenglashtirish, ularning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini o‘zgartirishni o‘ta zaruriy vazifalar deb tushundilar.

Abdurauf Fitratning 1915 yilda chop qilingan “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asari oila masalasida o‘sha davr uchun mukammal yo‘riqnoma bo`lib xizmat qildi. Diniy va dunyoviy ilmlar bilimdoni bo‘lgan Fitrat oila qurish zaruratidan tortib, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning huquq va burchlari, hatto go‘daklarni tarbiyalash va unda yosh onalarning o‘zini qanday tutishi kerakligi haqidagi masalalargacha chuqur yoritib bergan. Fitrat “erkakning xotiniga nisbatan qanday huquqi bo‘lsa, xotinning ham eriga nisbatan shunday huquqi bor”[3,15],–deyish orqali oila masalasida o‘zining ilg‘or tafakkurga ega ekanligini ko‘rsatgan edi.

Jadidlar farzand tarbiyasi ayollar qo‘lida ekanligini “Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, ilmlik bo‘lsa, farzandni ham tarbiyat qilib, taraqqiyparvar odam qiladur”, deb alohida ta’kidlydilar. Jadidlarning “Sadoi Turkiston” gazetasi sahifalarida oila-nikoh muammolariga munosabat bildirilib, nikohdan o‘tayotgan qiz va yigitlarning qo‘llarida ularning salomatliklari va yuqumli kasalliklardan holi ekanliklariga doir shahodatnomalari bo‘lishi va bular nikohdan 15 kun avval shifokordan olingan bo‘lishi shart. Agarda uylanayotgan yigit va qizning qo‘llarida ana shunday shahodatnoma bo‘lmasa, imomning nikoh o‘qishga haq-huquqi bo‘lmasligi kerak deb hisoblaydilar.

Mahmudxuja Behbudiy o‘zining “Hifz-i sihat-i oila” (“Oila sog‘lig‘ining himoyasi”) maqolasida oilaning ahvoli va yosh avlodning kelajagi ko‘pincha insonning o‘z sog‘lig‘iga nisbatan munosabatiga bog‘liqdur, deb hisoblagan. Behbudiy o‘zining maqolalarida ham oila, xotin-qizlar mavzusiga murojaat qilgan, yoshlay turmush qurish masalasiga qarshi chiqib, “uylanmoq erkak uchun 25-30, ayollar uchun 20-22 yoshlarni tayin qilmoq zarur”–deb yozadi.

Abdulla Avloniy oilada ayollarning o‘rnini belgilash orqali, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, xotin-qizlar o‘qimishli va bolalar tarbiyasidan xabardor bo‘lishlari kerakligi, er-xotinning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish, muhabbat va sadoqatli, tenglik va hurmatga asoslangan oila qurish, ma’rifatli oilaning yosh avlodning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rsatish, oilada farzandlar va ota-onalarning o‘zaro munosabatlarida burch va huquqlarini belgilash, ayollarga salbiy munosabatni o‘zgartirish, xususan, nikoh, ko‘pxotinlik va shunga o‘xshash masalalarga yangicha yondashish zarur deb hisoblaydi.

Jadidlar xotin-qizlarning ta’lim olishi masalalarini har tomonlama targ‘ib etdilar. Bu yo‘lda ularga nisbatan qilingan to‘sqinliklar ham jadidlarni to‘xtata olmadi. Shunday sharoitda jadidlar o‘z mablag‘lari hisobidan yangi usul maktablarini ochib, ularda o‘g‘il va qiz bolalarning birga o‘qishlarini tashkil eta boshladilar. Shunday maktablardan birida Abdulqodir Shakuriy Samarqandda o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qita boshladi, qizlarga uning xotini dars berishga ko‘maklashgan. Abdulqodir Shakuriyning bunday ishi mahalliy boylar, ruhoniylarning noroziligaga sabab bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarda ham ochila boshlagan. Arxiv hujjatlarida yozilishicha, Toshkentdagi Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev yangi usul maktabida 3 ta qiz, Sobirjon Rahimovning maktabida 15 ta qiz o‘qigan. Qo‘qon shahrining G‘alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy 1913-yilda dastlab “usuli jadid”, keyin esa qizlar maktabini ham tashkil qilgan. Unda singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizi o‘quvchilarga saboq bergan. Abdulla Avloniy maktabida ham qizlar o‘g‘il bolalar bilan yonma-yon o‘tirib, tahsil olgan. Ma’rifatparvarlar Turkiston xotin-qizlarining dunyoviy ishlarda qatnashishlarini yoqlab chiqa boshladilar. Miyon Buzruk Solihov “O‘zbek teatr tarixi uchun materiallar”(Toshkent–1935) kitobida o‘zbek san’atining mashhur namoyandalaridan bo‘lgan O‘zbekiston xalq artisti Ma’suma Qoriyeva haqida ham gapirilgan. U “Turon” truppasidagi ilk aktrisalardan bo`lib, Toshkent teatr jamoasi sahnasiga ilk chiqqan ayol aktrisa bo`lgan.

Jadidlar xotin-qizlar o‘z ayollik huquqini anglashi, tiklashga intilishi, uni tuban kimsalardan himoyalashi jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lishi uchun diniy va dunyoviy bilim imkoniyatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilishi zarur deb hisoblaganlar.

Fayzulla Xo‘jayev ham xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqligini ta’minlashga muhim e’tibor berar edi. Uning fikricha, ayollar faqatgina huquqiy holatda erkaklar bilan teng huquqli deb e’tirof etilishi xotin- qizlarning amalda teng ekanligini anglatmaydi. Ayollarning erkaklar bilan amalda teng huquqligiga erishish uchun mehnatni muhofaza qilish, ta’lim olish, fabrika va zavodlarda ayollar malakasini oshirishda bir qator imtiyozlar berilishi, xalq ta’limi bo‘yicha pul ajratmalarini joriy etish, ona va bolalar uylari qurilishi lozim, deydi[4]. Jadidlarning ko`plab publitistik maqolalarida Turkiston ijtimoiy-maishiy hayotining asosiy muammolaridan bo‘lgan mahalliy xotin-qizlarning haq-huquqi va maorifi masalasi haqida bahslar yuritiladi. Ilm erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlarga ham nihoyatda zarurligi ta’kidlanadi.

Turkiston xotin-qizlarinnng ilm olishlari yo‘lidagi intilishlarini jadid ma’rifatparvarlari quyidagicha ifodalab bergan: “xotinlarimiz va qizlarimiz, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga etkazishlari zarur. Aks holda ayollarimiz erkaklardan ham kuchsizroq, zaifroq bo‘lganlaridan bolalarimiz ham ularga o‘xshab qoladilar. Xotin-qizlar ilm olishlari uchun sharoitlar yaratish va ulardan foydalanish kerakdir. Jadidlar shu maqsad yo‘lida oldinga intilish zarurligini uqtirganlar. “Ayollarning qullik zanjirlariga bog‘lanishi nafaqat ularning ayolik qadr-qimmatini kamsitadi, balki musulmon dunyosining madaniy rivojlanishiga fojiali ta’sir ko‘rsatishi mumkin, taraqqiyotga intilish harakatini anchagina susaytiradi”,–deb baho berilgan manbalarda jadid

namoyandalari ilmli, bilimli xotin-qizlar jamiyatda erkaklar bilan teng huquqli bo‘lib qolishlari, dunyoviy va umuman siyosiy ishlarni erkaklar bilan bir qatorda bajarishi kerakligini ta’kidlaganlar. Chunki jadidlar xotin-qizlarni jamoat ishlarida, siyosiy jarayonlarda, saylovlarda ishtirok qilishlari zarurligini o‘z e’tiborlaridan chetda qoldirmaganlar.

Xulosa qilib aytganda, jadid ziyolilari qarashlarida xotin-qizlar masalasining ko‘tarilishi o‘sha davr uchun eng dolzarb muamolardan biri edi. Ular oilaning asosi bo‘lgan xotin-qizlarning huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirish, ularning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini o‘zgartirishni o‘ta zaruriy vazifalari deb tushunganlar, xotin–qizlarni kamsitish, davlat ishlariga aralashtirmaslik va hokozalarga qarshi fikrlarni bildirib, jadidlar xotin–qizlarning jamiyatdagi o‘rnini aniq belgilab bergan edilar. Jadidlar o‘z g‘oyaviy qarashlarida va umuman faoliyatlarida xotin –qizlar masalasiga chuqur e’tibor berganlar. Ular xotin-qizlar jamiyatning dunyoviy ishlarida qatnashishi kerak degan g‘oyani ilgari surdilar.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda so‘zlagan nutqi. 07.03.2022
2. “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.
3. Фитрат А. Оила ёки уни бошкариш тартиблари. –Т.: Маънавият. 2000.
4. Файзулла Хўжаев ҳаёти ва фаолияти ҳакида янги мулоҳазалар.–Т.: Фан, 1997

YOSHLARNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGI KONSEPSIYASI

Botirova Sabogul Rahmatullayevna,
Navoiy davlat universiteti “Kimyo” kafedrasi
katta o’qituvchisi p.f.f.d. (PhD)

Bugungi kunda Mustaqil O`zbekistoning xalqparvar siyosati natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, g`oyaviy-siyosiy, etnik-madaniy hayotida kun sayin jiddiy o`zgarishlar bo`lmoqda. Jamiyatimiz moddiy va ma’naviy rivojining yangi omillari xalqning milliy o`z-o`zini anglashda samarali ta’sir ko`rsatayapti. Mamlakatimiz hayotining barcha tomonlarini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish xalqimiz madaniy kuch-qudratini ma’naviy jihatdan tiklash, g`oyaviy jihatdan yangilash va o`z-o`zini anglashdan iborat muhim vazifalarni qo`ymoqda.

Yuqori malakali pedagog kadrlarga bo’lgan talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol yosh avlodni asrlar davomida shakllanib kelayotgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega bo’lgan, fanning fundamental asoslarini puxta egallagan, pedagogika va psixologiya fanlarining zamonaviy metodlari bilan chuqur qurollangan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo’lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini yaxshi o’zlashtirib olgan ijodkor pedagog kadrlarni shakllantirish talab etiladi.

Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda har bir yoshlarimiz o’zining faniga va barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid axborotlarni muntazam

o’rgana borib, ularni o’z mehnat faoliyatida izchil qo’llay bilish mahorati oqibatidagina ta’lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil eta olishi mumkinligi sir emas. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg`un holda olib borishni talab etadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: Yoshlar tarbiyasida ilmiy ma’nviy merosning o’rnini belgilab:

- birinchidan, yosh avlodga o`zligimizni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg`ularini, xalqimizning ko`p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo`yilgan oliy maqsad va vazifalarni anglash singdirish; ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo`lgan hurfikrlikdan qat’iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan yagona g`oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- uchinchidan, yoshlarni baynalminal, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O`zbekistonga munosib hurmat tug`dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;
- to`rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;
- beshinchidan, yosh avlodni ulug` ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O`zbekistonda o`quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Davlatimiz rahbari ko`rsatib berganidek, ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar: birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir ko`rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o`zgartirishga; ikkinchidan, insonning hayotda o`z o`rnini topishini tezlashtirishga; uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga; to`rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to`la ro`yobga chiqarishga, beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo`lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan. Mazkur Konsepsiyada taraqqiyotimizning ma’naviy-axloqiy negizi-milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyg`unligi ekanligi e’tirof etiladi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o`zaro aloqalar uyg`un yo`nalishlari belgilab olindi: Milliy tarbiya yo`nalishi orqali o`zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g`urur, millatlararo muloqat madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik kabi fazilatlari shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo`nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo`nalishlari amalga oshiriladi. Bu Konsepsiyaning milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablariga mosligini ta’minlaydi. Sog‘lom oilada barkamol avlod voyaga yetadi. Mamlakatimizda oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, yosh oilalar uchun qulay turmush sharoitini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda. Umumbashariyat ma`rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shganlar. O`rta Osiyoning madaniy merosi jahon madaniyati va ma`rifatining uzviy ajralmas qismidir. Ajdodlarimiz e’zozlab kelgan, asrlar qa’ridan olib o`tilgan falsafiy, axloqiy pand-nasixadlar, qadriyatlar ataylab,

maqsadni ko`zlab yurgizilgan siyosat qurboni bo`ldi, e`tibordan chetda qoldi. Bu esa yosh avlodning ma'naviyatiga salbiy ta'sir o'tkazdi.

Konsepsiyasi asosida umumta'lim maktablari bilan o‘zini o‘zi boshqarish organlari va oila institutlari o‘rtasida yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini o‘z vaqtida aniqlash, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ta'limning keyingi bosqichiga yo‘naltirishda muhim omil bo‘lmoqda. Ayni paytda "oila-mahalla-maktab" hamkorligi oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ularda ulg‘ayayotgan o‘g‘il-qizlarni zamon talablari asosida, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o‘z samarasini berayotir. “Oila-mahalla-maktab” hamkorligining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati beqiyosdir. Yigit-qizlarning oila haqidagi tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladigan “Oila – muqaddas tushuncha”, “Oilaviy an'analar”, “Ota va ona – oila tayanchi”, “Oilada sharqona sadoqat» mavzularidagi ma'rifiy tadbirlar, tanlov va davra suhbatlari yoshlarimiz uchun har tomonlama foydali bo‘lmoqda Ayniqsa, ta'lim maskanlarida o‘tkazilayotga “Bola tarbiyasi – kelajak mevasi”, “Ilm ol, hunar o‘rgan”, “Tanlagan kasbing – sening kelajaging” hamda “Etuk mutaxassis – kelajak mevasi” mavzularidagi suhbatlar, savol-javob kechalari yaxshi samara berayotir. Ushbu tadbirlarga malakali professor-o‘qituvchilar, iqtidorli talaba-yoshlar hamda ibratli oilalar vakillari jalb etilayotgani ularning ta'sirchanligini oshirmoqda. Erta turmush qurish va yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikohlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish ishlariga ham shahar va tumanlarda alohida e'tibor qaratilmoqda. “Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona” ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari doirasida yoshlarni oilaviy hayotga ma'naviy-ruhiy tomondan tayyorlash, ularda oilaga mas'uliyat hissini uyg‘otish yuzasidan olib borilayotgan ishlar ham e'tiborga sazovor Aholiga ta'lim tizimidagi islohotlar samaralari haqida kengroq tushuncha berish maqsadida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qoshida “Ota-onalar universitetlari”ning faoliyatiga bag‘ishlangan burchaklar tashkil etilmoqda, buklet, eslatmalar chiqarilmoqda, ular hisobotlari eshitilmoqda. . Bugungi kunga nazar tashlasak ham oila, maktab, jamoatchilik hamkorligiga alohida ahamiyat kasb etadi.

ENHANCING WOMEN'S SOCIAL ENGAGEMENT IN HIGHER EDUCATION BASED ON GENDER EQUALITY

Yandashova Ruxshona
Navoi State University
student Faculty of Foreign languages and Literature
Scientific advisor: X.B. Hasanova

Annotation: This article explores the role of gender equality in the higher education system and its impact on women's social engagement. It highlights how access to higher education empowers women by providing professional development opportunities, leadership skills, economic independence, and participation in scientific and innovative activities. The study also examines challenges such as gender-based discrimination and the need for policy reforms to ensure equal educational and career opportunities for women. The article emphasizes that

strengthening gender equality in higher education contributes to broader social progress and sustainable development.

Keywords: Gender equality, higher education, women's social activity, professional development, economic independence, leadership, scientific research, innovation, education policy, discrimination.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль гендерного равенства в системе высшего образования и его влияние на сотсиальную активность женщин. Подчеркивается, что доступ к высшему образованию дает женщинам возможности для профессионального развития, приобретения лидерских навыков, экономическое независимости, а также участия в научных и инновационных исследованиях. В исследовании анализируются проблемы, связанные с гендерной дискриминatsieй, и необходимость проведения политических реформ для обеспечения равных образовательных и карьерных возможностей. Статья подчеркивает, что укрепление гендерного равенства в высшем образовании способствует общему социальному прогрессу и устойчивому развитию.

Ключевые слова: Гендерного равенство, высщее образование, социальная активность женшин, профессиональное развитие, экономическая независимость, лидерство, научные исследования, инновации, образовательная политика, дискриминация.

Anotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'lim tizimida gender tengligining roli va uning ayollarning ijtimoiy faolligiga ta'siri tahlil qiladi. Ayollarning oliy ta'limga ega bo'lishi ularning kasbiy rivojlanishi, rahbarlik ko'nikmalarini egallashi, iqtisodiy mustaqillikka erishishi, hamda ilmiy va innovatsion faoliyatda ishtirok etishga imkon yaratishi ta'kidlanadi. Tadqiqotda gender diskriminatsiyasi bilan bog'liq muammolar va ayollar uchun teng ta'lim hamda kasbiy imkoniyatlari ta'minlashga qaratilgan siyosiy islohotlar zarurati ko'rib chiqiladi. Maqolada oliy ta'limda gender tenglikni mustahkamlash jamiyatning umumiy ijtimoiy taraqqiyoti va barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, oliy ta'lim, ayollarning ijtimoiy faolligi, kasbiy rivojlanish, iqtisodiy mustaqillik, rahbarlik, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiya, ta'lim siyosati, diskriminatsiya.

In modern society, gender equality its not only about protecting human rights but also serves as crucial factor for sustainable development. The higher education system plays a vital role in ensuring gender equality and increasing women's social activism. Firstly this article will analyze what is the gender equality, then discuss the issues related equality in higher education and the social empowerment of woman. As society rapidly evolves, people strive to keep pace with modern advancements. This progress extends to women as well. Traditionally, women have been expected to focus solely on householdd resonsibilities and childcare, reinforcing the idea that they must choose between family and career. However, such notions hinder gender equality. One of the most pressing challenges in today's development is achieving true equality, particularly within families and society. Unfortunately, most of the women remain excluded from progress, and even those who participate often face significant obstacles, including hardships, losses, and in many cases, family conflicts or divorces. To address these challenges, Uzbekistan introduces the "Law on Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men" on September 2, 2019. This legislation serves as legal protection for women's rights and their role in society. Additionally, the country's Constitution ensures equal rights for both men and women, reinforcing their legal status.

Although women are often praised in words, the reality is different -do they truly receive the respect and opportunites they deserve? A closer look at the Constitution reveals strong protections for women's dignity and rights et in practice, these principles are not always fully realized. Gender equality is not just a legal or social issue; its a fundamental human right and a cornerstone for a peaceful, prosperous, and sustainable world. In recent ears, significant progress has been observes in gender equality. More girls are attending school, fewer are being forced into early marriages, and more women are securing positions in parliament and leadership roles. Legal reforms are being implemented to promote gender equality. However, achieving full equality by 2030 requires urgent measures to eliminate key discriminatory factors in both private and public sectors.

For instance, eliminating discriminatory laws and adopting policies that actively promote equality are essential. Despite this progress, challenges remain; in 49 countries, there are still no laws protecting women from domestic violence, and in 39 countries, daughters and sons do not have equal inheritance rights. Ending gender-based violence remains one of the most pressing global issues today.

Women's contributions to all fields, particularly in raising children and maintaining family life, are invaluable and cannot be measured or compared. Article 46 of the Constitution of Uzbekistan guarantees equal rights for men and women. The government has reinforced its commitment to eliminating all forms of discrimination against women and upholding their political and economic rights. Additionally, Uzbekistan has signed international conventions promoting equal pay and incentives for both men and women in the workforce. Across the country, the percentage of women in leadership positions in various enterprises increased from 44.2% in 2017 to 45.3% in 2019.

According to the Cabinet of Ministers' resolution on "Measures for Sustainable Development Goals Until 2030", Uzbekistan aims to achieve gender equality by expanding the rights and opportunities of all women. By 2030, discrimination against women in any form must be eliminated, and women should be given equal opportunities to participate in decision – making at all levels of political, economic, and social life.

Gender equality in the higher education sysrem ensures that women have the same opportunites as men to persue academic and professional careers. When women are empowered in education, they contribute to economic growth, innovation, and social development. Studies have shown that diverse academic environments lead to better research outcomes and improved institutional performance. Additionally, gender-balanced leadership in universities fosters inclusive policies and encourages young women to pursue higher education and leadership roles.

Women's leadership plays a crucial role in shaping inclusive and progressive societies. When women are empowered to lead, they bring diverse perspectives, innovative solutions, and a more collaborative approach to decision- making. Despite advancement in gender equality, women remain underrepresented in

leadership positions across various sectors, including business, politics, and academia. Encouraging women's leadership is essential for a social and economic development, as it fosters inclusivity, strengthens communities, and drives sustainable progress.

When women are given access to research and scholarship opportunities, they contribute to groundbreaking discoveries, drive social progress, and inspire future generations. Gender diversity in research leads to more inclusive and holistic solutions to global challenges. Additionally, supporting women in academia helps bridge the gender gap in leadership and decision-making roles within universities and research institutions.

Strategies to enhance women's social engagement in higher education:

-Universities should adopt policies that promote equal opportunities for both men and women in all aspecta of campus life. This includes ensuring equal representation in student organizations, leadership roles, and decision-making processes.

-Higher education institutions should create programs that encourage women to take on leadership roles in student councils, academic committees, and extracurricular activities. Leadership training and mentorship programs can help women develop the confidence and skills needed for active participation.

-Creating student organizations and mentorship programs specifically for women can provide a supportive environment for networking, professional growth, and social engagement. These networks can help women navigate academic challenges and build strong relationship with peers and mentors.

-Providing more scholarships, grants, and research funding specifically for women can encourage greater participation in academia.

-Highlighting the accomplishments of women in academia through awards, media representation, and institutional support can inspire other women to engage more actively in higher education.

In conclusion, gender equality is the fundamental principle that every individual, regardless of gender, should have equal rights, opportunities, and access to resources in all spheres of life. Achieving gender equality goes beyond simply ensuring equal treatment; it involves dismantling barriers, challenging stereotypes, and promoting the empowerment of all genders.

When men and women share equal opportunities in education, employment, leadership, and decision-making, societies flourish, leading to greater economic prosperity, social stability, and improved well-being for all.

REFERENCES:

1. Odilova M.R and Muhammad Ayub Frangiz Bori Shoh qizi. "Gender tengligi va ayollarning huquqlari" Universum: "O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar" mavzusidagi davriy anjuman materiallari Respublika ilmiy-uslubiy elektron-onlayn jurnal, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. ,,Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida'' gi Qonun

4. UNESCO. Gender Equality in Hgher Education . 2021
5. International Labour Organization. ‘’Women’s Participation in Education and Leadership Roles. 2022

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING TIBBIY-ILMIY KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI

Raxmonova Dilovar Ostanaqulovna
NDU Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Sport-sog‘lom xalq, sog‘lom jamiyatning tayanch ustunidir.
Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish uchun yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalashda muhit va sharoit yaratish zarur. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Barqaror motivatsiya, sog‘lom va samarali turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish, jismonan o‘zini-o‘zi takomillashtirish, shaxsiy tajriba orttirish, jismoniy madaniyat vositalari va usullaridan ijodiy foydalanish, psixofiziologik tayyorgarlikning belgilangan darajasiga erishish XXI asr avlodining hayotini sifat jihatidan o‘zgartirishi, uni to‘liq va baxtli qilish mumkin. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy muammolaridan biri bu bolalar, o‘smirlar va talabalarning jismoniy, ruhiy va axloqiy salomatligi holatidir. Bugungi kunda jamiyat a’zolariga tibbiy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatishning turli vositalaridan foydalanish davr talabi. Shuning uchun maktab, oliy o‘quv yurtlari va boshqa ta’lim muassasalarida salomatlikni saqlash tadbirlarini tashkil etish zarur. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari insonning biologik tabiatini chuqur tushunishni talab qiladi, shuning uchun jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha bakalavrlarni tayyorlash uchun o‘quv dasturida bitiruvchilarning biotibbiy tayyorgarligi zarur. Psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lgan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ijtimoiy roli ularning kasbiy faoliyatining insonparvarligi hamda maktab o‘quvchilari o‘rtasida tibbiy, valeologik, sanitariya-gigiyena bilimlarini tarqatish zarurati tufayli tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida sog‘liqni saqlashni tashkil etishga tibbiy-ilmiy yondashuvni jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining tegishli kompetentsiyasini, kasbiy

mahoratini va shaxsiy javobgarligini rivojlantirishga qaratilgan usul sifatida o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etishni maqsadga muvofiq. Tibbiy-ilmiy ma'lumotga ega bo‘lgan mutaxassisning faoliyat ob'ekti - bu shaxs, maktab o‘quvchisi, sub'ekti esa jismoniy, ta'lim - tarbiya jarayonida shaxsning ruhiy va ma'naviy salomatligi, uni tibbiy-pedagogik tartibga solish imkoniyatidir.

Inson tanasi bilan ishlaydigan kasblardan biri jismoniy tarbiya kursi hisoblanadi. Chunki mashg‘ulotlarni noto‘g‘ri tashkil etish, uslubiy tamoyillardan noto‘g‘ri foydalanish, insonning sog‘lig‘i va individual xususiyatlarini hisobga olmasdan o‘quv yukining hajmi va intensivligini rejalashtirish istalgan natijalarni bermaydi yoki hatto salomatlikka zarar etkazishi mumkin. Jismoniy tarbiya umumiy ta'limning uzviy qismi, ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Salomatlik esa inson tanasining shakllari va funksiyalarining uyg‘un rivojlanishi mustahkamlashga qaratilgan, uning jismoniy qobiliyat va fazilatlar, kundalik hayotda va ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo‘lgan vosita ko‘nikmalari va ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, pirovardida, jismoniy rivojlanishga erishishni ta’minlaydi. Jismoniy madaniyat salomatlikni mustahkamlashi kerak. Bu jismoniy sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganlik tamoyilining asosiy mohiyatidir. Shu munosabat bilan mohiyat yo‘nalishlari - tashqi ko‘rinishi, yoshi, jinsi, ishlab chiqarish va ta'lim faoliyatining tabiati, deyarli sog‘lom odamning sog‘lig‘i va funktsional holatini hisobga olgan holda motor rejimini optimallashtirish va jismoniy faoliyatni individuallashtirishga qaratilgan. Jismoniy madaniyat, shubhasiz, xalq umumiy madaniyatining bir qismi va aksidir.

Jismoniy madaniyat o‘qituvchining shaxsiy muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichi, bolalar va yoshlarning sog‘lig‘i e'tiborga olinishida bo‘lib hisoblanadi. Agar u bolalarni sport bilan shug‘ullanishning odam organizmiga ijobiy tomonlari bilan tanishtirsa, demak u ma'lum darajada bola salomatligiga xavf soladigan muammolarni hal qilgan, bartaraf etgan bo‘ladi. Shuningdek, darslarni yuqori darajada amalga oshirish, bolalar bilan birgalikda barcha ommaviy sport tadbirlarida faol ishtirok etish, darsdan keyin sport to‘garaklarida darslar tashkil etish uchun u ko‘p qirrali trenirlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Jismoniy madaniyat o‘qituvchisi har doim yaxshi sport formasida bo‘lishi kerak. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida talabalar tomonidan faollikning namoyon bo‘lishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining madaniyati va shaxsiy namunasiga bog‘liq.

Bugungi kunda zamonaviy jismoniy madaniyat o‘qituvchisi pedagoglik faoliyatida talabani o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilishga qolaversa atrofidagilarning sog‘lig‘i, ularni har kuni jismoniy mashqlar qilishga ko‘nikma hosil qiladigan ilmiy, tashkiliy va uslubiy usullardan foydalanishi kerak. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi pedagogik o‘z-o‘zini takomillashtirishni unutmasligi kerak. Zamonaviy mutaxassisdan sohada insonning jismoniy salohiyatini tabiiy rivojlantirish texnologiyalari haqidagi chuqur bilim talab etiladi. Doimiy ravishda yosh avlodning qiziqishi, yoshlar va aholi sport bilan shug‘ullanishi samarali shakllarini aniqlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni vositalari, texnologiyalari hamda yangi pedagogik izlanishlar olib borishlari kerak.

Tibbiy-ilmiy kompetentsiya - bu ta'lim va ijtimoiylashuv jarayonida olingan tibbiy va psixologik-pedagogik bilim va tajribalarni birlashtirishga asoslangan

ta'lim muhitida sog‘liqni saqlash faoliyatiga umumiy qobiliyat va tayyorgarlikda namoyon bo‘ladigan shaxsning ajralmas sifati va zamonaviy jamiyatning o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida mustaqil va konstruktiv salomatlikni saqlash faoliyatiga qaratilgan.Tibbiy savodxonlik bu sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq muammolar echimini topishga yordam beradi. Har bir o‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyat har kuni so‘zda, amalda, tashqi ko‘rinishida o‘quvchilariga sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini singdirishga majburdir.

Tibbiy savodxonlik odamlarning sog‘liqni saqlash bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan asosiy sog‘liqni saqlash ma'lumotlari va xizmatlarini olish, qayta ishlash va tushunish qobiliyatiga ega bo‘lish darajasi. Sog‘liqni saqlash savodxonligi individual va tizimli omillarga bog‘liq. Moslashuvning fiziologik mexanizmlari va qonuniyatlarini tushunish salomatlikni saqlash va mustahkamlash, jismoniy tarbiya dars jarayonida samaradorlikni oshirishning amaliy tibbiy, biologik va pedagogik muammolarini hal qilishning kalitidir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi maktab o‘quvchilarining salomatligi uchun shifokordan ko‘ra ko‘proq narsani qila oladi. Ayni paytda ko‘z bilan ko‘rish imkoniyati bo‘lmagan biologik, anatomik, fiziologik jarayonlar, hujayra, to‘qima va organlarning ishlash mexanizmlarini o‘rganish, umuman olganda, o‘qituvchilar e'tiborini bolalarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarga jalb qilishni ijobiy hodisa sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 14.08.2018 yildagi PQ-3907-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni

3. Mamatkulov D.A. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent - 2017.

4. Перова Г.М. Основы теории физической культуры студентов не физкультурного вуза. Москва – 2015

5. Raxmonova D.O. Opportunities for the use of innovative technologies inthe organization of independent education in the credit-module system. International
journal of recently scientific researcher's theory December 31, 2023.P.367-370

6. Raxmonova D.O. Biologiyada ishlatiladigan amaliy innovatsion dasturlar haqida asosiy tushunchalar va ularning imkoniyatlari. Journal of universal science research.27.12.2023.P.625-628.

7. Raxmonova D.O. Sog‘lom avlod tarbiyasiga zaruriy biologik-ekologik jihatlar
bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarning tajribalari. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va echimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
2024-yil 20-fevral

OILA QURISHNING UMUMINSONIY QADRIYRTLARI

Umida Murodullayeva
NavDU O‘zbek tili va adabiyoti ta`lim yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d., dotsent Nasiba Tursunova

Yurtimizda azaldan oila muqaddas qo‘rg‘on sifatida e’zozlangan. Zero, inson qalbida mehr-oqibat tuyg‘ulari, ilm-ma’rifatga oshno bo‘lish ko‘nikmasi, avvalo, shu aziz dargohda shakllana boshlaydi. Bosh qomusimizda oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, deb belgilanganligi zamirida ham ana shu milliy qadriyatlarimiz mazmuni mujassam.

Ma’lumki, dinimizda muqaddas narsalar bor. Muqaddas deganda - inson uni qalbi bilan e‘zozlab, amali bilan ulug‘lashi kerak bo‘lgan narsa tushuniladi. Oila ham dinimizda muqaddas sanalgan narsalardan biridir. Oilaning asoschisi bo‘lgan eru xotin bu muqaddas qo‘rg‘onni asrab-avaylashi kerak. Qadim o‘tmishdan o‘zbeklarda oila – bu muqaddas dargoh deb qaralgan. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa shunchalik farovonlik, qut-baraka, fayz arimaydi. Ota-bobolarimizdan qolgan meros oilaning musahkamligi yo‘lida sabr-toqat va halol mehnat ila hayot kechirish foydadan holi ermas deyiladi.

O‘z hayoti, ma’naviyati va kelajagining bunyodkori bo‘lgan bola shaxsining kamol topishida oila muhiti, sog‘lom turmush tarzi birinchi darajali rol o‘ynaydi. Ota-ona oilaning muqaddasligini dildan his etishi, uning mustahkam, barqaror va umrboqiy bo‘lishida mas’uliyatini chuqur anglashi, farzandi hayotida yuksak ma’naviy-axloqiy milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rnini mustahkamlaydi, oilaning ijtimoiy hayotdagi mavqeini oshiradi. Sababi, oila-jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga poydevor bo‘luvchi asosiy ijtimoiy dargoh sanalib, undagi muhit qanchalik sog‘lom bo‘lsa, Vatan shunchalik gullab yashnaydi, taraqqiy etadi.

Oila tarbiyali bo‘lishi uchun avvalo ota-ona tarbiyali bo‘lishi lozim. Mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o‘ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, har tomonlama yetuk, aqlli, sog‘lom bo‘lib voyaga yetadi. Ota-ona doimo o‘z farzandi timsolida ezgu orzu-niyatlar yuzaga chiqishini tasavvur qiladi. Umuman bugungi kunda amalga oshirayotgan barcha ishlarimiz birinchi galda farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon, aqlli, sog‘lom, mehribon hamda mehnatsevar farzand nafaqat ota-onasining, balki butun jamiyat va xalqning boyligidir.

Xalqimzning ajoyib urf-qdatlaridan biri o‘g‘ilni uylantirib qo‘yish marosimidir. Buning ham mintalitetimizga xos o‘z talablari va majburiyatlari bor. Bugungi kun yoshlari orasida talabalik davridan oila qurish holati ko‘pchilikni tashkil etadi. Shunga ko‘ra turmush quradigan yosh qiz va yigitning ota-onasi roziligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kimningdir oilasida ota- ona ehtiyoji, qurbiga qarab ertaroq uylantirib qo‘yishlari ham, oliy ta`limda o‘qiydigan talaba qizni kelin qilishlari, unga sharoit yarata oladigan oilalar ham uchraydi. Ammo masalaning aksi bo‘lsachi?, bu esa oilaning parkoandaligiga sabab bo‘ladi. Shunday ba`zi tushunmovchiliklar, bo‘lar-bo‘lmas ortiqcha gap-so‘zlar, ma`naviyatsizlik tufayli oilalar buzilishiga sabab bo‘ladi.

Ayniqsa, ilm olish yo‘lida tinmsiz izlanayotgan qizlarimiz omadi tufayli yokiy oilaviy ehtiyojining tansiqligi sababli bir-ikki yillar o‘tib keyin o‘qishga kiradilar. Bunday vaziyatda ota-ona o‘g‘il-qizlarini vaqtida o‘z juftini topib, orzu-havalslarini amalga oshirish maqsadida o‘qishni tugatmasdan turmushga beradiar.

Bunday holatda talaba kelin bo‘lish osonmi? yo‘q albatta. Chunki, talabalikning o‘zi bir ma`suliyatini tashkil etsa, oilalkning bo‘lishning siru-sinoatlari ham ikkinchi bir murakkab jarayonni tashkil etadi.

Negaki, talaba qiz, kelin bo‘lishga tayyormi?, eplay oladimi?, ham erni, ham qaynota va qaynona bilan munosabatni qanday amallaydi? -degan savolga javob bormi? deysiz. Bunday savolarga har ikki tomon ota-onalari uylab, mulohaza qilib, bir to‘xtamga kelmoqlari lozim. Dono xalqimiz tomonidan shunday purma`no naql bor-ki: “Yetti o‘lchab - bir kes” deb, bejizga aytilmagan.

Shu o‘rinda, o‘tiz yillik pedagoglik faoliyat va shuncha yillik oila bekasi tajribasidan kelib chiqib, shunday taklif va mulohazalarimizni berish joiz deb bildik.

Bu borada, oliy ta`lim (institutlar) dargohlarida misol tariqasida***: “Olia maktabi”, “Mustahkam oila”, “Muqaddas qo‘rg‘on”, “Ma’naviyat qo‘rg‘oni”, “Qadriyat”*** kabi fanlar tashkil etilsa, yoshlarimiz oila muqaddasligini teran anglashida muhim ahamiyat kasb etadi deb, uylaymiz. Shundagina talaba yoshlar erta oila qurish borasidagi xatoliklarini, turmushning mushtiga chidashlikni, bir umrlik qo‘rg‘nligini chuqur tushunishlariga zamin hozirlaydi. Kelajakda qizlarimiz ona va alla o‘rtasida uzilmas zanjir borligini anglasalar, yigitlarimiz oilaning tayanchi, suyanchi, posboni ekanliklarini his etishlari ajab emas.

O‘zbek xalqi azal-azadan oilaparvar bolajon xalq-ki, ular bolam deb yashashlari muqarrar. Maqsadmiz poydevori mustahkam oilalar ko‘payishi, xalq va yurt farovonligi yo‘lida sog‘lom, vatanparvar, komil inson shakillanishiga munosib hissa qo‘shmoq. Ma’naviyat qo‘rg‘oni bo‘lgan oilani mustahkamlash barchamizning burchimiz ekanligini hamisha yodda tutmog‘imiz va unga amal qilmog‘imiz lozim.

TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING O‘Z QOBILIYATLARINI RO‘YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI.

Nabiyeva Negina Dilshod qizi
NDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Boboqulova Gulshoda Komiljon qizi
Ostanaqulova Nozima Vohid qizi
NDU, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar.

Darhaqiqat, oqila va o‘qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratadi. Mamlakatimizdagi mavjud qonunchilikka ko‘ra, ayollarga bir qator imtiyoz va engilliklar berilgan. Unga ko‘ra, xotin-qizlar ta’lim olish, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish, to‘lovsiz magistraturada o‘qish va imtiyozli uy-joylar olish imkoniyatiga ega.

Maqolada ta’lim transformatsiyasida gender tenglik masalalari, ilm-fan taraqqiyotida rahbar ayollarning roli, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida olima ayollarning ishtiroki, xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, ilm – fan taraqqiyoti, texnika va innovatsiyalar samaradorligini oshirishda olima ayollarning ishtirokini ta’minlash kabi masalalar xususida so‘z boradi.

Shuningdek, jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta’minlash mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga kiradi.

So‘nggi uch yilda to‘lov-kontrakt asosida o‘qiyotgan xotin-qizlarga imtiyozli foizsiz ta’lim krediti berilishi yo‘lga qo‘yildi. Kollej va texnikumlarga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilingan xotin-qizlar uchun davlat granti ajratilishi belgilandi. Ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta’lim muassasalariga kirishda davlat granti asosida qabul doirasidagi tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berilishi hamda magistraturada o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari qaytarish shartisiz qoplanishi tartibi joriy etildi.



Kimlardir ayol kishining rahbar bo‘lganining nimasi yaxshi, deyishi mumkin. Bunday savolga javob aniq: nozik hilqat sohibalari ijtimoiy masalalarga ko‘proq yurakdan his qilib yondashadi, dilidan o‘tkazib qarorlar qabul qiladilar. Ijtimoiy masalalar esa, bu — xalqning dardi, xalqning muammosi, shu kecha-kunduzda uning boshidan o‘tayotgan muammolar bilan uzviy bog‘liqdir.

Ayol buni ko‘proq, teranroq tuyishining yana bir sababi u oila bekasi, bolalar tarbiyachisi, ularning sog‘lig‘i uchun qayg‘uradigan shifokordir. Siyosiy hayotda faol bo‘lgan xotin-qizlarimiz aynan mana shunday xislatlari tufayli qonunlarning yana-da hayotiy bo‘lishi uchun kurashadilar, ularda aniq masalalar, muammolarning echimlarini ifodalash uchun jon kuydiradilar.

Binobarin, O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasiga juda katta e’tibor qaratilyapti. Ularning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari Konstitutsiyamiz, qonunlarimizda mustahkamlab qo‘yilgan.

Tan olish kerak, orada bu boradagi islohotlarning ko‘pi qog‘ozda qolib ketdi. Ayrim holatlarda ayollar o‘zlarini namoyon etishlari uchun sharoitlar kamlik qildi, stereotiplar to‘siq bo‘ldi. Masalan, ayol tadbirkorlik qilaman, desa, preferensiyalar berish tizimi yo‘q edi. Umuman, ularga imtiyozlar yaratish bo‘yicha huquqiy baza yaratilgan bo‘lsa-da, shularni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha aniq “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilmagan edi. Oqibatda jamiyatning aslida faol bo‘lishi kerak bo‘lgan mazkur qatlami tobora passivlashib ketdi.

Bir tomondan bu mentalitetga ham bog‘liq bo‘lgan, deb o‘ylayman.

Birgina ta’lim sohasini oladigan bo‘lsak, bizda qizlar va o‘g‘il bolalarning bilim olishlari, kasb tanlashlari bo‘yicha kelajaklarini ta’minlashda farqlar bor edi, hali ham bunday dunyoqarash uchrab turibdi. To‘g‘ri, hamma bolalar maktabda o‘qitiladi. Biroq keyinchalik kasb tanlash, oliy o‘quv yurtida tahsil olishga kelganda, ko‘proq e’tibor va ustunlik o‘g‘il bolaning ta’lim olishiga, uning uchun barcha sharoitni yaratishga qaratiladi. Chunki ba’zi insonlarda faqat o‘g‘il bolaga bilim berish kerak, o‘qitish kerak, chunki u bizning boquvchimiz, degan qarashlar ustunlik qiladi.

Qiz bolaga kelganda, bu boshqacha tus oladi. Maktab ta’limi majburiy bo‘lgani bois o‘qiydi. Ammo keyin “bu birovning xasmi, kerak bo‘lsa turmush o‘rtog‘i boqib oladi”, degan tushunchaga urg‘u beriladi.

Vaholonki, qiz bola oliy ma’lumotli bo‘lsa, qanchalik bilim va salohiyat olsa, buni kelgusida farzandlariga ham “yuqtiradi”, har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazish masalasiga mas’uliyat bilan yondashadi. Yurtning kelajagi esa mana shunday dunyoqarashga ega onalar tomonidan yaratiladi.

O‘z navbatida, bugun jamiyatimizda o‘ta bilimli, qobiliyatli bo‘lsa-da, o‘zini oilasiga, turmush o‘rtog‘i va farzandlariga bag‘ishlagan ko‘plab ayollarni bilaman. Zero, oilaning ta’minoti uchun turmush o‘rtog‘i etarli mablag‘ni topsa, ayolning o‘zi ham bor vaqtini, mehnatini bolalari uchun sarflasa, nima uchun biz uni majburlab ishga olib chiqishimiz kerak? Bu ham ularning o‘z huquqi, tanlovi aslida.

Demak, xotin-qizlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida, birinchi navbatda, ota-onalarning munosabati katta rol o‘ynasa, ikkinchisi, oliy ta’limda ularni qamrab olish imkoniyati muhim o‘rin tutadi. Masalan, talaba qiz turmushga chiqsa, o‘qishni qiynalib davom ettirishga majbur bo‘ladi. Qo‘llab-quvvatlaydigan qaynota bilan qaynonaning qo‘liga tushsa-ku yaxshi, ammo “o‘qib nima bo‘larding”, deydigan oilaga kelin bo‘lsa, buyog‘ini tasavvur qilavering. Yillar davomida to‘planib qolgan shu kabi muammolar, oliy o‘quv yurtlariga yoshlarni qamrab olish ko‘rsatkichining to‘qqiz foiz ekanligi oliy ma’lumotli, keng tafakkur va dunyoqarashi bor ayollarni tarbiyalashda katta to‘siq bo‘ldi.

Quvonarlisi, bugungi kunda zamonaviy fikrlaydigan ota-onalar, qaynota-qaynonalar, kuyovlar ko‘payib boryapti. O‘z navbatida, xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasbli bo‘lishi uchun qog‘ozda emas, real hayotda katta qulayliklar, engilliklar yaratilmoqda. Bugun gender tenglik degan demokratik tamoyil haqida ochiq-oydin gapirilayotgani, bu borada izchil chora-tadbirlar olib borilayotgani fikrimizga misol bo‘la oladi.

Aslida gender tenglik nima degani?

Shunday paytlar bo‘ldiki, zo‘ravonlik, kambag‘allik so‘zini ishlatishdan qanchalik qo‘rqsak, rahbarlarimiz gender tenglik so‘zini qo‘llashdan ham shunchalik qo‘rqar edilar. Bu so‘zlar mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy hayotida deyarli oshkora tilga olinmasdi. Shuning uchun ham, gender tenglik deganda odamlarimiz ongida noto‘g‘ri tushunchalar shakllanib qoldi.

Xuddiki, gender tenglik atamasi ayollar erkaklardan ustun bo‘lishi, ularni mensimaslik, erkaklarga o‘z gapini o‘tkazish, degan ma’nolarni anglatadi, deya qabul qilindi. Vaholonki, gender tengligi juda ham chiroyli tushuncha. Bu erkaklar

va ayollarga hamma narsada teng imkoniyatlar berish kerak, degani. Ya’ni bilim olish, kasb tanlash, lavozimda ko‘tarilishda erkaklar bilan ayollarga birdek imkoniyatlar yaratilishi — gender tenglikdir.

BMTga 1992-yildan buyon a’zo bo‘lsak ham, lekin uning ko‘p talablarini bajarmasdan kelganmiz. Chunki bizda shu gaplarni aytish mumkin emas edi. Kambag‘allik yo‘q edi, go‘yo hamma chiroyli yashardi. Hozirgi davrda bu kabi munosabatlar tubdan o‘zgardi.

Davlatimiz rahbari o‘zlarining lavozimlariga kirishganlaridan keyin xalq bilan muloqot siyosatini boshladi. Boshida muloqot deganda ko‘p rahbarlar, har xil darajadagi mas’ullar ham esankiradi, qanday qilib ishlashi kerakligini tushunmadi. Bir-ikki marta birovlarning muammosini hal qilsam, men o‘zimni ishimni bajaraman, deganlar ham bo‘ldi.

Endilikda joylardagi mas’ullarimiz, senatorlarimiz va deputatlarimiz bu mas’uliyatni his qilib, alohida e’tibor bilan qarashga o‘rganmoqda. Bu gender tenglikni ta’minlash masalasiga ham bevosita taalluqlidir.[31]

Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik va amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, globallashuv sharoitida xotin-qizlarning intellektual salohiyatlarini yuksaltirishning zamonaviy muammolari, ta’lim tizimini modernizatsiyalashda xotin-qizlarning o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari joriy qilindi. [32]

TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING O‘Z QOBILIYATLARINI RO‘YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI

Mamadiyeva Navbahor
Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Yuldasheva Malika Bioloiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bevosita ta’lim tizimini modernizatsiyalash bilan bog‘liq. Gender tenglik va ayollarning ta’lim jarayonida faolligini oshirish bugungi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xotin-qizlarning ta’lim tizimida faol ishtirok etishi nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki umuman jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada ta’lim tizimini modernizatsiyalashda xotin-qizlarning imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Xotin-qizlar jamiyatning asosiy tayanchlaridan biri bo‘lib, ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sanaladi. Xususan:

- xotin-qizlarning ilmiy sohalarda erkin rivojlanishi jamiyatda innovatsiyalarni kuchaytiradi;

-ayollar iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda samarali ishtirok etsa, mamlakatning umumiy taraqqiyoti tezlashadi;

[31] https://strategy.uz/index.php?news=879&lang=uz
[32] https://uza.uz/oz/posts/oqila-va-oqimishli-onalar-millatning-buyuk-kelajagini-yaratadi_568781

-gender tengligi ta’minlangan ta’lim tizimi ijtimoiy adolat va farovonlikni oshiradi.

Dunyo tajribasiga qaralsa, rivojlangan mamlakatlarda ayollar ta’lim darajasining yuqoriligi jamiyatning barcha jabhalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida xotin-qizlar uchun quyidagi imkoniyatlar yaratilmoqda:

-raqamli ta’lim platformalarining joriy etilishi – masofaviy ta’lim xotin-qizlarga an’anaviy cheklovlarsiz o‘qish imkonini beradi;

-kasb-hunar va tadbirkorlik bo‘yicha maxsus dasturlar – ayollarni iqtisodiy mustaqillikka tayyorlash uchun maxsus grant va o‘quv kurslari mavjud.

-STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo‘nalishida gender tenglikni ta’minlash – xotin-qizlarning ilm-fan va texnologiya sohalarida faolligini oshirish uchun maxsus loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Maktab va oliy ta’limda gender muvozanatini yaratish – O‘qituvchilar va talabalar orasida gender tenglikni ta’minlash hamda xotin-qizlarning akademik rivojlanishiga yo‘l ochish maqsadida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xotin-qizlarning o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida bir qator muammolar mavjud:

-an’anaviy stereotiplar sababli ayrim kasblarga ayollarni qabul qilishda cheklovlar borligi;

-ilmiy va tadqiqot sohalarida ayollarning etakchi lavozimlarga chiqish imkoniyatlarining kamligi;

-oilaviy majburiyatlar va ijtimoiy bosim sababli ayollarning to‘liq ta’lim olishga vaqt ajrata olmasligi;

Ba’zi mamlakatlarda ayollarning ta’lim olish huquqlarining cheklanishi.

Bu muammolarni hal qilish uchun davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Jumladan, ayollar uchun grant dasturlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarda ularning faolligini oshirish va gender tenglik siyosatini yanada rivojlantirish kerak.

Ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida xotin-qizlarning o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

-ayollar uchun maxsus grant va stipendiyalar sonini oshirish;

-masofaviy va kechki ta’lim dasturlarini rivojlantirish, bu ayollarga ta’lim olishda moslashuvchanlik yaratadi;

-STEM sohalarida xotin-qizlarning ishtirokini kengaytirish uchun maxsus kurs va loyihalarni rivojlantirish;

-ilmiy va tadqiqot institutlarida ayollarni etakchi lavozimlarga tayinlashni rag‘batlantirish;

-gender tenglikni targ‘ib qilish va jamiyatdagi an’anaviy stereotiplarni yo‘qotish.

Shunday qilib, xotin-qizlarning ta’lim tizimida o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir. Shu sababli, har bir insonning ta’lim olish huquqini ta’minlash va xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot,1998
2. Qodirov A. Gender tenglik va zamonaviy ta`lim tizimi. – T.: Fan,2021.
3. Rasulova D. Ayollarning ijtimoiy faolligi va ta`limtizimi. – T.: Ma`naviyat,2022
4. UNESCO Report on Gender Equality in Education, 2023
5. www.unwomen.org – BMTning gender tenglik bo`yicha rasmiy sayti.
6. www.edu.uz – O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.
7. www.sciencedirect.com – Xalqaro ilmiy maqolalar bazasi.

TA’LIM MENEJMENTIDA GENDER STEREOTIPLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Yunusova Xolidaxon To‘lqinjon qizi
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender stereotiplarining jamiyatdagi roli, ularning ta’lim, mehnat bozori, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy hayotga ta’siri tahlil qilinadi. Gender stereotiplari shaxsiy va kasbiy rivojlanishga qanday to‘sqinlik qilishi, ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender tengligini ta’minlash jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Maqolada gender stereotiplarini kamaytirish uchun ta’lim tizimi, ish joylari, huquqiy islohotlar va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, gender stereotiplar, ta’lim va gender, gender rollar, gender yondashuv, huquqiy tenglik.

Аннотация. В статье анализируется роль гендерных стереотипов в обществе, их влияние на образование, рынок труда, средства массовой информатsии и общественную жизнь. Также рассматривается, как гендерные стереотипы препятствуют личностному и профессиональному развитию, и пути их преодоления. Результаты исследования показывают, что обеспечение гендерного равенства является одним из важных факторов прогресса общества и устойчивого развития. В статье рассматриваются меры, которые могут быть реализованы через систему образования, рабочие места, правовые реформы и средства массовой информатsии для снижения гендерных стереотипов.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерные стереотипы, образование и гендер, гендерные роли, гендерный подход, юридическое равенство.

Abstract. This article analyzes the role of gender stereotypes in society, their impact on education, the labor market, the media, and social life. It also examines how gender stereotypes hinder personal and professional development, and ways to overcome them. The results of the study show that ensuring gender equality is one of the important factors for the progress of society and sustainable development. The article discusses measures that can be implemented through the education system, workplaces, legal reforms, and the media to reduce gender stereotypes.

Keywords: gender equality, gender stereotypes, education and gender, gender roles, gender approach, legal equality.

Gender tushunchasi shaxsning jinsi bilan bog‘liq. Gender insonning turmush tarzi, xulq-atvori va turli xususiyatlari kabi omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ular tug‘ma emas, balki insoniyat tarixida erkaklar va ayollarning bajarib kelgan rollari hamda ularning ijtimoiylashuvi natijasida shakllangan.[33]

[33] Snydrova I. Boshqaruv va stress. Praga: Grada nashriyoti, 2006. p. 11. ISBN 80-247-1272-5.

Jamiyat erkak va ayollarga nisbatan turli xil kutishlar asosida ularga ma’lum gender rollarini yuklaydi, bu rollar esa an’anaviy ravishda muayyan jinsga xos deb tushuniladi. Inson bolalikdan boshlab ushbu gender rollarini o‘z atrof-muhiti – oila, maktab, televideniye ta’sirida o‘zlashtiradi. Gender tengligi masalasi hamisha eng dolzar masalalardan biri hisoblanadi. BMT ning XXI asr rivojlanish borasidagi 8 ta yo‘nalishda maqsadlari belgilab olingan. Shundan aynan uchinchisi “*Erkaklar va xotin-qizlar tengligini rag‘batlantirish va xotin-qizlar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish”*dir.[34]

Erkaklar va ayollarning xususiyatlari hamda ijtimoiy rollari haqida ongimizda shakllangan qarashlar va an’anaviy tushunchalar gender stereotiplari deb ataladi. Ular muayyan xulq-atvor namunalarini ifodalaydi. Ko‘pincha biz ularni tabiiy va biologik jihatdan berilgan xususiyatlar deb noto‘g‘ri qabul qilamiz, aslida esa ular inson hayotining ilk bosqichlaridayoq shakllana boshlaydi.

Ta’lim jarayonida erkaklarga xos, ayollarga xos deb qaraladigan faoliyat turlari va xarakteristikalar singdiriladi, bu esa ularning kelajakdagi xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Gender stereotiplarining kuchi odatda ularning jamiyatda mustahkam o‘rin egallashi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha salbiy assotsiatsiyalar bilan hamohang bo‘ladi. Ayniqsa, ayollar tezkor qaror qabul qila olmaydigan, mantiqiy tafakkurga ega bo‘lmagan, ortiqcha muloyim va sezgir shaxslar sifatida baholanishi bunga misol bo‘la oladi. Aksincha, erkaklarga mantiqiy fikrlash, mustaqillik, yuqori ijtimoiy mavqe kabi xususiyatlar nisbat beriladi. Ushbu qarashlar inson salohiyatini cheklaydi hamda kelajakdagi hayot tarzi va ijtimoiy mavqeiga bosim o‘tkazadi.

Gender stereotiplari tushunchasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlardan biri Alisa Eagly bo‘lib, u *Rol mosligi nazariyasi* (Role Congruity Theory) doirasida gender stereotiplari ayollar va erkaklarning jamiyatdagi an’anaviy rollari asosida shakllanishini ta’kidlaydi. “Ayollar rahbarlik roliga mos kelmasligi haqidagi stereotiplar ularning etakchilikka intilishlarini cheklaydi”.[35]

Bundan tashqari, Cecilia Ridgeway va Shelly Correll gender stereotiplarini ijtimoiy tuzumning tarkibiy qismi sifatida baholab, ularning jamiyatdagi ierarxik tuzilishga asoslanganligini ko‘rsatadilar. Ularning fikricha, gender stereotiplari jamiyatda uzoq yillar davomida takrorlanib kelayotgan ijtimoiy munosabatlar natijasida shakllangan bo‘lib, ular mehnat bozorida va ta’lim tizimida muhim rol o‘ynaydi.[36]

Boshqaruv funksiyalari hali ham erkaklar tomonidan ustunlik bilan egallab kelinmoqda. Ayollar o‘z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun erkaklarga qaraganda ko‘proq kuch sarflashga majbur.

Turli tadqiqotlar jamiyatda hukmron bo‘lgan gender stereotiplari yoki mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyatlari natijasida yuzaga kelgan to‘siqlar ro‘yxatini

[34] D.Alimjanova, Inson rivojlanish konsepsiyasining vujudga kelishi va mohiyati. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Maqolalar to‘plami. Toshkent. 2007. – B 14.

[35] Eagly, A. H., & Karau, S. J. (2002). Role congruity theory of prejudice toward female leaders. Psychological Review, 109(3). – P 573

[36] Ridgeway, C. L., & Correll, S. J. (2004). Unpacking the gender system: A theoretical perspective on gender beliefs and social relations. Gender & Society, 18(4). – P 511.

taqdim etgan. Mehnat bozori odatda erkaklar uchun qulayroq ish sharoitlarini yaratadi, bu esa ayollar uchun qo‘shimcha cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Rahbar lavozimlari yuqori darajadagi kasbiy mahorat va vaqt talab qiladi, bu esa ayollarga nisbatan ko‘proq cheklovlar qo‘yadi. Shu bilan birga, ayollardan nafaqat professional faoliyat yuritish, balki onalik, farzand tarbiyasi va uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanish ham talab etiladi.

Shu sababli, ayollar ko‘pincha an’anaviy ravishda oilaga yo‘naltirilgan yoki karyeraga asoslangan variantlardan birini tanlashga majbur bo‘ladilar yoki erkaklarga xos deb qaraladigan ish uslubiga moslashishlari kerak.

Barcha ushbu qiyinchiliklarga qaramay, agar ayollar yuqori boshqaruv lavozimlarini egallashga muvaffaq bo‘lsalar ham, ularning mehnati erkaklar mehnatiga qaraganda kamroq qadrlanadi va odatda pastroq darajadagi rahbarlik lavozimlariga tayinlanadi. [37] Ko‘pgina hollarda gender stereotiplarining mavjudligi diskriminatsiyaga olib keladi, bu esa ko‘pincha ayollar zarariga sodir bo‘ladi. Bu holat kasblarni erkaklar va ayollarga xos tarzda ajratish (gender segregatsiyasi), erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ish haqi farqlari, turli ishsizlik darajalari hamda xususiy va ish muhitida ikki jinsga nisbatan turlicha yondashuv orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, Jahon Iqtisodiy Forumi (2021) tomonidan e’lon qilingan Gender tafovutlar indeksida aytilishicha, ayollar erkaklarga nisbatan kamroq maosh oladi va yuqori lavozimlarga ko‘tarilish imkoniyatlari past bo‘lib qolmoqda. “Dunyo bo‘ylab ayollar erkaklarga qaraganda o‘rtacha 16% kamroq maosh oladi, ba’zi mamlakatlarda bu farq 30% dan ham oshib ketadi”.[38] Bundan tashqari, ta’lim tizimidagi gender stereotiplari o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy tanlovlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. UNESCO (2019) tadqiqotlariga ko‘ra, maktab darsliklarida ayollar kamroq etakchi rollarda tasvirlangan bo‘lib, bu esa qiz bolalarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Masalan, texnika va muhandislik sohalarida ishlayotgan ayollar ulushi hanuz pastligicha qolmoqda, chunki bu sohalar “erkaklarga xos” deb qaraladi.[39]

Gender stereotiplari turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Uning quyidagi asosiy shakllariga bugungi kunda jamiyatda duch keliniladi:

Kasbiy stereotiplar – “ayollar uchun o‘qituvchilik va shifokorlik kasblari ko‘proq mos” degan qarashlar mavjud.

Xulq-atvor stereotiplari – ayollar yumshoq va hissiyotga beriluvchan, erkaklar esa qat’iyatli va etakchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak degan qarashlar.

Oilaviy stereotiplar – erkaklar oilani boqish, ayollar esa bolalarni tarbiyalashga mas’ul degan qarashlar.

Bugungi kunda gender stereotiplarini bartaraf etish masalasi global darajada muhokama qilinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNESCO, Jahon Banki va boshqa xalqaro tashkilotlar gender tengligini ta’minlash bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqmoqda. Gender stereotiplariga qarshi kurashish nafaqat ayollar uchun, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham muhimdir. Jahon bankining

[37] Gazdagova, M., Fischlová, D. 2006. Sondáž postojú zaměstnavatelú k uplatnění žen v managementu a zkušeností s nimi. Praga:. 2006. – P 15. http://praha.vupsv.cz

[38] World Economic Forum, 2021. – P 37.

[39] UNESCO. (2019). Gender equality in education. – P 64.

2021-yilgi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ayollar iqtisodiy faoliyatda to‘laqonli ishtirok etsa, mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti sezilarli darajada oshadi.[40]

Gender stereotiplari jamiyatning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadigan, uzoq yillar davomida shakllangan ijtimoiy me’yorlardir. Ushbu stereotiplar ayollar va erkaklarning kasbiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish imkoniyatlariga cheklovlar qo‘yadi. Gender stereotiplarini bartaraf etish uzoq muddatli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda ta’lim, ish joyi, ommaviy axborot vositalari va qonunchilik o‘zaro uyg‘unlashgan holda ishlashi kerak. Gender tengligi ta’minlangan jamiyatda har bir inson o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila oladi va bu nafaqat ayollar, balki jamiyatning barcha a’zolari uchun foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Snydrova I. Boshqaruv va stress. Praga: Grada nashriyoti, 2006. ISBN 80-247-1272-5.
2. D.Alimjanova, Inson rivojlanish konsepsiyasining vujudga kelishi va mohiyati. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Maqolalar to‘plami. Toshkent. 2007.
3. Eagly, A. H., & Karau, S. J. (2002). Role congruity theory of prejudice toward female leaders. Psychological Review, 109(3).
4. Ridgeway, C. L., & Correll, S. J. (2004). Unpacking the gender system: A theoretical perspective on gender beliefs and social relations. Gender & Society, 18(4).
5. Gazdagova, M., Fischlová, D. 2006. Sondáž postojú zaměstnavatelú k uplatnění žen v managementu a zkušeností s nimi. Praga:. 2006. http://praha.vupsv.cz
6. World Economic Forum, 2021. https://www.weforum.org/publications/global-gender-gap-report-2021/
7.UNESCO. (2019). Gender equality in education. https://plan-international.org/quality-education/gender-equality-education
8. World Bank, 2021 statistics. https://thedocs.worldbank.org/en/doc

YANGI O‘ZBEKISTONDA YANGI BOLALAR TURIZMI. “VIRTUAL HAQIQAT- NOODATIY SAYOHAT”.

Ismatova Dilorom Hotam qizi
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sayohat va ekskursiyalarning bola hayotida tutgan o‘rni va uning afzalliklari, virtual sayohat imkoniyatlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga virtual sayohatlarni tadbiq etish to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Аннотатsiя: В статье представлена информация о значении и пользе путешествий и экскурсий в жизни ребенка, возможностях виртуальных путешествий, а также о реализатsiи виртуальных походов в дошкольных образовательных организатsiях.

Annotation: This article provides information about the importance and benefits of travel and excursions in a child's life, the possibilities of virtual travel, and the implementation of virtual trips in preschool educational organizations.

Kalit so‘zlar: virtual, virtual voqelik, immersivlik, interfaollik, virtual olam, kengaytirilgan voqelik.

Ключевые слова: виртуальный, виртуальная реальность, погружение, интерактивность, виртуальный мир, дополненная реальность.

Key words: virtual, virtual reality, immersiveness, interactivity, virtual world, augmented reality.

Bolalar turizmi ijtimoiy jihatdan juda muhimdir. Turizm bolalarga o‘z yurtimiz va boshqa davlatlarning tarixiy va madaniy merosi bilan tanishish,

[40] World Bank, 2021 statistics. – P 38.

chuqurroq bilish, bolalarda milliy o‘ziga xoslik tuyg‘usini uyg‘otish, boshqa millat va elatlarning kundalik hayoti va urf-odatlariga hurmat va bag‘rikenglikni tarbiyalash imkonini beradi. Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida ham sayohatlarning roli katta. Sayohatlar, sayrlar va ekskursiyalar yosh avlodga ularning intellektual darajasini oshirish, kuzatuvchanliklarini rivojlantirish va dunyoning go‘zalliklarini idrok etish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, bolalar turizmining yosh avlod jamiyatda o‘zini tuta bilish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, zamonaviy hayot sharoitlariga moslashishiga ta’sirini ta’kidlash lozim.

Ishonch bilan aytish mumkinki, bolalar turizmi – yangi avlodga insoniyat tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba va moddiy-ma’naviy merosni topshirish, qadriyatlarni qadrlash, millatning ma’naviy tiklanish va madaniy rivojlanish, shaxsni ijtimoiylashtirish yo‘lidir.

Maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglariga ta’lim tizimini boyitish va chuqurlashtirish hamda ijodiy yondashgan holda kun tartibiga o‘zgartirishlar, ya’ni dastur mazmunidan tashqari boshqa turdagi faoliyatlarni ham kiritishga ruxsat berilgan. Ana shunda bolaning jismoniy, intellektual, huquqiy rivojlanishiga qaratilgan yangicha faoliyat turlardan biri – bolalar turizmi bo‘lishi mumkin. Turizm faoliyati maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan ishlashning shakllaridan biri sifatida kamdan kam hollarda qo‘llaniladi. Lekin bolalar turizmi maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogik amaliyotida yordamchi vosita sifatida qo‘llash mumkin va zarurligiga aminmiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sayohatlar, yaqin manzillarga ekskursiyalar uyushtirish samarali natija beradi. Bolalarning ruhiyatiga, aqliy va jismoniy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq uzoq manzillarga qilinadigan sayohatlar bir qancha muammolarga sabab bo‘ladi. Kun davomidagi yo‘lda yurish, uzoq masofa bolalarni holdan toydiradi. Ularning xavfsizligi, sog‘ligini o‘ylagan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Virtual haqiqat- noodatiy sayohat” loyihasini ishlab chiqmoqdamiz. Bilamizki, bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarning takomillashganini inobatga olgan holda virtual sayohatlar uyushtirish mumkin. Bu orqali bolajonlar turgan joylaridan nafaqat O‘zbekiston, balki, butun dunyoni kezishlari mumkin.

Inson miyasidagi neyronlar virtual elementlarga haqiqiy dunyo elementlariga javob bergani kabi javob beradi. Shuning uchun inson virtual muhitni idrok etadi va virtual olam ichra sodir bo‘layotgan voqealarga haqiqatda sodir bo‘layotgan voqealar singari munosabatda bo‘ladi.

Vertual voqelik (ingl. virtual reality – VR) – sezgi (ko‘rish, eshitish va sezish) organlari orqali sun’iy dunyoni anglash axborot muhiti; axborotni foydalanuvchi ongiga etkazish imkonini beruvchi dasturiy va texnik vositalar to‘plami.

Immersivlik – insonning o‘zini virtual voqelikda his qilishi.

Interfaollik – insonning real vaqtda virtual voqelikdagi obyektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lishi, ularga ta’sir ko‘rsatishi.

Vertual olam – foydalanuvchi tomonidan yaratilgan 3D virtual muhit. Virtual olam haqiqiy dunyoga qanchalik yaqin hamda interfaol, tezkor, xatolarsiz bo‘lsa, foydalanuvchi virtual olamga shunchalik oson singib keta oladi.

Kengaytirilgan voqelik (ingl. Augmented Reality) – foydalanuvchiga telefon ekrani orqali real dunyoni ko‘rish va unga ekranda virtual o‘zgarishlar kiritish imkonini beruvchi virtual voqelikning bir turi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, virtual sayohatlar bolalar uchun vaholanki kattalar uchun ham qiziqarli va ta’surotlarga boy bo‘ladi. Virtual sayohatning afzalliklari ko‘p. Misol uchun, sayohat manzili haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishadi. Shu bilan birgalikda, sayohat manzilini turli tomonlardan, yuqoridan, pastdan, yon tomondan 360°C da panorama holida tomosha qilish imkoniyati bor. Bu bir qancha qulayliklarni beradi. Virtual sayohat haqiqatga aylanadi. Tomoshabinni o‘z olamiga olib ketadi. Sayohatchi jismonan uyda turib ruhan dunyo kezadi va bir qancha ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Портер Д. Роль музея как средства коммуникатsiи // Museum/ 1983. № 138.
2. Воронцов Б. Забота о посетителях. Методы работы с аудиторией, не требующие больших затрат. / Музеи в период перемен: Материалы российского-британского семинара “Музеи Санкт-Петербурга в условиях рыночной экономики”. СПБ., 1997.
3. X.Sh.Narzullayevna, I.D.Hotam qizi. Maktabgacha yoshdagi bolalar turizmini tashkil qilish. Uslubiy qo‘llanma. 2023

TEMURIY MALIKALARNING HUKMDORLAR HATYOTIDAGI O’RNI

Bobojonova Zuxra Farxod qizi
Urganch davlat universiteti magistranti

Annatatsiya: Ushbu maqolada temuriy malikalar xususan Bibixonim va Xonzoda begim va ularning hayoti, zehni,davlatda tutgan o’rni haqida so’z boradi. Suningdek zamondosh va keying davr tarixchilarning asarlaridan iqtiboslar keltiriladi.Bunda tarixchilar: Sharafiddin Ali Yazdiy, Turg’un Fayziyev, Vladimr Bartold, ganzales de Klavixo asarlaridan foydalanildi.

Kalit so’zlar: Amir Temur, shaxzodalar,Kon’e, Bibixonim

Аннатоция: В этой статье, рассказывается о царицах Тимуридов, в частности о Бибиханиме и Ханзода-бегиме,и их жизни, умах, их роли в государстве. Также цитируются работы современных и более поздних историков.В нем использованы труды историков: Шарафиддина Али Язди, Тургуна Файзиева, Владимира Бартольда, Ганзалеса де Клавихо.

Ключевые слова: Амир Тимур,принцы, Конье, Бибиханим

Abstract. This article tells about the Timurid queens, in particular about Bibikhanim and Khanzoda Begim, and their lives, minds, and their role in the state. The works of modern and later historians are also cited.It uses the works of historians Sharafiddin Ali Yazdi, Turgun Fayziev, Vladimir Bartold, Ganzalez de Clavixo.

Keywords: Amir Timur,princes, Konye, Bibikhanim

Ko’hna tarixning zarvaraqlarida ko’plab tarixdan iz qoldirgan shaxslar haqida gap ketganda e’tibor davlat tuzgan hukmdorlarga, xalqni o’ziga ergashtira olgan siyosatdonlarga yoki katta katta sarhadlarni mahvf etgan sarkardalarga ko’proq qaratiladi. Tarixiy shaxslarga bunday munosabat ko’proq g’arb olamidagi tarixchilar asarlarida uchratamiz,ammo sharq dunyosi xususan ,turkey olamda dunyo tan olgan hukmdorlar yonida davlat boshqaruvida hukmdordan kam bo’lmagan mavqeyga ega bo’lgan hamda sultonlarga asrlar davomida qimmatli maslahatlari bilan yordam berib kelgan ayollar haqida ham ko’plab asosli

ma’lumotlarni ko’rishimiz mumkin. Temuriy malikalar haqida gap ketar ekan, Sohibqiron Amir Temurning zavjasi Bibihonim nomi bilan uluig’langan Saroy Mulkxonim niaynan kuchli hukmdor ortida turib davlatni boshqarishda tirgak bo’lgan malikalardan deb ayta olamiz.

Amir Temur va Saroy Mulkxonim o’rtasidagi nikoh Temurning Balx hokimi Amir Husaynustidan qilgan g’alabasidan so’ng amalga oshadi. Bu voqea haqida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday malumot beradi: “Hazrat Husaynbekning xotunlaridin Saroy Mulk xonimni, Qazon sultonxonning qizi erdi va Ulus og‘okim, Bayon Sulduzning qizi erdi, va Islom og‘okim, Xizr Yasuriyning qizi erdi, va Tag‘ay Turkon xotun - bularni xoss haramig‘a yibardi;”[1,B.67]

Husaynning qatlidan so’ng Saroy Mulk xonimning Temur haramiga olishi haqida yana bir tarixchi shunday keltiradi:” 1370-yilda sohibqiron Amir Temur jangda amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach, Movarounnahrhukmronligini o'z qo'liga oladi. Tabiiyki, amir Husaynning bir necha xotinlari bo'lib, haramningulug' bekasi - Tarmashirinxonning qizi SuyunchQutlug' Og'o edi. Sohibqiron Amir Temur maqtulning haramidagi malikalar orasidan Qozonxonning qizi -Saroy Mulk xonimni, Bayon Sulduzning qizi - UlusOg'oni, Xizr Yasuriyning qizi - Islom Og'oni hamda Tag'oy Turkon Xotunni tanlab olib, idda muddati uch oy o'tgach, o'z nikohiga kiritadi. Garchi Xusayn haramidagi 4 ta ayolni o’z haramiga olgan bo’lsa ham ular orasida Saroy Mulkxonim “katta xoni” ya’ni Bibionim deya atalgan. Buning sababi Saroy Mulkxonim Chingiziy xonlardan bo’lgan Qozog’onning nabirasi ekanligidadir. Shu o’rinda bu nikoh Amir Temurga “xonning kuyovi” ko’ragon unvonini beradi. Amir Temurning mahalliy hokimlar avlodidan ekanliginio hisobga olsak bu unvon Temurga juda qo’l kelgan.

Bu nikohdan farzand dunyoga kelmagan bo’lsa ham Bibixonim shahzodalarning tarbiyasida faol qatnashgan. Bu hodisani Temurbning shahzodalar tarbiyasini o’zining onalariga emas balki aynan Saroy Mulk xonimga ishonganini har xil izohlash mumkin jumladan, shazodalar o’z onalari oldida erkalik qilib dangasalik qilmasligi vajidan bo’lsa, boshqa sababi BIbihonimning aql zakovati zehning o’tkirligi kelajakda shahzodalartning kuchli shaxslar qilib tarbiyalashda asosiy rol o’ynashini hisobga olgan bo’lishi mumkin. Qudratli davlat asoschisi sifatida Amir Temur ko’plab mamlakatlardan jumladan Yevropa davlatlaridan ham elchilar qabul qilgan. Shunday elchilardan biri Rui Ganzales de Klavixo bo’lib u o’zining Samarqanda bolgan 4 yillik sayohatini o’z kundaligida yozib qoldiradi. Uning malumotlarida Temurning elchilarni kutib olish marosimi tasvirlanib uning rafiqalari va oilasi va albatta Bibixonimga alohida e’tibor beriladi. Masalan Klavixo o’zining estaliklarida Saroy Mulkxonimni shunday tariflaydi: “Barcha mehmonlar O’rinlariga o„tirib saranjomlik o„rnatilgandan keyin to„yda podshoh huzurida bo’lishi lozim bo’lgan katta xotini Kan’o (Saroymulkxonim) ko„shk yonidagi saropardalarning biridan chiqib keldi. Xonim mana bunday kiyingan edi: Egnida zar bilan tikilgan etagi yergacha sudralib turgan uzun va keng yengsiz qizil shoyi ko’ylak belidan toraytirilgan, etagiga qarab kengayib boradi. Ko’ylak etagini o’n beshga yaqin ayol ko’tarib borardi. Xonimning yuziga oftobdan saqlanish uchun shunchalik ko’p miqdordagi oq upa surilgan ediki, chehrasi bamisoli oq qog„ozga o’xshardi. Qishda va yozda safarga chiqqan barcha aslzoda ayollar

yuzlariga shunaqa yog„li upa surtadilar.Xonimning yuziga yupqa oq mato tashlangan, boshida faqat jangda kiyiladigan dubulg‘aga o‘xshash baland, qizil tusdagi bosh kiyimi. Uning bir uchi xonimning yelkasiga tushib turibdi. O’sha qizil dubilgaga juda ko’p yirik, dona-donamarvaridlar, yoqut firuza, boshqa xilma-xil qimmatbaho toshlar qadalgan. Bosh kiyimining haligi yelkaga tushib turgan qismi zar bilan tikilgan, unga qimmatbaho toshlar va yirik marvaridlar bilan bezatilgan chiroyli oltin bargak qadalgan.Xonimning tim qora sochlari yelkasiga tushib turardi”. Shu o’rinda Saroy Mulkxonimga nisbatan ishlatilgan Ka’no atamasini rus tarixchisi Bartold ham o’zining Ulug’bek va uning davri asarida ham qo’llab unga shunday ta’rif beradi; “Ka’no –Bibixonim”, Qozog’onning qizi, Amir Husaynning sobiq rafiqasi. Uni Saroy Mulkxonim deb ataganlar. Xonning avlodi bo’lganidan Temurning katta zavjasi hisoblangan”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарафуддин Али.Зафарнома. Тошкент: Шарк, 1997
2. Turg'un Fayziev. Temuriy malikalar. Toshkent.: O'zbekiston, 2012
3. Клавихо, Руи де Гонсалес.Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403—1406). Москва: Наука.1990
4. Бартольд В.В. Улугбек и его время, Петроградью 1918.

‘‘ONA LOCHIN VIDOSI’’ ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI

Gayibova Farida Nasritdin qizi,
NavDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotimiz olamida o‘zining salmoqli o‘rniga ega bo‘lgan buyuk ijodkor – Pirimqul Qodirovning ‘‘Ona lochin vidosi’’ romanidagi ayollar obrazi haqida fikr yuritiladi. Romandagi ayollar obrazi, ularning badiiy va tarixiy jihatdan talqin etilishi va asarda o‘ziga xos uslubda tasvirlanganligi haqida so‘z yuritiladi. Gavharshodbegim obraziga alohida urg‘u beriladi va uning temuriylar sulolasida tutgan o‘rni naqadar beqiyos ekanligi aytib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: syujet, obraz, xarakter, ruhiy holat, portret.

Аннотация. В этой статье обсуждается образ женщины в романе Пиримкула Кадырова “Прощание Соколицы”, который занимает особое место” в нашей литературе. В романе рассказывается об уникальном образе женщин, их художественной и исторической интерпретатsiи. С особым вниманием подчеркивается образ Гавхаршадбегима и её роль в династии Тимуридов.

Ключевые слова: сюжет, образ, душевное состояние, портрет.

Abstract. This article has its weight in the world of our literature the image of women in the novel ‘‘Mother Falcon’s Farewell’’ by Pirimkul Kadyrov, a great creator who has a great place, is discussed. The image of women in the novel, their artistic and historical interpretation, and their unique style are discussed in the work. Special emphasis is placed on the image of Gavharshodbegim, and how incomparable his role in the Timurid dynasty is.

Key words: plot, image, character, state of mind, portrait.

Adabiyotlar tahlili. Pirimqul Qodirov va uning ijod yo‘li, adabiyotda ayollar obrazi va uning epik asarlar, xususan, romanlarda tutgan o‘rni, ‘‘Ona lochin vidosi’’ asaridagi obrazlar tahlili M.O‘razbayeva, I.Yoqubov, M.Qo‘shjonov kabi olimlar tomonidan tatqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada lingvistik, germenevtik, biografik, psixologik, analitik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Adabiyot – cheksiz ummon. Bu ummon tubida esa ko‘plab dur-u marvaridlar, marjonlar bor. Ular uning go‘zalligiga go‘zallik, latofatiga latofat qo‘shadi. Obraz va timsollar mana shu marvaridlarning biridir. Ular bilan adabiyot atalmish bu ummon buyuk va barhayotdir. Adabiyotning bosh obrazi bu – inson, asosiy quroli esa so‘zdir. Har ikkala tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Chunki adabiyotda inson ichki hissiyotlari, tug‘yonlari, fikrlari so‘z orqali ifoda etiladi, obrazlar esa so‘z orqali tasvirlanib, o‘quvchi ko‘z-o‘ngida gavdalantiriladi.

Ayol obrazi adabiyot ummonida juda katta ahamiyatga ega. Chunki jamiyatning kamol topishida, oilalar farovonligida ayollarning o‘rni benihoya buyuk. Ayol bo‘lmaganda adabiyot ham, nafaqat, adabiyot, balki hayot ham bo‘lmas edi. Shu sababli ham ayollar qadimdan ulug‘lanadi va qadimgi adabiyotlarda ham ayol obraziga katta o‘rin beriladi.

Atoqli adibimiz Pirimqul Qodirov ham o‘z asarlarida ayollar va ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni masalalariga katta e’tibor qaratadi. Yozuvchining ‘‘Ona lochin vidosi’’ romani adabiyotimiz xazinasining oltin-u javohirlaridan biridir. Yozuvchi ona lochin obrazida Temuriylar sulolasining onasi bo‘lmish Gavharshodbegim obrazini tasvirlaydi. Asarni bir necha bor qayta ishlaydi va uning dastlabki boblari ‘‘Shohruh va Gavharshod’’ nomi bilan o‘quvchilar qo‘liga etib boradi. To‘liq holatda esa ‘‘Ona lochin vidosi’’ nomi bilan e’lon qilinadi. Uning ona lochin deb atalishi bejiz emas, albatta. Gavharshodbegim butun bir sulolaning farovonligi, xalq tinchligi, farzandlari kamoli uchun ona lochindek turib harakat qiladi. U saltanatda yorqin iz qoldirgan, ma’naviy dunyosi boy va aql-zakovatli ayol bo‘lgan. Pirimqul Qodirovga qadar Gavharshodbegim obrazining bu tomonlari hali ochib berilmagan va tarixda zolim ayol sifatida qoralanib kelgan edi. Ammo bu asardan keyin Begimning qalbi pok inson, mehribon ona va zakovatli ayol bo‘lganligi adabiyot ahliga tanishtirildi. Zarur chog‘larda qattiqqo‘l, ammo vujudi ipakdek mayin va mehribon bu ayol farzandlari va nevaralari kamol topishida katta jonkuyarliklar qilgan.

Asar Begimning Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub ‘‘Zafarnoma’’ kitobini o‘qib turgan voqea bilan boshlanadi. Birgina shuning o‘zi ham bu zukko ayolning naqadar aqlli va bilimli bo‘lganligiga ishoradir. Chunki ‘‘Zafarnoma’’ murakkab tarixiy asar hisoblanib, oddiy inson bu kitobni o‘qib tushunishi biroz murakkabdir. Adib Gavharshodbegim obrazida mehribon ona, vafodor rafiqa, itoatli kelin timsolini gavdalantiradi. Asarni o‘qir ekanmiz, uning donoligiga va zukkolik bilan har qanday vaziyatni o‘nglay olishiga qoyil qolamiz. Begim vafodor va zukko ayol timsolida har doim turmush o‘rtog‘i Shohruh Mirzoning yonida bo‘ladi va unga turli masalalarda maslahatchi bo‘ladi. Hatto Xalil Sulton bilan bo‘lgan ziddiyatli vaziyatda ham zakovat bilan vaziyatni yumshatadi va ikki qondosh o‘rtasidagi aloqalarni tiklaydi. Xalil Sultonning rafiqasi Shodimulk begim o‘limga hukm qilinib turgan bir paytda Gavharshodbegim oraga tushadi va uni qutqaradi. Mana shu vaziyatda ham Begimning tutgan yo‘li juda to‘g‘ri bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin, chunki Shohruh Mirzo Shodimulk begimni o‘lim jazosiga hukm qilib, uni o‘ldirganida edi, balki, ikki qondosh jigarlar bir-birlari bilan azaliy dushman bo‘lib, yangi urushlar boshlanishiga sabab bo‘lar edi.

Ammo Gavharshodbegim Shodimulkni qutqargani va Shohruh Mirzo Xalil Sultonni afv etganligi bois ikki o‘rtada sulh tuziladi va urushlarga barham beriladi.

Yozuvchi asar voqealarini shu qadar go‘zal va badiiy tasvirlaganki, undagi har bir satrda ham tarixiy haqiqat, ham badiiy bo‘yoq mavjud. Adib roman kompozitsiyasini iloji boricha mukammal yaratishga harakat qiladi va buni uddalaydi ham. Asarda Temur va Bibixonim siymolari ham gavdalantiriladi va Amir Temur Bibixonimni ona lochinga qiyos etganligi, ammo u hayotdan bevaqt ko‘z yumib, avlodlar taqdiri endi Gavharshodbegim ixtiyorida qolganligi Shohruh Mirzo tomonidan aytib o‘tiladi. Bu suhbat romanda shunday keltiriladi: ‘‘Siz ham Bibixonimning salaflaridansiz, begim. Bugungi temuriylar xonadonida siz kayvoni ona bo‘lib qoldingiz. Polapon lochinlarimizni endi siz uchirma qilmog‘ingiz kerak. Ularni amalparast bek-u a’yonlarning qutqularidan omon saqlay olmasak, keyin pushaymon bo‘lurmiz!’’. [1;25]

Yozuvchi asarda har bir obrazga o‘zgacha e’tibor qaratadi va, hatto, eng kichik personajlar ham asar voqealarining izchil va go‘zal tasvir etilishiga hissa qo‘shadi. Romandagi har bir detalga esa alohida ma’no yuklanadi. Amir Temurning kelin sifatida Gavharshodbegimga munosabati iliq bo‘lgan va unga to‘y sovg‘asi sifatida oltin isirg‘a in’om etadi. Bu sovg‘ani Bibi xonim unga topshirar ekan, tuhfaning ma’nosi shuki, endi har doim sohibqironning so‘zlariga quloq solishi kerakligini aytadi. Shu birgina detal orqali katta bir ma’no ifoda etiladi. Ammo bu vazifani bajarish va hamisha bosh egib turish Begim uchun oson bo‘lmaydi. Kerak bo‘lganda yurt ravnaqi va xalq farovonligi uchun qattiqqo‘llik va toshbag‘irlik ham qiladi. Kezi kelganda esa mehribon va itoatli malika bo‘ladi. O‘z aql-zakovati va boy ma’naviy dunyosi bilan Shohruh Mirzoning ham ko‘nglidan joy egallaydi. Mirzo unga atab Hirotning eng so‘lim erida oq marmardan uch oshiyonli qasr barpo ettiradi va uni Bog‘i Safed – Oydinbog‘ deb ataydi. Bu bog‘da Gavharshodbegim farzandlari va nevaralarining tarbiyasi bilan shug‘ullanadi va ularga saboqlar o‘rgatadi.

Yozuvchi Gavharshodbegim va Shohruh Mirzo obrazlariga alohida e’tibor qaratadi va ularning xalq farovonligi yo‘lida olib borgan ishlarini tarixiy haqiqatlar asosida badiiylashtiradi. Begimning eng buyuk orzularidan biri qonli urushlarni tugatish va xalq tinchligi va farovonligi yo‘lida xizmatlar qilish edi. Shohruh Mirzo ham bunyodkorlik ishlariga moyil va sababsiz qonli urushlar olib borishga qarshi edi. Shu sababli u ko‘p masalalarda Gavharshodbegim bilan maslahat qilar va madrasalar, masjidlar, ko‘prik va rabotlar qurib, xalq farovon hayot kechirishiga o‘z hissasini qo‘shar edi. Asarda Mirzoning Begim bilan bamaslahat Sirdaryo daryosidan shohariq qazdirgani haqida shunday ma’lumot keltiriladi: ‘‘Toshkentga borganlarida Shohruh Mirzo muhandislar va miroblarni to‘plab, Sirdaryodan cho‘lga qarab shohariq qazish bo‘yicha loyiha tuzishni buyurdi. Loyiha to‘rt oyda tayyor bo‘ldi. Kuz payti dala ishlari kamayganda daryo bo‘yida yashaydigan minglab odamlar loyihadagi shohariqni qazishga safabar etildi. Xalq hashar qilib ishni bir yilda bitirdi. Cho‘lga suv kelib, bog‘-rog‘lar, obod manzillar paydo bo‘lgandan keyin odamlar yangi shohariqni ‘‘Mirzoariq’’ deb atay boshladilar. Butun cho‘l esa Mirzacho‘l nomini oldi’’. [1;34]

Shu birgina tarixiy haqiqatdan shu narsa ma’lumki, bugungi kundagi geografik er nomlarining aksariyatining nomlanishi uzoq tarixga, temuriylar davriga borib taqaladi.

Shohruh Mirzo ham Gavharshodbegim ham amir Temurga munosib avlod, temuriylar sulolasining munosib vorisi bo‘lishgan va o‘z farzandlariga ham go‘zal tarbiya berishgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning hech bir farzandi toj-u taxt ilinjida qonli urushlar olib bormagan va bunyodkorlik ishlariga e’tiborini qaratgan. Bunda, albatta, ayolning, ya’ni onaning o‘rni katta. Chunki farzandlar tarbiyasida ko‘proq onaning roli buyuk bo‘ladi. Gavharshodbegim ham onalik, ham kelinlik, ham rafiqalik vazifalarini juda ajoyib tarzda bajargan zukko ayoldir.

Xulosa va takliflar: Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davlatining adabiyotimiz va tariximizda tutgan o‘rni beqiyos. Pirimqul Qodirov o‘z asarida mana shu buyuk sulola va uning vakillari hayotini, olib borgan ma’naviy va ma’rifiy ishlarini, xalq farovonligi yo‘lidagi fidokorliklarini tarixiy haqiqat va badiiy bo‘yoqlar bilan go‘zal tarzda tasvirlagan. Ayniqsa, Gavharshodbegim obraziga alohida urg‘u berishi va personaj harakterlarini tarixiy haqiqatlar va detallar bilan boyitishi asar qimmatini yanada oshirgan. Asarda qalamga olingan farzand tarbiyasi va ota-o‘g‘il munosabatlari kabi masalalar bugungi kun uchun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2023. – 269 b.
2. Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: 2018. – 256 b.
3. O‘razbayeva M. Hozirgi o‘zbek romanchiligida ayol obrazi va uning qiyosiy tahlili. PhD diss. – Toshkent. 2021.
4. Qo‘shjonov M. Hayot va mahorat. – Toshkent: 1962.
5. Qodirov P. Til va el. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 293 b.

O‘QUVCHI-YOSHLARNI GENDER XUSUSIYATLARNI HISOBGA OLISH KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH MUAMMOSI

Sharopova Hilola Dusham qizi,
Pedagogika nazariyasi va tarixi ta’lim yo‘nalishi magistranti

Bugungi kunda o‘quvchi-yoshlarni o‘rta ta’lim davrining o‘zidayoq kasbga yo‘naltirish asosiy masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qator qonun va qarorlar belgilab berilmaqda va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirish jarayonida gender tenglikni ta'minlash, nafaqat ijtimoiy adolatni, balki iqtisodiy va innovatsion rivojlanishni ham ta'minlaydi. Gender tenglikni oshirish orqali qizlar va o‘g‘il bolalarning kasb tanlashdagi imkoniyatlari kengayadi, bu esa ularning professional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Yoshlar orasida gender tenglikni ta’minlash maqsadida faqatgina bizning davlatda emas, balki qator davlatlarda ham ilmiy ishlar, izlanishlar olib borilmoqda va dunyoning taniqli jurnallarida olimlar tomonidan echimlar ko‘rsatilgan ilmiy maqolalar chop etilmoqda shunday tezis va

maqolalarni o‘rgangan holda gender tenglikka to‘sqinlik qiladigan omillarni keltirish mumkin:

Kasb tanlashdagi stereotiplar: ba’zi mamlakatlarda o‘quvchilar orasida genderga oid stereotiplar ko‘plab kasblarga kirishni cheklaydi. Qizlar va o‘g‘il bolalar uchun an'anaviy ravishda belgilangan kasblar ularning qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi. Bunday cheklovlar o‘z navbatida kasb tanlashga bo‘lgan ishtiyoqni ham susaytiradi va yoshlarni ma’lum bir qobiq ichida o‘sishlariga sabab bo‘ladi. Ularning fikrlash doirasi ham cheklangan va eskirgan tushunchalar va qarashlar bilan boyitilgan bo‘ladi. O‘z navbatida bunday g‘oyalar keying avlodga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Bunday masalaning asosiy echimi sifatida ta'lim muassasalari gender tenglikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi deyishimiz mumkin. O‘quv dasturlarida gender tenglikni aks ettiruvchi materiallar va faoliyatlarni qo‘shish, o‘quvchilarning turli sohalarda kasb tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun mamlakatimizda davlat ta’lim standartlariga javob bera oladigan kasbga yo‘naltirish va hunar o‘rgatish amaliyotlari o‘quv dasturiga kiritildi va uning amalga oshirilishi qattiq nazorat ostiga olinmoqda.

Bunday amaliyotlar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan davlat ravnaqi va iqtisodiyoti uchun foyda keltiradi. Gender tenglikni oshirish orqali ishchi kuchining diversifikatsiyasi amalga oshiriladi, bu esa innovatsion g‘oyalar va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi. Qizlar va o‘g‘il bolalar teng imkoniyatlarga ega bo‘lganida, jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Gender tenglikni ta’minlashda Oila va jamiyatning roli ham muhimdir: Oila va jamiyat, o‘quvchilarning kasb tanlashidagi qarorlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Gender tenglikni targ‘ib qilish, ota-onalar va jamiyat a'zolarining fikrlarini o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi kerak. Maktab rahbarlari va ma’naviyat bo‘yicha rahbar o‘rinbosarlari tomonidan ota-onalar va ularning farzandlari ishtirokida umumiy yig‘ilishlar tashkil etib, bu boradagi ularning fikrlari o‘rganilishi va to‘g‘ri yo‘nalishlar berilishi lozim.

Kasbga yo‘naltirish dasturlarida gender tenglikni ta'minlash uchun amaliy tadbirlar, treninglar va seminarlar o‘tkazish zarur. Bunday tadbirlar o‘quvchilarga turli kasblar haqida ma'lumot berish bilan birga, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagog bolalarning gender xususiyatlarini -qabul qilish, tafakkur va emotsiyalari turlicha bo‘lgan o‘g‘il bola yoki qiz bola turganligini hisobga olish. Ularnitarbiyalash, ularga ta’lim berish va hattoki ularni turlicha yaxshi ko‘rish lozim. Bunda pedagog ta’lim jarayonida erishgan muvaffaqiyatlari yoki mag‘lubiyatlari uchun o‘g‘il bolalarni qizlar bilan o‘zaro taqqoslamasligi, ularning birini ikkinchisiga namuna qilib ko‘rsatmasligi lozim.

O‘g‘il bolalarga topshiriq berganda ulardan ozodalik va puxtlikni haddan ziyod talab qilmaslik, ularga izlanish va faol tafakkur talab qiladigan topshiriqlarni berishga xarakat qilish kerak. Bu yodashuv-ta’lim jarayonida o‘zi ixtiro qilish imkonini beradi. O‘quv vazifasini bajarish o‘g‘il bolalarga tushunarli bo‘lishi uchun pedagog nafaqat tushuntirishi, balki, ko‘rsatishi ham kerak. O‘qil bolaga

tanbeh berishda pedagog o‘z e’tirozini qisqa, lo‘nda va aniq bayon qilishi kerak. Chunki o‘g‘il bolalar emotsional zo‘riqishga uzoq vaqt bardosh berishga qiynaladilar va buning oqibatida ularning miyasi ma’lumotlarni verbal qabul qilish kanalini o‘chirib qo‘yishi mumkin. Bu esa bola tanbeh mazmunini tushunmasligi, gaplarni to‘liq eshitmasligi va oxirigacha quloq solmasligiga olib keladi.

Xuddi shunday jaroyanni haqiqiy hayotda kuzatish orqali amin bolish mumkinki, o‘g‘il bolalar ruhiy jihatdan zaif bo‘lishadi. Masalan 8-sinf o‘g‘il bola o‘quvchisi bilan o‘tkazilgan ilmiy izlanish jarayonida uning ota-onasi oilaviy ziddiyatlar sababli qonuniy nikohlari buzilganligi va boshqa oila qurishganligi, bola buvisi va tog‘asining qo‘lida tarbiya olayotganligi haqida ma’lumotlarni o‘rgandik. Oilaviy muhitdagi ziddiyatlar farzand ongiga kuchli ta’sir o‘takazishi oqibatida uning hech bir soha va kasbga nisbatan qiziqishi yo‘qligi va kelajakda qanday hayot kechirishi va aniq maqsadga ega emasligi o‘rganildi.

Natijada, o‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirishda gender tenglik masalasini e'tiborga olish, kelajak avlodning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni amalga oshirish uchun barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi zarurdir.

O‘zbekistonda mazkur muammo uzoq yillar davomida pedagog olimlar tomonidan va xorijda keng tadqiq etilgan. Jumladan, A.Bespalov, S.Vulfson, E.Klimov, N.Kuzmina, YU.Tyushev, I.SHarshov, YU.Vasilev, A.Dikunov, V.Kabachkov, S.Solodkov, L.Lubisheva, S.Boltaboev, O‘.Tolipov, K.Davletov, R.Jo‘raev, SH.SHaripov, H.Rashidov, SH.Ergashev, P.Xolmatov, YA.Haydarov, R.Asamova, R.G‘oziev, D.Arziqulov, T.Usmonxo‘jaev, R.Salamov, SH.Xonkeldiev, A.Abdullaev, R.Qudratov, R.Rasulov, M.Yunusova va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida kasbga yo‘naltirish, o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish, kasbga yo‘naltirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy muammolari, darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil qilish va boshqarish, jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalarini yoritganlar.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida ijtimoiy foydali mehnat va kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish ishlarining o‘zaro uzviyligi masalalari P.R.Atutov, A.I.Vorobev, R.H.Jo‘raev, P.T.Magzumov. U.Nishonaliev, I.T.CHoriev, O‘.Q.Tolipov, SH.S.SHaripov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ta’limning globallashuvi sharoitida o‘quv va tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muayyan tajribalar to‘plangan va bir qator izlanishlar, ishlar olib borilgan. P.Bespalko, N.F.Talizina, M.T.Gromova, T.S.Nazarova, N.Saidahmedov, M.Ochilov, J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov, S.G‘ulomovlarning ishlari shular jumlasidandir. Muammoga doir manbalarning tahlili umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularda kasbiy tafakkurni shakllantirish borasida tashkil etilayotgan pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning bir qator muammolari mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining “Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) vac het tillariga o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 17.04.2024y 213-son

2. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 30.02.2021y. 792-son

3. K.Davlatov va V.A.Chichkovlarning “O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash” nomli metodik qo‘llanmasi.

4. Haidaraliev, H., & Nizamova, S. (2022). AGE-RELATED FEATURES OF MOTOR QUALITIES IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN.Academicia Globe: Inderscience Research,3(05), 94-100.

5. Yadgarova G.T. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.”-T.:Maktab va hayot.2006

6. Sharipov Sh., Davlatov K., Nasriddinov G., “Kasb tanlashga yo‘nalishning ilmiy-pedagogik asoslari” o‘quv qo‘llanma.-T.: OO‘MTV, 2008

KARIMBEK KAMIY SHE’RIYATIDA YOR VASFI

Mardonova Xonzoda Anvar qizi,
NavDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: maqolada olamning lisoniy manzarasida ayol obrazi, uning kishilik jamiyatidagi dastlabki vazifalari va unga bo‘lgan munosabat haqida ilmiy yondashuvlar keltirilgan.Kamiy ijodida bu an’ananing o‘rni hamda yor ta’rifi masalasi ochib berilgan. Haqiqiy ishqqa etishguncha bosib o‘tilgan harakatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yor, oshiq, lirik qahramon, ahbob, ag‘yor, kanon, ishq

Abstract:the article presents scientific approaches to the image of a woman in the linguistic landscape of the world, her initial tasks in the society of people and the attitude towards her. The steps taken to reach true love are analyzed.

Key words: yor, lover, lyrical hero, boyfriend, agyor, canon, love

Аннотация: в статье представлены научные подходы к образу женщины в языковом ландшафте мира, ее исходным задачам в обществе людей и отношению к ней. Анализируются шаги, предпринятые для достижения настоящей любви.

Ключевые слова: друг, любовник, лирический герой, любовник, агёр, канон, любовь.

Ayol tabiatdagi oliy mavjudot sanaladi. Uning vujudida olamning barcha sir-u asrorlari jamlangan. Garchi ojiza deb atalsa-da o‘zidagi fazilatlar gultoji bilan u har bir makonda va zamonda aziz hamda mukarramdir. Dunyo manzarasida ayol obrazi olamdagi nofaol, sust jarayonlarga o‘xshatiladi. Freydning nazariyalarida ayol xususida so‘z ketganda, uch toifa haqida fikr yuritiladi. Birinchi o‘rinda barcha insoniyatning dunyoga kelishiga sabab bo‘luvchi shaxs ona bo‘lsa, ikkinchi toifada mahbuba ya’ni yor turishini aytadi. Oxirgi o‘rinda u mash’um deb, barhaq o‘limni ayol bilan bog‘liq holda tavsiflaydi. Ayolning ona maqomi zamirida keng ma’no quloch yozadi. U vatan ham tabiat ham va qadrdon shahar hamdir. An’anaviy ma’shuqa timsolida esa u ikki jihatni qamrab oladi. Birinchisida salbiy har qanday er kishini yo‘ldan ozdirguvchi hiylakor bo‘lsa, keyingisida dunyoning o‘tkinchi barcha matohlaridan ayirguvchi va kamolotga undovchi kuch sifatida. U tomonidan etadigan barcha aziyatlar esa sovuq qazoyi qadarga mengzaladi. Ayolning dunyo lisoniy manzarasidagi anglashilmasiga sustlik, egrilik, chaplik, juftlik, oy, suluv va er kabi yaxlit obrazlar kiradi. [12;7]

Arxaik madaniyatning tub mohiyatida ayol hayotga bo‘lgan tashnalik va uni sevish sifatida gavdalanadi. Yunon aqidalariga hamohang tarzda, Sharq olamida hosildorlik va mo‘llik ayol jismida birlashishiga ishonch yotadi. Ushbu qarashlar insoniyatning butun yashash tarziga o‘rnashgach, ona ma’buda siymosi gavdalantiriladi.

Dastlabki kishilik jamiyatida ayolning birinchi toifasiga nisabatan qo‘rquv va suyanch hissining ortiqligi sabab, har bir qabilalarda rahbar onalar tomonidan ijtimoiy jamoa tuzilmasi shakllandi. Ma’lum vaqt davomida adabiy manbalarda ayol sifatiga uning boshqaruvdagi mahorati va sovuqqonligi haqida ash’orlar yangragan bo‘lsa, mumtoz adabiyotda ayol siymosi kamalakdek jilovlanadi.

XIX asr boshlarida faoliyat yuritgan Karimbek Kamiy ijodida ham ayol ta’rifi masalasi alohida mavzu ko‘lamiga egadir. U yor, ma’shuqa, ahbob, oshna obrazlari birlashmasida tashqi tomondan o‘zga jins vakilasiga muhabbat kayfiyatini tasvirlayotgandek tuyulsada, botinda haqiqiy ishqni tarannnum etadi.

Shoir ijodida ishqiy mavzudagi g‘azallar talaygina. An’anaviy kanonlarga sodiq qolgan holda, original hislar kashf etiladi. Ayol hilqatining tasavvur darajasini boyitish maqsadida badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanadi. Ijodkorning “Etib ket” radifli g‘azalida yorning go‘zalligi oshiqni dunyoga bog‘lab turuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Matlada istiora san’atidan unumli foydalanib, muhabbat qo‘yilgan qalbga murojaat qilinadi.

Ey yor, kelu vafo etib ket,
Gar etmas esang jafo etib ket. [13;65]

Hamma oshiq-u benavolar singari lirik qahramon o‘z yorining oliy sifati bo‘lmish vafosidan umidvor. Yor xoh sodiq bo‘lsin, xoh e’tiborsiz uning borligi qoniqishga sabab bo‘ladi. Bu orqali ijodkorning oshiqlikda sobitligi akslanadi.

Ishq ahlini, cho‘q savob topg‘ung
Hojatlarini ravo etib ket [13;65]

Musulmon olamida yaxshilik sharaflanadi. Ayniqsa, hech qanday manfaat ko‘zlanmay qilingan sa’y-harakatlarning mukofoti ham bebaho bo‘lishi bilan bog‘liq ishonchli asoslar bisyorgina. Savob zamirida pok vijdon va vafo yonma-yon qo‘yilib, ma’shuqaning yana bir sifatidan umid qilinadi. Agar sen ishq olamining ko‘p savobiga erishishni xohlasang, ularning visoling zavqi bilan siylab, hojatini chiqar deya ta’kidlaydi.

Bul manzarai ko‘zimga mehmon,
Mezboningga marhabo etib ket [13;65]

Aslida vaslning to‘liq lazzatidan qonib ichmagan oshiq uchun yor tashrifi mehmondorchilik kabidir. Har na qilsa ham qalbga jo bo‘lgan ishq surati bu baytda ham aslo kamaymaydi. Menga iliqlik qil sening kulbamga qo‘ygan har qadaming qutlug‘dir deya unga yaqinlashishdan umid qiladi.

Ahbob dilini ravshan aylab,
Dushmanni yuzini qaro etib ket [13;65]

Yorning sodiqligi do‘stlarga xursandchilik hadya etsa, ag‘yorga etkazilgan munosib jazodir. Tashrif natijasida oshiqning murodi hosil bo‘ladi. Butun jismi halovat topadi.

Bir marhamat ayla yuzi moh

Tiyra shabimi ziyo etib ket

Mumtoz adabiyotda moh bu to‘lin oydir. Uning go‘zal chehrasi oyga qiyoslanadi. Qorong‘u kechaning zulmati yorsiz qolgan–oshiq qalbi.

Ko‘yina ayo sabo borursan
Yorimg‘a mening duo etib ket

Hatto shamol ham bu muhabbat rishtasida katta ahamiyat kab etadi. Oshiqdan farqli o‘laroq, sabo yorning ahvolotidan xabardor. Yorning bu hayotda uzoqroq yashashini tilagan holda ma’shuq ma’shuqaning haqiga iltijolar qilishini butun borliqdan so‘raydi.

Xun o‘ldi g‘izo menga tabibo
Unnob labin shifo etib ket [13;66]

Ishq darajasi baytma-bayt ortgandan ortadi. Ichki dard tanada ham namoyon bo ‘la boshlaydi. Oshiqning tanidan hayot belgilari chekinishni amr qilmoqqa chog‘lanib, hatto labi chilonjiyda tusiga kiradi. Misra yakunlanmasida esa shifo tabibi yorning o‘zi ekanligiga ishora qilinadi.

Husningga kimeki munkir o‘lsa
Bir ko‘rsatu mubtalo etib ket. [13;66]

Yorning chiroyu tarovati ishqdan bebahralar uchun ahamiyat kasb etmasligi tayin, lekin lirik qahramon tiyrasida u so‘z bilan ta’riflana olamaydigan qilohiy quvvatga egadir.

Haq qoshig‘a bormoqingni o‘ylab,
Munda amaling bajo etib ket
Bo‘lsa, Kamiy bu saning yor
Joningni anga fido etib ket. [13;66]

Begona bayt va maqtada oshiqning sevgisi uni haqiqiy ishqqa yaqinlashtiradi. Olloh har kimga ham bu “alamli baxt” ni ato etmasligini isbotlaydi. Tariqat yo‘lida yashagan Karimbek Kamiy o‘zlikni anglash quroli sifatida pok qalbli bo‘lish g‘oyasini ilgari suradi. Jismning joni o‘tkinchi, qalb halovati abadiyligi haqidagi qarashni yoqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, har bir ayol siyrati va suratida Olloh tuhfasi mujassamlashgan. Uning mehr nurlari quyosh nuri yanglig‘ foyda va quvonchga limmo-limdir. Karimbek Kamiy ijodida u yorqin nur tarovatiga ega. Yorning barcha sifatlarini qadrlash va uzaytirish masalasi bugun ham dolzarbdir. Er kishining gardaniga yuklangan ulug‘ vazifa ayolning har bir onini quvonchga to‘ldirishdir. Shuningdek, ayolga qilingan munosabat kelajakning porloqligiga yaratilgan bebaho harakatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulxayr M. Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2018.–653 b.
2. Adizova I. So‘zdin baqoliroq yodgor yo‘qdir.–Toshkent: O‘zbekiston”, 1995.–149 b.
3. Abdulhakimova O. Badiiy til va tasvir. Toshkent: Akedemnashr, 2014–54 b.
4. Afoqova N. Jadid lirikasida musammat. – Toshkent: Fan, 2005.–140 b.
5. Alimov P. Tarix, shaxs, badia. Toshkent, O‘zbekiston. 1991.–62 b.
6. Haqqulov I. Abadiyat farzandlari. Toshkent: Yosh gvardiya, 1990.–189 b.
7. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: Sharq, 1998.–158 b.
8. Hojiahmedov A.Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: Sharq, 1999.–238 b.
9. Karimov B. So‘z xiyoboni.Toshkent, 2020.–248 b.

10. Mahmudov M. Hayrat va tafakkur. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1990.–187 b.
11. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodiyoti. – Toshkent, 1974. – 382 b.
12. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.–179 b.
13.Oltinbek O. Dilni obod aylangiz. Toshkent: Ma'naviyat, 1998.–134 b.
14.Qayumov A. Nazm va tafakkur quyoshi. Toshkent: Fan, 1992.–47 b.
15. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.–296 b.

THE OPPORTUNITIES FOR WOMEN TO REALIZE THEIR POTENTIAL IN THE MODERNIZATION OF THE EDUCATION SYSTEM.

Navoi State University,
Faculty of Foreign languages and Literature,
2nd ear student *Nurmatova Aziza*

Annotation: The education system plays a crucial role in the development of any society. Its effectiveness and modernization depend not only on scientific and technological achievements but also on providing equal opportunities for all segments of society. Women, by realizing their potential, play a vital role in enhancing the quality of the education system and strengthening their position in society. Today, creating more opportunities for women in education and helping them fulfill their potential not only ensures gender equality but also contributes to the overall progress of society. This article discusses the opportunities for women to realize their potential in the process of modernizing the education system, as well as the reforms being implemented in this area. By ensuring gender equality in the education system, women gain the opportunity to find their place in society and improve their lives.

Keywords: Gender equality, Women empowerment, Education system modernization, STEM education, Women in science, Higher education, Social activity, Gender policy, Leadership roles.

Аннотация: Система образования играет важную роль в развитии любого общества. Ее эффективность и модернизатsiя зависят не только от научных и технологических достижений, но и от предоставления равных возможностей для всех слоев населения. Женщины, реализуя свой потенциал, играют ключевую роль в повышении качества образования и укреплении своей позиции в обществе. Сегодня создание большего числа возможностей для женщин в сфере образования и помощь им в реализатsiи их потенциала не только обеспечивает гендерное равенство, но и способствует общему прогрессу общества. В данной статье рассматриваются возможности женщин в процессе модернизатsiи системы образования, а также реформы, осуществляемые в этой области. Обеспечив гендерное равенство в системе образования, женщины получают шанс найти свое место в обществе и улучшить свою жизнь.

Ключевые слова: Гендерное равенство, Расширение прав и возможностей женщин, Модернизатsiя системы образования, Женщины в науке, Высшее образование, Социальная активность, Гендерная политика, Лидерские роли.

Anotatsiya: Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, uning samaradorligi va zamonaviylashtirilishi nafaqat ilmiy-texnik yutuqlarga, balki jamiyatdagi barcha qatlamlarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga ham bog'liq. Xotin-qizlar, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish orqali ta'lim tizimining sifatini oshirishda, hamda jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda, xotin-qizlar uchun ta'limda yanada keng imkoniyatlar yaratish, ularning potentsialini amalga oshirishga yordam berish, nafaqat gender tengligini ta'minlash, balki butun jamiyatning yuksalishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada, ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida xotin-qizlarning o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari va bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlar

muhokama qilinadi. Ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash orqali, xotin-qizlar jamiyatdagi o‘z o‘rnini topish va o‘z hayotini yanada yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: Gender tengligi, Xotin-qizlarning huquqlari, Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, STEM ta’limi, Fan va ilmda ayollar, Oliy ta’lim, Ijtimoiy faollik, Gender siyosati, Yetakchilik roli.

From the early ears of Uzbekistan’s independence, special attention has been given to increasing the social activity of women in society. Therefore, analyzing the reforms related to women in our country, as well as the role of socially active women and their ethical behavior in the development of society, is one of today’s pressing issues. Women's social activity is essential in state and societal development, production, family, neighborhood communities, public organizations, and civil institutions. It is crucial to develop and strengthen qualities of social activity in them, as they are the backbone of society and the nation, playing a key role in a person’s virtue, excellence, and moral maturity.

President Shavkat Mirziyoyev, during the celebration of the 33rd anniversary of the independence of the Republic of Uzbekistan, emphasized the importance of education: "Our goal is to transform Uzbekistan into a major educational center by opening branches of prestigious universities from around the world. Our young people, studying at leading foreign universities and gaining experience, are determined to contribute to the prosperity of the nation. We provide them with even more opportunities through the 'El-yurt umidi' foundation. Especially, we must focus on ensuring that women and girls have the opportunity to gain education and acquire professions. “Dear parents, educate your daughters, support them in realizing their dreams and aspirations!As our elders have said, if we educate a boy, we educate one person. If we educate a girl, we educate the entire family and society”[41].

Many chances are currently being developed to improve gender equality in the field of education and boost women's involvement, which will help them reach their full potential in terms of creativity and intellect.Women socioeconomic standing will then improve as a result.Through creative projects and activities, it is imperative that women participate more in STEM (science, technology, engineering, and mathematics) disciplines in the current educational system. These programs give females the opportunity to learn new things and hone their skills. Setting up mentorship programs in the school system that highlight seasoned women as role models for young girls can help them advance professionally. This assistance aids females in making decisions and achieving their objectives.Actions must be taken to eradicate gender stereotypes in the educational system. In our country, the efforts made in this area over the past five ears are commendable, particularly the initiatives focused on women in education. The attention given to women by our leader has further elevated the respect and regard for women in society.On March 7, 2022, the Presidential Decree (PF-87) was adopted regarding the systematic support of families and women.

41

According to the decree, starting from September 1, 2022, in all legal entities except for budgetary organizations, women with continuous work experience for the last six months will receive maternity and childbirth benefits funded by the budget, based on the amount of minimum consumer expenditures per month.In our country, active efforts are being made within the framework of gender policy to strengthen the social and political position of women. As noted by the President of Uzbekistan during the 75th anniversary session of the UN General Assembly, "For us, gender equality policy has become a priority issue. The role of women in state governance is increasingly strengthening. The number of female deputies in our new Parliament has doubled."Additionally, the State Targeted Fund for Supporting Women was established. Additional measures were defined to provide social support for families in need of financial assistance, women, and young people.

The Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan and the Fund for Supporting Innovative Development and Innovative Ideas were established.In national legislation, the authorities of the Ministry of Innovative Development, the Academy of Sciences, higher education institutions, ministries and agencies with scientific organizations under their jurisdiction, local government bodies, citizens, non-governmental non-profit organizations, and other civil society institutions in the field of science and scientific activity were clearly defined .Because of this, women now account for 1,905 employees, or 40%, of the 4,760 total employees in the Academy of Sciences system. Six hundred ninety-five of the 2,146 scientists working in the nation are women.Two hundred and seven women in Uzbekistan currently hold Doctor of Science (DSc) degrees, 1,411 have Doctor of Philosophy (PhD) degrees, and seven are academicians.

As a result, today, women make up 40% (1,905 individuals) of the 4,760 employees working in the system of the Academy of Sciences. Among the 2,146 researchers engaged in scientific research in the country, 695 are women.Currently, seven women in Uzbekistan hold the title of academician, while 271 women have earned Doctor of Science (DSc) degrees, and 1,411 women hold Doctor of Philosophy (PhD) degrees.Uzbek women scientists are particularly active in fields such as chemistry, biotechnology, and agriculture. In conclusion, the prominent educator Abdulla Avloni rightfully stated, "Girls should strive for education more than anyone else because, with this knowledge, they will raise the future generation." Indeed, in any developed society, the level of progress and civilization is determined by the attitude toward women and the scope and scale of opportunities created for them.

REFERENCES

1.Sayyora Djasanova - WOMEN in Social Life.
2.Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, PF-87 dated March 7, 2022. (https://lex.uz/uz/docs/-5899498)
3. Akmal SAIDOV, First Deputy Speaker of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Director of the National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan.

4.(http://pravacheloveka.uz/oz/articles/ilm-fan-soasida-hotin-izlarning-rni-va-aamijati-manavijat-tinchlik-va-bunedkorlik-tushunchalari-talinida)

COMPARISON OF FEMALE CHARACTERS IN RUSSIAN AND ENGLISH LITERATURE (BASED ON THE WORKS OF F. M. DOSTOEVSKY AND JANE AUSTEN)

Ashrapova Alina
NavSU The faculty of English language and literature student

Annotation: This article presents a comparative analysis of female characters in the works of F. M. Dostoevsky and Jane Austen, focusing on their representations within the socio-cultural and literary contexts of Russian and English traditions. Dostoevsky's heroines are often depicted as embodiments of resilience and self-sacrifice, shaped by societal constraints and personal suffering. In contrast, Austen's female protagonists assert their independence and intellectual agency, challenging traditional gender roles while striving for self-determination. The study examines the thematic dichotomy between submission and autonomy, sacrifice and personal fulfillment, highlighting how socio-economic conditions influence the portrayal of women in these literary traditions.

Key words: female characters, English literature, Russian literature, cultural difference, comparative analysis.

Annotatsiya: Ushbu maqolada F. M. Dostoevskiy va Jeyn Osten asarlaridagi ayol xarakterlarining qiyosiy tahlili keltirilgan bo‘lib, ularning rus va ingliz an'analarining ijtimoiy-madaniy va adabiy kontekstidagi tasvirlariga e'tibor qaratilgan. Dostoevskiyning qahramonlari ko‘pincha ijtimoiy cheklovlar va shaxsiy azob-uqubatlar bilan shakllangan chidamlilik va fidoyilik timsoli sifatida tasvirlangan. Aksincha, Ostinning ayol qahramonlari o‘zlarining mustaqilligi va intellektual agentligini tasdiqlaydilar, o‘z taqdirini o‘zi belgilashga intilib, an'anaviy gender rollarga qarshi chiqadilar. Tadqiqot bo‘ysunish va avtonomiya, qurbonlik va shaxsiy bajarilish o‘rtasidagi tematik ikkilikni o‘rganib chiqadi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ushbu adabiy an'analarda ayollarning tasviriga qanday ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

Аннотация: В статье представлен сравнительный анализ женских характеров в произведениях Ф. М. Достоевского и Джейн Остин с акцентом на их репрезентatsii в социокультурном и литературном контекстах русской и английской традиций. Героини Достоевского часто изображаются как воплощение стойкости и самопожертвования, сформировавшиеся под влиянием общественных ограничений и личных страданий. В противоположность этому, женщины-протагонисты Остен утверждают свою независимость и интеллектуальную самостоятельность, бросая вызов традиционным гендерным ролям и стремясь к самоопределению. В исследовании рассматривается тематическая дихотомия между подчинением и автономией, самопожертвованием и самореализatsией, а также то, как социально-экономические условия влияют на изображение женщин в этих литературных традициях.

Women in literature have historically occupied a central role, with each author portraying them in a manner reflective of their cultural and temporal contexts.

In Russian literature, female characters are often depicted as possessing both resilience and delicacy. Outwardly, they may appear fragile, composed, and submissive, frequently concealing their inner strength and potential to avoid attracting societal scrutiny. However, beneath this external demeanor, they

demonstrate remarkable endurance, often withstanding hardships that could break even the strongest of men.

Conversely, in English literature, female protagonists are frequently characterized by their defiance of traditional ideals of virtue and femininity. Many English literary works celebrate women with sharp intellects and strong-willed personalities, who openly challenge societal and cultural conventions. These heroines are typically portrayed as independent individuals who do not perceive marriage as the ultimate goal of their existence. Nevertheless, their narratives often conclude with them finding fulfillment in marriage and family life, achieving happiness on their own terms.

One of the most distinguished Russian writers known for his profound portrayal of female characters is F. M. Dostoevsky. As A. A. Kosorukova asserts in her study on female characters in Dostoevsky's works, the author frequently depicts his central female figures as victims. These characters endure suffering imposed by external forces, including societal pressures and unfavorable circumstances, et they are often unable to resist these influences. Consequently, their internal struggles become self-destructive. [42]

A striking example of such self-sacrifice is Sofia Semyonovna Marmeladova from *Crime and Punishment*. Sonia willingly endures personal humiliation and hardship for the sake of her family, fully aware that her sacrifices will yield no tangible reward. She is portrayed as an embodiment of sincere, selfless, and unwavering love. Dostoevsky refers to her as the "eternal Sonechka," underscoring her Christian humility, devotion, and profound compassion. Ultimately, Sonia's selflessness and unwavering faith in Raskolnikov facilitate his moral and spiritual transformation, guiding him toward redemption and repentance:

How it happened, he himself did not know, but suddenly something seemed to pick him up and as if threw him at her feet.... ' [43]

Unlike Dostoevsky's heroines, whose portrayals are deeply intertwined with themes of sacrifice and inner turmoil, Jane Austen's female characters are distinguished by their independence, rationality, and pursuit of personal happiness. They exhibit self-confidence and refuse to sacrifice their aspirations or sense of self despite the social constraints of their time.

One of the most striking examples of Austen's female protagonists is Elizabeth Bennet from *Pride and Prejudice*. From her earliest introduction in the novel, it becomes evident that Elizabeth is unlike the typical young women of her social milieu—she defies conventional expectations and possesses a distinct sharpness of mind. This uniqueness is highlighted in Mr. Bennet's remark:

"They are all silly and ignorant like other girls; but Lizzy has something more of quickness than her sister". [44]

In contrast to Dostoevsky's humble and self-sacrificing female characters, Elizabeth Bennet is portrayed as a woman of remarkable inner strength and

[42] Kosorukova A.A., Zubkova U.V. *Types of "Meek" and "Proud" Female Characters in the Works of F. M. Dostoevsky as a Study of the Question of Virtue*.

[43] Преступление и наказание / Достоевский Ф.М.— М.:ДА!Медиа, 2014. – p. 607

[44] Jane Austen. Pride and Prejudice. – UK.: London, 2013. – p. 5

vitality. She possesses a keen wit and frequently employs irony in her conversations, often at the expense of male characters—an act that was considered highly unconventional for women in the rigid social framework of her time. Elizabeth is unafraid to challenge societal expectations and assert her own views, demonstrating an independence of mind that sets her apart.Compared to Dostoevsky's images, where female characters are full of femininity and delicate beauty, in Jane Austen's novel, Lizzy is mentioned as an average looking girl, but stands out for her intelligence and knowledge:

"Lizzy is not a bit better than the others; and I am sure she is not half as handsome as Jane, nor half as good-humored as Lydia. But you are always giving her the preference.".[45]

Another difference between the female characters of the Russian writer, F. M. Dostoevsky, and the English author, Jane Austen, is the social situation in which the characters find themselves. In Dostoevsky's works, female characters are often faced with the necessities of subsistence and survival. Having been born into pauper or broke families, they have to fit into society, finding any means of earning a living, even if it means they have to sell themselves or be completely dependent on men. They have no choice but to obey others. An example of this is Nastasia Filippovna from "Idiot", with the tragic fate she was given from birth. Since the death of her parents she has been under the control of a cruel and overbearing man, Afanasy Totsky, who took her into his home, raised her and then turned her into his mistress. As she grew older, Totsky tried to marry her off to a young nobleman and so get rid of her. All these events left a dark trace in Nastasya that haunted her for a long time. This can also be understood from the quote about Nastasya:

"I'm sure her fate is not ordinary. Her face is cheerful, and she suffered terribly, didn't she? The eyes tell it, those two bones, the two dots under the eyes at the beginning of the cheeks. It's a proud face, terribly proud, and I don't know if she's good. Ah, if only she were good! All would be saved!"

(orig. «*Я уверен, что судьба ее не из обыкновенных. Лицо веселое, а она ведь ужасно страдала, а? Об этом глаза говорят, вот эти две косточки, две точки под глазами в начале щек. Это гордое лицо, ужасно гордое, и вот не знаю, добра ли она? Ах, кабы добра! Всё было бы спасено!*»)[46]

At the same time, the fate of Jane Austen's female characters is very different from the usual fate of a girl in Dostoevsky's works, as they still have the opportunity to make their own choices. In most of her works, they are middle or upper class girls who are not in the most desperate situation. While Dostoevsky's female characters have to break down and go against themselves, Austen's female characters are the epitome of inner strength, they are able to survive on their own without adjusting to anyone else.

Elizabeth Bennet, as a vivid example of a character with this characteristic, has repeatedly shown her will, freedom of choice even in desperate moments. At a

[45] Jane Austen. Pride and Prejudice. – UK.: London, 2013. – p. 5
[46] Идиот / Достоевский Ф.М.—М.:ДА!Медиа, 2014. – p. 43

crisis moment she faced the choice of marrying a relative who was going to inherit all the property of the Bennet family, but she did not want it and found the courage to refuse. But she also had the support of her closest person, her father Mr Bennet, who could not allow her to sacrifice her happiness for the sake of others:

'An unhappy alternative is before you, Elizabeth. From this day you must be a stranger to one of your parents. Your mother will never see you again if you do not marry Mr. Collins, and I will never see you again if you do'.[47]

In conclusion, Dostoevsky's female characters are remarkable in their capacity for self-sacrifice, resilience, and endurance in the face of adversity. They navigate harsh realities with quiet strength, often enduring profound suffering while maintaining their moral and emotional depth. At the same time, the female protagonists in Jane Austen's works are no less extraordinary. Characterized by confidence, intelligence, and a strong sense of agency, they challenge societal constraints and assert control over their own lives. Despite the differences in their circumstances and portrayals, both Dostoevsky and Austen create compelling and multifaceted female characters who leave a lasting impact on literary tradition.

REFERENCES

1. Austen, Jane. *Pride and Prejudice.* – UK: London, 2013. – p. 5
2. Austen, Jane. *Pride and Prejudice.* – UK: London, 2013. – p. 5
3. Austen, Jane. *Pride and Prejudice.* – UK: London, 2013. – p. 142
4. Достоевский, Ф.М. *Преступление и наказание.* – М.: ДА!Медиа, 2014.p-607
5. Достоевский, Ф.М. *Идиот.* – М.: ДА!Медиа, 2014. – p. 43
6. Kosorukova, A.A., Zubkova, U.V**.** *Types of "Meek" and "Proud" Female Characters in the Works of F. M. Dostoevsky as a Study of the Question of Virtue.*

TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI

Umrzoqova Nafisa Sodiqjon qizi
NavDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimimizda ro'y berayotgan rivojlanishlar, xotin-qizlar uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar hamda ulardan samarali foydalanish orqali erishilgan natijalar haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, inkluziv, texnologiyalar, gender tenglik, feminism, multimediya, global fuqaro.

Annotation: This article provides information about the developments in our education system, the new opportunities created for women, and the results achieved through their effective utilization.

Key words inclusive education, technologies, gender equality, feminism, multimedia, global citizen.

Аннотация: Эта статья содержит информацию о развитии нашей системы образования, новых возможностях, созданных для женщин, и результатах, достигнутых благодаря их эффективному использованию.

Ключевые слова: инклюзия образование, технологии, гендерное равенство, феминизм, мультимедиа, глобальное гражданство.

[47] Jane Austen. Pride and Prejudice. – UK.: London, 2013. – p. 142

Ta’lim – har bir sohaning onasi, u rivojlanar ekan jamiyatning har qaysi yo‘nalishlarida barqarorlik va etakchilikka erishish mumkin. Sharqiy mamlakatlar qarashlari asosida gapiradigan bo‘lsak, ayol o‘qimishli bo‘lsa, millat o‘qimishli bo‘ladi. O‘tmishdan ayol-qizlarga bo‘lgan hurmat, e’tibor kuchli bo‘lganidan, ularning bilim va salohiyatlari, tajribalari asosida katta bo‘lgan buyuk sarkardalar, olimlar, davlat arboblari o‘zbek nomini tarix kitoblariga abadiylashtirgan. Bugungi kunga kelib, malakali pedagoglar qo‘lida tarbiya ko‘rayotgan avlod ham kelajakni o‘zgartirishga qodir kadr bo‘lib etishib chiqishiga ishonamiz.

Gender tenglik, feminizm kabi global muammolar dunyo bo‘ylab katta qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirayotgan bir paytda bizning jamiyatimizda bu voqealar global tusini olmagani quvonarli, negaki sharq mamlakatlarida ayollar uchun oila, farzand tarbiyasi eng birinchi prioritet bo‘lib qoladi. Shunday bo‘lsa-da, jamiyat va davlat rivojida ayollarning ham hissasi katta, ayniqsa, ta’lim sohasidagi jonbozliklarni ta’kidlamay ilojimiz yo‘q. Umumiy ta’lim maktablari, universitet, shuningdek, boshqa o‘quv dargohlarida o‘qituvchilikni kasb qilgan xotin-qizlarning foiz ko‘rsatgichlari yuqori ekanligi barchamizga ma’lum. Bu hali hammasi emas, erkaklardan farqli o‘laroq ilm-fan sohasidagi ayollar ikki "jang maydonida" raqobat qilishlari kerak bu, albatta, im-fan sohasidagi ayollar zimmasiga ikki baravar mas’uliyat yuklaydi. Emma Watson, taniqli britaniyalik aktrisa va Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) xayrixoh elchisi sifatida, gender tengligi va ayollarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyat olib boradi. Uning ta'limdagi ayollarning o‘rni haqida bir qancha ilhomlantiruvchi fikrlari mavjud.

"Qizlar hech qachon aqlli bo‘lishdan qo‘rqmasliklari kerak."[48]

Negaki ayol tabiati majassam matonat va g‘ayrat jamiyat tarbiyasi uchun, yurt va davlat taraqqiyoti uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi. Xuddi shuningdek Ellen Jonson Sirlif “Bu bola buyuk bo‘ladi” kitobida Liberiyaning birinchi ayol prezidenti bo‘lish yo‘idagi mashaqqatlari, duch kelgan qiyinchiliklari va ayollar huquqlari hamda siyosiy ishtirokini targ‘ib qilishga bo‘lgan sadoqatini namoyon qilib “*Shunday ekan, men barcha ayollarga o‘zlarini sevishni va bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashni aytaman.”* deya motivatsiya beradi.

Jahon standartlariga munosib ta’lim va tarbiya jarayoni oliy maqsad qilib qo‘yilgan ayni damda har bir pedagogning o‘z ustida ishlashi, yuqori cho‘qqilarni zabt etishi, “global fuqaro”, tanqidchi, tashkilotchi bo‘lishi talab qilinmoqda. Umumiy o‘rta ta’limda faoliyat yurituvchi mutaxassislarning 96,32 foizi xotin qizlardan iborat ekanligini inobatga olsak, bu katta kuch, qudrat va mas’uliyat ekanligini anglaymiz. Zamon talabiga “labbay” deyayotgan pedagoglarning bugungi faoliyatini texnika-texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin, shu bois kreativ g‘oyalar bilan, zamonaviy jihozlarni uyg‘unlashtirgan holda o‘quvchilarni darsga ko‘proq jalb qilish, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish, ichki qobiliyatlarini uyg‘otishning yangicha usullari, metodlardan foydalanmoqdalar.

[48] *Speech by UN Women Goodwill Ambassador Emma Watson at a special event for the HeForShe campaign, United Nations Headquarters, New York, 20 September 2014*

Jumladan, Nodira Isamuxamedova O‘zbekistonda ingliz tili o‘qitilishini rivojlantirishga katta hissa qo‘shib, yangi metodologiya ishlab chiqishda ishtirok etgan. Nodira Isamuxamedova o‘z metodikasida texnologiyalardan samarali foydalanishga alohida e’tibor beradi. Masalan, elektron darsliklar, multimedia resurslari va internet orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan usullarni qo‘llaydi. Shuningdek, ayol etakchilar inklyuziv ta’lim siyosatini ilgari surib, gender tengligi, o‘quvchilarning farovonligi va o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilishga e’tibor qaratadilar. Rahbarlik lavozimidagi ayollar ta’limda gender tafovutlarini kamaytirish uchun faol ishlaydilar. Ular yosh qizlarni STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik va Matematika)[49] hamda rahbarlik lavozimlariga qiziqtirish orqali ilhomlantiruvchi namuna bo‘ladilar. Xususan, O‘zbekiston ta’lim tizimida muhim o‘rin tutuvchi Hilola Umarova ham ta’limni modernizatsiya qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etishga katta e’tibor qaratgan. Uning rahbarligi ostida O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlanib, yosh avlodning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga xizmat qilmoqda.

Yurtimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida har sohada o‘sish va rivojlanishning guhohi bo‘lib turibmiz. Ta’lim, albatta, eng birinchi pog‘onada turganini hisobga olib Saida Mirziyoyeva, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yordamchisi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda ayol mutaxassislarni qo‘llab quvvatlashi orqali O‘zbekistonda olimlarning 48 foizini ayollar tashkil etishiga erishilgan. Mirziyoyeva UNICEF va UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuvlar o‘tkazib, ta'lim sohasida innovatsion va zamonaviy metodlarni joriy etish masalalarini muhokama qilgan, chet el davlatlari bilan mufaffaqiyatli aloqalar o‘rnatgan. Biz yoshlar esa ana shu sa’y-harakatlarning natijasini bor kuch g‘ayratimiz, bilim salohiyatimiz bilan namoyish qilishimiz, bugungi kunda yuzlashayotgan muammolarga bir yoqadan bosh chiqarib echim izlashimiz muhimdir

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ayollarning jamiyat hayotidagi o‘rni beqiyos, ular ona, o‘qituvchi, siyosatchi innovator sifatida ijtimoiy faollar. Ayol pedagoglar va rahbarlar ta’lim sifatini modernizatsiya qilishga, kelajak avlod uchun qulay va inkluziv ta’lim muhitini yaratishga o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘shmoqdalar. Jamiyat ayollarni qo‘llab-quvvatlashi va ularning ta’limdagi o‘rnini mustahkamlashi orqali yanada teng huquqli, innovatsion va rivojlangan ta’lim tizimini yaratish mumkin. Kelajak avlod ta’limining yuksalishi gender tengligi, yangiliklarga ochiqlik va ayollarning bebaho xizmatlarini e’tirof etishlariga bog‘liq.

Butun O‘zbekiston yoshlari, ayniqsa, biz bo‘lajak pedagoglar uchun amalga oshirilayotgan islohotlar, qulayliklarga befarq qaramagan holda jamiyatni tarbiyalashda, yurtimizning jahon sahnasida raqobatbardosh davlatga aylanishida o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz lozim. Zero ta’lim yuksalsa, davlat rivojlanadi.

MANBALAR

[49] National Science Foundation (NSF) www.nsf.gov.

1. Ellen Johnson Sirleaf, “This child will be great”, New York, Harper.
2. Emma Invites All of Us to Fight for Gender Equalityhttps://ekladata.com
3. How Nodira Isamukhamedova supports Uzbek teachers from afar https://www.britishcouncil.uz
4. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi AKT maktabi direktori Hilola Umarovahttps://inha.uz
5. Presidential Aide Saida Mirziyoyeva meets with senior officials of UNICEF, UNESCO, UNDP, OECD, World Bank https://tashkenttimes.uz

OILADA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY SHAXSIYATI VA ASARLARINING O‘RNI

Xudoyorova Munira Baxronovna
NavDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.

Har bir oilada farzandlarni ilmli, ma’naviyatli qilib tarbiyalashda kitobning o‘rni alohida. Kitob va unga bo‘lgan samimiy munosabat, mutolaa madaniyati daho ijodkor Alisher Navoiy ijodida ayricha mehr va muhabbat bilan talqin etilgan mavzulardan biridir. Navoiy ilmiy, badiiy, tarixiy va didaktik asarlarida o‘z shaxsiy hayoti, ustozlari va zamondoshlari yoki badiiy qahramonlari vositasida bu boradagi fikrlarini izchil yoritadi. Yoshligidanoq badiiy ijodga zavqi baland bo‘lgan shoir “Majolis ul-nafois” asarida nazmga havasi baland bo‘lganligini,uch yoshda ekanligida o‘z davrining mashhur so‘fiy va faylasuf shoiri Qosim Anvorning tasavvufiy ruhdagi g‘azalini yod olganligini yozadi:

“Rindemu oshiqemu jahonso‘zu joma chok,
Bo davlati g‘ami tu zi fikri jahon chi bok?

Bu faqir avval nazmekim o‘rganibmen,bu so‘nggi matla’dur.Hamono uch yosh bila to‘rt yoshning orasida erdim, azizlar o‘qumoq taklifi qilib,ba’ze hayrat izhor qildilar...”[50]

Kichik maktab yoshida esa “Guliston”, “Bo‘ston” asarlari bilan birga “Mantiq ut-tayr”dek falsafiy asarning mutolaasiga kirishadi.

...Nasrdin ba’zi o‘qur ham doston,
Bu “Guliston” yanglig‘u ul “Bo‘ston”.
Menga ul holatda tab’i bulhavas,
“Mantiq ut-tayr” aylab erdi multamas.[51]

Kitobga bo‘lgan mehrning erta uyg‘onishi o‘z samarasini bermay qolmasligini Alisher Navoiy dahosi isbotlab turibdi.

Umumta’lim maktablarining “Adabiyot” darslarida, ma’naviyat soatlarida darsdan tashqari tashkil etilgan to‘garak va tadbirlarda ana shu jihatga alohida e’tibor qaratish va bunda Navoiy shaxsiyatini ibrat namunasi sifatida ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugina emas kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda

[50] Alisher Navoiy.Majolis ul-nafois.To`la asarlar to`plami,10jildlik,9-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.308-bet.
[51] Alisher Navoiy.Lison ut-tayr.To`la asarlar to`plami,10jildlik,9-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.280-bet.

ota-ona,oila,maktab,ustozlar davrasining ahamiyatini ham unutmasligimiz,bu borada Navoiy hayotini tajriba maktabiga aylantirmog‘imiz zamonamizning kitobga bo‘lgan talablarini qondirishga hissa qo‘shadi. Zero,Alisher Navoiy doimiy muloqotda bo‘lgan insonlar-o‘z zamonasining oldi bo‘lgan etuk,ilmli va ma’rifatli kishilardan edi. Hazrat Navoiy olti yoshda ekanliklarida Taft shahrida “sohibkamolligi olam ahli qoshida musallam” bo‘lgan Sharafiddin Ali Yazdiyning muborak duolariga sazovor bo‘lgan.[52] “Majolis ul-nafois”asarida Navoiy bu ulug‘ insonning “Qasidai Burda”, “Asmoulloh”sharhlari, “Zafarnoma” tarixi, muammo fani tahliliga bag‘ishlangan “Hulal”, “Munozara”, “Muntaxab” asarlarini keltirib o‘tadi. Bo‘lajak shoirning olti yoshida tug‘ilgan “ne kishi ekandurlar” savoli Sharafiddin Ali Yazdiyning asarlari mutolaasi jarayonida echilgan va muborak duo ham shundan keyin o‘z ijobatini topgan. Alisher Navoiy o‘z ijodiy muvaffaqiyatlarida bunday insonlarning fotihalari ijobatini ularning so‘fiy va darveshvash bo‘lganliklari bilan bog‘laydi. O‘z davrining “malik ul-kalomi”deya ulug‘langan Mavlono Lutfiy ana shulardan biri edi. Turkiy she’riyatning benazir vakili ijodini, “Zafarnoma ”tarjimasidagi o‘n ming baytdan ortiq masnaviysinigina emas, Lutfiyning eng so‘nggi ijodiy rejalari bilan ham tanish bo‘lgan.[53]

Alisher Navoiy o‘z hayotida muhim o‘rin tutgan insonlarga bag‘ishlab maxsus yodnomalar ham yaratganki, bunga turtki ham bevosita ularning asarlari,yoki o‘qigan kitoblari va ular orqali orttirgan ilmlari degingiz keladi. Navoiy hayotida ustoz, pir, ijodiy hamkor, samimiy do‘st sifatida ulug‘langan Nuriddin Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan “Xamsat ul-mutahayyirin” asarining ikkinchi va uchinchi maqolatlari va xotima qismi faqat kitob bilan bog‘liq.[54]Ikkinchi maqolatda ikki buyuk so‘z sohibining biri ikkinchisidan ta’sirlanib yaratgan asarlariga bag‘ishlansa, uchinchi maqolatda Jomiyning maqolatda nomlari zikr etilgan o‘ttizdan ortiq asarlarining tasnifiga sababchi bo‘lganligini kamtarona tarzda keltirib o‘tadi. Ibratlisi shuki, xotimada keltirilgan asarlarning barchasini Navoiy Jomiy huzurida mutolaa qilgan.Buni asarda alohida e’tirof etib yozadi: “ul kutub-u rasoil bobidakim,bu faqir alar xizmatida ta’lim va istifoda yuzidin o‘qubmen...” Bu asarlarning aksariyati Abdurahmon Jomiyning qalamiga mansub bo‘lgan. Ular mumtoz she’riy ilmning turli sohalariga bag‘ishlangan “Qofiya”,“Muammo”,“Aruz”, “Sharhi ruboyyot” kabi risolalar, tasavvuf istilohlarining nozik sharhlariga bag‘ishlangan “Lavoyeh”, “Lavome’”, “Ashi’a”, “Nafahot ul-uns”, “Shavohid un-nubuvvat” kabi asarlardir. Jomiy Navoiyning naqshbandiya sulukidagi piri sifatida tariqatning nozik sir-u asrorlarini anglashda, bu tariqat vakillarining hayot va ijod yo‘llari o‘z aksini topgan Xoja Muhammad Porsoning “Qudsiya”, darslarida aytishicha, o‘z davrida sifatlari yashirin qolgan Iroqiyning “Lamaot”, Xoja Ubaydullohning “Volidiya”, Ansoriyning “Ilohiynoma” kabi asarlarini o‘qitishga alohida e’tibor qaratgan. Bu asarlarni Alisher Navoiy bevosita ustozi va pirining sharh va izohlari asosida to‘la

[52] Bu haqida qarang: Alisher Navoiy.Majolis ul-nafois.To`la asarlar to`plami,10jildlik,9-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.308-bet.

[53] Bu haqida qarang: Alisher Navoiy.Majolis ul-nafois.To`la asarlar to`plami,10jildlik,9-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.331-bet

[54] Bu haqida qarang: Alisher Navoiy.Xamsat ul-mutahayyirin.To`la asarlar to`plami,10jildlik,5-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.

anglagan va ularga muhabbat qo‘ygan. Abdurahmon Jomiyning “Ashi’a”asari mutolaasidan ta’sirlanib shunday yozadi: “...barqining taloloyidin xira ko‘zlarga ochug‘liq va quyoshining sha’shasidin tiyra ko‘ngullarga yorug‘luq etkurur”.[55] Abdurahmon Jomiy huzurida o‘qilgan tasavvuf falsafasining nodir asarlari va ularning mualliflari hayoti,ilmiy-ijodiy faoliyati Navoiyga o‘rnak bo‘libgina qolmay,asarlarida aytilmoqchi bo‘lgan fikrlarni mazmunan va g‘oyaviy jihatdan to‘ldirib turgan.Masalan,yuqorida nomlari tilga olingan Buxoroning taniqli olimi, Naqshband hazratlarining ikkinchi xalifasi,so‘fiy va mashoyix Xoja Muhammad Porso ana shulardan biridir. “Xamsat ul-mutahayyirin”da u kishining “Qudsiya” si haqida: “Yana ba’zi mashoyix (quddisa asrorahum) rasoilidin:Xoja Muhammad Porso (quddisa sirruhu)ning “Qudsiya”sidurkim, hazrati qutbul-avliyo Bahouddin Naqshband rahmatullohning firdavsoyin majlislarida ul hazratning mu’jiz bayon tillarig‘a o‘tgan hadoyiq va maoniy ba’zi xulafokim, jam’ qilurlar ermish Xoja Muhammad mazkur ang‘a maoniy bitibdurlar va toliblar uchun aning diqqatlari iyhomin vozih etibdurlar ”[56]desa, “Hayrat ul-abror”da “Qudsiya” asari bilan birgalikda “Fasl ul-xitob” (shariat va tariqatning mushtarak aqidalari bo‘yicha kitob)ni ehtirom bilan tilga oladi:

Haq yo‘lida xojai qudsiy janob,
Roqimi “Qudsiya”u “Fasl ul-xitob”[57]

Xoja Muhammad Porso Xoja Ahror Valiy, Xoja Abu Nasr Porso,Xoja Alouddin G‘ijduvoniy kabi naqshbandiylik tariqatining yirik namoyandalariga murshidlik qilgan piri komil sifatida Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridan ham alohida o‘rin egallagan.Unda Navoiy Xoja Muhammad Porsoning tarjimayi holini qisqacha bayon qilib, hikmatli so‘zlari va karomatlaridan ham namunalar keltiradi. Navoiy o‘z asaridagi fikrlarini Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”i bilan dalillab, Naqshbandning shogirdlari ichida Porsoning alohida iltifotga sazovor bo‘lganligini,pirining nazari va nafasidan “...har ne alar desalar ul bo‘lg‘ay va yana bir mahalda dedilarki,har ne ul desa Haq taolo oni qilur. ” darajasiga etganligini yozadi.[58] Alisher Navoiy turli mavzudagi, ayniqsa, falsafiy va didaktik mavzudagi asarlarining izohtalab o‘rinlarida Xoja Muhammad Porsoning shaxsiy hayotini ibrat sifatida keltirib o‘tadi. Jumladan “Lison ut-tayr”dagi insof haqidagi bobda ulug‘ so‘fiyning o‘g‘li bilan bo‘lib o‘tgan voqeani insofli bo‘lishning go‘zal namunasi sifatida tilga oladi.[59] Aynan shu voqea “Hayrat ul-abror”ning 20-maqolatiga ilova tarzida ham keltiriladi.

Muqaddas Ka’ba ziyoratiga otlangan Xoja Muhammad Porsoga o‘g‘li Xoja Abu Nasr hamrohlik qiladi. Yo‘lning barcha mashaqqatlarida otasining og‘irini engillatgan, unga rahnamolik qilgani uchun Xoja Muhammad Porso Ka’ba atrofida yig‘ilganlarning iltijolarini bajo keltirish uchun duo qilishlikni o‘ziga topshirganlarida bu muqaddas vazifaga o‘g‘lini munosib ko‘rib shunday deydi:

---

[55] Alisher Navoiy.Xamsat ul-mutahayyirin.To`la asarlar to`plami,10jildlik,5-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.787-bet.
[56] Alisher Navoiy.Xamsat ul-mutahayyirin. To`la asarlar to`plami.10jildlik,5-jild.Toshkent,2013-yil,787-bet.
[57] Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent,G`afur G`ulom nomidagi nahriyot-matbaa ijodiy uyi,2006-yil.232-bet.
[58] Alisher Navoiy.Nasoyim ul-muhabbat.To`la asarlar to`plami.10jildlik,10-jild.Toshkent,2013-yil,309-bet.
[59] Bu haqida qarang:
Alisher Navoiy.Lison ut-tayr. To`la asarlar to`plami.10jildlik,9-jild.Toshkent,2013-yil.

Kimsaki yo‘q rahbari bu yo‘l aro,
Mumkin erur ozmog‘i har qo‘l aro.
Yo‘q erdi bu yo‘lda manga rahnamoy,
Tengri meni qildi anga rahnamoy.[60]

Shahzoda Badiuzzamonga nasihat tariqasida keltiriltilgan bu hikoyat bugungi kun ota va o‘g‘illar o‘rtasidagi munosabat qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadigan haqiqiy ibrat namunasidir. Bunday etuk, har jihatdan barkamol shaxslar ustozlarning kimning, qanday asarini o‘qish kerakligining to‘g‘ri tanlanganligi uchun ham Alisher Navoiy asarlarining betakror timsollariga aylangan,uning ardog‘ida va e’zozida bo‘lgan.

Kim bu ato birla o‘g‘ulni mudom,
Davlatu din taxtida tut mustadom.[61]

Ulug‘ ustozining nafaqat ilmiy, balki sohir badiiyat namunalarining har biri shogirdning sinchkov nigohidan muvaffaqiyatli o‘tib o‘ziga munosib ta’rif-tavsifini topadi. “Hayrat ul-abror” dostonining Abdurahmon Jomiy madhiga bag‘ishlangan XIII bobida “Tuhfat ul-ahror”ni shunday ta’riflaydi:

Boshdin-oyoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, “Tuhfat ul-ahror”edi.[62]

Bu asar o‘zining mazmuni va yuksak saviyada yaratilganligi bilan emas, Navoiy ko‘ngliga “Xamsa” yaratishdek ulug‘ dag‘dag‘aning havasini uyg‘otgani uchun ham alohida mehrga sazovor:

Shavqida ko‘ksimni shikof ayladim,
Jildig‘a ko‘nglumni g‘ilof ayladim.[63]

Badiiy adabiyotga oshuftalik Navoiyni o‘z davrining komil insonlari bilan birlashtirgan yagona jihat. Alisher Navoiy ota darajasida ulug‘lagan Said Hasan Ardasher ana shunday insonlar sirasidan edi.Xoja Hofiz Sheroziy, Shayx Muslihiddin Sa’diy, Shayx Farididdin Attor, Muhammad G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiy kabilarning Ardasherning sevimli adiblari bo‘lganligini e’tirof etgan Navoiyda bu ijodkorlar va ularning asarlariga bo‘lgan qiziqishni ustozidan o‘rganligi tabiiy. Mashhur ijodkorlar ijodiga yuksak mehr-muhabbat bilan qaragan Ardasher o‘zi ham ikki tilda: turk va fors tillarida qalam tebratgan. Bu haqda Alisher Navoiy o‘zining tazkira asari hisoblangan "Majolis-un nafois" asarida shunday yozadi: "Sayyid Hasan Ardasher -bu faqirg‘a ota masobasida (o‘rnida) erdi...Bu faqir turk va sort orasida andin tamomroq (olimroq va fozilroq) kishi ko‘rmaydurmen...Salotin tartibiyati huzirig‘a bo‘ldilar, o‘zin yiroq tortdi... Ikkalasi til bila goho nazm aytur erdi".[64]

[60] Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent,G`afur G`ulom nomidagi nahriyot-matbaa ijodiy uyi,2006-yil.233-bet.
[61] Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent,G`afur G`ulom nomidagi nahriyot-matbaa ijodiy uyi,2006-yil.234-bet.
[62] Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror.To`la asarlar to`plami,10jildlik,6-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.45-bet.
[63] Alisher Navoiy.Hayrat ul-abror.To`la asarlar to`plami,10jildlik,6-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.45-bet.
[64] Alisher Navoiy.To`la asarlar to`plami.O`n jildlik.9-jild.Majolis ul-nafois.Toshkent,G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.2013-yil,461-betlar.

Alisher Navoiy o‘qigan kitoblar va ularning mualliflari ro‘yxatini davom ettirganimiz sayin bu ulug‘ insonning butun umri davomida kitobga oshno bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz.

Navoiy tafakkurining betimsol qahramonlari ham ana shu jihatiga ko‘ra ibratli. “Farhod va Shirin”ning XIII bobida Farhodning ilm-u hikmat borasidagi tengsizligini ta’riflar ekan,Arastudek hakimni uning kichik shogirdlari qatorida sanaydi:

Tabiiyu,riyoziyu,ilohiy,
“Alif,be,te”dek,olinda kamohi.
Bo‘lub Yunonda hikmat virdi oning
Arastu kichik bir shogirdi aning.[65]

Zukko zehni,noyob xotirasi,o‘qiganini uqishdek sifatlari bilan Farhod hamma davrlarda yoshlarimizga namuna bo‘la oladi.

Uchinchi oy ravon bo‘ldi savodi,
Burung‘i yilda Qur’on bo‘ldi yodi.
Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.
Ne so‘znikim,o‘qub ko‘ngliga yozib,
Dema ko‘ngliki,jon lavhiga qozib.
O‘qub o‘tmak,uqub o‘tmak shiori,
Qolib yodida safha-safha bori. [66]

Alisher Navoiyning yaratgan boy ilmiy, badiiy, falsafiy asarlarining umrboqiyligida u mutolaa qilgan asarlarning o‘rni beqiyos. Buyuk iste’dod sohibining kamolotiga xizmat qilgan kitoblarga, ularning mualliflariga bo‘lgan yuksak hurmat yosh avlodlarga asrlar osha ibrat maktabi bo‘lib qolaveradi.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI ANTROPONIMIK TERMINLARNING USLUBIY XUSUSIYATI

Nuritdinova Ra’no Sevdiyevna
NavDU O‘zbek tilshunosligii kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya: Navoiy asarlari tilida iste’molda bo‘lgan antroponimlar bilan bog‘liq atamalar tahlil qilindi. Maqola eski o‘zbek adabiy tili sathlarida yuz bergan o‘zgarishlar, umumxalq o‘zbek tili leksikasi tarkib topishi haqidagi nazariy qarashlarni kengaytiradi va boyitadi.

Kalit so‘zlar: og‘ullug‘ , ataliq//atalig‘, xatun kishi.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning adabiy til ravnaqi uchun, o‘zbek adabiyotining shakllanishi hamda rivojlanishi uchun olib borgan kurashi madaniyatimiz tarixida muhim o‘rin tutadi. U chinakam vatanparvar shoir va olim sifatida xalq tilining bitmas-tuganmas manbalaridan foydalanish, uning boyligi va

[65]Alisher Navoiy.Farhod va Shirin.To`la asarlar to`plami,10jildlik,6-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.363-bet.
[66] Alisher Navoiy.Farhod va Shirin.To`la asarlar to`plami,10jildlik,6-jild.Toshkent:G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.364-bet.

nafisligini namoyish etish bilan nafaqat o‘z zamondoshlariga, balki undan keyingi butun avlodga o‘rnak ko‘rsatadi.

O‘rta Osiyoda turkiyda bitilgan adabiyotning rivojlanishi XI-XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Ulug‘ shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy asos solgan eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi ham ayni ushbu davr bilan uzviy bog‘liq[67].

O‘rta Osiyo tillari (dialektlari) negizida tarkib topgan, sharqiy turkiy, ba’zi qipchoq hamda o‘g‘uz-turkman tillari ta’siriga ega bo‘lgan ushbu yangi tilda Durbek, Otoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Amiriy, Gadoiy, Sayyid Ahmad, Xo‘jandiy, Haydar Xorazmiy, Navoiy, Bobur, Husayn Boyqaro, Muhammad Solih singari so‘z ustalari ijod etgan.

Eski o‘zbek adabiy tili o‘zbek xalqi tomonidan yaratilgan umumxalq milliy tilining sayqallangan, me’yorlangan shakli bo‘lib, uning takomillashuvida yuqori lisoniy madaniyatga ega shaxslar, ya’ni davlat arboblari, mutafakkirlar, faylasuflar ulkan mehnat qilgan deyish mumkin. Ayniqsa, eski o‘zbek adabiy tili va unga oid me’yorlarning shaklllanishida badiiy ijod vakillari – shoir va yozuvchilarning roli beqiyosdir. Milliy tilning oliy shakli bo‘lmish va milliy til tarkibidan o‘rin olgan eski o‘zbek adabiy tilining tom ma’nodagi adabiy tilga aylanishida, uning o‘rta asrlar Sharq xalqlari dunyosida yuqori mavqedagi arab va fors-tojik tillari darajasiga ko‘tarilishida, unda ham ajoyib g‘azallar bitish, “Xamsa” yaratish, ilmiy asarlar yaratish, falsafiy mushohadalar yuritish mumkinligini ro‘y-rost ko‘rsatishda buyuk Alisher Navoiyning beqiyos shijoati, fidokorona mehnati yotibdi.

Hozirgi o‘zbek tili leksikasi murakkab va rang-barang hodisa zaminida shakllangan. Uning shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari o‘zbek xalqining tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Muttasil o‘zgarishlarni boshidan kechirgan o‘zbek tili leksikasi uzoq muddatli tarixiy taraqqiyot samarasi hisoblanadi. Asosini asl so‘zlarning tashkil qilishi o‘zbek tiliga oid xoslikni, milliy mentalitetni, boylikni, kengayish manbalarini, lug‘at tizimidagi spetsifik jihatni belgilashi bilan xarakterlanadi. O‘zbek tili leksikasi bosib o‘tgan turfa yo‘l va jarayonlarni ilmiy asosda tahlil etish, tabiiy, tarixiy leksikologiya oldida turgan muhim vazifadir. Bizga asosiy qonuniyatlar, lug‘at tarkibining boshlang‘ich davridan hozirgi kunga qadar bo‘lgan taraqqiyot yo‘llari ma’lum bo‘lmog‘i lozim. Biz har bir so‘zning paydo bo‘lishi, vaqti, unga doir ma’no va ottenkalarning o‘zgarish, ularning o‘zga so‘zlar ma’nolari bilan munosabati sabablarini aniq idrok etishimiz zarur bo‘ladi.

O‘zbek tilining tom ma’nodagi jonkuyari Alisher Navoiy qalamiga xos asarlarda ishlatilgan qavm-qarindoshlikni ifodalovchi atamalarni qadimgi turkiy til va eski turkiy til obidalari so‘z boyligiga qiyosan tahlil etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

“Farzandga ega bo‘lish, o‘g‘illik” sememasi Turfon matnlarida, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” pandnomasida **og‘ul** leksemasiga ***-lug‘*** affiksini qo‘shishdan yasalgan **og‘ullug‘** motivlangan so‘zi bilan ifodalangan: **Tört og‘ullug‘** (DTS, 365). Qadimgi turkiy tilda zikr etilgan leksik birlik bilan o‘xshashlik munosabatga “asrab olish, boqib olish” ma’nosini anglatuvchi

[67] Fozilov E. O’zbek adabiy tilining shakllanish tarixi haqida // O’zbek tili tarixi masalalari. -Toshkent: Fan, 1977. –B.3.

ogʻulluq yasamasi kirishganini kuzatish mumkin (DTS, 365). Alisher Navoiy dostonlarida ham **ogʻullugʻ:**

Qul yanglig‘ ogʻullugʻunni qilsam,
Ogʻul kibi qullugʻunni qilsam (Layli va Majnun, VIII, 210),

ham **ogʻulluq** shakllari **“farzandlik, oʻgʻillik”** ma’nosini anglatavergan:

Mäңä shahliqda qulluq ham qil emdi,
Ataliq ham, ogʻulluq ham qil emdi (Farhod va Shirin,(X), 354).

Oʻxshash mulohazani soʻnggi baytda ishlatilgan **ataliq//atalig‘** yasamasi xususida ham bildirsa boʻladi. Bu soʻz ilk bor “Qutadgʻu bilig”da **ataliq** shaklida **“otalik”** ma’nosini ifodalab kelgan (DTS, 66). Oʻzbek adabiy tilining asoschisi asarlari tilida **atalig‘** shakli ham qoʻllangan: Bir-bir ötkärib, ul etkäch, atalig‘ mehri harakatqa kelib...(Tarixi muluki ajam XIY-209).

Beg leksemasi qadimgi turkiy tilda **“hukmdor, dohiy, amir”** ma’nosini ifodalagan: alti bag‘ bodunqa beg ertim “Olti bag‘ xalqining hukmdori edim” (DTS, 91). Eski turkiy tilda soʻzning **“er, umr yoʻldosh”** semasi rivojlanadi: Yavlaq tillig‘ begdän kerÿ yalңuz tul eg: “Yomon tilli erga ega boʻlgandan tul oʻtgan ma’qul (yaxshi)” (DLT, III, 170). Navoiy tilida **beg** soʻzi faqat **“bek, amir, amaldor”** ma’nosida qoʻllanadi: **Tÿrkniң... nävkäridin begigä deginchä sart tilidin bahramanddÿrlär** (Muhokamatul-lugʻatayn, XIY, 107-108). Kezi kelganda ta’kidlash joizki, xan, xaqan, sultán, shah, pádsháh singari leksemalarning “davlat rahbari, boshligʻi” ma’nosida keng qoʻllanishi *beg* soʻzidagi dastlabki “hukmdor” semasining keyinchalik ayni shu leksema yordamida ifodalanmasligiga olib keldi.

Navoiy asarlari tilida **kishi** leksemasi monosemantiklikka qarab siljiydi va u asosan “shaxs, inson, odam” mavhum tushunchasini ifodalash uchun xizmat qiladi: **Aniң nasihatin qabul etgän maqbul kishidÿr** (Mahbubul-qulub, 14-32). Ushbu soʻzda jins tafovutini aniqlash, ya’ni “erkaklik” va “urgʻochilik (ayollik)” belgisini ajratish mumkin emas. Bu belgilar erkäk kishi va ayal kishi birikmalari yordamida hozirgi oʻzbek tilida voqelanadi. Alisher Navoiy “ayollik” belgisini ifodalash uchun xatun kishi birikmasini ishlatadi: **Xatun kishi alar qoshida yatqay** (Tarixi muluki ajam, XIV, 231).

Shaxs (inson) tushunchasiga daxldor nom hamda ism terminlari sinonimlar tarzida koʻrinsa-da, lekin ma’no jihatdan juda nozik farqi borligi e’tiborga olingan holda ishlatiladi. Har qanday nom (ism)da kishilar, shu jumladan, xalq, qabila, urug‘ va elatlarning biror narsani ikkinchi bir narsadan farqlashga qaratilgan fikr-oʻyi mavjud boʻladi, mana shuning natijasida atoqli otlarning turlari yuzaga keladi. Atoqli otlarning asosiy vazifasi biror ob’ektni, shaxsni, narsa-hodisalarni yakka holda ajratib atashdir. Bu kishilarning ana shunday maqsadda nom ijod qilish va u bilan biror ob’ektni nomlashi bilan bogʻliq. Nomlash (nominatsiya) murakkab jarayon boʻlib, u ob’ektga munosib, maqbul nom topishni, berilgan nomning apellyativ leksikalikdan atoqli otlik xususiyatiga ega boʻlishigacha oʻtadigan jarayonni, jamiyatning nomga boʻlgan munosabatini oʻz ichiga qamraydi.

Nomning konkret ob’ektning atoqli oti sifatida turgʻunlashuvi nomning qanchalik toʻgʻri tanlanganligi, motivlangani, uning til onomastik tizimiga hamda jamiyatning, davrning milliy-lisoniy didi talablariga mosligiga bogʻliq.

Ma’lumki, nomlash har doim ma’lum maqsad, ma’lum tushuncha va tasavvurlar, e’tiqod, ishonch hamda rasmu rusumlar orqali amalga oshadi. Bu holat, ayniqsa, bolaga ism qo‘yish yoki ma’lum joy va o‘rinlarni nomlashda yorqin ko‘rinadi[68]. Nom berish bilan bog‘liq e’tiqod va rasmu rusumlar juda qadimgi zamonlardan tortib to hozirga qadar davom etmoqda va muayyan etnografik an’anaga aylangan.

Navoiy so‘z xazinasida, bir necha yuz yillik lisoniy taraqqiyot davomida yuz bergan turli jarayonlardan qat’i nazar, qadimgi turkiy tilda o‘zlariga yuklatilgan ma’nolarni aynan saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan so‘zlar miqdoran yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bunday leksik birliklar sirasiga qon-qarindoshlik (*og‘ulluq*, *ataliq*)) ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar bilan yonma-yon mavhum tushunchalarni anglatuvchi leksik birliklar ham o‘rin olgan.

Navoiy qadimgi turkiy tildan meros sifatida etib kelgan tub qatlamga mansub so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirib, zarur o‘rinlarda ulardan mohirona foydalana bilgan.

Alisher Navoiy har bir so‘zning boshqa so‘zlarga nisbatan anglatadigan ma’nolarini hisobga olgan holda ishlatib, bu sohada tengsiz mahoratga ega ekanligini namoyish etadi.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E. Antroponomika uzbekskogo yazыka: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – T., 1965.
2. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. I tom. – Toshkent: O‘zFA nashriyoti, 1960.
3. Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. II tom.
5. Боровков А.К. Лексика Среднеазыатскоготефсера XII-XIII вв. – М,; ИВЛ, 1962.
6. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati.
7. Fitrat, A. [1919]. *Tilimiz.* Tashkent.
8. Shakespeare, William. [2004]. *Romeo and Juliet.* Folger Shakespeare Library.
9. Oybek. [1970]. *Alisher Navoiy va uning ijodi.* Tashkent: Fan.
10. Nicolas, Jean-Baptiste. [1847]. *Chrestomathie Arabe: Recueil de Textes Arabes.* Paris: Imprimerie Royale. This book discusses Eastern poetry, including Navoiy’s ghazals, focusing on their literary beauty and themes.
11. S.N. Ivanov. [1970]. *The Language of Birds (Lison ut-Tayr).* In A. Navoiy, *Collected Works* Vol.13 Tashkent: Fan Publishing House.

ALISHER NAVOIY IJODIDA AYOLLAR OBRAZINING TIMSOLIY TALQINLARI

Salima Jumayeva
Alfraganus University “Sharq filologiyasi” kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Donishmand shoir mir Alisher Navoiyning badiiy ijod oldiga qo‘ygan talabi benihoya keng miqyosga ega. U o‘z asarlari vositasida turli dunyoqarashdagi, turli toifadagi jamiyat a’zolarini yagona maqsad, xolis muddao bilan yashashga

[68] Begmatov E. Nomlar va odamlar. – T.: Fan, 1966; Do’simov Z., Tillayeva M. Joy nomlarining siri. – Xiva, 2001.

da’vat etadi. Xususan, ul zot jamiyat a’zolari orasida “nozik xilqat” deya ta’riflanuvchi ayollar timsolini tasvirlahda yuksak muhabbat va mahorat bilan yondshadi. Ta’kidlash lozimki, ulug‘ so‘z san’atkori Alisher Navoiy ijodida ayollar timsoli ikki yo‘nalishda aks ettirilgan: 1.Tarixiy siymolar, xususan orifa ayollar tasviri yo‘nalishida; 2. Badiiy asar qahramonlari tasviri yo‘nalishida.

Birinchi yo‘nalish bevosita buyuk mutafakkirning “Nasoyimul muhabbat” asari bilan bog‘liq holda amalga oshirilgan bo‘lib, asarda zikri keltirilgan 770 ta shayxning 35 tasini so‘fiy ayollar haqidagi ma’lumotlar tashkil etadi. Ular orasida 12 tasi avliyolik darajasiga erishgan va karomat ko‘rsatgan orifalar hisoblanadi. Bu ayollar orasida dastlabkisi va eng mashhuri Robiya Adaviyadir. Asarda ushbu avliyo ayol bilan bog‘liq ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. “Kunlardan bir kuni Shayx Hasan Basriy Robiyaning yoniga keldi. Suv ustiga joynamozini to‘shab:

– Ikki rakaat namoz o‘qiylik, -dedi.

Robiya o‘z joynamozini havoga to‘shab ustiga mindi va dedi:

– Ey ustoz, sening bu qilgan ishingni baliq ham qilur. Mening qilganimni haqir bir pashsha ham qilur. Bulardan ish chiqmas. Yaxshisi, amal qilmoqdir”[1:86]. Anglashiladiki, Hasan Basriydek zot avliyo darajasiga ko‘tarilgan orifa ayol Robiya Adaviyaning yoniga kelib, karomat ko‘rsatmoqda. Joynamozning suv ustida ho‘l bo‘lmay, cho‘kib ketmay, muallaq turishining o‘zi g‘ayriodatiy ishdir. Robiya esa bunga javoban o‘z joynamozini havoga to‘shadi. Bu oldingidan ham ko‘ra kattaroq karomatdir. Lekin hikoyadan chiqariladigan xulosa bu emas. Robiya Adaviya bunday ishni suvda baliq, havoda pashsha ham qiladi. Bunday g‘ayriodatiy ishlarimizdan bizga hech qanday foyda yo‘q. Eng yaxshisi amal qilmoqdir, deb javob beryapti. Ko‘ryapmizki, Robiyaning bu fikri Alisher Navoiyning karomat borasidagi qarashlariga juda mos keladi. Alisher Navoiy hech qanday foydasi bo‘lmagan karomatlarni ko‘zbo‘yamachilik, kazzoblik, deya baholaydi. Yuqorida keltirilgan hikoyani o‘qigan o‘quvchi Hasan Basriy haqida noto‘g‘ri tushunchaga borishi mumkin. Aslida esa, Hasan Basriy kabi ulug‘ zot Robiya Adaviyani sinash uchun shunday qilgandi.

Alisher Navoiy fikricha, kishilarning Haqqa “dalolat va irshod qilish” (etishtirish) maqsadida va shunga xizmat qiladigan g‘ayrioddiy ishlarnigina haqiqiy karomat deb atash mumkin. Chunki ulardan ma’rifat paydo bo‘ladi. Odamlarni avrash maqsadida amalga oshiriladigan ko‘zbo‘yamachilik esa yolg‘onchilarning ishidir va undan faqat jaholat dunyoga keladi. Avval boshda karomat inson ma’naviy takomilining yuqori pog‘onasida qaralgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan va tasavvuf ta’limoti tarqqiy topishi natijasida karomatga bo‘lgan munosabatlar ham o‘zgargan. Keyinchalik karomat ko‘rsatish emas, balki karomatli shaxs bo‘la turib, o‘zidagi xislatni yashira olish, pinhon tuta bilish qobiliyati ma’naviy komillik sifatida talqin etilgan. Boshqa tomondan esa Alisher Navoiyning fikricha, karomat ko‘rsatishga berilib ketish kishini Haqdan uzoqlashtirishi, binobarin, g‘aflatga solishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”ni yaratishda foydalangan “Asror ul-avliyo” nomli manoqibda “Karomatni namoyish – farzni tark etishdir” deya ko‘rsatilgan. Yana ushbu manbada aytilishicha, so‘fiylik yo‘li 15 martabadan iborat bo‘lib, uning 5 martabasi kashfu karomatdir. Agar solik o‘zidagi kashfu karomat martabasini

yashra olmay oshkor qilsa, unga qolgan o‘n martabaga erishish yo‘llari batamom yopiladi va u asl maqsadiga etib borolmaydi.

Alisher Navoiy e’tiroficha, shunday kamolot egalari ham borki, ular ushbu xislatlarga ega bo‘la turib, karomatlarini yashiradilar, xalqqa oshkor qilishdan or etadilar. Chunki ular bir soniya ham Haq yodidan g‘ofil bo‘la olmaydilar. Ushbu xislatlarni namoyish etish va karomatbozlik uchun esa bir daqiqaga bo‘lsa-da Haqni unutish talab etiladi. Bu haqda Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da quyidagilarni qad etadi: “Va Haq subhonahu va taolog‘a andoq muqarrab bandalar va do‘stlar ham borki, bu borcha mazkur bo‘lg‘on holatdin ijtinob qilurlar, balki or qilurlar, nevchunki, bir turfatulayn Haq s. t. shuhudu istig‘roqidin g‘ofil bo‘la olmaslar. To ul saodatdin g‘ofil bo‘lmog‘uncha bu nimalarga maylu iltifot qilsa bo‘lmas. Har oyinaki, ul maqsudi asliydin har amrki, bu buzurkvorlarni bir lahza g‘ofil qilg‘ay agar barcha behishti jovidondurki, alarg‘a do‘zaxcha bor, andin ijtinob yo or qilsalar, muhiq bo‘lg‘aylar”[2:240]. Robiya Adaviya basralik bo‘lib, u haqdagi dastlabki ma’lumot Shayx Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” kitobida keltirilgan. Attor o‘z asarida Robiya Adaviyaga batafsil to‘xtalib, uning avliyoligi, Allohning sevimli quli va do‘sti ekanligi bilan bog‘liq 20 dan ortiq hikoyani keltirib o‘tadi.

Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasida ham Robiya Adaviyaning taqvosi bilan bog‘liq eng muhim jihatlar qalamga olingan. Alisher Navoiy kitobxonning “Tazkirat ul-avliyo” va boshqa shu kabi asarlardan xabardorligini ko‘zdan qochirmagan holda Robiya Adaviyaning eng go‘zal komillikka etaklovchi hikmatli gaplarini, Shayx Sufyon Savriy bilan bog‘liq suhbatlarni zikr etish bilan cheklanadi. Alisher Navoiy esa dastlab Robiya Adaviyaning basralik bo‘lganini aytadi. So‘ng o‘z davrining eng ulug‘ shayxlaridan biri Suyon Savriy bilan suhbatlar qurganini aytib, ikki suhbatini misol keltiradi: “Kunlardan bir kuni Sufyon Savriy Robiya huzurida qo‘lini osmonga ko‘tarib “Ollohim, Ollohim, Sendan salomatlik so‘rayman” dedi. Buni eshitgan Robiya yig‘ladi. Sufyon Savriy Robiyadan nega yig‘layotganini so‘ragach, u shunday javob berdi:

– Salomat dunyoda aning tarkidadir. Va sen dunyoga oludasen.”[2:23]

Bu suhbatda Robiya Sufyon Savriyning qilgan duosini tanqid qilmoqda. Shuning uchun ham Ollohdan salomatlik so‘rasdan maqsad sening dunyoni yaxshi ko‘rishingdandir, demoqa. Sufyon Savriy bilan bo‘lgan yana bir suhbatda shayx Robiyadan so‘radi:

– Tengri taolog‘a taqarrublar nimalardin yaxshirog‘i qaysidur?

Bunga javoban Robiya:

– Agar sen Ollohga taqarrub (yaqinlik*)* istasang, dunyo va oxiratda Andin o‘zgasini sevma, – dedi.

Yana bir kuni Sufyon Savriy Robiya huzurida “Vo Alamo!” deya baqirdi. Buni eshitgan Robiya uni malomat qilib:

– Yolg‘on aytma, agar seb g‘amgin bo‘lganingda tiriklik sen uchun ortiqcha yukdek bo‘lardi, -dedi. Ya’ni haqiqatda dunyodan mahzun bo‘lgan odam uchun unda yashash sevinch tug‘dirmaydi. Chunki u dunyoga sig‘may qoladi.[2:24] Sufyon Savriy bilan bo‘lib o‘tgan ushbu suhbatlarni zikr qilgandan so‘ng, Alisher

Navoiy Robiya tilidan aytilgan teran ma’noga ega hikmatni keltirib o‘tadi. Bu hikmatning o‘ziyoq Robiya Adaviyaning haqiqiy avliyo ayol va Haqqa qanchalik yaqin bo‘lganini isbotlaydi:

“Har nimaga samaredur va ma’rifat samarasi yuz Tengriga keltirmakdur.

Ushbu hikmatda aytilishicha, har nedan maqsad ilmdir. U shunday ilmki, Tangriga yuz burdirguvchi va unga etishtirguvchi.

Olloh taolo o‘zining kitobi Qur’onda ham ilm egalari bilan johillar hech qachon teng bo‘lmasligi haqida aytgan. Demak, har bir ishdan maqsad, ilm bo‘lishi va bu ilm oxir-oqibatda Yaratganni kashf qilmoqqa etaklashi lozim. Agar shunday bo‘lmasa, bu ilmdan foyda yo‘q.

Jaloliddin Rumiy o‘zining “Masnaviy ma’naviy”sida shunday deydi:

Tingla naydin chun hikoyat aylagay,
Ayriliqlardin shikoyat aylagay.
Men qamish erdim kesib keltirdilar,
Nola cheksam, el ham oh urdilar [3:8]

Bu o‘rinda nay inson ko‘nglining ramzi. Robiya ham o‘z hikmatida shuni nazarda tutmoqda. Hikmatning ikkinchi qismida esa g‘am-qayg‘uning yo‘qligidan qayg‘udaman, demoqda. Mo‘min kishi uchun bu dunyo turli tashvishlar, sinovlar, qiyinchiliklar mavjud. Agar shu sinovlardan eson-omon o‘tib, iymonini shaytonga boy bermasa, u narigi dunyoda barcha rohatlarni ko‘radi. Robiya esa ana shu mo‘min kishiga beriladigan qiyinchilik va azoblarning o‘zida oz miqdorda ekanligidan qayg‘urmoqda. Bu uning hol va maqomda yuqori ko‘tarilganidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy ayollar timsolini “Xamsa” tarkibidagi dostonlarida ham o‘ziga xos yuksak muhabbat bilan tasvirlagan. Xususan, uning “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlaridagi Shirin va Layli timsollari badiiy tasvir vositalarining o‘ziga xosligi, muallif niyatini amalga oshirishda muayyan vosita vazifasini bajarishga qaratilganligi va badiiy estetik yukka egaligi bilan salaflar dostonlaridan farqlanadi. Masalan, Shirin obrazi “Xusrav va Shirin”, “Farhod va Shirin” turkumidagi asarlarning bosh qahramoni, Navoiy dostonidagi Farhodning vafodor ma’shuqasi sifatida keltiriladi. Tarixiy manbalarda aytilishicha, Shirin Xusrav Parvezning eng suyukli xotini bo‘lgan. Arman qizi yoki oromiylardan bo‘lgan Shirinning aslzoda emas, aksincha past tabaqa vakili bo‘lganligi uchun Xusravga nomunosib hisoblaganlar. Shu bois bu muhabbat, uning bilan bog‘liq hodisalar, saroy fitnalari va hokazolar bu sevgi qissasining afsona va rivoyatlarga aylanishiga sabab bo‘lgan. Shirinning mifologik ildizi “Avesto”dagi to‘kin-sochinlik va suvga homiylik qiladigan ma’buda Ardvisura Anahitaga borib taqaladi. “Xusrav Parvezning xotini Shirin nomi ham tarixiy asarlarda faqat Shirin tarzida emas, balki Sira shaklida ham uchraydi. Bu Ardvisura Shirin shakliga ega bo‘lgunga qadar Sura, Sira deb atalib borilgan deyishga asos beradi”.[69]* Demak, tarixiy manbalar, afsona va rivoyatlar Xusrav va Shirin haqidagi asarlar yaratilishiga zamin bo‘lgan. Yozma adabiyotda birinchi bo‘lib, Abulqosim Firdavsiy o‘z “Shohnoma”sida Xusrav va Shirin qissasini yaratadi. Unda Shirin Eronlik bo‘lib,

[69] https://akademiklar.uz/erkinov-sodirxon

shahzoda Xusrav Parvezning ma’shuqasi sifatida tasvirlanadi. Xusrav taxtga o‘tirgandan keyin unga e’tibor bermay qo‘yadi. Shirin bir kun uning qarshisiga chiqib arz etganda, Xusrav uni rasman shoh haramiga yo‘llaydi. Bunga eronlik amaldorlar qarshilik ko‘rsatadilar. Biroq Xusrav ularni so‘z o‘yini bilan mahv etadi va ular Shirinni malika sifatida qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Nizomiyning “Xusrav va Shirin”ida Shirin obrazi bosh qahramon maqomiga ko‘tariladi va shu tariqa mazkur mavzudagi barcha dostonlarda asosiy qahramon bo‘lib qoladi. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida esa Shirin obrazi tubdan qayta ishlanadi. U endi Xusravning yo‘lida intizor bo‘lgan, uni deb yurtidan kechgan “sodda” ma’shuqa emas, rashk yo‘lida Xusravning birinchi ayoli Maryamga zahar beruvchi qotil ham emas. Navoiy o‘ziga xos ijodiy yo‘ldan borib, Shirin obrazida ideal ma’shuqa timsilini yararadi. Navoiyning Shirini nihoyatda oliyjanob qiz. U Farhodning samimiy muhabbatini qadrlaydi va unga o‘zi ham oshiq bo‘ladi. Shirin Farhodning kimligini bilmagani holda unga ko‘ngil qo‘yar ekan, podshoh Xusravni oddiy toshtarosh hunarmanddan baland qo‘ymaydi. Farhodning vafotini eshitib, qattiq qayg‘uradi, Xusrav va uning padarkush farzandi Sheruyaga xotin bo‘lganidan Farhodga sodiqligicha halok bo‘lishni afzal ko‘radi. Adabiyotshunos N.Komilovning yozishicha, Shirin Navoiy dostonida Yaratganning mazhari sifatida namoyon bo‘ladi. Uning pok surati va siyrati Haq zotida fano bo‘lgan pokiza Farhodni o‘ziga butkul shaydo, ishqiga giriftor etgan edi.

Ko‘rub Shirinni hayrat lol qildi,
Taajjub bir yo‘li behol qildi. [4:172]

Layli timsoli esa “Layli va Majnun” dostonining bosh qahramoni Majnunning ma’shuqasi sifatida tasvirlanadi. “Layli va Majnun” turkumidagi qissa va dostonlardan asosiy maqsad, avvalo, ilohiy ishqni tarannum etish edi. Layli esa ilohiyotning mazhari. Shu bois Layli dostonlarda real inson sifatida birinchi o‘ringa chiqmagan. Dostonlarda Laylining Hay (tiriklik) qabilasi boshlig‘ining qizi ekanligi ta’kidlanadi. Abdurahmon Jomiyning “Layli va Majnun” dostonida u Ibn Salomga nikohlab beriladi. Amir Xusrav dostonidagi Layli Majnunning bo‘lajak yori Navfalning qizi bilan do‘st bo‘lishga tayyor, Jomiy dostonidagi Layli esa sahroga – Majnunning qoshiga boraman, deb ancha vaqtgacha uni unutib, keyin etib borgach, oshig‘ini bexudlik holatida ko‘radi. O‘zini tanitmoqchi bo‘lganida, Majnun uning jismonan mavjudligini inkor etadi.

Navoiy dostonidagi Layli avvalgilarlardan ikki xususiyati – ham ilohiyot mazhari, ham real inson – mahbuba ekanligi bilan ajralib turadi. Uning bir qiyo boqish bilan Qaysni Majnunga aylantirishi, gulzorda yoridan noz bilan hol so‘rashi, Majnunni ko‘rgach, es-hushini yo‘qotishi – obrazning ilohiyot mazhari ekanligini ko‘rsatsa, Laylining Majnunga yozgan xatida “sen erkak kishisan, sahroda bo‘lsa ham, erkinsan, men esa uyga qamalganman, sendan ko‘ra menga qiyin”, deyishi, shu bilan birga oshig‘ini Navfalning qizidan rashk qilib, kinoyali tabrik maktub yozishi kabi voqea va holatlar Laylining real insoniy xususiyatlarga ega ekanligini isbotlaydi.

Andoqki qilib karashma mayli,
Zulf ichra jamolin ochsa Layli.[5:32]

“Xamsa” tarkibidagi dostonlarda Dilorom obrazi “Sab’ai sayyor” asarining bosh qahramon Bahromshohning ma’shuqasi, sozanda va go‘zal qiz, sadoqatli mahbuba timsoli sifatida gavdalanadi. Bu obraz “Shohnoma”dagi Bahrom sarguzashtlari bilan bog‘liq boblarda Ozoda, ya’ni oliyjanob va saxovatli, deb ataladi. U xushovoz xonanda va Bahromning ma’shuqasi. Lekin u Bahromning kiyik ovidagi mohirligini maqtamagani uchun ot oyoqlari ostiga tashlanib, qatl etiladi. Nizomiy Ganjaviyning “Haft behisht” dostonida Bahrom ma’shuqasining ismi Fitna bo‘lib, Nizomiy ularning sarguzashtlari uchun ikkita bob ajratadi. Unda ham Bahromning ovdagi mahoratini maqtamagani uchun Fitna o‘limga mahkum etiladi. Lekin qiz o‘limdan qutulib qolganidan keyin o‘z hunari bilan Bahromni qoyil qoldiradi. Natijada, Bahrom unga uylanadi. Amir Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” dostonida Bahrom mahbubasining ismi Dilorom bo‘lib, unda ham oshiq-ma’shuqlar sarguzashtiga ikki bob ajratiladi. Shoh va kanizak o‘rtasida ovdagi mohirlik xususidagi kelishmovchilik Dehlaviy dostonida ham saqlangan. Biroq qizning keyinchalik shohni o‘z hunari bilan maftun etishi Amir Xusrav dostonida birmuncha keng va qiziqarli tarzda ifodalangan. Alisher Navoiy esa Diloromni dostonining bosh qahramoni darajasiga olib chiqadi. Xususan, “Sab’ai sayyor”ning Bahrom va Dilorom sarguzashtiga bag‘ishlangan asarda bu obrazini qayta ishlab, uni vafodor mahbuba, sadoqatli oshiq va komil inson siymosida talqin etadi:

Tolpinurdin chu bo‘ldi oromi,
Soldi jonig‘a o‘t Diloromi. [6:82]

Xulosa qilib aytganda, ulug‘ shoir Alisher Navoiyning ijodiy merosida ayollar obrazi o‘ziga xos timsolliy talqinlarda yuksak mahorat va muhabbat bilan tasvirlanganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Navoiy sharhidagi ayollar timsollari shoirning badiiy niyatini amalga oshirishda muayyan vosita vazifasini bajarishga qaratilganligi va badiiy estetik ahamiyatga egaligi bilan qimmatlidir.

ADABIYOTLAR:

1.Fariduddin Attor.Tazkirat ul-avliyo. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2013.
2. Alisher Navoiy. Nasoyimul muhabbat. MAT. 20 jildlik. 17-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
3. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. – Toshkent: Sharq. 1999.
4.Navoiy Alisher. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Navoiy Alisher. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 9-jild. – Toshkent: Fan, 1992.
6. Navoiy Alisher. Sab’ai sayyor. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 10-jild. – Toshkent: Fan, 1990.

BEHBUDIY IJODIDA XOTIN – QIZLAR MASALALARI TALQINI

Normurod Avazov,
Alfraganus universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. *Muallif tomonidan Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijodida xotin – qizlar masalalari tahlilga tortilgan. Taraqqiyparvarning “Padarkush” dramasidan tortib, “Oq yelpog‘ichli chinli xotun”, “Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi*

(qomusiy hujjat N.A), "Kiyim va tashabbuh masalasi", "Hifzi sihhati oila", "Xotun olmoqni kerakligi", "Qiz bolalarni tarbiyasi" , "Uylanmaslikni zarari"kabi asarlarida bevosita oila va nikoh, ayollarning ijtimoiy hayoti, kiyinish bilan bog'liq masalalar urganilgan.

***Kalit so'zlar**: millat, milliyat, o'lka, ilm, ma'rifat, talqin, g'aflat, muammo, istiqlol.*

***Аннотация.** Автор проанализировал женские проблемы в творчестве Махмудходжа Бехбуди. Из драмы Таракипарвара «Падаркуш», «Китаянка с белым шарфом», «Меморандум Тюркской централистской (федералистской) партии» (энциклопедический документ N.A), «Вопрос одежды и инициативы», «Охрана здоровья «Семья», «Необходимость жениться», «Воспитание девочек» и «Вред невыходов замуж» напрямую рассматривают вопросы, связанные с семьей и браком, общественной жизнью женщин и одеждой.*

***Ключевые слова:** natsiя, natsiональность, страна; наука; просветление; интерпретatsiя, небрежность; проблема; перспектива, умение*

***Annotation.** The author analyzed women's issues in the works of Mahmudhoja Behbudi. From Tarakiparvar's drama "Padarkush", "Chinese Woman with a White Scarf", "Memorandum of the Turkic Centralist (Federalist) Party" (encyclopedic document N.A), "The Question of Clothing and Initiative", "Health Protection "Family", "The Need to Get Married", "Raising Girls" and "The Harm of Not Getting Married" directly examine issues related to family and marriage, women's social life and clothing.*

***Keywords:** nation, nationality; country; science; enlightenment; interpretation, negligence; problem; perspective, skill*

Mahmudxo'ja Behbudiy taraqqiyparvar, millatning ulug' karvonboshisi sifatida XX asrning boshida o'lkada mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun butun umrini baxshida qildi. U Turkiston o'lkasida millatni ma'rifatli, erkin va ozod bo'lishini istadi. Shuning uchun bor kuchini, e'tiborini milliy taraqqiyotga qaratdi. Uning ijodida badiiy asarlar, badiiy publitsistik, adabiy – tanqidiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy, iymon – e'tiqodga oid maqolalar, sayohat xotiralari, xatlar va boshqa ko'plab janrdagi ijod namunalari o'z aksini topgan.

Behbudiy yozuvchi, publitsist va noshir bo'lish bilan bir qatorda katta qonunshunos, mufti va qozi olim edi. U huquqiy, mulkiy, iqtisodiy, ma'muriy, fuqarolik, oila – nikoh, savdo – sodiq, jinoiy ishlarni ko'rgan, kuzatgan, fatvo bergan, hukmlar chiqargan. Behbudiy dastlab mufti sifatida Samarqand hududida xalqning og'irini engil qilish maqsadida, ko'pgina amaliy hujjatlarni ishlab chiqib joriylantirgan ham edi. Jumladan, narx – navolar, to'ylar, nikoh, ta'ziya, jinoyat sodir qilingan holatlarga oid huquqiy normalar: "Ittifoqnoma"[1:343] "Qarornoma" [2:476]lar Behbudiy tamonidan ishlab chiqilgan.

Behbudiy xotin – qizlar masalalari hamda ularning huquqlari, ijtimoiy normalari to'g'risida badiiy va ijtimoiy maqolalar yozdi. Uning "Padarkush" dramasi, "Oq elpog'ichli chinli xotun" hikoyasi[3:106-109], "Bir vafolik zaifani xususida hikoya"si, "Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi (qomusiy hujjat N.A), "Kiyim va tashabbuh masalasi", "Hifzi sihhati oila", "Xotun olmoqni kerakligi", "Qiz bolalarni tarbiyasi" , "Uylanmaslikni zarari" [4:510]kabi asarlari shular jumlasidandir.

Behbudiy ""Padarkush" yoxud o'qimagan bolaning holi" dramasi bilan dramaturgiyaga asos soldi. Dramada Mahmudxo'ja Behbudiyning sevmli mavzusi – barchani ilm ma'rifatli bo'lishga chaqirish, ilmsizlik balosidan qutulishni qalamga olgan. Ya'ni muallif ilmsizlik, jaholat, axloqsizlik kabi illatlarni sahna

orqali ko’rsatib, xalqni ma’naviy inqirozdan qutqarish kerak degan g’oyani bosh masala qilib qo’yadi. Asar xotin – qizlar obrazlaridan holi emas.

Dramada xotin – qizlar obrazidan Liza rus xotini va boyning xotini – boyvuchcha kiritilgan.

Dramada boyning xotini asarning ikkita tasvirlangan joyidagina personaj sifatida uchraydi. Ya’ni, boyning o’g’li otasini o’ldirganda o’g’lini “He, juvonmarg Toshmurod! Qon qus!Koshki, chechakda ketsayding! Voy, padarkush! Toshmurod! Voy, dod-ey!” deydi. Shu bilan birga, keyingi epizodda ham u eridan va bolasidan ajraganiga achingan bir mushtupar ona obrazi obrazi sifatida ko’ringan bo’lsa, Liza obrazida XX asr boshida Turkiston o’lkasida armani Artun mayxona ochib, ma’naviy buzuqlikka etaklayotgan ayol obrazi ochib berilgan.

Behbudiyning “Oq elpog’ichli chinli xotun”, hikoyasida Xitoy mamlakatida sodir bo’lgan voqeani tasvirlaydi. Ya’ni, ayni paytda muallif mustamlakachilik tuzumi natijasida voqeani boshqa mamlakatga ko’chiradi. O’z eriga sadoqatli bo’lgan Lu ismlik xonim obrazi orqali sadoqatli ayol obrazi gavdalantiriladi. Hikoya “Turkiston viloyatining gazetasi”da 1909 yil 5 fevralь sonida chop qilingan.

Behbudiy Turkiston o’lkasi tarixida juda muhim hujjatni ishlab chiqishga erishgan. “Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi” [5:156-162]hisoblanadi. Ushbu qomusiy hujjatda xotin – qizlarning huquqlari ham himoya qilinadi. Jumladan, hujjatning birinchi bob, 4-moddasida: “Mamlakatning yigirma yoshig’a etub ahliyat paydo qilg’on har bir fardi: er bo’lsin, xotun bo’lsun – sinf, din va mazhab ayirmasig’a boqmasdan – saylamak va saylanmak haqina molikdur”. Shuningdek, ushbu moddaga ilova ham kiritib, “musulmon xotunlarining saylovga ishtiroklari doirai shar’iya doxilinda (shariat doirasida) bo’lur” deb qayd etilgan. Ma’lumngizki, Behbudiy ishlab chiqqan hujjat nihoyatda demokratik normalarni o’zida mujassamlashtirgan.

Behbudiy ayni paytda boshqa rivojlangan millatlarning o’g’il – qizlarini tahsil olayotganlarini ko’rib havas qiladi, o’lka xalqining ilmsizlikdan orqaga ketayotganligidan achinadi va buning amaliy yo’llarini qidiradi. “Hamshahar yahud, armani, rus bolalari oppoq kiyinib, qo’ltuq – qo’ltuq kitob ila maktablarg’a ketar ekan, bizning bolalarimizni na uchun kir va yirtiq kiyim, oyoqyalang bir holda eshikba – eshik mehnat axtarur, inson bu holatlarg’a diqqat ila boqsa, istiqboldan ma’s o’lur...Endi bizlarg’a ikki ishdan biri qolur, ya’ni yo alardek zamonani ilm va hunarlarig’a yopishmoq va yoyinki, borliq nimarsalarimizni ham qo’limizdan berib, to’y – ma’raka va behudalikg’a sarf etib, alarg’a xizmatkor bo’lmoq”. Shuning uchun ham Behbudiy ma’rifatsizlikdan qutilishning barcha yo’llarini qidirdi. Yangi usuldagi maktablarni joriy etdi. Ular uchun darsliklar yaratdi. Turkiston o’lkasida barcha bolalar: o’g’il va qizlarning teng huquqda o’qishlarini, savodli bo’lishlarini istadi.

Hujjatda ushbu masalani qonuniylashtirdi.Ya’ni, hujjatning 9-bobi: “Maorif ishlari” deb nomlanib, uning 1-moddasida: “Ilm va maorif ishlarida jumla aholi din va millatga ayrilmasdan, erkak va xotunlar barobardur”. Yuqorida ko’rilayotgan moddalardagi qoidalar ya’ni er va xotinlarning tengligi masalasi ayni kundagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalari bilan hamohangdir.

Ya’ni, Konstitutsiyaning 58- moddasida berilgan: “xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” normalarini ayni paytda Behbudiy kiritib, jahon huquq normalariga tenglashtirgan edi. Shuningdek, ushbu hujjatda Behbudiy xususiy maktablarning ham mavjud bo’lishini, unga hech kimning to’sqinlik qilmasligi masalasini qonuniylashtirgan edi. U hujjatning “Maorif ishlari” bobining 2 - moddasida: “Maktablar ishlarinda xususiy shaxslarning g’ayrati va mahalliy idoralarning tashabbusi ila ishlanmish ishlarda hech vajh ila tahdid qilinmas” deyilgan.

Behbudiy o’lkada mahalliy hududlarimiz bilan bog’liq muammolar va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish borasida ko’p ijobiy ishlarni amalga oshirdi. To’ylarni o’tkazish, ta’ziya marosimlari, nikoh masalalari borasida ham “Ittifoqnoma” ishlab chiqib, joriylantirgan. Shuningdek, “Sag’irlar haqinda” maqolasida qayd etilganidek, sag’irlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida mufti sifatida qoidlarni keltiradi. Ya’ni, sag’irlar uchun qozilarning mas’ulligini ta’kidlab, muhimi shundaki, sag’irga vasiy tayinlanatganda sog’irlar ichida qiz bolalarning ham borligini hisobga olib, vasiy sifatida ayollardan ham tayinlanishini aytib o’tadi: “Sag’irni onasi va yoyinki, ayoli sinfidan ham vasiy tayinlanmoq joizdur”.

Behbudiyning barcha harakatlari millatni taraqqiy ettirish g’oyalari bilan bog’liq. U millatning ilm olishi va hayotda oila qurishidan tortib, milliy ozodlik tomon borishigacha bo’lgan harakatlarini o’z ichiga oladi. Behbudiyning “Xotun olmoqni kerakligi” to’g’risidagi o’g’itli va nasihatli maqolasi bevosita Kaykavusning “Qobusnoma”sini eslatadi. Qobusnomada agar “Xotin olmoq zikrida”: “Ammo xotinni pokdil, farzandingni farmonbardor va mehribon tutg’il, bu ish sening qo’lingdadir...Debdurlarki, yaxshi xotin erining va umrning rohati bo’lur”[6:103].

Behbudiy ham Kaykovusning yo’lidan borib, pand va nasihatlarni aytadi. Shuning bilan bir qatorda er va xotinning vazifalarini tushuntiradi: “Insonlarg’a xotun olmoq tabiiydur. Xotun olmasdan yolg’iz yashamoq insonlarg’a mumkin yo’q. Har bir erkak va ayol bir – birini yordam va ionati va birga yashamog’iga muhtojdir.Erkak ila ayol shar’iy nikoh ila er va xotun bo’lub ro’zg’or tuzamasa, jamiyati bashariyai hozir va madaniyatni soyasig’a raxna paydo bo’lub, inqiroz va xarob bo’lmoqg’a yo’l tutar” deb erkak va ayolllarni shar’iy nikoh asosida bo’lishlarini, bir – birlarini hurmat qilishlarini, ikkalasi bahamjihat yashashlarini nasihat qiladi. Shuningdek, maqolaning davomida yosh o’g’il va qizlarimizga qarata aytadiki, bir oilaning egasi bo’lishni yagona maqsad qilib qo’yishlarini tilab, uni qonuniy jihatlariga amal qilinmasa, albatta jazoga olib kelinishini ta’kidlaydi

Behbudiy millatning urf – odatlari, oila tarbiyasi, oila qurish qoidalari, oilada sihat va salomatlik masalalari borasida ham ko’plab chiqishlar qildi. Shuningdek, uning “Oyina” jurnalida chop qilingan “Qiz bolaning tarbiyasi” maqolasi ham tarbiyaviy ahamiyatli hisoblanadi. Ya’ni, muallif ushbu maqolada qiz va o’g’illarning hayotga tayyor bo’lishining yosh darajalarini ko’rsatib beradi. Shuning bilan bir qatorda ularning biologik o’zgarish qoidalariga e’tibor qaratib, ota va onalarning xushyorli bo’lishini maslahat berdilar. O’g’il va qizlarning xavfsizlik jihatlariga ham to’xtalib, iffat va tarbiya bo’yicha tadbirlar olib borishga chaqirdi.

Behbudiy shariat va zamonaviy qonunlarning bilimdoni sifatida doimiy ravishda matbuot orqali chiqishlar qilib, tushuntirish ishlarini olib bordi. Millatni oilaviy va odat qoidalaridan doimiy ravishda xabordor qilib bordi. Bu boradi turkum maqolalar yozdi. Uning “Oyina” jurnali 1914 yil 27 sentyabr[7:196-197].] sonida chop qilingan “Uylanmaslikni zarari”, “Tibban tanosubi zavjayn”, “Muomalali zavjiyatg’a e’tidol”, “Mujarradlikdagi zararlik odatlar” [8:199-201] kabi maqolalarining har birida qimmatli nasihatlar, shariy maslahatlar va amaliy qoidalarni tushuntiradi. “Uylanmaslikning zarari”da vaqti etilganda qiz va er bolalarning turmush qurishlarini aytadi. Aksincha, “jismoniy va botini kasal va yomonliklarni paydo qiladur” deb yozadi. Muallif maqola davomida erlik xotinlar va xotini yo’q erlarning dunyo miqyosida sodir qilayotgan jinoyatlarini solishtiradi. Uning aytishi bo’yicha: “ersiz xotunlardan paydo bo’lgan jinoyatlar, xotunsiz erlardan paydo bo’lgan jinoyatlardan ikki marta ziyodadur”.

Behbudiy ayni paytda ham bugungi kundagiday mavjud bo’lgan nikohsiz og’ir kasalliklarni oldini olishga chaqirdi. Ya’ni: “Nikohsiz ijtimo’dan hadsiz kasallar paydo bo’lub gunohi ortiqchadur” deydi.

Ushbu maqolada Behbudiy uylanishdan oldin er bola qizni ko’rishi kerakmi yoki yo’qmi degan savolga javob berib, “er qizni ko’rmog’i sunnati nabaviyadan bo’lub, aqlan lozimdur”. U bunga to’liq sharh berib: “er va qiz bolani jism va gavdalarini bir – birlarig’a mutanosibligi, bunya va a’zolarini quvvati, hifz us – sihhatcha matlub va mashruti zavjot va taahhuldur” deb qizning faqat chehrasini ko’rib yoqtirmasdan uning o’ziga mos keladigan jihatlariga ham e’tibor qaritilishini nasihat qiladi. Shunigdek, “Muomalai zavjiyag’a e’tidol” [9:201], “Mujarradlikdagi zararlik odatlar” kabi maqolalarida er va xotining oila qurganlaridan keyingi holatlarda bir – birlariga munosabatlari, tushunmaslik oqibatidan kelib chiqadigan muammolarni oldini olish, “muomalai zavjiyadan ko’proq zarar ko’raturganlar yangi uylangan odamlar va xususan, bunyai badan va jismlari zaif...lar”ga maslahatlar berilgan. Shuningdek, uylanish yoshini 30 yoshdan oshmasligi, o’zlarini saqlash masalalariga e’tibor qaratadi. Behbudiy aytadiki: “Maqsadim vatan bolalarini va necha mazlumi shahvatzadalarni sihhat va tariq najoti shar’iy va tibbiyg’a da’vat etmoq va o’z parda va ismatlarini, sihhati badanlarini saxlamoqlarig’a rijo va xizmat qilmoqdan iboratdur. Aning uchun zaruratan xilofi adab yozilgan kalima va so’zlarni husni niyatg’a baxishlanmoqini iltimos qilarman!”.

Qolaversa, Behbudiy maqolada yana bir atama ya’ni ishqibozlik va fahshiyot tushunchasini qo’llaydi.Uning yozishicha: “Ishqibozlik haromkorlikkag’a yurgan kishini insoniyat va jamiyati bashariya naqadar zarar etkurganini aytib ado qilib bo’lmas” deb erkaklarga nisbatan qo’llasa, “fahshiyot, nom digar ila ishqibozlik bir baloi mulhikdurki, jamiyati bashariyag’a andan zararlik bir boshqa nimarsa yo’qdur” deb ayollarga nisbatan ham qo’llab, uni nizoga soluvchi va badnom qiluvchi sifatida talqin qiladi. Muallif maqola davomida yoshlarga nisbatan tushuntirishlar olib borib, qattiq tanbehli munosabatlarini bildiradi.

Ayni damda qadim va jadid o’rtasida bahs va munozaralar ketayotgan bir paytda iymon – e’tiqodga doir bahs hamda munozaralar ham ketar edi. Qolaversa,

oddiy kiyinish masalasida ham qadimchilar katta muammolarni keltirib chiqarardilar. Behbudiy shunday bir paytda kiyinish, iymon – e'tiqod, shariat bobida ko'plab chiqishlar qilib, millatga to'g'ri tushuntirish ishlarini olib bordi. Jumladan, "Kiyim va tashabbuh masalasi" [10:45-47]shunday maqolalar jumlasidandir. Aytadiki: "Fo'rma kiygan nari tursin, hatto uyining tagini pol va ustini tunka qilganlarni yoki uy ichida ustal, ustol, suvrat kabi narsa qo'yganlarni akfor qilur...Agar bu juz'iy tashabbuhlar ila-da kishi kofir bo'laversa, bas, yur yuzida bir nafar ham musulmon qolmasligi lozim kelurki, bu mumtane'dur".

Shuningdek, muallif aytadiki, hukumdor qaysi hududni va shaharni egallasalar, shu shaharning kiyimlarini kiyganligi, qolaversa, shu shaharning boshqa dinli qizlarini nikohlab olganliklarini ham aytadi. Kiyinish bobida ham evropacha kiyimlarni kiyish shariati islomga hech qanday zararligi yo'q deb qaraydi, shunday tushuntiradi.

Xulosaki, Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida xotin – qizlar masalalariga e'tibor dolzarb mavzu sifatida qaralgan, uning echimlari ham ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Behbudiy M. Ittifoqnoma. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

2.Behbudiy M. Qarornoma. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

3.Behbudiy M. Oq elpog'ichli chinli xotun. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

4.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

5. Behbudiy M. Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

6. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.

7. Behbudiy M. Uylanmaslikning zarari. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

8. Behbudiy M. Mujarradlikdagi zararlik odatlar. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

9. Behbudiy M. Muomalai zavjiyag'a e'tidol. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

10. Behbudiy M Kiyim va tashabbuh masalasi.Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING MASHHURLIGI VA ULARNING KO'P TILLARGA TARJIMA QILINISHI

Ismoilova Sevinch Shavkatjon qizi
The 1st ear student of Navoi State University
Supervisor: PhD. Yugay Yevgeniya Viktorovna

Annotatsiya. Ushbu maqola Alisher Navoiy shuhrati va uning jahon adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida. Unda Navoiy nafaqat o'z ijodi bilan, balki turkiy tilning rivojlanishida

ham katta rol o‘ynagani yoritiladi. Shuningdek, uning she’rlari ko‘plab xorijiy olimlarni ilhomlantirgani ta’kidlanadi. Maqolada tarjima usullari hamda tarjima jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Yakunda, maqola Navoiy merosini saqlash va uni Sharq hamda G‘arb adabiy an’analarini bog‘lovchi ko‘prik sifatida keng targ‘ib qilishning muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, she’riyat tarjimasi, umumbashariy mavzular, so‘fiylik falsafasi, tarjima qiyinchiliklari.

Abstract

This article explores the fame of Alisher Navoiy and his contribution to world literature. It highlights that Navoiy played a significant role not only in developing Turkic literature but also in preserving the language itself. Moreover, it discusses how his poetry inspired many foreign scholars. The article also examines translation methods and the challenges encountered in the process. Ultimately, it emphasizes the importance of preserving and promoting Navoiy’s legacy as a bridge between Eastern and Western literary traditions.

Key words: Alisher Navoiy, poetry translation, universal themes, Sufi philosophy, translation challenges.

Alisher Navoiy – tarixdagi eng mashhur adiblardan biri. U o‘zbek adabiyotining yorqin yulduzi va turkiy klassik adabiyot asoschisi sifatida tanilgan. Uning eng mashhur asari – *Xamsa* (Beshlik) bo‘lib, bu turkum sevgi, adolat va insoniyat haqida yozilgan besh dostonni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda uning asarlari nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda sevib o‘qiladi.

O‘z davrida Navoiy chig‘atoy tilini adabiyot cho‘qqisiga olib chiqdi. Bu til Markaziy Osiyo, Turkiya va hatto Hindistonning ayrim hududlarida ham ilmiy va adabiy til sifatida ishlatilgan. *Xamsa* turkiy tilda yozilgan ilk badiiy mukammal asar bo‘lib, Sharq dunyosida katta shuhrat qozondi. Ushbu dostonlar tez orada fors va arab tillariga tarjima qilinib, u erdagi adabiyot ixlosmandlari tomonidan ham katta e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Navoiy ijodi jahon adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning inson hayoti, sevgi, adolat va ilm haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb. Asarlari rus, ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan, bu esa ularning nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevropa va Shimoliy Amerikada ham o‘qilishiga imkon yaratgan. Uning ijodi hozirgi yozuvchilar va faylasuflarga ham ilhom manbai bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek jadidchilik harakatining etakchilaridan biri Fitrat [1919] Navoiy merosini yuksak baholagan va shunday yozgan: *"Navoiy, o‘z she’riyati orqali, turkiy tilning buyuk salohiyatini ko‘rsatdi va uni jahon adabiyotiga ulug‘ adabiy vosita sifatida olib chiqdi" [1]* .Navoiy adabiyot bilan birga falsafa va siyosat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Uning adolat va tenglik haqidagi fikrlari bugungi kunda ham ijtimoiy masalalarni muhokama qilishda qo‘llanilmoqda.

Navoiy asarlari filmlar, musiqa va boshqa san’at turlarida ham aks etgan. Masalan, 1947-yilda rejissyor Komil Yormatov tomonidan suratga olingan *Alisher Navoiy* filmi shoir hayoti va ijodini aks ettiradi. Filmda Navoiy adabiyot, adolat va madaniy rivojlanish yo‘lida fidokor shaxs sifatida tasvirlangan. Shuningdek, o‘zbek bastakori Mutal Burhonov Navoiy she’rlari asosida simfoniyalar va operalar yaratgan, bu esa uning ijodi o‘zbek musiqasiga ham katta ta’sir ko‘rsatganligini anglatadi.

Navoiyning sevgi, adolat va inson tabiati haqidagi g‘oyalari ko‘plab G‘arbiy falsafiy va adabiy an’analarga hamohang keladi. Ayniqsa, XIX va XX asrlarda Sharq adabiyotiga bo‘lgan qiziqish ortgan davrda, uning ijodi Yevropa ziyolilariga ilhom baxsh etgan. Ko‘plab Navoiy mavzulari madaniy chegaralardan oshib o‘tib, G‘arbiy o‘quvchilar uchun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

1. Sevgi va fidokorlik

Navoiy *Layli va Majnun* dostonida ilohiy va insoniy sevgi mavzusini yoritgan. Bu mavzu G‘arb adabiyotida ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, Uilyam Shekspirning *Romeo va Julietta [2004]* asari ham sevgi va qurbonlik g‘oyalarini tasvirlaydi. Navoiyning muhabbatni ulug‘ tushuncha sifatida tasvirlashi G‘arb romantik adabiyoti an’analariga o‘xshashdir [2]

2. Adolat va axloqiy falsafa

Navoiy ijodida adolatlilik va yaxshi boshqaruv mavzulariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu, ayniqsa, uning *Nasoyim ul-muhabbat* va *Nasihatnoma* asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning bu fikrlari G‘arb falsafasidagi Platon va Aristotel qarashlariga juda o‘xshashdir.

O‘zbek adibi Oybek [1970] Navoiy ijodining davr va madaniyatdagi o‘rniga yuksak baho bergan. U shunday degan: *“Navoiy ijodidagi insonparvarlik g‘oyalari, uning inson huquqlari va adolatni targ‘ib etishi, uning she’riyatini abadiy qiladi.”* Oybek Navoiyning sevgi va adolatni butun insoniyat uchun umumiy qadriyatlar sifatida ko‘rsatganini ta’kidlagan. Bu fikrlar Navoiy merosining nafaqat adabiyot, balki tarbiya va insoniy o‘sish uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi [3]

Tarjima tarixi

Alisher Navoiy asarlari uning hayoti davrida va undan keyin tez orada fors, arab va turk tillariga tarjima qilingan. Ushbu hududlardagi olimlar va shoirlar uning ijodini o‘rganib, Navoiyni adabiyot va falsafada mashhur shaxs sifatida tanitishgan. Masalan, XVI asr turk shoiri Fuzuliy Navoiy asarlarini turk va fors tillarida o‘rganib, ulardan ilhomlangan. U Navoiyning muhabbat, ma’naviyat va axloqiy falsafa haqidagi g‘oyalarini o‘z ijodiga singdirgan. Uning mashhur *Layli va Majnun* asari Navoiy dostonlarida uchraydigan chuqur his-tuyg‘ular va falsafiy fikrlar ta’sirida yozilgan.

XX asrga kelib, Navoiy asarlari ingliz, fransuz va nemis tillariga tarjima qila boshlandi. Bu tarjimalar Navoiyning adolat, sevgi va insonparvarlik haqidagi g‘oyalarini jahon auditoriyasiga etkazish imkonini berdi. Masalan, fransuz olimi Jan-Baptist Nikola [1847] Navoiy g‘azallarini tarjima qilib, uning sevgi, adolat va inson qadr-qimmati haqidagi universal mavzularini ta’kidlagan [4]. Ushbu tarjimalar fransuz o‘quvchilariga Navoiyni tushunishga yordam berdi va Yevropa romantik shoirlariga ilhom bag‘ishladi.

Bunday tarjimalar Navoiy merosining Sharq va G‘arb falsafiy an’analarini bog‘lashda katta rol o‘ynagan. Tarjima jarayoni uning g‘oyalari faqat bitta mintaqa yoki til bilan cheklanmaganligini, balki umumbashariy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Navoiy ijodi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy ko‘prik bo‘lib, turli falsafiy oqimlarni bog‘lashda davom etmoqda.

Alisher Navoiy asarlarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar

Navoiy asarlarini tarjima qilish murakkab jarayon, chunki uning she’riyati chuqur ma’no, go‘zal til va musiqiy ohang bilan boyitilgan. Tarjimonlar matnlar ustida ishlaganda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli, ular tarjimalarni tushunarli va mazmunli qilish uchun maxsus usullardan foydalanadilar. Ushbu usullar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Moslashtirish (Adaptation)

Bu usulda asl matn biroz o‘zgartiriladi, shunda yangi til yoki madaniyat o‘quvchilar uchun yanada tushunarli bo‘ladi. Masalan, *Farhod va Shirin* asarining ayrim tarjimalarida “dasturxon” so‘zi “banket” yoki “ziyofat” deb tarjima qilingan. Bu o‘quvchilarga matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

2. Izohli tarjima (Explanatory Translation)

Bu usulda asl matn saqlanadi, lekin tushuntirishlar qo‘shiladi. Masalan, tarjimon Ivanov [1970] Navoiy g‘azallarining musiqiyligi va chuqur ma’nolarini saqlash muhimligini ta’kidlagan. U *ishq* (muhabbat) kabi so‘zlarni asl holida qoldirib, ularning ilohiy muhabbat bilan bog‘liqligini tushuntirish uchun izohlar bergan [5]. Bu yondashuv o‘quvchilarga she’riy asarlarning madaniy va ruhiy kontekstini anglashga yordam beradi.

Tarjima jarayonidagi bunday yondashuvlar Navoiyning boy merosini jahon adabiyotiga etkazishda muhim rol o‘ynaydi.

Metodologiya: “Navoiy tarjimoni bo‘ling”

Bu usulda biz o‘zbek tilidagi bir ruboiyni olib, uni ingliz tiliga tarjima qilamiz. Ushbu metod orqali Navoiy asarlarining til chegaralaridan oshib, chuqur falsafiy xabarini qanday saqlab qolishini namoyish etamiz.

Misol:

Asl ruboiy:

Gar yuzingni oftob deb bilsam, ajab,
Ko‘nglum unga soyadek bog‘landi-yu shab.
Ul mayoqni mushtoq ko‘nglum tan olar,
Ko‘ngil ishi nodon uchun bo‘lgay ajab.

Ba’zi so‘z va iboralar tarjimasi:

Yuz – face
Oftob – sun
Ajab – surprise
Ko‘ngil – heart
Soya – shadow
Bog‘lanmoq – follow
Nodon – fool

Tarjima:

If I call your face the shining sun, no surprise,
My heart, like a shadow, follows where it lies.
That beacon of light, my longing soul will embrace,
For fools, love’s path is a strange disguise.

Ushbu ruboiy Navoiyning sadoqat, muhabbat va insoniy aloqalar haqidagi g‘oyalarini aks ettiradi. Tarjima orqali Navoiy asarlari turli tillarda ham o‘zining falsafiy chuqurligini saqlab qolishi namoyish etiladi.

Xulosa

Alisher Navoiy asarlari nafaqat o‘zbek adabiyotining bir qismi, balki butun dunyo uchun bebaho xazina hisoblanadi. Uning she’rlari, adolat, inson qadr-qimmati va shaxsiy taraqqiyot haqidagi g‘oyalari asrlar davomida insonlarni ilhomlantirib kelgan.

Ko‘plab tillarga tarjima qilinganligi sababli, uning asarlari Sharq va G‘arb madaniyatlarini bog‘lagan. Biroq, Navoiy she’riyatini tarjima qilish oson emas. Tarjimonlar uning ma’nosi, go‘zalligi va hissiyotlarini boshqa tillarda saqlab qolish uchun katta mehnat qilishlari kerak.

Shunga qaramay, ularning sa’y-harakatlari tufayli Navoiyning muhabbat, birlik va donishmandlik haqidagi xabarlari butun dunyoga etib bordi. Alisher Navoiy ijodini o‘rganish bizga adabiyotning madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘prik ekanligini yana bir bor eslatadi.

Uning o‘lmas g‘oyalari o‘z davrida qanday ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ham shunchalik muhimdir. Uning asarlarini o‘rganish va targ‘ib qilish orqali biz kelajak avlodlarni ham ilhomlantirishni davom ettirishimiz mumkin.

References

1. Fitrat, A. [1919]. *Tilimiz.* Tashkent.
2. Shakespeare, William. [2004]. *Romeo and Juliet.* Folger Shakespeare Library.
3. Oybek. [1970]. *Alisher Navoiy va uning ijodi.* Tashkent: Fan.
4. Nicolas, Jean-Baptiste. [1847]. *Chrestomathie Arabe: Recueil de Textes Arabes.* Paris: Imprimerie Royale. This book discusses Eastern poetry, including Navoiy’s ghazals, focusing on their literary beauty and themes.
5. S.N. Ivanov. [1970]. *The Language of Birds (Lison ut-Tayr).* In A. Navoiy, *Collected Works* Vol.13 Tashkent: Fan Publishing House.

ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TALQINI

Hasanova Xurshidabonu Baxtiyarovna
NDU Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar badiiy talqini tahlil qilinadi. Adolat, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, ezgulik va insoniylik kabi tamoyillarning shoir asarlarida qanday yoritilgani chuqur ilmiy o‘rganilib, ularning bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmaganligi isbotlanadi. Shoirning ma’naviy va axloqiy qarashlari, jamiyat rivoji uchun ilgari surgan tamoyillari va ularning zamonaviy talqini ko‘rib chiqiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется художественная интерпретатsiя общечеловеческих ценностей в творчестве Алишера Навои. Глубоко исследуется, как в произведениях поэта освещаются такие принципы, как справедливость, любовь и сострадание, патриотизм, толерантность, добродетель и человечность, и доказывается, что они не утратили своей актуальности в наши дни. Рассматриваются духовные и нравственные взгляды поэта, выдвинутые им принципы развития общества и их современная интерпретатsiя.

Annotation: This article analyzes the artistic interpretation of universal human values in the works of Alisher Navoi. It explores in depth how principles such as justice, love and compassion, patriotism, tolerance, kindness, and humanity are reflected in the poet’s works, proving that their significance remains relevant today. The study examines the poet’s spiritual

and moral views, the principles he advocated for societal development, and their modern interpretation.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, umuminsoniy qadriyatlar, adolat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, insoniylik, mehr-muhabbat.
Ключевые слова: Алишер Навои, общечеловеческие ценности, справедливость, толерантность, патриотизм, человечность, любовь и сострадание.
Keywords: Alisher Navoi, universal human values, justice, tolerance, patriotism, humanity, love and compassion.

Alisher Navoiy – nafaqat buyuk adib, balki xalqning ma’naviy-madaniy ongini yuksaltirishda ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ siymo. Uning ijodiy merosi umuminsoniy qadriyatlarning badiiy timsoli sifatida nafaqat o‘z davri, balki bugungi zamon uchun ham yuksak ma’naviy ahamiyatga ega. Navoiy asarlarida insonning ma’naviy kamoloti, adolat, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, bag‘rikenglik kabi tamoyillar chuqur falsafiy va badiiy asosda yoritilgan.
Navoiy o‘z ijodida faqat bir millat yoki zamon doirasiga cheklanib qolmasdan, umuminsoniy tamoyillarni ilgari surgan. Shoir ijodiy merosini o‘rganish bugungi globallashuv davrida ahamiyatli bo‘lib, bu qadriyatlar xalqning ma’naviy kamolotini mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash va jamiyatni birlashtirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Adolat va inson huquqlari Adolat Navoiy ijodida markaziy o‘rin tutadi. Shoir adolatni nafaqat shaxsiy fazilat, balki jamiyat barqarorligi va rivojining asosiy tamoyili sifatida talqin qilgan. “Mahbub ul-qulub” asarida u shunday yozadi:

"Qozi qonun yo‘lidan bir dam toymasligi, to‘g‘ri yo‘ldan chiqmasligi lozim… Modomiki, hukm elning moli va joniga taalluqli ekan, qozining shiori to‘g‘rilik va adolat bo‘lmog‘i lozim."

Adolatning ustuvorligini ta’minlash masalasi “Xamsa” turkumidagi dostonlarda ham chuqur yoritilgan. “Saddi Iskandariy”da Iskandar podshohning odil hukmdor sifatidagi obrazini yaratib, Navoiyning adolat tamoyiliga bo‘lgan yondashuvini ko‘rsatadi. Iskandar xalqi manfaati uchun har qanday shaxsiy manfaatdan voz kechadi, bu esa Navoiyning adolatli jamiyat haqidagi ideal qarashlarini aks ettiradi.

Bugungi huquqiy va demokratik jamiyatlar uchun Navoiyning adolat haqidagi qarashlari dolzarb bo‘lib, ularning inson huquqlari va ijtimoiy tenglikni ta’minlashdagi ahamiyati katta.

Mehr-muhabbat va oila qadri Navoiyning ijodida mehr-muhabbat va oila qadri muhim ahamiyat kasb etadi. “Farhod va Shirin” dostonida sevgi va fidoyilik masalalari yuksak badiiy darajada tasvirlangan. Farhodning Shiringa bo‘lgan muhabbati shaxsiy istaklardan yuqori turuvchi insoniy fazilatlarni aks ettiradi.
Bundan tashqari, Navoiy oila muqaddasligini, ota-onaga hurmat va farzand tarbiyasining ahamiyatini ko‘plab asarlarida ta’kidlaydi. “Mahbub ul-qulub”da u Qur’on va hadisga asoslanib shunday deydi:

"Tengri taolo rizosi ota rizosiga vobasta, tengri taolo g‘azabi ham ota g‘azabiga vobastadur."

Bu yondashuv oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga, o‘zaro hurmat va mehr-muhabbatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, globallashuv jarayonida oilaning ijtimoiy barqarorlikdagi o‘rnini ta’kidlaydi.

Ezgulik va insoniylik fazilatlari Ezgulik Navoiyning asosiy qadriyatlaridan biri bo‘lib, uning barcha asarlarida ilgari suriladi. Shoir insonning hayot mazmunini moddiy boylikka emas, balki ma’naviy boylikka bog‘laydi. “Mahbub ul-qulub”da u shunday deydi:

"Insonning eng ulug‘i – boshqalarga foydasi tegadiganidir."

Bu fikr shoirning insoniylik tamoyillariga sadoqatini va jamiyatni ezgulik asosida birlashtirishni targ‘ib qilganini ko‘rsatadi. Shoir uchun insonning ma’naviy yuksalishi uning jamiyat uchun foydali bo‘lishiga bog‘liq.

Bag‘rikenglik va dinlararo muloqot Navoiy bag‘rikenglik va dinlararo muloqotni targ‘ib qiluvchi ulug‘ siymo sifatida tanilgan. U har bir insonning diniy e’tiqodiga hurmat bilan qarashni targ‘ib qilgan. “Lison ut-tayr”da ilohiy haqiqatga intilish har bir insonning asosiy maqsadi sifatida tasvirlangan. Bu yondashuv millatlar va dinlararo hamjihatlik g‘oyalariga hamohangdir.

Navoiyning tasavvufga oid qarashlari dinlararo muloqotni chuqur falsafiy asosda talqin etib, insonning komillikka erishishida diniy bag‘rikenglikning muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Vatanparvarlik va xalqparvarlik Navoiy ijodida vatanparvarlik va xalqparvarlik g‘oyalari yuksak darajada ulug‘langan. Shoir o‘z vatanining farovonligi uchun fidoyilikni insoniy burch deb bilgan. Hirot shahrida amalga oshirgan obodonlashtirish ishlari, madrasalar, masjidlar va bog‘lar barpo etishi uning xalqparvarlik faoliyatining yorqin namunasi sifatida qadrlanadi.

Navoiy o‘z asarlarida xalqning baxt-saodati uchun hukmdor mas’uliyatini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu g‘oyalar, xususan, “Saddi Iskandariy” dostonida yaqqol ko‘rinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Alisher Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlar – adolat, mehr-muhabbat, ezgulik, bag‘rikenglik va vatanparvarlik – chuqur falsafiy asosda yoritilgan. Shoirning fikricha, bu qadriyatlar nafaqat bir xalq yoki zamon uchun, balki insoniyatning barcha davrlari uchun dolzarb tamoyillardir.

Navoiyning badiiy merosi bugungi jamiyat uchun bitmas-tuganmas ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlarida ilgari surilgan tamoyillar nafaqat yosh avlodni tarbiyalash, balki xalqni birlashtirish va globallashuv davrida milliy o‘zlikni asrash uchun ham ahamiyatlidir. Shu bois, Navoiy ijodiy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib etish har bir davrning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy, A. (1991). *Mahbub ul-qulub.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
2. Navoiy, A. (1991). *Xamsa.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
3. Bertels, E. E. (1965). *Navoiyning hayoti va ijodi.* Moskva: Nauka.
4. Forobiy, A. N. (1993). *Fozil odamlar shahri.* Toshkent: Fan.
5. Yoqubov, I. (2018). “Navoiyning umuminsoniy qadriyatlari va zamonaviy talqin” // *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.* №3, 45–50-betlar.

ALISHER NAVOIY IJODIDA NOTIQLIK SAN'ATIGA OID QARASHLAR

Sattorova Muborak Raxmatovna
NavDPI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi

.

Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir qismidir. Kishi o'z nutqi,fikrlashi orqali qobiliyatini, dunyoqarashini, atrofidagi voqea-hodisalarga bo'lgan o'z munosabatini nomoyon qiladi.So'zlovchi o'z nutqi bilan kishilarni rom eta olish, ya'ni chiroyli va ma'noli so'zlash san'ati voizlik san'ati deb,bu san'atni to'liq egallagan inson voiz deb yuritiladi.Bu leksema tilimizga arab tilidan o'zlashgan va va'z aytuvchi, pand nasihat qiluvchi kabi ma'nolarni ifodalagan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida go'zal nutq sohiblarini ***xushgo'y*** deya ulug'lagan:*"Shuaro aning xushgo'yliqg'a musallam tutubdurlar"*,Fors tilidan o'zlashgan bu so'z ikki mustaqil ma'noli qismlardan tashkil topgan. *Xush, xash* leksemasi orali 2 xil ma'no ifodalagan:1) yaxshi, ma'qul;2) *shod, xursand.Go'y* so'zi forscha go'ft (so'zlamoq, gapirmoq) fe'lidan olingan bo'lib, qo'shma so'z tarkibida aytuvchi, gapiruvchi ma'nolarini bildiradi. Bunda xushgo'y so'zi bilan bir qatorda shiringo'y so'zi ham qo'llanilgan:"*Qabuliyatlik,xush suhbat, shiringo'y va fasih zabon va donishmand kishi erdi".*

Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari "Mahbub ul-qulub" dir.Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so'zlovchi dilidagi fikrni to'g'ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi.

"Saodatbaxsh ruh zuloliga matla' ham til.Tilga iqtidorlig'-hakimi xiradmand,so'zga ixtiyorsiz-layni najand.Tilki fasih va dilnazir bo'lgay,xubroq bo'lgay agar ko'ngil bila bir bo'lgay" deb yozadi Navoiy.

Ma'nosi:"Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til.Tiliga kuchi etadigan kishi aql podshosidir:so'zga ahamiyat bermaydigan kishi la'natlangan, pastdir.Til go'zal va dillarni olovlantiruvchi bo'lishi bilan birga, so'zlovchining dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq bo'ladi".

Navoiy til deganda nutqni ko'zda tutgan. Til, ya'ni so'z o'zining ko'p yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini,nutqning qo'polligi,maqsadga muvofiq bo'lmasligi so'zlovchiga zarar etkazishini alohida ta'kidlab o'tadi.

Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so'zlash odobi haqida,o'ylamasdan so'zlamaslik lozimligi haqida:"Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig'liqqa evruldi, zarari oni bo'ldi. Chuchuk so'z sof ko'ngullarga nushdir. So'zni ko'ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko'nglungda bo'lsa, tilga surma" deydi. Buning ma'nosi shundayki, tilning shirin,yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar etkazadi. Qandni mast qiluvchi aroq qilsalar, harom bo'ladi. Chuchuk so'zni toza ko'ngullar simiradi. So'zni ko'ngulda pishitib olmaguncha so'zlamagin, ko'nglingda bo'lgan har qanday fikrni ham ayta berma. Nutqdan maqsad fikr anglatishdir demoqchi bo'ladi.

Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug'ullangan shoir "Mahbub ul-qulub" asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag'ishlaydi.Navoiyning o'zi ham notiqlik

san’atini o‘z davrida yuksak darajaga ko‘targan.“Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz” yoki “Ma’dani inson gavhari so‘z durur, gulshani odam samari so‘z durur” deb yozadi. Asarning 24 bobi “Nasihat ahli va voizlar zikriga” bag‘ishlangan bo‘lib, shoirning fikricha “voiz uldurki, majlisg‘a kirgan to‘lg‘ay va to‘la kirgan holi bo‘lg‘ay”.

“Mahbubul-qulub” da “Og‘ziga kelganni demoq-nodonning ishi”,“Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”, “Chin so‘z-mo‘tabar yaxshi so‘z-muxtasar” kabi hikmatli so‘zlar,maqollar anchagina.Navoiy ham shu mazmundagi baytlar yaratadi. Shoir nazarida so‘z o‘likni tiriltirish kuchiga ega:

Ham so‘z ila elga o‘limdin najot,
Ham so‘z ila topub o‘luk tan hayot.

Salomat inson ham jonsiz o‘lukka aylanishi mumkin. Yolg‘on so‘z ham shunday qudratga ega:

O‘luk gar andin erur joni pok
Valekin tirikni ham aylar haloq.

Navoiy ta’kidlashicha, shirin so‘z bilan ko‘p ishlar amalga oshadi. Achchiq may, boda ham chuchuk til bilan uzatiladi. Hatto “chuchuk so‘z elga izhor” etish orqali u kim bo‘lmasin, “har nechakim ag‘yor yor”ga aylanadi.

Xalqimiz tili achchiq, inson ko‘ngliga ozor beruvchi kishilarga “tili zahar”, “tilidan zahar tomadi” kabi nisbatlarni beradi. Bunday kishilardan hamma o‘zini chetga tortadi. Dildan suhbatlashishni istamaydi, aksincha, zarurat yuzasidangina muomala qilishga majbur bo‘ladi.Navoiy bu taxlit “achchiq so‘z, anfos” lik kishilardan “istig‘no” zarurligini o‘rinli ta’kidlaydi:

Har kimki achchiq bo‘ldi so‘zi, anfosi,
Bor suhbatidin xalqning istig‘nosi.

So‘zlashning ham me’yorlari bor. “Boisi g‘aflat ko‘p so‘z”- ko‘p gapirish ham g‘aflat,g‘ofillikka sabab. Har qancha suxandon bo‘lsa ham, imkon bo‘lguncha so‘zni qisqa gapirish zarur.To‘g‘ri va rost so‘z mavjud. Yolg‘on va yolg‘onchilik bor. Shoir o‘gitiga so‘zlayotgan kishilarning kimligi, qandayligi uning ko‘rinishi bilan emas,so‘zlanayotgan gaplaridan ayon bo‘ladi. Ko‘ngilga kelgan har bir fikrni tilga chiqaraverish beburdlikka olib keladi. Behuda,beburd va masxaraomuz so‘zlash kishining o‘ziga ozor etkazadi.So‘zni ko‘ngilda pishitib, mulohaza qilib, so‘ng “tilga surmoq” kerak. Har bir kishining so‘zi-uning ko‘nglini aks ettiradi. Shoir aytganidek:

Senga bor esa so‘z bilurdin mazoq
O‘zim sari boqma, so‘zim sari boq.

Alisher Navoiy ijodining yorqin,kishi tasavvurini lol qoldiradigan sahifalarini o‘rganish,uni barchaning ma’naviy mulkiga aylantirish bugungi kundagi muhim vazifalardan biridir. Zero, Navoiy ijodi mana shu ma’naviy mulkning asosiy negizini tashkil etadi.

ALISHER NAVOIY ASARLARI-MILLIY QADRIYATIMIZ TIMSOLI

Ibragimova Maftuna Lutfulla qizi
NavDU “Kimyo” kafedrasi o‘qituvchisi
Murodova Nigora Muzaffar qizi

NavDU “Kimyo” yo‘nalishi 202-guruh talabasi

Alisher Navoiy – o‘zbek adabiyotini jahoniy mavqeyga ko‘tara olgan dunyodagi barmoq bilan sanarli ulug‘ shoirlardan biri. Bunday ijodkorlarning nomi, haqli ravishda, ular mansub bo‘lgan xalq nomi bilan chambarchas bog‘lanib qoladi. Shu bois Alisher Navoiyning bu qutlug‘ nomi tilga olinganda o‘zbek xalqi, shu xalq nomi eslanganda esa aynan ana shu ulug‘ shoirning nurli qiyofasi ko‘z oldimizda gavdalanadi.

Buni muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020- yil 23-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida so‘zlagan nutqi misolida ham ko‘rish mumkin. Dunyo jamoatchiligining e’tiborini tortgan bu ma’ruzaga nisbatan Turkiya Prezidenti R.T.Erdo‘g‘an o‘z munosabatini bildirarkan, u O‘zbekiston Prezidentining Navoiy tilida gapirganini iftixor bilan e’tirof etgan edi. Prezidentimiz yangi – 2025- yilni Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilishni taklif qildi. Bu esa o‘z navbatida “o‘zining she’riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning beqiyos so‘z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, Yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o‘rin egallagan”, nomi xalqimiz nomi bilan abadiy rishtalarda bog‘langan buyuk shoirga nisbatan chinakam ehtiromning bir nishonasi bo‘ldi.

Milliy istiqlolimiz sharofati bilan ulug‘ o‘zbek shoiri boy ma’naviy merosining asl sarchashmalaridan kelib chiqib tadqiq etish imkoniyati yaratildi. Bu esa undagi milliy qadriyatlarimiz asosida insonni komillik rutbasida ko‘rishdek oliy maqsad ramzlar vositasida tasvirlanganini anglab etish imkonini paydo qildi. Alisher Navoiy ijodi nafaqat muallif adabiy niyatining ulug‘vorligi bilan, balki ana shu buyuklikka nihoyatda munosib yaratilgan ko‘rkam libos yanglig‘ badiiy kashfiyotlarning mo‘jizakorligi bilan ham hayratlanarlidir. Shu bois ulug‘ shoir nazmu nasrining bayt, bandu jumlalaridagi nozik ishoralarni teran mushohadakorlik asosida anglash kitobxon ruhini oniyda seskanishiga, tuyg‘ularining jumbushga kelishiga omil bo‘ladi. Aynan ana shunday lahzalar ulug‘ shoirning inson nihoyatda ulug‘ xilqat, u o‘zini anglab, o‘ziga qaytishi bilan buni teran idrok eta oladi, u razolat botqog‘ida mangu qolmay, komillik pillapoyalaridan ildamlab, komil jamiyat barpo eta oladi, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish johillikni mahv etadi, degan nihoyatda ilg‘or qarashlariga oshno bo‘lishiga bois bo‘ladi. Bunday saodatni bugungi kitobxonga taqdim etish uchun Alisher Navoiy asarlarining sarchashmalariga tayanilgan yangicha talqinlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Shu bois keyingi yillarda Istiqlolimiz sharofati bilan Alisher Navoiy ijodini ilmiy tadqiq etishga qaratilgan e’tiborning tizimli ravishda oshirilib borilgani kuzatiladi. Muhtaram Prezidentimizning yuqorida nomi keltirilgan qarorlarida belgilangan vazifalar, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondining tashkil etilgani fikrimizning yorqin dalilidir. Tabiiyki, bunday e’tibor o‘zining samarasi bilan jozibalidir.

Jahon adabiyoti, qolaversa tarixida hayoti va ijodi bilan chuqur iz qoldirgan , o‘zining ibrat maktabiga ega bo‘lgan so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy tomonidan bitilgan asarlar jumladan g‘azallar, ruboiylar, qit'a, tuyuqlarni o‘qir

ekanmiz, mazmun mohiyati odamlarni yaxshilikka , ezgulikka , saxovat qilishga, hamisa kishilar g‘ami bilan yashashga undovchi, asrlar osha o‘z ma'nosini yoqotmagan va kelajak avlod ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi baytlarlarni qayta-qayta o‘qiymiz va o‘zimizga yangidan- yangi ma'no kashf etamiz.

Milliy istiqlol navoiyshunoslikning yangi takomil bosqichiga ko‘tarilishiga zamin yaratdi.Mustaqillikkacha ulug‘ mutafakkir asarlarining o‘n besh jildligi nashr etilgan bo‘lsa, milliy istiqlolga erishilgach, shoir asarlarining yigirma jildligini mutolaa qilish imkoni tug‘ildi.Sho‘rolar zamonida to‘liq nashr etilishi mumkin bo‘lmagan “Nasoyim-ul muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”,”Siroj-ul muslimin”, “Arba’in” singari asarlari dunyo yuzini ko‘rdi.Munojot, hamd, na’tlari muayyan darajada o‘rganildi.Shoir she’riyatida Qur’oni karim oyatlarining badiiy talqini masalasi monografik asosida alohida tadqiq qilindi.[1] Globallashuv jarayoni tobora avj olib borayotgan hozirgi paytda buyuk shaxsiyat egasi va milliy qadriyatlar tajassumi bo‘lgan Alisher Navoiyning badiiy siymosini yaratish va shu turdagi asarlarni tadqiq etishga katta zarurat sezilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug‘ shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ‘ib etish” nihoyatda muhim.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi.Monografiya.-Toshken:. Adabiyot, 2021.

2. G.Ashurova. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida A.Navoiy obrazi Toshkent:Qamar Mediya, 2023.

NAVOIY ASARLARIGA BAG‘ISHLANGAN LUG‘ATLARNING TALQINI

Axmedova Maftuna Faxriddinovna
NavDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlarini yaxshi tushunish va mushohada yuritishga yordam beruvchi Navoiy asarlari lug‘atining yaratilish jarayonlari, davrlari, mualliflari va lug‘atlarning tasnifi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Navoiy asarlari lug‘ati, izohli lug‘at, turkiy til, lug‘at, so‘z, so‘z birikmasi, ibora.

Аннотация. В этой статье рассматриваются процессы создания, периоды, авторы и классификатsiя словарей словаря произведений Алишера Навои, которые помогают лучше понять и наблюдать языковые особенности произведений Алишера Навои.

Ключевые слова: словарь произведений Навои, толковый словарь, тюркский язык, словарь, слово, словосочетание, фраза.

Annotation. This article reflects on the processes of creation, periods, authors and classification of dictionaries of the dictionary of Navoi works, which helps to better understand and observe the linguistic features of the works of Alisher Navoi.

Keywords: Dictionary of works of Navoi, Explanatory Dictionary, Turkic language, dictionary, word, vocabulary, phrase.

Alisher Navoiy XV asrning nasriy va nazmiy an'analarini yangicha talqinda va ruhda davom ettirgan buyuk olim. Alisher Navoiy turkiy tildagi nasriy va nazmiy asarlari bilan bu tilning naqadar bebaho va boy ekanligini isbotlab berdi. Turkiy adabiyotni o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta'limiy mohiyat kasb etuvchi juda nodir asarlari bilan boyitdi. Navoiy asarlarini o'rganishda ilmiy-filologik tadqiqotlar, ustozlarga bag'ishlangan yodnomalar, tarix, tasavvufiy va din tarixiga oid asarlar, pandnoma ruhidagi asarlar, nazmda yozilgan asarlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Alisher Navoiyning janr talabi bilan rang-barang, til va uslubi murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan boy adabiy merosini va til boyliklarini chuqurroq o'rganish va mushohada qilish uchun, albatta, Navoiy tili lug'atini yaratish lozim bo'ladi. Navoiy asarlari o'zining hayotlik davridayoq juda ko'p mamlakatlarga ma'lum va mashhur bo'lib ulgurgan edi. Navoiy dunyodan o'tgandan so'ng, uning asarlari ixlosmandlari ko'paydi, uning beqiyos ijodi va takrorlanmas tili qardosh xalqlarni tobora ko'proq o'ziga maftun eta boradi. Uning asarlarini ko'paytirish, Navoiy uslubiga ergashish, til xususiyatlarini o'rganish davom etib boradi va bu o'z-o'zidan Navoiyning asarlari yuzasidan turli hajmlarda kichik lug'atlar yaratilishi boshlanadi.

Turkiy tildagi so'z va iboralarni to'plash, ularni ilmiy asoslash an'anasi 11-asrda yaratilgan "Devonu lug'otit turk" bilan bog'liq. O'rta asrlarda turkiy tillarni bu qadar keng qamrovli Mahmud Koshg'ariy va Alisher Navoiyga xosdir. Navoiyning boy adabiy, ilmiy merosidagi so'z va iboralarni to'g'ri tushunish va sharhlashda lug'atlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi Navoiy asarlarining tili lug'atini yaratishga sabab bo'ladi.

Navoiyshunos olimlarning olib borgan ko'p yillik tadqiqotlariga tayanishimizcha, Navoiy asarlari tili 16-asrdayoq o'rganila boshlangan va turli yo'nalishdagi lug'at kitoblari tuzilgan. Masalan, Toli Imoniyning fors tilida yozilgan "Badoye al-lug'at"i, "Xamsa bo halli lug'at", muallifi noma'lum, XVI asrda Turkiyada yaratilgan "Abushqa", ", Navoiyning "Chor devoni" asosidagi "Halli lug'ati chig'atoyi "Xamsa"yi Navoiy", "Nisobi Navoiy", "Lug'ati Amir Navoiy", "Lug'ati Navoiy", "Dar bayoni lug'ati Navoiy", "Halli lug'oti chig'atoyi", "Lug'ati atrokiya", "Lug'ati turkiy" XVIII asrda Mirza Mahdixonning "Sanglox" asari, eng so'nggi lug'atlardan biri sanaladigan shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turkiy-usmoniy" kabi qo'lyozmalarni, shuningdek, Xivada yashab ijod etgan Muhammad Rizobek Xoksorning 2 qismdan iborat "Muntaxab ul-lug'ot" hamda "Zubd ul-lug'ot" asarini so'zboshi va izohlari bilan Mas'udxon Ismoilov va Humoyunxon Ismoilovlar nashrga tayyorlab, 2017-yilda "Akademnashr"da chop ettirishdi[70]. Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov tomonidan tuzilgan "O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at"

[70] Sayfiddin Rafiddinov. "Navoiy asarlari lug'ati"ning yangi nashri haqida. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti. "Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari" nomli konferesiya materiallari. 2023-yil, 8-fevral, 334-340-betlar.

(1953) va yana shu mualliflar ishtirokida “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati” (1972), “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” (1983-1985), Botirbek Hasanov tomonidan tuzilgan “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at” (1993) kabi qomuslar shular jumlasidandir.[71]

Hozirgacha yaratilgan bir jildlik “Navoiy asarlari lug‘ati”, to‘rt jildlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”, besh jildga mo‘ljallangan va hozircha 2 jildi nashr bo‘lgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”, E.Fozilovning uch jildlik “Navoiy asarlari lug‘ati”ning birinchi jildi mutaxassislar va shoir ijodining muxlislari uchun asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.[72] Ushbu ilmiy maqolada “Navoiy asarlari lug‘ati”ning yaratilish jarayonidagi jarayonlar, olimlarning bu boradagi ulkan va mashaqqatli mehnatlari benihoya ekanligi ta’kidlanadi va undagi ayrim o‘zgarishlar muallif tomonidan yaratilgan qayta nashrda qanday holatda berilgani batafsil bayon qilinadi. “G‘afur G‘ulom” nashriyoti tomonidan nashr etilgan Alisher Navoiyning o‘n besh jildlik asarlari asosida, uch yillik mehnat va urinishlar natijasida Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov tomonidan “Navoiy asarlari lug‘ati” yuzaga keladi. Bu lug‘atda 12500 ga yaqin so‘z, 8000 mingdan ortiq iboralarga izoh berilgan.

Navoiy tilining so‘z boyligi 20 mingdan ortiqdir.[73] O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining tarixiy leksikologiya va leksikografiya bo‘limida atoqli olim E.Fozilov rahbarligida va sharq tillari bilimdonlari Q.Muhiddinov, Y.Shokirov, N.Xo‘jayev, J.Lapasov, I.Nosirov, Z.Hamidov, B.Bafoyev va boshqalar ishtirokida tuzilgan to‘rt jildli 1987-2003-yillarda yaratilgan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ilmiy qimmati nihoyatda baland nashrlar sirasidandir. Lug‘at nafaqat tilshunos olimlarning, balki qadim Sharq tarixi, ilmlari, madaniy merosi bilimdonlarining o‘tkir fahmu zakovati samarasi sifatida yuzaga kelgan. Shu jihatdan lug‘atning bugungi kundagi amaliy qimmati ham yuksak. To‘rt jildlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” Alisher Navoiyning “Mukammal asarlar to‘plamidan” joy olgan 20 jildlik asarlari asosida yuzaga keldi. Shu ma’noda Navoiy asrlari tilidagi yangi aniqlangan so‘z va iboralarni to‘plash, ularning shoir nazarda tutgan ma’no va mazmuni asosida alohida izohlash katta ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy asarlariga ko‘p lug‘at tuzilgan bo‘lsa-da, hatto ularning barchasi jam bo‘lganda ya’ni birgalikda ham ulug‘ mutafakkirning so‘z boyligini to‘la aks ettira olmaydi. Navoiy asarlaridagi shunday so‘zlar va iboralar bor ekanki, ular ba’zilari lug‘atlarda qayd qilinmagan. Navoiy ijodida so‘zga juda katta vazifa ya’ni ma’nolar yuklangan. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan Manzar Abdulxayr muallifligida “Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” nashr etilgan. Ushbu izohli lug‘at .to‘rt jildlik “Alisher Navoiy

[71] Manzar Abdulxayr. Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018-yil, 560-bet.

[72] Sayfiddin Rafiddinov. “Navoiy asarlari lug‘ati”ning yangi nashri haqida. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti. “Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari” nomli konferesiya materiallari. 2023-yil, 8-fevral, 334-340-betlar.

[73] Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov “Navoiy asarlari lug‘ati” T: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1972-yil, 785-bet.

asarlari tilining izohli lug‘ati”ga kirmay qolgan besh mingdan ortiq so‘z va iboralarni o‘z ichiga qamrab olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov “Navoiy asarlari lug‘ati” T: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at” nashriyoti, 1972-yil, 785-bet.
2. Manzar Abdulxayr Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018-yil, 560-bet.
3. Sayfiddin Rafiddinov “Navoiy asarlari lug‘ati”ning yangi nashri haqida. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti. “Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari” nomli konferesiya materiallari. 2023-yil, 8-fevral, 334-340-betlar.

“МАҲБУБ УЛ-ҚУЛУБ”АСАРИДА ЭНГ ҚИММАТЛИ ПАНДНОМА ҚАДРИЯТЛАР

Лола Аллаева
НавДУ. Бошланғич таълим кафедраси ўқитувчиси

Алишер Навоий ўз ижодида сўз ва унинг қудратига, инсон онги ва унинг руҳиятига, ҳаётига кўрсатадиган таъсирига юксак эътибор билан қараб, ўзининг деярли барча асарларида бу ҳақда кенг фикр юритган.

Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асари жаҳон адабиёти тарихидаги энг қимматли дурдоналардан биридир. Asar шоирнинг ғоят мазмунли ва сермашаққат ҳаёти давомида тўплаган бой тажрибаси, хулосаларининг йиғиндиси сифатида машҳурдир. Навоийнинг фикр-қарашлари, ахлоқий-фалсафий тушунчалари бу асарда теран акс этган. Шу маънода адабиётшунос олим А.Ҳайитметов таъкидлаганидек, “адабиётшуносликнинг муҳим масалаларидан бири Навоий ижодини унинг даври, ўша давридаги реал-ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёт билан боғлаб ўрганишдир”.[74]

Алишер Навоийнинг умри сўнггида яратган йирик насрий асарларидан “Маҳбуб ул-қулуб” (“Кўнгилларнинг севгани”) шоирнинг ҳаётдан олган тажрибаларига, таассуротларига, ижтимоий-сиёсий, ахлоқий-таълимий қарашларига якун ясаб, турли ижтимоий гуруҳ, табақаларни тасниф ва таъриф этади, уларнинг бурчи ва вазифаларини ёритиб беради. Бу гуруҳ ва табақаларга таъриф берар экан, баъзиларнинг фаолиятини, хулқ-атворидаги иллат ва камчиликларни фош этади. Ўз олдига Навоий бу табақа ва гуруҳларни яхшиликка йўллашни мақсад қилиб қўяди. Навоийнинг мақсадига кўра бу асар ижтимоий-ахлоқий масалалар ва одоб-ахлоқ бўйича бир дастурамал бўлиши, ҳаётни тузатишга ёрдам бермоғи лозим эди.

“Алишер Навоий асарларининг мазмум-моҳиятини тезда англаб етишнинг бир қатор мураккабликлари бор. Улардаги айрим байт, ҳикоят, образ ёки тимсолларнинг асосий маъносини тўғри тушуниш чуқур тафаккур, кенг қамровли билимни талаб қилади. Шоир асарларини теранроқ ҳис қилиши учун тариқат одоби, тасаввуф моҳияти, ислом, одоб-ахлоқи,

[74] А.Ҳайитметов. Навоийхонлик суҳбатлари. Т., 1993 йил, 211-бет.

суфийлар ҳаёти, шахсияти билан боғлиқ жиҳатлардан оз бўлсада хабардор бўлиши керак”[75].

А.Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асари назарий ва илмий жиҳатдан ўрганилган А.Н.Кононов “Маҳбуб ул-қулуб”нинг илмий –танқидий матнини яратди ва нашр эттирди. 1861 йилда Истамбулдаги Франция ҳукуматининг ваколатхонасида таржимон бўлиб ишлаган М.Белен француз тилида нашр этиладиган “Осиё” журналида Навоий ҳаёти ва фаолияти ҳақида хабарлар босиб чиқаради.

“Алишер ўз даврининг буюк ва сермаҳсул ёзувчиларидан бири бўлган”, - деб ёзади буюк бобокалонимиз ҳақида “Француз олими шоирнинг Шарқда машҳур “Маҳбуб ул-қулуб” асарини махсус илмий тадқиқ этади”[76].

Навоий ўз ҳаётида кўрган, кечирган яхши ва ёмон кунлари ҳақида асар муқаддимасида шундай ёзади:

“Гоҳе топдим фалакдин нотавонлиғ,
Гоҳе кўрдим замондин камронлиғ.
Басе иссиғ-совуғ кўрдим замонде,
Басе аччиғ-чучук тоттим жаҳонда”[77]

Навоий мураккаб ҳаёти давомида ўз қарашларини олға суриш учун кўп қийинчиликларни бошдан кечирди. Ўз ҳаётида тўплаган бой тажрибаларини ўзгаларга насиҳат тарзида ёзиб қолдирди. “Маҳбуб ул-қулуб” Кайковуснинг “Қобуснома”, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутудғу билиг”, Носир Хисравнинг “Саодатнома”, “Рўшнойинома”, Саъдий Шерозийнинг “Гулистон” ва “Бўстон”, Абдураҳмон Жомийнинг “Баҳористон” асарларига монанд бир насиҳат, пандлардан иборат асар.

“Маҳбуб ул-қулуб”да Навоий бевосита ўз давридаги деярли барча ижтимоий гуруҳ ва табақаларга таъриф ва тавсия берар экан уларнинг қайси бири яхши ёки ёмон, қайси бири инсонийликка, халққа, мамлакатга фойдали ёки зарарли эканлигини бошқа асарларига қараганда кенгроқ чуқурроқ ва аниқроқ баён этади. Шоир ўз даврининг фарзанди сифатида фикр юритади. Риёкор шайху “кароматлари ҳийла ва найрангдан иборат дин арбобларини аёвсиз танқид қилади, тавба, зуҳд, таваккал, сабр, ризо каби тшунчаларга тухталиб, бу хусусда баъзи панду насиҳатлар беради.

Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асари жаҳон адабиёти тарихидаги энг қимматли дурдоналардан биридир.

“Маҳбуб ул-қулуб” шоирнинг ғоят мазмунли ва сермашаққат ҳаёти давомида тўплаган бой тажрибаси, хулосаларининг йиғиндиси сифатида машҳурдир. Навоийнинг фикр-қарашлари, ахлоқий-фалсафий тушунчалари бу асарда теран акс этган. Шу маънода адабиётшунос олим А.Ҳайитметов таъкидлаганидек, “адабиётшуносликнинг муҳим масалаларидан бири Навоий ижодини унинг даври, ўша давридаги реал-ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёт билан боғлаб ўрганишдир”.[78]

---

[75] Т.Р.Хўжа. Навоийни англаш йўлида. “Тил ва адабиёт таълим” журнали. 2002 йил, 5-сон, 15-бет.
[76] М.Муродиллаева. Барча гўзалликлар ҳомийси. “Маърифат” газетаси. 2003 йил, 19 февраль, 14-сон.
[77] А.Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Тошкент.: “Ғофур Ғулом”нашриёти, 1983 йил, 11-бет.
[78] А.Ҳайитметов. Навоийхонлик суҳбатлари. Т., 1993 йил, 211-бет.

“Маҳбуб ул-қулуб” унда қўйилган масалалар характерига қараб уч қисмга бўлинади. Асарнинг биринчи қисми “Халойиқ аҳволи ва афъоли ва аҳволининг кайфияти”, яъни кишиларнинг аҳволи, феъл-атвори ва гап-сўзларининг аҳамияти ҳақида бўлиб, қирқ фаслдан иборат. Бу қисмда феодал жамиятдаги турли табақаларнинг жамиятда тутган ўрни ва вазифаси ҳақида, ўз бурчига, тўғри ҳалол муносабатда бўлиш кераклиги ҳақида сўз юритилади.

“Маҳбуб ул-қулуб”нинг иккинчи қисми ўн фаслдан иборат: тавба, зуҳд, таваккал, қаноат, сабр, товозе ва одоб, шариат, таважжуҳ (назар солиш), ризо ва ишқдан иборат. Булардан икки боб: тавозе ва одоб ҳамда ишқ бевосита ахлоқ-одоб масалалари ифодалайди, қолган сабр ва қаноат бобларида ҳам ахлоқ-одобга доир баъзи ўринлар бор. Асарнинг учинчи қисми кичик-кичик танбеҳлардан, ҳикоялардан, мақол ва ҳикматли сўзлардан ташкил топган. Севги ва садоқатнинг оташин куйчиси бўлган Навоий “Маҳбуб ул-қулуб”да севги ва садоқат масалаларига катта эътибор беради. У севгини “ахтаредур дурахшанда ва башарият кўзи нури зиёси андин ва гавҳаредур рахшанда, инсоният тожининг зебу баҳоси андин” деб таърифлайди.

Хуллас, “Маҳбуб ул-қулуб” асари – фалсафий ва ахлоқий-таълимий асар бўлиб, унда жамиятдаги барча муҳим масалалар ва барча ижтимоий табақалар ёритилади. Одил подшолар, ҳалол савдогарлар, диёнатли қозилар, хушфеъл табиблар, хушхат котибларни, оламга ризқ сочувчи деҳқонларни улуғлаб мақтаса, жоҳил подшоларни, гуноҳкор вазирларни, яъжуж-маъжуждек бўлган қора черикни, диёнатсиз мансабдорларни, порахўр қозию каззоб мунажжимларни, раҳмсиз мударрису жаллоднинг шогирди монанд саводсиз табибларни қаттиқ қоралайди. Ахлоқий-таълимий масалалар бўйича қимматли ўгитлар, панд-насиҳатлар беради.

Алишер Навоийнинг маънавий меросида бу асарнинг ўрни беқиёс. Шеърият мулкининг султони бўлган Навоийнинг ижодий оламига кириб борганимиз сари шоир тафаккурининг кенглиги, у эътибор бермаган соҳанинг камлигига ишонч ҳосил қиламиз. Инсоният доимо ижтимоий адолат тамойиллари ўрнатилган адолатли жамият қуришни орзу қилиб келган. Мустақиллик учун кураш мақсади ҳам ана шу эзгу ниятни рўёбга чиқаришдир. Алишер Навоий ҳам бутун онгли фаолиятини мазкур умуминсоний мақсадга қаратган эди.

Ўзлигимизни англашда, оила ва ота-онамиз олдидаги бурчларни билишда Аллоҳ ва буюклар олдида, ватанимиз ва миллатимиз, инсоният олдидаги вазифа ва бурчларимизни англашда Алишер Навоий ҳамиша бизга раҳнамо ва мададкор бўлади. улуғ мутафаккирнинг ҳар бир сўзи бизнинг шахсиятимизга, жисмимизга айланиб кетиши керак.

А.Навоий: “Умидим улдурки ва ҳаёлимга андоқ келурки, сўзим мартабасида авждин қуйи энмагай ва бу ёзган асарларимнинг тантанаси аъло даражадан ўзга ерни ёқтирмагай”, - деб ёзганида янглишмаган эди. Навоий орзулари бизнинг замонда рўёбга чиқди. Унинг асарлари қадрланди, уларга юксак баҳо берилди, маънавиятимиз гултожига айланди.

NAVOIY ASARLARIDA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI

Umurtosheva Nafosat Hamdam qizi
NavDU O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabasi

O‘zbek adabiyoti, san’ati va madaniyati tarixida hech kim Navoiychalik chuqur iz qoldirmagan. Shoirning ilmiy, diniy-falsafiy, badiiy asarlari hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Uning qalamiga mansub bo‘lgan “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javohir” singari asarlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.Buyuk jaded mutafakkiri Fitrat Alisher Navoiy haqida shunay degan: *“Navoiy_turk tilining iftixori, uning ijodi esa millatni uyg‘otuvchi bebaho xazina. Uning asarlari faqat she’riyat emas, balki bir butun falsafiy ta’limotdir.”* Bu fikr shundan dalolat beradiki, Navoiy faqat shoir emas , balki millatning ma’naviy va tafakkur yo‘lboshchisi hamdir. Navoiy axloqiy poklik, halollik, adolat, sadoqat, kabi qadriyatlarni o‘z asarlarining asosiy g‘oyalaridan biri sifatida ilgari surgan. “Mahbub ul-qulub”, “Hayrat ul-abror’ kabi asarlarida insoniy fazilatlar ulug‘langan, yomon odatlardan ogohlantirilgan. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘zbek tilining ulug‘ligi va boyligini isbotlab bergan. Bu esa milliy g‘urur va madaniyat merosini asrab-avaylashning muhumligini ko‘rsatadi. Oybek o‘zining “Navoiy “ romanida “*Navoiy turk she’riyat osmonining quyoshi bo‘lib, uning nuri hamon xalqimiz yoritib kelmoqda.”* - degan fikrlarni bildirar ekan ushbu fikrlarda turk nazmida beqiyosligini bildiradi. Navoiyning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi dostonlarida oila muqaddasligi, sevgi va sadoqat qadriyatlari yuksak darajada madh etilgan.

Navoiy o‘z asarlarida inson shaxsini yuksaklarga ko‘taradi, insonparvarlikni, odamiylikni, ezgulikni, xalqparvarlikni ulug‘laydi. Davlatimiz rahbarining “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini ko‘ramiz”, degan da’vati tom ma’noda ulug‘ bobomiz g‘oyalarini yoshlar orasida keng targ‘ib etish vazifasini kun tartibiga qo‘yadi. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans davriga poydevor qo‘yilayotgan hozirgi pallada Navoiy asarlari milliy g‘oya atrofida jipslashishga, milliy ruhning yuksalishiga xizmat qilishi tabiiy. Shoir “Hayrat ul-abror” dostonida “*Naf’ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf’ o‘zingga ko‘prakdurur”,* deb aytadi. Yurtimizdagi yangilanish jarayonlariga daxldorlik hissi bilan yashamoq, bu borada davlatimiz yuritayotgan puxta o‘ylangan siyosatni hayotga tatbiq etishda tashabbuskorlik, avvalo, o‘zimiz, oilamiz manfaatiga xizmat qilishini unutmasligimiz kerak. Shoir yozadi: “*Kim jahon ahlida inson erur, Balki nishoni anga imon erur. Bas ani inson atag‘il beriyo, Kim ishidur sabr ila shukru hayo”. Hazrat demoqchi: “sabr qilishni, shukr qilishni va hayoli bo‘lishni o‘ziga shior qilgan kishini haqiqiy imonli odam deyish mumkin”.* Yana aytadi: *“Xiradmand chin so‘zdin o‘zga demas, Vale borcha chin ham degulik emas”.* Bugun jamiyatimizda, fuqarolarimiz tafakkurida fikr erkinligining to‘g‘ri shakllanishida bu o‘gitlarning ahamiyati beqiyos. Yana bir o‘rinda Navoiy ta’kidlaydi: *“Jahl ahli bila kimgaki*

ulfat bo‘lg‘ay, Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo‘lg‘ay. Faqr ahli bila angaki suhbat bo‘lg‘ay, Shak yo‘qki, ziyoda shukri ne’mat bo‘lg‘ay”. Bu bilan Navoiy insonlarni johil va qora niyatli odamlardan saqlanish, shukronalik hissi bilan yashashga chaqiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Uning asarlari milliy o‘zlikni anglash, madaniyat va ma’naviyatni boyitishda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. G‘afur G‘ulom Navoiy merosini xalq qalbining boyligi deb ta’riflagan:*”Navoiy yuragi xalq yuragi bilan birga uradi, uning g‘amida kuyadi , shodligida quvonadi.”*Shoir targ‘ib qilgan qadriyatlar har bir avlod uchun ibrat va tarbiya darsligi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Xamsa”-Toshekent:Fan,1987.
2. AlisherNavoiy. “Mahbub ul-qulub” Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1983.
3. “Muhokamat ul-lug‘atayn” – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Nashriyoti, 1992
4. “O‘zbek adabiyoti namunalari”- Toshkent:Fan,1928.
5. G‘afur G‘ùlom “Tanlangan asarlar”- Toshkent: Fan,1966.
6. Karimov.I “Alisher Navoiy ma’naviyat merosi va mustaqillik mafkurasi’-Toshkent: O‘zbekiston,19991

ALISHER NAVOIY IJODI MILLIY G‘URUR TIMSOLI

Homiyatova Mavluda Amon qizi
NavDU “Maktabgacha ta’lim kafedrasi” o‘qituvchisi
Esirgapova Yulduz Obid qizi
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Alisher Navoiy – o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodida milliylik etakchi mavzulardan biri hisoblanadi. U o‘z asarlarida milliy qadriyatlar, xalqning urf-odatlari, turmush tarzi va madaniyatini yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirgan. Navoiy o‘zbek tilining naqadar boy va ravon ekanligini isbotlab, turkiy tilda ijod qilish orqali milliy madaniyatni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan. Shuningdek, shoir o‘z davridagi ijtimoiy adolatsizlik, xalqning orzu-umidlari va ma’naviy qadriyatlarini o‘z asarlarida yoritib, milliy o‘zlikni asrash va milliy g‘ururni yuksaltirishga intilgan. Uning asarlarida milliylik faqat til masalasi bilan cheklanmay, balki xalqparvarlik, davlatparvarlik, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘langan.

Kalit so‘zlar. Alisher Navoiy, g‘azallar, tarbiya, ta’lim, o‘zbek tili, milliy qadriyat

Аннотация. Алишер Навои-один из крупнейших деятелей узбекской литературы, в творчестве которого natsionalьность является одной из ведущих тем. В своих произведениях он с высоким художественным мастерством отражал natsionalьные ценности, традиции, быт и культуру народа. Навои доказал, насколько богат и свободен узбекский язык, внес огромный вклад в развитие natsionalьной культуры, создавая произведения на тюркском языке. Поэт также стремился сохранить natsionalьную идентичность и возвысить natsionalьную гордость, освещая в своих произведениях социальную несправедливость своего времени, мечты и духовные ценности народа. В его работах natsionalьность не ограничивается вопросом языка, но тесно связана с такими понятиями, как народность, государственность, патриотизм, просвещение.

Ключевые слова. Алишер Навои, воспитание, образование, узбекский язык, natsionalьные ценности

Annotation. Alisher Navoi is one of the largest figures of Uzbek literature, in whose work nationality is one of the leading themes. In his works, he reflected national values, traditions, way of life and culture of the people with high artistic skill. Navoi proved how rich and free the Uzbek language is, made a huge contribution to the development of national culture by creating works in the Turkic language. The poet also sought to preserve national identity and raise national pride, highlighting in his works the social injustice of his time, the dreams and spiritual values of the people. In his works, nationality is not limited to the issue of language, but is closely related to concepts such as nationality, statehood, patriotism, and enlightenment.

Keywords. Alisher Navoi, upbringing, education, Uzbek language, national values

Alisher Navoiy turkiy tilning imkoniyatlarini ochib berish va milliy madaniyatni rivojlantirish borasida katta xizmat qilgan. U forsiy tilning o‘sha davrdagi hukmronligiga qaramasdan, turkiy tilda ijod qilish orqali o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari turkiy tilning go‘zalligi va boyligini isbotlash bilan birga, milliy tilga hurmat va sadoqat namunasi bo‘ldi.

Ushbu asarda Navoiy turkiy tilning forsiy til bilan teng darajada yuksak badiiy ifoda vositasi ekanligini ta’kidlab, xalqning o‘z tilida ijod qilish va o‘qish huquqini himoya qiladi. Shoirning bu qarashlari milliy ongning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Navoiy ijodida xalq hayoti, urf-odatlari va turmush tarzi keng yoritilgan. Uning dostonlari va nasriy asarlarida oddiy xalqning orzu-umidlari, qadr-qimmati, ma’naviy dunyosi yorqin ifodalangan. Masalan : “Farhod va Shirin” dostonida Farhod obrazi orqali xalqparvarlik, halollik va mehnatsevarlik g‘oyalari ilgari surilgan. Farhodning mehnat qilib, xalq farovonligi uchun kurashishi milliy xarakterning muhim belgilaridan biri sifatida talqin etiladi. Shuningdek, doston qahramonlari o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan urf-odatlar va an’analar bilan tasvirlangan.

“Hayrat ul-abror” dostonida esa xalqning orzu-istaklari, jamiyatdagi adolatsizlik va axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritiladi. Bu asarlarda xalq hayotining turli qirralari ochib berilib, milliylik tamoyili kuchli aks etgan. Navoiy milliy mustaqillik va adolatli jamiyat barpo etish g‘oyalarini ilgari surgan. U davlat rahbarlari va hukmdorlar adolatli bo‘lishi kerakligini uqtiradi.

“Saddi Iskandariy” dostonida Navoiy adolatli boshqaruv va donishmand rahbar obrazini yaratgan. U Iskandar obrazini yaratish orqali davlatni ilm, adolat va donishmandlik bilan boshqarish muhimligini ko‘rsatadi. Bu milliy istiqlol va davlatparvarlik tushunchalarining asarlaridagi aksidir. Bundan tashqari, Navoiy o‘zbek xalqining tarixi va madaniy merosini ulug‘lagan. U asarlarida o‘z xalqining buyuk kelajakka ega ekanligini ifoda etib, milliy g‘ururni shakllantirishga xizmat qilgan. Navoiy ijtimoiy adolat va tenglik g‘oyalarini ilgari surgan. U jamiyatdagi boy va kambag‘allar orasidagi tafovutni, adolatsizlik va mansabparastlikni keskin tanqid qilgan.

“Mahbub ul-qulub” asarida u jamiyatning turli tabaqalari haqida fikr yuritib, yaxshi inson qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi pand-nasihatlarni bayon etgan. Bu asar xalqning ma’naviy yuksalishi va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. U xalq manfaati yo‘lida xizmat qilishni eng oliy fazilat deb bilgan va adolatli jamiyat barpo etish uchun har bir shaxs ma’naviy yuksalishi kerakligini

ta’kidlagan. Uning fikricha, jamiyatning haqiqiy boyligi – xalqning bilimli va axloqiy jihatdan yuksak bo‘lishidir.

Alisher Navoiy asarlari bilan biz bolalikdan boshlab tanishib borishimiz kerak. Ayniqsa qizlarimiz va ayollarimiz Navoiy ijodiga oid asarlar, ruboiy, g‘azallar bilan tanish bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Navoiy asarlarida tarbiya, ta’lim, axloq – odobga doir qimmatli g‘oyalar mujassamlashgan. Navoiyning tarixiy-badiiy asarlarida ijtimoiy faol ayollarni ko‘plab uchratishimiz diqqatga sazovordir. Shoirning Xamsa asaridagi Layli, Mehinbonu, Shirin, Dilorom, Ravshanak kabi xotin-qizlar obrazlari o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilgan va bir necha bor tahlil qilingan. Lekin asarlardagi ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faolligi to ‘g ‘risida manbaalar kam uchraydi. Alisher Navoiyning “Xamsa”, ”Tarixi mulki Ajam” kabi asarlarida ijtimoiy faol bo‘lgan 20 dan ortiq ayollar obrazini uchratishimiz mumkin. Ushbu obrazlar orqali xotin-qizlarning jamiyatda davlatni boshqarishi, ilm olishi, kasb-hunar egallashi, adabiyot va musiqa san’atini sevishi bilan ijtimoiy hayotda faolligidan voqif bo‘lamiz. Ular ijtimoiy hayotda xalq farovonligini o‘ylaydigan, davlat mustaqilligi uchun kurasha oladigan, farzandlarini el-yurt g‘amida fidoyi tarbiyalaydigan hamda ilm-fan sohasida etuk bo‘lgan xotin-qizlar timsolidirlar. Asardagi hukmdor ayollar Sharq odobi, islomiy tarbiya olgan obrazlardir. Sharq xalqlari va islom davlatlarida hukmdor ayollar obrazi kam uchrasada, Navoiy bunday ayollar obrazini yaratib, ularni xalqning ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun kurashuvchi faol shaxs sifatida namoyon etadi.

Alisher Navoiy ijodida milliylikning ifodalanishi keng qamrovli bo‘lib, u til, madaniyat, tarix, xalq hayoti, davlatparvarlik, ijtimoiy adolat va ma’naviy yuksalish kabi jihatlarni qamrab oladi. U turkiy tilni rivojlantirish orqali milliy g‘ururni oshirishga intilgan, xalqning orzu-umidlari va qadriyatlarini asarlarida yuksak badiiy darajada aks ettirgan. Navoiy asarlari bugungi kunda ham milliy ong va ma’naviyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Uning asarlaridan xalq o‘zining tarixiy ildizlarini, madaniy merosini va milliy g‘ururini anglab etadi. Shu bois, Alisher Navoiy ijodi har doim o‘zbek milliy adabiyotining eng muhim tamal toshlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Alisher Navoiy. Hamsa. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983.
4. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
5. Yoqubov H. Alisher Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1978.
6. Saidov A. Navoiy va milliy uyg‘onish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
7. Rashidova R.Sh – Alisher Navoiy ijodida hukmdor ayol siymosi va ijtimoiy hayot. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Toshkent-2023

M U N D A R I J A

So‘z boshi. Kalonov Muxiddin Baxriddinovich - Navoiy davlat universiteti rektori	4-5
Mamadiyarova Malika Tadjiyevna – Навоий вилояти ҳокими ўринбосари, Оила ва хотин-қизлар бошқармаси бошлиғи	6-8
I SHO‘BA: *GLOBALLASHUV SHAROITIDA XOTIN-QIZLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATLARINI YUKSALTIRISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI*	9-160
Tursunova Nasiba Xamroevna **YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY HAYOTDAGI ROLI**	9-11
Нарзикулова Дилноза Ҳошимжоновна **КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ АСОСИДА ОИЛАДА ИЖТИМОИЙ МУНОСАБАТЛАР БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МОДИФИКАЦИОН МЕТОДИКАНИ ЎРНИ**	11-15
Гульшана Худоярова **ВОВЛЕЧЕНИЕ СЕМЬИ В ПРОФИЛАКТИКУ ЗАВИСИМОСТЕЙ**	15-19
А. С. Нурадинов, Б. С. Тусупбекова **ГЕНДЕРНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ КАК ФАКТОР ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ САМОРЕАЛИЗАЦИИ ЖЕНЩИН**	20-23
Раджапова Наталья Базаровна **ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЖЕНСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ**	23-25
Ибрагимова Мусаллам Адизовна **ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТЛАРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЕЧИМИ**	25-29
Юлдошева Муҳаббат Болтаевна **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ШАРҚОНА ҚАДРИЯТЛАР**	29-31
Kasimova Zumrad Rahmatovna **AYOLLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNING SABABLARI VA OQIBATLARI**	32-35
Bobomurodova Anora Yavqochtiyevna **GENDER TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA “OQILA AYOLLAR” HARAKATINING O’RNI**	35-37
Nasirova Shaira Narmuradovna **JAMIYATDA OLIMA AYOLNING O‘RNI**	37-39
Джаббарова М.М. **AYOL VA FARZAND - QIZ BOLA TARBIYASI**	39-41
Жумаева Феруза Рўзиевна **ТАЪЛИМДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК ВА АЁЛЛАРНИНГ ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИДАГИ ЎРНИ**	41-44
Malikova Ayzada Raxmatovna **O`ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIK MASALALARI**	44-47
Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna **YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MULOQOT MADANIYATIDAGI O’ZGARISHLAR: MASAD VA VAZIFALAR**	47-53
Xaydarova Shaxlo Narzullayevna **YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING OILADA VA ILM-FAN**	54-56

TARAQQIYOTIDAGI ROLI	
Аслонова Гулноз Замоновна **ГЕНДЕР СТЕРЕОТИПЛАР РУҲИЙ ЗЎРАВОНЛИККА АЙЛАНМАСИН**	56-59
Истамова Нигора Азимжоновна **ЁШЛАРИМИЗНИНГ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИ ТАҲДИДЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ - ОБОД ТУРМУШ ТАМОЙИЛИ**	59-61
Karimova Mavluda Baxriddinovna **GENDER TENGLIKNING JAMIYATGA TA'SIRI**	62-63
Musaev Islomxon Xodi o'g'li **ISLOMDA AYOL HUQUQLARI: TALQIN VA TAVSIR**	64-67
Xaydarova Shaxlo Narzullayevna, Azimova Gulmira Xayrullayevna **KOMIL INSON TARBIYASIDA ILMU-MA'RIFAT, ODOB-AXLOQ VA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI**	67-69
Ulug'bek Ko'chimov **FANTASTIK ASARLARDA AYOLLAR INTELLEKTINI YUKSALTIRISHNING QIYOSIY-BADIIY TALQINI**	70-73
Shukurova Sevinch Istam qizi, Shodiyeva Gulhayo Xudoynazarovna **GENDER TENGLIKNING JAMIYATDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**	74-76
Xodjayeva Dildora Yusupovna **THE JOURNEY TOWARD GENDER EQUALITY IN ENGLISH-SPEAKING COUNTRIES AND CENTRAL ASIA**	76-79
Xamidova Gulmira Xamidovna **YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA OILANING O'RNI VA MILLIY QADRIYATLARIMIZ AHAMIYATI**	79-83
Muzropova Guljamol Mardonovna **MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA KASHTACHILK SAN`ATINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**	83-90
Niyozova Shoira Toirovna, Sultanov Farrux Fanisovich **DEMOKRATIK DAVLATDA GENDER TENGLIKNING O'RNI**	90-94
Meyliyeva Nafosat Gulomovna, Rabbimova Habiba **O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK SIYOSATI: XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**	95-98
Meyliyeva Nafosat Gulomovna, Ilhomova Shahnoza **YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATIDA AYOLLARNING ROLI: TARIXIY MEROS, ZAMONAVIY TENDENTSIYALAR VA KELAJAK STRATEGIYALARI**	98-102
Yarova Gulhayo Fazliddin qizi, Qodirova E'zoza Bahodir qizi **GENDER TENGLIK: XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONI**	102-104
Bomirzayeva Dilnavoz Ikromovna **GENDER TENGLIK: JAHONDA VA O'ZBEKISTONDA**	104-106
Vosiyeva Aziza To'xtaqulovna, Sulaymonova Nodirabegim Sulton qizi **GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT**	106-109
Raxmonova Diyora O'tkir qizi **YOSHLARNI MILLIYLIGIMIZNI QADRLAY OLADIGAN QILIB TARBIYALASHDA TA'LIM MUASSASALARI, OILA VA MAHALLANING O'RNI**	109-111
Shakarova Aziza Anvarovna **YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK**	111-116
Бахромова Камола Киёмовна **СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ ПО ПОВЫШЕНИЮ ИНТЕЛ-**	116-120

ЛЕКТУАЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	
Севара Тиркашева, Н.Х.Турсунова **ЎЗБЕК ДРАМАТУРГИЯСИДА ХАЛҚ ЎЗБЕК ХАЛҚ ОЛҚИШЛАРИ АСРИЙ ҚАДРИЯТ**	120-121
Aliqulova Dilfuza Otabek qizi **TO‘LIQSIZ OILA MUHITIDA TARBIYALANAYOTGAN BOLALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**	122-125
Doniyorova Go‘zal **THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENHANCING THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF WOMEN IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION**	126-128
Ismatova Sevinch Rustam qizi, Shodiyeva Gulhayo Xudoynazarovna **GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT**	128-130
Iydiboyeva Guljahon Nasrullayevna **GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT MAVZUSIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV**	131-132
Shukurullayeva Laylo **GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY MUNOSABAT**	133-135
Mamadaliyeva Shoxsanam Olimjon qizi **IJTIMOIY HAYOT TARAQQIYOTIDA GENDER TENGLIGINING AHAMIYATI**	136-138
Sidikova Dilrabo Aslamovna **BO’LAJAK ALLOMALAR TARBIYASI JARAYONIDA XARXASHANING O’RNI UNING IJOBIY CVA SALBIY TOMONI VA DAVOSI**	138-141
Dehqonova Hamrogul **DIFFERENCES AND SIMILARITIES OF CASE IN UZBEK AND ENGLISH**	141-143
Nazarboyeva Niginabonu **MODERN SOLUTIONS FOR ENHANCING THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF WOMEN IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION**	144-147
Farmonova Umida **GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT**	147-150
Fayziyeva Rushana Fazliddin qizi **GENDER TENGLIK ASOSIDA AYOLLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**	151-152
Odinayeva Hulkar Jamshidovna **OILA MUHITIDA QIZLAR TARBIYASI. GENDER YONDASHUVLAR**	153-155
Usmonova Shaxlo Anvar qizi **O‘ZBEK MUMTOZ SHOIRALARINING ILMIY MEROSI ASOSIDA XOTIN-QIZLARNI E’TIROF ETILISHI**	155-157
Sharopova Diyora **GLOBALLASHUV SHAROITIDA XOTIN-QIZLARNING INTELEKTUAL SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI**	157-160
II SHO‘BA: *OLIY TA’LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIK ASOSIDA AYOLLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH*	161-179
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Eshmirzayeva Mohichehra Ikrom qizi **OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABA-QIZLARINI IJTIMOIY HIMOYALASHNING ZARURATI**	161-163
Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna **TA’LIM TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING INNOVATSION**	163-167

LOYIHALARDA ISHTIROKINI OSHIRISH	
***Rahmatova Zuhra Aminjon qizi,* S.A.Axmedova** **OLIY TA'LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIK ASOSIDA SPORTCHI TALABA QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI**	167-169
Nurova Rohila Ismoil qizi **OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TEATR PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TALABALAR KASPIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**	170-171
Eshpulatova Aziza Alisherovna **TALABA YIGIT-QIZLARDA REFLEKSIVLIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**	172-174
Rahmatova Zuhra Aminjon qizi, Axmedova Sarvinoz Azatovna **OLIY TA'LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIK ASOSIDA SPORTCHI TALABA QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGI**	175-177
Abdurahmonova Kamola Erkin qizi **OLIY TA'LIMDA O'QIYOTGAN XOTIN-QIZLARNING NUTQIY ETIKETI VA UNING JAMIYATGA TA'SIRI**	175-177
Farmonova Malika **TALABALARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**	177-179
III SHO'BA: *TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING O'Z QOBILIYATLARINI RO'YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI*	**180-236**
Алимова Шахноза Шукуровна **ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ УВЕЛИЧЕНИЯ УЧАСТИЯ ЖЕНЩИН В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И НАУЧНЫХ ИНИЦИАТИВАХ**	180-182
S.A.Axmedova **TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING JISMONIY MADANIYAT VA SPORT SOHASIDAGI QOBILIYATLARINI RO'YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI**	182-186
Eshova Gulrux Tuymurotovna **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING INDIVIDUALLIGIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**	186-189
Эрматова Гулноз Пиримовна **МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА МЕҲНАТСЕВАРЛИКНИ ТАРБИЯЛАШДА АМИР ТЕМУР ЎГИТЛАРИНИНГ ЎРНИ**	189-191
Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna **O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH: ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI**	191-194
Axatova Durdona Aktamovna, *Axatova Xilola Aktamovna* **JADIDLARNING GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BORASIDAGI FAOLIYATLARI**	194-197
Botirova Sabogul Rahmatullayevna YOSHLARNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGI KONSEPSIYASI	197-199
Yandashova Ruxshona **ENHANCING WOMEN'S SOCIAL ENGAGEMENT IN HIGHER EDUCATION BASED ON GENDER EQUALITY**	199-202
Raxmonova Dilovar Ostanaqulovna **BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING TIBBIY-ILMIY**	202-205

KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI	
Umida Murodullayeva, Nasiba Tursunova **OILA QURISHNING QONUNIYATLARI OILA QURISHNING UMUMINSONIY QADRIYRTLARI**	205-207
Nabiyeva Negina Dilshod qizi, Boboqulova Gulshoda Komiljon qizi, Ostanaqulova Nozima Vohid qizi **TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING O'Z QOBILIYATLARINI RO'YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI**	207-210
Mamadiyeva Navbahor, Yuldasheva Malika **TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING O'Z QOBILIYATLARINI RO'YOBGA CHIQARISH IMKONIYATLARI**	210-212
Yunusova Xolidaxon To'lqinjon qizi **TA'LIM MENEJMENTIDA GENDER STEREOTIPLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI**	212-215
Ismatova Dilorom Hotam qizi **YANGI O'ZBEKISTONDA YANGI BOLALAR TURIZMI. "VIRTUAL HAQIQAT- NOODATIY SAYOHAT"**	215-217
Bobojonova Zuxra Farxod qizi **TEMURIY MALIKALARNING HUKMDORLAR HATYOTIDAGI O'RNI**	217-219
Gayibova Farida Nasritdin qizi **"ONA LOCHIN VIDOSI" ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI TALQINI**	219-222
Sharopova Hilola Dusham qizi **O'QUVCHI-YOSHLARNI GENDER XUSUSIYATLARNI HISOBGA OLISH KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH MUAMMOSI**	222-225
Mardonova Xonzoda Anvar qizi **KARIMBEK KAMIY SHE'RIYATIDA YOR VASFI**	225-227
Nurmatova Aziza **THE OPPORTUNITIES FOR WOMEN TO REALIZE THEIR POTENTIAL IN THE MODERNIZATION OF THE EDUCATION SYSTEM**	227-230
Ashrapova Alina **COMPARISON OF FEMALE CHARACTERS IN RUSSIAN AND ENGLISH LITERATURE (BASED ON THE WORKS OF F.M.DOSTOEVSKY AND JANE AUSTEN)**	231-234
Umrzoqova Nafisa Sodiqjon qizi **TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI**	234-236
IV SHO'BA: NAVOIY ASARLARIDA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI	**237-274**
Xudoyorova Munira **OILADA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY SHAXSIYATI VA ASARLARINING O'RNI**	237-241
Nuritdinova Ra'no Sevdiyevna **ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI ANTROPONIMIK TERMINLARNING USLUBIY XUSUSIYATI**	241-244
Salima Jumayeva **ALISHER NAVOIY IJODIDA AYOLLAR OBRAZINING TIMSOLIY TALQINLARI**	245-249
Normurod Avazov **BEHBUDIY IJODIDA XOTIN – QIZLAR MASALALARI TALQINI**	250-254
Ismoilova Sevinch Shavkatjon qizi, *Yugay Yevgeniya Viktorovna* **ALISHER NAVOIY ASARLARINING MASHHURLIGI VA ULARNING KO'P TILLARGA TARJIMA QILINISHI**	255-258

Hasanova Xurshidabonu Baxtiyarovna **ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR TALQINI**	258-261
Sattorova Muborak Raxmatovna **ALISHER NAVOIY IJODIDA NOTIQLIK SAN'ATIGA OID QARASHLAR**	261-263
Ibragimova Maftuna Lutfulla qizi, Murodova Nigora Muzaffar qizi **ALISHER NAVOIY ASARLARI-MILLIY QADRIYATIMIZ TIMSOLI**	263-264
Axmedova Maftuna Faxriddinovna **NAVOIY ASARLARIGA BAG'ISHLANGAN LUG'ATLARNING TALQINI**	265-267
Л.Аллаева **"МАҲБУБ УЛ-ҚУЛУБ"АСАРИДА ЭНГ ҚИММАТЛИ ПАНДНОМА ҚАДРИЯТЛАР**	267-270
Umurtosheva Nafosat Hamdam qizi **NAVOIY ASARLARIDA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI**	270-271
Homiyatova Mavluda Amon qizi, Esirgapova Yulduz Obid qizi **ALISHER NAVOIY IJODI MILLIY G'URUR TIMSOLI**	271-274

“GENDER TENGLIK VA IJTIMOIY TARAQQIYOT”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari to‘plami
14-mart, 2025-yil. *Navoiy shahri*

Tashkiliy qo‘mita raisi: *Navoiy davlat universiteti rektori, i.f.d., professor M.B.Kalonov*

Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari: *Navoiy viloyati hokimi o‘rinbosari M.T.Mamadiyorova*

Tashkiliy qo‘mita a’zolari: *Nav.DU birinchi prorektori: B.B.Bobonazarov*
Nav.DU prorektori b.f.n., dots. S.O.Xo‘jjiyev
Nav.DU prorektori p.f.d., prof. D.H.Narzikulova
Nav.DU Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, f.f.f.d (PhD), dots. N.X.Tursunova

Mas’ul muharrirlar: *f.f.f.d. (PhD), dots. N.X.Tursunova*
g.f.f.d. (PhD), dots. N.J.Muxammedova

Tahrir hay’ati: *t.f.d., prof. Sh.N. Nasirova*
f.f.n., dots. S.Jumayeva
g.f.f.d. (PhD), dots. N.J.Muxammedova

Texnik muharrir(lar): *g.f.f.d. (PhD), dots. N.J.Muxammedova*
NavDU magistri G.Z.Aslonova

Kompyuterda tayyorlovchi: *g.f.f.d. (PhD), dots. N.J.Muxammedova*

Ma’ruzalar tezisi mazmuniga tashkiliy qo‘mita javobgar emas.

Terishga berildi: 10.03.2025
Bosishga ruxsat berildi: 14.03.2025
Bichimi: 60x84/1.8
“Times New Roman” garniturasi.
Ofset qog‘ozi. Ofset bosma usulida bosildi.
Hajmi 34,6 bosma taboq. Shartli bosma T. 4,8
Adadi 100 nusxa
“Book house” xususiy korxonasi matbaa bo‘limida chop etildi.